

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI,
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI,
O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN‘AT VA MADANIYAT INSTITUTI**

DAVLATOV S. X, NOSIROV O‘, BERDIYEVA Z. SH., O‘ROZOV A. N.

KUTUBXONASHUNOSLIK

(O‘QUV QO‘LLANMA)

Toshkent – 2020

Annotatsiya

O'quv qo'llanmaning maqsadi foydalanuvchilarning axborotga, ma'lumotga turli bilimlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida kutubxona-axborot muassasalari fondida saqlanayotgan turli manbalardan foydalanishni tashkil qilishning umumiy tamoyillari va qonuniyatlarini tushuntirishdan iboratdir.

O'quv qo'llanmada "Kutubxonashunoslik" fani dasturiga muvofiq kutubxonashunoslikning nazariy masalalari O'zbekistonda kutubxonachilik ishi tarixi xorijiy mamlakatlarda kutubxonachilik ishi muayyan mantiqiy izchillikda yoritildi.

Uning asosiy vazifasi kutubxonachilik ishi bo'lajak mutaxassislarini fanning umumnazariy masalalari, tarixi, bugungi holati bilan tanishtirish va tahlil eta bilishga o'rgatishdir.

O'quv-qo'llanma kutubxona-axborot faoliyati (kutubxonachilik va bibliografiya) ta'lim yo'nalishi talabalari va o'quvchilari, kutubxonachi-amaliyotchilar uchun mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

T. D. Boyto'rayev "Kutubxona fondlari va bibliografiyashunoslik" kafedrasining dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi. dotsent

Teshaboyeva U. A. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi direktori

Davlatov S. X., Nosirov O'.. Berdiyeva Z. SH., O'rozov A. N. ,” Kutubxonashunoslik”
/Kutubxona-axborot faoliyati ta'lim yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma

Mas'ul muharrir: Yuldashev I. J. Toshkent.: “ ” 2020 y. 391 b.

Kirish

Mamlakatimizda axborot asrida yuz berayotgan o'zgarishlar, kishilarimizning dunyo axborot olamiga kirishga bo'lgan intilishlari, qiziqish va talablarining tobora ortib borishi ta'sirida milliy axborotlashtirish tizimini shakllantirish, axborotga bo'lgan talab va ehtiyojlarni qondirish jarayonini sifat jihatidan yanada takomillashtirish borasida davlatimizning bir qator qonuniy hujjatlari e'lon qilindi va hayotga tatbiq etildi. Bular: O'zbekiston Respublikasining "Axborot- kutubxona faoliyati to'g'risida", "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonunlari;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 11 avgustdagi " Matbuot va axborot sohasida boshqaruvni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi, 2018 yil 19 fevraldagi " Axborot texnologiyalari va kommunikasiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, "O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 2019 yil 7 iyundagi karori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 23 fevraldagi " 2011-2015 yillarda axborot-kommunikasiya texnologiyalari negizida kutubxona - axborot va axborot-resurs xizmatlari ko'rsatishni sifat jihatidan yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2012 yil 20 martdagi" Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi- axborot resurs markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2012 yil 21 martdagi "Zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017 yil 13 sentabrdagi "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va foydalanuvchilik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora- tadbirlar dasturi to'g'rsida"gi, 2019 yil 2 fevraldagi " O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikasiyalar agentligi faoliyatini tashkil etish tuo'risida"gi qarorlaridir.

Kutubxonachilik ishi sohasini tubdan o'zgartirishga asos bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019 yil 7 iyunda qabul qilingan " O'zbekiston Respublikasi aholisiga kutubxona - axborot xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish

to'g'risida"gi PQ-4354-sonli Qarorida axoliga kutubxona-axborot xizmati ko'rsatishni sifat jihatidan yanada rivojlantirish maqsadida axborot-kommunikasiya texnologiyalarining rivojlanishi va zamonaviy umumjahon tendensiyalarini hisobga olgan holda kutubxona-axborot faoliyatini tubdan isloh qilish, mavjud meyoriy xuquqiy bazani takomillashtirish, sohaning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, davlat-xususiy sheriklikni, xususiy va elektron (virtual) kutubxona tarmog'ini rivojlantirish, fondlarning yaxshi saqlanishini ta'minlash, tariximiz va milliy madaniyatimizga qiziqishni shakllantirish va kuchaytirish, mutolaa madaniyatini, axborot madaniyatini oshirish va targ'ib qilish asosiy vazifalar sifatida belgilab berildi. Bundan tashqari, foydalanuvchilarga kutubxona-axborot xizmati ko'rsatishda sifat jihatidan yangi va qulay shart-sharoitlar yaratish, zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ularning ilmiy, ta'lim, axborot va madaniy ehtiyojlarining qondirilishiga asosiy e'tiborni qaratish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga ijtimoiy moslashuv va reabilitasiya, mustaqil ta'lim olish va muloqot doirasini kengaytirish vositasi sifatida axborotdan foydalanish imkoniyatini yaratish, foydalanuvchilarga an'anaviy xizmat ko'rsatish usulidan ularni zamonaviy kutubxona-axborot xizmatlari bilan ta'minlashga o'tish, kutubxona-axborot muassasalarini malakali kadrlar bilan ta'minlash, xizmat ko'rsatishning yangi, shu jumladan, pulli turlarini joriy etish va rivojlantirish, sohada ilmiy-tadqiqot va uslubiy faoliyatni rivojlantirish, boshqarishni muvofiqlashtirish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va jahon kutubxona-axborot faoliyati hamjamiyatiga kirish ham dolzarb masalalar sifatida alohida ta'kidlab o'tildi.

Belgilab berilgan vazifalarni bajarish professional bilimga ega, yuqori malakali va intellektual salohiyatli kadrlarni talab etadi. Kutubxona-axborot muassasalarida kishilar bilan, turli xil adabiyotlar bilan ishlay oladigan, kitob mutolaasini tashkil eta oladigan, ruhiy jihatdan mutolaaga rahbarlik qila oladigan, har bir foydalanuvchiga, aholining har bir qatlamiga pedagogik va psixologik nuqtai nazardan yondosha oladigan, serqirra bilimga ega bo'lgan xodimlar zarur bo'ladi. Bunday bilim va qobiliyat sohaga oid nazariy bilimlarni va amaliy ko'nikmalarni egallash bilan amalga oshadi.

Ushbu qo'llanma avval yaratilgan professor O.G'.Qosimova va T.B.Yesimovning "Umumiy kutubxonashunoslik", A.Alimovanning "Kutubxonashunoslik" kabi o'quv

qo‘llanmalarini tanqidiy-tahliliy o‘rganish va sohamizdagi o‘zgarishlarni, yangiliklarni, zamon talablarini hisobga olgan holda qaytadan yaratildi.

I Bob. Kutubxonashunoslik fani rivojlanishining asosiy bosqichlari

Kutubxonashunoslik fani ilmiy nazariy yo‘nalish sifatida kelib chiqishi va rivojlanishning o‘ziga xosligiga egadir. Ushbu fanni o‘rganish tarixiy yondashuvni talab qiladi va bunga kutubxonashunoslikning paydo bo‘lishi va rivojlanishining asosiy bosqichlarini o‘rganish, taxminlardan ilmiy asoslangan bilimlarga o‘tish, rivojlanishning istiqboldagi yo‘nalishlarini belgilash imkonini beradi. Kutubxonashunoslik fanining jahon miqyosidagi rivojlanish tarixi yetarlicha o‘rganilmagan. Rossiyadagi tashqari, xorijiy mamlakatlarda ushbu yo‘nalishni o‘rganish ma’lum darajada e’tibordan chetda qolgan. Kutubxonashunoslik yo‘nalishining ba’zi masalalari Rossiyalik olimlar N.S.Kartashov, V.V.Skvorsovning “Obsheye bibliotekovedeniye” (“Umumiy kutubxonashunoslik”) Moskva, 1996. va R.S.Motulskiyning “Obsheye bibliotekovedeniye” (“Umumiy kutubxonashunoslik”) Moskva, 2004. va hammualliflikdagi “Obsheye bibliotekovedeniye” (“Umumiy kutubxonashunoslik”), Moskva, 2013. o‘quv qo‘llanmalarida yoritilgan. O‘zbekistonda milliy kutubxonashunoslik fani rivojlanishining umumiy tavsifi O.G‘.Qosimova va T.B.Yesimovning “Umumiy kutubxonashunoslik” (Toshkent, 1994) o‘quv darsligida berilgan va tahlil qilingan. Bundan tashqari mamlakatimizda M.M.Rasulov va Z.X.Abdaliyevalarning “O‘zbekistonda kutubxonachilik ishining hozirgi holati va muammolari” Toshkent, 1997. A.I.Kormilisin, M.M.Rasulov, S.X.Davlatovlarning “Kutubxonashunoslik ishining nazariyasi va tarixi” Toshkent, 2003. E.O.Axunjanovning “Vatan kutubxonachiligi tarixi” I qism Toshkent, 2004. II qism Toshkent 2008. S.X.Davlatovning “Kutubxonachilik ishi tarixi” Toshkent, 2006. kabi o‘quv qo‘llanmalari nashr qilingan.

Jahon kutubxonashunosligi fanining tarixi ikki bosqichga bo‘linadi, bu bosqichlar esa o‘z navbatida davrlarga bo‘linadi.

Jahon kutubxonashunoslik fanining umumiy davriyligi:

1. Kutubxonashunoslikka oid tafakkur bosqichlari.
 - 1.1. Kutubxonashunoslikka oid qadimgi fikrlar.
 - 1.2. Kutubxonashunoslikka oid o‘rta asrlardagi fikrlar.
2. Kutubxonashunoslikning ilmiy va o‘quv fani sifatida shakllanishi va rivojlanishi bosqichlari.
 - 2.1. Kutubxonashunoslikning paydo bo‘lishi va rivojlanishi davri.(XIX asr)
 - 2.2. XX asrda kutubxonashunoslikning rivojlanishi.
 - 2.3. Umuminsoniy qadriyatlarga tayangan metodologiya asosida kutubxonashunoslikning bir butun fan sifatida rivojlanish istiqbollari. (XXI asr)

1.1 Kutubxonashunoslikka oid ilk qarashlarning shakllanishi

Qadimgi zamonda hozirgi O‘zbekiston hududida turkiy tillarda va eron tillarida so‘zlashib, bir-birlari bilan yaqindan aloqada bo‘lgan hamda rivojlangan, o‘ziga xos madaniyat bunyod etgan elatlar yashar edi. Ularning bir-birlari bilan qo‘shilib, chatishib ketishi taxminan X asrga kelib o‘zbek elatining tashkil topishiga olib kelgan. Natijada bu elat tilida adabiy asarlar paydo bo‘la boshlagan. Tarixiy yodgorliklar bu davrdan ilgari ham podsholar va kohinlarning xazinalarida diniy, tarixiy va adabiy mazmundagi qo‘lyozmalar to‘planganligini va saqlanganligini aniqlashga imkon beradi. Quldorlik davlatlari mavjud bo‘lgan davrda bu xazinalarda qo‘lyozmalar majmualari, madaniy boyliklar saqlanadigan maxsus omborxonalar vujudga kela boshlaydi.

O‘zbekistondagi arxeologik topilmalar bu yerlik xalqlar qadimgi zamonda harfiy yozuvga ega bo‘lganliklarini, bu yozuv G‘arbiy Osiyoda paydo bo‘lib, savdo karvonlari orqali bu yerga olib kelinganligini ko‘rsatadi. Xorazmda eramizdan oldingi IV-III asrga oid Qo‘yqirilgan qal’a shahri vayronalarini qazish vaqtida qadimgi Xorazm yozuvining namunasi topilgan; mazkur yozuv oromiy yozuvi asosida tuzilgan bo‘lib, u harfda ifodalanar edi. Boshqa topilmalar ham O‘rta Osiyoda yozuvning keng tarqalganligidan dalolat beradi. Masalan, Tuproq qal’ani qazish vaqtida butun boshli arxiv qoldiqlari – charm va yog‘ochga bitilgan yuzdan ortiq hujjat topilganki, ular Kushon podsholigi davriga taalluqlidir (eramizning I-III asrlari). Aftidan, bu davrda so‘g‘d yozuvi rasm bo‘lgan, u ham oromiy yozuviga asoslangan edi. Qadimgi manbalarga ko‘ra, O‘rta Osiyoda (IV-V asrlar) anchagina o‘qimishli kishilar bo‘lgan, ular kalendarlar tuzishgan, bolalarni yozishga va hisob ishlariga o‘rgatishgan. Biroq O‘zbekiston xalqlarining qadimgi yozma yodgorliklari deyarli saqlanib qolmagan, ulardan ko‘plari arablar bosib olgan davrda (VII- IX asrlarda) nobud bo‘lgan. So‘g‘d va Xorazmning arab xalifaligi tomonidan qo‘yilgan noiblari kitoblarni va ularni saqlovchilarni yo‘q qilib tashlaganligi haqida birinchi bo‘lib Abu Rayhon Beruniy (972-1046 yillar) ma’lumot beradi. Arab halifaligining viloyatlaridan biriga aylanib qolgan O‘rta Osiyoda boy milliy madaniyatning qaytadan vujudga kelishi uchun anchagina vaqt kerak bo‘ldi.

IX-X asrlarda O‘rta Osiyoda savdo-sotiq va hunarmandchilikning avj olishi natijasida madaniyat ham rivoj topadi, bu madaniyat ko‘p jihatlardan G‘arbiy Yevropa madaniyatidan o‘zib ketadi. Arab halifaligining hamma chekka joylaridan Mavorounnahrda olimlar, shoirlar, rassomlar kela boshlaydilar, chunki bu yerda ilm-fan va san’at bilan shug‘ullanish uchun qulay sharoit vujudga kelgan edi. Mavorounnahrning yirik shahri bo‘lgan Buxoro ilm-fan va madaniyat markaziga aylandi. Samarqand, Marv, Urganch shaharlari ham taraqqiy etdi.

Halifalikning O'rta Osiyoga qarashli bir qancha shaharlaridagi saroylar huzurida o'qimishli hukmdorlar homiyligida boy kutubxonalar barpo etiladi.

Somoniylar davlatining poytaxti bo'lgan Buxoroda ko'p kutubxonalar va kitob bozorlarining bo'lishi, ilmiy (dunyoviy) bilimlarning yoyilishiga imkon berdi. Ma'lumki, Abu Ali Ibn Sino faylasuf Abu Nasr Forobiyning o'ziga zarur bo'lgan asarini Buxoro bozoridagi kitob do'konidan topganligi xarakterlidir, bu asarda yunon olimi Aristotelning qarashlari sharhlab berilgan edi. Ilgari saroylar va madrasalarda saqlanib kelgan qo'lyozmalar bu davrda asta-sekin kutubxonalarda to'plana boshlaydi. Ayni vaqtda qo'lyozmalarni xillarga ajratish usullari ishlab chiqiladi, bu ish IX-X asrlarga kelib ancha yuqori darajaga ko'tariladi.

Buxoro amiri saroyidagi kutubxona ayniqsa mashhur edi. Buyuk olim Abu Ali ibn Sino yoshlik chog'ida ana shu kutubxonadan foydalangan va o'z tarjimai holida shuni eslab o'tgan. Hikoya qilishlaricha, Buxoro amiri Nuh ibn Mansur og'ir bir dardga duchor bo'ladi. Tabobat ilmida endigina shuhrat qozonayotgan yosh ibn Sino amirni bu darddan xalos qiladi. Bir o'limdan omon qolgan amir ibn Sinoga "Tila tilagingni!" deydi. Boshqa odam bo'lganda, ehtimol, amirdan katta boylik so'ragan bo'lardi, albatta. Lekin ibn Sino undaylardan emasdi. U amirlikning turli tuman kitoblarga boy kutubxonasidan foydalanishga ruxsat berilishini so'raydi, xolos. Olimning kitobga bu qadar chanqoqligiga nihoyatda qoyil qolgan ibn Mansur uning bu istagini bajo keltirishga farmon beradi.

"Men kirgan uyning xonalaridan birida, - deb yozadi ibn Sino,- arabcha she'riy kitoblar, ikkinchisida fiqh ilmiga oid kitoblar bor edi... Eski mualliflar yozgan kitoblar ro'yxatini ko'zdan kechirib, kerakli kitobni so'radim. Men shunday kitoblarni ko'rdimki, ko'pchilik kishilar hatto ularning sarlavhasini ham eshitmagan. O'sha paytgacha ham, o'shandan keyin ham xech qachon men bunchalik ko'p kitobni ko'rmagandim. Bu kitoblarni o'qib chiqib zo'r manfaat topdim". Lekin bu kutubxona yong'in tufayli vayron bo'lgan. Buxoroda saroy kutubxonalaridan tashqari bir qancha madrasalarda ham kutubxonalar bo'lgan. Chunonchi, Buxorodagi Farajek madrasasi to'g'risida 937 yilga oid manbada eslatib o'tiladi. Bu madrasada kattagina kutubxona bo'lib, unda juda ko'p qimmatbaho qo'lyozmalar saqlangan. Akademik V. V. Bartoldning fikricha, Farajek madrasasi Yaqin Sharqdagi madrasalarning eng qadimiysidir.

XI-XII asrlarda O'rta Osiyo xalqlarining madaniy turmushida ro'y bergan yangi hodisalardan biri davlat arxivlari va kutubxonalarning barpo etilishi bo'ldi. Bu davrdagi kutubxonalar haqida mufassal ma'lumotlar saqlanib qolgan. G'aznaviylar davrida Xorazm, Ray, Hamadon, Isfaxon singari yirik shaharlarning kutubxonalari Hurosondagi barcha iste'dodli va o'qimishli kishilarni o'ziga tortuvchi markazlar bo'lib qolgan edi, deb yozadi akademik A. A. Semyonov. Mo'g'ullar istilyosi arafasida Marvda o'nta juda yirik kutubxona bo'lgan. Ulardan biri bo'lgan Aziziya madrasasi huzuridagi kutubxonada 12 ming jildga yaqin kitob bor edi. Bu kutubxonada Beruniyning 30 dan

ortiq ilmiy risolasi saqlangan. Urganchda Shahobiddin Xivakiy kutubxonasi mashhur hisoblangan. O'rta Osiyoning juda ko'p yirik shaharlaridagi masjid va madrasalar huzurida ham kutubxonalar bo'lgan.

Kutubxonalarning paydo bo'lishi va ko'payib borishi bilan birga mavjud kitoblarni saqlash, sohalarga ajratish, mualliflar va asarlar nomlarini tasvirlash, ro'yxatlarini keltirish, kataloglarini tuzish bilan bog'liq holda kutubxonashunoslikka oid dastlabki fikrlar ham shakllana boshladi.

Ayniqsa X asrlardan boshlab saroy kutubxonalarida adabiyotlar ro'yxatini tuzish, ularni fan sohalariga ajratish, mehnatning taqsimlanishi jarayonlari yuz bera boshladi. G'arb mamlakatlarida foydalanish ta'qiqlangan "yeretik" adabiyotlar ro'yxatini tuzish, unga amal qilishni nazorat qilish keng avj olgan. Kitob nashr etish ishining yo'lga qo'yilishi bilan kutubxonachilik ishini yo'lga qo'yish haqidagi dastlabki nashrlar ham paydo bo'la boshladi. Shunday nashrlardan biri Gabriyel Node (1627 y) Fransiyaning "Kutubxonani tashkil etish bo'yicha maslahat kitobi hisoblanadi".

Fransiyadagi revolyusiya davrida (1789-1794 yillar) kutubxonalarga fuqarolar uchun maktab sifatida qaralib, maktab va maktabdan tashqari ta'limni rivojlanishiga alohida e'tibor berilishi natijasida kutubxonashunoslik fanida ham sezilarli rivojlanish yuz bera boshladi. Jamoatchilik kutubxonalari, maxsus kutubxonalar haqidagi g'oyalar paydo bo'ldi va amalga oshirila boshlandi.

XVIII asr oxiri–XIX asr boshlarida jahonda kutubxonashunoslik fanining rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yetilib borish natijasida yetarli darajadagi tajriba to'plandi, muayyan g'oyalarni amalga oshirish uchun asoslar paydo bo'la boshladi.

1.2. Kutubxonashunoslikning ilmiy va o'quv fani sifatida paydo bo'lishi hamda rivojlanishi (XIX asr)

XIX asrning birinchi yarmida nemis kutubxonashunosi M. Shretgingarning "Kutubxonashunoslik bo'yicha qo'llanma" kitobida "kutubxonashunoslik" termini ishlatilgan bulib, muallif birinchilardan bulib, uning ta'rifini, tushunchasini beradi va shundan keyin u fan sifatida G'arb mamlakatlarida tarkib topa boshlaydi. Kutubxonashunoslik dastlab yuzaki texnikaviy fan tarzida rivojlanib, kutubxona fondini to'ldirish va tashkil etish, kutubxonalar uchun binolar qurish va ularning ichki kurinishini bezatish, matbuot asarlari bilan ishlash uchun eng kup qulaylik yaratish, foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish masalalarini ishlab chisish bilan shugullandi. Biroq kutubxonalar doimiy ravishda ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lgan muassasa xususiyatini kasb eta bordi. Asta-sekin kutubxonalardan aholining keng qatlamlari foydalana boshladi. Bu jihat kutubxonachilik faoliyati mohiyatini bayon qilib beradigan, uning ayrim yunalishlarini batafsil tahlil qiladigan asarlarning paydo bulishiga yordam berdi. Kutubxonalarning ijtimoiy roli, ularning jamiyatdagi urni masalasiga sadimgi

zamonlardanoq katta ahamiyat berilganligi ma'lum. Qadimgi hett kutubxonachilari kitoblarni joylashtirish va saqlash ilmini vujudga keltirgan bo'lsalar, Kadimgi Misrda kutubxonalar ta'lim maskani sifatida e'zozlanib, kutubxona peshtoqiga "Qalb darmonxonasi" deb yozib quyilgan. XVI asr G'arb ijtimoiy-siyosiy reformistik oqimi boshlislaridan biri, Vgtenberg universiteti professori **Martin Lyuter** (1483—1546) insonparvarlik, reformasiya kutubxonalarni monastir devoridan tashqariga, yorug'likka chiqaradi, deb ishondi. Shaharlarning taraqqiyoti, ular farovonligining kafili — ma'lumotli, halol, tarbiyali fuqarolarga bog'liqdir, aynan shunday kishilargina aql xazinalarini to'playdilar va ularni ishlata oladilar deb umid qildi. Shu sababli shaharlarda kutubxonalar ochish uchun kerakli mablag'larni ayamaslik zarur deb hisobladi. Fransuz burjua revolyusiyasi arafasida fransuz qomusiy olimlari kutubxonalarning yangi sifatlarini ochib berdilar, ularni jamiyatga zarur muassasa sifatida ta'riflab, kitoblarning feodal munosabatlarga qarshi kurashdagi qudratli rolini ko'rsatishdi. Jumladan, Deni Didro (1713—1784) va Jan Peron d'Alambening (1717—1783) kup tomli "Fan, san'at va bilimning izohli lug'ati yoki qomusi"da kutubxonalarga qator maqolalar bag'ishlangan edi. Fransuz burjua revolyusiyasining yirik arbobi, Konvent va Ta'sis majlisining madaniyat buyicha deputati **Anri Greguar** (1750—1835) kutubxonaning jamiyatdagi urnini tubdan o'zgartirish, ya'ni kutubxonalardan barcha xohlovchilarga foydalanishga imkon yaratish haqida gapirib, ommaviy kutubxonalarni "inson ongining ustaxonasi" deb atadi. A. Greguar Konventning kutubxonachilik sekiyasiga rahbarlik qilar ekan, yangi kutubxonalar ochish, avvalgilarini qayta tashkil etish yuli bilan kutubxonalarni ommalashtirish ishlariga bosh-qosh bo'ldi.

XIX asr G'arbiy Yevropadagi yetakchi mamlakatlarda ilmiy, madaniy-ma'rifiy muassasalarning yagona tipi shakllangan bir davr buldi. Turli mamlakatlarda kutubxonalarni ilmiy — saralangan, imtiyozli kishilar uchun va keng omma uchun xizmat qiladigan turlarga ajratish taomili tarkib topgan edi. Bu davrda jamiyat ehtiyoji uchun kutubxonachilik qurslaridan samarali foydalanishni tashkil etuvchi davlatning bosh kutubxonasi bo'lgan milliy kutubxonalar ancha keng rivojlandi va takomillashdi. Shulardan biri — Britaniya muzey kutubxonasi bulib, u mashhur ingliz kutubxonashunosi **Antonio Ponissining** (1797—1879) sermazmun faoliyati tufayli jahondagi eng yaxshi kutubxonalardan biriga aylandi.

Angliyada ta'qibdan yashirinib yurgan italiyalik korbonariy (XIX asr boshida chet elliklar hukmronligiga qarshi Italiya mustaqilligi uchun kurashgan tashkilot a'zosi) A. Ponissi Britaniya muzey kutubxonasida dastavval foydalanuvchi sifatida paydo bo'ldi, so'ngra, 1831 yildan kutubxonachi, 1837—1856- yillar mobaynida bosma nashrlar bo'limi saqlovchisi, 1856 yildan esa uning direktori buldi. Iste'dodli, serharakat tashkilotchi va mehnatkash A. Ponissi kutubxonaning shuhratini oshirish uchun ko'p xizmat qildi. Uning faoliyati davrida kutubxona fondi 150—200 ming nusxadan 1 mln. nashrgacha ko'paydi. U1857 yilda ochilgan mashhur aylanma o'quv zali va uni o'rab

olgan asosiy kitob saqlash xonalarini loyihalashtirish va uning qurilishida qatnashdi. A. Ponissi yangi katalog tuzishga yordam berdi, kollektiv avtor bo'yicha tavsiflash qoidasini ishlab chiqdi, alifboli katalogning hozirda ham amal qilayotgan ikki asosiy vazifasini ta'riflab berdi: 1) kitobning kutubxonada bor-yuqligiga javob berish va 2) bitta muallif asarlarini bir joyga to'plash. A. Ponissi fondni to'ldirishga ajratiladigan mablag'ning ko'paytirilishiga erishdi, majburiy nusxaning kelib tushishini tartibga soldi, yangi olingan nashrlarni muntazam va majburiy hisobga olishni joriy etdi, xodimlar maoshining oshishiga erishdi. U ilmiy kutubxonalar fondini jahonda chiqayotgan barcha adabiyotlar bilan mumkin qadar to'la to'ldirish g'oyasini ilgari surdi. A. Ponissining "Britaniya muzeyi parlament komissiyasi ma'ruzasi"da xalq kutubxonalarining kitoblardan foydalanish markazi sifatidagi ahamiyati ishonarli tarzda isbotlab berilgan edi. 1877 yilda Londonda o'tgan I Xalqaro kutubxonachilik ishi buyicha konferensiyada Britaniya muzeyi kutubxonasi saqlovchisi prof. D. U. Djons so'zlagan nutqida g'oyalar va amaliy tajribalarni almashish kengayayotgan yangi davrda "Xalq kutubxonalari otasi" bo'lmish A. Ponissining faoliyati ko'plab boshqa mamlakatlar kutubxonachilari uchun katta ahamiyatga ega bo'lib qoladi deb ta'kidlagan edi. Bu uning ijodiga berilgan katta baho bulib, uning jahon kutubxonachilari tomonidan tan olinishi edi.

Germaniyada ommaviy kutubxonalarining tashkilotchilaridan bo'lib K. Preysker, A. Buxgols, E. Shulselarning xizmati kattadir. Ular foydalanuvchilarni nafaqat badiiy, balki umumta'lim xarakteridagi ilmiy nashrlar bilan ham ta'minlash zarur deb hisoblashdi. Germaniyadagi kutubxonachilik qurilishinng yangi yunalishini, shahar kutubxonalarini tashkil etish **Volter Gofmanga (1879— 1952)** nasib buldi. U kutubxonachilik ishida uqish psixologiyasini o'rganishni boshlab bergan olimdir. Jumladan, u foydalanuvchilar bilan yakka tartibda ishlashning mazmuni kutubxonaning butun tuzilishi (fondi, katalogi va hokazolar)ni belgilab berishi zarur deb hisoblagan edi. A. Buxgols, P. Ladevich, V. Gofmanlarning ta'lim va mustaqil bilim olishga xizmat qiluvchi xalq kutubxonalarining ijtimoiy roli to'g'risidagi qarashlari juda ilg'or fikrlar edi. Ular tarafidan birinchi bor aholiga kutubxonachilik xizmati uyushtirishning yagona sistemasi g'oyasi ilgari surilgan edi.

Kutubxonachilik ishi ayrim yo'nalishlari nazariy asoslarini taraqqiy ettirishda mashhur nemis shoiri va olimi, Venadagi qirol kutubxonasining kutubxonachisi **I. M. Denisning (1729—1800)** "Bibliografiya asoslari" degan kitobi muhim ahamiyatga ega bo'lib, u bir necha marta qayta nashr qilindi. Bu Fransiya va boshqa mamlakatlarda kitob fondini joylashtirish sistemasiga bag'ishlangan edi. Uning "Kitobshunoslikka kirish" asarida esa kutubxona kataloglari, ularni tuzim va ahamiyatiga ko'p o'rin berilgan edi. Mashhur nemis kutubxonachisi **Iogann Mixael Franke (1717— 1775)** foydalanuvchilar talabini hisobga olib, fondida kitoblarni mazmuni bo'yicha joylashtirishni tavsiya qildi. Bunda xar bir bo'lim ichida o'sha joyning tarixi va geografik xususiyatlari hisobga olinar edi, shu tariqa fondga o'lkashunoslik xarakteridagi materiallarni bir joyga to'plash

imkoniyati vujudga keldi. Frankening fanga kiritgan yangiligi shu bilan bog'lik, ediki, kitobning shifri uning fondagi, kitob javonidagi o'rni bilan katalog o'rtasida bog'lovchi vazifasini bajarib, ma'lum kitobni qidirib topishni osonlashtirardi. U tavsiya qilgan adabiyotlarni asosiy bo'limlar ichida joylashtirish metodikasi XIX asrning so'nggi choragi—XX asr boshlaridagi CH. Ketter, M. Dyui va bonda mandur kutubxonashunoslar nazariyalaridan yudori turar edi.

XX asr boshlarida AKShda kutubxonashunoslik fani taraqqiyotida Charlz Ketter va Melvil Dyuilarning o'rni kattadir. Kataloglashtirish nazariyasi va amaliyotining taravdiyotida Ketterning matbuot asarlarini tavsiflash qoidalari to'g'risidagi kitobi muhim rol o'ynadi. U alifboli, sistemali va predmet kataloglari asoslari, ularni tuzish metodikasini ishlab chiqdi, asarlarni kollektiv avtor ostida tasvirlash tamoyilini nazariy jihatdan asoslab berdi. U kutubxonachilik tasnifn metodikasi va texnikasini takomillashtirishga hissa qushgan. U taklif qilgan va ko'pchilik jadvallarda uchraydigan namunaviy bo'linmalar, keyinchalik jadvallarda "ajratkichlar sistemasi" nomi bilan bizgacha yetib kelgan va uning klassifikasiya jadvallari, avtor jadvallari hozirgacha jaxonning yirik kutubxonalari amaliyotida ishlatilmoqda.

Melvil Dyui (1852—1931) ham jaxondagi yirik kutubxonashunoslardan biri sifatida AKShda fanning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan shaxsdir. U kollejda uqib yurgan vaqtidayoq 50 dan ortiq kutubxonalar ahvolini o'rganib, fondni krepostnoy joylashtirish (shkaflarda) natijasida foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatishda juda katta kuch va mablag' sarflanishini ko'radi va uni yaxshilash uchun fondni joylashtirish sistemasini takomillashtirish zarurligini anglab yetadi. "Kam kuch va mablag' sarqlagan holda ko'proq kishilarni ko'proq mutolaa jarayoniga jalb qilish" kutubxonashunoslikning asosiy shiori bo'lishi lozimligi haqidagi fikr M.Dyuiga tegishli edi. Shu maksadda u o'zining mashhur klassifikasiya jadvallarini ishlab chisadi.

1876 yilda uning birinchi nashri chiqadi (umuman muallif hayotligi davrida jadvallar 12 marta qayta nashr etiladi). O'nli klassifikasiya jadvallarining kashf qilinishi kutubxonachilik bibliografiya ishlari nazariyasi va amaliyotiga sushilgan juda katta hissa edi. Kutubxonachilik kartochkalarini bir qolipga keltirish, tavsifdagi so'zlarni qisqartirish qoidalari, kutubxonachilik jihozlarini standartlashtirish g'oyalari unga taalluqli bo'lib, ular bu sohadagi yangiliklar edi. M. Dyuining faoliyati bilan bog'liq tarzda XIX asr oxirlarida kutubxonashunoslik ta'limi yuksak darajaga ko'tarildi. Uning ishtirokida 1887 yilda Kolumbiya universitetida kutubxona maktabi tashkil etildi. U o'sha davrdagi atoqli kutubxonashunoslar CH.Ketter, V.Foster, YE.Richardsonlarni ham ushbu faoliyatga jalb qildi. M. Dyui tom ma'nodagi, keng qamrovli kutubxonachi arbob bo'lib, jahonda birinchi kutubxona xodimlarini tayyorlaydigan maktabni tashkil etadi. U kutubxonachilik ishini mustaqil kasb sifatida tushunib, nazariya bilan amaliyotning o'zaro bog'liqligini, bir-birini to'ldirishini qayd qiladi. M. Dyui kutubxonachi kasbiga tarbiyachi sifatida

qarab, xalq maorifi va kutubxonachilik ishining maqsadi aslida umumiydir degan fikrni ilgari suradi.

Rossiyada kutubxonashunoslikning rivojlanishida V.I. Sobolshikov (1813-1872), N.A. Rubakin (1862-1946), L.B. Xavkina (1871-1949), A.A. Pokrovskiy (1875-1954)larning ijodi va faoliyati alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Rossiyada kutubxonashunoslik ishining rivojlanishida V.I. Sobolshikov (1813-1872), N.A.Rubakin (1862-1946), A.A.Pokrovskiy (1875-1954), L.B. Xavkina va boshqalarning ilmiy-uslubiy, amaliy faoliyati alohida o'rin egallaydi. V. I. Sobolshikov kutubxona kataloglarini takomillashtirish orqali uning faqat hisobga oluvchi vosita emas, balki kutubxona fondining mazmunini ochib boruvchi, qidiruvni amalga oshiruvchi zaruriy ma'lumot manbai, bibliografik qo'llanma ekanligini asoslab berdi.

N.A.Rubakin ko'p yillar davomida ko'pgina nashriyotlarda faoliyat ko'rsatib, turli fan sohalariga oid kitoblarni taxrir qilishidan tashqari o'zi ham turli fanlar bo'yicha 350 ta jurnal maqolalari, 280 ta kitob chop ettirdi. Uning shaxsiy kutubxonasida boshqalarning ham foydalana olish imkoniyati yaratilgan bo'lib, oy davomida 1 so'm 50 tiyin to'lash sharti bilan har haftada 4 marta kitob yetkazib berish yo'lga qo'yilgan. Ushbu mablag' kitobni uyga yetkazib berish bilan bog'liq bo'lgan harajatlarni qoplamagan bo'lsada, N.A.Rubakinning maqsadi kishilarda mustaqil ta'lim olishga bo'lgan qiziqishini oshirishdan iborat edi. Uning fikriga ko'ra, har bir foydalanuvchi bir kunda bir soat, yakshanba kunlari uch soatdan o'qiydigan bo'lsa bir yil davomida 450 soat o'qiydi. Bu taxminan besh ming varaqni, tajribali foydalanuvchi uchun esa o'n ming, o'n besh ming varaqni tashkil etadi. N.A.Rubakin shunga asoslanib qisqa vaqt davomida maksimum bilimlarga erishish maqsadini qo'ydi. Buning uchun esa har bir foydalanuvchining qiziqishi, psixologik tipini, imkoniyatlarini o'rganib chiqish zarur edi. Eng yuksak darajaga erishish uchun kitobni ham, muallifni ham, foydalanuvchini ham o'rganish lozim bo'lardi. N.A.Rubakin o'z tadqiqotlarida mustaqil ta'lim bilan shug'ullanayotgan har bir foydalanuvchi uziga xos individuallikka, shaxsiy, ijtimoiy va tarixiy hayot sharoitlari tasirida doimo o'zgarib turuvchi shaxsiy xususiyatlarga, qiziqishlarga, kayfiyatga ega bo'lishi, ularning barchasi har bir insonda o'ziga xos tarzda amalga oshuvchi mustaqil ta'limning shakllanishi va rivojlanishiga tasir qilishini alohida takidlaydi. N.A.Rubakin foydalanuvchi mutolaasini o'z mohiyatiga ko'ra foydalanuvchi va matn muallifi maqsadlarining o'zaro uyg'unligi natijasida shakllanuvchi foydalanuvchi, matn muallifi va boshqa foydalanuvchilarning munosabatlarida namoyon bo'luvchi hodisa sifatida ta'riflaydi.

Mutolaa jarayonida foydalanuvchi eng avvalao ushbu kitobning mavjudligi haqida va u haqidagi ba'zi ma'lumotlarga ega bshlishi kerak; Ikkinchidan foydalanuvch, o'zi shug'ullanayotgan narsalarning barcha tomonlari va jihatlariga qiziqishi kerak; Uchinchidan, foydalanuvchi o'zi uchun muhim deb hisoblagan kitob mutolaasi jarayonida asosiy vaqtini ushbu mutolaaga qaratishi kerak; To'rtinchidan, mutolaa

qilinayotgan matn kerakli, qiziqarli, tushunarli hisoblanishi natijasida foydalanuvchini ong va hissiyotini uyg‘otish, irodasiga tasir ko‘rsatish ham muhimdir.

Mustaqil tarzda bilim olishda yuksak natijalarga erishishning asosiy shartlari kitob, uning muallifi, foydalanuvchini o‘rganish ekanligini asoslash bilan birga olib borilgan tadqiqotlar N.A.Rubakinga mutolaa nazariyasini asoslashga imkon berdi. Bundan tashqari uning tadqiqotlari natijalari ijtimoiy va psixologik tasir ko‘rsatish haqidagi yangi fan – bibliopsixologiyaga ham asos solishga imkon berdi. Umuman, N.A.Rubakining har tomonlama faoliyatining umumlashma tarzidagi fikrlari uning Kitoblar orasida asarida aks etgan. N.A.Rubakin, K. N. Derunov, L.B. Xavkina va boshqa ko‘pgina kutubxonashunoslar “umumxalq, umumtalim kutubxonasi” tashkil topishi uchun kurashganlar.

Kutubxonashunoslik nazariyasini ishlab chiqishda o‘zining alohida o‘rniga ega bo‘lgan kutubxonashunoslardan biri L.B.Xavkinadir (1871-1949). L.B.Xavkina Berlin universitetida talim olganligidan tashqari AQSH, Angliya, Fransiya va Osiyoning ko‘pgina mamlakatlaridagi kutubxona ishi va kutubxonashunoslik bilan ham mukammal tanishib chiqqan. Uning ushbu mamlakatlardagi kutubxonalar hayotiga oid ko‘pgina maqolalari “Rus maktabi”, “Tarbiya habarlari”, “Talim” pedagogik jurnallarida chop etilgan. Jumladan, “Berlin xalq kutubxonasi o‘quv zallari “ (1899), “Parij xalq kutubxonalari va o‘quv zallari” (1902), “Berlin xalq xususiy kutubxonasi”(1903) va boshqalardir. Uning Yevropa, Amerika, Osiyoning ko‘pgina mamlakatlarida bo‘lshidan tashqari, ushbu mamlakatlardagi taniqli kutubxonashunoslar bilan ijodiy aloqasi, xorijiy tillarni yaxshi bilganligi kutubxonashunoslik sohasida yetuk mutaxassis bo‘lib shakllanishiga ijobiy tasir ko‘rsatgan. Shuning uchun ham uning ko‘pgina maqolalarida xorijiy mamlakatlar kutubxonalaridagi tekin foydalanish, har xil cheklovlar va rasmiyatchilikning kamligi, ko‘proq foydalanuvchilarni jalb qilish, xurmat ko‘rsatishdagi qulayliklar, birinchi navbatda foydalanuvchilar ehtiyojini hisobga olinishi, ularning targ‘iboti masalalari o‘rin olgan. L.B.Xavkinaning tashabbusi bilan Xorkov jamoat kutubxonasida 1903-yili kutubxonashunoslik bo‘limi tashkil etildi. Kutubxonashunoslik bo‘limini tashkil etish jamoat kutubxonalari umumiy majlisi qaroriga binoan tasdiqlanadi. Kutubxona boshqaruvining azosi L.B.Xavkina unda kutubxonashunoslik bo‘limini kutubxona – tarixi kutubxonalar haqidagi qonunlar, monografiyalar, kutubxonalar hisoboti, ustavlari, huquqlari haqidagi adabiyotlar bilan taminlash kabi masalalarni ko‘tarib chiqdi. Ko‘p vaqt o‘tmasdan, 1904-yilga kelib Kutubxonashunoslik bo‘limida 2200 ta sohaga taalluqli hujjat yig‘ildi. Ushbu bo‘lim ko‘p yillar davomida kutubxonalar tajribasini o‘rganish asosida kutubxonachilik ishi nazariyasi va uslubiyatiga oid faoliyatini maslahat – malumot, o‘quv – pedagogik, ilmiy – tadqiqotdan iborat bo‘lgan uchta yo‘nalishda olib bordi. L.B.Xavkinaning butun faoliyati kutubxonalarning so‘z va matbuot erkinligi uchun madaniy kurashda oldingi o‘rinda bo‘lishiga, kishilarning doimiy mustaqil talim olishiga yordam berishini tashkil qilishga qaratilgan edi. A. A.

Pokrovskiy, L.B.Xavkina ishining qo‘llab quvvatlovchisi va davomchisi edi. Uning fikriga ko‘ra jamoat kutubxonalarining asosiy vazifasi u joylashgan hududda har bir foydalanuvchiga jiddiy kitoblarni tavsiya etish, ularning doimiy va muntazam mustaqil talimini tashkil etishdan iborat bo‘lishi lozim. A. A. Pokrovskiyning kutubxonashunoslik haqidagi fikrlari quyidagicha bayon qilingan:

- 1) Foydalanuvchilarning kutubxona xizmatidan foydalanishlarini murakkablashtiruvchi rasmiyatchiliklardan voz kechish (Buning uchun Berlin kutubxonalarida har qanday kitobning garovsiz uyga berilganini misol sifatida keltirish);
- 2) Kutubxonalarining foydalanuvchilar uchun qulay soatda, kunlarda, kunning qulay vaqtlarida, hatto kechasi muayyan vaqtgacha ishlashini tashkil etish;
- 3) Kitobdan foydalanish va kutubxonaga qaytarishni muddatini uzaytirish, jarimani bartaraf qilish;
- 4) Foydalanuvchilarga qo‘shimcha qulaylik yaratish uchun kitoblar tizimini takomillashtirish, o‘quv zallarida ochiq kitob fondini shakllantirish, har bir foydalanuvchiga uyga kitob olib ketib foydalanish imkonini berish.

XX asr boshlarida kutubxonalarining faol va kupqirrali faoliyatida, ayniqsa ma’lumotnoma va bibliografik xizmatni tashkil etishda, kutubxona fondlarini to‘ldirishda kutubxonalarining o‘zaro hamkorligi masalasida qator muammolar hal etilishi zarur edi.

1.3 XX asrda kutubxonashunoslikning rivojlanishi

XX asrning 30-yillarida yirik nemis olimi, kutubxonashunos Georg Ley kutubxona fondini barcha nashrlar bilan to‘la tuldurish g‘oyasining xomxayol ekanligi to‘g‘risidagi nazariy qoidani asoslab berdi. Shu tarifa ilmiy kutubxonalar fondini to‘ldirishda hamkorlikka asos solindi. Natijada shu tipdagi va ma’lum xududdagi kutubxonalar fondini aks ettiruvchi milliy yig‘ma kataloglarni tuzish zarurat kelib chiqdi. Bu g‘oyaning asoschilaridan biri sifatida Niderlandiya Milliy kutubxonasining direktori Myulxauzen, Shveysariya Milliy kutubxonasining direktori Marsel Gode, Fransiyadagi universitet kutubxonalari yig‘ma katalogini tuzuvchi L. N. Malkles, AKShda yig‘ma katalogning tuzilishi va uning nazariy va metodik asoslarini ishlab chiquvchi mualliflaridan biri X. U. Uilson va boshqalarni sanab o‘tish zarur. Shu davrda jahon kutubxonashunoslari kutubxonalararo kitob almashish va kutubxonalararo abonement, kutubxonalarining ma’lumotnoma-bibliografik faoliyati, ayrim kutubxonalarining tashkil topish tarixi va rivojlanishi, ochiq kitob fondi, kutubxonachilar mehnatini tashkil etish, kutubxonalarda uqish muammolari kabi kutubxonashunoslikning ayrim masalalari ustida ish olib bordilar. Kutubxonashunoslik fani va ularni ommalashtirish buyicha Michigan universiteti kutubxonasining direktori V. V. Bishon, Sofiya universitetida Stoyan

Argirov, Sorbonna universitetida L. N. Malkles, Bryusselda P. Otle, L. Vauterslar nazariy ma'ruzalar o'qidilar, universitetlarda kutubxonashunoslik kafedralari ochilib, uning muammolari ustida maxsus mavzularda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borildi.

XX asrning ikkinchi yarmi uchun xos bulgan xodisa — bu kutubxonachilarni axborot sistemasi tarkibiga kiritishga xarakat snlnsh shunga olib keldnki, kutubxonashunoslik tadqiqotlarida kutubxonachilik-bibliografik ish jarayonlarini mexanizadiyalash va avtomatlashtirish muammolari, kutubxonalarning axborot tarkibiga kirishi yo'llarini mushohada qilish bir-muncha kengroq o'rin egallay boshladi. Natijada jahondagi yirik mamlakatlarda ancha ilg'or axborot texnologiyasi joriy qilina bordi, bu esa o'z navbatida, kutubxonachilik-bibliografik jarayonlarni takomillashtirishga yordam berdi. XX asrning 60—70-yillarida kutubxonashunoslik mavzuyiga kutubxonachilik ishining ijtimoiy jihatlarini tahlil qilish masalasini kiritish zarurligi to'g'risida muayyan fikr-muloxazalar, bahslar paydo buldi. Jamiyatda kutubxonalarning o'rni va roli, kutubxona va jamiyat, kutubxona va foydalanuvchi kabi muammolarga bag'ishlangan ilmiy maqolalar, hatto monografiyalar bosilib chiqdi. Lekin mazkur muammolarni taqlil qilish kutubxonashunoslikning fan sifatidagi o'rnini belgilash, uning boshqa fanlar bilan munosabatini aniqlash kabi qator masalalar bilan boglik,. Shu nuqtai nazardan jahonning yirik kutubxonashunoslari faoliyatini ko'zdan kechirish o'rinlidir.

Jahon kutubxonachilik ishida so'nmas iz qoldirgan, Xindistondagi kutubxonachilik ishi arboblardan biri, mashxur kutubxonashunos, bibliograf va axborot fani asoschilaridan bo'lgan Shiali Ramamrit Ranganatandir. (1892—972). U 1913 yilda xristian kollejini matematika mutaxassisligi bo'yicha tugatdi. 1916 yilda shu yerda matematika bo'yicha san'at magistri darajasini oldi, 1921 yilda unga matematika professori unvoni berildi. 1924 yilda Madras universiteti kutubxonasiga direktor etib saylandi va universitet yo'llanmasi bo'yicha London universiteti qoshidagi kutubxonachilik maktabiga bir yilga uqishga yuborildi. Bu yerda mamlakat kutubxona ishining ahvoli va uning yo'lga qo'yilishi bilan tanishdi. Bu unga kutubxonachilik ishining katta imkoniyatlari, uning ijodiy xarakterini tushunib yetishga yordam berdi. U 1928 yildan tashkil topgan Madras kutubxonachilik birlashmasining kotibi, 1929 yildan esa shu birlashma bilan birgalikda universitet qoshida tashkil etilgan kutubxonachilik maktabining direktori, 1947 yildan Dehli universiteti qoshidagi kutubxonachilik maktabida udntuvchi bo'lib ishladi va ilmiy ishlar bilan shugullandi,. SH. R. Ranganatan kutubxonachilik ishining ijti- moyi ahamiyatiga katta ahamiyat bergan edi. Aynissa u kitob va kutubxona, jamiyat va kutubxona aloqasiga jiddiy e'tibor bilan qaragan. Davlat,— deydi u,— kutubxonalardan uz qonunlarini amalga oshirishda yordam kutadi, kutubxonalar esa bu ishonchni oslaydi; shu sababdan davlat kutubxonalarni moddiy ta'minlashni, ular to'g'risida g'amxo'rlikni o'z zimmasiga olishn kerak. U bu fikrni aytibgina qolmay, butun hayoti mobaynida ularni amalga oshirish ustida kurash olib bordi

va kutubxonaning, kutubxonachilik kasbi- ning nufuzini kutarishda ma'lum yutuqlarga erishdi.

Kutubxonashunoslikni u ijtimoiy bilimlar sohasidagi fanlar qatoriga kiritadi va xar qanday fan kabi uning konunlari va tamoyillari mavjudligini qayd qiladi. Bu donunlarni qator yillar mobaynida ishlab chiqdi va ularni uzining “Kutubxonachilik fanining beshta qonuni” (1931 yil) asarida asoslab berdi. Ranganatan tomonidan bu qonunlar quyidagicha ifodalangan; 1) kitob—mutolaa uchun xizmat qiladi; 2) har bir kitobning uz foydalanuvchii bulsin; 3) har bir foydalanuvchiga— uning kitobi; 4) foydalanuvchilar vaqtini asra; 5) kutubxona o'sayotgan organizm. Uning fikricha, urta asrlarda kitoblar zanjirlar bilan maxsus pyuppitrga (kitob qo'yadigan qiya moslama) mahkamlab qo'yilgan, sababi, bu kutubxonalarning asosiy maqsadi— kitoblarni saqlash bo'lgan.

Hozir esa ularning bosh maqsadi — kitoblardan iloji boricha keng foydalanishdir. Ana shu maqsad kutubxonachilik ishining asosiy qonuni bo'lib qoladi. Kitobning kutubxonada saqlanish vazifasidan uning keng foydalanuvchilar tomonidan o'qilishi uchun xizmat qilishga o'tishi, Ranganatan fikricha, inqilobiy jarayondir. Natijada kutubxona ishining xarakteri tubdan o'zgaradi—ochiq kitob fondlari, ko'chma kutubxonalar, kutubxonalararo abonement, “kitob — pochta” va boshqa kitobni foydalanuvchiga yaqinlashtirish vositalari paydo bo'ladi, kutubxonalarning ish soatlari oshiriladi va hokazo. Xozirgi zamon kutubxonasi ishining mohiyati malakali xodimlar tomonidangina amalga oshirilishi mumkin bo'lgan foydalanuvchilarga yakka tartibda va tabaqalashtirilgan asosda xizmat ko'rsatishdnr. Shu sababli, birinchi qonunni SH. R. Ranganatan asosiy deb, qolganlari esa undan kelib chiqadi, deb tushuntiradi.

Ikkinchn qonun “Har bir kitobnnng uz foydalanuvchii bulsin” hozirgi zamon kutubxonachilik xizmati uchun xarakterlidir. Bu qonunni amalga oshirish uchun kutubxonalar o'z kitob javonlaridan foydalanuvchilarning bemalol foydalanishi uchun imkoniyat yaratishi va fondni fan sohalari bo'yicha, yangi adabiyotlarni ajratgan holda joylashtirishi zarur. Bunda seriyali va analitik tavsiflar keng ishlatiladigan katalogga, shuningdek kutubxonaning spravka-bibliografiya apparatiga katta ahamiyat beriladi. Bu yerda kutubxonaning vazifasi xali kutubxonata tortilmagan aholini foydalanuvchilar safiga aylantirishdir. Umuman, xozirgi davr kutubxonasining asosiy funksiyasi foydalanuvchining uz tashabbusi bilan kutubxonaga kelishini kutmasdan, har bir foydalanuvchi uchun kurash olib borishdir. Yangi foydalanuvchini jalb qilishi uchun Ranganatan ommaviy ishlarning barcha turlari va shakllaridan, kitob targ'ibotining xilma-xil metodlaridan foydalanishni maslaxat beradi, bu tadbirlarni bajarishda mahalliy ommaviy targ'ibot vositalari va turli madaniy-ma'rifiy muassasalar bilan uz ishlarini muvofiqlashtirishni, uyg'unlashtirishni tavsiya kiladi. Bu qonunni amalga oshirishda kutubxonachining foydalanuvchi bilan suhbatini eng ta'sirchan usullardan biri deb ko'rsatadi.

Uchinchi qonun—Har bir foydalanuvchiga —uning kitobi—birinchi qonun yuzaga keltirgan inqilobiy jarayonni chuqurlashtiradi. Maorifni kutubxonachilik xizmati bilan bog‘lab turib, Ranganatan ular barcha fuqarolarga, ularga ijtimriy kelib chisishi, jinsi, yoshi, yashash joyi, sog‘ligi va hokazodardan qat‘i nazar, teng darajada ommabop bo‘lishini talab qildi. Bu qonun tegishli ko‘lamda tarqalishi uchun Ranganatan fikricha quyidagi tadbirlarni o‘tkazish zarur: bepul mutolaa; kutubxonalarni davlat tomonidan mablar bilan ta‘minlash va shu maqsadda kutubxonachilik solig‘ini belgilash; kutubxonachilik qonunini joriy etish; markaziy va mahalliy rahbarlik organlari bo‘lgan kutubxonalarning keng shoxobchalarini barpo etish va hokazo.

To‘rtinchi qonun —“Foydalanuvchilar vaqtini asra” — kutubxonachilik xizmatiga vaqt elementini kiritadi. Yuqorida qayd qilingan ochiq kitob fondi, javon ko‘rsatkichlarining unumli sistemasi, kitoblarni sistemali tartibda joylashtirish, kataloglarda seriyali va analitik tavsiflarni keng ishlatish, bibliografiyadan foydalanish va boshqalar foydalanuvchilar vaqtini asrashga yordam beradi. Bulardan tashqari, kutubxonachi foydalanuvchi bilan bevosiga muloqotga ko‘proq vaqt qoldirish maqsadida, texnik jarayonlarni iloji boricha osonlashtirishi zarur. Kutubxonachining vaktini asrashda kitoblarga markazlashtirilgan asosda ishlov berish va kataloglashtirish, bu ish jarayonlarini mexanizasiyalash va avtomatlashtirish juda muhimdir. Kutubxonalar va ularning shoxobchalari foydalanuvchilarga qulay joylarda joylashtirilishi katta ahamiyatga egadir

Beshinchi qonun— “kutubxona—o‘sayotgan organizm” — kutubxonalar ishini rejalashtirish va tashkil etish masalasiga taalluqlidir. Ranganatan kutubxonalarni ikki kategoriyaga bo‘ladi: saqlovchi kutubxonalar va xizmat ko‘rsatuvchi — ommabop kutubxonalar, bu ikki kategoriyadagi kutubxonalar o‘z ishlarini o‘zaro uyg‘unlashtirilgan asosda olib borishlari zarur. Bu qonunlardan tashsari, Ranganatan fikricha, inson faoliyatining boshqa sohalari uchun umumiy bulgan kutubxonachilik ishining yana ikki qonuniga amal silinishi zarur. Bu tejamkorlik va xolislik konunidir. Bu kutubxonachidan mehnatning samarador metodlaridan foydalanishni va pul xarajatlarini o‘rinli sarflashni talab qiladi; o‘zining barcha faoliyatida kutubxonachi beg‘araz bo‘lishni, o‘zining kitobga munosabatini bildirmasligini, foydalanuvchilarga uz fikrini tiqishtirmasligini, fondni to‘ldirishda xolislik siyosatiga amal qilishi zarurligini va hokazolarni taqozo etadi. Qayd qilingan qonunlardan kelib chiqib Ranganatan kutubxonalar oldiga quyidagi vazifalarni ilgari suradi: har bir kishining mustasil bilim olishiga yordam berish; barcha masalalar buyicha eng yangi ma‘lumotlarga ega bo‘lish; siyosiy oqimlarni aks ettiruvchi adabiyotlarni xolisona tarqatish; fan va texnikaning eng sunggi yutuqlari to‘g‘risidagi axborotni tez va aniq yetkazish yo‘li bilan mamlakat xalq xo‘jaligining o‘shishiga yordam berish; adabiy merosni kelajak avlodlar uchun saqlab berish; olimlar vaqtini asrash va ilm-fan tarakdiyotiga yordam berish maqsadida ilmiy-bibliografik qidiruv xizmatini

tashkil etish; ayrim xalqlar va kishilarning o‘zaro hamkorligini ularning bir-birini tushunishiga, barcha insoniyatning ma’naviy uyg‘onishiga yordam berish va hokazo.

Ranganatanning xizmati shundaki, u kutubxonachilik ishini fan darajasiga ko‘tardi, uning qonunlarini ishlab chiqdi va o‘ziga xos tarzda ta’riflab berdi, ularning kutubxona ishi turli sohalarida ta’sirini kuzatib bordi. Ranganatanning kutubxona ishini tushunishi, garchi u Yevropa kutubxonashunoslarining shogirdi hisoblansada, ularning qarashlariga nisbatan ancha ilg‘or edi. Shu sababli, Ranganatan maktabi haqida fikr bildirish maqsadga muvofiqdir. Kutubxonashunoslarning fikricha, SH. R. Ranganatanning ijodiy imkoniyati yildan-yilga oshib bormokda, uning asarlari so‘nggi vaqtlarda qayta-qayta nashr qilinib, o‘rganilmoqda. Ranganatan asarlari bilan bir qatorda uning birinchi va ikkinchi avlod shogirdlarining ishlari e’lon qilinmosda. Hindistonda kutubxonashunos professorlar miqdori universitetlar va kutubxonalardagi tegishli vazifalar sonidan oshib ketdi. Hind kutubxonashunoslari, SH. R. Ranganatanning shogirdlari va uning ijodi targibotchilari Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi va hatto Yevropaning qator mamlakatlarida mehnat qilmoqdalar. Jahon kutubxonashunoslik olamida Ranganatan maktabi sezilarli o‘rin egallaydi. U bilan shaxsan tanish bo‘lmaganlar ham o‘zlarini uning shogirdi hisoblaydilar, sababi ularni olim tomonidan e’lon qilingan tamoyillar, ijtimoiy va madaniy xarakterdagi muammolar bilan tig‘iz aloqada qaraladigan uning g‘oyalari va kutubxonashunoslik masalalarini yechishning aniq yo‘llari birlashtiradi. Qo‘yilgan har bir vazifani unumli yechishga qaratilgan va ko‘plab mamlakatlar tajribasini tanqidiy o‘zlashtirishga asoslanadigan, yuqori kasbiy manfaatlar SH. R. Ranganatan maktabiga xos xususiyatlardir. SH. Ranganatan kabi kutubxonashunoslik fani taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shgan, kutubxonalarning demokratik xarakterini, jamiyat hayotida tutgan o‘rnini belgilab bergan shaxslardan yana biri Jess Xouk Niriyadir (1903—1982). Uning g‘oyalari ham hozirgi davr kutubxonachilik ishida yuz berayotgan ilg‘or siljishlarni aks ettiradi. Aynan shuning uchun uning qarashlari AQSH va G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida kutubxonachilik fikrining rivojlanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan va ko‘rsatib kelmoqda. Hozir ko‘plab G‘arb kutubxonashunoslari va axborotshunoslari tomonidan ma’qullangan, kutubxonachilik kasbi va zamonaviy kutubxonalarning funksiyasi va roli to‘g‘risidagi o‘ziga xos va nihoyatda keng konsepsiya unga taalluqlidir.

Jess Xouk Shira AQShda tug‘ilib o‘sdi, Mayami, Oksford va Pel universitetlarida ta’lim oldi. O‘zining kutubxonachilik faoliyatini 1927 yildan, Mayami universiteti kutubxonasida katalogizator sifatida boshlagan. 1928—1940-yillarda Skrippov institutida aholi muammolari buyicha mutaxassis vl 1940—1941-yillarda Kongress kutubxonasida bibliograf bo‘lib ishladi. 1941 —1944-yillarda AKShning Strategik xizmati Byurosining Axborot markaziga rahbarlik qilgan va 1944—1947-yillarda Chikago universiteti kutubxonasini boshsgan. 1947—1952- yillarda Chikago universiteti Oliy kutubxonachilik maktabi professori, so‘ngra 1952—1970-yillarda Keys

nomidagi Uestern Rizyorv universiteti kutubxonachilik maktabi dekani vazifasida ishlagan. 1970 yilda otstavkaga chiqqandan soʻng ham ilmiy-tadqiqot, oʻqituvchilik, adabiy va jamoatchilik faoliyatini davom ettiradi, oʻnlab kitoblar, yuzlab masolalar yozadi 1950—1965 yillar mobaynida yozilgan muhim maqolalari “Kutubxonalar va ilmni tashkil qilish” va “Xujjatlar va ilmni tashkil qilish” nomi bilan Londonda ikkita toʻplamda nashr qilinadi. 1972 yilda Nyu-yorkda “Kutubxona taʼlimining asoslari” monografiyasi, 1973 yilda Moskvada rus tilida “Kutubxonachilik ishining sosiologik asoslari” maʼruza kitobi, 1983 yilda “Kutubxonashunoslikka kirish: kutubxona xizmatining asosiy elementlari” qoʻllanmasi nashrdan chiqqan. J. Shiraning ijodiy merosi juda keng va rang-barang boʻlishiga qaramay, uning asosiy sarashlari deyarli barqaror va chuqurdir. Bu bir tomondan, yozma yodgorliklar bilan bosma nashrlar oʻrtasidagi uzviy aloqalarni tan olishga suyanlikdan boʻlsa, ikkinchi tomondan jamiyat taraqqiyotida kutubxonalarning roli va kutubxonachilar faoliyatining muhimligiga ishonchdan shunday boʻlib qolgan deyish mumkin. Shu boisdan jamnyatda kutubxonalarning ahamiyati, kutubxonachilik ishi istisboliga avtomatlashtirishning taʼsiri va kutubxonachilik taʼlimini rivojlantirishning yoʻllari va boshqalar J. Shira faoliyatining asosiy mavzularidir. Yozma asarlar kishilarning oʻzaro fikr almashish imkoniyatinn kengaytiradi, kutubxonalar esa yozma hujjatlar umrini uzaytirish vositasidir, — deb taʼkidlaydi u. boshqa ijtimoiy muassasalar kabi kutubxonalar ham jamiyatning zaruriy ehtiyoji tufayli paydo boʻlgan va rivoj topgandir, shu sababli jamiyat ehtiyojiga xizmat qiladigan xabarlarni qayd qilish va uzatish vositasi sifatida yozuvning paydo boʻlishi bilan eng muhim yozmalarni saqlab turadigan muassasaga zarurat ham yuzaga keladi. Shunday silib, kutubxonalar J. Shiraning fikricha, avvaldanoq jamiyatning moʻtadil ishlashini taʼminlaydigan mexanizmning ajralmas qismi boʻlib qoladi. J. Shiraning boisha bir fikri ham dikdatga sazovordir. Uning fikricha, kutubxonalarda toʻplangan maʼnaviy xazinalar va ularning xizmat koʻrsatish tashkiliy darajasi kutubxonaga murojaat qiluvchi foydalanuvchilarning maʼnaviy dunyosi bilan teng kelmasligi kutubxonalar va foydalanuvchilar urtasidagi asosiy tusik hisoblanadi. Shu sababli, foydalanuvchilar ehtiyoji, ularning maʼnaviy olami bilan kutubxonalarning xizmat koʻrsatish madaniyati imkonyatlarini muvofiqlashtirish kutubxonashunoslik, bibliografiyashunoslik va informatika fanlarining markaziy muammosidir. Muammoga bunday yondoshish axborot ishlarini, shu jumladan, kutubxonachilik jarayonlarini avtomatlashtirishning ahamiyatiga tubdan yangicha qarashga yoʻl ochadi. Inson miyasi va elektron hisoblash mashinalari ishida baʼzi bir oʻxshashliklarning mavjudligiga nshonchimiz ortib borayotganligi tufayli, axborot qidirish jarayonlarini avtomatlashtira borib, ularning maʼnaviy asoslarini tushunib yetishga yaqinlashish mumkin. Bu esa foydalanuvchilar tafakkuri bilan kutubxonada xizmat koʻrsatish madaniyati imkoniyatlarini muvofiqlashtirish yoʻlidagi ishonchli qadam boʻlib qoladi. Shu muammo bilan bevosita bogʻliq bulgan yana bir masala— kutubxona xodimlarini tayyorlash borasidagi J. Shiraning gʻoyalari juda asoslidir.

Kutubxonachilik ta'limining asosiy vazifasini u yuksak aql-idrokka ega bo'lgan shaxsni tarbiyalashda, uning ilmni o'zlashtirish imkoniyatida, oxir oqibatda esa ularga o'z bilimni insoniyat manfaati yo'lida ishlata oladigan oliy ma'lumot berishda deb biladi. Ta'limning mazmuni haqida gapirib, kutubxonachilik ishi bu to'qson foiz aynan ilmdir va o'n foiz kasbning texnik usullari ekanligini qayd qiladi. Bu kutubxonashunos-pedagogning kasbga bulgan tub nuqtai nazaridir. Uning yaxshi kutubxonachining uchta belgisi to'g'risida fikri xam shu nuqtai nazarni tasdiqlaydi:

1) mukammal bilim va uni tushunib yetish, agar zarur bo'lsa ularni tegishlicha ishlata olish;

2) shu bilimlarni foydalanuvchilar uchun qimmatli va ahamiyatli bo'lgan yo'l bilan boshqalarga yetkaza olish qobiliyatiga ega bo'lish va hazil-mutoyiba tuyg'usiga ega bo'lish.

Xullas, J. Shira kutubxonachini tom ma'nodagi olim sifatida ko'rishni istaydi. Endi kutubxonashunoslik fanini o'rganish va rivojlantirishda o'ziga xos yuli, maktabi bulgan Rossiyada kutubxonashunoslik fani taraqqiyoti xususiyatlariga, rus kutubxonashunos olimlari faoliyatiga nazar tashlaylik, sababi O'zbekistonda kutubxonachilik ishi, uning nazariy va amaliy asoslari rus kutubxonashunoslari ijodiyoti, tajribasi bilan bevosita bog'liq holda rivojlangandir.

Rossiyada kutubxonashunoslikning fan darajasiga ko'tarilishi, nazariy va amaliy asoslanishi va targ'ib qilinishida uziga xos iz qoldirgan kutubxonashunoslardan biri **Ogan Stepanovich Chubaryandir** (1908—1976). Chubaryan 50-yillarning oxiri — 70-yillarning o'rtalaridagi kutubxonachilik ishiga kengaytirilgan, umumlashgan ta'rif berdi, uning hal qiladigan vazifalarini, muammolarini, aholining asosiy qatlamlariga kitob bilan xizmat ko'rsatishning jonli amaliyotini nazariy va metodik jihatdan ishlab chisdi. Tadqiqotchilarning yangi-yangi avlodlari rus kutubxonashunosligi bosib o'tgan butun murakkab yo'lni tushunish uchun Ogan Stepanovich Chubaryanning asarlarini chetlab o'ta olmaydilar. Ular bu asarlardan XXI asrning bo'sag'alarida ilgari surilayotgan takliflar va fikrlarga hamohang bo'lgan g'oyalarni topadilar. Axir Chubaryan o'zi kuzatayotgan hodisalarni faqat mantiqiy jihatdan sanab o'tmasdan, balki ularga xos jarayonlarni tasvirlab ham bergan edi.

Tadqiqotchi ayniqsa vujudga kelayotgan ijobiy tamoyillarni alohida ajratib ko'rsatganki, ularning ripojlanishi uchun muayyan shart-sharoitlar va kutubxonachilarning tashabbus bilan ko'pgina kuch-g'ayrat sarflashlari talab qilinardi. Kutubxonashunosning xuddi mana shu davr talablari bilan hamoxang va istiqbolga qaratilgan fikr-o'ylari kutubxonachilik ishining barqaror yo'nalishlari va metodlariga boshqacha mezonlar bilan yondashishga undaydi, ularni amalga oshirish uchun imkoniyatlar yaratadi. Ma'lumki, uning nazariy asarlari tufayli rus kutubxonashunosligi, bibliografiyashunosligi va kitobshunosligi yangi-yangi bilimlar bilan boyidi, inson va

kitob, kutubxona va jamiyat, kitob va jamiyat, kutubxonachi va foydalanuvchi kabi murakkab tushunchalarning o‘zaro bog‘liqligi haqidagi tasavvurlarimiz kengaydi.

O. S. Chubaryan birinchilardan bo‘lib, kitob muammosi va kutubxonachilik ishining eng murakkab muammolarin o‘z ichiga olgan kutubxonashunoslik fani predmetini ta’riflab berdi. Olimning katta xizmatlaridan biri shu bo‘ldiki, u kutubxonashunoslikning o‘ziga xos xususiyatlarini, o‘rganilayotgan asosiy muammolarni, tatbiq etiladigan metodlar kompleksini aniqlab chiqdi. U kutubxonachilik nazariyasining eng muhim bulgan kutubxona fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish, kutubxona tarmoqlarini tashkil etish, foydalanuvchilar bilan ishlash, kutubxonalarning axborot-bibliografik metodik va tadqiqotchilik faoliyati, kutubxonachilik ishini boshdarish; kabi tarkibiy qismlarining uzviy ichki bog‘liqligini ko‘rsatdi, ularning har biriga umumlashgan tavsif berdi. Chubaryan kutubxonashunoslikni ijtimoiy fan sifatida qarab chiqib, uning sosiologiya, pedagogika, psixologiya, informatika, kitobshunoslik, matematika kabi fanlar bilan bog‘liqligini belgilab berdi. U kutubxonashunoslikning bibliografiyashunoslik bilan bo‘lgan o‘zaro munosabatlarini asosli ravishda ishlab chiqdi. Olim kitob mutolaasi va fondlarni to‘ldirish jarayonlarini tahlil qilar ekan, u doimiy ravishda bibliografiya muammolariga, birinchi galda tavsiya bibliografiyasiga murojaat sildi. Chubaryan kutubxonashunoslikning turli fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi sistemasini aniqlar ekan, o‘z izdoshlariga bilimlarning sohalari doirasini to‘ldirish imkoniyatini ochiq qoldirdi. Hozirgi vaqtda bilimlarning bu qatorlarida iqtisodiyot, tilshunoslik, kibernetika, me‘morchilik va boshqa sohalar bor.

Chubaryan fanlarning bilimlar eng ko‘p darajada bir-biriga qo‘shilib ketadigan joylarini, masalan, “foydalanuvchishunoslik” sohasini oldindan belgilab chiqqan edi. Chubaryan o‘zining fan sohasidagi yo‘lini texnika va oliy o‘quv yurtlari kutubxonalaridan, ya’ni fan-texnika taraqqiyotiga ancha tezkorlik bilan javob beradigan kutubxonalarni butlash masalalarini taxlil qilishdan boshlab, 60- va 70- yillarning boshlarida kutubxonalarning ijtimoiy muassasa sifatidagi rolini ancha keng materiallar asosida har tomonlama yoritib berishga bag‘ishladi. O. S. Chubaryanning 1972—1976-yillarda yaratgan asarlarida kutubxonalarning ulkan ma’rifiy imkoniyatlari, ularning xalq foydalanadigan umuminsoniy qadriyatlari ancha izchillik bilan tahlil qilib berilganligi ko‘zga tashlanadi. Uning “Inson va kitob” nomli asari tadqiqotchining vafotidan keyin chop etilgan bo‘lib, unda kutubxonalarning madaniyatga, taraqqiyotga xizmat qilishi, axborot markazi, olimlar mehnati va ilg‘or tajribaning o‘ziga xos laboratoriyasi bo‘lishi kabi ko‘p qirrali vazifalariga doir fikrlarining yaxlit bir konsepsiyasi yoritib beriladi.

Rossiyada kutubxonachilik ishi rivojlanishidagi muxim bosqichlar bo‘lgan 1950—1975-yillarda Chubaryan o‘zining hamkasblarining diqqat-e’tiborini bu sohadagi g‘oyat dolzarb muammolarga qaratdi, o‘zi taklif etgan yo‘l bilan mazkur muammolarni ishlab chiqish uchun ishonarli dalil-isbotlar topishga muvaffaq buldi. Jumladan, O. S. Chubaryan har xil turdagi kutubxonalarning tabaqalashuvi va ixtisoslashuvi ularning

o‘zaro hamkorlik qilishi uchun to‘siq hisoblanmasligini ta’kidlab, bu hamkorlikning qaysi yo‘nalishlarda rivojlanishi samarali bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatib berdi. Kutubxonachilik ishida ixtisoslashuv va integratsiyani olim kitob o‘qiydigan ommaning tobora o‘sib borayotgan ehtiyojlarini kondirishning eng nshonchli vositasi deb bildi. 60-yillarda, ilmiy axborotning tashkiliy tuzilishi vujudga kelayotgan bir paytda Chubaryan sanoat, qurilish, transport xodimlariga kutubxona va axborot xizmatni ko‘rsatish ishlarini tashkil etish ustida ko‘p bosh qotirdi. Uning “Sanoatga kutubxona-bibliografiya xizmati ko‘rsatishning yagona sistemasi masalasiga doir” nomli maqolasi ana shundan dalolat beradi. Kutubxona jamiyat ijtimoiy, ma’naviy hayotining tarkibiy qismi ekanligiga asoslanib, olim kutubxonaga foydalanuvchilarning qiziqishlari va talablari orqali ifodalanadigan ijtimoiy ehtiyojlarni qay darajada qondirishiga qarab baho berardi. U xuddi ana shu nuqtai nazardan muhim davlat ahamiyatiga ega bulgan ommaviy kitob mutolaadan iborat mustaqil muammoni ifodalab berdi. Ma’lumki, har xil hududlardagi turli tipdagi va turdagi kutubxonalarda ommaviy kitob mutolaa samaradorligi bir xilda baholanmaydi. Chubaryan mazkur nazariyani boy tajriba asosidagi materialga, ya’ni kutubxonashunoslikda yangi alohida yo‘nalish bo‘lgan Uqish sosiologiyasiga asos solgan bir gurux mutaxassislar tomonidan to‘plangan empirik materialga tayangan holda ta’riflab berdi. Rossiya Davlat kutubxonasida kutubxonachilik ishini bashorat qilish va istiqbolni ko‘zlab rejalashtirish metodikasining ishlab chiqilishi O. S. Chubaryanning nomi bilan bog‘liqdir. Mazkur metodikaning o‘zlashtirilishi, uning fikricha, pirovard natijada boshqarishga doir qarorlar qabul qilishni, kitob mutolaani rivojlantirish va shaxsni shakllantirish sohasida aniq maqsadli dasturlarni yaratish va ruyobga chiqarishni ta’minlashi lozim edi. Chubaryan nazariyani amaliyot bilan uzviy ravishda birlashtirish sohasidagi o‘z tamoyiliga qat’iy amal qilgan holda bu borada ham ilmiy izlanishni davom ettirib, katta ahamiyatga ega bulgan muhim hujjat—kutubxonachilik ishini rivojlantirishning besh yillikka mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlarini tuzib chiqishni boshlab berdi. Uning bevosita rahbarligida to‘qqizinchi va o‘ninchi besh yilliklarda kutubxonachilik ishini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari tayyorlandi va kutubxonachi xodimlarning yig‘inlarida bir ovozdan qabul qilindi. Tashkiliy va safarbarlik ahamiyatiga ega bulgan bu xildagi hujjatlar keyinchalik barcha kutubxonalar faoliyatida o‘z aksini topdi. O. S. Chubaryan kutubxonalarining jamiyat taraqqiyotidagi hissasini oshirish haqida g‘amxo‘rlik qilib, yagona sistemada ularning hamkorlikda ishlashini avj oldirish uchun ko‘p kuch-g‘ayrat sarfladi. U ana shu yilda eng muhim shartlardan biri sifatida mamlakat kutubxonalariga metodik rahbarlik qilishning yagona sistemasini yaratish zarurligini ta’kidlagan edi.

O.S. Chubaryan kutubxonalarini demokratlashtirishga katta ahamiyat berdi. Kutubxonalarining faoliyatiga doir eng yirik masalalar uning tashabbusi bilan kutubxonachilik Kengashi plenumlarida va uning byurosida qarab chiqildi. U bir necha yil mobaynida ana shu buyuroning raisi, mamlakat bosh kutubxonasi direktori vazifasini

bajaruvchi va direktor muovini bo‘lib ishladi. O. S. Chubaryanning eng yirik milliy kutubxonalarni Direktorlar kengashi yordamida boshqarish haqidagi royali Yevropadagi bir qancha mamlakatlarda ruyobga chiqarildi (masalan, hozirgi vaqtda bunday kengash Bolgariyada ishlab turibdi).

Hozirgi vaqtda, kutubxonalarining o‘zini o‘zi boshqarish doirasini yanada kengaytirish, mutaxassislarni ijodkorlikka qiziqtirish imkoniyati paydo bo‘layotgan bir vaqtda Chubaryanning g‘oyalari avvalgiga qaraganda ancha kengroq amalga oshirilishi mumkin. Uning ommaviy, maxsus kutubxonalar, aholiga madaniy xizmat ko‘rsatish markazi hamda ilmiy-metodik ishlar markazi bo‘lgan ilmiy universal kutubxonalar hakidagi hoyalari, malaka oshirish sistemasi haqidagi fikrlari bayon etilgan asarlari jamiyatni insonparvarlashtirish, uning aqliy imkoniyatlarini o‘stirishga doir vazifalarni hal qilish zarur bo‘lgan hozirgi sharoitda katta ahamiyatga egadir. O. S. Chubaryanning bevosita kutubxonachi kadrlarga bag‘ishlangan asarlari yuq. Lekin uning merosiga murojaat qilar ekanmiz, ularda haqiqiy kitob targ‘ibotchisining, barcha ijtimoiy voqealarga sezgirlik bilan munosabatda bo‘ladigan o‘ta bilimdon, kasb-korlik jihatidan savodxon insonning yig‘ma qiyofasini ko‘ramiz. Bunday kutubxona xodimi yuqoridan beriladigan ko‘rsatmalarning ko‘r-ko‘rona ijrochisini aslo eslatmaydi. O.S. Chubaryan kutubxonachi xodimlar oldiga yuksak vazifalar qo‘ydi, ularni o‘z mehnatlarini tushunib yetishga, dadil tajribalar o‘tkazib, foydalanuvchilarning qizisishlarini muntazam o‘rganib borishga, ilg‘or ish metodlari va shakllarini joriy kilishga chaqirdi, kitob mutolaasiga rahbarlik qilishda pedagogika, psixologiya, sosiologiya asoslarini egallash zarurligini isbotlab berdi.

O‘zbekistonda kutubxonashunoslik fanining shakllanishi va rivojlanishi Yevgeniy Karlovich Betger nomi bilan bog‘liq. YE.K.Betger 1887 yil 30 iyunda Toshkent shahrida tug‘ilib, 1905 yili Toshkent erkaklar gimnaziyasini, keyin Moskva, Gendelberg, Kiyev universitetlarini tugatadi. 1920-1924 yillari O‘rta Osiyo Davlat universitetining sharq fakultetini tugatadi va sharq tillari bo‘yicha yetuk mutaxassis bo‘lib yetishadi.

1914 yildan juda keng bilimga, ayniqsa rus tilshunosligi bo‘yicha yetuk bilimga ega bo‘lgan Betger Toshkent erkaklar gimnaziyasida rus tili va adabiyotidan o‘qituvchilik faoliyatini boshlaydi.

1915 yildan uning kutubxonachilik ishi bilan bog‘liq hayoti boshlanadi. Avval u Rus geografik jamiyatining Turkiston bo‘limida ham uning a‘zosi, ham kutubxonachi lavozimida ishlaydi. 1915 yil u bir ovozdan kutubxona mudiri lavozimiga saylanadi. A.V. Penkov bilan kitoblarni joylashtirish ishini tugatib, kartochkali va predmet katalogini tuzishga kirishadi. Olimlar yordamida fondni kengaytirishga harakat qiladi. Fond ayniqsa o‘lkashunoslik xarakteridagi adabiyotlar bilan boyiydi. Betger kutubxona fondini targ‘ib qilish ishini jonlantirdi, shu yo‘nalishda bibliografiya ishini tashkil qiladi. A.V.Pankov bilan birgalikda “1912 yil 1 oktabrdan to 1914 yil 1 yanvargacha bo‘lgan davrda

turkistonshunoslikka oid kitoblar va maqolalarning bibliografik ko'rsatkichi"ni va 1914-1915 yillar uchun ko'rsatkichini tuzadi.

1917 yil Turkiston ommaviy kutubxonasining Kuzatish qo'mitasi tarkibiga olinadi. Bu yerda u asosan kitob fondini saqlash va uni targ'ib qilish masalalari bilan shug'ullanadi. Rahbarlik qobiliyatiga ega bo'lganligi sababli 1918 yil Turkiston xalq kutubxonasini qayta tashkil etish komissiyasi ishiga jalb etiladi, bir vaqtning o'zida Xalq komissariati qoshidagi kutubxonachilik bo'limini boshqara boshlaydi. Uning tashabbusi bilan Toshkentda kutubxona xodimlarini tayyorlash kurslari tashkil etiladi, bolalar, maxsus va milliy kutubxonalar tashkil etila boshlaydi. Boshqa mutaxassislar bilan birgalikda ilmiy va akademik kutubxonalarning Markaziy O'rta Osiyo birlashmasini boshqaradi, Markaziy bibliografik komissiya ishiga rahbarlik qiladi, kataloglashtirish bo'yicha mas'ul xodim, o'nli tizim bo'yicha yirik mutaxassis va indeksator sifatida o'lka bo'yicha kutubxonalar rahbarligiga tayinlanadi. 1922-1931 yillar ilmiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, ilmiy kotib, 1947 yilgacha bo'lim mudiri lavozimlarida faoliyat yuritadi. 1943 yil "A. I. Butakov kundaliklari" mavzusida nomzodlik dissertasiyasini himoya qiladi.

1920 yillardayoq Betger kutubxonalar ishini tashkil etishdagi asosiy jihatlarga e'tiborni qaratadi. Bular: hisobotlarni tuzishda bir xillikka erishish, kutubxona fondi va kutubxona ma'lumot apparatini tashkil etish, katalog va kartotekalarni tuzish, kitob fondini saqlash, klassifikasiya qilish va o'nli klassifikasiya asosida tavsiflash. 1918 yili L.K.Davidov, A.A. Metelnikov bilan birga 1-marta "O'nli bibliografik klassifikasiya"ni nashr ettiradi. Betger bu ishni 1922 yili takomillashtirib qayta nashr ettirdi, unga so'z boshi, uslubiy ko'rsatma, foydalanish qoidalarini qo'shadi. Betger kutubxonalar hisobotini va uning tarkibiy qismlarini belgilab beradi, unda kutubxonaning tuzilishi va kutubxona bo'limlarida ishni tashkil etish haqidagi masalalarni yoritishni talab qiladi. Bo'limlar ishini qulay va to'g'ri tashkil etish foydalanuvchilarga ilmiy xizmat ko'rsatishning mezonini ekanligini ta'kidlaydi. Uni takomillashtirishda kutubxona xodimining o'rni beqiyosligini, buning uchun undan professional bilim, aql-zakovat, mahorat talab etilishini, kutubxonaning moliyaviy ahvoli, uning smetasini tuzish hamda tahlil qilib turish kutubxona faoliyatini rivojlantirishda, takomillashtirishda muhim ekanligini, kutubxonaning moddiy-texnik bazasini mustahkamlashning kutubxona oldida turgan vazifalarni hamda aholiga kutubxona xizmati ko'rsatishni yaxshilashning asosiy omili ekanligini ko'rsatadi.

O'rta Osiyo Davlat kutubxonasi (hozirgi Milliy kutubxona)ning YE.K.Betger tomonidan tuzilgan yillik hisobotlarida qiyosiy tahlil usuli qo'llanilgan bo'lib, bu bilan kutubxonaning ijtimoiy roli yildan yilga oshib borganligini va yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar, ularni bartaraf etish yo'llarini ko'rish mumkin. Betger bibliografik faoliyatga, ayniqsa o'lkashunoslik bibliografiyasiga katta e'tibor beradi. Nashr etilmay qolib ketgan bo'lsa ham u juda ko'plab o'lkashunoslik harakteridagi bibliografik

ko'rsatkichlarni tuzadi. Arab, fors va boshqa sharq tillarini mukammal bilgan mutaxassis sifatida hozirgi Sharqshunoslik instituti faoliyatida ham ishtirok etadi. 1947-49 yillarda sharq qo'lyozmalarini tavsiflash ishida, 1952 yil tuzilgan "O'zbFA sharq qo'lyozmalari katalogi"ning 1-tomini tuzishda qatnashadi. Nizomiy, Sa'diy, Navoiy, Ogahiy asarlarini tarjima qiladi. 1953 yili uzoq yillik samarali mehnatlari "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan kutubxonachi" unvoni bilan taqdirlanadi.

Rus kutubxonashunosligining o'ziga xos xususiyati— jamiyatdagi barcha hodisalarga, shu jumladan kutubxonachilik ishi masalalariga ham siyosiy nuqtai nazardan qarashdir. Xususan, "burjua kutubxonashunosligiga" keskin tanqidiy munosabatda bo'lish ko'p yillar davom etdi. Bunday bo'lish sababi bir tomondan, kutubxonachilik ishini mafkuralashtirish natijasida, kutubxonalar faoliyatiga tor sinfiy yondashuv asosida ta'riflash va umuminsoniy qadriyatlarga yetarli baho bermaslik bilan bog'liq edi. Bu qadriyatlar orasida kishilarni kitobga va kitob mutolaaga jalb qilish muhim o'rin egallaydiki, bu har qanday jamiyatdagi kutubxonalarning umumiy maqsadidir.

Ikkinchi tomondan, bunday yondashishga G'arbda muayyan vaqt mobaynida mavjud bo'lib kelgan kutubxonachilik fanini yuzaki talqin qilish, asosan uning amaliy roliga e'tibor berish o'z ta'sirini ko'rsatdi. Sharqiy Yevropa mamlakatlaridagi kutubxonashunoslik fanini rivojlanishi xam xuddi shunga o'xshash yo'ldan bordi. Bu mamlakatlar aslida kutubxonachilik fani va kutubxonachilik ishini tashkil etish sohasidagi ruslar tajribasidan nusxa ko'chirdilar.

Rossiyada Sharqiy va Janubiy-Sharqiy Yevropa mamlakatlarida kutubxonachilik ishining davlat xarakteri shu narsada namoyon bo'ldiki, davlat kutubxonalarni mablag' bilan ta'minlashni uz zimmasiga oldi, kutubxonalar fondini sinfiy nuqtai nazardan tuldirishning aniq-ravshan sistemasini ishlab chshush. Kutubxonachilik ishining davlat xarakteri kutubxonalar faoliyatini qattiq mafkuraviy negizda tartibga solishdagina emas, balki ularda "maxsus saqlash" xonalari deb atalmish fondlarning paydo bulishiga olib keldi. Bunday tajriba rus kutubxonashunosligi fanining asosiy tamoyili bulgan kutubxonalarning hamma uchun qulayligi, ommabopligi, ularning bilim olish manbai sifatidagi asosiy vazifasini yuqqa chiqarardi. Rossiya kutubxonashunoslarining chet el kutubxonachilik ishiga qarashlari to'g'risida shuni ta'kidlash zarurki, chet ellarda kutubxonachilik ishini rivojlantirshnda ro'y bergan tub sifat o'zgarishlari rus kutubxonashunosligining mavzulari va uslublariga ma'lum darajada ta'sir o'tkazdi. Agar dastlabki paytlarda G'arbda kutubxonachilik jarayonlarini mexanizasiyalash va avtomatlashtirishning roli butunlay oshirib yuborilganligi shubha tug'dirgan bulsa, keyinchalik, kutubxonachilik ishini mexanizasiyalash va avtomatlashtirish kelajakda kutubxonalar faoliyatini kompyuterlashtirishga asos bo'lishligi yakqol ma'lum bo'la bordi. Natijada avtomatlashtirilgan va kompyuterlashtirilgan sistemalar bugungi kunda chet ellardagi ko'pchilik mamlakatlarda kutubxonachilik xizmatini birlashtirgan bir paytda, Rossiya kutubxona-bibliografik faoliyatning barcha sohalarida

mexanizasiyalashgan sistemalarni joriy qilishda jiddiy orqada qolganligi ma'lum bo'lib qoldi. Shuni tushunib yetgan rus kutubxonashunoslari kutubxonachilik ishini taraqqiy ettirishning yangi konsepsiyasini tuzar ekan, kutubxonalarining barcha faoliyatiga insonparvarlik yo'nalishdagi ijtimoiy muassasa sifatida qarashni, kutubxonachilik xizmat ko'rsatishni demokratlashtirishni, mahalliy sharoitni hisobga olgan holda mustaqil kutubxonachilik siyosati yuritishni, axborotning ommabopligini ta'minlashni, kutubxonalarni texnik jihatdan jihozlash asosida kutubxonachilik xizmati ko'rsatish sifatini oshirish va ularning turlarini kengaytirishni o'z oldiga asosiy maqsad qilib quyishgan.

Shunday sharoitda hozirgi zamon avtomatlashtirilgan kutubxona sistemasi mutaxassislaridan biri M. Gets tomonidan qayd qilingan, elektron xizmatni rivojlantirishga mablag' sarflashning maqsadga muvofiqligini belgilab beruvchi uchta muhim fursatni bilib olish maqsadga muvofiqdir.

Birinchidan, elektron hajm, garchi ularning bahosini qimmatlashtirsa ham, ko'plab nashrlarning harakatini juda ko'p marta oshiradi.

Ikkinchidan, elektron vositalar milliy va xalqaro axborot sistemalaridan, yuzlab kutubxonalarining mashinada o'qiladigan katalog va elektron fayllaridan foydalanishga imkoniyat yaratadi, bu bilan har qanday kutubxonaning foydalanuvchiiga jahon hujjatlar oqimidan erkin xabardor bo'lishiga erishiladi.

Uchinchidan, qator texnika sohalarida ilmiy aloqalar hozirdanoq elektron vositalar orqali amalga oshirilmoqda, demak, yangi tipdagi ma'naviyat almashish mahsuloti bulgan barcha hujjatlar faqat elektron hajmdagina mavjud bo'ladi. Bundan kelib chiqadigan xulosalar shuki, barcha kutubxonalar jamiyat a'zolarining ehtiyojiga qarab kutubxonachilik xizmatini takomillashtirib boradi, ularning talabi darajasida zamonaviy texnik vositalar bilan qurollanadi, shundagina o'zining jamiyat oldidagi ijtimoiy vazifalarini bajara oladi.

II. Bob. Kutubxonashunoslikning mohiyati, vazifalari va tizimi

2.1. Kutubxonashunoslikning fan sifatidagi mohiyati.

Boshqa ilmiy va o'quv fanlari singari kutubxonashunoslik fani ham tarixi, nazariyasi va amaliyotidan iborat bo'lgan uchta qismdan tashkil topadi. Nazariy qism sifatida o'rganiladigan umumiy kutubxonashunoslik o'z navbatida kutubxonalar haqidagi talimot va kutubxonachilik ishi haqidagi talimotlarni alohida va umumiy aloqadorlikda o'rganadi. "Kutubxona fondlari va kataloglari", "Kutubxona axborot xizmati: nazariyasi va amaliyoti", "Kutubxona – axborot faoliyatini boshqarish", "Kutubxonalarining

innovation faoliyati” singari fanlar umumiy kutubxonashunoslikning amaliy qismlari sifatida o‘rganiladi. Demak, umumiy kutubxonashunoslik boshqa kutubxonashunoslik fanlariga nisbatan umumnazariy fan hisoblanadi.

Umumiy kutubxonashunoslik–kutubxonashunoslikning bo‘limi sifatida o‘z mazmuniga ko‘ra kutubxona–axborot faoliyatining tashkiliy, umumnazariy muammolarini, shuningdek, kutubxonashunoslikning obyekti va predmeti, tuzilishi, atamalari, kutubxonashunoslikka oid tadqiqotlar metodikasi va metodologiyasi, kutubxona faoliyatining qonuniyatlari, uning tamoyillari va yo‘nalishlari, boshqa turli fanlar bilan o‘zaro aloqadorligi masalalarini o‘rganadi. Kutubxonashunoslikka oid barcha fanlar uchun o‘zak tushuncha – **bu kutubxonadir**. Kutubxona–axborot, malumot, bilimga nisbatan ijtimoiy ehtiyojlarning individual va ommaviy tarzda muayyan fond orqali qondirilishini taminlovchi maxsus muassasadir. Huquqiy jihatdan esa, kutubxona fond tarkibidagi nusxali hujjatlarni vaqtincha foydalanish uchun jismoniy va yuridik shaxslarga taqdim etuvchi axborot, madaniy talim muassasasi hisoblanadi.

Kutubxonashunoslik va kutubxona ishi o‘ziga xos tarzdagi alohida vazifalarni bajaradi. Kutubxonashunoslik fan sifatida bilimlar tizimi, bilish jarayoni bo‘lib, ijtimoiy institutlardan biridir. Kutubxonachilik ishi esa mehnatning ijtimoiy bo‘linish sohasi, jamiyatning axborot bilan taminlanish sohasidagi tarmoqlardan biri hisoblanadi. Kutubxonashunoslik va kutubxonachilik ishi o‘rtasidagi chambarchas aloqadorlik shunda namoyon bo‘ladiki, kutubxonashunoslik kutubxonachilik ishini o‘rgansa, kutubxonachilik ishi ilmiy bilimlarning amaliyotga joriy qilinish sohasidir.

Kutubxonachilik ishi – jamiyatning axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini kutubxona–axborot muassasasida jamlangan axborot zahiralari yordamida qondirish, shuningdek, muayyan hududdagi kutubxona–axborot muassasalari jamlanmasidir.

Huquqiy ma’nosiga ko‘ra axborot, madaniy–ma’rifiy, ta’lim faoliyatini amalga oshirish sohasi hisoblanadi.

Kutubxonachilik ishi:

1. Kutubxona tarmoqlarini yaratish va rivojlantirish;
2. Fondni shakllantirish va qayta tiklash;
3. Foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatishni tashkil etish;
 - A) Ma’lumot bibliografik;
 - B) Axborot xizmati
4. Kutubxona–axborot muassasalari uchun kadrlar tayyorlash;
5. Kutubxona–axborot muassasalarining ilmiy–uslubiy ta’minotidan iborat bo‘lgan vazifalarni amalga oshiradi.

Kutubxonashunoslik fanining maqsadi– kutubxonaning mavjudligi, uning faoliyatini tashkil etish tamoyillari, kutubxonashunoslikning nazariy asoslari haqida bilim berishdan iboratdir.

Kutubxonashunoslik faninig vazifasi – kutubxonachilik ishi nazariyasini rivojlantirish, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy jarayonlarda kutubxonalar faoliyati bilan bog‘liq tarzda mavjud bo‘lgan qonuniyatlarni ijtimoiy hodisa sifatida tahlil qilish bilan birga ilmiy bilish, tushuntirish, oldindan bashorat qilish, tizimlashtirish vazifalarini ham amalga oshirishdan iboratdir.

Bundan tashqari kutubxonashunoslik quyidagi ijtimoiy vazifalarni ham bajaradi:

- 1) Madaniy – tarbiyaviy (fan umumiy xossasining ilmiy dunyoqarashda, ijtimoiy ongda, insoniyat madaniyatini rivojlantirishning harakatdagi omili sifatida namoyon bo‘ladi);
- 2) Ishlab chiqaruvchi kuch sifatidagi (kutubxonachilik ishi rivojlanishining muhim sharti sifatida foydalanuvchilarga kutubxona – axborot xizmatini ko‘rsatish sifati va samaradorligini oshirishga, amaliyotga yangi istiqbolli g‘oyalarni qo‘llashga, uning taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsatuvchi bilvosita kuch sifatida namoyon bo‘ladi).
- 3) Ijtimoiy kuch sifatida (kutubxonashunoslik jamiyat hayoti va madaniyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi sharoit yaratib berishda qatnashadi. Ayniqsa jamiyatning axborotlashuvi alohida ijtimoiy rol o‘ynaydi).

Kutubxonachilik ishi inson faoliyatining shakllaridan biri sifatida uchta tarkibiy qismdan tashkil topdi:

1. Mehnat predmeti (kitoblar, jurnallar, axborotlar).
2. Mehnat subyekti (foydalanuvchi).
3. Mehnat vositachisi (kutubxona xodimi).

Ushbu tizimda kutubxonachi faoliyati nashr mahsuloti, axborot va foydalanuvchi o‘zaro munosabatlarning tashkilotchisi sifatida namoyon bo‘lishi, kutubxonaning mafkuraviy, madaniy – ma’rifiy, ilmiy – axborot muassasasi sifatidagi ijtimoiy rolga muvofiq keladi. Shunday qilib, nashr mahsuloti, axborot – kutubxonachi – foydalanuvchi bog‘lanish tizimi kutubxonashunoslikning obyektini tashkil etadi.

Kutubxonashunoslikning predmeti kutubxonachilik tizimining mavjudligi, shakllanishi, rivojlanishi qonuniyatlari va tamoyillarini tadqiq qilish va aniqlashtirishdan iboratdir.

2.2. Kutubxonashunoslik fanining tuzilmasi

Kutubxonashunoslik fanining tuzilmasi, ichki tashkiliy shakli uning bir butun, mustahkam, nisbiy barqaror, o‘zaro aloqadorlikdagi qismlari, elementlari, tomonlari birligidan tashkil topadi. Kutubxonashunoslik fanining tuzilmasi bo‘yicha bir biriga zid bo‘lgan turli qarashlar mavjud bo‘lsada ilmiy asoslanganlari quyidagilardan iboratdir: 1) ilmiy qonunlar; 2) ilmiy tamoyillar; 3) ilmiy nazariyalar; 4) tadqiqot metodlari; 5) tushunchalarni ifodalovchi tizim; 6) farazlar; 7) kuzatishlar va tajribalarga asoslangan ma’lumotlar. Bundan tashqari kutubxonashunoslikka nisbatan bir tomondan ilmiy fan sifatida, ikkinchi tomondan, o‘quv fan sifatida yondashuvlar ham mavjuddir.

Ilmiy fan sifatida kutubxonashunoslikning tuzilmasini shartli ravishda quyidagicha ko'rsatish mumkin:

1. Kutubxonashunoslikning nazariy asoslari.
2. Kutubxona -axborot ma'lumotlari to'plamini shakllantirish nazariyasi.
3. Kutubxona -axborot qidiruv tizimi nazariyasi.
4. Foydalanuvchilarga kutubxona-axborot xizmati ko'rsatish nazariyasi.
5. Kutubxona-axborot faoliyatini boshqarish
6. Kutubxonachilik ishi va kutubxonashunoslikka oid fikrlar tarixi.

Kutubxonashunoslik o'quv fani sifatida quyidagi bo'limlardan tashkil topadi:

1. Kutubxonachilik ishi tarixi va nazariyasi.
2. Hujjatlar zahirasi.
3. Hujjatlarni analiz va sintez metodi asosida qayta ishlash.
4. Foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish.
5. Kutubxona-axborot faoliyati menejmenti va marketingi.
6. Hujjatshunoslik: ish yuritish asoslari.
7. O'zbekistonda va xorijiy mamlakatlarda kutubxonachilik ishi tarixi.

Ushbu tuzilma mutolaa psixologiyasi, kutubxona reklamasi, foydalanuvchi psixologiyasi singari o'quv kurslari hisobiga kengayib boradi.

III Bob. Kutubxonashunoslikning metodologiyasi va metodikasi

3. 1 Kutubxonashunoslikning metodologiyasi

Boshqa fanlar singari kutubxonashunoslik fanida ham o'z yo'nalishida qo'llaniladigan metodlardan tashqari umumfalsafiy qonunlar umumiy metodologiya sifatida amal qiladi. Bu qonunlar dialektik qonunlar bo'lib, amal qilish diapazoniga ko'ra bir-biridan farqlanadi. Jumladan, qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni taraqqiyotning barcha nuqtalarida namoyon bo'ladi. Agar u barcha jarayonlarni harakatlantiruvchi kuch sifatida bir lahza bo'lsada amal qilishini to'xtatishi rivojlanish va taraqqiyot jarayonining to'xtashini anglatadi. Shuning uchun ham ushbu qonunni biz diapazoniga ko'ra differensial deb ataymiz. Kutubxonashunoslik nazariy, kutubxona ishi esa amaliy xususiyatga ega, lekin kutubxonachilik ishi nazariya orqali yanada rivojlanadi, kutubxonashunoslik esa kutubxona ishi amaliyoti orqali yanada takomillashadi. Miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi qonuni taraqqiyot jarayonining muayyan

qismlarida ko‘rinadi, evolyusiya jarayoni sof miqdoriy o‘zgarishlar davri bo‘lib, ushbu qonunning amal qilishi sezilmaydi. Lekin ushbu miqdoriy o‘zgarishlar yangi sifat o‘zgarishlariga o‘ta boshlashi bilan o‘zini to‘la namoyon qila boshladi. Shuning uchun ham uni differensial-integral deb atash mumkin. Kutubxonalarining miqdoriy jihatdan ko‘payib borishi kutubxonashunoslikka oid fikrlarning zaruriylikini taqozo qiladi. Kutubxonashunoslikka oid fikrlarning takomillashib borishi kutubxonachilik ishining yanada yuksalishiga ta’sir o‘tkazadi. Ushbu jarayon doimiy va uzluksiz davom etuvchi jarayondir.

Inkorni inkor qonuni avvalgi ikki qonun sifat taraqqiyotining barcha bosqichlarida amal qilsada u takroriy inkor yuz bergan paytida, ya’ni mavjud jarayonning oxirida, nisbiy yakunlanganlik holatiga yetgan paytda namoyon bo‘ladi. Bu spiralsimon harakatda doimo takrorlanuvchi qonundir. Shuning uchun ham rivojlanish jarayonini boshdan ohirigacha qamrab olganligi uchun ushbu qonun integral deb ataladi. Kutubxonashunoslikning bugungi rivojlanishi uning avvalgi rivojlanishi bosqichlarining inkoridir, shu bilan birga o‘zining rivojlanishi uchun avvalgi bosqichlarni taqozo qiladi.

Diapazoniga ko‘ra qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonun dialektikaning yadrosi deb atalsada, har uchala qonun obyektiv borliqda, barcha fanlarda, jumladan, kutubxonashunoslik fanida ham teng amal qiladi. Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan qonunlardan tashqari dialektika kategoriyalari ham kutubxonashunoslik fanining mavjudligi va rivojlanishida keng amal qiladi. Ushbu kategoriyalar shakl va mazmun, mohiyat va hodisa, sabab va oqibat, imkoniyat va voqelik, zaruriyat va tasodif kategoriyalaridir.

Mazmun – predmetlar, hodisalarning asosini tashkil etuvchi, ularni aynan shunday holatda ifodalovchi xususiyatlar, aloqalar, jarayonlar birligidir.

Shakl – predmetlar, hodisalarning tuzilishi, mazmunning tartibga solinganlik tamoyili, namoyon bo‘lish usuli, ya’ni tashqi ifodalanishidir.

Mazmun bir qancha shakllarda ifodalanishi mumkin. Masalan, ijtimoiy ong va uning shakllari yoki harakat va uning shakllari.

Mazmun va shakl muayyan bir narsa yoki hodisaning uzluksiz dialektik aloqalar bo'lgan ikki tomonidir. Mazmuni tashkil etuvchi ichki xususiyatlar, elementlar shaklsiz ifodalanmaganidek, narsa va hodisaning tashqi ko'rinishi, ifodasi ham mazmunsiz namoyon bo'la olmaydi. Hegel aytganidek, mazmunning shaklga ega bo'lishi o'z navbatida shaklning mazmunga ega bo'lishidir. Agar san'at asarlarini olib ko'radigan bo'lsak, muallif tomonidan ilgari surilgan g'oyalar asar mazmunining, ushbu g'oyani ifodalashda ma'lum bir kompozisiya, til, uslub, obrazlar va janr turi ushbu asarning shaklini ifodalaydi. Bundan tashqari bir mazmun turli shakllarda namoyon bo'lishi mumkin. Masalan, Amir Temur obrazi poeziyada ham, prozada ham, dramaturgiyada ham, kino san'atida ham o'z ifodasini topgan.

Shaklning mazmunga mos kelishi nisbiy bo'lib, mazmunning nisbatan tez o'zgaruvchanligi, shaklning sekinroq o'zgaruvchanligi natijasida avvalgi o'zaro moslik ziddiyatga aylanadi va ular o'rtasida kurash boshlanadi. Ushbu kurash yangi mazmunga mos bo'lgan yangi shaklning vujudga kelishiga olib keladi.

Mohiyat – muayyan predmet, hodisa yoki jarayonning nisbiy barqaror, ichki yashirin belgilari majmuidir.

Hodisa – obyektiv reallikdagi muayyan predmetlar, hodisalar, jarayonlarning tashqi, nisbiy mustaqil, o'zgaruvchan, kuzatish mumkin bo'lgan holatini aks ettiradigan tushunchadir.

Tirik organizmlarga xos bo'lgan modda almashinuvi ularning mohiyatini tashkil etsa, 1,5 milliondan ko'proq turdagi tirik mavjudotda hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Voqelikdagi jarayonlar muayyan sabablar natijasidagina paydo bo'ladi. Undan boshqa, ya'ni ikkinchisini keltirib chiqargan hodisa sabab, kelib chiqqani oqibatdir. Sabab har qanday emas muayyan oqibatlarni keltirib chiqaradi. Har qanday voqelik bunyodga kelishidan avval imkoniyat shaklida mavjud bo'ladi. Imkoniyat hali amalga oshmagan voqelikdir. Shunga ko'ra imkoniyat – muayyan xodisaning, jarayonning kelib chiqishi, mavjud bo'lishining shart-sharoitlari yig'indisidir. Imkoniyatlarning real va abstrakt shakllari mavjuddir. Voqelikka aylanishi uchun zaruriy shart-sharoit yetilmagani abstrakt imkoniyat deyiladi.

Voqelik – amalga oshgani imkoniyatdir. Imkoniyat va voqelik voqealar rivojlanishining ikki uzluksiz bosqichi – uning sababdan oqibatga tomon harakatini ifodalaydi.

Zaruriyat – predmetlar va hodisalar o‘rtasidagi qonuniy aloqadorlikdan kelib chiqadigan, muqarrar tarzda yuz beradigan hodisalar, jarayonlardir. Zaruriyat hodisalar zrtasidagi shunday taqozolangan aloqadorlikni, unda hodisa – sabab, muqarrar sifatda hodisa-oqibatga olib kelad. Zaruriyat predmet va hodisalarning ichki, barqaror, takrorlanuvchi umumiy munosabatlarini, taraqqiyotdagi asosiy yo‘nalishlarni ifodalaydi. Zaruriyat ichki va tashqi, umumiy va ayrim zaruriyatlarga ajratiladi. Predmet va hodisalarning ichki mohiyatidan kelib chiquvchi zaruriyatlar ichki, voqealarning bir-biriga to‘g‘ri kelishi natijasida kelib chiqadigani tashqi zaruriyatdir. Umumiy zaruriyat voqeilikning kengroq sohasida, ayrim zaruriyat esa ayrim obyektida ifodalanadi.

Tasodif – voqealar va hodisalarning o‘zaro bog‘lanishidagi qonuniy hodisalardan kelib chiqmaganligi uchun yuz berishi ham, yuz bermasligi ham mumkin. Tasodiflar ham sababli bo‘lib, zaruriyatning muayyan elementlari mavjud bo‘lgan hodisalardir. Tasodiflar qat‘iy aniqlik va muqarrarlik xarakteriga ega bo‘lmaydi.

Ehtimollik – tasodifiy hodisalar yuz berish imkoniyatining mezonidir. Mumkin bo‘lmagan hodisa ehtimolligi nolga, zaruriy ehtimolligi birga tengdir. Zaruriyat va tasodif nisbiy bo‘lib, zaruriyat muayyan sharoitda tasodif sifatida yoki aksincha namoyon bo‘lishi mumkin. Z. va T. kategoriyasini bilishning amaliy ahamiyati shundaki, ularni oldindan bilish ijtimoiy jarayonlarni boshqarish, ularning yo‘nalishini oldindan ko‘ra bilish va maqsadga muvofiq boshqarish imkoniyatini beradi. Tasodiflarni bilish esa maqbul bo‘lmaganlarining oldini olish, ijobiylaridan foydalanish imkonini beradi. Eng umumiy aloqadorliklar “Xususiylik-umumiylik”, “o‘xshashlik-farq”, “sifat -miqdor”, “oddiy- murakkab”, “qism- butun”, “cheklilik- cheksizlik”, “shakl- mazmun”, kategoriyalaridan tashqari determinizmning universal aloqalarini ifodalovchi “mohiyat-hodisa”, “sabab- oqibat”, “zaruriyat- tasodif”, “imkoniyat -voqelik” kategoriyalari ham mavjuddir. Predmetlar, hodisalar, jarayonlarning fazoviy o‘rni, vaqtda mavjudligi va boshqa xossalari ko‘ra boshqalaridan farqlanishi – yakkalikdir.

Umumiylik – alohida hodisalar, predmetlarning obyektiv mavjud o‘xshash belgilari, ma’lum munosabatlarda hodisalar, aloqalarning bir guruhga mansubligini anglatadigan tushunchadir.

Sistema – o‘zaro aloqalar elementlarining tashkiliy, tartibiy tizimga tushgan holdagi mavjudligidir.

Element – murakkab jarayonlar, predmetlar, hodisalarning o‘rganilayotgan vaqtdagi bo‘linmas tarkibiy qismidir.

Struktura (tizim) – u yoki bu murakkab butun elementlarning nisbiy o‘zgarmas aloqadorligining usuli (qonuni)dir.

Struktura obyektning barqarorligi, muntazamliligi, sifatii muayyandigini ta’minlaydigan ichki va tashqi aloqalarning tartibga tushgan mavjudligidir.

Determinizm – sababiyat va qonuniyatchilik tamoyiliga asoslanadigan tushunchani ifodalaydi. Determinizm lotincha “determino” – belgilayman ma’nosini anglatadi.

Butun – o‘zaro bog‘liq bo‘lgan qismlardan tashkil topgan ma’lum bir sistemasidir. Qism esa ushbu butun tartibiga kirgan nisbiy mustaqil tarkibiy qismlaridir. Tizim, element, butun, qism, tarkib tushunchalari kutubxonashunoslik fani tizimi, tashkil etuvchi elementlar, tarkibiy qismlar tushunchalarini ifodalaydi.

3.2 Kutubxonashunoslikning ilmiy metodikasi

Hozirgi zamon fanida ilmiy bilishning kuzatish va eksperiment, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, umumlashtirish, abstraktlashtirish, va konkretlashtirish, tarixiylik va mantiqiylik, ideallashtirish, modellashtirish va shu kabi ilmiy metodlari mavjud bo‘lib, kutubxonashunoslik fanida ham uning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda keng qo‘llaniladi. Ilmiy bilishning bu metodlari o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular bilishning qaysi bosqichi va qaysi darajasida qo‘llanishi, o‘zlarining tartibi va xarakterlari bilan farq qiladi. Biz bu metodlarning har biri bilan alohida alohida tanishib chiqamiz.

Kuzatish – bu harakat, o‘zgarish va rivojlanishdagi ma’lum obyektning tabiiy sharoitida u qanday bo‘lsa, shu xolicha diqqat bilan, belgilangan vaqt ichida, ma’lum maqsad asosida ko‘zdan kechirib borishdir.

Eksperiment esa, bu – sun’iy yaratilgan sharoitda olib boriladigan kuzatishdir. Eksperimentda o‘rganilayotgan predmet yoki hodisa o‘z holida, lekin sun’iy yaratilgan sharoitda ko‘zdan kechirib boriladi. Eksperimentda tadqiqotchi o‘z o‘rganish obyektiga aktiv ta’sir qilishi, kuzatishning borishi, kuzatilayotgan jarayonni o‘zi xohlagan yo‘nalishga qarab o‘zgartirish mumkin.

Eksperiment kuzatish bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, u kuzatishsiz mavjud bo‘lmaydi, ular bir birlarini to‘ldiradi. Kuzatish va eksperiment asosida to‘plangan faktlar, ma’lumotlar ilmiy bilishning empirik darajasini hosil qiladi.

Kuzatish va eksperiment asosida hosil qilingan fakt va ma’lumotlar esa o‘z navbatida tadqiqotchilardan ularni analiz va sintez qilishni taqozo qiladi.

Analiz–bu bir butunni qismlarga, bo‘laklarga, tomonlarga va elementlarga aeratib ularning har biri nima ekanligini bilishdir. Analiz usuli natijasida butunni tashkil etgan qismlar, tomonlar, bo‘laklar, elementlar, ularning butun tarkibidagi o‘rni aniqlanadi. Analiz orqali predmet va xodisalarning strukturasi, tuzilishi bilinadi.

Sintez–analiz tufayli ajratilgan bo‘laklar, qismlar, tomonlar, elementlar o‘rtasidagi va ularning butun bilan bo‘lgan aloqa va bog‘lanishlarini bilio‘ga qaratilgan metoddir.

Analiz bilan sintez bilish jarayonidagi bir moddiy yoki mantiqiy amalning ikki tomonidir, ularni bir biridan ajratib qo‘llab bo‘lmaydi. Chunki tabiatdagi hamma jarayonlar ikki tomonlamadir.

Tadqiqotchi o‘rganayotgan predmet yoki hodisalari ustida olib borgan kuzatish va eksperimentlari, analiz bilan sintezlari asosida hosil bo‘lgan empirik faktlar va ma’lumotlarni o‘z tafakkurida umumlash tiradi, abstraktlashtiradi va konkretlashtiradi. Tafakkur jarayonida yuz beradigan bu amallar ham ilmiy bilishning umumiy ilmiy metodlarini tashkil etadi.

Umumlashtirish–bu tadqiqot olib borayotgan bir qancha predmet yoki hodisalarga xos bo‘lgan biron belgi, biron xususiyat yoki biror tomonni fikran ajratib olib, uni mustaqil mohiyati sifatida qarashdir.

Abstraktlashtirish esa, bu – o‘rganilayotgan predmet va hodisalarning tadqiqot uchun zarur bo‘lmagan tomonlari, xususiyatlari va xossalarni fikrdan va e‘tibordan soqit qilib, tadqiqot uchun zarur bo‘lgan birorta belgi yoki xususiyatni mavxum holatga keltirishdir. Ilmiy bilish jarayoni umumlashtirish va abstraktlashtirish bilan tugamaydi.

Konkretlashtirish bu – umumlashtirish va abstraktlashtirish jarayonida ajratib olingan e‘tibordan soit qilgan oldingi butun belgi va xususiyatlarni yana predmet yoki hodisalar bilan bog‘lab, shu predmet yoki hodisa haqida konkret fikr hosil qilishdir.

Umumlashtirish, abstraktlashtirish va konkretlashtirish tafakkurdagi bir mantiqiy amalning turli tomonlaridir xolos. Tadqiqotchi umumlashtirish, abstraktlashtirish va konkretlashtirish usullar asosida tafakkur jarayonida yangi nazariy bilimlarni hosil qiladi. Bu usullarning har uchulasi tafakkur jaryonida doimo birlikda qo‘llanilib, bir birlarini to‘ldirib keladi.

Umumlashtirishdan abstraktlikka va undan konkretlikka hamda konkretlikdan umumlashtirish orqali yana abstraktlashtirish tomon borish nazariy bilishning eng muhim usullaridir. Ilmiy bilishda konkretlikdan abstraktlikka va undan yana konkretlikka borish nazariy bilishning umumty qonunidir. Ilmiy bilishning bu metodlari fanlar taraqqiyotining turli davrlarida turli rol o‘ynab kelgan. Konkretlikdan abstraktlikka borish usuli fanlarning shakllanish davrida ularga oid turli ilmiy tushuncha va kategoriyalarni ishlab chiqishda muhim rol o‘ynagan edi. Keyinchalik fanlar jadal rivojlanib borgan davrga kelganda, predmet yoki hodisalarni chuqur bilish talabi abstraktlikdan konkretlikka ko‘tarilish usulining ahamiyatini orttirdi. Shunga qaramay ilmiy bilish jarayonida bu ikki usul doimo birlikda va o‘zaro bog‘liklida qo‘llaniladi. Bu usullar nazariy bilishning induktiv va deduktiv metodlari bilan ham chambarchas bog‘liqdir.

Induktiv metod yoki induksiya ilmiy bilishning shunday usuliki bunda tadqiqotchi o‘z tafakkurida tekshirayotgan predmet yoki hodisalar to‘g‘risidagi bir qancha juz‘iy faktlardan, ular haqidagi ayrim bilimlardan umumiyroq bilimlarni hosil qiladi.

Ilmiy bilishda induktiv usul bilan hosil qilingan bilimlar doimo deduktiv usul yordamida tekshiriladi.

Deduktiv metod yoki deduksiya bu bilish jarayonida fikrda umumiy bilimlardan juz‘iy, qisman bilimlarga kelishdir. Deduktiv usul vositasida tadqiqotchi bir sinf, bir jins,

bir guruh, predmet yoki hodisa to'g'risidagi umumiy bilimlardan ularning har biri haqida alohida bilimlarni hosil qiladi. Insonning bilish tajribasidan shu narsa ma'lumki, agar biron xususiyat bir sinf yoki bir jinsdagi hamma predmet yoki hodisalarga xos bo'lsa bu xususiyat shu sinf yoki jinsga oid har bir predmet yoki hodisaga ham xos bo'ladi.

Ilmiy bilishning bu usullari o'z navbatida tarixiylik va mantiqiylik metodlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Tarixiylik o'rganilayotgan predmet yoki hodisaning paydo bo'lish, rivojlanish va yemirilish jarayonlari birligini, uning tarixiy taraqqiyot jarayonida boshqa voqealar bilan aloqadorligini nazariy bilishga qaratilgan usuldir. Tarixiylik deganda, tadqiq etilayotgan predmet yoki hodisaning konkret sharoitda paydo bo'lishi, yashashi, rivojlanishi va yemirilishi yoki yo'q bo'lishidan iborat jarayonning tafakkurda ifodalanishi tushuniladi.

Mantiqiylik esa, ana shu tarixiylik tadqiqotchi fikridagi umumlashtirilgan, abstraktlashtirilgan, konkretlashtirilgan, qisqargan, tasodiflardan tozalangan abstrakt konkretlik shaklida ifodalanishidir.

Mantiqiylikda tarixiylikning eng zarur va eng asosiy tomonlari, xususiyatlari, qonuniyatlari ifodalanadi. Tarixiylik va mantiqiylik o'zaro chambarchas bog'liq. Lekin tarixiylik birlamchi, mantiqiylik ikkilamchidir.

Tadqiqotchi biron bir obyekt ustida izlanishlar olib borganida ilmiy bilishning bu usullarini to'g'ri qo'llashi lozim. Xaqiqatdan ham, tadqiq etilayotgan predmet yoki hodisaning real tarixini to'g'ri o'rganib chiqmay turib, uning mohiyatini to'g'ri ifodalab bo'lmaydi.

Keyingi vaqtda EHM lar va kompyuterlarning yaratilishi, ularning ishlab chiqarishgacha joriy etilishi, matematik usullarning konkret fanlar sohalarida samarali qo'llanilishi, modellashtirish, formallashtirish kabi yangi usullarning paydo bo'lishiga olib keldi. Hozirgi kunda bu usullar ko'pchilik tabiatshunoslik va gumanitar fanlar sohalarida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarga keng qo'llanilib, ular ilmiy bilishning umumiy ilmiy metodlariga aylanib bormoqdalar. Biz quyida shu metodlar haqida to'xtalib o'tamiz.

Formallashtirish – bu tekshirilayotgan predmet yoki hodisalarning ma’lum konkret tomonlari, xossa va xususiyatlarining mazmunini mavhumlashtirib, uni ma’lum abstrakt ifoda, formula yoki sxemalar bilan ifodalashdir. Bu metod yordamida tadqiq etilayotgan obyektlar o‘rtasidagi aloqadorlik, ularning munosabatlari ma’lum ifodalarda belgilanadi. Masalan, algebrada matematik ifodalar: $a+v$, $a<v$, $a^2-2av+v^2$ kabilar miqdoriy munosabatlarning formallashtirilgan ko‘rinishidir.

Formallashtirish usuli eng ko‘p darajada matematika, fizika, kimyo, matematik logika, injenerlik va texnika sohalarida olib boriladigan tadqiqotlarda qo‘llaniladi. Formallashtirish usuli o‘z navbatida modellashtirish usuli chambarchas bog‘liqdir.

Modellashtirish dastlab matematika fanlarida yuzaga kelgan bo‘lib, hozirgi vaqtda esa fizika, biologiya, kibernetika kabi ko‘pchilik fanlarda olib boriladigan tadqiqotlarda keng qo‘llaniladi. Modellashtirish usuli o‘rganilayotgan obyektning tuzilishi yoki funksiyasiga ko‘ra unga o‘xshash, lekin uning o‘zi emas, uning nusxasini yaratib, shu nusxa orqali xaqiqiy obyektning tegishli xossa va xususiyatlarini o‘rganishdir. Ilmiy bilishda bu usulning vazifasi odatda tekshirilayotgan prediyet yoki hodisani bevosita, originalida o‘rganish iloji bo‘lmagan paytda uning originalligiga o‘xshash, unga mos moddiy yoki fikriy nusxasini ya’ni modelni yasab, shu model asosida originalni o‘rganishdan iboratdir. Modellashtirish usuli o‘rganilayotgan obyektida yuz beradigan jarayonni uning nusxasida bevosita tadqiq qilish imkonini berish bilan alohida ahamiyatga egadir. Modellashtirish va modelning o‘ziga misol qilib biz globusni olishimiz mumkin.

Modellashtirish ko‘p bosqichli jarayondir. Uning birinchi bosqichi modelni qurishdir. Qurilgan modelning original bilan mosligini aniqlash modellashtirishning ikkinchi bosqichidir. Modellashtirishning oxirgi bosqichi esa bu model orqali ega bo‘lingan yangi bilimning haqiqatligini aniqlashdir.

Ilmiy bilish jarayonida turli fanlar sohasidagi tadqiqotlirada har xil modellar qo‘llaniladi. O‘z tabiatiga ko‘ra bu modellarni ikki guruhga bo‘lish mumkin: ular 1. Moddiy modellar 2. Fikriy modellar.

Moddiy modellar – bular moddiy jismlardan qilingan modellardir. Fikriy modella esa til belgilari, tildagi simvollar, har xil kodlar, EHM programmalari va shular kabilardir.

Modellashtirish tadqiqotchiga o'rganayotgan predmet yoki hodisalardagi kechadigan jarayonlarni bevosita idrok qilish mumkin bo'lmagan paytda ularni model orqali o'rganishga, bilishga yordam beradi. Bunga misol qilib N.Borning atomning planetar modelini olish mumkin. Ma'lumki, bu modelning yaratilishi bilan materiyaning tuzilishiga oid juda ko'p narsalarni bilish mumkin bo'ldi.

Modellashtirish ilmiy bilishda katta rol o'ynashi bilan bir qatorda, uning cheklangan tomonlari ham bor. Hech bir model originalning xususiyatlarini to'la ifodalay olmaydi. Chunki har qanday model obyektning (originlarning) tadqiqot uchun muhim bo'lgan xususiyatlarini mavhumlashtiradi. Lekin modelning obyektga qay darajada ifodalashi uning obyektga qanchalik mosligiga, modellashtirishda qo'llanilgan texnik va boshqa vositalarga bog'liqdir. Ilmiy bilishda modellashtirishning turli xillarini birgalikda qo'llash, mukammalroq modellardan foydalanish yaxshiroq natijalar beradi.

Biz yuqorida ko'rib o'tgan metodlardan tashqari, ilmiy bilishda xususiy, alohida metodlar muhim ahamiyatga ega. Ular bir yoki bir necha fan sohalarida olib boriladigan tadqiqotlarda qo'llanilishi bilan umumiy ilmiy metodlardan farqlanadilar, xolos. Bu metodlarni ba'zan aniq fan metodlari ham deyiladi. Har bir aniq fanda bunday metodlarning bir qanchasi qo'llaniladi. Masalan, texnika fanlarida grafik metod; tarix adabiyotshunoslik va tilshunoslik fanlarida qiyosiy tarixiy metod; san'atshunoslik fanlarida romantizm va realizm kabi xususiy, alohida aniq metodlar qo'llaniladi. Bu metodlarning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ilmiy bilish jarayonida muhim rol o'ynaydi.

Tadqiqotchi o'zi tadqiq etayotgan predmet yoki hodisalarni o'rganishda ilmiy bilishning turli metodlaridan foydalanish asosida ma'lum yangi bilimlarni hosil qiladi. Bu yangi bilimlar o'zlarining paydo bo'lishidan to insoniyatning nazariy bilimlari tizimlari fanlarga kirib kelishigacha, har xil ko'rinishlarda bir qancha taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tadi. Ilmiy tadqiqot asosida paydo bo'lgan yangi bilimlarning rivojlanishidagi turli ko'rinishdagi bu bosqichlar ilmiy bilishning shakllari deyiladi. Ilmiy

bilishning bunday shakllarining asosiylarini ilmiy g'oya, muammo, gipoteza, nazariy va ilmiy oldindan ko'rishlar tashkil qiladi.

Ilmiy g'oya – ilmiy bilishning birinchi shaklidir. G'oya bu tadqiqot maqsadini, uning yo'nalishi va mohiyatini ifodalaydigan ilmiy bilish shaklidir. G'oya o'z tabiatiga ko'ra biror fikrdir, u tadqiqotsi miyasida uning amaliy va nazariy faoliyati asosida paydo bo'lib, borliqning to'g'ri yoki xato in'ikosidir.

Ilmiy bilishda g'oya muhim rol o'ynaydi. Ma'lum bir aniq g'oya tug'ilmaguncha biror sohada tadqiqot olib borish mumkin emas. Har bir g'oya ma'lum bir tayyorgarlik, ma'lum mushohada asosida ma'lum bir sohada fikr yuritish natijasida paydo bo'lib, unda tadqiqotchining amaliy va nazariy tajribalari umumlashgan bo'ladi. Bunday g'oyalarni ularning tabiatiga ko'ra:

- Ilmiy g'oyalar
- Badiiy g'oyalarga bo'linishi mumkin.

Ilmiy g'oyalar fan texnika sohalariga oid tug'ilgan g'oyalardir. Badiiy g'oyalar esa, asosan, badiiy ijodga xos bo'lib, ular yozuvchi yoki shoirning “niyati” deb ataladi. G'oyalarni yana ularning xarakteriga ko'ra ikkiga ajratish mumkin:

- Borliqning to'g'ri, real in'ikosidan iborat g'oyalar
- Borliqning xato yoki fantastik in'ikoslaridan iborat g'oyalar.

G'oyalar yana progressiv va reaksiyon g'oyalarga ham bo'linadi. Progressiv g'oyalar ilmiy bilishni rivojlantirishga xizmat qilsa, reaksiyon g'oyalar unga to'siqlik qiladi. Limiy bilishda progressiv va reaksiyon g'oyalarustida doimo kurash ketadi.

Ilmiy bilishda bir xil g'oyalar birikib, biror ilmiy muammoni paydo qilishi mumkin.

Muammo – ilmiy bilishning hali bilib olinmagan va hal qilinmagan, lekin bilinishi va hal qilinishi lozim bo'lgan bilim shaklidir. Muammo odatda tadqiqotchining biror tadqiqot sohasiga oid yangi faktlarni to'plagan, lekin bu faktlarning o'zidagi eski bilimlar tizimiga sig'may, o'zlarining yangicha bayonini talab qila boshlaganda tug'iladi. Muammoning tuzilishi va qo'yilishi ilmiy bilish jarayoning eng muhim momentlaridan biridir. Muammoning to'g'ri qo'yilishi – ilmiy bilishda ishning yarmini hal qilish demakdir.

Kundalik hayotda muammoni ko‘pincha savol yoki biror masala bilan aralashtirib qo‘llashadi. Ilmiy bilishning shakli sifatida muammo savol va masaladan farq qiladi. Ko‘pchilik muammoni eng qiyin, eng murakkab masala yoki savoldir deyishadi. Muammo savol yoki masala bilan, savol yoki masala muammo bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Lekin savol yoki masala muammo emas. Savol yoki masalaning o‘ziga xos xususiyati, muammotning ham o‘ziga xos jihatlari bor. Savol yoki masalaning o‘ziga xos xususiyati shuki, savolga javob berish, masalani yechish doimo oldingi bilim asosida amalga oshadi. Muammoda bunday emas. Muammoni oldingi hosil qilingan bilimlar doirasida turib hal qilib bo‘lmaydi. Buning uchun yangi faktlar, ma‘lumotlar to‘plash ularni yangicha izohlash, shu paytgacha mavjud bo‘lgan eski bilim doirasini buzish talab qilinadi.

Muammolar ham g‘oyalar kabi haqiqiy va sohta (yolg‘on) muammolardan iborat bo‘ladi. Haqiqiy muammolar ilmiy fakt va fanlarning qonunlaridan kelib chiqsa, soxta muammolar ilmiy faktlar va fan qonunlriga zid keladi.

Ilmiy bilish jarayonida bir muammo bir qancha muammolarni keltirib chiqarish mumkin. Bunga bizning bozor iqtisodiyotiga o‘tishimiz muammosini ko‘rsatish mumkin. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish muammosi bizning iqtisodiy siyosiy va ma‘naviy hayotimizda yangi yangi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bu muammolardan biri ishlab chiqarilgan tovarlarni erkin narx bilan sotishga o‘tish bilan taqozolangan kam ta‘minlangan oilalarni, nafaqaxo‘r kishilarni, talabalarni va yoshlarni ijtimoiy himoya qilish muammosini olish mumkin.

Ilmiy bilish jarayonida muammolarni hal qilishda ko‘plab gipotezalar paydo bo‘lishi mumkin.

Gipoteza – tekshirilayotgan predmet yoki hodisa to‘g‘risida ilgari surilgan, ilmiy jixatdan asoslangan, ilmiy fakt va ma‘lumotlarga zid bo‘lmagan, lekin haqiqatliligi isbotlanmagan ilmiy bilish shaklidir.

Ilmiy bilish jarayonida ko‘plab gipotezalar paydo bo‘lishi mumkin, ular bir birini to‘ldiruvchi, bir biriga zid, bir biriga qarama qarshi va bir birini inkor qiluvchi gipotezalar bo‘lishi mumkin.

Umuman olganda, ilmiy bilishning rivojlanishi, gipotezalarning paydo bo'lishi, ularning isbotlanishi yoki rad qilinishi va yana yangi gipotezalarning paydo bo'lishi asosida sodir bo'ladi.

Gipotezalar tadqiqotchini doimo ma'lum izlanishga yo'naltiradi, uning e'tiborini nimaga qaratishi, nimani izlashini aniqlab beradi. Gipotezalar, obrazli qilib aytganda, tadqiqotchining doimiy ish qurolidir.

Ilmiy bilishda paydo bo'lgan gipotezalar keyingi tadqiqotlarda tekshirilib, ularning haqiqatligi tasdiqlanadi yoki xatoligi isbotlanib, rad qilinadi. Gipotezani rad etish uchun uning xatoligini isbotlovchi birgina ilmiy fakt kifoyadir. Gipotezaning haqiqatligi isbotlansa, bunday gipoteza nazariyaga aylanadi.

Nazariya – ilmiy bilishning eng yuqori shaklidir. Nazariya, deyilganda haqiqatligi amaliy yoki nazariy jihatdan isbotlangan, borliqning biror sohasiga oid ma'lum g'oyalar, qarashlar, qonunlar va tamoyillarning muayyan tizimi tushuniladi. Nazariya biror fan sohasiga oid bo'lib, u ma'lum bilimlarning umumlashtirilishi asosida paydo bo'ladi. Ilmiy bilishda nazariyaning asosiy vazifasi – amaliyot bergan yangi faktlarni izohlash, o'rganilayotgan predmet yoki hodisalarning mohiyatiga chuqurroq kirish, ro'y beradigan voqea va hodisalarni oldindan ko'ra olishdan iboratdir.

Har bir nazariya ma'lum sohadagi ilmiy bilimlarning so'nggi natijasi sifatida bilim shaklidir, lekin uni hech qachon tugallangan, o'zgarmas, absolyut bilim, deb qaramaslik kerak. Chunki har bir nazariya faqat u yoki bu gipotezaning isboti bo'lmay, balki gipotezalarning natijasidir. Shu sababli nazariya ham doimo rivojlanib borib, uning mazmuni absolyut va nisbiy haqiqatlarning birligidan iborat bo'ladi.

Ilmiy oldindan ko'rish – insonning kundalik amaliy faoliyati hamisha ma'lum reja, ma'lum mo'ljallarga asoslanganligi kabi, tadqiqotchining ilmiy izlanish va tadqiqotlari ham doimo ilmiy oldindan ko'rish bilan bog'liq bo'ladi.

Oldindan ko'rish insonning kelgusida tabiat va jamiyatda nimalar sodir bo'lishi, qanday hodisa va voqealar yuz berishini bilish bo'lib, bu narsa inson miyasining borliq voqea va hodisalarning oldindan aks ettirish qobiliyati bilan bog'liq jarayondir. Inson biror faolyaitini boshlar ekan, u buni qanday qilib amalga oshirishni o'ylaydi, uni qay tarzda va qanday tartibda qilish kerakligi ustida fikrlaydi. Shu asosda u o'z faoliyatining

borishi va uning qanday natijalarga olib kelishini fikran belgilab oladi. Inson doimo o'zining oldin orttirgan bilimlariga, tajriba, ko'nikma va malakalariga tayanadi. Shular asosida anda oldindan ko'rish sodir bo'ladi.

Ilmiy oldindan ko'rish tadqiqotchi yoki olimning tabiat, jamiyat va inson tafakkuri taraqqiyoti qonunlariga asoslanib, biron fan sohasida tabiat va jamiyatda kelgusida yuz beradigan predmet, hodisa, voqea yoki jarayonni oldindan aytishi – ilmiy bashorat qilishidir.

Ilmiy bashorat tadqiqotchining tabiat va jamiyatdagi predmet va hodisalarning o'tmishdagi va hozirgi davrdagi holati, o'zgarishlar, rivojlanishlarning obyektiv qonuniyatlarini bilish asosida ularning kelgusi holati haqida biron bir fikr aytishdir.

Tadqiqotchi o'zi o'rganayotgan predmet yoki hodisaning paydo bo'lishi va rivojlanishi, undagi ichki zaruriy aloqadorlik va bog'lanishlarni o'rgana borib, bu predmet yoki hodisaning qachon, qanday sharoitda, qay tartibda, nimalar sababli, qanday takrorlanishini bilib olish natijasida shu predmet yoki hodisaning kelgusidagi holatini ilmiy bashorat qila oladi.

Ilmiy oldindan ko'ra bilish har qanday ilmiy tadqiqotda, har qanday ilmiy faoliyatda bebaho ahamiyatga egadir. Ilmiy oldindan ko'rish ham dunyoni ilmiy bilishning o'ziga xos shaklidir.

Ilmiy oldindan ko'rish – ilmiy bashorat, diniy karomat qilish, folbinlik qilish, kishilar taqdirini osmon jismlari, yulduzlar va sayyoralar harakatiga qarab belgilashlaridan farq qiladi.

Ma'lumki, o'tmishda kishilar o'rtasida, kishilarning kelgusi taqdirini, jamiyatda kelgusida sodir bo'ladigan voqea va hodisalarni osmon sayyoralarning harakat holatiga bog'lab oldindan aytib beruvchi astrolyoglar (munajjimlar) faoliyat ko'rsatganlar. Ularning bu ta'limoti astrolyogiya deb atalib, boshqa yerlarda bo'lgani kabi, O'rta Osiyo xalqlari o'rtasida ham keng tarqalgan.

Astrolyoglar nuqtai nazaricha, jamiyatda kelgusida bo'ladigan voqea va hodisalarni, kishilarning taqdirini yulduzlar va sayyoralarning holatiga va harakatiga qarab oldindan aytib berish mumkin. Shu sababli ular maxsus goroskoblar tuzishib, ularda o'z qarashlarini bayon qilishadi. Astrolyogiyaga ishonish xorijiy mamlakatlarda

keng tarqalgan. Bizda Sobiq Ittifoq parsalangandan keyin astrolyogik qarashlar jonlana boshlana boshladi. Xususan, matbuotda, radio, teleko'rsatuvlarda har xil goroskoblar berila boshlandi.

Lekin shuni aytish lozimki, astrolyogiyaning ilmiy ekanligi shu kungacha to'liq asoslanmagan, astrolyoglarning bashoratlari esa ko'pincha ilmiy jihatdan tasdiqlanmagan. Ammo ayrim astrolyoglar bashoratlar sodir bo'lgan voqea va hodisalarga tasodifiy mos kelishlari tufayli, ularga ishonish kishilar o'rtasida shu paytgacha davom etib kelmoqda. Ilmiy bashoratlarning astrolyogik bashoratlardan tub farqi shundaki, ularning haqiqiyliги doimo ilm fan yutuqlari bilan, tabiat, jamiyat va inson tafakkuri qonunlari bilan ilmiy asoslangan bo'ladi. Shundagina ilmiy bashoratlar qilish va kelajakni oldindan ko'rish mumkin.

Fanlar tarqqiyoti uchun, kishilarning jamiyatdagi faoliyatlari uchun tabiat va jamiyat hodisalarining ro'y berishini ilmiy oldindan ko'rish juda muhim ahamiyatga ega.

Tabiat va jamiyat hodisalarini ilmiy oldindan ko'rish bizning Mustaqil O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan hozirgi sharoitda davlat va xalqning kelgusida mamlakat hayotida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan hodisa va voqealarga har tomonlama tayyor bo'lishi, bu hodisalarning ijobiy oqibatlarini ko'paytirish, salbiy oqibatlarining esa oldini olish, hech bo'lmasa ularni kamaytirish uchun muhim ahamiyatga ega. Lekin shuni aytish kerakki, millionlab kishilar faoliyatlari bilan bog'liq sodir bo'ladigan ijtimoiy hodisalarni ilmiy oldindan ko'rish juda qiyin ish. Shunga qaramay biz Mustaqil O'zbekiston taraqqiyotini to'g'ri belgilab oldik. O'zbekiston – kelajagi buyuk davlatdir.

Inson bilishini uning o'z predmet obyektı jihatidan ikkita bo'lib o'rganish odat bo'lgan. Bu jihatdan uning birinchisi tabiatni bilish bo'lsa, ikkinchisi jamiyatni bilishdir. Tabiatni bilish tufayli bizning tabiatshunoslik bilimlarimiz hosil bo'lsa, jamiyatni bilishimiz tufayli ijtimoiy- gumanitar bilimlarimiz paydo bo'ladi.

Ijtimoiy bilish aslida tabiat va uning qonunlarini bilishdan farqli ravishda, insonning jamiyat va uning qonunlarini bilishdir.

Jamiyat tabiat taraqqiyoti natijasida kelib chiqqan insonlarning ijtimoiy uyushmpsi bo'lib, ijtimoiy faoliyatning natijasidir. Jamiyat ham tabiat kabi obyektiv, o'z tuzilish va

taraqqiyot qonunlariga ega ijtimoiy organizmdir. Bu jihatlari bilan jamiyat tabiat bilan umumiy birlikka ega bo‘lib, ular bir birlariga ta’sir va aks ta’sir qilib, o‘zgarib, rivojlanib, o‘z boshlaridan tabiiy tarixiy taraqqiyotni kechirib turadi. Bunday umumiylik insonning tabiat va jamiyatni bilishda o‘z ifodasini topgan bo‘lib, uning ijtimoiy bilishi ham bilishning umumiy qonuniyatlari asosida amalga oshadi. Lekin, shu bilar birga, jamiyat o‘z tabiati va mohiyatiga ko‘ra, o‘z qonunlarining amal qilishi jihatidan tabiatdan farq qiladigan o‘ziga xos tomonlariga ham ega. Jamiyat o‘zining mavjud bo‘lishi, o‘zgarish va rivojlanishi jihatidan alohida ijtimoiy borliqdir. Uning tabiatdan farqi shundaki, tabiat moddiy borliqning bir turi sifatida vaqtda abadiy, makonda cheksiz mavjud bo‘lsa, jamiyat moddiy va ma’naviy borliqning birligi sifatida vaqtda boshlanishi bo‘lib, u makonda chegaralangandir. Jamiyat tabiatdan bir o‘rinda juda katta farq qiladi. Tabiatda faqat ongsiz kuchlar bir birlariga ta’sir va aks ta’sir qilib, tabiatning umumiy qonunlari ana shu kuchlarning o‘zaro ta’siri jarayonida amal qiladi. Bunda anglangan, istalgan, maqsad xech qayerda, xech qachon bo‘lmaydi. Aksincha, jamiyatda ongli, muayyan maqsad asosida, ma’lum ehtiyoj va manfaatlarga ega bo‘lgan kishilar faoliyat ko‘rsatadi. Bunda xech narsa anglanmagan, niyatsiz, istalmagan, maqsadsiz qilinmaydi.

Jamiyat – ongli insonlar ijtimoiy faoliyatining maxsuli, jamiyatda ongli va irodaga ega bo‘lgan kishilar faoliyat ko‘rsatadilar, ular tabiatga ijtimoiy kuch sifatida qarama qarshi turib, o‘z mehnat faoliyatlari bilan unga ta’sir qiladilar, natijada tabiat ne’matlaridan o‘zlari uchun moddiy va ma’naviy boyliklar ishlab chiqaradilar. Bu jarayonda ular tabiatnigina o‘zgartirib qolmay, balki o‘z insoniy “tabiat”larini ham o‘zgartirib boradilar.

Jamiyatda doimo ongli ravishda o‘z maqsadlariga intiluvchi, ma’lum irodaga ega bo‘lgan, muayyan ehtirosli o‘ziga xos mulohaza sohibi bo‘lgan insonlar faoliyat ko‘rsatganligi sababli, ularning bu maqsadlari, iroda, ehtiroslari va mulohazalarini bevosita ijtimoiy omillar belgilaydi. Bu ijtimoiy omillar juda xilma xil bo‘lib, ular qisman tashqi ijtimoiy hodisalardan va qisman ideal orzulardan: chunonchi kishilarninsh shuxratparastlik, “haq va huquqqa xizmat qilish” shaxsiy manfaat, shaxsiy nafaot yoki istak ularni xarakterga keltirib, paydo qilib turuvchi ma’lum moddiy va ma’naviy kuchlar mavjud bo‘ladi. Bu moddiy va ma’naviy kuchlar esa faoliyat ko‘rsatuvchi insonlarning

miyalarida turli tuman maqsadlar, orzular, rag‘batlar, xohish va istaklar, irodalar, ehtiyoj va manfaatlar shakllariga kirgan tarixiy sabablarni tashkil qiladi. Ular kishilar ongida tarixda amal qiladigan jamiyatni harakatlantiruvchi ideal kuchlar sifatida namoyon bo‘ladi. Lekin bu ideal kuchlar zamirida doimo kishilarni harakatga keltiruvchi moddiy kuchlar – jamiyat moddiy ehtiyojlari kishilarning ijtmioiy, iqtisodiy va siyosiy faoliyatlari yotadi. Jamiyatda kishilarning ijtimoiy, iqtisodiy faoliyatlari orqali jamiyatning ijtimoiy qonunlari amal qiladi. Jamiyatdagi bu ijtimoiy qonunlar, aslida kishilar ijtimoiy faoliyatlarining qonunlaridir.

Jamiyatni, ya’ni ijtimoiy borliqni va ijtmioiy ongni jamiyatning moddiy va ma’naviy hayotini bilish insonning ijtimoiy amaliy faoliyati bilan yuzaga kelib, u o‘z ijtimoiy mazmuniga ega bo‘ladi, bu mazmun jamiyatdagi kishilarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy munosabatlaridan kelib chiqadi.

Jamiyatning amaliy ijtimoiy ehtiyojlari, birinchi navbatda, ishlab chiqarish, ayirboshlash va iste’mol ehtiyojlari ijtimoiy bilishni va uning natijasi bo‘lgan ijtimoiy bilimlar tizimlardan iborat ijtimoiy va gumanitar fanlarni rivojlantiradi va olg‘a siljitadi. Ma’naviy ehtiyojlar o‘zining boshqa yo‘nalishlari singari kutubxonashunoslik fanida ushbu ilmiy metodlarni o‘ziga xos tarzda qo‘llashni talab etadi. Kutubxonashunoslik fanining metodlari uchun yuqorida keltirilgan metodlar falsafiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

3.3 Kutubxonashunoslikka oid tadqiqotlarni tashkil etish

Boshqa fanlar singari kutubxonashunoslikda amalga oshiriladigan tadqiqotlar jarayoni ham muammo va uni hal etish bilan bog‘liq bo‘lib, tadqiqot – tahlil – amalda qo‘llash singari uchta bosqichdan iboratdir. Ushbu masalaga yanada aniqroq yondashiladigan bo‘lsa: muammo-gipoteza – gipotezani isbotlash – nazariyani yaratish va amaliy tavsiyalar jarayonini tasavvur qilish mumkin.

Kutubxonashunoslik amaliyotida ko‘pgina tadqiqotlarda qo‘llaniladigan tashkiliy tizim quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Ilmiy muammoni aniqlashtirish va shakllantirish.
2. Texnik vazifani ishlab chiqish va tasdiqlash.

3. Ilmiy tadqiqot dasturini ishlab chiqish.
4. Ilmiy tadqiqot natijalarini rasmiylashtirish.
5. Ilmiy–tadqiqot ishi natijalarini ishlab chiqarish amaliyotida qo‘llash.

IV Bob. Kutubxonashunoslikning maqomi va uning fanlar tizimidagi o‘rni.

4.1. Ilmiy bilimlar tizimida kutubxonashunoslik maqomining umumiy tasnifi.

Kutubxonashunoslik maqomi uning ilmiy bilimlar tizimidagi, ijtimoiy qadriyatlar majmuasidagi, shuningdek boshqa ilmiy fanlar qatoridagi mavqei sifatida tushuniladi. Mavjud fanlarning ijtimoiy, tabiiy va texnik sohalarga bo‘linishida kutubxonashunoslik ijtimoiy fanlar tizimiga kiradi, degan fikr butun dunyoda keng tarqalgan. Biroq, ba’zi kutubxonashunoslar kutubxonachilik ishining rivojlanishi va kutubxonachilik nazariyasining dunyo miqyosidagi "yagona oqim" sifatida shakllanishini taqdim etadilar. Masalan, ingliz kutubxonachisi L.Evans shunday deb yozgan edi: "Kutubxonachilik ishini u butun dunyoda foydalanish mumkin bo‘lgan universal tasnifni yaratishmagunicha yetuk fan deb atash mumkin emas". Bunday qarashlar kutubxonashunoslikni jamiyatdagi ro‘y berayotgan ijtimoiy o‘zgarishlarni aks ettirmaydigan fan sifatida talqin qilish oqibatidir, chunki kutubxonashunoslik go‘yo formal-texnik fon hisoblanib jamiyatdagi roli unchalik ahamiyatli emas, degan qarashlar ham mavjuddir.

Kutubxonashunoslikning ijtimoiy fanlarga aloqadorligi yetarli asoslangan. Yo‘nalishning insoniy, gumanistik tabiati kutubxonashunoslik rivojidagi eng muhim, hal qiluvchi yo‘nalishdir. Kutubxonashunoslik fani yo‘nalishining mohiyati - bu odam, uning ma’naviy axborot ehtiyojlarining qondirilishi, shaxsiyatining rivojlanishi, o‘zini o‘zi anglashidir. Kutubxonashunoslik yo‘nalishining insoniy, gumanistik tabiati kutubxonashunoslik rivojidagi eng muhim, hal qiluvchi yo‘nalishdir. Shuning uchun hozirgi kunda butun dunyoda kutubxonashunoslik ilmi aniq ifoda etilgan gumanistik

yetakchilik bilan ajralib turadi, degan fikr keng tarqalgan. Kutubxonashunoslik fanida hal qiluvchi rolni matematika, avtomatlashtirish, kompyuterlashtirish va yangi axborot texnologiyalari bilan bog'liq tadqiqotlar egallab borayotgan bo'lsada uning gumanistik yo'nalishi inkor etilmaydi. Biroq, bu aniq yoki texnik fanga aylantirilmaydi. Mustaqil ijtimoiy fan sifatida kutubxonashunoslik ma'lum bir uyushgan nazariy bilimlarga ega bo'lib, ular hayotning muayyan sohasida, ya'ni kutubxona ishi sohasida qo'llaniladi. Bundan tashqari, jamiyat ushbu bilimlar ushbu sohadagi muammolarni hal qilishga qodirligini, bu muammolarni boshqa har qanday bilim sohasi vakillari emas, balki kutubxona ishi sohasi mutaxassislari hal qilishi kerakligini tan oladi. Kutubxonashunoslik kutubxona amaliyotining asosini tashkil etuvchi o'ziga xos metodlar, jarayonlar, nazariy tamoyillar va texnologiyalardan foydalanadi va ularni qo'llaydi.

Kutubxonashunoslik fanining maqomini umumiy tavsiflashda uning kutubxonashunoslik obyekti ko'p elementli ekanligidan kelib chiqadigan fanlararo xususiyati muhim ahamiyatga ega. Kutubxonashunoslik boshqa ilmiy fanlardan tashqari mustaqil ravishda, mustaqil holda mavjud bo'lmagan va mavjud emas. O'z mustaqilligini umuman yo'qotmagan holda, u ulkan ilmiy aloqalar bilan ajralib turadi va kerak bo'lganda o'z muammolarini hal qilish uchun boshqa fanlarning tushunchalari, nazariyalari, tamoyillari, usullari va faktik materiallaridan foydalanadi. Fanlararo sintez tufayli kutubxonashunoslik va boshqa fanlar o'rtasida bilim almashinmoqda. Ba'zan bu boshqa fan tomonidan olingan ilmiy bilimlarni oddiy o'zlashtirish shaklida, ko'pincha uning ijodiy rivojlanishi shaklida namoyon bo'ladi.

4.2. Kutubxonashunoslik va kutubxona-bibliografik hamda axborot sohalariga oid fanlar

Kutubxonashunoslik bibliografiyashunoslik, kitobshunoslik va axborotshunoslik bilan uzviy bog'liqdir. Chuqur ichki aloqalar kutubxonashunoslik va arxivshunoslik uchun ham xarakterlidir. Ushbu fanlarning barchasini yuqori darajadagi o'zaro aloqadorlik birlashtiradi.

Kutubxonashunoslik va bibliografiyashunoslik.

Kutubxonashunoslik va bibliografiyashunoslik - bu mustaqil, o'zaro bog'liq fanlar bo'lib, ular o'zaro ta'sir o'tkazib, bir-birini boyitadi.

Bibliografiyashunoslik kutubxonashunoslikning ilmiy va nazariy imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi. Shunday qilib, u bibliografik ma'lumotlarning ilmiy tushunchalaridan foydalanadi, bibliografiyasiz kutubxona ishining fondini tashkil etish, ma'lumot-qidiruv tizimini yaratish, kitob fondini o'rganish, foydalanuvchilar bilan ishlashda tavsiya bibliografiyasidan foydalanish, yangi adabiyotlar to'g'risidagi ma'lumotlar singari ko'p turlarini amalga amalga oshirish mumkin emas. Bibliografiya asosan kutubxonalar faoliyati orqali amalga oshiriladi. Bibliografiyashunoslik-bibliografiya nazariyasi ham rivojlanmoqda. Bibliografiyashunoslik o'z navbatida, kutubxonashunoslikning turli tamoyillari, nazariyalari, usullari, tushunchalaridan foydalangan holda uning nazariy imkoniyatlariga asoslanadi. Ushbu ikki fanni har tomonlama birlashtirish olimlar uchun muhim vazifadir.

Kutubxonashunoslik va kitobshunoslik.

Kitobshunoslik - bu kutubxonashunoslik bilan bog'liq ilmiy fan. Ammo ko'plab kitobshunoslar kutubxonashunoslik kitobshunoslikning ajralmas qismi deb hisoblashadi. Kitobshunoslik, kitobshunos olimlarning o'zlari belgilab berganidek, kitob to'g'risidagi barcha ilmlarining sun'iy aralashmasidir. Kutubxonashunoslikni kitobning o'zi emas, nashr ko'rinishidagi ma'lumot qiziqtiradi. Kutubxonashunoslar kitob, kitobat ishi, kitob nashr qilish, kitob tarqatish va h.k kabi asosiy tushunchalardan foydalanishadi. "Foydalanuvchi", "mutolaa" tushunchalari tor ma'noda ishlatilsa ham, kutubxonashunoslikning eng muhim tushunchalari hisoblanadi. Kitob, uning mazmuni, maqsadi va qanday foydalanuvchilarga mo'ljallanganligini bilish - bu kutubxonachining professionalizmidir. Kutubxona haqidagi ba'zi tushunchalarning rivojlanishida kitoblarning ijtimoiy hodisa sifatida rivojlanishini tartibga soluvchi umumiy qonunlar muhim rol o'ynaydi. O'z navbatida kitobshunoslar foydalanuvchilarni o'rganish,

ularning qiziqishlari, axborotga bo'lgan ehtiyojlari, ayrim turdagi nashrlarning mashhurligi, o'ziga xos sarlavha va boshqalar haqida nazariy takliflar va empirik ma'lumotlardan foydalanadilar. Kitobshunoslik va kutubxonashunoslikning mustahkam bog'liqligi ushbu fanlarning bir xilligi yoki birining ikkinchisi tarkibiga kirishini anglatmaydi.

Kutubxonashunoslik va informatika (axborotshunoslik)

Genetik nuqtai nazaridan, kutubxonashunoslik "axborotshunoslikning asosi" hisoblanadi.

Keng ma'noda axborotshunoslik fundamental fan sifatida bir obyektни boshqasida aks ettirish natijalarini o'rganadigan, jamiyatda, tabiatda va texnik qurilmalarda barcha turdagi ma'lumotlarni ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash va tarqatish bilan bog'liq bilimlar tizimidir.

Tor ma'noda, bu turli xil ilmiy va texnikaviy axborot xizmatlari faoliyati bilan bog'liq bo'lgan amaliy axborotshunoslikdir. Kutubxonashunoslik va amaliy axborotshunoslik fanlarining o'zaro munosabati o'zaro aloqador, teng huquqli fanlarning o'zaro bog'liqligi sifatida baholanadi, bu ikkala tomon uchun ham foydalidir. Axborotshunoslik tufayli kutubxonashunoslar jamiyatni yaqinlashib kelayotgan axborotlashtirishning muhimligini o'zlarining nazariy yo'nalishlarida ham, kutubxona amaliyotida ham tub o'zgarishlarni amalga oshirish zarurligini angladilar. Vaqt o'tishi bilan "axborot", "axborotlashtirish", "kompyuterlashtirish" va hokazo tushunchalar kutubxonashunoslikning asosiy yo'nalishi apparati tarkibiga kirdi va u asosan yangi paradigmaga o'tishni yakunladi va kutubxonashunoslik axborotni industrilashtirishning tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda kutubxonashunoslik va amaliy informatika fanlarining o'zaro aloqadorligi integrasiya tomon intilish tendensiyasining kuchayishi bilan ajralib turadi. G'arbda "kutubxona-axborot fani" tushunchasi ishlatilishi bejiz emas. Kutubxonashunoslik va amaliy informatika o'rtasidagi munosabatlarning rivojlanish jarayoni, inkorni inkor etishning to'liq sikli bilan yakunlanadi: ya'ni to'liq qarama qarshilikdan chiqib muayyan yangi asosdagi integrasiya bilan yakunlanadi.

Kutubxonashunoslik va fundamental informatika o'rtasidagi munosabatlarga kelsak,

fundamental informatika fani kutubxonashunoslikka nisbatan umumlashtiruvchi fan sifatida, qonunlari, tamoyillari, kategoriyalari kutubxonashunoslik fani tomonidan kutubxona ishi uchun xarakterli bo'lgan axborot jarayonlarini tavsiflash uchun tobora ko'proq foydalaniladi. Shunday qilib, kutubxonashunoslikning tegishli fanlar bilan o'zaro bog'liqligi nisbatan yuqori barqarorlik va bir tekis rivojlanish xususiyatiga egadir. Biroq, bu barqarorlik nisbiy bo'lib, kutubxonashunoslik, bibliografiyashunoslik, kitobshunoslik, amaliy informatika fanlarini fundamental informatika asosida tarkibiy qayta qurishni talab qiladi.

4.3 Kutubxonashunoslik va ijtimoiy fanlar

Kutubxonashunoslik madaniyatshunoslik, sosiologiya, pedagogika, psixologiya, iqtisodiyot, matematika va boshqa fanlar bilan aloqadordir. Kutubxonashunoslik va madaniyatshunoslik umuminsoniy madaniyatining tarkibiy qismi bo'lib, ushbu madaniyat elementi sifatida, kutubxonashunoslik ma'naviy madaniyatning rivojlanish qonuniyatlarini o'rganuvchi, madaniyatshunoslik bilan chambarchas bog'liqdir. Madaniyatshunoslikning umumiy tamoyillarini hisobga olgan holda, jamiyatning madaniy hayotining sohalaridan biri sifatida kutubxona nazariyasi va amaliyoti qonuniyatlari o'rganilmoqda. Madaniyatshunoslik uchun va kutubxonashunoslik uchun madaniy tadqiqotlar orqali jamiyatning va uning turli qatlamlarining madaniy rivojlanishini o'rganish, aholining ma'naviy ehtiyojlarini rag'batlantirish va ularni samarali, har tomonlama va barkamol rivojlangan shaxsni shakllantirishning maqbul usullarini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Madaniyatshunoslik masalalariga kelsak, kutubxonashunoslik madaniyatning kutubxonachilik ishi singari yirik tarmog'iga oid haqiqiy va nazariy ma'lumotlarning muhim manbalaridan biridir. Kutubxonachilik ishining rivojlanishiga qarab ma'lum bir mamlakatning madaniy rivojlanish darajasi to'g'risida aniq fikr yuritish mumkinligini ta'kidlash kifoY.

Kutubxonashunoslik va sosiologiY.

Qariyb bir asrlik an'anaga ega bo'lgan kutubxonashunoslik sosiologiya va ijtimoiy psixologiyaning yutuqlari va usullaridan foydalanib keladi. Kutubxonashunoslik ijtimoiy psixologiya nazariyasi va metodologiyasidan, ayniqsa anketa, intervyu berish va qisman guruhli eksperimentdan faol foydalanadi. Ularga asoslanib, butun aholi, bolalar va yoshlar, ayollar, olimlar va mutaxassislarning axborot ehtiyojlari va boshqa sohalarda kutubxonalar, kitoblar va mutolaaning ahamiyati to'g'risida keng ko'lamli va mahalliy sosiologik tadqiqotlar olib boriladi. Kutubxonashunoslikda nisbatan yangi bo'lim – kutubxona sosiologiyasi paydo bo'ldi. Kutubxona va kutubxonachilik ishi mavjudligining sosiologik tahlili foydalanuvchilar qiziqishlari va ehtiyojlarining tabiati, ularning harakteri va yo'nalishini qamrab oladi, mutolaa madaniyatining ijtimoiy hodisalar tizimidagi o'rni va insonning ma'naviy dunyosini shakllantirishdagi rolini belgilaydi.

Kutubxonashunoslik va iqtisodiyot

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab kutubxonashunoslikning iqtisodiy fanlar bilan o'zaro bog'liqligi tendensiyasi tobora kuchayib bormoqda va kutubxonashunoslik iqtisodiyoti muammolari tobora muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Kutubxonachilik nomoddiy soha iqtisodiyoti va madaniyat iqtisodiyotining bir qismi sifatida qaraladi. Iqtisodiy tafakkur ta'siri ostida kutubxonashunoslik kutubxona ishining iqtisodiy tabiati, uning iqtisodiy bahosi, kutubxona xizmatlaridan foydalanishning iqtisodiy jihatlari, kutubxona ishida mablag' va ish haqi, kutubxonalarning moddiy-texnik ta'minoti kabi masalalarni o'rgana boshladi. "Kutubxona marketingi" tushunchasiga asoslangan tadqiqot yo'nalishi paydo bo'ldi va kutubxona xizmatlariga oid pullik va tekin xizmat masalasi hal qilindi. Mamlakatimizning bozor munosabatlariga o'tib borishi bilan kutubxona marketingida izlanishlar ko'paydi, ammo ba'zida ma'lumot, axborot xizmatlarini odatiy tovar sifatida taqdim etish istagi pasayib ketdi. Bu insonning axborotga to'sqinliksiz, cheklanmagan kirish huquqiga ziddir.

Kutubxonashunoslik va boshqaruv ilmi.

Kutubxonashunoslik va boshqaruv fani o'rtasidagi umumiy aloqadorlik deyarli bir asrga tengdir. Bu davrda kutubxonashunoslik ushbu fanning asosiy tushunchalarini chuqur o'zlashtirdi va 1969 yildan boshlab milliy kutubxonashunoslikda "Kutubxona ishida tashkil etish va boshqarish", 2000 yildan boshlab - "Kutubxona ishida marketing va menejment" va "O'zbekistonda kutubxona ishini boshqarish" fanlari ajralib chiqdi. O'zbekistonda kutubxonalarni boshqarish, kutubxona va kutubxonani boshqarishning mohiyati, menejmentning funksiyalari va tashkiliy tuzilmalari, kutubxonashunoslikda boshqaruv usullari, boshqaruv texnologiyalari, boshqaruv ishlarini ilmiy tashkil etish, boshqaruv uslubi va boshqaruv samaradorligi kabi markaziy muammolar ishlab chiqildi. Xorijiy kutubxonalarning boshqarish yutuqlaridan tobora ko'proq foydalanilmoqda.

Kutubxonashunoslik va pedagogika.

Mamlakat kutubxonashunosligida har doim kuchli pedagogik yo'nalish mavjud bo'lib kelgan. Kutubxonashunoslikning kutubxona xizmatlari bilan bog'liq bo'limi, ayniqsa bolalar va o'spirinlar bilan bog'liq bo'lgan yo'nalishlarda pedagogika g'oyalari chuqurroq singdirilgan. Axborotga bo'lgan ehtiyojni qondirishda o'quvchiga individual yondoshish tamoyili, o'quvchilarni farqlash tamoyili, umrbod ta'lim va o'z-o'zini tarbiyalash g'oyasi va boshqalar pedagogik yo'nalishlarga egadir. Kutubxonashunoslikning pedagogik ta'limotlarni ijodiy o'zlashtirishining eng muhim natijasi kutubxonashunoslik tarkibiga foydalanuvchilar bilan kutubxona bibliografik va axborot targ'iboti olib borishning pedagogik asoslarini o'rganadigan "Kutubxona pedagogikasi" mustaqil bo'limining qo'shilganligidir.

Kutubxonashunoslik va psixologiya

Psixologiya kutubxonashunoslikni foydalanuvchi va kutubxonachi singari kutubxonachilik ishining muhim elementlari haqidagi nazariy g'oyalar bilan boyitadi, kutubxona-axborot xizmatining butun jarayoni davomida psixologik jihatdan sog'lom ilmiy asos yaratishiga yordam beradi. Kutubxonashunoslik uchun umumiy psixologiya, rivojlanish psixologiyasi, pedagogik psixologiya, mehnat psixologiyasi, muhandislik psixologiyasi (kutubxonachining kompyuter bilan o'zaro aloqasi) ma'lumotlari katta ahamiyatga ega. Kutubxonashunoslikda kutubxonachilik ishining psixologik asoslarini o'rganadigan "Kutubxona psixologiyasi", "Mutolaa psixologiyasi" bo'limlari paydo bo'ldi.

Kutubxonashunoslik va matematika

XX asrning ikkinchi yarmidan kutubxonashunoslik va matematikaning aloqalari ayniqsa faollasha boshladi, bu ijtimoiy fanlarni matematikalashtirishning umumiy tendensiyasi va kutubxonashunoslikni kompyuterlashtirish bilan ham bog'liq edi. Zamonaviy kutubxonachi-tadqiqotchi va kutubxonachi-amaliyotchi o'z kasbining mohiyati bo'yicha gumanitar bo'lishiga qaramay, matematik fikrlash ko'nikmalariga ega bo'lishi shart. Shu bilan birga, kutubxonashunoslikning matematika bilan o'zaro bog'liqligi ma'lum cheklovlarga ega: birinchidan, faqat amaliy matematika bilan aloqador; ikkinchidan, kutubxonachilik ishining barcha hodisalari, jarayonlari va obyektlarida matematik vositalardan foydalanish mumkin emas; uchinchidan, kutubxonashunoslik-ijtimoiy, gumanitar fandır, shuning uchun bu yerda matematikaning uslublari muhim rol o'ynasada birlamchi ahamiyatga ega emas. Shunday qilib, kutubxonashunoslik juda yuqori maqomga ega bo'lib, ijtimoiy, shuningdek, tabiiy va texnik fanlar bilan aloqalarning keng yo'nalishi bilan ajralib turadi. Ushbu maqom nafaqat ilmiy, balki rasmiy maqomga ega. Dunyoning har bir rivojlangan davlatida, shu jumladan O'zbekistonda ham kutubxonashunoslik ilmiy va o'quv fani maqomiga ega va davlat oliy va o'rta kutubxona-axborot faoliyati ta'limi tashkil etilgan, ilmiy va pedagogik kadrlar tayyorlanmoqda.

V Bob. Kutubxonalarning tarkibiy funksional tahlili

5.1. Kutubxonaning tarkibiy tavsifi: asosiy elementlar va quyi tizimlar

Har qanday kutubxona tarkibiy qismlari turli tomonlama, muayyan barqaror munosabatlarda, aloqadorlikda bo'lgan murakkab tizim sifatida o'rganilishi maqsadga muvofiqdir. Tizim (yunon tilidan - qismlardan tashkil topgan yaxlitlik, birikma) - bir-biri bilan munosabatlarda va aloqada bo'lgan, ma'lum bir yaxlitlikni, birlikni tashkil etadigan ko'plab elementlardir. Tuzilma har qanday kutubxona qismlarining o'zaro joylashuvi va o'zaro aloqadorligini ifodalaydi. Kutubxonani har tomonlama bilish uchun, avvalo, uning ichki tuzilishini o'rganish kerak, ya'ni kutubxona qaysi tarkibiy qismlardan qanday tashkil topganligini, ularning sifat xususiyatlari, ular o'rtasidagi munosabatlar va munosabatlar darajasini, funksiyalarni aniqlash, har bir elementning bajaradigan vazifasini, kutubxonaning bir butun tizim sifatida rivojlanish mexanizmini o'rganish zarur. Har bir kutubxonada quyidagi elementlar ajralib turadi, ularsiz kutubxona faoliyat ko'rsata olmaydi

-hujjat(kitob,nashr);

-foydalanuvchi;

-kutubxonachi;

-moddiy-texnik baza.

Ularning har biri o'zining sifat jihatidan o'ziga xos, ammo teng huquqli rolini o'ynaydi, ularsiz kutubxonaning yaxlit tizim sifatida ishlashi mumkin emas. Har bir element boshqalarining mavjudligi uchun shartdir va boshqa tomondan uning o'zining mavjudligi ham boshqalari tomonidan taqozolanadi.

5.2 Hujjat

Kutubxona ma'lum bir usulda tizimlashtirilgan bosma va boshqa qog'ozda aks ettirilgan hujjatlar to'plami muayyan tartibga keltirilgan va joylashtirilgan makondir. Yangi axborot uzatish vositalarining paydo bo'lishi bilan "kitob" tushunchasini almashtiradigan umumiy atamani topish zarurati paydo bo'ldi. Hozirgi kunda kitob o'nlab hujjatlar turlaridan biridir. Hujjat - bu inson ongi tomonidan yaratilgan, muayyan makonda va vaqtda qayd etilgan har qanday ma'lumotdir. "Hujjat" atamasi muayyan ma'lumotni o'z ichiga olgan va uni uzatish va foydalanishga mo'ljallangan moddiylashtirilgan obyekt sifatida izohlanadi. "Hujjat" elementi "kitob", "bosma mahsulot" tushunchalari bilan bir qatorda quyidagi axborot tashuvchi vositalarni o'z ichiga oladi: mikrofishka, magnit disklar (disketalar), yorug'lik optik diskleri, video tasmalar (kassetalar), elektron kitoblar, gologrammalar va boshqalar. Kitob, jamiyatning mulki sifatida kutubxonaning ham doimiy mulki bo'lib qoladi. Buyurtma qilingan hujjatlar to'plami va ularning majmuasi "kutubxona fondi"ning quyi tizimini tashkil etadi.

– Busiz kutubxona hujjatlar fondini tashkil etish, shakllantirish va undan foydalanish uchun maxsus yaratilgan muassasa sifatidagi o'ziga xos xususiyatlarini yo'qotadi, kutubxona sifatida mavjud bo'lmaydi. Kutubxona fondi - bu bir xil bo'lmagan mavjudlikdir. U statik va dinamik rivojlanishda bo'lgan tematik va turlarning tuzilishi, axborot tashuvchilarning miqdoriy va sifat tarkibi va boshqalar bilan ajralib turadi. Asosiy maqsadiga muvofiq fondlar asosiy, yordamchi, ma'lumotnoma va bibliografik, ayirboshlash, zahira va boshqalarga ajratiladi. Foydalanuvchilar bilan munosabatiga ko'ra, fond ishlatilgan (dinamik) va ishlatilmagan (statik) qismlardan iborat bo'lishi mumkin.

Majburiy hujjatlar nusxalari tizimi asosida to'ldirilgan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi xalqlarining madaniy merosi tarzida milliy ahamiyatga ega to'plamlardan iborat bo'lgan kutubxona fondlari muhofaza qilish, saqlash va foydalanishning alohida rejimida mavjud bo'ladi.

“Hujjat” elementi kutubxonaning boshqa elementlari bilan chambarchas bog'liq. Kutubxona fondining tarkibi, tuzilishi, hajmi, maqsadi kutubxona foydalanuvchilarining

asosiy xususiyatlarini belgilaydi. Boshqa tomondan, foydalanuvchilar tarkibi, ularning axborot so'rovlari fondning tematik - tipologik va miqdoriy xususiyatlarini belgilab beradi.

Hujjatning kutubxonachi bilan aloqasi muhimdir: u hujjatlarni yaratadi, foydalanishni tashkillashtiradi va hujjat uning ixtisoslashishiga, xodimlar soniga va boshqalarga ta'sir qiladi. Kutubxona fondining hajmi va tarkibi binoga, uning joylashishiga, jihozlariga, mexanizasiyalashtirish, avtomatlashtirish, kompyuterlashtirishga ta'sir qiladi.

5.3 Foydalanuvchi

Kutubxona - bu foydalanuvchining xilma-xil axborot ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan hujjatli ma'lumotlardan foydalanishni tashkil etadigan muassasa.

Foydalanuvchi kutubxona-axborot muassasasining elementi sifatida muhim rol o'ynaydi: boshqa barcha elementlar unga mo'ljallangan, unga xizmat qilish ularning mavjudligining maqsadi va mazmunidir. Foydalanuvchining moddiy-texnik bazasi bilan aloqalari turli xil hujjatlardan foydalanish qulayligida namoyon bo'ladi.

5.4 Kutubxonachi

Kutubxonaning eng faol elementi - bu kutubxonachidir. Kutubxonachining (kutubxona jamoasining) faoliyati kutubxonaning barcha elementlarining o'zaro aloqasi, uyushuvi, ularning ijtimoiy mazmunini amalga oshirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Kutubxonachi foydalanuvchilarni o'rganish, ularning talabi va ehtiyojlarini tahlil qilish orqali o'zaro munosabatlarni tartibga solish, jonsiz kitoblar massasini tirik organizmga aylantirish vazifalarini samarali amalga oshirishi mumkin. Foydalanuvchilarni o'rganish natijalari kutubxona xizmatlarini bashorat qilish, kutubxona xizmatlaridan foydalanish sabablarini aniqlash, fondlarning tarkibi va tuzilishini, foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatishning eng samarali usullarini maqsadli aniqlash uchun zarurdir. "Kutubxonachi"

(kutubxona jamoasi) elementining eng muhim tasniflari xodimlar soni, ularning yosh tarkibi, mahorat darajasi, jismoniy va aqliy qobiliyatlari, ixtisoslik, amaliy tajriba va ko'nikmalar, ijodkorlik va boshqalar orqali ifodalanadi.

5.5 Moddiy-texnik baza

Kutubxona fondi, foydalanuvchi, kutubxona-axborot muassasasi xodimi o'zaro aloqasi va birligi muayyan moddiy – texnik baza muhitida amalga oshadi. Moddiy texnik baza "kutubxona" tizimining boshqa elementlari bilan teng element bo'lib, uning kutubxonashunoslik sohasidagi tadqiqotlari, rivojlanishi boshqa fanlar (arxitektura, texnik fanlar) bilan o'zaro bog'liqdir. Moddiy texnik baza tarkibiga quyidagilar kiradi: binolar, kutubxonalar va ularning muhandislik uskunalari, kutubxona jihozlari va mebellar, kutubxona ichidagi transport, kutubxona jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish vositalari, elektron ilmiy va o'quv resurslari, nusxa ko'chirish va ko'paytirish uskunalari, aloqa vositalari va boshqalar. Agar moddiy texnik baza kutubxona fondlarini samarali joylashtirish, saqlash va ulardan foydalanish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratsa, o'z ijtimoiy vazifalarini bajarsa foydalanuvchilarga tezkorlik bilan xizmat ko'rsatish vazifasini samarali tarzda ado eta oladi.

Kutubxonani murakkab muhandislik-texnologik majmuaga aylantirish moddiy texnik baza uchun kutubxonashunoslikka bo'lgan talablarni ishlab chiqishni va kutubxona binolari va jihozlarini loyihalash va ishlatishda ularni hisobga olishni talab qiladi. Kutubxona binolari va jihozlarining sifati pastligi, kutubxona mutaxassislarining kutubxona binolarini loyihalashda, kompyuter va texnik vositalar bilan ta'minlashda ishtirok etishda o'zlarini chetga olganliklari bilan bog'liqdir.

5.6 Kutubxonaning boshqa elementlari

Kutubxonaning elementlari statik emas, tarixiy kelib chiqishiga ko'ra rivojlanish jarayonida kutubxona-axborot faoliyati jarayonining murakkablashuvi bilan bog'liqdir.

Shundan ma'lumot-qidiruv apparatini (karta, kitob va elektron shaklda) yaratish va takomillashtirish zarurati paydo bo'ldi. Ma'lumot-qidiruv apparati foydalanuvchiga kerakli hujjatning joylashgan joyi to'g'risida ma'lumot olish, boshqa kutubxonalar to'plamlarining tarkibi to'g'risida bilish, boshqa kutubxonalarda, axborot tizimlarida, mamlakatlarda mavjud bo'lgan axborot manbalarini topish imkoniyatini beradi. Zamonaviy kutubxona dasturlarining aksariyati avtomatlashtirilgan ma'lumotlar bazalari va ma'lumotlar banklarini birgalikda yaratishga bag'ishlangan. Kutubxonachilik ishi evolyusiyasining eng muhim natijalaridan biri kutubxonashunoslikga oid bilimlarning kutubxonaning tarkibiy elementlaridan biriga aylanishidir. Mustaqil faoliyat turi sifatida ajralib turadigan kutubxonashunoslik bilimlari mavjud kutubxona amaliyotini anglash orqali rivojlanadi.

Kutubxonaning rivojlanishi insonning jismoniy qobiliyatlari bilan emas, balki bilimlarning rivojlanishi natijasida yuzaga keladi. Fan kutubxonaning barcha elementlarini shakllantiradi. Hozirda fanning rivojlanishi kutubxonachilik amaliyotini takomillashtirish va o'zgartirishning boshlang'ich nuqtasiga aylanmoqda. Zamonaviy kutubxonani fansiz rivojlantirish mumkin emas.

VI Bob. Kutubxonaning vazifa bajarishga oid tavsifi.

Kutubxonalar muayyan vazifalarni bajaradi, Muayyan vazifalarni bajarish uchun esa kutubxona mavjud bo'lishi, ya'ni, faoliyat ko'rsatishi zarur. Kutubxonaning mavjudligi uning ijtimoiy (axborot yetkazish, madaniy, talim berish) va texnologik vazifalarini bajarish faoliyatidir. Faoliyat ko'rsatish tizim sifatida kutubxonaning yaxlitligi va tashkil etilishi bilan chambarchas bog'liq.

6.1 Kutubxona mavjudligining asosiy elementlari.

Tizim sifatida, kutubxonaning ishlash jarayoni tashqi muhit, axborotga bo'lgan

ehtiyoj, faoliyat jarayoni, faoliyat natijasi, qaytariluvchi aloqa singari tarkibiy qismlarini o'z ichiga oladi.

6.2 Tashqi muhit va qaytariluvchi aloqa.

Har qanday kutubxona yuqori darajadagi murakkablikka ega bo'lgan ishlab chiqarish, fan, madaniyat, ta'lim, ilmiy va texnikaviy ma'lumotlar tizimining ajralmas qismi, elementidir. Tashqi muhit kutubxonaga doimiy ravishda ta'sir qiladi va uni qayta qurishga majbur qiladi. O'z navbatida, kutubxona axborot ehtiyojlarini qondirish va kutubxona resurslaridan foydalanish orqali tashqi muhitga, kutubxona-axborot xizmatlari sohasiga ta'sir ko'rsatadi. Kutubxona tashqi muhitining asosiy obyektlari quyidagilar: -uning xizmatlari va mahsulotlari iste'molchilari; - kutubxona uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydigan muassasalar, korxonalar va tashkilotlar (boshqarish, taminot, moliyalashtirish, kadrlar tayyorlash va boshqalar); - ijtimoiy mehnat taqsimotida kutubxona bilan birgalikda ishtirok etadigan muassasa va tashkilotlar (fondni tashkil etish, nashrlarni qayta ishlash, ma'lumotlarni yaratish, fondlar va boshqa ma'lumotlar jamlanmasidan foydalanish va boshqalar); - kutubxona va kutubxonadan tashqari texnologik jihatdan kutubxona bilan bevosita bog'liq bo'lmagan, lekin kutubxonaning vazifalari va usullari o'zgarganida ijtimoiy rolini o'zgartiruvchi muassasalar. Kutubxona faoliyatining samaradorligi uning ajralmas qismi bo'lgan tashqi muhitdagi rolini aniq belgilab berishi mumkin. Agar kutubxona o'z faoliyati sohasida yuz beradigan qandaydir ijtimoiy jarayonga (ilmiy, ishlab chiqarish, boshqaruv va hokazo) qanday hissa qo'shayotganini namoyish eta olmasa, kutubxonaning faoliyati samarasiz bo'ladi. Kutubxonaning etibori o'zining tarkibiga kiradigan tizimga ta'siri bilan belgilanadi. Qaytariluvchi aloqa o'z-o'zini tartibga solish, kutubxonani rivojlantirish, uning o'zgaruvchan sharoitlarga moslashishining asosidir. Kutubxona kitoblarni berish uchun emas, balki o'zi xizmat ko'rsatadigan sohada (o'quv muassasasi, korxonalar, shahar, tuman va boshqalar) ma'lumotni tarqatish uchun o'zini masul deb bilishi kerak. Bundan kelib chiqadiki, atrof-muhitni, foydalanuvchilar yashaydigan, ishlaydigan, o'qiydigan,

o'rganadigan aniq shart-sharoitni o'rganmasdan kutubxonaning faoliyat ko'rsatish jarayonini tasavvur qilib bo'lmaydi.

6.3 Kutubxona-axborot faoliyati jarayoni.

Kutubxonaning mavjudligi, ya'ni kutubxona xizmatlari va mahsulotlarini yaratish faoliyati yagona jarayon bo'lib, asosiy, yordamchi (ta'minlovchi) va boshqaruv faoliyatini o'z ichiga oladi. Kutubxonaning asosiy faoliyati - bu o'zaro axborot tasiri o'tkazish jarayonidir. Kutubxonada kutubxonachi, foydalanuvchi va hujjat o'rtasidagi muayyan munosabatlar tizimi shakllanadi. Kichik kutubxonada bu birdamlik aniq kuzatiladi, katta kutubxonalarda esa bu murakkablashadi. Tashkil etish, qayta ishlash, saqlash, foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish, bibliografik faoliyat va boshqalar bo'yicha farqlanish sezilarli bo'ladi. Bunday holatda boshqaruvning asosiy yo'nalishi barcha bo'limlarning faoliyatini kutubxonaning asosiy vazifalarini bajarishga qaratiladi.

Yordamchi faoliyat barcha xo'jalik, ishlab chiqarish, texnik, ta'minot va boshqa jarayonlarni o'z ichiga oladi. Boshqaruv kutubxonaning barcha tarkibiy qismlari va quyi tizimlarining faoliyatini muvofiqlashtirishni ta'minlaydi. Boshqaruv axboroti kutubxonaning ichki faoliyatining ajralmas qismi bo'lib, kutubxona va tashqi muhit o'rtasida ma'lumot almashishda muhim rol o'ynaydi. Boshqaruv to'g'risidagi ma'lumotlar tartibga solinishi uchun kutubxona tashkiliy va boshqaruv hujjatlarining asosiy turlarining ro'yxatini (nomenklaturasini) ishlab chiqadi, ularning harakati va qayta ishlash tartibini belgilaydi. Kutubxona faoliyatini axborot bilan taminlash yo'nalishiga quyidagi talablar qo'yiladi: ma'lumotlar kerakli miqdorda va o'z vaqtida to'planishi, ishonchli, foydali va undan kelajakda ham foydalanish uchun qulay bo'lishi kerak.

6.4 Kutubxona-axborot faoliyatining natijasi.

"Faoliyat natijasi" kutubxona faoliyatining asosiy elementi hisoblanadi. Amaliyot

natijalari va ularning parametrlari (nomenklaturasi, hajmi, sifati) nafaqat kutubxona elementlariga (texnologiya, ishlab chiqarish tuzilishi, asboblari va ish usullari), balki kutubxona menejmentining elementlari va tegishli xususiyatlariga (boshqaruv tuzilishi, boshqaruv xodimlarining soni va boshqalar) ta'sir qiladi.) Faoliyat natijalarining hajmi va sifat ko'rsatkichlari ham muhimdir. Kutubxonaning asosiy faoliyati natijasi kutubxona-axborot xizmatlari va mahsulotlaridir. Ularning ishlab chiqarilishiga ijtimoiy maqsadlar va mavjud kutubxona resurslari ta'sir qiladi. "Xizmat" tushunchasi ushbu xizmatning "iste'molchisi" tushunchasi bilan bog'liq va taqdim etilayotgan xizmatlar to'g'ridan-to'g'ri (iste'molchiga) foydalanuvchiga ta'sir sifatida qaraladi. Kutubxona xizmatlarining barcha turlarini uchta asosiy guruhga bo'lish mumkin: hujjatlar, aloqa va kutubxona xizmatlari. "Kutubxona mahsulotlari" tushunchasi to'g'ridan-to'g'ri iste'molchilar (foydalanuvchilar) bilan bog'liq emas. Kutubxona mahsulotlarining iste'molchilari toifasi yanada kengroq: masalan, mamlakat, mintaqa, sohadagi kutubxonachilar; aholi, talabalar va h.k. Kutubxona faoliyatining natijalarini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlar quyidagilardir: xizmatlar va mahsulotlar tarkibi (nomenklatura), kutubxonaning mahsulot va xizmat turlari, xizmatlar va mahsulotlar hajmi (soni), ko'rsatilayotgan xizmatlar va mahsulotlar sifati (dolzarbligi, mahsulotlarning yangiligi, to'liqligi va tezligi). xizmatning samaradorligi) va boshqalar.

6.5 Kutubxonaning tashkiliy tuzilmasi.

Kutubxonaning tashkiliy tuzilishini tegishli vakolatlarga ega bo'lgan va o'zaro munosabatlarda bo'lgan, o'ziga yuklatilgan vazifalar va maqsadlarni amalga oshiradigan nisbatan mustaqil bo'linmalar majmuasi sifatida belgilash mumkin. Ishlab chiqarish va boshqaruv tizimi o'zaro bog'liq bo'lib, kutubxonaning yagona murakkab tuzilishini tashkil etadi, uning doirasida ma'lum natijalarga erishishga imkon beradigan aniq bir faoliyat amalga oshiriladi. Umumiy ma'noda tashkiliy tuzilmani shakllantirish-bu tegishli va muayyan vazifani bajarishi jihatidan bog'liq bo'lgan ish turlarini aniqlash, guruhlashtirish va ularni tegishli

tarkibiy qism bo'yicha taqsimlash jarayonidir. Ish turlari (operasiyalar) bloklarga birlashtirilib, keyinchalik mantiqiy izchilikda umumlashtiriladi. Kutubxonaning ishlab chiqarish tarkibini yaratishni belgilaydigan asosiy bo'g'in ish joyidir, ish joylarining integratsiyasi yanada murakkab tarkibiy tuzilishlar: guruhlar, sektorlar, bo'limlardan iboratdir. Kutubxona amaliyotida eng ko'p ishlatiladigan tushuncha vazifa bajarish-texnologik tuzilishdir.

Kutubxonachilik ishi fondlarni tashkil etish, qayta ishlash, saqlash, foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish va bibliografiya faoliyatini tashkil etishga asoslanadi. Kutubxona xodimlari ushbu asosiy bo'limlarga birlashadi. Kutubxonaning vazifalari va qamrovi kengayishi bilan bo'limlarni sektorlarga, xizmatlarga bo'lish zarurati paydo bo'ldi.

Katta kutubxonalarda bitta vazifani bajaruvchi tuzilma yetarli bo'lmaganligi uchun sektorli, lingvistik, turlar (nashr turlari bo'yicha) tuzilmalar qo'llaniladi. Respublika, viloyat kutubxonasi va kutubxona - axborot markazlari tarkibida o'lkashunoslikka oid adabiyotlar bilan ishlaydigan bo'linmalar muhim o'rin egallaydi. Markaz vazifalarini bajaradigan kutubxonalarda ilmiy, uslubiy yoki boshqa muvofiqlashtirish bo'limlari mavjuddir.

Kutubxonaning ma'muriy tarkibi ishlab chiqarishning hosilasi bo'lib, u kutubxonadagi barcha jarayonlarni boshqarish vazifalariga, tarkibiy bo'linmalar va xodimlar o'rtasida vazifalarning to'g'ri va aniq taqsimlanishiga, ularning izchil va samarali ishlashini ta'minlashga yordam beradi. Boshqaruv tarkibiga kutubxona va uning tarkibiy bo'linmalarining rahbarlari, shuningdek maxsus bo'limlar (buxgalteriya, reja-iqtisod, tashkiliy va texnologik bo'limlar, marketing, kadrlar, ish yuritish va boshqalar) yoki boshqaruv vazifalarini bajaradigan alohida mutaxassislar kiradi. Oqilona tashkiliy tuzilmani yaratish kutubxona faoliyatining samaradorligi bilan bog'liq eng qiyin muammolardan biridir. Tuzilmaning asosiy obyektiv mezonlari kutubxona jarayonining mantiqiy va kutubxona bajaradigan vazifalardir. Ammo jarayonni katta jamoaning amalga oshirishi kutubxona jarayonini rejalashtirish, muvofiqlashtirish, uslubiy qo'llanma, rasionalizatsiya, buxgalteriya hisobi, hisobot berish, moliyalashtirish, moddiy-texnik ta'minot va h k kabi vazifalarni amalga oshirishni talab qiladi. YA'ni, kutubxonalarning tashkiliy tuzilishi qaysidir ma'noda kutubxona jarayonining mantiqiy tuzilishidan ko'ra

murakkabroqdir. Kutubxonaning tashkiliy tuzilmasi qotib qolgan narsa emas, Kutubxonaning turiga, faoliyat ko‘lamiga, xizmatlar va mahsulotlarning murakkabligi, hajmi va xilma-xilligiga qarab uni takomillashtirish, tartibga solish ko‘p jihatdan individual bo‘lib, yetarli darajada barqarorlikni talab qiladi.

VII Bob. Kutubxonalar tipologiyasi.

7.1 “Kutubxonalar tipologiyasi” tushunchasini tariflash.

Kutubxonalar tipologiyasi muammosi uzoq vaqtdan beri dunyoning yetakchi kutubxonashunos olimlarining e‘tiborini tortib kelmoqda. Kutubxonashunoslikda ko‘plab muammolarni hal qilishda ko‘pincha bir-biriga bog‘liq ikkita usul qo‘llaniladi - tasniflash (Lotin classis - daraja) va tipologiya (yunoncha typos - iz, namuna).

Tipologiya bu umumiy va alohida o‘xshashliklar va farqlarning sintezidir. Tipologiya bu umumlashtirish bo‘lib, u o‘rganilayotgan kutubxonalar sonini kamaytiradi, guruhlariga ajratadi va shu bilan ularni tushunishga yordam beradi. Individual xususiyatlar faqat tipologik xususiyatlar ko‘rinishida yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Kutubxonalar tipologiyasi deganda, o‘rganilayotgan kutubxonalar tizimini ma’lum xususiyatlarga ega bo‘lgan guruhlariga ajratishga asoslangan ilmiy bilish usuli tushuniladi. Guruhlarga ajratish jarayoni bu tipologizasiya, uning natijasi-tipologiyadir. Tipologizasiya zarurati juda ko‘p turli xil kutubxonalarni tavsiflash yoki bunday tizimlarni tahlil qilish asosida har qanday qonunlarni o‘rganish zarurati bilan bog‘liq. Tipologizasiya jarayonida mazmunli tahlil asosida o‘rganilayotgan kutubxonalarning o‘xshashliklari va farqlari aniqlanadi, ularni aniqlashning ishonchli usullari izlab topiladi. "Tur" va "xil"

tushunchasi kutubxonalar tipologiyasining asosiy bo'g'inlari bo'lib, namuna, model, xilma-xillikni anglatadi, bu ma'lum xususiyatlarga ega bo'lgan kutubxonalar guruhiga to'g'ri keladi. Shu bilan birga, yetakchi (asosiy) tipologik mezonlar bo'yicha guruhlangan kutubxonalar turlar deb nomlanadi va keyingi tafsilotlar jarayonida yaratilgan kutubxonalar xillar deb nomlanadi. Tipologizasiya jarayonida bir vaqtning o'zida kognitiv (ilmga asoslangan) va amaliy muammo hal qilinadi. Birinchisi, kutubxonalar faoliyatini va tipologik rivojlanishining obyektiv qonuniyatlarini aniqlash maqsadida ularning faoliyatini tavsiflovchi omillar to'plash va tahlil qilishdir. Biroq, kutubxonalar tipologiyasi kutubxonalarning muhim xususiyatlarini va ularni ayrim tur va xillarga ajratish xususiyatlarini qiyosiy o'rganishdan bosh tortmaydi. Kutubxonalar tipologiyasining amaliy vazifasi ularning faoliyatini tashkil etish va takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdir. Bu kutubxonalarning vazifalari, munosabatlari, tashkiliy darajalarining tipologik xususiyatlariga qarab farqlashga imkon beradi va kutubxonalarning samarali ishlashi uchun zarurdir. Kutubxonaning turi va xilini hisobga olgan holda, fondlarning tarkibi va tuzilishini maqsadli ravishda shakllantirish, foydalanuvchilarning talablarini qondirish, ularning ixtisoslashuvi va o'zaro aloqalari asosida kutubxona tizimining qurilishi va ishlashini ta'minlash, kutubxona ishlarini samarali boshqarish mumkin. Mamlakatimizda ham, xorijda ham kutubxonalarning ilmiy tipologiyasi hali ishlab chiqilmagan. Ko'p olimlar kutubxonalarni milliy, ommaviy, o'quv, ilmiy, akademik, maxsus kutubxona turlariga ajratadilar. **YUNESKO**

kutubxonalarni quyidagicha tasniflashni taklif etadi:

1. Milliy kutubxonalar.
2. Oliy ta'lim muassasalari kutubxonalari.
3. Boshqa yirik va eng yirik universal jamoat kutubxonalari.
4. O'quv kutubxonalari.
5. Maxsus kutubxonalar (ilmiy-tadqiqot institutlari kutubxonalari, jamoat tashkilotlari, idoraviy, kasaba uyushmalari, muzeylar va boshqalar).
6. Ommaviy (yoki xalq) kutubxonalar.

O'zbekistonda kutubxona muassasalarini quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Milliy kutubxonalar.

2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar axborot-kutubxona markazlari.

3. Oliy, o‘rta maxsus, o‘rta maktablarning kutubxonalari.

4. Maxsus: ilmiy, sohaviy, ta’lim (universitetlar, institutlar, kollejlari, liseylar), ishlab chiqarish (texnik, qishloq xo‘jaligi, tibbiy, harbiy va boshqalar), boshqaruv (Prezident ma‘muriyati, parlament va boshqalar).

7.2 Milliy kutubxonalar.

Milliy kutubxona davlatning asosiy kutubxonasidir. "Milliy kutubxona" atamasi kutubxonaning biron millat mulki emasligini, uning umummilliy ahamiyatga ega ekanligini bildiradi. Milliy kutubxonaning vujudga kelishi va rivojlanishi milliy davlatlar shakllanishi bilan bog‘liq bo‘lib, madaniyat yutuqlaridan foydalanishda millat ehtiyojlarini qondirishning shakllaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Shunday qilib, Milliy kutubxonaning ijtimoiy maqsadiga xos xususiyatlar davlatchilik tomonidan shakllantirilgan bo‘lib, bu xususiyatlar tizimi sifatida tushuniladi, jumladan: 1) barcha faoliyatni umuman davlatning ijtimoiy, madaniy va siyosiy manfaatlariga bo‘ysundirish; 2) davlatga moliyaviy va ma‘muriy bog‘liqlik; 3) milliy, ya‘ni geografik, idoraviy yoki boshqa doiralar bilan chegaralanmagan, faoliyat umumdavlat ko‘lami. Ushbu belgilarning har biri alohida ravishda boshqa kutubxonalarga tegishli bo‘lishi mumkin. Ammo ajratib bo‘lmaydigan tarkibiy qismda ular faqat milliy kutubxonalarga xosdir. Ayrim mamlakatlarning o‘ziga xos sharoitlariga qarab, Milliy kutubxonalar mamlakatda allaqachon mavjud bo‘lgan bir nechta kutubxonalarni birlashtirish orqali shakllantirilgan. Buyuk Britaniya kutubxonasi Britaniya muzeyi to‘plamlaridan (bosma nashrlar bo‘limlari, qo‘lyozmalar, Sharq tillaridagi kitoblar va qo‘lyozmalar bo‘limlari), milliy malumot kutubxonasi, tabiiy fanlar va ixtirolar milliy ma‘lumotnomasi kutubxonasi, Milliy fan va texnologiyalar kutubxonasi asosida tashkil etilgan. Boshqa mamlakatlarda bitta emas, balki bir nechta milliy kutubxonalar yaratilgan. AQShda - Kongress kutubxonasi, Milliy qishloq xo‘jaligi va milliy tibbiyot kutubxonalari; Rossiyada - Moskvadagi Rossiya davlat kutubxonasi va Sankt-Peterburgdagi Rossiya milliy

kutubxonasi, shuningdek, avtonom respublikalarda milliy kutubxonalar mavjud. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 20 fevraldagi "Ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etishni takomillashtirish to‘g‘risida"gi Farmoniga muvofiq O‘zbekiston milliy kutubxonasini tashkil etish to‘g‘risidagi taklifi qabul qilindi. Bugungi kunda Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi kutubxonashunoslik, bibliografiya, kitobshunoslik sohasidagi tadqiqotlar markazi sifatida ham xizmat qilmoqda.

Milliy kutubxonalar asosiy yoki tipologik va qo‘shimcha bo‘lishi mumkin bo‘lgan bir qator vazifalarni bajaradi. Milliy kutubxonaning birinchi tipologik vazifasi har tomonlama to‘liqlik va saqlash tamoyili asosida amalga oshiriladigan ichki hujjatlar to‘plamini shakllantirishdan iborat. Xorijiy nashrlar fondini shakllantirish sohasida Milliy kutubxona boshqa to‘liq kutubxonalardan ham ajralib turadi. Biroq, bu to‘liq emas, lekin u har bir davlatning imkoniyatlari va manfaatlarining chegaralari doirasida maksimaldir. Ko‘pgina Milliy kutubxonalar nashr etilmagan hujjatlar bilan to‘ldiriladi: qo‘lyozmalar, mahalliy dissertasiyalar, madaniyat va san‘at bo‘yicha materiallar (saqlangan qo‘lyozmalar, tadqiqot hisobotlari va boshqalar). Ammo bu vazifa ular uchun tipologik emas, chunki davlatni bunday hujjatlar bilan ta‘minlash arxiv muassasalarining vazifasi hisoblanadi va Milliy kutubxona uchun bu qo‘shimcha vazifadir. Umuman olganda, ichki hujjatlar fondini ("O‘zbekiston xotirasi") shakllantirish vazifasini faqat yirik kutubxonalar, axborot muassasalari, Sharqshunoslik instituti va boshqalarning birgalikdagi say-harakatlari bilan amalga oshirish mumkin, ammo Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi ularning aksariyat qismini to‘plash va saqlashni o‘z zimmasiga oladi, davlat bibliografik yozuvlari uchun asos bo‘lib xizmat qiladi va ushbu muassasalarning o‘zaro hamkorligini ta‘minlaydi. Milliy kutubxonaning eng muhim vazifasi mahalliy mualliflarning va mamlakatni tark etganlarning, chet ellarda nashr etilgan asarlarining (asl nusxalari va tarjimalari) yig‘ma fondini ham tashkil etishdir. Qayta tashkil etilgan Kitob Palatasi vazifalarini ham amalga oshirgan holda, Milliy kutubxona xududda davlat miqyosida turli mavzular, turlar va tillar bo‘yicha keng qamrovli hujjatlarni to‘liq joriy va retrospektiv bibliografik ro‘yxatga olishni amalga oshiradi. Bunday manbalarning asosiy turlari milliy bibliografiya, ichki va xorijiy hujjatlarning umumlashtirilgan (elektron) katalogi va boshqalardir.

Kutubxona va axborot resurslaridan o‘zaro foydalanish zarurati Milliy kutubxonaga mamlakatda mavjud bo‘lgan manbalar to‘g‘risida ma’lumot to‘plash, saqlash va tarqatish vazifasini yuklaydi. Ikkilamchi ma’lumot manbalari: ma’lumotnoma va axborot nashrlari, nashr etilmagan hujjatlar, kataloglar va fayl kabinetlari, ma’lumotlar bazalari va ma’lumotlar banki, mamlakat va umuman dunyoning ma’lumot-bibliografik manbalari uchun «kalit» hisoblanadi. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi ilmiy va yordamchi bibliografiya sohasida ham asosiy vazifalarni, ham qo‘shimcha vazifalarni bajaradi. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, madaniyat va san’at, kutubxonashunoslik va bibliografiya masalalari bo‘yicha adabiyotlar yaratishga ustuvor ahamiyat beriladi. Madaniyat va san’at sohasidagi ilmiy ma’lumotlarni yig‘ish kutubxonaning qo‘shimcha vazifasi hisoblanadi. Ushbu vazifa ikkita asosiy (tipologik) vazifalar: - bibliografik ma’lumot manbalarini yaratish va bibliografik xizmatni o‘z ichiga oladi. Bu Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasining ma’lumotnoma apparati asosida amalga oshiriladi. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi madaniyat sohasidagi ko‘plab olimlar, amaliyotchilar va davlat idoralari xodimlarini axborot bilan ta’minlashni tashkil etish orqali o‘zining axborot potensialidan foydalanishni faollashtirishni ta’minlaydi; ilgari ilmiy-texnika axboroti organlari uchun xarakterli bo‘lgan ilmiy va axborot faoliyati shakllaridan foydalanish (umumiy va tahliliy ma’lumotlarni tayyorlash va tarqatish, sanoat avtomatlashtirilgan axborot-qidiruv tizimini yaratish va ishlatish)ni ham amalga oshiradi. Milliy kutubxona vazifalarining keyingi to‘plami ikki tamoyilning (umumiy foydalanish va ustuvorlik) birligi asosida foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatadi. U nafaqat foydalanish uchun o‘z fondini taqdim etadi, balki bibliografik ma’lumotlar orqali ularning mazmunini ochib beradi. Milliy kutubxonaning maqomi va uning ijtimoiy maqsadi o‘rtasidagi qarama-qarshilikni yumshatish uchun, u boshqa kutubxonalar resurslari foydalanuvchilar ehtiyojlarini qondira olmasa, kutubxona xizmatlarining umumiy tizimida namuna bo‘lib xizmat qilishi kerak. Vazifalarning bunday taqsimlanishiga ma’muriy cheklashlar usuli bilan emas, balki boshqa kutubxonalar resurslarini kuchaytirish, shuningdek, tarmoq (idoraviy) respublika

kutubxonalarining kengroq doirasiga milliy maqom berish va kutubxona-axborot tizimidan keng foydalanish orqali erishish mumkin.

7.3 Axborot -kutubxona markazlari

Axborot-kutubxona markazlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi kutubxonasi, viloyat ilmiy va universal kutubxonalari, shuningdek, Toshkent shahar markaziy kutubxonasi negizida tashkil etildi.

Axborot-kutubxona markazlari faoliyati foydalanuvchilarning ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liq axborot ehtiyojlarini qondirishga, kasbiy bilimlarni kengaytirishga, ijtimoiy va ishlab chiqarish faoliyatining barcha sohalarida oliy ma‘lumotli shaxslarning malakasini oshirishga qaratilgan. Bu axborot vazifasini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan kutubxona - axborot faoliyatining ustuvor yo‘nalishi bo‘lib, uning o‘ziga xos xususiyati foydalanuvchilarni ilmiy darajadagi haqiqiy, erishilgan darajada, tadqiqot darajasida tanishtirishdir. Kutubxona - axborot markazlari ning o‘ziga xos xususiyatlari:

- faoliyat ko‘lamiga muvofiq eng to‘liq va jamg‘arma mavzusi bo‘yicha universal bo‘lishi;
- kitob depozitariyalari va mahalliy bosma nashrlarning universal to‘plamlari depozitariyalari funksiyalarini bajarish, kitob almashish fondlarini yaratish;
- mintaqadagi eng katta jamoat kutubxonasi, kutubxona–axborot tizimi universal markazi, ma‘lumotnoma, ma‘lumot, bibliografiya va ilmiy-uslubiy ishlar, iloji boricha mintaqaning kutubxona resurslarini birlashtirish va mintaqadagi barcha axborot-kutubxona markazlari faoliyatini muvofiqlashtirishni ta‘minlash; axborot-kutubxona markazlarining muhim vazifasi o‘lkashunoslik bo‘lib, o‘z faoliyati bilan mahalliy tarix va mahalliy nashrlarni to‘plash, saqlash va ommaga taqdim etish orqali mintaq iqtisodiyoti, sanoat, qishloq xo‘jaligi, fan va madaniyatning rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Axborot-kutubxona markazlari zimmasiga quyidagilar yuklatiladi:

- zamonaviy axborot texnologiyalari asosida aholiga kutubxona-axborot xizmatlarining sifat jihatidan yangi darajasini yaratish, ularning ilmiy, ta‘lim, axborot va madaniy qiziqishlarini

- an'anaviy kutubxona xizmatlaridan foydalanuvchilarga o'zlarining axborot resurslarini yaratish va dunyo ilmiy va ta'limiy axborot manbalariga kirishni ta'minlash orqali kutubxona-axborot ta'minotiga o'tishni ta'minlash;
- universal axborot resurslarini, milliy va xorijiy nashrlar fondini (bosma, audiovizual, elektron va boshqalar) shakllantirish, saqlash va ta'minlash;
- elektron kutubxonalar va ma'lumotlar bazalarini yaratish, ularning axborot resurslarini elektron katalogdan foydalangan holda birlashtirish;
- Axborotlashtirish va kutubxonachilik sohasidagi faoliyatni muvofiqlashtirish va tashkiliy-uslubiy qo'llab-quvvatlash O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi:
- axborot kutubxona markazlarini belgilangan tartibda Ziyonet axborot tarmog'iga bosqichma-bosqich ulanishi;
- elektron kutubxonalar tizimini rivojlantirish, kutubxona resurslarini tizimlashtirish vazifalarini amalga oshiradi.

7.4 Maxsus kutubxonalar.

"Maxsus kutubxona" atamasi lotincha **specialis** so'zidan kelib chiqqan - maxsus, biron bir mavzu yoki hodisaga, muayyan mutaxassislikka tegishli. Maxsus kutubxonalar XX-asrning boshlarida, ya'ni fanlar bo'linishining yakunida va fanlarni birlashtirish jarayonining boshida shakllandi.

Maxsus kutubxonalarining ijtimoiy maqsadi kasbiy mutolaani tashkil etishdir. U fondni, foydalanuvchilar tarkibini, ish shakllari va usullarining majmuasini belgilaydi. Maxsus kutubxonalar - bu soha va ko'p sohali fondga asoslangan, o'z faoliyatining kasbiy sohasi (ishlab chiqarish, ilmiy, o'quv va boshqaruv) tomonidan belgilanadigan foydalanuvchilarning maxsus axborot ehtiyojlarini qondiradigan kutubxonalardir. Maxsus kutubxonalar mamlakatda qabul qilingan ishlab chiqarish, fan, ta'lim va madaniyatning holati va tuzilishiga muvofiq tashkil etiladi. Shuning uchun ular odatda mustaqil tashkilotlar emas, balki davlat, aksiyadorlik, kooperativ, jamoat tashkilotlari,

korxonalar, ilmiy-tadqiqot tashkilotlariga tegishli bo'lib, ularda ishlaydigan mutaxassislarga xizmat qilishadi. Maxsus kutubxonalar o'z fondlarini xizmat ko'rsatiladigan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar yo'nalishiga muvofiq to'ldiradilar. Kitob, davriy nashrlar va doimiy nashrlar, standartlar, ixtirolar tavsifi, rasmiy idoraviy nashrlar, hisobotlar, rasm chizish va loyiha hujjatlari, shuningdek maxsus nashrlarning to'plamlari (kartografik, musiqiy, audiovizual) ular fondini to'ldirish obyektlari hisoblanadi. Maxsus kutubxonalar nafaqat hujjatli fondlarning saqlovchilari, balki hujjatli va axborot aloqasi markazlari, yaqindan boshlab elektron bog'lovchilardir. Shu sababli, ushbu kutubxonalar faoliyati bibliografik ma'lumotlarni qidirish va dastlabki hujjatlarni berish bilan cheklanib qolmaydi, masalan, mahalliy sanoat va tijorat ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lgan va kutubxona xodimining maxsus bilimlarini talab qiladigan ma'lumotlarni taqdim qilishni ham nazarda tutadi.

Olimlar va mutaxassislarning ma'lumot so'rovlari mazmuniga ularning kasbiga qarab ta'sir ko'rsatiladi va tematik yo'nalish kutubxona resurslariga bo'lgan ehtiyojni ko'rsatuvchi belgi hisoblanadi. Shuning uchun maxsus kutubxonalar asosan ilm sohaslariga ko'ra farqlanadi. Kutubxonalarning sohaga oid ixtisoslashuvi ularning shakllanishidagi o'ziga xos xususiyatlarni, foydalanuvchilar kontingentini, shuningdek foydalanuvchilarga axborot xizmatini amalga oshirishni belgilaydi. Maxsus kutubxonalarning uchta asosiy guruhini ajratish mumkin: ijtimoiy-gumanitar fanlar, tabiiy-ilmiy fanlar va amaliy fanlar. Ilm-fan va sanoat sohalari bo'yicha batafsil ma'lumot maxsus kutubxonalarning fond yo'nalishini (astronomik va geologik, geografik va kartografik, tarixiy va badiiy, yuridik, tibbiy, qishloq xo'jaligi, texnik va boshqalar) belgilaydi. Ushbu guruhlar doirasida kutubxonalarni tor bilim sohalari bo'yicha tabaqalashtirish mumkin. Maxsus kutubxonalarni farqlashning muhim belgisi kutubxona tegishli bo'lgan tashkilot faoliyatining turi hisoblanadi. Shu asosda ilmiy, o'quv, ishlab chiqarish va boshqaruv kutubxonalari ajralib turadi. Boshqa belgilaridan foydalangan holda maxsus kutubxonalar guruhlarini ularning holati bo'yicha (respublika, sohalari bo'yicha markaziy, mintaqaviy, bo'lim, filial), adabiyot turlari bo'yicha (patent kutubxonalari), xizmat ko'rsatiladigan foydalanuvchilar toifasi (ko'zi ojizlar uchun kutubxonalar) bo'yicha ajratish mumkin.

7.5 Maxsus kutubxonalarning tarmoq tabaqalanishi.

O‘zbekiston hududida maxsus kutubxonalar XIX asrda paydo bo‘lgan va asosan yuqori tabaqa vakillariga xizmat qilgan. Asosan Samarqand va Toshkent shaharlarida bo‘lib, ular ilmiy-texnik jamiyatlar bilan ish olib borgan va faqat rus aholisiga xizmat ko‘rsatgan, shu bilan bir qatorda ilmiy va muhandis xodimlar, ilmiy muassasalar ma‘muriyatining vakillari uchun ochiq bo‘lgan. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Astronomiya instituti kutubxonasi (1873), Samarqand viloyatidagi lalmi dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti kutubxonasi (1913), O‘zbekiston madaniyati va san‘ati tarixi Davlat muzeyining ilmiy ma‘lumotnoma kutubxonasi (1911, Samarqand) respublikaning eng qadimgi maxsus kutubxonalari hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Asosiy kutubxonasi, Respublika ilmiy pedagogik kutubxonasi, Davlat ilmiy tibbiyot kutubxonasi, Markaziy ilmiy qishloq xo‘jaligi kutubxonasi haqli ravishda yirik maxsus kutubxonalar hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining asosiy kutubxonasi 1933 yilda tashkil topgan bo‘lib, uning tarixi respublikada ilm-fan rivojlanishi bilan uzviy bog‘liqdir. U respublikaning 30 ta ilmiy kutubxonalari tarmog‘iga, ilmiy tadqiqot institutlari kutubxonalariga metodik rahbarlik qiladi. Maxsus kutubxonalar orasida asosiy o‘rin texnik kutubxonalarga tegishli. Texnik kutubxonalaridagi eng ommaviy yo‘nalish bu korxonalar va birlashmalar kutubxonasidir. Jurnallar, texnik hisobotlar, rasmiy idoraviy nashrlarning ayrim turlari, standartlar, chizma va dizayn hujjatlarining dastlabki nashrlari va boshqalar muhim o‘rinni egallaydi va foydalanuvchilarga ilmiy va texnik yutuqlar to‘g‘risida tezkor ma‘lumotlarni yetkazadi. Ishlab chiqarish va ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalarining kutubxona tizimi korxonalarining texnik kutubxonalari bilan bir qatorda ilmiy-texnik tashkilotlar-ilmiy-tadqiqot institutlari, loyihalash va texnologiya bo‘limlarining kutubxonalarini ham o‘z ichiga oladi. O‘zbekiston aholisiga sog‘liqni saqlash va tibbiy xizmat ko‘rsatish tizimida 286 ta maxsus kutubxonalar, shu jumladan, 12 ta viloyat tibbiy kutubxonalari, tibbiyot

ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari, tibbiyot muassasalari, klinikalar va kasalxonalar kutubxonalari mavjud. Qishloq xo'jaligi kutubxonalari kam rivojlangan. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligiga qarashli ilmiy-tadqiqot institutlari, tajriba stansiyalari, agrar universitetlar va kollejlarning kutubxonalaridan, shuningdek yirik qishloq xo'jaligi birlashmalaridan iborat - jami 27 ta kutubxona faoliyat ko'rsatmoqda.

7.6 Maxsus kutubxonalarni tashkilotlarning faoliyati xususiyati bo'yicha farqlash.

Maxsus kutubxonalar turlarining farqlanishining muhim belgisi bu kutubxona tegishli bo'lgan tashkilot faoliyatining yo'nalishi hisoblanadi. Ushbu xususiyatdan kelib chiqib, insonning kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan maxsus axborot ehtiyojlarini qondiradigan uch xil maxsus kutubxonalarni ajratish mumkin: ta'lim, jamoat tashkilotlari kutubxonalari va boshqaruv kutubxonalari. "O'quv kutubxonasi" kutubxonashunoslikda eng keng tarqalgan atamalardan biridir. Shu bilan biz o'quv faoliyati jarayonida yuzaga keladigan foydalanuvchilarning axborot ehtiyojlarini qondiradigan maxsus kutubxonalarni nazarda tutamiz. Ushbu barcha kutubxonalar orasida quyidagi guruhlarni ajratish mumkin: oliy ta'lim muassasalari (universitetlar, akademiyalar, institutlar), kollej kutubxonalari, akademik liseylar, maktab kutubxonalari. Ta'lim muassasalari kutubxonalari o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalashga ko'maklashadi. O'quv jarayonini ta'minlash ularning asosiy ijtimoiy maqsadi va o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Ular ikkala universal fondga (maktab, universitet), shuningdek, o'quv yurtining yo'nalishiga mos keladigan fondlarga va juda ko'p nusxali kitoblarga ega. O'quv kutubxonalari nafaqat o'quv ehtiyojlarini qondiradi, ularning barchasi ta'lim berish vazifasini bajaradilar, tadqiqot va ishlab chiqarish talablarini qondirishda ishtirok etadilar.

"Boshqaruv kutubxonasi" atamasi boshqa turdagi maxsus kutubxonalarni anglatadigan atamalar bilan o'xshashlik asosida hosil bo'ladi. Bular insonni boshqarish jarayonida yuzaga keladigan axborotga bo'lgan ehtiyojni qondiradigan kutubxonalardir. Boshqaruv kutubxonalarining quyidagi guruhlarini ta'kidlash mumkin: davlatning qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlari (parlament, prezident), mahalliy hokimiyatlar (hokimliklar, mahalla qo'mitalari), adliya organlari va boshqalar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti mamuriyati kutubxonasi o'z fondi bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti mamuriyati va hukumat apparati o'z bo'limlari, idoralari va xizmatlarining boshqaruv ma'lumotlariga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlaydi. Maxsus kutubxonalarining alohida guruhida ko'zi ojizlar uchun kutubxonalar mavjud. Ko'zi ojiz nogironlarga xizmat ko'rsatadigan eng yirik kutubxonalar - O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining Respublika ko'zi ojizlar uchun markaziy kutubxonasi va ko'zi ojizlar uchun viloyatlar, shaharlar va tumanlar kutubxonalari (jami 110 ta) ko'zi ojiz foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatadi, ular ko'zi ojizlar jamiyatining mahalliy tashkilotlari bilan yaqin aloqadadir. Adabiyot turlari bo'yicha maxsus kutubxonalar toifasiga Davlat patent idorasining Respublika patent kutubxonasi kiradi. Respublika patent kutubxonasi ixtirochilar uchun ma'lumotlarning asosiy ombori sifatida O'zbekistondagi to'liq patent fondining yagona egasi bo'lib, 50 mamlakat, Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT), Yevropa va Yevrosiyo patent idoralari tomonidan taqdim etilgan hujjatlar saqlanadi. Kutubxonada 21 million patent hujjatlari mavjud bo'lib, ulardan 6 milliondan ortig'i ixcham optik disklarda saqlanadi.

So'nggi yillarda kasaba uyushma ommaviy kutubxonalari nisbatan rivojlangan va korxonalar (tashkilotlar, muassasalar) tarkibida bo'lib, ma'lum bir mehnat jamoasiga xizmat qilish vazifalarini bajaradilar. Ular shakllantirilgan fondlarning universal tarkibiga ega, ammo xizmat ko'rsatadigan korxonalarining ishlab chiqarish yo'nalishi, ishchilar tarkibi, shuningdek kasaba uyushma tashkilotlari faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda shakllantiriladi. Kasaba uyushmalari kutubxonalari tarmog'iga kasaba uyushmalari klublari, madaniyat saroylari va korxonalarda joylashgan stasionar kutubxonalar kiradi. Korxonalar, kasaba uyushma kutubxonalari uchun kutubxona xizmatlarini tashkil etish, texnik kutubxonalar bilan yaqin hamkorlik asosida amalga

oshiriladi. Ular bilan birgalikda ishlab chiqarish maydonlarida kutubxonalar filiallari va kutubxonalar tarmog'ini tashkil qiladilar, qo'shma ommaviy tadbirlarni (ko'rgazmalar, axborot kunlari va boshqalar) o'tkazadilar, ijtimoiy-iqtisodiy va texnik adabiyotlar bilan taminlashni muvofiqlashtiradilar. Afsuski, bozor sharoitida kasaba uyushmalari kutubxonalari soni kamaydi va bugungi kunda ularning soni 400 ga yaqindir. Ushbu kutubxonalar guruhiga kasalxonalar, sanatoriyalar, dam olish uylari, mahkumlar uchun qamoqxonalar, harbiy qismlar va zobitlar uylari va boshqalarda tashkil etilgan kutubxonalar kiradi. Mamlakat Mudofaa vazirligi tizimida 100 dan ortiq kutubxona xizmat ko'rsatadi. Respublikada turli dinlarga mansub diniy tashkilotlar kutubxonalari tarmog'i rivojlanmoqda va 15 ta diniy konfessiyalarning birlashmalari faoliyat ko'rsatmoqda, ularning ba'zilari O'zbekiston uchun noan'anaviydir. So'nggi yillarda milliy madaniy markazlar, "Mahalla", "El yurt umidi" "Ustoz", "Sog'lom avlod uchun", "Zakovat" jamoat fondlari tomonidan tashkil etilgan kutubxonalar paydo bo'ldi.

Turli guruhlar tashabbusi bilan tashkil etilgan jamoat kutubxonalari ular tomonidan moliyalashtirilmoqda. Aholining ijtimoiy faolligi oshishi jamoat kutubxonalarining yangi turlarini hayotga tadbiq etadi. Iqtisodiy islohotlar jarayonida yangi ishlab chiqarish munosabatlari shakllanmoqda, turli xil tijorat tashkilotlari paydo bo'lmoqda. Umumjahon kutubxonalarining muhim vazifasi pullik asosda kutubxona va axborot xizmatlari turlarini kengaytirishdan, ularni o'z kutubxonalarini tashkil etishga qiziqtirishdan iborat.

VIII- Bob Kutubxonachilik kasbi.

8.1 Kutubxonachilik kasbi va kutubxonachi shaxsi.

Kutubxonachilarni maxsus ijtimoiy va kasbiy guruh sifatida har tomonlama o'rganish uchun ularni faqat mehnat faoliyati sharoitida, ya'ni kutubxona ishi doirasida ko'rib chiqish yetarli emas. Kutubxonachilik kasbining roli va ahamiyati, uning xarakteri va sifat xususiyatlari jamiyatning kutubxonalar va kutubxona mutaxassislariga bo'lgan talablari bilan belgilanadi. Jamiyat rivojlanish darajasiga qarab, kutubxonachilarga

muayyan vazifalarni yuklaydi va ularni ma'lum mazmun bilan to'ldiradi, rag'batlantiradi va ularning bajarilishini nazorat qiladi. Kutubxonachilik kasbi rivojlanishning kitoblarning "saqlovchilari" dan "davlat va xalq g'oyalarning targ'ibotchilari" bosqichiga o'tdi. Mamlakatimizning milliy tiklanishdan milliy yuksalishga tomon rivojlanish sharoitida kutubxonachining kasbiy ongini tiklash jarayoni ham davom etmoqda. Uning ko'p o'lchovliligi, ko'p qirraliligi zamonaviy sharoitda eskirgan va yaroqsiz bo'lgan usullardan kechish va ularni boshqa, ilmiy asoslangan va ta'sirchanlariga almashtirishga imkon beradi. Ko'plab kutubxonachilar kutubxonani tiklash jarayonida faol qatnashmoqdalar, ish sifatiga va kasbiy mahoratga talablar darajasi oshmoqda. Kutubxonachilar madaniyat va ta'lim, axborot tizimlari va milliy mafkuraning rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy va professional guruhga aylanmoqdalar. Yuqoridagilar ilmiy kutubxona tafakkurining bir qator mezonlari va parametrlarini, xususan, qobiliyatini ajratib ko'rsatishimizga imkon beradi:

- kutubxona hodisalari va dalillarini ularning yaxlitligi, o'zaro bog'liqligi va o'zaro bir-birini taqozo qilishi bo'yicha tahlil qilish;
- kutubxonadagi o'zaro ta'sirlar va ta'sir ko'rsatishlar genezisini kuzatish;
- kutubxona faoliyatini foydalanuvchi maqsadi va olingan natijalar bilan solishtirish;
- mavjud bo'lgan odatlardan va stereotiplardan voz kechish, yangi baholashlar, umumlashtirish, yondashuvlarni izlash va topish;
- amaliy va ijodiy izlanishda nazariya va yangi g'oyalardan foydalanish;
- foydalanuvchi bilan muloqotda faktlar va ishonchli dalillar mantig'idan samarali foydalanish.

Kutubxonachi kasbiga qo'yiladigan muhim talablardan biri bu uning vakillarining ijtimoiy va kasbiy yondashuvlarining majburiy aniqligidir. Kutubxonachining nuqtai-nazari -bu dunyoga, kutubxona voqeligi va kutubxona faoliyati, uning faoliyatining manbai bo'lgan aqliy va hissiy-baho munosabatlari tizimidir. Kutubxonachining nuqtai-nazari uning shaxsiyati, ijtimoiy yo'nalishi, fuqarolik xulq-atvori va faolligini aks ettiradi. Kutubxonachining ijtimoiy faol shaxsiyatining ajralmas ko'rsatkichi bu uning kasbiy qadriyatlari, masalan, kutubxonachi vazifalarining ijtimoiy rolini tushunish, kasbiy burch va sharaf, o'z kasbiga hurmat, foydalanuvchilar bilan muloqot madaniyati, kasbiy o'zini

o‘zi tarbiyalash va o‘z-o‘zini tarbiyalashga bo‘lgan ehtiyojidir. Kutubxonachining ijtimoiy mavqei ko‘p jihatdan kasb mavqeini, uning kasbiy munosabatini belgilaydi.

8.2 Kutubxona faoliyatining jamoaviy xususiyati va kutubxonachilar faoliyatining ijodiy tabiati.

Kutubxona faoliyatida har bir kutubxonachining yakuniy natijaga qo‘shgan hissasini aniqlash qiyin bo‘lganligi uchun kutubxona jamoasini shakllantirish katta ahamiyatga ega. Yagona ish dasturi, ularning faoliyatini baholashga yagona yondashuv va boshqalar bo‘lmagan jamoada samarali kutubxona jarayoni bo‘lishi mumkin emas.

Ushbu jamoaning asosiy xususiyatlari:

- yaxshi psixologik iqlim;
- g‘oyalar, qarashlar;
- ijodiy muhit.

Ushbu xususiyatlar umumiy qiziqishlar, maqsadlar, tarkiblar, kutubxona faoliyatini tashkil etish va ularning ish jarayonida tutgan o‘rni aniq bo‘lgan jamoalarga xosdir. Kutubxona jamoasining shakllanishi ijtimoiy-psixologik muammodir, u shaxsning psixologik xususiyatlarini, boshqaruv asoslarini o‘rganishni, bir qator ijtimoiy-psixologik muammolarni hal qilishni talab qiladi. Kutubxona faoliyati, har qanday boshqa faoliyat singari, nafaqat miqdoriy, balki sifat xususiyatlariga ham ega. Kutubxonachining ish mazmuni faqat uning ishiga ijodiy munosabati orqaligina to‘g‘ri baholanishi mumkin. Kutubxonachi shaxsiyatining ijodiy yo‘nalishi uning ijtimoiy tajribasi, maxsus kutubxonashunoslik, psixologik, pedagogik va boshqa bilimlar hamda yangi g‘oyalar, ko‘nikmalar asosida original yechimlar, innovasion shakl va usullarni topishiga imkon beradi va shu bilan o‘zining kasbiy faoliyatini takomillashtirishiga yordamlashadi. Kutubxona ishining tarkibiy qismini tahlil qilish kutubxona xodimlarining uchta asosiy guruhini ajratib olishga imkon beradi:

1) oliy kutubxona va tarmoq ma’lumotiga ega, yuqori aqliy va kasbiy salohiyatga ega bo‘lgan kutubxona mutaxassislari kutubxona faoliyatining nazariy va ilmiy jihatlari bo‘yicha kasbiy bilim va ko‘nikmalarni talab qiladigan ishlarni bajaradilar;

2) kutubxonachilarning tashkiliy va texnologik jarayonlar to'plamini bajaruvchi, asosan o'rta (kutubxona yoki boshqa maxsus) ma'lumotga ega bo'lgan o'rta ma'lumotli kutubxonachilar;

3) ma'lum bir operasialarni bajarish ko'nikmalariga ega bo'lgan, maxsus malaka talab qilmaydigan ish turlari, umumiy o'rta ma'lumotli kutubxonachilarning yordamchilari (kichik kutubxonachilar, yordamchi xodimlar). Bir necha sabablarga ko'ra kutubxonachi shaxs sifatida ko'p hollarda texnik, ijtimoiy, tashkiliy va iqtisodiy o'zgarishlarga qarshi turadi.

Ijodiy faollikni, mehnatga ijodiy munosabatni rivojlantirish uchun quyidagilar zarur:

1) kutubxonachilarga o'zlarining imkoniyatlari to'g'risida tushuncha berish, doimiy ravishda yangi, ilg'or g'oyalarni o'rganish, eskisi bilan taqqoslash;

2) kutubxonachiga tahlil va rasionalizasiyaga loyiq mustaqil vazifalarni topishda yordam berish, tahliliy qobiliyatlarni rivojlantirish;

3) zaruriy uslubiy yordam, maslahat berish, ilmiy-tadqiqot va tajriba ishlariga jalb etish.

Mehnatga ijodiy munosabat darajasini oshirish, kutubxonachilarning imkoniyatlarini ko'p jihatdan rivojlantirish va ishga qabul qilinadigan kutubxonachilarga talablarni ishlab chiqish (professiogramma) bo'lishi kerak.

8.3 Kutubxonachining shaxsiga qo'yiladigan umumiy kasbiy talablar.

Kutubxonachilarni tayyorlash ikki asosiy tamoyilga asoslanadi:

1)kasbiy bilimlar va ko'nikmalarning yagona asosini shakllantirishga yo'naltirilgan kutubxonachilik kasbining bir butunligi tamoyili.

2)kutubxonachilarni ixtisoslashtirishga asoslangan kutubxona kasbini tabaqalashtirish tamoyili. Kutubxona xodimlari tayyorlashning zamonaviy nazariy va amaliy asoslari: ijtimoiy va gumanitar, umumiy ilmiy, umumiy kutubxona va maxsus fanlarga tayanadi. Barcha bloklar kutubxonachining rivojlanayotgan shaxsiga, uning barcha tarkibiy qismlarini birlashtirgan kasbiy tayyorgarlikning asosi bo'lgan kutubxona amaliyotiga xizmat qiladi. Kutubxonachilik kasbi falsafiy, sosiologik, madaniy va ilmiy tadqiqotlarga asoslangan holda murakkab madaniy hodisa sifatida jamiyatga xizmat qiladi.

Umumlashtirilgan shaklda kutubxonachilik kasbini "shaxs - hujjat - shaxs" yoki kutubxonashunoslik atamasi bilan "kutubxonachi – hujjat- foydalanuvchi"ga ajratish mumkin. Zamonaviy kutubxonachi bu ixtiyorida boʻlgan axborot manbalari yoki hujjatlashtirilgan bilimlar tizimi va ularga ehtiyoji boʻlgan foydalanuvchilar oʻrtasidagi professional vositachidir. Kutubxonachi foydalanuvchilar bilan ishlash jarayonida hujjatlashtirilgan va hujjatsiz shakllarda ijtimoiy maʼlumotlarni almashish asosida ijtimoiy va aloqa faoliyatini amalga oshiradi. Kutubxonachilik mutaxassisligining asosiy mazmuni-kutubxonachining kitob va foydalanuvchi bilan munosabatidir. Kutubxonachining vazifasi foydalanuvchilarning maʼlumotlarga, axborotlarga boʻlgan ehtiyojlarini yaxshiroq tushunish va qondirishdir. Buning uchun u hujjatlarni va foydalanuvchilarni yaxshi bilishi kerak. YAʼni, kutubxonachining keng ijtimoiy-gumanitar va umumiy ilmiy malakasi bilan bir qatorda kitobshunoslik (hujjatshunoslik), foydalanuvchilar bilan muloqotining yuksak darajasi ham talab qilinadi. Kutubxonachining kasbiy sifati foydalanuvchilar guruhlarining axborot ehtiyojlarini, shuningdek hujjatlarning xususiyatlarini hisobga olgan holda adabiyotlar va hujjatlar oqimida yoʻnalishni toʻgʻri belgilash, ularning mafkuraviy yoʻnalishini, ilmiy, amaliy va badiiy ahamiyatini baholashni oʻz ichiga oladi. Kutubxonaning kommunikativ vakolati mezonlari quyidagilardir:

- foydalanuvchiga qiziqish mavjudligi, unga ijobiy munosabat;
- foydalanuvchining his-tuygʻularini tushunish va kutubxonachi bilan oʻzaro munosabatdagi nuqtai-nazarini aniqlash qobiliyati;
- ochiqlik va aloqa;
- foydalanuvchi bilan muloqotda bagʻrikenglik;
- foydalanuvchiga tasir oʻtkazish strategiyasini yoʻnaltira bilish;
- kommunikativ koʻnikmalarning mavjudligi (auditoriya bilan suhbatlashish, kutubxonada foydalanuvchilar bilan muloqotni tashkil etish, ishbilarmonlikka oid suhbatlar oʻtkazish, yuzaga keladigan nizolarni samarali hal etish va boshqalar).

8.4 Kutubxona faoliyatining va kutubxonachilik mutaxassisligi turlarining xilma-xilligi.

Kutubxonachilik kasbining yaxlitligi tamoyili uning bo‘linish tamoyili bilan to‘ldiriladi. Kutubxonachilik kasbi turli xil kutubxona mutaxassisliklari orqali o‘zini namoyon qiladi. Vazifalar va majburiyatlar o‘rtasidagi mavjud kasbiy tafovut ko‘pgina kutubxona mutaxassisliklarini, kutubxona faoliyat turlarini aniqlash imkonini beradi.

Kutubxona mutaxassisliklari doirasidagi farqlash turli xil faoliyat turlariga ehtiyoj paydo bo‘lishiga olib keladi. Kutubxonachilik kasbi tarkibidagi kutubxona mutaxassisliklarining tarkibi kutubxona turi, uning vazifalari bilan belgilanadi.

IX-Bob Kutubxonachilik ishi ijtimoiy tizim sifatida.

9.1 Kutubxonachilik ishining tarkibi.

Kutubxonachilik ishi deganda fuqarolar va ularning birlashmalarining axborot, madaniy va ma’rifiy faoliyat, shu jumladan, kutubxonalar tarmog‘ini yaratish va rivojlantirish, ularning fondlarini shakllantirish va qayta ishlash, foydalanuvchilar uchun kutubxona, axborot-ma’lumot va bibliografik xizmatlarni tashkil etish, kutubxona xodimlarini o‘qitish, ilmiy va uslubiy qo‘llab-quvvatlash, kutubxonani rivojlantirish sohasi tushuniladi. Kutubxona faoliyati kutubxona resurslarining harakati, rivojlanishi, ya’ni kutubxonashunoslikning hujjatlashtirilgan ma’lumotlarga bo‘lgan ijtimoiy va individual ehtiyojlarini ta’minlashning zamonaviy va kelajakdagi muammolarini hal qilish qobiliyatini tavsiflovchi o‘lchamlar to‘plami bilan belgilanadi. Kutubxona resurslarining quyidagi asosiy xususiyatlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- har xil turdagi kutubxonalarning mavjudligi, ularning yaxlit kutubxona tizimi sifatida ishlash darajasi;
- kutubxona fondlarining mavjudligi (hajmi, sohasi, mavzulari, turlari, tili, adabiyotlar tarkibi, uning jamiyatning axborot ehtiyojlariga mosligi);
- xodimlar bilan ta’minlanganligi (ularning umumiy soni, o‘quv va malaka tarkibi, ish staji va boshqalar);

- moddiy-texnik ta'minot (binolar, jihozlar, mexanizasiya, kutubxona jarayonlarini avtomatlashtirish va ha kozo). Kutubxona resurslari xizmatlar va mahsulotlarni yaratishda kutubxonalarning o'zaro aloqalarini aniqlaydi. Faqatgina ichki va kutubxonalararo munosabatlar doirasida kutubxonachilik faoliyati namoyon bo'lishi mumkin.

9.2 Kutubxonalar tarmog'i kutubxonalar majmuasi sifatida.

Alohida kutubxonalarning iqtisoslashuvi va kutubxonalar tarmog'ining shakllanishi o'zaro aloqador va bir-birini taqozo qiluvchi jarayondir. Xalq xo'jaligining turli sohalarinig tarmoqlarga bo'linishi natijasida foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish va ularning alohida axborot ehtiyojlarini qondirish maqsadida alohida kutubxonalar tarmoqlari (muzeylar, qamoqxonalar, diniy tashkilotlar va h.k) ning vujudga kelishi tabiiy va cheksiz jarayondir.

9.3 Kutubxona tarmog'i-boshqarishning tashkiliy birligi sifatida.

Bu yondashuv turli tashkilotlarga va muassasalarga qarashli bo'lgan (Qishloq xo'jaligi, Suv xo'jaligi, Fanlar Akademiyasi, Madaniyat vazirligi, Oliy va O'rta maxsus talim vazirligi, Xalq talimi vazirligi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi tizimidagi) kutubxonalarni operativ boshqarish bilan izohlanadi.

9.4 Hududiy belgi.

Xalq xo'jaligining istalgan sohasidagi kutubxonalar ma'lum bir hududda joylashgan. Har bir kutubxona bir vaqtning o'zida ikkita tizimning elementi sifatida ishlaydi va ikkala tizim bilan chambarchas bog'liq va bu aloqalarsiz hech qanday kutubxona samarali faoliyat ko'rsata olmaydi. Hududiy yondashuv hudud ichidagi tarmoq va idoralarga qarashli kutubxona tarmoqlarining o'zaro ta'sirini ta'minlaydi va mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy, demografik

va boshqa xususiyatlarini to'liq hisobga olishni talab qiladi. Akademik, texnik oliy talim muassasalari kutubxonalari muayyan munosabatlarda aloqadorlikda bo'ladi. Ulardan birontasi bir biridan ajralgan holda o'z foydalanuvchilarining axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qondira olmaydi. Kutubxona tizimi elementlari faqat o'zaro emas, jamiyatning tizimiga kiruvchi boshqa elementlar bilan ham aloqadordir. Bundan tashqari kutubxonachilik ishi kutubxona zaxiralaridan foydalanish orqali tashqi muhitga ham tasir o'tkazadi.

9.5 Kutubxonachilik ishining mavjudligi va tashkil etilishining asosiy tamoyillari.

Kutubxonachilik ishining asosiy tamoyillari uning maqsadlari, mazmuni, metodlari tizimi, tashkil etilishi, faoliyat jarayoniga talablarning muayyan qismini tashkil etadi. Kutubxonachilik ishining asosiy tamoyillari obyektiv mavjud bo'lgan qonunlar va qonuniyatlarni umumlashtirish asosida kutubxona jarayonlari va hodisalarining mohiyatini aks ettiradi.

Zamonaviy kutubxonashunoslik:

- Kutubxonachilik ishining hamma uchun tengligi;
- Foydalanuvchilar qiziqishining yetakchiligi;
- Kutubxonachilik ishining tizimliliigi;
- Markazlashuv va alohidalikning optimal qulay uyg'unligi;
- Kutubxona faoliyatini uyg'unlashtirish;
- Kutubxonachilik ishining davlat-ijtimoiy xususiyatiga egaligi to'g'risidagi tamoyillarga asoslanadi.

9.6 Kutubxona xizmatining hamma uchun tengligi.

Kutubxona xizmatining hamma uchun tengligi tamoyili bir butun tizim sifatida quyidagilarni qamrab oladi:

- kutubxonalar xizmatining yagona tizimi doirasida tashkiliy va texnologik shart-sharoitlarni yaratishga asoslangan, kutubxonalar fondlarining, hujjatlari va axborotlarining hududiy jihatdan hamma uchun tengligi;
- kutubxona fondiga tegishli bo'lgan hujjatlardan har bir foydalanuvchining erkin foydalanish imkoniyatlarining yaratilishi;
- barcha fuqarolarning jinsi, millati, ma'lumot darajasi, ijtimoiy holati, dunyoqarashi va yashash joyidan qat'iy nazar kutubxonalardan foydalanishlari uchun teng imkoniyatlar yaratilishi;
- xizmatlarning qulayligi, so'rovlarning tezkorligi va ishonchliligi, uyga adabiyotlarni olish, nusxalarni, tarjimalarni buyurtma qilish, bibliografik va faktografik so'rovlarning qondirilishi;
- asosiy kutubxona xizmatlarini bepul taqdim etish, kutubxona xizmatlarini huquqiy qo'llab-quvvatlash, axborotning hamma uchun tengligining huquqiy taminlanishi va boshqalar. Hamma uchun teng foydalanish tamoyili, birinchi navbatda, kutubxonalar sonini doimiy ravishda ko'paytirib borish va ulardan aholi eng qulay shaklda foydalanishi uchun mamlakat hududiga teng joylashtirish orqali amalga oshiriladi. Haqiqiy axborotlashgan jamiyat har bir fuqaroning istagan paytda o'zi uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumotlarni olish imkoniyatiga ega bo'lishining huquqiy va ijtimoiy kafolatlarini ta'minlashi zarur.

9.7 Foydalanuvchilar qiziqishlarining ustuvorligi.

Kutubxonalar faoliyatining gumanistik yo'nalishi inson shaxsining eng oliy qadriyatlarini qo'llab-quvvatlaydigan va asoslaydigan g'oyalar tizimidan kelib chiqadi. Inson o'zining ehtiyojlari va qiziqishlarini erkin rivojlantirish va amalga oshirish huquqiga egadir. Foydalanuvchilarning qiziqishlari va ehtiyojlarining qondirilishi kutubxonalar faoliyatini baholashning maqsadi va mezonidir. Har bir inson madaniyat, uning qadriyatlari bilan tanishishning o'ziga xos usuli orqali haqiqatni anglay boshlaydi.

Har bir insonning madaniyati uning turmush tarziga, turli xil shart-sharoitlarga va omillarga bog'liqdir.

Turli xil odamlarning iqtisodiy, siyosiy, estetik tafakkurini bir nuqtaga keltirish mumkin emas. Mutolaa qiziqishlari xilma-xilligining ustuvorligi kutubxonachilikni tashkil etish va faoliyatining sifat jihatidan yangi tamoyilidir. Bu bir tomondan, foydalanuvchi tomondan monopoliya, byurokratik tizimning rad etilishi, boshqa tomondan esa kutubxona faoliyatining demokratik, gumanistik asoslarining shakllanishiga yordam beradi.

Ushbu tamoyil kutubxona xodimlarining foydalanuvchilar bilan muloqotida ma'naviy muhitning yangilanishi, xizmat ko'rsatish jarayonini demokratlashtirish, foydalanuvchilarning manbalarni tanlash va baholash erkinligini, jamiyatning dolzarb muammolarini ochiq va tanqidiy muhokama qilish huquqini tan oladi. Kutubxonalar muloqot, munozaralar, to'g'ridan-to'g'ri va foydalanuvchilar tomondan bildirilgan fikr-mulohazalarga asoslanib, har bir foydalanuvchining o'z fikrini erkin ifoda etishiga yordam beradi.

9.8 Kutubxonachilik ishining tizimliliği.

Kutubxonachilik ishi bu murakkab, dinamik tizim bo'lib, u quyidagilar bilan tavsiflanadi: a) tarkibiy qismlarning (elementlar, quyi tizimlar) mavjudligi; b) ular o'rtasidagi yaqin aloqalarning mavjudligi; c) alohida tarkibiy elementlarning o'zaro bog'liqligi va o'zaro ta'siriga ko'ra taqozo qilinadigan yaxlitlik; d) har bir alohida elementning kutubxonachilik ishi uchun zarur bo'lgan vazifalarini bajarishida nisbiy mustaqilligining hisobga olinishi. Kutubxona ishini bunday tushunish uning tashkil etilishi, mavjudligi va rivojlanishiga tizimli yondashuv zarurligini belgilaydi. Tizimlilikni amalga oshirish o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi, balki kutubxona xodimlarining ongli faoliyati orqali amalga oshiriladi. Shu sababli dasturlar, rejalar, yo'nalishlar ishlab chiqiladi va kutubxona faoliyatini rejalashtirish jarayoni amalga oshiriladi.

Har qanday rejaning asosi: 1) obyektiv kutubxona faoliyati va uning rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish; 2) amalga oshirish nazarda tutilgan istiqbollar tizimi; 3) kutubxona jarayoniga ta'sir qilish vositalari tizimi. Kutubxonachilik ishini istiqbolli rejalashtirish va taraqqiyotini oldindan ko'ra bilish-bu kelajakda kutubxona tizimi va uning elementlarining rivojlanishi mumkin bo'lgan sharoitlari, ularni rivojlantirishning muqobil usullari va muddatlari to'g'risidagi ilmiy asoslangan tafakkur shaklidir.

9.9 Kutubxonachilik ishidagi ziddiyatlar va ularni hal etish yo'llari.

Bugungi kunda kutubxonachilik ishidagi ziddiyatli yo'nalishlar quyidagilarda namoyon bo'lmoqda:

- Maqsadlardagi ziddiyatlar (foydalanuvchilarning axborotga, malumotga va bilimga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish va kutubxonalar faoliyatining holati);
- Kutubxona jarayoni mazmunidagi ziddiyatlar (axborot ehtiyojlari va kutubxonalar zahiralari o'rtasidagi ziddiyatlar, kutubxona fondining shakllanishi va foydalanish o'rtasidagi ziddiyatlar);
- Axborot ehtiyojlarini qondirish tashkiliy shakllarining ziddiyatlari (foydalanuvchilarning yangi ehtiyojlari va kutubxonalar tizimi o'rtasidagi ziddiyatlar va hokazo);

Ushbu ziddiyatlarni hal etishning asosiy yo'llari quyidagilardir:

1. Kutubxonalar zahiralari foydalanuvchilarning ijtimoiy va individual ehtiyojlariga to'la bo'ysundirish.
2. Bugungi axborotlashuv davrida kutubxona mamlakatning qaysi hududida bo'lmasin umumiy tizimga kiritgan holda zarur axborotni har bir insonga qulay shaklda yetkazish imkoniyatini yaratish.

X-Bob. Kutubxona-axborot muassasalarining turlari va ularning xususiyatlari.

Kutubxona-axborot muassasalari turlariga ko'ra quyidagilarga bo'linadi:

- O‘zbekiston Milliy kutubxonasi;
- Axborot-kutubxona markazlari;
- Universal va maxsus kutubxona - axborot muassasalari
- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining kutubxonalari;
- boshqa kutubxonalar (fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining, tijorat tashkilotlarining kutubxonalari).

Kutubxonalar paydo bo‘libdiki, ularda shu davrning, makonning o‘ziga xos axborot resurslari to‘plangan, saqlangan va keyingi avlodlarga yetkazib berilgan. Shu bilan birga ular inson kamoloti uchun, jamiyat taraqqiyoti uchun bilim manbai, rivojlanish asosi bo‘lgan.

Bugungi kunda ham axborotlar, ma’lumotlar va bilim olishning boshqa manbalari asosan kutubxonalarda yig‘ilgan bo‘lib, bu foydalanuvchilarga aynan shu kutubxonadagi va boshqa kutubxonalar fondidagi manbalardan foydalanish imkonini beradi. Axborot va internet texnologiyasining rivojlanishi kutubxonalar oldiga o‘zlarida mavjud zahiralarni tartibga solish, elektron ma’lumotlar bazasini yaratish, axborot resurslarini kooperasiyalash, ularga erkin kirish va unumli foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratish vazifalarini qo‘ydi. Ana shu zaruratdan kelib chiqqan holda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 7 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qarori mamlakatimiz kutubxonachilik ishi sohasida axborot va telekommunikasiya texnologiyasini rivojlantirish va takomillashtirish uchun keng yo‘l ochib berdi. Qaror axborot-kutubxona bilan ta’minlashni takomillashtirish, kutubxonachilik ishini rivojlantirish va takomillashtirish uchun butun kutubxonachilik tizimini tubdan isloh qilish uchun asos bo‘ldi. Qarordan so‘ng mamlakatimizda faoliyat yuritib kelayotgan axborot–resurs markazlari tizimiga barham berila boshlandi. Kutubxonalar o‘z xususiy elektron resurslarini yaratish, mamlakatimizning yig‘ma elektron katalogini yaratishda faol ishtirok etish, Internet va boshqa axborot tarmoqlaridagi axborot ma’lumotlaridan unumli foydalangan holda aholiga kutubxona - axborot xizmati ko‘rsatishning zamonaviy yangi shakl va usullarini ishlab chiqish uchun faoliyat yurita boshladilar.

O‘zbekiston Respublikasining “Kutubxona-axborot faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunining 3-bobida mamlakatimizda kutubxona - axborot tizimi belgilab berilgan. Uning 9-moddasida kutubxona - axborot tizimi hamda kutubxona - axborot muassasalarining turlari qonunan tartibga solingan va ta’rif berilgan. Qonunda belgilanishicha, kutubxona - axborot tizimi yagona tashkiliy va uslubiy ta’minot asosida faoliyat ko‘rsatuvchi **kutubxona-axborot muassasalari** majmuidan iborat. Kutubxona-axborot muassasasi mustaqil muassasa bo‘lishi yohud korxonaga, muassasa yoki tashkilotning tarkibiy bo‘linmasi bo‘lishi mumkin va ular quyidagilardan iborat:

- O‘zbekiston Milliy kutubxonasi;
- axborot-kutubxona markazlari;
- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining kutubxonalari;
- boshqa kutubxonalar (o‘zini o‘zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining, tijorat tashkilotlarining kutubxonalari).

Kutubxona - axborot muassasalari kutubxona - axborot fondlarining mazmuni va belgilangan maqsadiga ko‘ra **universal** hamda **maxsus** kutubxona - axborot muassasalariga bo‘linadi.

Universal kutubxona - axborot muassasalarining xususiyati shundan iboratki, ularda axborot-kutubxona fondlari (AKF) bilimning turli sohalari bo‘yicha shakllantiriladi va turli toifadagi foydalanuvchilarning axborotga va kutubxonachilik xizmatiga bo‘lgan ehtiyojlarini qanoatlantiradi.

Maxsus kutubxona - axborot muassasalari AKFni bilimning bir yoki bir necha turdosh sohalari bo‘yicha shakllantiradi va shunga mos ayrim toifadagi foydalanuvchilarning axborotga va kutubxonachilik xizmatiga bo‘lgan ehtiyojlarini qanoatlantiradi. Shundan so‘ng qonunning kelgusi boblarida universal va maxsus axborot-kutubxona markazlariga ta’rif beriladi va ularning ish yo‘nalishlari, vazifalari ko‘rsatiladi.

Masalan, 10-modda O‘zbekiston Milliy kutubxonasiga bag‘ishlangan. O‘zbekiston Milliy kutubxonasi milliy va jahon madaniyatini, fani va ta’limini rivojlantirish manfaatlarini ko‘zlagan holda O‘zbekiston Respublikasida kutubxona - axborot

faoliyatini tashkil etuvchi hamda amalga oshiruvchi umumdavlat universal kutubxona - axborot muassasidir, deb hamda vazifalari quyidagicha belgilangan:

- kutubxona-axborot faoliyati sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi;
- axborot-kutubxona fondini shakllantiradi, uning but saqlanishini ta'minlaydi hamda foydalanuvchilarga milliy va xorijiy nashrlarning eng to'liq to'plamini taqdim etadi;
- O'zbekiston Respublikasida chiqariladigan nashrlarning majburiy nusxasini, shuningdek dissertasiyalarning ko'chirma nusxasini oladi;
- O'zbekiston Respublikasida chiqariladigan nashrlarning davlat bibliografik hisobini yuritadi;
- elektron kutubxona va elektron katalogni shakllantiradi;
- kutubxonashunoslik, bibliografiyashunoslik va kitobshunoslik sohasida ilmiy-tadqiqot hamda ilmiy-uslubiy faoliyatni amalga oshiradi va muvofiqlashtiradi;
- noyob va alohida qimmatli kutubxona - axborot resurslarini but saqlash, konservasiyalash va restavrasiya qilish bo'yicha ishlarni amalga oshiradi;
- yig'ma elektron katalogni shakllantiradi va yuritadi;
- kutubxona-axborot resurslaridan o'zaro foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratadi;
- boshqa kutubxona-axborot muassasalari bilan hamkorlikni amalga oshiradi.
- O'zbekiston Milliy kutubxonasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vaqolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.
- O'zbekiston Milliy kutubxonasining axborot-kutubxona fondi davlat mulkidir.
- O'zbekiston Milliy kutubxonasi to'g'risidagi Nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi tashkil etilishiga ko'ra muayyan tarixiy yo'lni bosib o'tgan.

1869 yil 16 avgustda Turkiston general-gubernatori K.P.Kaufman Xalq Maorifi Vazirligi, Fanlar Akademiyasi, geografiya jamiyatiga, Rossiya Bosh shtabiga kitob omborlaridan dublet nusxali nashrlarni berish bilan yangi kutubxona asosini yaratishga

yordam berishni so‘rab murojaat qiladi. 1870 yil may oyiga kelib, 200 nomda 2200 dan ko‘proq jild nashr yig‘ilib, Toshkent ommaviy kutubxonasining yadrosi tashkil qilinadi.

1920 yil kutubxonaga “davlat” maqomi beriladi va shu yildan boshlab kutubxona Turkiston o‘lkasi hududida nashr etilayotgan barcha matbaa nashrlarining majburiy nusxasini o‘la boshlaydi. Kutubxona mamlakatdagi barcha kutubxonalarga kutubxona fondini tashkil etish, kataloglarni tashkil etish va boshqa masalalar yuzasidan uslubiy yordam ko‘rsata boshlaydi. 1933 yili Davlat ommaviy kutubxonasi hukumat qarori bilan Respublikaning sharq qo‘lyozmalari bo‘yicha Markaziy kutubxonasi (saqlash markazi) deb e‘lon qilinadi.

1948 yili buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning yubileyi munosabati bilan kutubxonaga Alisher Navoiy nomi beriladi, kutubxona tarkibida noyob va nodir adabiyotlar fondi tashkil etilib, o‘sha vaqtda uning fondi 2000 nusxa dan oshiq bo‘lib, uning 250 tasi dastxatlar bilan, 151 tasi ekslibris bilan taqdim etilgan, hozirgi kunda ushbu fond 16 mingdan oshgan. Kutubxonada hozirgi kunda jahonning 75 tilida 10 milliondan oshiq nusxa adabiyot saqlanadi, undan 3 mln. nusxadan ortig‘ini o‘zbek milliy matbuot asarlari tashkil etadi. Kutubxona 1956 yildan xalqaro kitob almashuv ishini olib boradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 20 fevraldagi VP 3029 raqamli „Ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Respublikasi Davlat kutubxonasi va Respublika ilmiy-texnika kutubxonasi birlashtirilib, Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi tashkil etiladi, bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 12 apreldagi 123-sonli “ Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori e‘lon qilindi va kutubxonaga yangi maqom berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 20 martdagi “Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi -axborot-kutubxona markazi faoliyatini takomillashtirishning chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaroridan so‘ng kutubxona faoliyatini takomillashtirishning yangi-yangi yo‘nalishlari bo‘yicha ishlar olib borilmoqda. Yangi bino zamonaviy talablar asosida qurilgan bo‘lib, aholiga kutubxona-axborot xizmati ko‘rsatishning barcha shart sharoitlari yaratildi, eng yangi rusumdagi

kompyuter texnologiyalari, telekommunikasiya vositalari, nusxa ko‘paytiruvchi va nusxa ko‘chiruvchi vositalar bilan jihozlangan.

Qonunning 11-moddasida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri va barcha viloyatlar markazida joylashgan axborot-kutubxona markazlarining vazifalari quyidagicha belgilangan:

- axborot-kutubxona fondini shakllantiradi va uning but saqlanishini ta‘minlaydi;
- elektron kutubxona va elektron katalogni shakllantiradi;
- o‘z hududlarida chiqariladigan nashrlarning majburiy nusxasini oladi;
- bibliografik, ilmiy-uslubiy va madaniy-ma‘rifiy ishlarni bajaradi;
- tegishli hududda kutubxona-axborot muassasalari faoliyatini muvofiqlashtiradi va ularni tashkiliy-uslubiy jihatdan ta‘minlashni amalga oshiradi;
- respublikaning yig‘ma elektron katalogini shakllantirishda ishtirok etadi;
- axborot-kutubxona resurslaridan o‘zaro foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratadi;
- boshqa kutubxona-axborot muassasalari bilan hamkorlikni amalga oshiradi;
- tegishli hududda kutubxona-axborot muassasalarining depozitar saqlanadigan axborot-kutubxona resurslarini to‘plashni amalga oshiradi va ularning hisobini yuritadi.
- Axborot-kutubxona markazlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vaqolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Ushbu qonunning 13-moddasi Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari kutubxonalarining vazifalari va xususiyatlarini aniqlab bergan:

Bu kutubxonalar ham o‘z yo‘nalishida axborot-kutubxona fondini shakllantiradi va uning but saqlanishini ta‘minlaydi; kutubxonada elektron kutubxonani tashkil etadi va elektron katalogni shakllantiradi; boshqa axborot-kutubxona markazlar fondlaridan (elektron) o‘zaro foydalanishni ta‘minlaydi va hamkorlikni amalga oshiradi; mamlakatning yig‘ma elektron katalogini shakllantirishda ishtirok etadi. Bu kutubxonalarining axborot-kutubxona fondi davlat mulkidir, ular to‘g‘risidagi nizomlar ushbu organlarning rahbarlari tomonidan tasdiqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Asosiy kutubxonasi davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan maxsus ilmiy kutubxonadir.

1931 yil oktabrda O‘zbekiston Markaziy Ijroiya qo‘mitasi Kengashining qaroriga ko‘ra O‘zbekistonda ilmiy-tadqiqot muasssalariga rahbarlik qilish bo‘yicha Fan qo‘mitasi tashkil etiladi. O‘zbekiston Fanlar qo‘mitasining 1933 yil 4 oktabrdagi № 27/56 raqamli buyrug‘i asosida qo‘mita qoshida 39 ming 422 nusxa kitob bilan kutubxona barpo etiladi.

1943 yili sobiq Ittifoqda Fanlar akademiyasi tashkil etilishi munosabati bilan kutubxona O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi tizimidagi ilmiy-tadqiqot institutlarining ilmiy xodimlariga kutubxona xizmati ko‘rsatuvchi asosiy kutubxona sifatida qaytadan tashkil etiladi. Hozirgi paytda kutubxonada 8 ta bo‘limda 95 ta xodim 30 mingdan ortiq foydalanuvchiga kutubxona-axborot xizmati ko‘rsatmoqda. Kutubxona ijtimoiy va tabiiy fanlar bo‘yicha milliy bibliografik markaz, Xalqaro kutubxonachilik Assosiasiyasi (IFLA) ning tabiiy fanlar bo‘yicha depozitariysi, noyob obyektlar qatorida ro‘yxatga olingan ilmiy muassasa. Kutubxonada noyob nashrlar mavjud. Ular orasida “Avesto”ning 10 tomlik Kopengagen universiteti kutubxonasining faksimile nashri ham bor. Kutubxonaning kitob fondi 2019 yil boshida 3 754700 nusxani tashkil etib, nafaqat ilmiy xodimlarga, balki talabalar, magistrilar, o‘qituvchilar va xorijlik ilmiy xodimlarga ham o‘zining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, tarixiy, ma’naviy va badiiy adabiyotlari bilan xizmat ko‘rsatadi. Fanlar Akademiyasi tizimida himoya qilingan 10000dan ortiq dissertasiyalar fondini zamon talablaridan kelib chiqqan holda raqamlashtirish ishlari olib borilmoqda. Fanlar Akademiyasi tizimidagi 20 dan ortiq ilmiy-tadqiqot institutlarining kutubxonalariga tashkiliy-uslubiy yordam beradi. Ular uchun sohaning dolzarb masalalariga oid o‘quv seminarlari tashkil etilmoqda. Turli mavzularda bibliografik ko‘rsatkichlar, fan arboblari, yozuvchi va shoirlarning biobibliografiyalari tuzib nashr etiladi. 1994 yildan kutubxona birinchilardan bo‘lib, ish jarayonlarini avtomatlashtirishga o‘tdi. Rossiyaning IRBIS dasturi asosida elektron katalog tuzildi. Foydalanuvchilar uchun Internet xizmati ochildi. 2001 yili Markaziy Osiyoda birinchi bo‘lib, kutubxona respublikaning kutubxona xodimlarini axborot texnologiyalariga o‘qitish maqsadida o‘zining o‘quv markaziga ega bo‘lgan “Model avtomatlashgan kutubxona” loyihasi bo‘yicha ish olib borib 150 kutubxona xodimi o‘qitildi.

2002 yili “Akademik kutubxonalarning konsorsiumi” mavzusida loyiha bo‘yicha ish olib borildi va tizimning 5 ta kutubxonasiga elektron katalogdan foydalanish uchun yo‘l ochildi.

2007 yili kutubxonada Axborot-kutubxona markazi tashkil etildi va u foydalanuvchilarga elektron katalogdan, Internetdan, “YEVSSO” va “PMT8” ma’lumotlar bazasidan foydalanish imkonini berdi.

2013 yildan Respublika Fan va texnologiyalari qo‘mitasining granti asosida “Fanlar Akademiyasi kutubxonasi ilmiy-tadqiqot institutlari kutubxonalarning virtual korporativ tarmog‘i” mavzusida loyiha ishi olib borilmoqda. Bu O‘zbekiston Respublikasining “Kutubxona-axborot faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunining ijrosiga hamohang edi. 2014 yilga kelib, 163 dissertasiyalarning 163ta, avtoreferatlarning 3000 nusxa, 5000 nusxa adabiyotlarning to‘la matnli ma’lumotlar bazasi yaratildi. Mashhur siyosat va jamoat arboblari, akademiklar, professorlar va boshqa shaxslarning elektron kutubxonalari yaratila boshlandi. 1928 yildan 2012 yilga qadar nashr etilgan O‘zbekiston matbuoti solnomasining 553 ta soni skanerdan o‘tkazilib, ma’lumotlar bazasi (MB) yaratildi. 2012 yildan boshlab kutubxonada “Akademiklar fondi” yaratila boshlandi. Bu aholi qo‘lidagi shaxsiy kutubxonalar fondini avaylab asrash, kelgusi avlodlarga yetkazish uchun katta imkon bermoqda va kutubxona fondini boyitib bormoqda.

Xalqaro kitob almashuv muntazam ravishda yo‘lga qo‘yilgan. Kompyuterlashtirilgan, elektron resurslar fondiga ega bo‘lgan elektron kutubxona faoliyat yuritmoqda.

Respublika Uslubiy Kengashi tomonidan tayyorlangan Axborot-kutubxona markazlarining Namunaviy nizomiga ko‘ra kutubxona-axborot muassasalarining maqsadi yangi axborot-kommunikasiya texnologiyalari negizida yuqori sifatli kutubxona-axborot xizmati hisobiga foydalanuvchilarning axborotga bo‘lgan talablarini qondirish, bilim va axborot olishga keng yo‘l ochib berish, shaxsning shakllanishi uchun, bilim olish, mustaqil mutolaasi uchun sharoitlar yaratish, ilmiy va madaniy faoliyatini rivojlantirish, foydalanuvchilarni O‘zbekiston xalqining tarixiy, madaniy, ma’naviy merosiga xususiy va masofali kutubxona - axborot resurslariga yo‘l ochib berish bilan yaqinlashtirish, ma’naviy boy va barkamol insonning ijodiy rivojlanishi uchun

imkoniyatlar yaratib berish bilan milliy madaniyatning istiqbolli rivojlanishiga ta'sir etish, O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini saqlash va istiqboli uchun ta'sir etishdan iborat. Maqsadga erishish uchun axborot-kutubxona markazlari quyidagi vazifalarni bajarishi kerak deb belgilandi: zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalari asosida sifat jihatidan yangi kutubxona - axborot xizmatini tashkil etish, foydalanuvchilarning ta'limiy, ilmiy va madaniy qiziqishlarini axborot-kommunikasiya texnologiyalari yordamida tezkorlik bilan bajarish, an'anaviy kutubxonachilik xizmati shakllaridan xususiy va dunyo axborot resurslaridan foydalanishga yo'l ochib berish bilan kutubxona-axborot xizmatiga o'tish, axborot-kutubxona fondini tashkil etish va uning to'la saqlanishini ta'minlash, elektron katalogni va elektron kutubxonani shakllantirish, yig'ma elektron katalog yaratish ishida qatnashish, bibliografik, ilmiy-uslubiy va madaniy-ma'rifiy ishlarni bajarish.

Belgilangan rejalar asosida O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi tarkibida Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar ilmiy-universal kutubxonalari va Toshkent shahar markaziy kutubxonasi negizida qaytadan tashkil topgan axborot-kutubxona markazlarini birlashtiruvchi, ularning faoliyatini muvofiqlashtirib turuvchi Respublika kutubxona- axborot markazi tashkil topdi. 381-sonli Qarorda belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirish maqsadida Respublika axborot-kutubxona markazi orqali O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi axborot-kutubxona markazlari 2006 yilda 100 ta R-IV rusumidagi kompyuterlar, 2007 yilda 153 shaxsiy kompyuterlar, 14 ta server, printerlar, skanerlar, kseroks apparatlari va boshqa texnika vositalari bilan ta'minlandi. 2008 yilda barcha axborot-kutubxona markazlarda ichki tarmoqlar o'rnatildi. 2006 yilda barchasi "Ziyonet" ta'lim axborot tarmog'iga ulandi, 2007 yildan Yosh dasturchilarni tayyorlash va qo'llab quvvatlash markazi Respublika axborot-kutubxona markazi bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administrasiyasi huzuridagi Matbuot va Axborot kommunikasiyalari Agentligining qo'llab quvvatlashi bilan milliy avtomatlashgan kutubxona - axborot tizimi (AIBS) ni ishlab chiqishga kirishdi. 2008 yilda bu ish yakuniga yetdi va "KADATA" AAKT bir necha axborot-kutubxona markazlarida amaliyotda sinab ko'rila boshlandi.

2009 yilda axborot kutubxona markazlarning mulohazalari asosida Matbuot va Axborot kommunikasiyalari Agentligining yangi “KADATA 2.0” versiyasini ishlab chiqdi va barcha axborot kutubxona markazlariga o‘rnatildi. 2006-2009 yillarda ana shu tizim asosida axborot-kutubxona markazlarning elektron katalogiga 200 ming yozuv kiritildi. axborot kutubxona markazlarda bibliografik ma’lumotlar bazasi, nodir adabiyotlarning, qo‘lyozma kitoblarning va boshqa mahsulotlarning elektron to‘plamlari tayyorlana boshlandi. 2006 yilda axborot-kutubxona markazlarining Nizomi ishlab chiqildi va ro‘yxatdan o‘tdi. 2007-2008 yillarda Matbuot va Axborot kommunikasiyalari Agentligining qo‘llab quvvatlashi bilan Respublika axborot-kutubxona markazlari axborot, kutubxonachilik ishi va nashriyotchilik ishiga oid Xalqaro va Davlatlararo standartlarni tarjima qilishga kirishdi va 3 jilddan iborat standartlar to‘plami birinchi marta o‘zbek tilida nashr etildi. To‘plam 55 ta standartlarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, mamlakatning barcha kutubxona - axborot muassasalariga tarqatildi. O‘zbekiston Milliy kutubxonasi bilan birgalikda 2 ta “Kutubxona - axborot faoliyati haqida”gi va “Majburiy nusxa to‘g‘risida”gi Qonun loyihasi ishlab chiqildi. 2009 yildan respublikada sohaga oid maxsus “Kutubxona.Uz” jurnali nashr etila boshlandi. 2006-2009 yillarda jami 550 kutubxonachi xodimlardan 400 tasi malaka oshirish kurslarida o‘qidilar. 2006 yil Xorazm va 2008 yil Farg‘ona viloyati axborot-kutubxona markazlari negizida, 2010,2013 yil Milliy kutubxonada,2014 yil Qarshi shahrida Xalqaro anjuman, axborot-kutubxona markazlari xodimlari uchun 2008 yil Sankt-Peterburgdagi Rossiya Milliy kutubxonasi mutaxassislari ishtirokida 2 ta Xalqaro seminar-trening, 2013 yil Germaniya, Amerika kutubxonalarida malaka oshirish safarlari o‘tkazildi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi axborot-kutubxona markazi.

Qoraqalpog‘istonda kutubxonalar tizimi arab alifbosidagi Sharq qo‘lyozmalari jamlangan kutubxonalarni hisobga olmaganda XIX asrning 90-yillaridan faoliyat ko‘rsata boshlagan o‘sha paytdagi poytaxt To‘rtko‘l shahridagi ya’ni, sobiq Petro-Aleksandrovska shahar kutubxonasidan boshlangan. Uning dastlabki kitob fondi fuqarolarning hadya

qilgan adabiyotlaridan tashkil topadi. 1907 yil 7 martda u shahar ommaviy kutubxonasi sifatida rasman ta'sis etiladi. Umumiy yig'ilishda uning nizomi tasdiqlanadi va 41 a'zodan iborat qo'mita tuziladi. Kutubxona shahar aholisiga ma'lum darajadagi mablag' evaziga kitoblar, gazeta, jurnallardan foydalanish imkonini beradi, bundan tashqari turli shaxslar va tashkilotlarning kutubxonaga hadyolari, xayri ehsonlari evaziga mablag' topa boshlaydi. O'sha paytdagi kutubxona Nizomiga ko'ra uning a'zolari barcha fuqarolar (voyaga yetmaganlar, sudlanganlar, o'quvchilardan tashqari) bo'lishi mumkin edi.

1912 yilda kutubxonada jurnallar bilan qo'shib hisoblanganda 3300 nomda axborot manbai bo'lgan. Kutubxona 100 kun ishlagan va 697 foydalanuvchi foydalangan va 2032 kitob berilgan. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra 1919 yil aprelda Ishchi va soldat deputatlar Kengashi kutubxonani milliyashtirish bo'yicha komissiya tuzadi. May oyida To'rtko'ldagi Novikovning chor hukumatiga qarashli shaxsiy kutubxonasi milliyashtirildi va avval Xalq kutubxonasi, keyin Markaziy, Xorazm respublikasi kutubxonasi deb yuritildi.

1920 yillarda xalqning madaniy turmush darajasi o'sa borgan. Shaharlarda kutubxonalar va klublar tarmog'i, qishloq va ovullarda qizil choyxonalar, kitob mutolaxonalari tashkil topadi. 1921 yil avgustiga kelib Qoraqalpog'istonda 6 choyxona, 8 ta ko'chma kutubxona bo'lgan. 1927-1928 yillarda 13 ta qizil choyxona, 9 ta kutubxona, 1933 yilda 43 ta kutubxona, 41 ta qizil choyxona, 71 ta ko'chma kutubxona faoliyat yuritgan. 1940 yilda respublikada jami 195 kutubxona ishlagan. Markaziy Ijroiya qo'mitasining 1936 yil 9 apreldagi Qaroriga muvofiq va Qoraqalpog'iston maorif Xalq Komissarligi buyrug'iga ko'ra To'rtko'l shahar kutubxonasi negizida Respublika kutubxonasi tashkil etiladi. Qoraqalpog'iston poytaxti To'rtko'ldan Nukusga ko'chishi munosabati bilan kutubxona ham ko'chiriladi. Arxiv materiallariga ko'ra kitob fondi – 24430 nusxa, foydalanuvchilar soni – 500, kundalik qatnov–70 ta bo'lgan. 1941 yilga kelib, fondda 31046 nusxa kitob bor edi. 1944 yili Moskva, Leningrad (Sankt-Peterburg) bilan kutubxonalararo abonement tashkil etiladi. 1950 yillarning o'rtalariga kelib, 293 kutubxona va 117 ko'chma qiroatxona bo'lgan bo'lsa, 1962 yili Respublika bolalar kutubxonasi ham tashkil topadi. 1966 yili imkoniyati cheklangan foydalanuvchilar uchun

Respublika ko'zi o'jizlar kutubxonasi, 1970 yil Xo'jaylida, 1972 yili Amudaryo, Chimboy, Beruniy tumanlari ko'zi o'jizlar kutubxonalari tashkil topadi.

1936 yildan 2006 yilgacha Qoraqalpog'iston Respublikasi kutubxonasi sifatida xizmat ko'rsatgan. 2006 yil 20 iyunda qabul qilingan 381-sonli qarordan so'ng Berdaq nomidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi ilmiy-universal kutubxonasi negizida Qoraqalpog'iston Respublikasi axborot-kutubxona markazi tashkil topadi.

Hozirgi paytda Qoraqalpog'iston Respublikasi kutubxona - axborot markazining umumiy fondi 330429 nusxani tashkil etadi.

Toshkent viloyati “Turon” nomidagi axborot-kutubxona markazi

Toshkent viloyat ilmiy-universal kutubxonasi 1913 yili Toshkent jadidchilarining “Turon” nomidagi ma'rifiy jamiyat qoshida tashkil topgan va 1918 yildan mustaqil tashkilot sifatida faoliyat yuritgan. 1918 yilning kuzida Turkiston Xalq Komissarlari Kengashi qarori bilan marhum bolshevik, 1918 yil iyunda “Ishtirokiyunъ” (hozirgi “O'zbekiston ovozi”) gazetasini tashkil etgan va uning birinchi muharriri bo'lgan Orif Klebleyev nomini abadiylashtirish maqsadida “Turon” kutubxonasiga uning nomi berildi. Kutubxonaning kitob fondi Munavvar Qori Abdurashidxonov, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, G'ulom Zafariy, Shokirjon Rahimiy, Yusuf Aliyev va boshqalarning shaxsiy kutubxonalaridan ajratilgan kitoblar evaziga tashkil topgan. Jamiyat asoschisi Abdulla Avloniy kutubxonani ham boshqargan. Kutubxona viloyat kutubxonalari uchun tashkiliy-uslubiy markaz vazifasini bajargan. Kutubxona Shayxzoda, Oybek, G'ayratiy, G'afur G'ulom, Mirkarim Osim, O'zbekiston Qahramonlari Said Ahmad, Ozod Sharofiddinov, E. Vohidov, A. Oripov, O'zbekiston Xalq yozuvchilari O'. Hoshimov, olimlar Naim Karimov, Shuhrat Rizayev va boshqa ko'plar uchun sevimli maskan bo'lib qolgan. Turli yillarda Abduvohid Rasulov, Mahkamqori Saidaliyev, Abdulhay Nosirov, Fayzulla Ubaydullayev, Asqarbek Dolimov, Imomxon Husanho'jayev, Abduholiq Mamedov, To'xta Sodiqov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Vazira Sobirovalar kutubxonaga rahbarlik qildilar. 1991 yil kutubxona viloyat bolalar kutubxonasi bilan birlashtirildi. 1992 yilda esa kutubxonaga “Turon” nomi berildi. 1997 yili “Turon” kutubxonasi faoliyatida yangi bosqich jarayonlarini avtomatlashtirish ishlari

boshlandi, kutubxona mesenatlar, homiylar, xorijiy kutubxonalar bilan hamkorlik qila boshladi.

Shu vaqtdan boshlab respublikaning 10 ta kutubxonasi qatorida bu yerda ham “IRBIS” dasturi asosida elektron katalog tuzila boshlandi. 2001 yilga kelib respublikada birinchi bo‘lib, 65000 kitob haqidagi bibliografik yozuvni o‘z ichiga olgan o‘zbek tilidagi adabiyotlarning elektron katalogi - “O‘zbek adabiyoti” ma’lumotlar bazasi yaratildi. Unga o‘zbek milliy adabiyoti vaqillari asarlarining to‘la matnli ma’lumotlar bazasi va elektron biobibliografiyasi kiritila boshlandi. 1921-29 yillarda “Qizil O‘zbekiston” gazetasida bosilgan materiallarning bibliografik tavsifini o‘z ichiga olgan “Milliy matbuot sahifalarida” nomli baza tashkil topdi va qog‘oz ko‘rinishida ham bosildi.

2003 yildan kutubxonada yangi axborot texnologiyalari bo‘limi ish boshladi. U lokal tarmoqqa birlashtirilgan 8 ta kompyuter bilan, nusxa ko‘paytiruvchi, nusxa oluvchi texnika vositalari bilan jihozlandi va bu bazada kutubxona xodimlari, olimlar, shahar va tumanlardagi kutubxona xodimlari kompyuter savodxonligiga o‘qitildi. 2000 yilda “Chorsu-2000” loyihasi asosida tadbirkorlarni qo‘llab quvvatlovchi, ularning huquqiy savodxonligini, madaniyatini oshirishga qaratilgan respublikada yagona markaz, huquqiy adabiyotlar bazasi hamda huquqshunos va buxgalterlar maslahatxonasi tashkil topdi. 2001 yili bu markaz negizida “Aholining huquqiy axborot markazi” huquqiy va iqtisodiy adabiyotlar fondi, “Huquq” huquqiy tizim va kompyuterlar hamda Internet tizimiga ochiq kirish huquqi bilan tashkil topdi. Markazda nafaqat aholining huquqiy madaniyatini oshirish bo‘yicha ish olib borildi, balki O‘zbekistonning 5 ta hududlari- Xorazm, Buxoro, Andijon, Sirdaryo viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikalarida ham xuddi shunday markazlarning tashkil topishiga yordam berildi. Seminar-treninglarda mutaxassislar huquqiy axborot markazlarida ishni tashkil etish, yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha o‘qitildi va bu jarayonga madaniyat instituti professor-o‘qituvchilari ham jalb etildi.

Mutaxassislar bilan hamkorlikda “Yangi iqtisodiy sharoitda kutubxonalar faoliyati” mavzusida loyiha ishi olib borildi. Loyiha doirasida respublika viloyat kutubxonalaridan menejment, marketing, fandrizing, huquqiy va iqtisodiy ish yo‘nalishlari bo‘yicha kutubxona hodimlarini o‘qitish yo‘lga qo‘yildi..

2006 yili 20 iyunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan 381-sonli Qarordan so‘ng viloyat ilmiy-universal kutubxonasi negizida “Turon” nomidagi Toshkent viloyat axborot-kutubxona markazi tashkil topdi. Respublikada birinchi bo‘lib viloyat kutubxonasida “Kutubxona muzeyi”ning tashkil etilgani katta yangilik bo‘ldi, unda kutubxona tarixi, uning faoliyatida ishtirok etgan buyuk shaxslar haqida katta arxiv materiallari to‘plangan. Bugungi kunda “Turon”kutubxona- axborot markazi qoshida 7 ta bo‘lim va 7 ta sektor Toshkent viloyati, shahar aholisiga namunali kutubxona - axborot xizmati ko‘rsatish bilan birgalikda viloyatdagi barcha tizimdagi mavjud kutubxona - axborot muassasalariga uslubiy va amaliy yordam ko‘rsatib kelmoqda. Shuningdek, Toshkent shahridagi yirik ilmiy markazlar va o‘quv yurtlari foydalanuvchilariga, hatto kutubxona fondidan foydalanayotgan xorijiy tadqiqotchilarga ham yirik ma’rifat markazlaridan biri sifatida xizmat ko‘rsatib kelmoqda. Toshkent viloyati “Turon” axborot-kutubxona markazi qariyb 3 million aholiga o‘zining noyob fondi va ilmiy-ma’naviy merosi orqali uzluksiz xizmat ko‘rsatib keladi.

Bugungi kunda o‘zining noyob kitoblari, gazeta va jurnallari taxlamlari, jahon adabiyotining nodir namunalari, ensiklopediyalar, lug‘atlar, 400 ming nusxadan ortiq zamonaviy adabiyot namunalari va vaqtli matbuot nashrlariga ega bo‘lgan “Turon” kutubxonasi foydalanuvchilarning sevimli maskaniga aylanib ulgurganligi ular sonining tobora ko‘payib borayotganligida namoyon bo‘lmoqda.

A.S. Pushkin nomidagi Samarqand viloyat axborot-kutubxona markazi

1911 yil 6 dekabrda Samarqandda taniqli arxeolog V.L.Vyatkin tashabbusi bilan polkovnik G.A.Brejeziskiy, agronom Y.N. Grushanovskiy, YE.M. Volnev va boshqalar yordamida shahar Ommaviy kutubxonasi ochildi. Kutubxonaning dastlabki kitob fondi asosan turli tashkilotlar va fuqarolardan hadya tariqasida olingan 2 ming nusxaga yaqin adabiyotlardan iborat edi. Dastlab kutubxona muzey bilan bir imoratda joylashgan. Kutubxonaning birinchi direktori V.A. Andreyev kutubxona katalogini tuzishni boshlagan. Kutubxona faoliyatining dastlabki davrida uning xizmatlaridan 200-300 kishi foydalangan bo‘lsa, 40-yillarda kutubxona a‘zolari soni 3800 kishiga yetdi, 50-yillarda esa, 6 ming kishidan oshib ketdi. 1917 yildan Samarqand shahar ommaviy kutubxonasi, O‘lka maorif bo‘limining Markaziy kutubxonasi, 1920 yildan asosiy kutubxona, 1927

yili Xalq komissarlari qo‘mitasi tasarrufiga o‘tgach, Davlat kutubxonasi maqomiga ega bo‘ldi. 1937 yilda ulug‘ rus shoiri A.S.Pushkin vafotining yuz yilligi va kutubxona tashkil topganiga 25 yil to‘lishi munosabati bilan O‘zbekiston hukumatining qaroriga binoan, unga A.S.Pushkin nomi va Davlat kutubxonasi maqomi berildi. Yildan yilga kitob fondi o‘shib, bo‘limlar ham o‘zgarib kengayib bordi. 1960 yili fond turli bilim sohalariga oid 150 mingdan oshiq nusxadagi adabiyotlarga ega bo‘ldi,. O‘sha yillari Afrosiyob shahridagi katta arxeologik qazishmalar yakuniga yetib, Samarqand shahrining tashkil topgan yiliga aniqlik kiritildi. 1970 yili dunyo jamoatchiligi shaharning 2500 yilligini nishonladi. 1970 yil viloyat kutubxonasi 500 ming jild kitobga mo‘ljallangan yangi binoga ko‘chib o‘tdi. Shu davrda yangi ixtisoslashgan o‘quv zallari, texnika va qishloq ho‘jaligiga oid adabiyotlar, chet tilidagi adabiyotlar, davriy nashrlar, san‘atga oid adabiyotlar o‘quv zallari, shuningdek o‘smirlar bo‘limi tashkil etildi va viloyatdagi 18 ta markazlashtirilgan kutubxonalar tizimi tarkibidagi 740 ta davlat kutubxonalarini uchun uslubiy markazga aylandi. Viloyat kutubxonasining uslubiy markaz sifatidagi roli ham kuchayib bordi. XX asrning 70-yillari boshida viloyatda kitob fondlari 3124,7 ming birlikdan iborat 631 ta kutubxona aholiga kutubxonachilik xizmati ko‘rsatdi. Shu yillar ichida viloyat kutubxonalaridan foydalanuvchilar soni 332,8 ming kishiga yetdi, ularga jami 3456,0 ming nusxa adabiyotlar berildi. 70-80-yillar viloyat kutubxonalar tarmog‘ini tartibga solish va rivojlantirish davri bo‘ldi. Shu davr ichida davlat ommaviy kutubxonalar tarmog‘i 220 birlikka ko‘paydi va 1990 yilga kelib 850 taga yetdi. 1973-1985 yillarda Samarqand viloyatida kutubxonalar tarmog‘ini markazlashtirish tadbirlari amalga oshirildi. Shu davr ichida 840 kutubxonani, shu jumladan 777 ommaviy, 44 bolalar va 19 markaziy kutub-xonalarni birlashtirgan 19 ta markazlashtirilgan kutubxonalar tarmog‘i tashkil etildi. Foydalanuvchilar soni ham ko‘payib bordi. Markazlashtirishgacha ularning soni 332,8 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, 80-yillarning oxiriga kelib 754,7 ming kishiga yetdi. Shu davr ichida foydalanish uchun berilgan kitoblar soni ham 4,5 baravar oshdi va 15.303,9 ming nusxaga yetdi. 80-yillarda A.S.Pushkin nomidagi Samarqand viloyat kutubxonasi Respublikaning ilmiy-uslubiy ishlar bo‘yicha ilg‘or tajriba maktabiga aylandi. Uning negizida turli uchrashuvlar,

ssminarlar, konferensiyalar, malaka oshirish kurslari va boshqa tadbirlar o'tkazildi. Ko'plab xorijiy mamlakatlar kutubxonalari bilan hamkorlik o'rnatildi.

So'nggi yillarda o'lkashunoslik bo'limi, kataloglar va kartotekalar bo'limi, huquqiy axborot markazi, Gyote instituti ko'magida nemis tilidagi adabiyotlar o'quv zali, bolalar adabiyotlari bo'limi tashkil etildi.

2006 yilga qadar bo'lgan holatga ko'ra viloyat kutubxonasining kitob fondi 612 ming nusxani, grammplastinkalar 3 mingni, notalar to'plami 12 mingni, gazeta va jurnallar bog'lanmalari 4 mingni tashkil etdi. 1920 yilgacha nashr etilgan kitoblar fondi 3 ming jildga yaqin adabiyotlarni o'z ichiga oladi. Foydalanuvchilar soni 33 ming kishiga yetdi, ularga har yili 700 ming nusxaga yaqin adabiyotlar beriladi. Kutubxonaning ilmiy-uslubiy va ma'lumot-bibliografiya bo'limlarining har yili kutubxona tamg'asi bilan 15 ga yaqin nomda uslubiy qo'llanmalari, o'lkashunoslikka oid materiallar, tavsiya ro'yxatlari nashr etiladi. Kutubxona 2006 yildan Samarqand viloyat axborot-kutubxona markazi sifatida qayta tashkil etildi. Viloyat kutubxonasini dunyo axborot olamiga ulash imkoniyati paydo bo'ldi. Kitob fondi elektron shaklga o'tkazila boshlandi, foydalanuvchilar kompyuterlardan, elektron katalogdan foydalanish imkoniga ega bo'ldilar. Foydalanuvchilarga masofadan turib kitob fondidan foydalanish ishlari boshlandi. 2011 yil dekabrda axborot-kutubxona markazi o'zining 100 yillik yubileyini nishonladi. Axborot-kutubxona markazi viloyatdagi 314 ta turli muassasalarga qarashli kutubxonalar uchun uslubiy markaz sifatida ishni davom ettirmoqda.

2002 yili Germaniya hukumatining quvvatlashi va Madaniyat ishlari vazirligining hamkorligida nemis o'quv zali ochildi. U zamonaviy o'quv zali bo'lib, nemis tilidagi dolzarb adabiyotlar, zamonaviy jihozlar bilan ta'minlangan madaniyat va ta'lim sohasidagi xalqaro hamkorlikning namunasidir. Nemis o'quv zalining fondi nemis tilidagi 2246 kitobdan, audio va videokassetalardan, SD i DVDlar va jurnallardan iborat. Bu Samarqand shahridagi Germaniya haqida ma'lumot beruvchi yagona markazdir. Ma'lumot manbalari o'lkashunoslik, nemis tili, san'at, madaniyat, iqtisodiyot, huquqshunoslik, ijtimoiy fanlarga oid va badiiy adabiyotlar, lug'atlar, ma'lumotnomalar, ensiklopediyalardan iboratdir. A.S.Pushkin nomidagi Samarqand viloyat axborot-

kutubxonada markazi bugungi kunda o'z fondida mavjud bo'lgan 651123 nusxadagi adabiyotlar bilan foydalanuvchilarga xizmat qilmoqda.

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro viloyat axborot-kutubxonada markazi.

Buxoro Respublikasi Maorif vaziri Musojon Saidjonov tashabbusi bilan Buxoro shahrida tashkil topgan. Eski Buxoro markaziy shahar kutubxonasi 1921 yil 30 iyunda o'z faoliyatini boshladi. Uning dastlabki kitob fondi 1187 nusxadan iborat edi. 1938 yil O'zbekiston Maorif Xalq Komissarligi qarori bilan Eski Buxoro Markaziy shahar kutubxonasi Buxoro viloyat kutubxonasiga aylantirildi va unga buyuk alloma Abu Ali ibn Sino nomi berildi. Shu munosabat bilan kutubxonaga adabiyotlar, jihozlar xarid qilish uchun qo'shimcha mablag' ajratildi. Natijada kitob fondi 1940 yilga kelib 10 baravar ko'paydi, 1939 yil oxiriga kelib viloyat kutubxonalar tarmog'i 138 ta kutubxonadan iborat edi. Ularga kutubxonachilik ishining asosiy yo'nalishlari bo'yicha uslubiy va amaliy yordam ko'rsatish, kutubxonada xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha tadbirlar o'tkazish maqsadida 1940 yilda viloyat kutubxonasi qoshida uslubiy xona tashkil etildi. 1953 yil Sharq fondidagi qo'lyozmalarning bir qismi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutiga berildi. Umuman olganda, mazkur ilmiy muassasa kitob fondining eng yaxshi va noyob qismini "Buxoro qolleksiyasi" tashkil etadi. 1958 yil aprelda viloyat kutubxonasida davriy nashrlar zali ochildi. 1959 yildan kutubxonada ochiq kitob fondlaridan erkin foydalanish joriy qilindi. 1990-yillarga kelib kutubxonaning asosiy boyligi bo'lgan kitob fondi 300000 nusxaga yetdi. Mustaqillik yillarida kutubxonada hayotida katta ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi: foydalanuvchilar doirasi kengaydi, kutubxonaga tashriflar soni ko'paydi. 1993-2006 yillarda Xalqaro simpozium va konferensiyalar o'tkazildi. 1998 yil kutubxonada Sharq fondidagi noyob qo'lyozma asarlar katalogi nashr etildi. Mazkur katalog nusxalari AQSH Kongressi kutubxonasiga, Yaponiya, Germaniya, Rossiya va Angliya kutubxonalariga yuborildi. Sharq fondidagi toshbosma nashrlar katalogi tuzila boshlandi. Kutubxonada o'quvchilarga bepul Internet xizmati yo'lga qo'yilgan. Elektron ma'lumotlar bazalari -"Pravo", "Norma" axborot-qidiruv tizimlari, ingliz tilida elektron kutubxonada mavjud. Kutubxonada 2006 yili Buxoro viloyat axborot-kutubxonada markazi sifatida qayta tashkil topdi. Abu Ali ibn Sino

nomidagi Buxoro viloyat axborot-kutubxona markazi bugungi kunda o‘z fondida mavjud bo‘lgan 267994 nusxadagi adabiyotlar bilan foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatmoqda.

Ahmad al-Farg‘oniy nomidagi Farg‘ona viloyat axborot-kutubxona markazi.

Farg‘ona viloyat axborot-kutubxona markazi O‘zbekiston Respublikasining eng qadimgi kutubxonalaridan biri. Rasmiy ma‘lumotlarga ko‘ra, yangi Marg‘ilon (Farg‘ona shahrining oldingi nomi) kutubxonasi 1899 yil iyunda ulug‘ rus shoiri A.S.Pushkin tavalludining 100 yilligi nishonlanayotgan kunlarda birinchi shahar kutubxonasi ommaviy muzeyning bir bo‘limi sifatida ochilgan. Kutubxonaning dastlabki kitob fondi 853 nusxa, foydalanuvchilar soni 200 ta bo‘lib, u ham bo‘lsa shaharlik ziyolilar edi, keng xalq ommasiga hali ruhsat yo‘q edi. 1913 yilga kelib fondagi adabiyotlar soni 5600 nusxaga yetdi. 1920 yilda kutubxona Farg‘ona shahar kutubxonasi nomini oldi. 1926 yil Toshkent shahar kutubxonasi bilan kitob almashinuvi yo‘lga qo‘yildi. Toshkent shahar kutubxonasiga Farg‘ona kutubxonasidan Yekaterina II davriga oid kitoblar berilib, o‘rniga o‘zbek tilidagi adabiyotlar olinadi va o‘zbek adabiyotlari bo‘limi ochiladi, ammo tezda u uyushmalararo klubga tarqatib yuboriladi, faqat 1931 yili yana qaytadan tashkil topadi. 1933 yili bolalar bo‘limi ochiladi, 1935 yili fondagi kitoblar tekshiruvdan o‘tkaziladi, 1 oktabrga kelib uning soni 25080 kitobdan iborat edi. 1939 yili shahar kutubxonasi negizida Viloyat kutubxonasi tashkil topadi. Ammo 1941 yilda boshlangan urush kutubxonani takomillashtirish bo‘yicha boshlangan ishlarni to‘xtatib qo‘ydi. Urush yillarida kutubxona Farg‘ona shahriga evakuasiya qilingan Moskva sharqshunoslik instituti, Moskva tibbiyot instituti, yoshlar instituti talabalariga, shuningdek, yozuvchilar, shoirlar va ilmiy xodimlarga xizmat ko‘rsatdi.

1956 yildan Farg‘ona viloyati tarixi, iqtisodi, madaniyati, mashhur kishilari haqida o‘lkashunoslik adabiyotlari yig‘ila va targ‘ib qilina boshlandi. O‘lkashunoslik kartotekasi tashkil topdi, hozirgi kunda unda o‘lka haqida 150000 kartochkalar to‘plangan. 1959 yil fondi 100000 nusxaga yetdi. 1961 yil kutubxona fondida 107908 nusxa kitob bo‘lib, shundan 16755 tasi o‘zbek tilida edi. 1967 yilga kelib kitob fondi 138 ming nusxadan oshib ketdi. 1970 yil viloyat kutubxonasi tarixida o‘chmas iz qoldirdi, kutubxona uchun maxsus qurilgan va jihozlangan, 500 ming tomga mo‘ljallangan, hamma sharoitga ega 3

qavatli binoga ko'chib o'tdi. Kutubxona tarkibi o'zgardi, xodimlar shtati kengaydi. O'rta asrlarda Osiyoning ko'zga ko'ringan ensiklopedist olimi, astronomi, geografi, matematik Ahmad al-Farg'oniy nomi berildi. 1977 yil Farg'ona shahrida ro'y bergan tabiiy ofat suv toshqini kutubxona uchun chinakam fojia bo'ldi. Kutubxonaning asosiy kitob ombori suv ostida qoldi. Kutubxonaning 300 ming nusxadan ortiq kitob, risola va jurnallardan iborat fondining uchdan ikki qismi nobud bo'ldi. Ular orasida 1917 yilgacha davrga oid adabiyotlar, 1920-1930 yillarga taalluqli qimmatbaho adabiyotlar va vaqtli matbuot nashrlari ham bo'lgan. Kutubxona xodimlari oldiga kitob fondini qisqa vaqt ichida tiklash vazifasi qo'yildi. Kutubxona jamoasi bu vazifani sharaf bilan uddaladi. Bugungi kunda mavjud adabiyotlarning 2372 tasi noyob kitoblardir. 1991 yildan e'tiboran o'lkashunoslik ishlariga, viloyat tarixini, til va madaniy merosini o'rganishga e'tibor kuchaytirildi. Ahmad al-Farg'oniy nomidagi Farg'ona viloyat axborot-kutubxona markazi bugungi kunda o'z fondida mavjud bo'lgan 352350 nusxadagi adabiyotlar bilan foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatmoqda.

Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon viloyat axborot- kutubxona markazi

1907 yilda Andijon shahrida ilm-fanga chanqoq jamoatchilik say-harakatlari bilan va shahar aholisi to'plagan mablag'lar evaziga 387 nusxa kitob fondiga ega ommaviy kutubxona qiroatxonasi ish boshladi. 1921 yili u Andijon mahalliy jadidlar sardori Abdulhamid Cho'lpon 1907 yilda asos solgan "Turon kutubxonasi" bilan birlashdi va shahar kutubxonasi maqomini oldi. 1922 yilga kelib kutubxonada o'n mingga yaqin kitob, gazeta va jurnallar saqlanardi. 1917 yil kutubxonada atigi 14 nomda gazeta va 26 nomda jurnallar jamlangan bo'lsa, oradan 50 yil o'tib 375 nomdagi jurnal va 42 nomdagi gazetalarga obuna bo'lishga erishildi. Kutubxonada 3298 nusxa noyob adabiyotlar alohida saklanib kelinmoqda. 1941 yilda Andijon viloyati tashkil topishi munosabati bilan shahar kutubxonasiga viloyat kutubxonasi maqomi berildi.

1950-60 yillarda viloyat kutubxonasi kutubxonalar qollektori va mahalliy kitob do'konlaridan olingan yangi adabiyotlar bilan butlandi, kitob jamg'armasi to'zigan, yirtilgan va mazmunan eskirgan adabiyotlardan tozalandi.

Kutubxona tashkil topganligining 60 yilligi arafasida (1966 yil) respublikada birinchilardan bo‘lib, 500 ming nusxa kitob saqlashga mo‘ljallangan yangi binoga ega bo‘ldi va shu yil kutubxonaga buyuk shoir va davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur nomi berildi. Viloyat kutubxonasida 2001 yil “Turon” nomli Toshkent viloyat ilmiy-universal kutubxonasi granti asosida “huquqiy axborot markazi” tashkil etildi. Kutubxona 2001 yil Xalqaro kutubxonachilik aloqalari dasturiga a‘zo bo‘ldi. Kutubxona 2006 yili Andijon viloyat axborot-kutubxona markaziga aylantirilgan. Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon viloyat axborot-kutubxona markazi bugungi kunda o‘z fondida mavjud bo‘lgan 864232 nusxadagi adabiyotlar bilan foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatmoqda.

Nodira nomidagi Namangan viloyat axborot-kutubxona markazi.

1918 yilda Namangan shahridagi paxta zavodi klubi qoshida 540 nusxadan iborat kitob fondi bilan kutubxona o‘z faoliyatini boshlagan va shahardagi hamma uchun foydalaniladigan birinchi kutubxona edi. 1927 yilda u shahar markaziy kutubxonasi deb e‘lon qilindi. 1929 yil kitob fondi ko‘payganligi sababli kutubxona alohida binoga ko‘chib o‘tdi. 1936 yilda kutubxonaning kitob fondi va vaqtli matbuot nashrlari 18398 taga, foydalanuvchilari 8695 nafarga o‘sdı. 1941 yilda Namangan viloyati tashkil topgach, shahar markaziy kutubxonasiga viloyat kutubxonasi maqomi berildi.

Namangan viloyati Andijon viloyati bilan qo‘shilganligi sababli 1960—68 yillarda kutubxona Namangan shahar kutubxonasi deb yuritilgan. 1968 yil Namangan viloyati qayta tashkil etilgach, u yana viloyat kutubxonasiga aylantirilgan. 1980 yil kutubxona uchun yangi namunaviy maxsus bino ishga tushirildi. Viloyat rahbariyatining maxsus qaroriga binoan, kutubxonaga Namangan Xalq deputatlari Kengashining 368-sonli Qaroriga ko‘ra o‘zbek mumtoz adabiyoti vakilasi shoira Nodirabegim nomi berildi. Namangan viloyat Hokimining 2006 yil 24 iyundagi 154-sonli Qarori bilan viloyat ilmiy universal kutubxonasi negizida Nodira nomidagi viloyat axborot-kutubxona markazi tashkil etildi. Axborot-kutubxona markazining faoliyati insonparvarlik, umuminsoniylik, shaxs erkinligi tamoyillari asosida olib boriladi. Axborot-kutubxona markazi viloyatda

Respublika axborot-kutubxona markazining hududiy bo‘limi bo‘lib, viloyatdagi barcha tipdagi kutubxonalar uchun uslubiy markaz sifatida faoliyat yuritadi. Kutubxonada 11 ta bo‘lim mavjud. 2001 yil kutubxona qoshida “Huquqiy axborot markazi” tashkil etilgan. 2005 yil 1 oktabrga qadar bo‘lgan holatga ko‘ra, kutubxonaning kitob fondi - 587,3 ming bosma birlik, foydalanuvchilar 11641 kishini tashkil etgan. Kutubxonada turli sohalarga oid 487 mingdan ortiq adabiyotlar, gazetalar va jurnallar, shuningdek, audiovizual materiallar, 1254 ta noyob kitoblar va qo‘lyozmalar mavjud. Kutubxona 2006 yili Namangan viloyat axborot-kutubxona markaziga aylantirilgan. Nodira nomidagi Namangan viloyat kutubxona-axborot markazi bugungi kunda o‘z fondida mavjud bo‘lgan 571945 nusxadagi adabiyotlar bilan foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatmoqda.

Qurbon ota Ismoilov nomidagi Xorazm viloyat axborot-kutubxona markazi

Xorazm viloyat kutubxonasi mamlakatimizdagi yirik ziyo maskanlaridan biri, kutubxonashunoslik va bibliografiya bo‘yicha viloyatda ilmiy-uslubiy va muvofiqlashtirish markazi hisoblanadi. 1934 yil Urganch shahar xalq maorifi bo‘limi qoshida okrug kutubxonasi sifatida tashkil etilgan kutubxonaning dastlabki fondi 5838 nusxadan iborat bo‘lgan. 1936 yilda kutubxonaning kitob fondi 16000 nusxaga yetgan, u 1322 foydalanuvchiga xizmat ko‘rsatgan. 1938 yilda kutubxonaga viloyat kutubxonasi maqomi berilgan. 1940 yilda uning kitob fondi 40000 nusxaga yetgan va kutubxona 2188 foydalanuvchiga xizmat ko‘rsatgan,

Kutubxona tarkibida 12 ta bo‘lim faoliyat olib boradi. Viloyat kutubxonasida bosh xizmat katalogi, alifboli va sistemali kataloglar, alifboli-predmetli kataloglar, musiqaga oid nashrlar va plastinkalar katalogi mavjud. 1986 yil viloyat kutubxonasi maxsus qurilgan uch qavatli yangi binoga ko‘chib o‘tdi. 2006 yili kutubxona Xorazm viloyat axborot-kutubxona markaziga aylantirildi. Qurbon ota Ismoilov nomidagi Xorazm viloyat axborot-kutubxona markazi bugungi kunda o‘z fondida mavjud bo‘lgan 601248 nusxadagi adabiyotlar bilan foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatmoqda.

Adib Sobir Termiziy iomidagi Surxondaryo viloyat axborot-kutubxona markazi.

1936 yilda 20 ming nusxadan iborat kitob fondi bilan Termiz shahar kutubxonasi tashkil etilgan. Viloyat ijroqo‘mining 1942 yil 1 yanvardagi buyrug‘i bilan Termiz shahar kutubxonasiga Surxondaryo viloyat kutubxonasi maqomi beriladi, 1991 yildan Surxondaryo viloyat kutubxonasi adib Sobir Termiziy nomi bilan ataladi. Kutubxonada o‘lkashunoslikka oid adabiyotlar fondi tashkil qilingan bo‘lib, u doimiy ravishda to‘ldirib boriladi. O‘lkashunoslikka oid adabiyotlarni targ‘ib qilish maqsadida “Surxondaryo - kecha, bugun, ertaga”, “Surxondaryoning madaniy hayoti” kabi mavzularda doimiy kitob ko‘rgazmalari tashkil etilib kelinmoqda. Adib Sobir Termiziy nomidagi viloyat universal ilmiy kutubxonasi 2006 yili viloyat axborot-kutubxona markaziga aylantirildi va davlat xujjatlarida belgilab berilgan vazifalarni bajarish yo‘lida faoliyat yuritmoqda. Adib Sobir Termiziy nomidagi Surxondaryo viloyat axborot-kutubxona markazi bugungi kunda o‘z fondida mavjud bo‘lgan 228592 nusxadagi adabiyotlar bilan foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatmoqda.

Sayido Nasafiy nomidagi Qashqadaryo viloyat axborot-kutubxona markazi.

1943 yil shahar kutubxonasi sifatida tashkil topgan kutubxona 1964 yili Surxondaryo viloyatidan Qashqadaryo viloyati ajralib chiqib, mustaqil viloyat maqomini olgach, Qarshi shahar kutubxonasi negizida tashkil topgan viloyat kutubxonasi maqomini oladi. Kutubxonaning dastlabki kitob fondi 9 ming nusxadan iborat bo‘lgan. Kitob fondini boyitishga vohadagi jamoat tashkilotlari, mehnat jamoalari jalb qilindi. 1965 yil boshiga kelib kutubxonada jamlangan kitoblar soni 87520 nusxadan oshib ketdi. XX asrning 70-yillarida viloyat kutubxonasining doimiy foydalanuvchilari soni 300 ming nafarga yetdi, kitob fondi esa 800 ming nusxadan oshdi. Bu ko‘rsatkich jamiyat hayotida kitobning roli tobora oshib borayotganidan, fuqarolarning dunyoqarashiga, yosh avlodning, turli kasb egalarining madaniy saviyasini yuksaltirishga kutubxonaning ijobiy ta’sir ko‘rsatayotganidan dalolat berardi. 1970-80 yillarda kutubxonaning moddiy bazasini mustahkamlash borasida katta ishlar amalga oshirildi. Viloyat kutubxonasi tuman, tarmoq kutubxonalari xodimlarining bilimlarini mustahkamlash va malakasini oshirish ishiga rahbarlik qildi. Joylarda kutubxona tashabbusi bilan, turli madaniy-ma’rifiy tadbirlar, kitob ko‘rgazmalari, o‘quvchilar bilan uchrashuvlar o‘tkazildi, odamlarning kutubxonalar to‘g‘risidagi fikri o‘rganildi, mahallalar, qishloqlar va

korxonalarda ko‘chma kutubxonalar tashkil etildi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, kutubxonaga Qashqadaryolik mashhur adib Sayido Nasafiy nomi berildi.

Kutubxonada turli mavzularda tadbirlar, seminarlar, taniqli madaniyat arboblari, siyosatchilar va adiblar bilan uchrashuvlar o‘tkazish an’ana tusini olgan. 2006 yilga qadar viloyatda 462 ta ommaviy kutubxona markazlashtirilgan kutubxona tizimlariga birlashgan holda faoliyat ko‘rsatdi. Ularning umumiy kitob fondi 3 mln. 200 ming nusxadan ziyod edi. Kutubxona 2006 yili Qashqadaryo viloyat axborot-kutubxona markaziga aylantiriladi.

Sayido Nasafiy nomidagi Qashqadaryo viloyat axborot-kutubxona markazi bugungi kunda o‘z fondida mavjud bo‘lgan 311345 nusxadagi adabiyotlar bilan foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatmoqda.

Alisher Navoiy pomidagi Sirdaryo viloyat axborot-kutubxona markazi.

Sirdaryo viloyat kutubxonasi 1963 yil fevralda N.A.Nekrasov nomidagi tuman kutubxonasi negizida tashkil etilgan. 1970 yil noyabrda kutubxonaga sobiq statistika boshqarmasining 200 kv. m. maydonli binosi ajratildi. 1974 yilda kutubxonada jamlash, adabiyotlarga ishlov berish va kataloglashtirish, ilmiy-uslubiy, ma’lumot-bibliografiya, xizmat ko‘rsatish bo‘limlari ish olib borgan. 1974 yil fevralda ma’lumot-bibliografiya bo‘limi, qishloq ho‘jalik va texnik adabiyotlar sektori ajralib chiqdi. Fond 58700 nusxaga yetdi. Kutubxonada alifbo va sistemali kataloglar, universal (rus tilidagi gazeta-jurnal maqolalari), “Sirdaryo viloyati” nomli o‘lkashunoslik kartotekalari bor edi. Kutubxonada o‘quv zali va sirtqi abonement, 2 ta ko‘chma kutubxona ish olib bordi. 1987 yilda Sirdaryo viloyat kutubxonasiga Guliston shahrining markazida zamonaviy jihozlangan yangi namunaviy bino ajratildi. Shu yilning 5 noyabri kutubxona tarixida muhim sana bo‘lib qoldi. 400 ming jild kitobga mo‘ljallangan yangi namunaviy binoga ko‘chib o‘tgan kutubxonaga buyuk o‘zbek shoiri Alisher Navoiy nomi berildi, yangi zamonaviy bino ommaviy tadbirlarni yanada sifatliroq o‘tkazish, pullik xizmat turlarini, mehnatni tashkil etishning yangi shakllarini amalga joriy etish imkonini berdi.

Viloyat kutubxonasida o‘quvchilarning ehtiyojlarini qondirish maqsadida xizmat ko‘rsatishning ilg‘or shakllari, chunonchi: brigada abonementi, oilaviy formulyar, jamoa

abonementi, sinf formulyari qo'llanila boshlandi. Kutubxona asta-sekin ho'jalik yuritishning yangi mexanizmiga o'tdi.

1975 yil Sirdaryo viloyat kutubxonalar tarmog'ida 202 kutubxona faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 1991-1999 yillar davomida bu ko'rsatkich 241taga yetdi.

Homiylar yordami hisobiga kutubxonalar zamonaviy elektron uskunalar bilan jihozlandi, eng so'nggi rusumdagi kitob vitrinalari, tokchalar, Germaniya davlati bilan hamkorlik natijasida mebel jihozlari bilan ta'minlandi. Pullik xizmat turlarining yangi shakllari faoliyatga olib kirildi. 2006 yili Sirdaryo viloyat axborot-kutubxona markazi sifatida qayta tashkil topgandan so'ng zamonaviy axborot texnologiyalari, texnika vositalari bilan jihozlandi. Alisher Navoiy nomidagi Sirdaryo viloyat axborot-kutubxona markazi bugungi kunda o'z fondida mavjud bo'lgan 202769 nusxadagi adabiyotlar bilan foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatmoqda.

Sharof Rashidov nomidagi Jizzax viloyat axborot-kutubxona markazi.

1973 yil hukumat qaroriga binoan Jizzax viloyati tashkil etildi. Viloyat kutubxonasi 1974 yil Jizzax shahar 2-son kutubxonasi negizida tashkil qilingan. Kutubxonaning dastlabki kitob fondi 12 ming 200 nusxadan iborat bo'lgan. Shu yil kutubxonada 4 ta bo'lim faoliyat ko'rsatgan. Viloyat kutubxonasida 1976 yildan o'lkashunoslikka oid "Jizzax va jizzaxliklar", "Jizzax viloyati" kartotekalari, alifboli va sistemali kataloglar yuritiladi.

Kutubxonada 1990 yil o'smirlar bilan ishlash bo'limi tashkil etildi. Bu bo'lim 14 yoshdan 21 yoshgacha bo'lgan foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatadi. 2005 yili viloyat hokimligi tomonidan "Mehr muruvvat yili" munosabati bilan kutubxona binosi ta'mirlandi hamda kutubxona texnika vositalari, zamonaviy kompyuterlar, skayner, kseroks, faks bilan ta'minlandi. IRBIS dasturi asosida elektron katalog tuzila boshlandi, xodimlarni maxsus dasturda ishlashga o'qitish yo'lga qo'yildi. Shu yil viloyat kutubxonasi "Huquqiy axborot markazi" tashkil etish loyihasini amalga oshirdi. 2003 yil kutubxona qoshidagi Kutubxona-axborot markaziga Jizzax shahri mahallalarida seminarlar tashkil etish va Internet tarmog'i bilan aloqa bog'lab turish uchun 12036

AQSH dollari miqdorida ikkinchi grant berildi. Kutubxona 2006 yili Jizzax viloyat axborot-kutubxona markaziga aylantirildi. Sharof Rashidov nomidagi Jizzax viloyat axborot-kutubxona markazi bugungi kunda o'z fondida mavjud bo'lgan 75214 nusxadagi adabiyotlar bilan foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatmoqda.

Abdulla Qodiriy nomidagi Navoiy viloyat axborot-kutubxona markazi

Navoiy viloyat hokimligining 1992 yil 27 maydagi qaroriga asosan 263,3 ming nusxa kitob fondi, 32 nafar kutubxona xodimlari bilan viloyat birlashgan kutubxonasi tashkil qilindi. Viloyat hokimligining Madaniyat ishlari boshqarmasi tasarrufida 253 ta kutubxona, shu jumladan bitta universal-ilmiy va bitta bolalar kutubxonasi viloyatning ko'p millatli aholisiga xizmat ko'rsatib keldi. Shulardan 43 ta kutubxona shaharda, 210 ta kutubxona qishloqlarda joylashgan edi. 2005 yilga kelib viloyatdagi kutubxonalarining umumiy kitob fondi 1.794.195 nusxaga yetdi. Shundan 1.112.099 nusxasi o'zbek tilidagi adabiyotlardir. Viloyat universal-ilmiy kutubxonasi 6 ta tarkibiy bo'limlardan iborat.

Kutubxona 2006 yili Navoiy viloyat axborot-kutubxona markaziga aylantirildi, zamonaviy kompyuter texnologiyalari va texnika vositalari bilan ta'minlandi. Abdulla Qodiriy nomidagi Navoiy viloyat axborot-kutubxona markazi bugungi kunda o'z fondida mavjud bo'lgan 167054 nusxadagi adabiyotlar bilan foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatmoqda.

Toshkent shahar "Bilim" nomidagi axborot-kutubxona markazi.

1937 yil oktabr oyida Toshkent shahar Frunze tuman (hozirgi Yakkasaroy tumani) Markaziy kutubxonasi Kirov nomidagi madaniyat va istirohat bog'i-hozirgi Z.M.Bobur nomli bog' hududidagi general-gubernator Kropatkinning dala hovlisida 10000 birlikdagi kitob fondi bilan tashkil etiladi. Kutubxonaning birinchi direktori L, Y. Estrin edi. 1957 yil direktor lavozimiga A. K. Garmash tayinlanadi va 1970 yilga qadar

kutubxonani boshqaradi, undan so‘ng 1973 yilgacha R.SH. Davletcharova rahbarlik qiladi. 1972 yil sentabrida 48619 birlik kitob fondiga ega kutubxonaga “Bilim” nomidagi Shahar markaziy kutubxonasi maqomi beriladi. Direktor etib R. A. Fedorina tayinlanadi va 1975 yilga qadar faoliyat yuritadi. Yunusova Feruza Anvaryovna 1993 yil apreldan 2008 yil mart oyigacha, undan so‘ng esa Ribkina Svetlana Gennadyevna rahbarlik qildilar. 1977 yil markazlashtirilgan kutubxonalar tizimiga o‘tilgandan so‘ng, Markaziy kutubxona 2 ta tuman: 6 ta kutubxonasi bilan Sirg‘ali tumani, 5 ta filial kutubxonalari bilan Yakkasaroy tumanini birlashtirdi hamda jami 11 ta kutubxonalar tarmog‘ini birlashtirgan holda Markaziy kutubxona 1994 yilga qadar faoliyat yuritdi. 1994 yanvaridan Markaziy kutubxona tizimini qayta tashkil etish munosabati bilan 5 ta kattalar va 1 ta bolalar kutubxonasi ajralib MBKT(markazlashtirilgan bolalar kutubxona tizimi) har bir tumanda alohida tashkil topadi. Aholining kattalar va bolalar guruhiga xizmat ko‘rsatgan bu tizim 1998 yilgacha ish olib bordi. O‘zining maqomiga ko‘ra “Bilim” Markaziy kutubxonasi 2006 yil 20 martga qadar shaharning 106 ta kutubxonasi uchun uslubiy markaz vazifasini bajarib kelgan. Hozirgi kunda kutubxona fondidagi barcha adabiyotlarning 10000 nusxasini o‘zbek tilidagi adabiyotlar tashkil etadi. Kutubxona 6 ming foydalanuvchiga bir yilda 60 000 dan ortiq adabiyot bilan kutubxona - axborot xizmati ko‘rsatadi.

Toshkent shahar “Bilim” nomidagi axborot-kutubxona markazi bugungi kunda o‘z fondida mavjud bo‘lgan 141437 nusxadagi adabiyotlar bilan foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatmoqda.

Oliy ta’lim muassasalarining kutubxonalari

Oliy ta’lim muassasalarining kutubxonalari oliy o‘quv yurtining tarkibiy bo‘lagi bo‘lib, jamiyat taraqqiyotining barcha tarmoqlari uchun yuqori malakali kadrlar yetishtirishda muhim rol o‘ynovchi ilmiy, o‘quv-uslubiy, madaniy-ma’rifiy muassasadir. Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalari kutubxonalari kompyuter va kommunikasiya texnologiyalari bilan jihozlanib, ish jarayonlari avtomatlashtirildi, ularning virtual korporativ tarmoqlari tashkil etila boshlandi. Quyida oliy ta’lim muassasalarining

kutubxonalar uchun umumiy bo'lgan xususiyatlarni ko'rsatish maqsadida Mirzo Ulug'bek nomidagi Milliy Universitetning kutubxonasi haqida to'xtalib o'tamiz.

Mirzo Ulug'bek nomidagi Milliy Universitet kutubxonasi

Mirzo Ulug'bek nomidagi Milliy Universitetning asosiy kutubxonasi oliy ta'lim muassasalari kutubxonalar uchun umumiy uslubiy markaz vazifasini bajaradi. Universitet kutubxonasining tashkil topishida ziyolilar, olimlar, o'qituvchilarning o'rni katta bo'ldi. Professorlar V.I.Romanov, M.M. Protod-Yakonova, E.N.Zelen, D.D.Shreder, G.N.Cherdanseva, taniqli xirurg V.F. Yasnisk-Voynov va boshqalar kutubxonani shakllantirishda jonbozlik ko'rsatganlar. 1920 yili A.YE. Shmidt rahbarligida bir eshelonda o'qituvchilar, 68 ta taniqli professor-olimlar bilan birga Rossiyadagi yirik universitetlarning kitob jamg'armasidan 50 mingta turli adabiyotlar keltirilgan va ular kutubxonaning fondiga asos bo'lgan. 1919 yil kutubxonada 7 ta kutubxona xodimi ishlagan bo'lsa, 1924 yilga kelib ularning soni 18 taga yetdi. Jamg'armani tartibga keltirish va joylashtirish bilan tajribali kutubxonachi va olimlar Y.P.Perelman, M.I.Sosnovskiy, V.M.Komarovskiylar shug'ullanadi. M.V.Drozdov kutubxona jamg'armasini to'ldirishga katta hissa qo'shdi, uning o'zi kasbi shifokor bo'lishiga qaramay, kutubxona ishini chuqur tushunib yetadigan mutaxassis edi. Universitet kutubxonasining ilmiy kotibi M.V.Drozdov kutubxona jamg'armasini kam nusxali noyob va qo'lyozma kitoblar bilan to'ldirishda jonbozlik ko'rsatdi. 1924 yilda kutubxona fondida turli bilim sohalariga oid 51.940 kitob mavjud edi. Ilmiy kutubxonalarni birlashtirishda kutubxonalar Assosiasiyasining a'zosi N.A.Burovning mehnati katta bo'ldi. U jamg'armani kataloglashtirishda, 1924-1930 yillarda nashr qilingan adabiyotlarning yig'ma katalogini tashkil etishda, o'lkashunoslik va kutubxonashunoslik masalalariga oid o'nlab maqolalarni chop ettirish va kutubxonachi kadrlar yetishtirishda o'zining yordamini ayamadi. 1935 yilda O'rta Osiyo Davlat Universiteti kutubxonasida 140 tadan ortiq qo'lyozmalar bo'lgan. 1966 yili yong'indan keyin kutubxona 2 millionlik kitob fondi bilan aviasiya texnikumi binosidan talabalar shaharchasidagi yangi binoga ko'chirildi. O'zbekiston Milliy Universiteti boshqa kutubxonalar kabi 1998 yildan e'tiboran avtomatlashtirish tizimiga o'tdi. Kutubxonada

elektron kutubxonalar tashkil etilgan va bugungi kunda „IRBIS“ dasturi asosida elektron katalog foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatmoqda.

Xalq ta’limi tizimidagi kutubxonalar

Yosh avlodning barkamol, ma’rifatli, madaniyatli bo‘lib shakllanishida kutubxonalar alohida o‘rin tutadi. Shuning uchun bolalarga xizmat ko‘rsatadigan kutubxonalarda ma’naviy-ma’rifiy muhitni vujudga keltirish umumdavlat ahamiyatiga ega. Maktab kutubxonasini maktabning o‘quv, ma’naviy, tarbiyaviy hayotisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Kutubxonadagi xar bir ish, vazifa maktabda o‘qitiladigan predmetlar, o‘qituvchilar oldidagi vazifalar bilan bog‘lansagina samara beradi. O‘quvchilarning bilim doiralarini kengaytirish orqali ularning o‘quv materiallarini chuqurroq o‘zlashtirib olishlariga yordamlashish, kelgusida kasbni aniq va to‘g‘ri tanlashlariga yordam berish kutubxonalarning asosiy vazifasidir. Ular umumiy, tarbiyaviy vazifalarni bolalarning mustaqil bilim olishini va bo‘sh vaqtini samarali tashkil etish, ularning mutolaasiga rahbarlik qilish bilan boshqa kutubxonalardan farqli mutolaaga ongli munosabatni tarbiyalaydi, o‘qilgan manbalarni o‘zlashtirib va mustahkamlab olishiga yordamlashadi. Bolalarda kompyuter savodxonligini tarbiyalaydi. Barcha fanlar bo‘yicha matbaa asarlari bilan birga elektron va boshqa turdagi manbalardan foydalanishga o‘rgatadi. Internet tizimidan to‘g‘ri va samarali foydalanish ko‘nikmasini tarbiyalaydi. Kutubxonalarda bolalarning qiziqishini o‘rganish, talab va ehtiyojlarini aniqlash va shunga ko‘ra ishni tashkil etish muhim masala. Chunki, bolalarning kelajagi yoshlikda egallagan bilimi, kasb-kori, olgan tarbiyasiga bog‘liq bo‘ladi. Yoshlikda olingan bilim – toshga o‘yilgan ilmdir, u bir umrga esda qoladi va barcha fanlarni o‘zlashtirishda yordam beradi. Kutubxonalarda bolalar yoshiga, sinfiga qarab guruhlariga ajratiladi va kutubxona-axborot xizmati ko‘rsatiladi. Chunki, sinflarda o‘tiladigan fanlar, ularni tushunish, qabul qilish xususiyatlari, bolalarning yosh xususiyatlariga ko‘ra bir biridan farq qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Bolalar kutubxonasi

Respublika Bolalar kutubxonasi (RBK) bolalarga kutubxona-axborot xizmati ko‘rsatish tizimida alohida o‘rin tutadi. RBK O‘zbekistondagi barcha bolalar kutubxonalari uchun uslubiy yordam beruvchi kutubxona bo‘lib, bolalar bilan ish olib boradigan kutubxonalar ishini muvofiqlashtirish vazifasini bajaradi. 1965 yilda

O‘zbekiston Respublikasi madaniyat ishlari vazirligi tomonidan Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxonaning o‘smirlar bo‘limi negizida O‘zbekiston Respublikasi Bolalar kutubxonasi tashkil etildi. Dastlab kutubxona V. Mayakovskiy nomli kutubxona bilan bir binoda joylashdi. 1972 yilda kutubxona o‘z binosiga ega bo‘ldi, binoni tanlashda shahar markazida qulay joyda joylashgani, unga maktablar, bolalar bog‘chalarining yaqinligi hisobga olindi. Bu bino arxitektura yodgorligi bo‘lib, Davlat himoyasiga olingan. Binoni 1907 yil boy savdogarlar aka-uka Vadyayevlar o‘zlari uchun qurgan. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi Respublika bolalar kutubxonasining ko‘p yillik ish tajribasini umumlashtirib, ularni taraqqiy ettirish istiqbollarini belgilab bergan edi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridan Respublika bolalar kutubxonasi davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan kutubxonalar sirasiga kiritildi. 2006 yil 4 sentabrdan RBK Xalq maorifi tizimiga o‘tkazildi. RBK bolalar mutolaasiga rahbarlikni amalga oshirish maqsadida tavsiya etiladigan qo‘llanmalarining turli xil shakllarini nashr etish bilan birga bolalarga kitob bilan xizmat ko‘rsatuvchi barcha kutubxonalarga (shu jumladan, maktab kutubxonalariga) bevosita har tomonlama kutubxona-bibliografik yordamini ko‘rsatadi. Bu kutubxona bolalarga kutubxona-axborot xizmati ko‘rsatish saviyasini va samaradorligini oshirishga va takomillashtirishga faol yordam beradigan tashkiliy-uslubiy markaz vazifasini ham bajaradi. RBK bolalar hamda bolalar mutolaasiga rahbarlik qiluvchilar uchun bolalar milliy adabiyoti bibliografiyasining markazi, bolalar bilan kutubxonashunoslik ishini olib borish sohasidagi ilmiy-uslubiy muassasa sifatida xizmat qilib kelmoqda. RBK ish o‘rinlarini avtomatlashtirish tizimiga o‘tgan va „IRBIS“ dasturi asosida elektron katalog tuzadi. Unda bolalar uchun turli kompyuter sinflari, multimedia xonasi, internet, kompyuter darslari hamda o‘yinlari va turli dolzarb mavzularda to‘la matnli ma’lumotlar bazasi yaratilib, axborot resurslari fondi tashkil etilgan. Respublika Bolalar kutubxonasining yo‘nalishi va faoliyati O‘zbekiston Respublikasining “Kutubxona-axborot faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini hamda Prezidentimizning 2017 yil 11 avgustdagi “Matbuot va axborot sohasida boshqaruvni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi, 2018 yil 19 fevraldagi “Axborot texnologiyalari va kommunikasiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, “O‘zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatishni

yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 2019 yil 7 iyundagi qarorlaridan so'ng tubdan yangi yo'nalish kasb eta boshladi. Qonun va Qarorlarda RBK faoliyatining asosiy maqsadi-bolalar, o'smirlar, maktabgacha tarbiya muassasalari, maktab, kollej, liseylarning o'qituvchilariga kutubxonachilik, axborot, ma'lumot–bibliografiya xizmati ko'rsatish; hamma bilim sohalariga oid vatan va xorijiy adabiyotlar fondini shakllantirish va saqlash; viloyatlarning kutubxonalariga bolalar va o'smirlar, mutolaaga rahbarlik qiluvchilarga kutubxonachilik xizmati ko'rsatish masalalari bo'yicha uslubiy yordam berish; olimlar, mutaxassislar, siyosatchilar bilan hamkorlikda bolalar mutolaasi masalalariga oid konferensiyalar, seminarlar o'tkazish; xalqaro aloqalarni o'rnatish; xalqaro kitob ko'rgazmalarini, tanlovlarni tashkil etish; bolalar va o'smirlarning ijodiy o'sishlari uchun axborot texnologiyalari va Internetdan foydalanish, deb ko'rsatildi. Buning uchun bolalar va o'smirlarni mutolaaga jalb etishning xilma-xil shakllaridan foydalanilmoqda. Bugungi kunda ixtisoslashtirilgan maktab kutubxonalarini uchun XX asrda yaratilgan noyob gramm-plastinkalarning katta fondi raqamlashtirilgan holda to'plangan va foydalanish uchun taqdim etilmoqda. Ular vositasida bolalar Abror Hidoyatov, Shukur Burhonov va boshqa ko'plab o'zbek teatri klassiklarining ovozlari tinglash imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bundan tashqari, jahon va milliy musiqa namunalari ham yozib olingan bo'lib, kutubxonaning DVD, displey va quloqchin (naushnik)lar bilan jihozlangan lingofon kabinetida tinglash uchun taqdim etiladi. RBKning o'zida axborot texnologiyalari yordamida xorijiy tillarni o'rganish, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mashg'ulotlar o'tkazish va boshqa ko'plab tadbirlarni o'tkazish imkoni mavjud. Bolalar va o'smirlar bilan ishlashda videoprojektorlar, elektron ekranlar, DVD, videomagnitafonlar, audiokuchaytirgichlar va mikrofonlar bilan jihozlangan o'quv va taqdimotlar zali tashkil topgan hamda barcha turdagi bayramlarni nishonlash, taniqli olimlar va madaniyat arboblari bilan uchrashuvlar hamda tanlovlar o'tkazish imkonini beradi, xalqaro konferensiyalar, seminar va treninglar, taqdimotlar endilikda zamonaviy tarzda o'tkazilmoqda. An'anaviy tusda "Eng foydalanuvchi bola" tanlovi, "Yilning eng yaxshi maktab kutubxonasi" tanlovi har yili o'tkaziladi. Bu tanlovlar bolalarni mutolaaga jalb etishda, ularning ijodiy qobiliyatini, salohiyatini takomillashtirishda, kutubxona xodimlarining kasbiy mahoratini, amaliy malakasini shakllantirishda, mas'uliyatini

oshirishda muhim ahamiyatga ega. “XXI asr bolalar foydalanuvchiligi” mavzusidagi muntazam tashkil etiladigan Respublika konferensiyasi RBKning eng yirik va samarali tadbirlaridan bo‘lib qoldi. Bu tadbirlarda bolalar foydalanuvchiligini tashkil etishga bog‘liq muammolar ko‘rib chiqiladi, shu muammo bilan bog‘liq tashkilotlar-nashriyotlar, kitob savdosi tashkilotlari, ta’lim-tarbiya muassasalari ishtirok etadilar. Tadbirlar ommaviy axborot vositalarida muntazam namoyish etib boriladi.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining kutubxonalari

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining kutubxonalari qaysi tashkilotga tegishliliga ko‘ra kutubxona-axborot fondini shakllantiradi va uning but saqlanishini ta’minlaydi; elektron kutubxona va elektron katalogni shakllantiradi; kutubxona-axborot resurslaridan o‘zaro foydalanishni ta’minlaydi; boshqa kutubxona-axborot muassasalari bilan hamkorlikni amalga oshiradi; yig‘ma elektron katalogni shakllantirishda ishtirok etadi. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari kutubxonalarining kutubxona-axborot fondi davlat mulki hisoblanadi. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining kutubxonalari to‘g‘risidagi nizomlari ushbu organlarning rahbarlari tomonidan tasdiqlanadi.

Kasaba uyushmalari kutubxonalari

O‘zbekiston Respublikasi kasaba uyushmalari Federasiyasi tarkibida dastlab 300 dan oshiq kutubxona mavjud bo‘lib, hozirgi paytda 101 ta kutubxona ishchi, xizmatchilarga kutubxonachilik xizmati ko‘rsatib kelmoqda. Mamlakatimizda ishlab chiqarish tashkilotlarining, zavod fabrikalarning qisqarib ketishi sababli kasaba uyushmalari kutubxonalari ham qisqarib ketdi. Kasaba uyushmasi kutubxonalari har bir ishchiga, xizmatchiga, ularning oilasiga kutubxona-axborot xizmati ko‘rsatadi. Kasaba uyushmalari kutubxonalari axborot-kutubxona markazi va boshqa kutubxonalar bilan hamkorlikda ish yuritadi, kitob jamg‘armalarini to‘ldiradi, saqlaydi, uslubiy va bibliografik axborot ishlarini tashkil etadi. Korxonalararo kasaba uyushmalari kutubxonalari 50 mingdan ortiq aholisi bo‘lgan tuman va shaharlarda tashkil etiladi. Ular istirohat bog‘lari, madaniyat saroylari, kasaba uyushmalari kurslari, dam olish uylari, istirohat bog‘lari yoki oromgohlari va boshqalarga xizmat ko‘rsatadi. Bu kutubxonada ko‘pincha bitta xodim ishlaydi, ulardan ko‘pchiligi jamoatchilik asosida faoliyat

ko'rsatadi. Fondi juda kichik, asosan ishlab chiqarishga yoki o'zi mansub bo'lgan ishlab chiqarish korxonasi uchun yo'nalishiga oid, qisman madaniy-ma'rifiy va badiiy adabiyotlar bilan to'ldirilgan bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimidagi Ko'zi ojizlar uchun (maxsus) kutubxonalar

Maxsus kutubxonalar orasida ko'zi ojizlar uchun xizmat ko'rsatuvchi kutubxonalar axborot muassasalari alohida ahamiyatga ega. Bu kutubxonalarning o'ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, ular maxsus axborot tarqatuvchi qavariq nuqtali harflarda bosilgan holda magnit lentasiga yozilgan kitoblar va vaqtli matbuot nashrlari – "gapiruvchi kitoblar," paypaslab sezish va tinglab idrok qilish uchun moslashtirilgan axborotni yetkazish vositalaridan foydalanadilar. Bunday kutubxonalar diktofonlar, avtoaxborotchilar, maxsus asboblardan „gapiruvchi kitoblarni" yakka-yakka tinglash uchun naushniklar (quloqchinlar), lupalar (zarrabinlar), qavariq nuqtali harf bilan yozish uchun ishlatiladigan asboblardan hamda mashinkalar, shuningdek, ko'zi ojiz foydalanuvchilarga mo'ljallangan kataloglar va ko'rgazmalardan foydalanish imkonini beruvchi maxsus uskunalardan bilan jihozlanadi.

Hozir Respublikada vazirlik tizimida 110 ta ko'zi ojizlar kutubxonalari qariyb 35 ming ko'zi ojizlarga kutubxona xizmatini amalga oshirmoqda. 1949 yili Toshkent shahrida O'zbekiston ko'zi ojizlar jamiyati qoshida bosmaxona tashkil etilib, turli mazmundagi kitob va darsliklar nashr etila boshlandi. Respublika Markaziy ko'zi ojizlar kutubxonasi Brayl alifbosidagi kitoblar bilan o'z jamg'armasini to'ldirib boradi. 2001 yilga kelib 37701 ta adabiyot olgan. Shundan 8588 tasi o'zbek tilida. 1965 yil 11 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Madaniyat vazirligining „Toshkent shahar ko'zi ojizlar kutubxonasini Respublika Markaziy ko'zi ojizlar kutubxonasiga aylantirish haqida"gi buyrug'iga binoan, 1966 yil 1 yanvardan Markaziy kutubxona faoliyat boshladi. 1966-1969 yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qashqadaryo, Andijon, Buxoro, Namangan, Samarqand, Surxondaryo, Farg'ona, Xorazm viloyat kutubxonalarida Brayl harfida yozilgan adabiyotlar bo'limlari tashkil etildi.

1967 yildan magnit tasmasiga yozilgan kitoblar, ya'ni "gapiruvchi kitoblar" bilan jamg'arma to'ldirilmoqda. Yana bir turdagi nashrni grammplastinkalar tashkil etadi. Jamg'armada 4407 grammplastinka mavjud. Ular mazmunan mumtoz va zamonaviy musiqa asarlari, insenirovka qilingan sahna asarlaridan iborat. Kitob jamg'armasi o'zbek va rus tillarida 5 turdagi katalogda alohida aks ettirilgan. Bular:

1. Bo'rtma nuqtali nashrdagi kitoblar katalogi.
2. Magnit tasmalariga yozilgan „gapiruvchi“ o'ramdagi kitoblar katalogi.
3. „Gapiruvchi kitoblar“ ning kompakt turdagi katalogi.
4. Grammplastinkalar katalogi tashkil etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 20 martda qabul qilingan 1729-sonli "Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi-kutubxona-axborot markazi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq endilikda imkoniyati cheklangan foydalanuvchilar uchun kutubxona-axborot xizmati tashkil etildi va bu kutubxonalar ham imkoniyati cheklangan foydalanuvchilar kutubxonasi deb yuritila boshlandi. Faqatgina ko'zi ojizlar uchun emas, balki boshqa jismoniy imkoniyati cheklangan foydalanuvchilar uchun ham kutubxonachilik xizmati tashkil etishning chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish, bunda ko'zi ojiz foydalanuvchilar uchun xizmat ko'rsatuvchi kutubxonalar tizimi faoliyatini yaxshilash va takomillashtirish, Milliy kutubxonada axborot resurslari fondini tashkil etish bilan imkoniyati cheklangan boshqa foydalanuvchilarga kutubxona - axborot xizmati ko'rsatish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratish talabi qo'yildi. Boshqa kutubxonalarning barchasida imkoniyati cheklangan foydalanuvchilar uchun shart-sharoit yaratish, xizmat ko'rsatish vazifasi belgilab berildi, shu munosabat bilan nogironlar aravachalarining chiqib tushishlari uchun maxsus yo'laklar, maxsus xonalar tashkil topdi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy ko'zi ojizlar kutubxonasi maxsus madaniy-ma'rifiy, ma'naviy, ilmiy axborot, uslubiyot muassasasi bo'lib, u imkoniyati cheklangan foydalanuvchilarga mo'ljallangan kitob va boshqa matbuot nashrlarini to'plash, ularni saqlash; imkoniyati cheklangan foydalanuvchilar va ularning oila a'zolariga, kutubxona xizmati ko'rsatish va turli axborot ishlarini olib borish; Brayl alifbosidagi va magnit tasmaga yozilgan ovozli kitoblarni saqlash bo'yicha markaz va o'zbek tilidagi o'lkashunoslikka oid bo'rtma

nuqtali kitoblar bo'yicha depozitariy vazifasini bajarish; respublikadagi ko'zi o'jizlar kutubxonalariga uslubiy va amaliy yordam ko'rsatish hamda tavsiyaviy bibliografik va kutubxonalararo abonement markazi vazifasini bajaradi.

Shaxsiy kutubxonalar ayrim kishilarning uylarida tashkil etilgan bo'lib, ular o'zlari yashayotgan hududdagi aholiga ko'ngilli ravishda xizmat ko'rsatadi. Ammo, ularga shu hududda joylashgan davlat kutubxonalari uslubiy yordam ko'rsatadi. Ko'pgina shaxsiy kutubxonalar o'z jamg'armasini elektron katalogga o'tkazish yoki javonlarga joylash xizmatlari uchun kutubxonalarga pul o'tkazib, yordam so'rashlari mumkin. Bu davlat kutubxonasi uchun pullik xizmat turiga kirib, shaxsning uyiga borib, tegishli yo'nalishda yordam ko'rsatiladi, maslahatlar beriladi. Ba'zi yirik shaxsiy kutubxonasi borlar davlat kutubxonalariga o'z jamg'armalarini xadya qilishlari mumkin. Masalan, Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat Madaniyat instituti kutubxonasi ana shunday shaxsiy kutubxonalardan sovg'a qilib berilgan kitoblar hisobiga „Kutubxonaning oltin fondi“ni tashkil etgan. Institutning birinchi rektori, akademik, navoiyshunos olim, marhum A. P. Kayumov, marhum professor, folklorshunos olim M. Murodov, Professor A. O. To'rayev va institutning boshqa ko'pgina sobiq ustozlari o'z shaxsiy kutubxonalarini sovg'a qilganlar. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Asosiy kutubxonasida 2012 yildan boshlab “Akademiklar fondi” tashkil etildi. Keyingi yillarda turli faol mahallalar o'zlarining hududida mahalla xonalarini tashkil etishga harakat qilmoqdalar. Masalan, Toshkent shaxridagi „Konstitusiya” mahallasida Davlat mukofoti laureati, Xalq shoiri Ramz Bobojon tashabbusi bilan 400 dan ortiq sovg'a qilingan adabiyotlar asosida mahalla kutubxonasi ish boshladi. Aholi orasida ham yirik shaxsiy kutubxonasi bor shaxslar ko'p, hatto ular kompyuterlashtirilgan tizimga o'tishga harakat qilmoqdalar. Shaxsiy kutubxonalarda fanning turli sohalari bo'yicha nodir asarlar bo'lishi mumkin. Ayniqsa, hozirgi kunda ko'plab chet ellarga borib-kelish natijasida shaxsiy kutubxonalar yanada boyib bormoqda. Shaxsiy kutubxonalar ham huquqiy maqomga hamda o'z muhrlariga ega bo'lishi mumkin. Shaxsiy kutubxonalar muammosi qadimdan mavjud va bu masala hali ham dolzarb. Xorijliklar tashkil etgan kutubxonalarning faoliyati bu yo'nalishda ko'pchilikda qiziqish uyg'otmoqda. U ixtisoslashgan o'quv zallarida foydalanuvchilarga bevosita xizmat ko'rsatish bilan ko'p qirrali bibliografiya ishini ham

olib boradi. Chunonchi, chet el yozuvchilari ijodi haqida yoki O‘zbekiston yozuvchilarini chet ellarga tanitish uchun bibliografik ko‘rsatkichlar tayyorlaydi. Kutubxona muntazam ravishda fanning turli sohalariga doir adabiyotlar bilan to‘ldirilib boriladi. Uning jamg‘armasidan turli xil tillardagi kompakt disklar, sidiromlar, videokassetalar o‘rin olishi mumkin.

Kutubxona muntazam ravishda fanning turli sohalariga doir adabiyotlar bilan to‘ldirib boriladi. Uning fondida har xil tillardagi elektron ma‘lumotlar SD-ROMlarda saqlanadi va Internet orqali ushbu ma‘lumotlar uzatiladi. Masalan: Germaniya elchixonasi tomonidan Toshkent, Samarqand shaharlarida tashkil etilgan Gyote-instituti kutubxonasi ko‘plab foydalanuvchilarni o‘ziga jalb qildi hamda ularning ehtiyojlarini qondirmoqda.

XI- Bob Foydalanuvchilarga kutubxona – axborot xizmati ko‘rsatish tamoyillari.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi 42-moddasida ta’kidlanganidek: “Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g‘amxo‘rlik qiladi”. Shuningdek, 29 moddasida: “Har kim fikrlash, so‘z va e‘tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim o‘zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga esa, amaldagi konstitusiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir. Fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi faqat davlat siri va boshqa sirlarga taalluqli bo‘lgan taqdirdagina qonun bilan cheklanishi mumkin” deb qayd etilgan. Ularning jamiyat hayotida amal qilishi foydalanuvchilarga kutubxona–axborot xizmati ko‘rsatishning bir qator tamoyillariga asoslanishni talab qiladi. Foydalanuvchilarga kutubxona–axborot xizmati ko‘rsatish tamoyillari–faoliyatning mazmuniga, uslubiyotiga va tashkil etilishiga qo‘yiladigan talablarga nisbatan ilmiy asoslangan qoidalardir.

Ushbu tamoyillar bir tomondan, foydalanuvchilarga kutubxona–axborot xizmati ko‘rsatish vazifalariga, ikkinchi tomondan, shaxsning bilimi, e‘tiqodi shakllanishi qonuniyatlariga bog‘liq tarzda amal qiladi.

Kutubxonachining ushbu tamoyillarni chuqur bilishi foydalanuvchilar bilan ishlashning metodlari va shakllarini to‘g‘ri qo‘llashiga, ko‘zlangan maqsadlarga erishish samaradorligini oshirish yo‘llarini topishiga imkon beradi. Foydalanuvchilarga kutubxona–axborot xizmati ko‘rsatish ilmiylik, tizimlilik, majmuaviylik, nashr mahsulotlari, ma’lumotlar va axborotlardan foydalanishda ongli va faol munosabatni tarbiyalash tamoyili, foydalanuvchilarni o‘rganish asosida guruhlashtirilgan tarzda yondashuv tamoyili, ko‘rgazmalilik tamoyili kabilarga tayangan holda amalga oshiriladi. Ushbu tamoyillar foydalanuvchilarga kutubxona–axborot xizmati ko‘rsatish bir butun jarayonining turli tomonlarini aks ettirsada ular bir-birini to‘ldiradi, o‘zaro aloqador va bir-birini taqozo qiladi.

11.1. Foydalanuvchilarga kutubxona-axborot xizmati ko‘rsatishda ilmiylik tamoyili.

Ilmiylik tamoyili tavsiya qilinayotgan manba mazmunining zamonaviy fan taraqqiyotining rivojlanish darajasiga mos kelishi nuqtai nazaridan yondashuvdir. Ushbu tamoyilga asoslanish kutubxonachidan eng avvalo ilmiy bilishning xarakterli belgilari, alomatlari nimalardan iborat bo‘lishini chuqur bilishni talab qiladi. Odatda bilish amaliyot va qadriyatlarni baholash faoliyati bilan qiyoslanadi. Bilish-bu voqelikning inson tafakkurida aks etishi va takror hosil bo‘lish jarayonidir. Uning maqsadi obyektiv haqiqatga erishishdir. Bilish – voqelikning aniq hissiy va tushuncha shaklidagi obrazlar orqali qabul qilinishi, saqlanishi, qayta ishlanishi va tizimga solinishi bo‘yicha amalga oshiriladigan faoliyatdir. Kutubxonachi foydalanuvchilarga , ayniqsa, ilmiy faoliyatga qadam qo‘yayotgan foydalanuvchilarga ilmiy bilish jarayoni, bilish bosqichlari, ilmiy bilish shakllari va metodlari haqida ma’lumot bera oladigan darajada ilmiy-falsafiy bilimlarga ega bo‘lishi zarur. Bilim bilishning natijasi bo‘lib, uning manbai nashr mahsulotlari mutolaasi, axborotlarni tahlil qila bilish va to‘g‘ri xulosa chiqarishdir.

Foydalanuvchi shuni anglashi zarurki, bilimlar tizimi muayyan mezonlarga javob bersagina o‘sha ilmiy bilimlar tizimi ilmiy bilim deb tan olinadi.

Ilmiylikning mezonlari quyidagilar hisoblanadi:

1. Obyektivlik yoki obyektivlik tamoyili. Ilmiy bilimlar tabiiy obyektlar mazmunini u qanday bo'lsa shundayligicha ochib berishi bilan bog'liqdir. Bunda individ manfaatlaridan hamda barcha tabiatdan tashqari kuchlardan begonalashish hodisasi sodir bo'ladi. Tabiatni uning o'zidan kelib chiqqan holda o'rganish talab qilinadi, shu ma'noda uning o'zi o'zini bilishi uchun yetarli bo'ladi; predmetlar ham, ularning munosabatlari ham ular qanday holatda bo'lsalar, shundayligicha o'rganilishi–tashqaridan hech narsani qo'shmasdan, ya'ni unga qandaydir bir subyektiv yoki tabiatdan tashqari kuchni aralashtirmasdan o'rganish zarur.

2. Rasionallik, aqliy tarzda asoslanganlik, isbot qilinganlik. Kutubxonachi tushuntirishi kerakki, biz kundalik hayotda ayrim fikrlarni bayon qilganimizda kimningdir “fikriga”, “obro'siga” tayanamiz. Ilmiy bilimlarda esa biror narsa haqida shunchaki xabar berilmaydi, balki keltirilgan fikrning ma'nosi, mazmunini tasdiqlaydigan zarur negiz, asoslar ham keltiriladi. Bunda yetarli asos keltirish tamoyili amal qiladi.

3. Bilimning o'ziga xos hodisa sifatida uyushtirilishi, uning alohida tizimligi. Bu yerda foydalanuvchilar, gap kundalik oddiy bilimlarni shunchaki tartibga solish to'g'risida emas, balki chuqur anglab yetilgan tamoyillarga ko'ra tartibga solish haqida; nazariy tizim haqida ketayotganligini chuqur anglab yetishlari kerak.

4. Sinab ko'rish, tekshirib borish: bu yerda gap ilmiy kuzatuv, amaliyotda mantiq orqali sinab ko'rish to'g'risida boradi. Ilmiy haqiqat amalda tekshiruvdan o'tgach va tasdig'ini topgach hamma tomonidan e'tirof etiladi.

Kutubxonachi tushuntirishi zarurki, inson bilishini shartli ravishda bir necha turlarga bo'lib o'rganilishini foydalanuvchilarning har bir guruhi yaxshi bilishi lozim. Bilish oddiy bilish va ilmiy bilishdan iboratdir. Kishilarning odatdagi kundalik hayotlarida borliqdagi predmet va hodisalarni bevosita sezgi a'zolari va tafakkurlari orqali bilishlari oddiy bilishdir. Oddiy bilish kishilarning o'z hayotiy tajribalari asosida bilish bo'lib, u odatda “sog'lom fikrlar”da o'z ifodasini topadi. Oddiy bilish hamma kishilarga xosdir. Ilmiy bilish esa, oddiy bilishdan farqli ravishda borliqdagi predmet va hodisalarning qonuniyatlarini, ularning mohiyatini bilish bo'lib, u odatda ilmiy

tadqiqotlar va ilmiy izlanishlar olib borish asosida amalga oshadi. Ilmiy bilish uzoq davom etadigan murakkab va ziddiyatli jarayondir. Ilmiy bilish bilan foydalanuvchilarning ma'lum guruhlari, ya'ni tadqiqotchilar, olimlar shug'ullanishadi. Foydalanuvchilar tomonidan o'rganiladigan fanlar qaysi sohaga tegishli ekanligidan qat'iy-nazar, ular borliq va uning turli ko'rinishlari: tabiat, jamiyat, inson, inson tafakkuri to'g'risidagi ilmiy bilish jarayonida vujudga kelgan bilimlar tizimlaridan iboratdir. Ular insonning borliqni bilishi, o'rganishi va o'zlashtirishining o'ziga xos nazariy shakllari bo'lib, o'zlarida moddiy va ma'naviy omillarni birlashtiruvchi ko'p qirrali ijtimoiy hodisadir. Hamma fanlar borliqni ilmiy abstraksiyalarga (mavhumlikka) asoslangan holda nazariy tafakkur shakllari: ilmiy g'oyalar, ilmiy tushunchalar, kategoriyalar, tamoyillar, muammolar, gipotezalar, nazariyalar va qonunlarda aks ettiradi va ifodalaydi.

Ma'lumki har bir fan sohasida ilmiy izlanishlar olib boruvchi foydalanuvchi (tadqiqotchi) o'z obyektini o'rganishga kirishar ekan, o'rganayotgan predmet yoki hodisa haqidagi bilimlarga birdaniga ega bo'lmaydi. Buning uchun u bu predmet yoki hodisa ustida ma'lum davr ichida tinmay turli izlanish va tadqiqotlar olib boradi hamda turli xil metodlar va vositalardan foydalanadi, ruhiy va aqliy jarayonlarni boshidan kechiradi. Shundan keyingina u o'zi tadqiqot olib borayotgan predmet yoki hodisa yuzasidan ma'lum bilimlarni hosil qilishi mumkin. Bunday yangi bilimlar foydalanuvchilarning tadqiqot jarayonida qanday ilmiy metodlardan foydalana bilishlari bilan chambarchas bog'liq holda shakllanadi.

Fransuz olimi Pyer Laplas ta'kidlaganidek, ilmiy kashfiyotni ochishga yordam bergan "haqiqiy, to'g'ri ilmiy metodning fan uchun ahamiyati shu kashfiyotning o'zidan kam emasdir".

Metod – eng umumiy ma'noda maqsadga erishish usuli, nazariy tadqiqot va amaliy harakatning muayyan tartibga solingan tamoyillari yig'indisidir. Ilmiy metodda tadqiqot predmetining mazmuni, uning ichki tabiati ifoda etilganligi uchun muayyan metodga amal qilish foydalanuvchining (tadqiqotchining) xohishiga emas, balki tekshirilayotgan obyekt tabiatiga, ko'zda tutilgan maqsadga bog'liqdir.

Demak, bilishning to'g'ri metodi, subyekt (foydalanuvchi) xohishining natijasi emas, balki obyektiv dunyo qonunlarining in'ikosi bo'lmog'i kerak. Foydalanuvchining

(tadqiqotchining) o'z tadqiqoti jarayonida yangi bilimlarga erishish uchun qo'llaydigan turli xil usullari, yo'llari va vositalari ilmiy bilishning metodlaridir. Ilmiy bilishning metodlari foydalanuvchining (tadqiqotchining) tadqiqot obyektini bilishi uchun qo'llagan amaliy va nazariy faoliyat usullaridir.

Kutubxonachi—bu metodlarning ilmiy bilishdagi vazifasi foydalanuvchiga (tadqiqotchiga) o'rganilayotgan predmet yoki hodisa haqida, uning tabiati va mohiyatini, ularni ifodalaydigan qonun va qonuniyatlarni ochishda yordam berishdan, shu asosda tadqiqotning muvaffaqiyatini ta'minlashdan iborat ekanligini tushuntirib bera olishi zarur. Ilmiy bilish metodlarini o'rganish ilmiy dunyoqarashni shakllantiruvchi fan bo'lgan falsafada metodologiyaning paydo bo'lishiga olib keladi. Metodologiya ilmiy bilish metodlari haqidagi falsafiy ta'limot sifatida o'ziga kishilar dunyoqarashi tamoyillari, ularning bir butun amaliy va nazariy faoliyatlariga tatbiqan o'rganadi. Metodologiya tushunchasi ko'p ma'noli bo'lib, bir o'rinda borliqni ilmiy bilish va o'gartirishning metodlari haqidagi nazariyani ifodalasa, ikkinchi o'rinda u butun ilmiy bilish metodlarining yig'indisi ma'nosini ifodalaydi. Uchinchi bir o'rinda esa, metodologiya termini insonning borliqni ilmiy bilishi va o'zgartirishining eng umumiy metodi ma'nosida qo'llaniladi.

Metodologiyaga ko'ra ilmiy tadqiqotlarda qo'llaniladigan metodlar bir-birlaridan tabiati, xarakteri, qo'llanish sohalari, darajalariga ko'ra farqlanadi. O'z qo'llanish ko'lamiga ko'ra ilmiy metodlarning ba'zilar hammasi ilmiy tadqiqotlarda qo'llanilsa, ba'zilar ko'pchilik fan sohalarida, uchinchi bir xillari alohida, ayrim fan sohalarida olib boriladigan tadqiqotlardagina qo'llaniladi. Jumladan kutubxonashunoslik fanida kutubxona-axborot faoliyati bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni o'rganishda faqat shu fanning o'ziga xos xususiyatlari hisobga olingan maxsus metodlar ham qo'llaniladi. Hozirgi zamon fanida ilmiy bilishning kuzatish va eksperiment, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, umumlashtirish, abstraksiyalashtirish va konkretlashtirish, tarixiylik va mantiqiylik, ideallashtirish, modellashtirish, formallashtirish singari metodlari mavjuddir. Ilmiy bilishning bu metodlari o'zaro chambarchas bog'liqlikda bo'lib, ular bilishning qaysi bosqichi va qaysi darajasida qo'llanilishi, o'zlarining tabiati va xarakterlari bilan bir-biridan farq qiladi. Bundan tashqari ilmiy bilishda xususiy,

alohida metodlar ham mavjud bo'lib, ular umumiy ilmiy metodlardan farqlanadilar va aniq fan metodlari deyiladi. Masalan, texnika fanlarida grafik metod; tarix, adabiyotshunoslik va tilshunoslik fanlarida qiyosiy tarixiy metod; san'atshunoslik fanlarida romantizm va realizm kabi xususiy aniq metodlar qo'llaniladi. Ilmiy bilimlar rivojlanishida muayyan bosqichlarni bosib o'tadi va bu bosqichlar ilmiy bilishning shakllari deyiladi. Ilmiy bilishning bunday shakllarining asosiylarini ilmiy g'oya, badiiy g'oya, muammo, gipoteza, nazariya va ilmiy bashorat tashkil etadi. Bilish jarayonlari haqida foydalanuvchilarga yo'nalish berishda ijtimoiy bilish va uning o'ziga xos xususiyatlari haqida ham muayyan tasavvur xosil qilinishi zarur.

Ijtimoiy bilishning mohiyati shundaki, u kishilarning (ya'ni har bir foydalanuvchining) jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy faoliyatlarining mavjudlik shakllari bo'lgan munosabatlarning in'ikosidan iboratdir. Ijtimoiy bilish bunda kishilar ijtimoiy-amaliy faoliyatlari bilan, bu munosabatlar sohibi bo'lgan jamiyatdagi kishilarning bilim darajalari bilan bog'liq bo'ladi. Ijtimoiy bilish faqat jamiyatdagi moddiy-ijtimoiy faoliyatlar va munosabatlarni hamda ularning qonuniyatlarini bilishdangina iborat bo'lmasdan, balki jamiyatdagi ma'naviy, mafkuraviy faoliyatlar va munosabatlarni, ularning qonuniyatlarini bilishni ham o'z ichiga oladi. Ijtimoiy bilish, shu bilan birga, insonning o'zini ham, uning tabiatdagi va jamiyatdagi o'rnini, insonning taqdiri, uning hayotining ma'nosini va mazmunini bilishdan ham iboratdir.

Kutubxonachi foydalanuvchilarning ijtimoiy bilishni yuzaga keltiradigan asosiy omillardan biri ehtiyojlar va manfaatlar ekanligini tushunib yetishlari uchun yordam berishi kerak. Chunki, har qanday ijtimoiy bilish jamiyat ijtimoiy ehtiyojlari bilan, jamiyatdagi kishilarning moddiy va ma'naviy manfaatlari bilan uzviy bog'liq tarzda yuzaga keladi. Shuning uchun ham har bir foydalanuvchi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ulkan ijobiy o'zgarishlar, turli yo'nalishlardagi vazifalarning bajarilishi kishilarning anglangan ehtiyojiga aylanishi bilan chambarchas bog'liq ekanligini tushunib yetishi kerak. Ilmiylik tamoyiliga asoslangan holda faoliyat yuritishda ilm-fan sohasidagi yetakchi olimlar, mutaxassislar bilan uchrashuvlar, muntazam ravishda suhbatlar tashkil etish, ilmiy faoliyatga oid manbalarni, axborotlarni tavsiya etish orqali

ham kutubxona-axborot xizmatining ushbu yo‘nalishining rivojlanishini muayyan darajada ta‘minlash mumkin.

11.2 Foydalanuvchilarga kutubxona – axborot ximati ko‘rsatishda tizimlilik tamoyili

Foydalanuvchilar bilan ta‘limiy, tarbiyaviy, axborot ta‘minotiga oid ishlar olib borish o‘zining xususiyati va qamroviga ko‘ra farq qiladi. Agar foydalanuvchilar tarkibi juda xilma xil ekanligi hisobga olinadigan bo‘lsa ular bilan ish olib borish tizimli tarzda tashkil etilishi zarur bo‘ladi. Hatto eng yaxshi kitoblarni mutolaa qilishga tizimli yondashmaslik o‘rganilayotgan muayyan masala uchun keragidan ortiq vaqt va kuch sarflashni talab qiladi. Mutolaaning muayyan izchillikda, muntazam, ketma-ketlikda amalga oshirilishi bilimlarni ongli ravishda o‘zlashtirish, qimmatli vaqtni tejashga imkon beradi. Bundan tashqari muayyan tizimga solinmagan, turli parchalarni umumiy matndan ajratib o‘rganish mustahkam bilim bermaydi, ma‘rifiy dunyoqarashni shakllantirmaydi. Bosma nashr mahsulotlari va axborotlarning mazmuniga ko‘ra mantiqiy aloqadorlikni chuqur anglash orqaligina foydalanuvchilarda mustahkam e‘tiqod shakllanishi mumkin. Kutubxona–axborot xizmati ko‘rsatishda foydalanuvchilarda eng avvalo mantiqiy izchillikka amal qilish malakasi shakllantirilishi kerak. Ma‘rifiy dunyoqarash bilimlarning bosqichma-bosqich yig‘ilishi va ularning e‘tiqodga aylanishi orqali hosil bo‘ladi. Turli foydalanuvchilarda mutolaa uzluksizligi va izchilligi bir xil bo‘lmaydi va bu foydalanuvchining shaxs sifatidagi psixologik o‘ziga xosligi, uning mutolaa maqsadi va motiviga, qiziqishlariga bog‘liq bo‘ladi. Bunda umumta‘lim va maxsus tayyorgarlik darajasi alohida ahamiyatga egadir. Kutubxonachi foydalanuvchilarning bosma nashr mahsulotlari, turli ma‘lumotlar va axborotlarning boshqa manbalardagi mavzular bilan ichki aloqadorligiga asoslanishi ko‘nikmasining shakllanishiga asosiy e‘tiborni qaratishi kerak.

Mutolaaning muntazamliligi va tizimliliigi u yoki bu mavzuning o‘ziga xosligi va mazmuni tomonidan belgilanadi. Kutubxonachi foydalanuvchiga avval yengilroq,

soʻngra jiddiy va qiyinroq manbani tavsiya etadi. Bunday yoʻl bilish jarayonining odiydan murakkabga tomon olib boruvchi qonuniyatlariga koʻra taqozolanadi. Kutubxonachilar foydalanuvchilarga manbalarni tavsiya qilishlarida oddiydan murakkabga, eng quyi bosqichdan oliy bosqichga tomon rivojlanish tamoyiliga amal qilishlari kerak. Shuningdek, bosma nashr mahsulotlari, maʼlumotlar, axborotlarni tavsiya etishda faqat ijtimoiy yoki faqat tabiatshunoslik fanlariga eʼtibor qaratmasdan foydalanuvchilar ongida boshqa fanlar bilan ham aloqadorlik mavjud ekanligi haqida fikr hosil qilinishi kerak.

11.3 Foydalanuvchilarga kutubxona – axborot xizmati koʻrsatishda majmuaviylik tamoyili.

Foydalanuvchilarga kutubxona–axborot xizmati koʻrsatishda majmuaviy yondashuv uch darajada amalga oshiriladi:

- 1) bir butun taʼlim-tarbiya tizimi darajasida;
- 2) maʼnaviy-maʼrifiy ishlar tizimi darajasida;
- 3) alohida olingan har bir kutubxona yoki kutubxonalar tizimi darajasida.

Majmuaviy yondashuv muayyan hududda joylashgan klub, kinoteatr, tetar, muzey tomonidan oʻtkazilayotgan tadbirning kutubxona – axborot xizmati koʻrsatish texnologiyalari va metodlari tomonidan yanada toʻldirilishi, boyitilishidir. Masalan, muzey tomonidan “Amir Temurning boshqaruv, bunyodkorlik, madaniyat va ilm-fan taraqqiyotida tutgan oʻrni” mavzusida ilmiy-amaliy anjuman oʻtkaziladigan boʻlsa, kutubxona ushbu mavzudan kelib chiqqan holda quyidagi yoʻnalishlarda adabiyotlar koʻrgazmasini tashkil etishi mumkin:

1. Amir Temur boshqaruvida qonunchilik, rahbarlik tamoyillari va mashvarat.
2. Amir Temur va temuriylar davrida ilm-fan, sanʼat va adabiyotning rivojlanishi.
3. Amir Temur diplomatiyasi.
4. Amir Temur davrida hunarmandchilik va savdo.

5. Temur va temuriylar davrida davolash muassasalari.
6. Amir Temur muvaffaqiyatlarining ma'naviy omillari.
7. Amir Temur davlati va yagona Turkiston g'oyasi.
8. Amir Temur davrida bog' yaratish san'ati.

Ushbu ko'rgazmada "Temur tuzuklari", Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma", I.Mo'minovning "Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli" asarlari, xorij va mamlakatimi tarixchilari hamda yozuvchilarning ko'plab asarlarini aks ettirish mumkin.

Hududda faoliyat ko'rsatayotgan bir qancha madaniy-ma'rifiy muassasalarining mavjud imkoniyatlarini majmuaviy tarzda birlashtirish tadbir samaradorligini yanada oshirishga imkon beradi. Majmuaviy tarzda yondashishda tasviriy san'at namunalaridan, turli ashyolardan, badiiy, hujjatli filmlardan parchalar berilishi uning tarixiy, badiiy-estetik, tarbiyaviy ta'sirini oshirishga yordam beradi.

11.4 Bosma nashr mahsulotlari, ma'lumotlar va axborotlardan foydalanishda ongli va faol munosabatni tarbiyalash tamoyili.

Nashr mahsulotlari, ma'lumotlar, axborotlardan foydalanish, mutolaa jarayonida ongli va faol munosabat tamoyilining qo'llanilishi ilmiy bilish qonuniyatlariga asoslanadi. Demak, o'zining maqsadi va xususiyatiga ko'ra bilish jarayoni bo'lgan mutolaa foydalanuvchilardan izchillik, onglilik, faol tafakkur yuritishni talab qiladi. Bilim manbai sifatida mutolaaning samaradorligi insonning shunchaki mutolaasiga emas, uning qanday mutolaasiga qarab belgilanadi. Shuning uchun ham mutolaa tafakkurga, mazmunning umumlashtirilishiga va taqqoslashga asoslanishi kerak. Muloqot jarayonida onglilik darajasi va ijodiy faollikka ko'ra foydalanuvchilarning uch guruhi ajratib ko'rsatiladi: Birinchi guruh uchun nashr mahsuloti, ma'lumot va axborotga nisbatan passiv munosabat mavjud bo'lib, tafakkurning yetarli darajada rivojlanmaganligi, o'z shaxsiy "men"ini mutolaa qilinayotgan manba mazmunidan ajrata olmasligi, tanqidiy munosabatning shakllanmaganligi xosdir. Ikkinchi guruh foydalanuvchilar uchun mutolaa jarayonida manbalarga faol munosabat shakllangan, rivojlangan abstrakt tafakkur mavjud bo'lgan holat xos bo'lib, mutolaa qilingan manbani tahlil qila oladigan,

taqqoslaydigan, muallif bilan munozaraga kirisha oladigan, manbalar orqali olgan bilimni amaliy faoliyatida qoʻllay oladigan darajaga yetgan boʻladi. Lekin ushbu guruh foydalanuvchilar oʻz tafakkurining oʻzgartiruvchi kuchini anglab yetmagan, manbalar mazmunini chuqurlashtirish, rivojlantirish, yangi gʻoyalarni yaratish darajasiga yetmagan boʻladilar. Uchinchi guruh foydalanuvchilar manba mazmunini anglab yetishlaridan tashqari faol rivojlantirish asosida amaliy maqsadlar yoʻlida foydalana oladilar. Ular uchun mutolaa ijodiy tadqiqot xususiyatiga ega boʻla boradi. Mutolaa madaniyatining muhim koʻrsatgichlaridan yana biri mutolaaning shunchaki qiziquvchanlikdan tubdan farqlanib, uning bilish va maʼrifiy dunyoqarashlik motivining rivojlanishidir.

Kutubxonachi foydalanuvchilarni ularning umumtaʼlim, maxsus tayyorgarlik darajasi, tafakkur erkinligining oʻz hayotlarida va jamiyat hayotida qanchalik ahamiyatga ega ekanligini ongli ravishda anglashlari sari yoʻnaltira bilishi kerak.

Kutubxonachining masʼuliyatli vazifalaridan yana biri – foydalanuvchini zarur nashr mahsuloti, maʼlumot yoki axborotni mustaqil, tejamkor vositalar orqali topa bilish, oʻz imkoniyatlari va qiziqishlariga mos keluvchi shaxsiy samarador mutolaa tizimini shakllantira bilishiga oʻrgatishi kerak.

Ushbu maqsadlarda kutubxonalar tizimli tarzda kutubxonashunoslik va bibliografiya, axborotshunoslikka oid bilimlarni ham keng targʻib qilishlari kerak.

Bundan asosiy maqsad foydalanuvchilarga maʼlumot – bibliografiya tizimi, axborot xizmati haqida bilim berish, kerakli maʼlumotlar va axborotlarni topish metodikasini, ilmiy, maxsus va badiiy adabiyotlar bilan ishlashning sinalgan va samarali usullarini oʻrgatishdir.

11.5 Kutubxona–axborot xizmati koʻrsatishda foydalanuvchilarni oʻrganish asosida guruhlashtirilgan tarzda yondashuv tamoyili.

Foydalanuvchilarga kutubxona–axborot xizmati koʻrsatishda kutubxonachilar muntazam tarzda ularning yoshi, kasbi, maʼlumoti, millati, psixologik holati bilan bogʻliq boʻlgan vaziyatlarda muloqotda boʻladilar. Ushbu xususiyatlar nashr mahsulotlarini, maʼlumotlarni, axborotlarni tinglash va mutolaa qilishda muayyan oʻziga xoslikni

vujudga keltirganligi uchun ularning ehtiyojlari, soʻrovlari, qiziqishlarini alohida hisobga olishlari zarur. Shuning uchun ham kutubxonachi foydalanuvchilarni chuqur oʻrganish asosida ularga xizmat koʻrsatishning mazmuni, metodlari, tashkiliy tomonlarini guruhlashtirilgan tarzda olib borishi kerak. Guruhlashtirilgan tarzda yondashuvning eng muhim va murakkab jihati foydalanuvchilarning muayyan ijtimoiy-kasbiy va demografik guruhlariga mansubligini aniqlashdir.

Chunki, jamiyat taraqqiyoti jarayonida uning ijtimoiy tizimi ham oʻzgarib boradi. Bugungi kunda mamlakatimining ijtimoiy-kasbiy tizimida tadbirkorlar, kichik va oʻrta biznes vakillari, fermerlar, xizmat koʻrsatish sohasi xodimlari, ishlab chiqarish sohasi xodimlari, turli mutaxassislar, boshqaruv sohasi xodimlari, intelligensiya vakillari faoliyat koʻrsatmoqdalar. Kutubxonachilar foydalanuvchilarga chuqurlashtirilgan tarzda xizmat koʻrsatishda malaka darajasi, kashfiyotchilik va yangiliklar yaratishi, tadbirkorligi, innovasion texnologiyalardan foydalana bilishi kabi omillarga ham eʼtibor berishlari kerak. Shuningdek, kutubxonachi foydalanuvchining qiziqishi, uning mutolaa faoliyatiga taʼsir koʻrsatuvchi individual va ijtimoiy-psixologik oʻziga xosligini ham hisobga olishi zarur.

Nashr mahsulotlari, maʼlumotlar va axborotlar mazmunini qabul qilishda foydalanuvchining oʻziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda kutubxonachi unga tafakkurini yanada rivojlantirishga xizmat qiladigan manbalarni tavsiya qilishi kerak. Foydalanuvchilarni guruhlariga ajratishda ilmiy asoslanganlik mutolaaga rahbarlik va kutubxona – axborot xizmatini keng yoyishning zaruriy shartidir. Foydalanuvchilarga guruhlashtirilgan tarzda yondashish ularning qiziqishlarini har tomonlama hisobga olishga asoslanadi. Foydalanuvchilar qiziqishi, ularni kutubxonaga jalb etish, taʼlimiy, tarbiyaviy, axborot taʼsiri oʻtkazish, ular bilan ish olib borish samaradorligini oshirishga sezilarli taʼsir koʻrsatuvchi muhim omildir. Foydalanuvchilarning mavjud qiziqishlarini aniqlash va hisobga olish kutubxonachiga nisbatan qoʻyilgan talablarning oʻta muhim jihati hisoblanadi.

Uning boshqa muhim yoʻnalishlaridan yana biri kutubxonachi foydalanuvchi qiziqishining oddiy kuzatuvchisi emas, tarbiya maqsadlaridan kelib chiqqan holda foydalanuvchi qiziqishining shakllanishiga faol taʼsir koʻrsata oladigan shaxs hamdir.

Foydalanuvchi qiziqishi-harakatlanuvchi, rivojlanuvchi faollik bo‘lib, quyi bosqichlarda qiziquvchanlikdan, oddiy mashg‘ulotdan iborat bo‘lsa, yuqori bosqichlarda onglilik, irodaviy sifatlarga ega bo‘lib, tashabbuskor qiziqish darajasiga yetadi. Kutubxonachining foydalanuvchilar qizikishiga ta’sir ko‘rsatishi odatda quyidagi yo‘nalishlarda yuz beradi:

- 1) mavjud qiziqishlarni aniqlash, baholash va yanada rivojlantirishni tashkil etish;
- 2) yangi qiziqishlarni shakllantirish, ularni mustahkamlash va kuchaytirish;
- 3) qayta tarbiyalash orqali nomaqbul qiziqishlarni bartaraf etish, yangi yo‘nalishdagi qiziqishlarni shakllantirish.

Foydalanuvchilar qiziqishining rivojlanishi bir tomondan nashr mahsulotlari, ma’lumotlar, axborotlarning mazmuniga bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan mutolaani tashkil etishning metodlarini to‘g‘ri qo‘llay bilishga bog‘liqdir.

11.6 Foydalanuvchilarga kutubxona – axborot xizmati ko‘rsatishda ko‘rgazmalilik tamoyili.

Ko‘rgazmalilikning mohiyati o‘rganilayotgan obyektning hissiy qabul qilinishi va uning asosida aniq ko‘rgazmali obrazlar ko‘rinishidagi tasavvurning hosil bo‘lishidir. Ko‘rgazmalilik tamoyiliga amal qilinganda eshitish organlari bilan bir qatorda ko‘rish organlari ham jalb etiladi. Shuning uchun ham xalqimizda “yuz marta eshitgandan ko‘ra bir marta ko‘rgan ma’qul” degan maqol juda o‘rinli qo‘llaniladi. Ko‘rgazmalilik o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakaning foydalanuvchilar xotirasida uzoq vaqt saqlanib qolishiga yordam beradi. Kutubxonachining foydalanuvchilar va turli manbalar bilan ishlashidagi tamoyillardan biri sifatida qo‘llaniladigan ko‘zgzamalilik obyektiv zarurat tarzida bilish jarayoni qonuniyatlaridan kelib chiqadi va jonli mushohadadan abstract (mavhum) tafakkur sari harakatlanadi. Voqelikning mushohada etilishi, hissiy bilish – bilimning faqat boshlang‘ich pog‘onasi bo‘lib, undan abstrakt tafakkurga va amaliyotga tomon rivojlanishi bilish jarayonining oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga rivojlanishga asoslangan doimiy yo‘lidir.

Akademik I.P.Pavlovning oliy nerv faoliyati fiziologiyasi haqidagi ta’limotiga ko‘ra, birinchi va ikkinchi signal tizimlari inson ongi psixik faoliyatining fiziologik negizi hisoblanadi. Ma’lumki, birinchi signal tizimi mohiyat e’tibori bilan odamda ham, hayvonlarda ham bir xildir. Birinchi signal tizimining faoliyati bosh miya katta yarim

shari qobig'ida betaraf qo'zg'atgichlarga shartli reflekslar hosil qilishdan iborat. Hayvonlarning doimo o'zgarib turuvchi tashqi muhitga moslashuviga imkon beruvchi birinchi signal tizimi borliqni hissiy in'ikos ettirishning fiziologik asosi hisoblanadi. Muayyan tabiiy qo'zg'atgichlar (rang, ta'm, xid) mazkur tizimning signallari bo'lib ximat qiladi. Odam esa psixik faoliyatning fiziologik mexanizmi qo'shimcha ikkinchi signal tizimi bilan ish ko'radi. Bunda til birligi – so'z signal vazifasini bajaradi. Ana shu ma'noda so'z turli narsalar va ularning turli belgi, xossa hamda sifatlari aniq qo'zg'atgichlarning ifodalovchisidir. So'z ikkinchi tartibdagi qo'zg'atgich hisoblangani uchun aniq qo'zg'atgichlarni ifodalovchi, “signallar signali” sanaladi. Sezgi, hissiy qabullash (idrok) va tasavvurlarda aks etgan narsa va hodisalar nutq, so'zlar tufayligina narsalardek ifodalanadi. Tashakkurning moddiy tashuvchisi bo'lgan tovushli belgilar tizimi – so'zlar keng ma'noda olganda til kishilar o'rtasida muomala hamda fikr almashuvning zarur quroli bo'lish bilan bir vaqtda tushuncha, abstraksiyalar ifodalanadigan muhim vosita hamdir. Shunga ko'ra, foydalanuvchilarga kutubxona – axborot xizmati ko'rsatishda adabiyotlarni tavsiya etish birinchi signal tizimidan foydalanish bosqichida emas, jonli so'z, nutq orqali ifodalanuvchi ikkinchi va bilish faoliyatining uchinchi bosqichi bo'lgan amaliyot darajasida bo'lishi lozim. Ko'rgazmalilik tamoyilining asosiy maqsadi turli bosma nashr mahsulotlari, ma'lumotlar va axborotlarda ifodalangan maqsad, mazmun, ilmiy va badiiy qimmatni ochib berishdan iborat bo'lib, ushbu maqsadga erishish faqat “sof” ko'rgazmalilik orqali emas, so'z orqali mumkin bo'ladi.

Kutubxonachi so'z va nutq orqali foydalanuvchilar diqqatini muhim, dolzarb va ayni vaqtda eng zarur nashr mahsulotlariga, ma'lumotlar va axborotlarga yo'naltiradi. Ko'rgazmalilik va so'z uyg'unligi ushbu turli manbalarga qiziqishni yanada faollashtirishi va samaradorligini oshirishi kutubxona–axborot xizmati amaliyotida ko'p bora isbotlangan. Ko'rgazmalilik, ayniqsa ochiq kitob fondi sharoitida alohida namoyon bo'ladi. Kutubxona–axborot xizmatining kafedra tizimi sharoitida foydalanuvchilarning nashr mahsulotlari va boshqa manbalar bilan bevosita aloqadorlikda bo'lmaganligi uchun kutubxonachi foydalanuvchi bilan suhbat paytida uni kutubxona fondi bilan tanishtirish imkoniyatiga ega emas. Ochiq nashr mahsulotlari va ma'lumotlar fondi sharoitida esa

kutubxonachi, fond, foydalanuvchi o‘rtasida hech qanday to‘siq mavjud emas va natijada bevosita o‘zaro muloqot o‘rnatish uchun qulay sharoit yaratiladi. Umuman olganda turli vositalarni o‘z vaqtida va uyg‘un tarzda qo‘llash asosida tashkil etilgan har bir tadbir, taqdim etilgan nashr mahsuloti, ma’lumot, tavsiya etilgan axborot foydalanuvchilar tomonidan faol, hissiyot bilan qabul qilinadi. Foydalanuvchilarga kutubxona – axborot xizmati ko‘rsatishda yuqorida ko‘rib chiqilgan har bir tamoyil o‘ziga xoslikka ega bo‘lsada, ular o‘zaro aloqadorlikda bo‘lib, bir-birini to‘ldirgan holda bir butun tizimni tashkil etadi. Ushbu tamoyillarning har biri alohida holda foydalanuvchilarga kutubxona – axborot xizmati ko‘rsatishda maqsadga erishish uchun yetarli emasdir. Faqat barcha tamoyillarga majmuaviy tarzda amal qilish asosidagina kutubxona – axborot xizmatining samaradorligini oshirish mumkin.

XII- Bob Kutubxona-axborot muassasalarida foydalanuvchilarga yakka tartibda xizmat ko‘rsatish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi axolisiga kutubxona - axborot xizmati ko‘rsatishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 2019 yil 7 iyunda qabul qilingan qarorida aholiga kutubxona-axborot xizmati ko‘rsatishni sifat jihatidan yanada rivojlantirish maqsadida axborot-kommunikasiya texnologiyalarining rivojlanishi va zamonaviy umumjahon tendensiyalarini hisobga olgan holda kutubxona-axborot faoliyatini tubdan isloh qilish, mutolaa madaniyatini, axborot madaniyatini oshirish va targ‘ib qilish asosiy vazafalar sifatida belgilab berildi. Bundan tashqari foydalanuvchilarga kutubxona-axborot xizmati ko‘rsatishda sifat jihatidan yangi va qulay shart sharoitlar yaratish, zamonaviy axborot texnologiyalar asosida ularning ilmiy, ta’lim ,axborot va madaniy ehtiyojlarining qondirilishiga asosiy e’tiborni qaratish, aholining ijtim oiy himoyaga muhtoj qatlamlariga ijtimriy moslashuv va reabilitasiya, mustaqil ta’lim olish va muloqot doirasini kengaytirish vositasi sifatida axborotdan foydalanish imkoniyat yaratish, ularni zamonaviy kutubxona-axborot xizmatlari bilan ta’minlashga o‘tish dolzarb masalalar sifatida alohida ta’kidlab o‘tildi.

Kutubxona-axborot muassasalari ushbu dolzarb vazifalarni amalga oshirish uchun har bir foydalanuvchi bilan yakka tartibda ish olib borishi, ishning turli usullaridan foydalangan holda ularning qiziqishini, talab va ehtiyojlarini maqsadli o'rganishlari, shunga ko'ra sifatli va samarali kutubxona-axborot xizmatini tashkil etishlari lozim. Chunki, har bir foydalanuvchi o'ziga xos individual xususiyatlarga ega. Foydalanuvchining axborotga va bilimga bo'lgan intilishi, talabi kundan kunga oshib, ko'p qirralik yo'nalish kasb etmoqda. Foydalanuvchilar qiziqishini o'rganishning maqsadi unga samarali kutubxona-axborot xizmatini ko'rsatish, uning qiziqishini kengaytirish, mutolaa jarayonini to'g'ri tashkil etishiga yordam berish, Foydalanuvchining qiziqishini, talabini to'g'ri va aniq belgilab olgan holda uning ijodiy faoliyatini to'g'ri tashkil etishga yordamlashish, Foydalanuvchining shaxs sifatida kamol topishiga ta'sir etadigan tarixiy, ilmiy, madaniy, ma'rifiy jihatdan ahamiyatli adabiyotlarni mutolaasini tashkil etish, dunyoqarashini kengaytirish, kitob mutolaaga ijodiy munosabatini shakllantirishdan iborat. Foydalanuvchi qiziqishini o'rganishda uning kasbi korini, ma'lumot darajasini, mutolaasidan maqsadini, mutolaa mazmunini, yoshi, oilaviy ahvoli, qanday jamoatchilik ishlari bilan shug'ullanishini, mutolaa texnikasiga munosabatini, mutolaa madaniyati darajasini bilishi lozim. Foydalanuvchidagi faoliyati darajasi bundan keyin u bilan ishni tashkil etishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanuvchi qiziqishi hayot tarzi, oilaviy muhit, do'stlar, mehnat faoliyati, darsda o'tilayotgan mashg'ulotlar, kutubxonachining ta'siri, hayotiy voqealar, hodisalar, o'qilgan kitoblar haqidagi suhbatlar, o'zaro fikr-mulohazalar ta'sirida o'zgarib, chuqurlashib va kengayib borishi mumkin. Bunda uning qabul qilish, tushunish, fikrlay va mulohaza qila bilish qobiliyati katta o'rin tutadi. Shu sababli foydalanuvchidagi o'zgarishni kuzatib, yangi qiziqishni to'la qondirishga yordam berish, qiziqishni kengaytirib borishga ko'maklashish kerak. Mutaxassis xodim foydalanuvchini va uning qiziqishini bilibgina qolmasdan, har bir kitobning ahamiyatini, uning foydalanuvchiga ta'sirini, aynan shu kitobning qaysi foydalanuvchiga zarurligini va tavsiya qilish mumkinligini aniqlashi uchun kitoblarni ham yaxshi bilishi muhim ahamiyatga ega. Hind kutubxonashunos olimi Ranganatan aytganidek, har bir foydalanuvchini va har bir

kitobni bilish foydalanuvchi bilan yakka tartibda ishlashning asosini tashkil etadi. YA'ni, har bir kitobning o'z foydalanuvchiini aniqlash, har bir foydalanuvchiga o'z kitobini tavsiya etish kutubxona xodimidan katta psixologik mahoratni, pedagogik qobiliyatni, katta professional bilimni talab etadi. Shundagina, juda katta axborotlar olamidani, bilimlar ummonidan foydalanuvchiga eng kerakli durni - bilimni topib bergan bo'lamiz. Shu bilan birgalikda foydalanuvchini ana shu bilimlar xazinasidan foydalana olishga o'rgatamiz. Foydalanuvchilar bilan yakka tartibda ishlashning yana bir maqsadi foydalanuvchi mutolaasini tashkil etish, unga rahbarlik qilishdir.

Foydalanuvchi bilan yakka tartibda ishlash kundalik va alohida e'tiborni talab etadigan ma'suliyatli jarayondir. Bu jarayonda mutaxassis xodim har bir foydalanuvchi bilan ishlash rejasiga ega bo'lishi zarur: yangi kelgan kitoblar haqida ma'lumot berish va internetdan foydalanishgacha maslahat berishdan iborat. Buning uchun mutaxassis xodim har bir foydalanuvchining mutolaa maqsadini, unga nima zarurligini, uning mutolaa madaniyatini, kompyuter savodxonligi darajasini aniqlab olishi zarur. Shunga ko'ra foydalanuvchibilan olib boriladigan ish ko'lamini, usulini belgilab oladi. foydalanuvchi bilan yakka tartibda ishlash o'zining barcha yo'nalishlari bilan kutubxonaning asosiy vazifasi - mutolaa madaniyatini shakllantirish, foydalanuvchining mustaqil bilim olishini tashkil etishga qaratilgan.

Kutubxonashunoslik amaliyotida yakka tartibda ishlash jarayonini to'g'ri tashkil etish maqsadida maxsus tayyorgarligiga ega bo'lgan, foydalanuvchilik tayyorgarligi kam, tayyorgarligi bo'lmagan foydalanuvchilar guruhiga ajratilib yondoshish odat bo'lib qolgan. Tayyorgarligi bo'lgan foydalanuvchi kutubxona haqida, uning bo'limlari va ularning vazifalari, qay paytda kimga va qaysi bo'limga murojaat qilish mumkinligini, kompyuterdan foydalana olish qobiliyatiga ega bo'lgan, internet resurslaridan foydalana oladigan, o'ziga kerakli ma'lumotni mustaqil topa oladigan, kutubxonadagi bibliografik axborot resurslaridan foydalana oladigan, kutubxonada o'tkaziladigan tadbirlarda ishtirok etish bilan mustaqil fikr mulohaza bildiradi oladigan foydalanuvchidir. U bilan yakka tartibda ish olib borish jarayonida faqat yangiliklar haqida axborot berish, ma'lumot-bibliografiya xizmati ko'rsatish, ayrim kitoblarni tavsiya etish bilan cheklanish mumkin. Tayyorgarligi kam bo'lgan foydalanuvchi foydalanuvchilar bilan ishlaganda

mutaxassis xodimning asosiy harakati foydalanuvchiga mutolaa madaniyatini, kompyuter texnologiyasidan foydalanish ko'nikmasini, mustaqil ishlash malakasini singdirish, ma'lum bir mavzu va masalalarni o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini orttirishga qaratilgan bo'ladi. Bunda maslahat, suhbat kabi ish usullaridan foydalaniladi. Tayyorgarligi bo'lmagan foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatishda suhbat eng asosiy usul hisoblanadi. Kutubxona-axborot muassasasiga kelgan foydalanuvchi bilan kutubxona, uning bo'limlari, kutubxona fondi, vazifasi, yangi adabiyotlar, Internet tarmog'idan foydalanish, elektron pochtdan axborotlarni jo'natish to'g'risida suhbat o'tkazish kerak bo'ladi. Foydalanuvchi bilan yakka tartibda ishlashning samarasi tayyorgarlik ko'rishga bog'liq. Xodim aniq foydalanuvchi bilan yakka tartibda ishlash yo'lini, vaqtini, usulini aniq belgilab olishi uchun avvaldan tayyorgarlik ko'radi. Bu kutubxonachilik ish tajribasida kitob berishga tayyorgarlik ko'rish deb ataladi.

Mutaxassis xodimning kutubxona-axborot muassasasidagi ish kuni kitob berishga tayyorgarlik ko'rish bilan boshlanadi, bu ish bilan foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatuvchi barcha bo'limlar (abonement, o'quv zali, bibliografiya bo'limi va b.) xodimlari shug'ullanadi. Bu ish vaqti foydalanuvchiga xizmat ko'rsatish vaqtidan bir soat ilgari boshlanadi. Bu vaqt mobaynida xodim ish joyini xizmat ko'rsatish uchun tayyorlaydi, texnik va gigiyenik sharoitlarni ko'zdan kechiradi, tartibga soladi, kunning dolzarb masalalari, voqea va hodisalari, sanalariga oid adabiyotlarni tayyorlab qo'yadi. Ular haqida qisman suhbatga tayyorgarlik ko'radi, tokchalardagi adabiyotlar joylashtirilishini nazorat qiladi va ko'zdan kechiradi, foydalanuvchilar formulyarini tartibga soladi, zarur bo'lsa kundaliklarni to'ldiradi yoki tartibga keltiradi, ko'rgazmalarni nazardan o'tkazib, zarur holatda adabiyotlarni yangilab qo'yadi. Zarur bo'lsa, yangi uslubiy va bibliografik qo'llanmalarni tayyorlab qo'yadi. Bugun kelishi ehtimoli bor foydalanuvchilarning har biri uchun alohida tayyorgarlik ko'radi. Internet tarmog'i orqali yangi ma'lumotlarni, elektron katalogga joylashtirilgan yangi adabiyotlar haqidagi ma'lumotlarni, boshqa elektron resurslarni ko'rib chiqib kimga nimani tavsiya qilishni rejalashtiradi, elektron pochtdani ochib ko'rib, yangiliklardan xabardor bo'ladi. Yangi kelgan adabiyotlar va buyurtmalar bilan tanishganda uning qanday

foydalanuvchiga mo'ljallanganligini, uning foydalanuvchiga qanchalik foydali yoki qiziqarli bo'lishini oldindan belgilab olish maqsadga muvofiqdir.

Xulosalar alohida kartochkaga yozib borilgani va kartotekaga joylashtirilgani ma'qul, chunki har bir kartochka bitta kitobga tegishli bo'lib, mutaxassis xodimga uning mazmunini yoki foydalanuvchi bilan suhbatlashish uchun eng muhim muammolar va savollarni eslatib turadi.

Foydalanuvchi bilan suhbat davomida xodim foydalanuvchi formulyaridagi yozuvlar bilan tanishib, o'qilgan kitob to'g'risida u bilan suhbat o'tkazishi, tavsiya etiladigan adabiyot haqida tavsiya suhbatiga tayyorgarlik ko'rishi, ko'rgazmalar bilan tanishtirishga, internetdagi axborotlar, yangi Veb-saytlar, elektron katalog haqida suhbatga tayyorgarlik ko'rishi kerak. Mutaxassis xodim mustaqil mutolaaga rahbarlik qilayotgan foydalanuvchining formulyarini har kuni ko'zdan kechirib borishi, tegishli xulosani formulyarning 3-qismiga yozib borishi zarur. Har bir suhbat individual harakterga ega bo'lib, tevarak-atrofdagi vaziyatga, kitobning mazmuni, hatto foydalanuvchining kayfiyatiga bog'liq. Suhbat quruq, bemaqsad so'zlashuvga aylanmasligi uchun u oldindan o'ylab qo'yilgan bo'lishi, ba'zan esa asosiy fikr qisqacha yozib olinishi kerak. Tayyorgarlik ko'rish jarayonida kutubxonachi ayrim foydalanuvchilar mutolaasining qanday izchillikda borishini o'ylab ko'rib, mutolaaning individual rejalarini, tavsiya etiladigan kitoblar ro'yxatini tuzadi. Bu ishda turli bibliografik qo'llanmalardan foydalanish katta yordam berishi mumkin.

12. 1. Foydalanuvchilar bilan yakka tartibda suhbat o'tkazish

Suhbat foydalanuvchini qamrab olish darajasiga ko'ra yakka, guruhli bo'ladi. Yakka tartibdagi suhbat faqat bir foydalanuvchi bilan o'tkaziladi, guruhli suhbat ma'lum bir xususiyatiga ko'ra yoki mutolaa maqsadi bir xillikka ega foydalanuvchilar guruhi bilan o'tkaziladi. Yakka tartibdagi suhbat katta ahamiyat kasb etadi. Hech qanday ish shakli mutaxassis xodimning foydalanuvchi bilan og'zaki, yuzma-yuz turib muloqotda bo'lish o'rnini bosolmaydi. Suhbat mutaxassis xodim va foydalanuvchining bir-birini o'rganishiga, bir biriga yaqinlashishiga, kutubxonachining foydalanuvchi qiziqishini aniqlashiga, kitob tanlashda ularga yordam berishda aniqlikka ega bo'lishiga yordam beradi. Mutaxassis xodim foydalanuvchi bilan suhbatlashish jarayonida suhbat

mazmunining foydalanuvchi qiziqishiga mos bo'lishini, maslahatining zo'rma-zo'raki bo'lishiga, g'amxo'rlikining ortiqcha, keraksiz bo'lib qolmasligini, suhbatning aniq va jo'yali maqsadga qaratilishini, suhbatdan foydalanuvchining manfaatdorligini, suhbatlashishga moyilligini hisobga olishi kerak. Tavsiya etiladigan adabiyot haqidagi suhbatda asarning mazmunini so'zlab bermaslik, suhbatni asarning o'zini ko'rsatish hamda foydalanuvchi bilan birgalikda varaqlab, suratlari, mundarijasi bilan tanishish bilan olib borish, kitob haqida ifodali, qiziqarli qilib, shu bilan birga, foydalanuvchi diqqatini tortadigan va qiziqtiradigan o'rinlaridan so'zlab yoki o'qib berish kerak. Bir foydalanuvchi bilan o'tkaziladigan suhbatning quyidagi turlari qo'llaniladi:

1. Foydalanuvchini kutubxonaga a'zo etayotgan paytdagi suhbat.
2. Tavsiyaviy suhbat.
3. O'qilgan kitob haqida suhbat.

Foydalanuvchini kutubxonaga a'zo etayotgan vaqtdagi suhbat mutaxassisdan katta tayyorgarlikni va e'tiborni talab qiladi. Bu dastlabki suhbat bo'lib, unga shu foydalanuvchining keyingi faoliyati, u bilan ishlash ko'lamiga bog'liq. Bu suhbat yangi foydalanuvchining shaxsi, shu paytga qadar nimalar o'qigani, mutolaa mazmuni va xarakterini, maqsadini aniqlashga yordam beradi. Kutubxona-axborot muassasasi, uning fondi, tarkibi, vazifalari haqida, an'anaviy va elektron katalog, undan foydalanish qoidalari, internet tarmog'i, undan foydalanish qoidalari, manbalardan foydalanish madaniyati, yangi axborot resurslari bilan tanishish imkoniyatlari haqida so'zlab berish mutaxassis xodimning birinchi galdagi vazifasidir. Mutaxassis xodim foydalanuvchi bilan suhbat davomida unga foydalanuvchi formulyarini to'ldiradi. Formulyar foydalanuvchi haqida, uning mutolaa mazmuni va xarakteri haqida to'la ma'lumot beruvchi yagona xujjat. Uning avtomatlashtirilgan shakli hozirgi kunda kutubxonalarda qo'llanilmoqda. An'anaviy shakldagi foydalanuvchi formulyari uzoq yillar davomida kutubxona ish hujjati sifatida saqlanishi mumkin. Foydalanuvchi formulyari uch qismdan iborat bo'lib, uning 1- qismida foydalanuvchi shaxsi haqida ma'lumot to'la yozib olinadi, foydalanuvchining kasbi, mutaxassisligi, ish joyi, oilaviy ahvoli, manzili aniq yozib boriladi. Foydalanuvchi bilan suhbat davomida uni kutubxonadan foydalanish qoidasi va foydalanuvchining burchi, huquq va majburiyatlari bilan tanishtiriladi, foydalanuvchi ana

shu ma'lumotlarni olgandan so'ng kutubxonadan foydalanish qoidasiga amal qilaman degan mazmunda imzo chekadi. Formulyarning 2- ichki qismi foydalanuvchining mutolaa mazmuni haqida to'la ma'lumot beradi. Bu qismda foydalanuvchi tomonidan so'ralgan, tanlangan adabiyotlarning inventar raqami, asar muallifi, sarlavhasi, qaytarish muddati yozib boriladi. Foydalanuvchi olganini, kutubxonachi qaytarib olganini tasdiqlab imzo qo'yadi. Foydalanuvchi formulyari foydalanuvchilar qiziqishini o'rganishda asosiy manba hisoblanadi. Formulyarning uchinchi qismida foydalanuvchi bilan yakka tartibda olib borilgan ish, uning mutolaa madaniyati, istiqboli qisqacha yozib boriladi. Ba'zan faqat bir foydalanuvchiga xos fazilatlar ham berilishi mumkin. Foydalanuvchi bilan suhbat ko'lami, mazmuni, yo'nalishi Foydalanuvchining tayyorgarlik darajasiga, foydalanuvchilik tajribasiga ham bog'liq. Masalan, qiziqishi aniq, tayyorgarligi bor foydalanuvchiga kutubxonachi aynan shu kutubxona fondi qanday joylashganligini tushuntirib berish bilan birga, uning diqqatini mutaxassislikka oid adabiyotga jalb etadi, ma'lumot-bibliografiya apparati bilan tanishtiradi. Tayyorgarligi kam bo'lgan foydalanuvchiga esa bo'limlar qanday joylashganligini ko'rsatish bilan birga, ularning mazmuni, kichik bo'limlari, har bir bo'limchaning qanday masalalarga bag'ishlanganini so'zlab berishi kerak. Shuningdek, ayrim kitoblarni ko'rsatishi, ular haqida so'zlab berishi, ularni mutolaa uchun tavsiya etishi mumkin.

O'tkazilgan birinchi suhbat haqida foydalanuvchi formulyariga belgi qo'yiladi va so'rab ulgurmagan savollar eslatib o'tiladi.

Tavsiya etilayotgan adabiyot haqidagi suhbat faqat bir foydalanuvchi bilan ham, bir guruh foydalanuvchi bilan ham o'tkaziladi. Mutaxassis xodim foydalanuvchiga tavsiya qilish uchun kitob tanlayotganida uning tarbiyaviy ta'siriga e'tibor qiladi. U foydalanuvchi uchun eng dolzarb, foydali va qiziqarli kitoblar tanlashga intiladi. Ayniqsa, bolalar bilan ishlaganda yangi axborotlar, Veb-saytlar haqida so'zlab berish, so'zlaganda ham foydalanuvchini qiziqtiradigan, jalb etadigan darajada gapirib berish zarur. Kitobdagi qiziq bir epizodni so'zlab berish, asardan parcha qo'yib berish, Veb sahifalarni birgalikda ko'rish, ularni tavsiya qilishda amaliy ahamiyatini ta'kidlash lozim bo'ladi.

Tavsiya suhbatlari - kutubxonalarda olib boriladigan suhbatlarning keng tarqalgan turidir. Foydalanuvchi bilan suhbatga tayyorlanishda, uning mutolaa madaniyati,

muayyan soha bo'yicha bilim darajasi nazarda tutiladi. Bunda ayni bir foydalanuvchining o'ziga zarur sohaga murojaat qilishi, o'ziga alohida yondoshishni talab qilishini hisobga olish muhimdir. Foydalanuvchiga shu sohaga oid tavsiya etilayotgan kitobning boshqa asarlardan farq qiluvchi o'ziga xos xususiyatini ta'kidlash, unga matbuotda berilgan baho haqida, unda ko'tarilgan masalalar haqida so'zlab berish lozim. Tavsiya suhbatining harakteri foydalanuvchining kitobga bo'lgan ehtiyojiga ham bog'liqdir. Foydalanuvchilar so'rog'i turli-tumanligi bilan farq qiladi. Albatta mamlakatning siyosiy va ma'naviy, madaniy hayoti bilan, foydalanuvchining ma'lumoti, madaniy darajasi va maqsadi, intilishlari bilan bog'liq bo'ladi.

12.2 Foydalanuvchilarning qiziqishi, talab va ehtiyojlarini o'rganish.

Kutubxona-axborot faoliyati ijodiy qobiliyatga ega, erkin fikrlovchi, intellektual salohiyatga ega barkamol yosh avlodni tarbiyalashga qaratilgan bo'lib, bu jamiyatning kelgusida yanada obod, ozod va erkin bo'lishiga, mamlakatning ma'nan va siyosiy jihatdan rivojlanishga olib keladi. Kutubxona-axborot muassasalarida yosh avlod tarbiyasi uchun muhim bo'lgan sog'lom ma'naviy-ahloqiy muhitni vujudga keltirish, foydalanuvchilarning qiziqishlarini o'rganish, kengaytirish, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-tarbiyaviy jihatdan dolzarb masala bo'lib, uni milliy va ma'naviy, tarixiy qadriyatlarimizdan foydalangan holda hal etish bu muassasalar oldida turgan muhim vazifadir. Kutubxona - axborot faoliyatida foydalanuvchi qiziqishini, talabini, ehtiyojini muntazam va maqsadli o'rganib borish, shunga ko'ra ular bilan ishni tashkil etish, bunda kompyuter va telekommunikasiya texnologiyalaridan foydalanish kutubxona – axborot xizmatidagi asosiy yo'nalishlardan biridir. Kutubxonashunoslik fani rivojlanishida foydalanuvchining mantiqiy fikr yuritish jarayonlari tahlil va sintez qilish, taqqoslash, umumlashtirish, tasniflash (klassifikasiyalash), foydalanuvchining ilmiy izlanish (tadqiqotchilik) faoliyati qonuniyatlarini-muammoli vaziyat, bilishga qiziqish, ma'naviy ehtiyoj, talab darajasini hisobga olib tashkil etilgan kutubxonachilik ishining an'anaviy usullarini qo'llash va avtomatlashtirish muhim o'rin tutadi. Foydalanuvchi qiziqishini

o'rganish natijasida kutubxonalar – axborot xizmati shakllari ham faollashadi, rivojlanadi, muassasa faoliyati takomillashadi, shu bilan birga foydalanuvchining ham faolligi, mas'uliyati oshadi, fikrlash, tushunish, o'zlashtirish darajasi ko'tariladi, muammoli masalalarni tahlil qilish, vaziyatdan chiqib ketish uchun aqliy rivojlanish tizimini egallashga ta'sir etadi. Bu esa foydalanuvchining ijodiy izlanish, aqliy mehnat qilish va buning uchun mutolaa ko'nikmasi va malakasini egallashiga sabab bo'ladi, aqliy faoliyat sifatining o'zgarishiga, ilmiy, tanqidiy va ijodiy fikrlashga olib keladi. Foydalanuvchi qiziqishini o'rganish jarayonida foydalanuvchining axborot materialini diqqat va e'tibor bilan, tushungan va his qilgan holda mutolaa qilishi, ma'lum bir tizimda mustaqil bilim olishi, aqliy va ijodiy fikrlashi, mulohaza qilishi, mustaqil adabiyot va elektron resurslarni tanlay olishi, ijodiy qobiliyatining o'sishi, foydalanuvchilik malakasining rivojlanib borishi, ijodiy faoliyatini tashkil etish va rivojlanib borishi ko'zga tashlanadi. An'anaviy kutubxonachilik tajribasida foydalanuvchilar qiziqishini o'rganishning *kuzatish* usuli keng qo'llaniladi. Bu usul ayniqsa bolalar va o'smirlar bilan ish olib boruvchi mutaxassislar uchun zarur. Kuzatish usuli boshqa usullar bilan hamohang olib boriladi. Bunda foydalanuvchiga syezdirmay, uning adabiyotlarga munosabati, mas'uliyati, bilimga intilishi, internet resurslaridan foydalanishi, uning mazmuni, kompyuterlardan foydalana olish qobiliyati, elektron katalogdan foydalanish darajasi, ommaviy tadbirlarda ishtiroki, ko'rgazmalarga munosabati, atrof tevaraqdagi kishilar bilan munosabati o'rganiladi va aniqlanadi.

Foydalanuvchini to'la va aniq bilish uchun uni, uning so'roqlarini, mutolaa maqsadini, o'qilgan adabiyotga munosabatini, undan olgan xulosalarini, qiziqishi va ehtiyojlarini muntazam o'rganib borish jarayonida erishiladi. Bu esa mutaxassisdan kasbiy nazariy va amaliy bilim, ko'nikma va boshqaruv mahoratini, menejerlik bilimini, ish uslubini va lavozim majburiyatlarini, javobgarlikni va mas'uliyatni, qobiliyatini va ularni takomillashtirib borishni talab qiladi. Buning uchun faoliyat motivlarini aniqlash, maqsadni to'g'ri belgilab olish, qiziqishlarni boyitib borish va samarali mehnat bilan erishish mumkin. Foydalanuvchining qiziqishi, inson umumiy qiziqishining bir qismi bo'lib, u yana ma'lum yo'nalish bo'yicha kitob tanlash vaqtida qaysi masalalar (mavzular, bilim sohalari) bo'yicha kishining kitob mutolaani afzal ko'rishida

ifodalanadi. Keyinchalik esa foydalanuvchi qiziqishi o'qilgan kitobni qanday idrok etishida, unga qanchalik o'ylab, tanqidiy yondashishida, kitob ustida qanday ishlashida, o'qiganlaridan hayotida, faoliyatida qanday foydalanishida o'z ifodasini topadi va boyib boradi. Ko'pincha foydalanuvchilar faqat kitob mazmuniga emas, balki uning qay tarzda bayon qilinishiga e'tiborni qaratadilar va o'z talablarini qo'yadilar. Masalan, badiiy adabiyot sohasida turli foydalanuvchilarni turli xil janrlar qiziqtiradi: biri nasriy asarlarni mutolaani yoqtirsa, boshqalari nazmni yoqtiradi, biri tarixiy asarlarni, ba'zilar jangari asarlarni yoqtiradi, ba'zi hollarda kitobning xajmi (qalinligi yoki yupqaligi) birinchi o'ringa chiqadi. Foydalanuvchilar qiziqishi - ijtimoiy hodisadir. Bu qiziqish ijtimoiy hayot tufayli vujudga keladi va insonning ijtimoiy ishlab chiqarish, kasbiy hamda ruhiy qiziqishlarini aks ettiradi. Kutubxona - axborot muassasalarining foydalanuvchilari turli korxonalar, kompaniya, bank, biznes, kichik korxonalar, dehqon fermer ho'jaliklarida ishlashlari yoki turli o'quv yurtlarida mutolaalari mumkin. Ularning oldida juda hilma-xil, aniq vazifalar turadi. Bu vazifalarni hal qilishda ishtirok etish muayyan talab va qiziqishlarni shart qilib qo'yadi, har bir ishning muvaffaqiyatli hal bo'lishi uchun yordam beruvchi yo'llarni izlashga to'g'ri keladi. Demak, u yoki bu qiziqishlarning paydo bo'lishi tasodif bo'lmay, balki foydalanuvchining oilaviy hayoti, mehnat va ijtimoiy faoliyatiga bog'liq holda paydo bo'ladi.

Foydalanuvchilar qiziqishini qiziqishlarni paydo qilayotgan, u yoki bu so'roqlarini, kitobga bo'lgan munosabatini, idrok etish zaruratini keltirib chiqarayotgan sharoitlarni o'rganish bilan to'g'ri anglash va tushunish mumkin. Keyingi yillarda foydalanuvchilarning talab va qiziqishlari mazmunan o'zgardi. Chunki axborotga bo'lgan qiziqish, dunyo axborot olamiga kirishga intilish, undan kengroq bahramand bo'lish, internet tizimi, undagi resurslar ham foydalanuvchining dunyoqarashiga, qiziqishiga ta'sir etmay qolmaydi. Ayniqsa, dunyo axborot olamiga erkin chiqish olish imkoniyati kengayib bormoqda. Natijada, foydalanuvchining axborotni qabul qilish, to'plash, saqlash, uzatish va qayta ishlash borasidagi bilim va ko'nikmalarini shakllantirish, har bir kishini jamiyat uchun zarur shaxs sifatida shakllantirish va kamol toptirish, foydalanuvchining qiziqishini, talabini, ehtiyojini qondirishda kompyuter texnologiyasidan foydalanish, turli ma'lumotlar bazalaridan foydalanish ko'zga

tashlandi. Foydalanuvchilar qiziqishini o'rganishda ma'lum bir xususiyatiga ko'ra alohida guruhni tashkil qiladigan foydalanuvchilar guruhini o'rganish yaxshi samara beradi. Turli xil kasbdagi ishchilar, chorvador fermerlar, mutaxassislar, tibbiyot xodimlari, o'qituvchilar, muhandislar, talabalar, magistrlar, ilmiy xodimlar, soha mutaxassislarining kasbiy qiziqishlari kasbga oid maxsus adabiyotni talab qiladi. Foydalanuvchilar yoshiga qarab guruhlarga ajratilganda bolalarga xizmat ko'rsatuvchi kutubxona - axborot markazlarida 1-4 sinf, 5-6 sinf, 7-9 sinf o'smirlar foydalanuvchilarning ruhiy xususiyatlari, yosh xususiyatlariga ko'ra ajratilgan. Foydalanuvchi qiziqishidagi barqarorlik, ayniqsa, kitobdan o'z ishi uchun madad topuvchi, shuningdek, ishlab chiqarish malakasini oshirish yoki mustaqil bilim olish bilan shug'ullanuvchi kishilarga xos xususiyatdir.

Ba'zan kutubxona – axborot muassasasiga noaniq so'roq bilan keluvchi foydalanuvchilar ham bo'ladi. Ular mutaxassis xodimdan mutolaaga nimadir berishni iltimos qiladilar. Bular ko'proq faoliyatini endigina boshlayotgan foydalanuvchilarda uchraydi. Mutaxassis xodimning vazifasi - bu foydalanuvchining qiziqishini o'rganish, mutolaa mavzusini kengaytirish, kitoblar orqali ularda keng ijtimoiy qiziqishni uyg'otish, mutolaa madaniyatini tarbiyalashdan iborat. Axborot-kutubxona markazi xodimi foydalanuvchida paydo bo'lgan qiziqishni qondiribgina qolmay, balki har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalash vazifalaridan kelib chiqqan holda foydalanuvchilarning qiziqishlarini uyg'otish, yuqori darajadagi estetik didini tarbiyalash bilan asosiy pedagogik, tarbiyaviy ishni bajarishi lozim.

Foydalanuvchi qiziqishini aniq va to'la bilishda foydalanuvchining ishlab chiqarish faoliyati turi, uning xususiyatlari, maishiy turmush sharoiti muhim ahamiyatga ega, mahalliy o'lkaning o'ziga xos xususiyatlari, aholining nima bilan shug'ullanishi va uning madaniy darajasi, turmush tarzi ham alohida o'rganishni talab etadi. Kutubxona xizmat ko'rsatayotgan hududdagi aholining asosiy tabaqalari va foydalanuvchilar guruhlarini bilish ham muhim. Mutaxassis xodim aholi ijtimoiy tarkibini turli mezonlar asosida hisobga olib, ularning har biriga qancha miqdorda va qanday kitoblar, elektron ma'lumot, qay darajada internet xizmati ko'rsatilishi lozimligini va kelgusida bajarilishi lozim bo'lgan ishlar ko'lamini aniqlab oladi. Kutubxona - axborot muassasalari

kutubxona - axborot xizmatini to'g'ri tashkil etish uchun aholining milliy tarkibi, tabiiy sharoitlarini hisobga olishlari lozim. Foydalanuvchilarning individual psixologik xususiyatlarini ham bilish zarur. Bu foydalanuvchilar qiziqishini to'la qondirish va kengaytirishda muhim rol o'ynaydi. Bularning hammasini bilishda *suhbat* usuli qo'l keladi.

Kutubxona-axborot xizmatidan foydalanuvchilarning talablari xarakteriga ko'ra aniq, noaniq, mavzuli bo'ladi.

Aniq talab tayyorgarlikka ega foydalanuvchilardan beriladi, bu so'roqni bajarish mutaxassis xodimga ancha oson. Ammo, xodimning vazifasi faqatgina ehtiyojni qondirish bilan yoki kuzatuvchilik vazifasini bajarish bilan cheklanib qolmaydi, balki mutaxassis xodim zarur kitob tokchada bo'lmasa, uning o'rniga xuddi shu mavzuga oid boshqa asar yoki yangi nashrni yoki qo'shimcha adabiyotlarni tavsiya qiladi. Bu bilan mutaxassis xodim tarbiyachilik, pedagogik vazifasini ham amalga oshiradi. Kutubxona xodimi bu bilan axborot resurslari, ayniqsa kitoblardagi bilimlar yordamida insonni tarbiyalashdek, komil insonni voyaga yetkazishdek muhim vazifani bajaradi. Inson tarbiyasi bu jamiyat tarbiyasidir, komil insonni shakllantirish bu kelajagi porloq jamiyat uchun zamin hozirlashdir. Mutaxassis xodim foydalanuvchi so'rog'iga befarq bo'lmasligi zarur, so'ralgan adabiyot o'rniga boshqa adabiyotni tavsiya etayotganda foydalanuvchi asabiga tegmaslikka, uning ixlosini qaytarib qo'yimaslikka, foydalanuvchini albatta shu kitobni olib mutolaaga ishontira olishga harakat qilishi lozim. Albatta, bunda mutaxassisdan psixologik qobiliyat, pedagogik mahorat, inson bilan muloqot qila olish, inson ko'nglini topa olishdek mas'uliyat talab etiladi.

Kutubxona - axborot muassasasida siyosiy, umumiy dunyoqarashini kengaytirish, madaniy hordiq olish, ma'lum bir aniq mavzuda, masalan turli fan sohalariga oid, ilmiy muammolarga oid, o'tmishimiz, tarixiy qadriyatlarga oid, axborot va telekommunikasiya texnologiyalariga oid muammolar bo'yicha referat, ma'ruza tayyorlash, nashr etilgan manbalardan aniq maqsad yo'lida foydalanish uchun mavzuli so'roq bilan keladigan foydalanuvchilar anchagina ko'p. Mavzularning turli tumanligi mutaxassisdan barcha sohaga oid bilimlardan, dunyo axborot olamidani, yangiliklardan, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-madaniy sohadagi mamlakatimizning ichki va tashqi siyosatidan, kutubxona -

axborot faoliyatidagi yangiliklardan, muammolardan xabardor bo'lishni, axborot-kutubxona markazining ma'lumot bibliografiya apparatidan, elektron katalogdan, internetdan foydalana olishni va foydalanuvchilarga ham o'rgata olishni talab qiladi.

Malakali foydalanuvchining maxsus bibliografik qidirishni talab qiluvchi murakkab mavzuli so'rog'ini qondirish uchun ma'lumot-bibliografiya bo'limi mavjud bo'lgan yirik kutubxona - axborot muassasasiga murojaat qilish kerak. Foydalanuvchining mavzuli so'rog'ini qondirish bilan birga, foydalanuvchi tayyorgarlik darajasiga mos keluvchi eng yaxshi, dolzarb kitoblarni mutolaaning ketma ketligini, izchilligini aniqlab berish ham muhim vazifadir. Buning uchun *o'qilgan kitob haqida suhbat* o'tkazib borish zarur bo'ladi, uning natijasiga ko'ra foydalanuvchining mutolaa doirasini, qiziqishini kengaytirish, muntazam va sistemali mutolaasini tashkil etish, uni boshqarish rejasi tuzib olinadi. Asosiysi, foydalanuvchining mutolaa faoliyatini to'g'ri va aniq, maqsadga mos holda tashkil etishga imkon yaratiladi. Ba'zi hollarda maqsadi aniq bo'lmagan, shunchaki vaqt o'tkazish maqsadi-dagina kutubxonaga murojaat qiluvchi foydalanuvchilar bor. Ular odatda tayyorgarligi kam, qiziqishi hali noaniq, mustaqil kitob tanlay olmaydigan foydalanuvchilar bo'ladi. Bunda albatta avvalo foydalanuvchi bilan suhbat davomida uning oilaviy sharoitini, mehnat faoliyati turini, o'qiyotgan o'quvchi yoki talaba bo'lsa uning uchun qiziqarli fanlarni, uning bo'sh vaqtida shug'ullanayotgan mashg'ulotlarini, nimaga qiziqishini, avval qanday adabiyotlar o'qiganini, sevimli muallifini, unga yoqqan kitoblarni bilib olishi zarur. Shunga ko'ra xulosa chiqarib, turli mazmundagi bir necha kitoblarni mutolaa uchun taklif qilish zarur. Tavsiya etilgan kitoblar bilan tanishayotgan foydalanuvchini kuzatish suhbat davomida olingan xulosaning yanada aniq va to'liq bo'lishiga imkon beradi. Ochiq kitob fondli kutubxona - axborot muassasasida bu muvaffaqiyatli chiqadi, chunki bu yerdagi shart- sharoit suhbat qurishga va kuzatishga qulaydir.

Foydalanuvchi uchun adabiyot tanlayotganda uning tarbiyaviy ahamiyatiga e'tibor qilish, dolzarb, foydali va qiziqarli kitoblar tanlash zarur. Kitobni faqat tanlash emas, balki bu kitob haqida so'zlab berish, so'zlaganda ham foydalanuvchini qiziqtiradigan qilib so'zlab berish muhim ahamiyatga ega. Bunday paytda eng ko'p tarqalgan va xech qanday ma'noni anglatmaydigan "bu juda qiziq kitob" iborasining o'zi yetarli emas.

Suhbat qisqa, ifodali bo'lishi, hamda asarning g'oyaviy ma'nosini ochib berishi zarur. Kitob haqidagi hikoyada undagi qiziq epizodni o'qib berish, kitob muallifining hayoti va ijodi haqida xikoya qilib berish bilan birga olib borilishi mumkin. Kitobni tavsiya qilishni qiziqarli savollar bilan boshlash foydalanuvchi diqqatini tezda jalb qiladi. Faqat bir janrdagi, bir mavzudagi, bir millatga oid yoki bir xalq adabiyotini, faqat bir turdagi adabiyotnigina o'qiydigan foydalanuvchilar uchrab turadi. Bunday holatda mutaxassis xodimning vazifasi foydalanuvchi diqqatini boshqa mavzularga ham jalb etish bilan mutolaa doirasini kengaytirib borishga yordam berishdan iborat. Bir yozuvchi ijodi bilan qiziquvchilarga shu yozuvchi haqidagi biografik va tanqidiy maqolalarni taklif qilishi, sevgan yozuvchisining zamondoshlari ijodi bilan ham tanishtirib borishi mumkin. Yakka tartibda ish olib borishda bibliografiyaning yordami beqiyos. Mustaqil bilim oluvchi foydalanuvchiga yordam berishning asosiy vositasi bibliografiyaning turli xil kichik shakllaridir. Foydalanuvchi uchun qiziqarli masalalarga kitoblar, elektron kartotekalar va elektron kataloglar, bibliografik ro'yxatlar, tavsiya ko'rsatkichlari muntazam, izchil mutolaani tashkil etishda yordam beradi. Foydalanuvchiga ma'lumot-bibliografiya apparati va bibliografik qo'llanmalarni tanishtirish, katalog va kartotekalardan foydalanish qoidalarini tushuntirish uchun suhbat o'tkazish, ko'rgazmalar tashkil etish, peshlavhalardan foydalanish, bibliografik tavsifdan foydalanishni ko'rsatish, kitoblarning joylashtirilishi, bibliografik nashrlar tizimi haqida so'zlab berish yaxshi natijaga olib keladi.

Axborot-kutubxona markazida olib boriladigan ma'ruzalar, sharhlar, savol-javob kechalari va boshqa tadbirlar mustaqil bilim oluvchi foydalanuvchilar uchun foydalidir.

An'anaviy kutubxonachilik ishida mutaxassislar, o'qituvchilar, oliy o'quv yurtlarining o'qituvchi faollari va shu kabilar yordamida maslahatlar tashkil qilinadi. Maslahatlar turli xil adabiyotlar va ular bilan ishlash, internetdan foydalanish qoidalari, elektron katalogdan ma'lumot qidirish, Veb-sahifalardan foydalanish, elektron pochta ochish va undan foydalanish, kutubxona kataloglari va ular yordamida ma'lumot qidirish, bibliografik qo'llanmalardan foydalanish va foydalanuvchini qiziqtirgan turli xil savollar asosida tashkil etiladi. Maslahatlar alohida tashkil qilingan burchakda, xonada, ba'zan aniq soatlarda tashkilotlarda o'tkaziladi. Bunday maslahatlar abonement yoki boshqa

bo'limlarda suhbat davomida o'tkazilishi mumkin. Odatda kutubxonalarda foydalanuvchi qiziqishi kartotekasi yuritiladi va undan mavzu hamda unga qiziquvchi foydalanuvchilar nomi yozib qo'yilgan kartochkalar o'rin olgan bo'ladi. Agar yangi kitoblar kelib qolsa, mutaxassis xodim ular orasidan aniq foydalanuvchi uchun muhim ahamiyat kasb etadigan kitoblarni tanlab qo'yadi. Kitoblarning nomi yozilgan varaqa foydalanuvchi formulyasi ichiga solib qo'yiladi va bu haqda unga telyefon orqali yoki elektron pochta orqali xabar qilinadi. O'qilgan kitob haqida suhbat so'roq qilish harakterida bo'lmasligi kerak. Mutaxassis xodim va foydalanuvchi kitob haqida suhbatlashayotganda o'z fikrlarini erkin bayon qilishlari kerak. Suhbat do'stona, samimiy tarzda olib borilishi, foydalanuvchining tortinmay, uyalmay o'z fikr-mulohazalarini so'zlab berishiga sharoit yaratishi shart. O'qilgan adabiyot nafaqat kitobning o'qilgan yoki o'qilmaganini bilishga, balki foydalanuvchining uni qanchalik diqqat va e'tibor bilan o'qiganini, esda saqlab qolish darajasini, undagi voqea va hodisalar, masalalar haqida o'z fikrini bayon qila olish darajasini bilishga, bundan keyin unga yana qanday va qaysi mazmundagi adabiyotlarni tavsiya qilishni aniqlab olishga yordam beradi. O'qilgan kitob haqidagi suhbat ko'pincha mutolaa davomida paydo bo'lgan savollar yoki o'z taassuroti bilan o'rtoqlashish niyati tug'ilgan foydalanuvchining tashabbusi sababli bo'ladi. Tashabbus mutaxassis xodim tomonidan bo'lsa, suhbat muvaffaqiyatli chiqadi. Mutaxassis suhbatni erkin munozaraga, fikr almashuvga aylantirishi, foydalanuvchining kitob haqidagi bahosi noto'g'ri bo'lsa, uni odob bilan to'g'rilashi, tushunmaganini tushuntirishi, asarning foydali ekanligiga ishontira olishi kerak.

Foydalanuvchilar qiziqishi va mutolaa mazmuni haqida to'liq tasavvurga ega bo'lish uchun barcha usullarni o'ylab, bir tizimga solib, birga qo'shib olib borgandagina samaradorlikka erishish mumkin. Zero, bir usulning kamchiligi yoki cheklangan imkoniyati boshqa usul yordamida olingan ma'lumotlar bilan qoplanadi yoki to'ldiriladi. Bunday o'zaro bog'liqlik, ko'p hollarda hatto usullarning bir-biriga tobeligi foydalanuvchi qiziqishini o'rganishning tizimi haqida so'z yuritish imkoniyatini beradi. Foydalanuvchilar qiziqishi foydalanuvchiga abonementda va o'quv zalida ommaviy tadbirlar o'tkazilayotganda o'rganiladi. Bu o'rinda asosiy umumiy usullardan *suhbat* va *kuzatish* qo'llaniladi. Ikkinchi tomondan, foydalanuvchilarni o'rganish uchun mutaxassis

xodim foydalanuvchi formulylari, foydalanuvchilar so‘roq daftarlari, mutaxassis xodimning kundaligi, anketalar, kutubxona - axborot muassasasi ishining statistik hisobot ma’lumotlaridan foydalaniladi. Foydalanuvchi qiziqishini o‘rganishning maxsus va umumiy usullari mavjud. Maxsus usullar asosan kutubxonachilik ish xujjatlari asosida faqat kutubxonalar tajribasida qo‘llaniladigan usullar, umumiy usullar esa keng jamoatchilik tashkilotlarida, nashriyotlarida, kitob savdosi tashkilotlarida, gazeta va jurnallar tahririyotlarida, maktablar, oliy o‘quv yurt-larida, kollej va liseylarda turli xil maqsadlar yo‘nalishida o‘tkaziladigan usullar. Ulardan kutubxonalarda ham foydalanuvchilar qiziqishini o‘rganish, kutubxona faoliyatini tahlil qilish, istiqbolini belgilash maqsadida foydalaniladi.

Foydalanuvchi bilan o‘tkazilgan suhbatdan olgan ma’lumotlar foydalanuvchining kutubxonada o‘zini qanday tutayotganligi ochiq kitob fondidan, elektron katalogdan, kompyuterlardan, avtomatlashtirilgan ish joylaridan, internetdan qanday foydalanayotganligi, ko‘rgazmali vositalar va bibliografik ko‘rsatkichlarga murojaat qilishini, kutubxonachi takliflari va maslahatlariga munosabatini kuzatib borish bilan to‘ldiriladi va mustahkamlanadi. Kuzatish suhbatni to‘ldiradi, suhbat natijalarining to‘g‘ri, noto‘g‘riligini aniqlaydi, foydalanuvchi bilan keyingi suhbat yo‘nalishni belgilaydi. Foydalanuvchilarni o‘rganishning yana bir umumiy usuli ularning kitoblar haqidagi *fikr va mulohazalarini tahlil qilishdir*. Foydalanuvchilar o‘qigan kitoblari haqidagi taassurotlarini mutaxassis xodimlar bilan suhbatida, foydalanuvchilar konferensiyalarida o‘rtoqlashishni yoqtiradilar.

Mutaxassis xodimning taklifi bilan, foydalanuvchilar o‘z fikr va mulohazalarini kutubxona albomlari va byulletenlari yoki devoriy gazetalarda bayon qiladilar. Foydalanuvchilarning fikr, mulohazalarini yozib borish, to‘plash bilan, foydalanuvchilarning bilim darajasi, o‘qigan kitobi mazmuniga munosabati, fikr bayon etish shakli, tili va hokazolarga munosabati haqida bilish mumkin. Foydalanuvchilarning ayni bir kitob haqida bildirgan fikr va mulohazalarini taqqoslash bilan har bir foydalanuvchining kitobni baholashga yondoshish darajasini ko‘rish mumkin. Kitoblar haqida fikr-mulohazalar to‘plashdan avval, uning maqsadini, qanday yozish lozimligi foydalanuvchiga tushuntiriladi. Kitob mazmunini qaytarib so‘zlab bermasdan, balki

kitobdan nima olganini, qanday foyda ko'rganini, o'zi uchun, mehnat yoki mutolaa faoliyati uchun nima berganini, unda yoritilgan masalalarga, voqea va hodisalarga munosabatini, ularga bergan bahosini aytib berish kerakligini uqtiradi. Asarning ilmiy, tarixiy, badiiy qimmatini, uslubi va tili haqida fikrini bilish muhim ahamiyatga ega. Foydalanuvchilarning kitoblar haqidagi fikr va mulohazalari faqat kutubxona xodimlarigagina emas, balki nashriyotlar va mualliflar uchun ham katta ahamiyatga ega. Shu sababli kutubxonachi imkon qadar foydalanuvchilarning fikr va mulohazalarini yozib olishga harakat qilishi, imkoni bo'lsa ularni matbuot sahifalarida nashr ettirishi, nashriyotlar manziliga jo'natishi zarur.

Kitob formulyarini yoki kitobni qaytarish muddati varaqalarini tahlil qilish ham samarali usullardan biri. Kutubxona fondining aylanishini, harakatini o'rganish uchun ham, shunga ko'ra qaysi adabiyotlarning foydalanuvchilar tomonidan ko'p so'ralishi va o'qilishini aniqlash uchun ham, foydalanuvchilarning qaysi adabiyotga qiziqishi kattaligini bilish uchun ham bu usul qo'llaniladi. Kitob fondidagi adabiyotlarning o'rtacha o'qilish darajasini aniqlashda mazkur nomdagi kitobning mavjud nusxalaridagi kitob formulyaridagi natijalarni qo'shishni va har bir kitob uchun o'rtacha ko'rsatkichni chiqarishni unutmazlik kerak. Kitob formulyarida yoki kitobni qaytarish muddati varaqasida ko'rsatilgan foydalanuvchi formulyari raqami shu kitob bilan qiziqqan foydalanuvchilarni ham aniqlash imkonini beradi. Bir necha kitoblarga doir ma'lumotlarni qiyoslash ular qay darajada o'qimishli va qiziqarli ekanligini belgilash imkoniyatini beradi. Kam o'qilgan adabiyotlar tahlili va foydalanuvchi bilan suhbat sabablarni aniqlashda yordam beradi.

Kutubxonada o'tkazilayotgan ommaviy tadbirlar samaradorligini o'rganishda ham kitob formulyarini tahlil qilish muhim vosita hisoblanadi. Agar foydalanuvchilar konferensiyasi o'tkaziladigan bo'lsa, unga tayyorgarlik davomida, muhokama davomida va undan keyingi davrda tanlangan adabiyotning qanchalik o'qilganini aniqlash mumkin. Shuning uchun kutubxona xodimidan kitob formulyarini o'z vaqtida to'la, aniq va bexato to'ldirib borish talab etiladi. Kitob formulyaridagi yozuv yoki kitobni qaytarish muddati varaqasidagi qaydlar kitob aylanishi, fondning harakatini belgilashda, eng o'qimishli va

zarur kitobni aniqlashda, o'qilmagan adabiyotlarni tahlil qilishda, kelgusida kitob fondini aniq va maqsadli to'ldirib borishda ahamiyatga ega.

12.3 Foydalanuvchi formulyarini tahlil qilish.

Bu eng ko'p qo'llaniladigan maxsus usul bo'lib, yakka foydalanuvchining mutolaa mazmuni, mutolaa xarakteri haqida to'la va aniq ma'lumot beruvchi xujjatdir.

Foydalanuvchi formulyari 3 qismdan iborat bo'lib, uning 1-qismidagi foydalanuvchi shaxsi haqida ma'lumotlar foydalanuvchilik guruhini aniqlashga, turli xil xususiyatlariga ko'ra foydalanuvchi haqida ma'lumot olishga xizmat qiladi. 2-qismi asosiy qism bo'lib, unda foydalanuvchi tomonidan olib o'qilgan adabiyotlarning muallifi, sarlavhasi, shunga ko'ra uning mazmuni, yo'nalishi haqida ma'lumot olish imkonini beradi. Mutolaaning izchilligi, ketma ketligi, o'qilgan adabiyotlar orasidagi tanaffus ham shundan bilinadi. Foydalanuvchi formulyari yakka tartibda yoki guruhli tartibda o'rganiladi. Foydalanuvchilar guruhini aniqlashda 1-qismdagi ma'lumotlar yordam beradi. Foydalanuvchilarni guruhga ajratishda ulardagi umumiylikni tashkil etadigan jihatlar e'tiborga olinadi. Foydalanuvchi qiziqishi, mutolaa mazmuni formulyar asosida o'rganilayotganda ma'lum bir davr chegaralanadi. Odatda har olti oyda bir marta, yoki bir yilda bir marta 25-50 ta foydalanuvchilar formulyari tahlil qilinadi. Buning uchun maxsus jadval tuzib olinadi, jadvalda barcha bilim sohalari, yo'nalishlar, mavzular alohida qatorlarda ko'rsatiladi, bosh qatorda foydalanuvchilar familiyasi, ismi, foydalanuvchi formulyarining raqami beriladi, barcha raqamlar qo'shib, absolyut raqamlarda va foizlarda umumlashtiriladi va o'rtacha o'qilish miqdori chiqariladi, eng ko'p va eng kam o'qilgan bilim sohasi, muallifi, yo'nalish, mavzu va ularning sabablari aniqlanadi, umumlashtirilgan raqamlar asosida tahlil matni tuziladi. Xulosada, shu foydalanuvchi uchun mutolaa rejasi, kelgusida shu guruh bilan ish olib borish rejasi beriladi. Bunda foydalanuvchilar mutolaa mazmuni, xulosasi va qiziqishlariga ko'ra kitob fondini to'ldirish, ular bilan yakka va guruhli ish olib borish, kutubxona faoliyatini takomillashtirish, adabiyotlar bilan ishlash yo'nalishlari belgilab olinadi, nashriyotlar va kitob savdosi tashkilotlari, ta'lim tarbiya muassasalari uchun ham tegishli xulosalar beriladi va u foydalanuvchilarga mutolaa tavsiyanomasini tuzishda ham asosiy manba hisoblanadi.

Anketa usuli foydalanuvchilar, umuman aholi qiziqishini, biror bir mavzuga munosabatini o'rganishning umumiy usullaridan eng ko'p qo'llaniladiganidir. Anketa-bir yo'nalishdagi, bir maqsadga qaratilgan va uning mazmunini ochib berishga xizmat qiladigan savollar guruhi aks etgan varaqa. Anketa uchun tuzilgan savol aniq, lo'nda bo'lishi, foydalanuvchi qiziqishini uning kitobga, kutubxonaga munosabatini, shaxsiy kutubxonasi bor-yo'qligini, gazeta va jurnallar mutolaasini, kutubxona ishiga doir istaklarini qamrab oluvchi savollardan iborat bo'lishi, savol haddan tashqari ko'p bo'lmasligi, iloji boricha javob variantlari taklif etilishi zarur.

Anketa savollari o'rganish maqsadiga qarab tuziladi, ularning soni va anketaning xajmi shunga bog'liq.

Anketa uch qismdan iborat bo'ladi: 1-qism kirish bo'lib, unda anketaning maqsadi, savollar tartibi, unga javob berish qoidasi, uning kim tomonidan va nima uchun o'tkazilayotgani foydalanuvchiga murojaat tarzida tushuntiriladi. Anketaning oshkor etilmasligi eslatib o'tiladi. 2-qism savollar va javoblar qismidan iborat bo'lib, savollar uch xil bo'lishi kuzatiladi. 1-guruh savollar ochiq savollar, bunda javob o'rni ochiq qoldiriladi, javobni foydalanuvchidan to'la, aniq berish talab etiladi. 2-savollar guruhi yopiq bo'lib, unda javob variantlari berilib, foydalanuvchidan o'ziga ma'qul va fikriga mos javobni belgilash talab qilinadi. 3-savollar guruhi faqat "ha" yoki "yo'q" degan javobni talab etuvchi savollar. Masalan, "Shaxsiy kutubxonangiz bormi?" degan savolga foydalanuvchi ha yoki yo'q deb javob berishi mumkin. "Siz qaysi muallif asarlarini sevib o'qiysiz?" degan savolga foydalanuvchidan o'z fikrini berish talab etiladi. Anketaning 3-qismi foydalanuvchi haqidagi ma'lumotlardan iborat. Unda foydalanuvchi o'zi haqida shaxsiy ma'lumotlarni beradi. Yoshi, kasbi, mutaxassisligi, jinsi, familiyasi, ismi, otasining ismi. Ba'zi hollarda anketa maqsadidan kelib chiqib anonim anketalar ham tarqatiladi. Bunda albatta javob beruvchining ism familiyalari ko'rsatilmaydi va foydalanuvchi erkin, barcha so'ralgan ma'lumotlarni berishi mumkin. Ba'zi foydalanuvchilar uchun ismi va familiyasini so'rash og'ir tuyuladi va ularning erkin va to'g'ri javob berishiga xalaqit beradi. Tarqatilgan anketalar yig'ib olingach, maxsus komissiya a'zolari javoblarni tahlil qilib, umumlashtirib, ular asosida xulosalar chiqarib

oladilar. Umumlashma xulosaning natijasi keyingi faoliyatda yordam beradi. Anketalar kattagina ilmiy tadqiqot ishlarida ham qoʻllaniladi.

Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutubxonasida foydalanuvchilarga turli savollar bilan anketa usulida murojaat qilinganda olingan javoblardan namunalar keltiramiz.

1. Foydalanuvchilarning maʼlumoti haqida bergan javoblari natijasiga koʻra ular quyidagicha guruhlashtirilgan (2019 yil natijalari):

28 % oliy maʼlumotli foydalanuvchilar

31 % oʻrta maʼlumotli

41% abituriyentlar

Foydalanuvchilarning oʻzlarini qaysi guruhga kiritishiga koʻra:
oʻquvchilar

talabalar
ilmiy xodimlar
xizmatchilar
nafaqaxoʻrlar


Kutubxonalar asosan varaqa yoki bukletlar koʻrinishida tarqatadi. Gazeta va jurnallar sahifasidagi anketalar ommaviylik xususiyatiga ega boʻladi. Uni butun bir xalq vakillari mutolaasi va javob berishi mumkin. Kutubxonalarda koʻproq biror bir guruh yoki bir necha guruh tanlab olinadi.

Mutolaa tavsifi (xarakteristkasi)ni tuzish. Mutolaa tavsifi maxsus usul boʻlib, foydalanuvchi formulyari asosida tuziladi. Mutolaa tavsifida foydalanuvchi haqida umumiy maʼlumotlar, oʻqilgan kitoblarning umumiy miqdori va xarakteri, eng koʻp oʻqigan mavzulari va mualliflari ajratib koʻrsatiladi. Mutolaa tavsifida foydalanuvchining mutolaa xususiyati muntazamliligiga, ketma ketligiga, mavzularning izchilligiga, har tomonlamaligiga eʼtiborni qaratish lozim. Shunga koʻra foydalanuvchi haqida xulosada toʻliq va tahliliy fikr berilishi, foydalanuvchi bilan kelgusi ish rejasi koʻrsatilishi zarur. Bu mutolaa tavsifi foydalanuvchining keyingi faoliyatini maqsadli tashkil etishga, foydalanuvchining muntazam mutolaasini, mustaqil bilim olishini, mutolaa jarayonini, ijodiy jarayonni tashkil etishga yordam beradi. Buning uchun alohida eʼtiborni talab

etadigan foydalanuvchilar tanlab olinadi. Ba'zi kutubxonalarda analitik (tahliliy) foydalanuvchi formulyari ayrim foydalanuvchilar uchun yuritiladi. Bu murakkab, ko'p vaqtni talab etadigan ish. Formulyarda har bir sahifaga alohida bilim sohalari, mavzular olinadi, foydalanuvchining o'qib borayotgan adabiyotlari unga alohida yozib boriladi. Ma'lum bir muddatda ular umumlashtirilib, solishtirilib boriladi.

Faqatgina foydalanuvchilar formulalarini tahlil qilishdan olingan xulosa foydalanuvchi qiziqishini to'la ifodalay olmaydi. Foydalanuvchi kutubxonada yo'q kitobni so'ragan bo'lishi, o'rniga boshqa kitobni olgan bo'lishi, kitobni tasodifan tanlagan bo'lishi, o'rtog'i yoki boshqa bir foydalanuvchi maslahati bilan olgan kitobni o'qidimi, yo'qmi, uning mazmuni yoqqan-yoqmaganligini aniqlash qiyin. Ba'zida foydalanuvchilar boshqa kutubxonadan ham, tanish bilishlaridan ham kitoblarni olib o'qiydilar, Bular esa aynan shu formulyarda aks etmaydi. Mutolaa tavsifi haqiqiy ahvolga mos kelishi va to'la hamda aniq bo'lishi uchun kuzatish, suhbat usuli yordamidan foydalanish zarur. Bunda barcha olingan ma'lumotlarni taqqoslash imkoni paydo bo'ladi. Axborot-kutubxona markazlarida statistik usul ma'lumotlarini tahlil qilishning maxsus usuli bo'lib, asosan kutubxona - axborot muassasalarida qo'llaniladi.

Axborot-kutubxona markazlarining har bir bo'limida kundalik tutiladi. Kundalikdagi ma'lumotlar asosida kunlik, oylik, choraklik, yarim yillik, bir yillik hisobotlar tuziladi. Unda yangi foydalanuvchilar haqidagi ma'lumotlar, ularning yoshi, kasbi, mutaxassisligi, ma'lumoti, ijtimoy kelib chiqishi, bir kunda berilgan adabiyotlar, uning mavzusi yozib boriladi. Kun oxirida ular umumlashtiriladi, har oyning oxirida esa oylik hisobot qilinib, unda kam va ko'p o'qilgan adabiyotlar, rad javoblar, ularning sabablari, foydalanuvchilar so'roqlarining xarakteri, dolzarb mavzularga munosabat va boshqa yo'nalishlar aniqlanadi. Kundalikdagi raqamlar asosida tavsiya etilishi, targ'ib qilinishi zarur adabiyotlar ajratib olinadi, qaysi dolzarb mavzularga foydalanuvchilar e'tiborini qaratish lozimligi aniqlanadi. Masalan, milliy qadriyatlar, vatanparvarlik, o'lkaga mehr-muhabbat, mehnatsevarlik, ma'naviy dunyoqarashni boyitishga oid adabiyotlarning o'qilish darajasi va unga oid tadbirlar rejasini belgilab olish kerak bo'lishi mumkin.



Bunda foydalanuvchilarga tarqatiladigan anketa savollari katta yordam beradi.

O‘zbekiston Milliy kutubxonasida o‘tkazilgan anketa javoblari natijasiga ko‘ra, foydalanuvchilar uchun eng zarur bo‘lgan axborot mahsulotlari guruhlashtirib olindi. Bibliografik axborot mahsulotlariga talab 3% ni tashkil etsa, yangi adabiyotlar, 30 % ni, keyingi o‘rinda tor mavzuga oid talablar 18 % ni, faktografik axborot (7,8 % ni) tashkil etgan.

XIII-Bob Foydalanuvchilar bilan o‘tkaziladigan ommaviy ishlar, ularning maqsadi, vazifalari, turlari, xususiyatlari.

Kitoblar yaratilgandan buyon insoniyatning aql-zakovatining, bilimining, dunyoqarashining kamol topishiga asos yaratdi, kitob yaratilgan muhit va zamanni o‘zida aks ettirib, voqea va hodisalardan xabardor etib kelgan. Kishilarning bilim doirasini kengaytirib, uning qalbiga nur va ziyo bag‘ishlab, insoniy fazilatlarini tarbiyalab borishga katta ijobiy ta’sir etgan. Shuning uchun ham kitoblar doimo ardoqlanib, e’zozlanib avloddan - avlodga, zamonlardan-zamonlarga o‘tib saqlanib kelingan. Davrlar o‘tib davlatlar, xalqlar yo‘q bo‘lib ketavergan, ammo kitoblar yashab qolavergan.

Kitoblarning saqlanib qolinishida kutubxonalar muhim rol o‘ynaydi. Kitoblarni yig‘ish, to‘plash, tartibga solish, ularni foydalanuvchi uchun saqlash kutubxonalarning katta ijtimoiy vazifasidir. Kutubxonalar mavjud ekan, qadimiy tariximiz, avlod-ajdodlarimiz, ularning boy ma’naviy va madaniy merosi, ilmiy va badiiy asarlari bilan tanishamiz, ularni o‘qib o‘rganamiz. Agar kutubxonalar bo‘lmaganda edi, deb yozgan edi

kutubxonashunos olimi L.B.Xavkina, nashr etilgan kitoblar hamma tomonga tarqalib ketib, kometa singari vaqt ummoniga singib ketardi va ulardan faqatgina bibliografik ma'lumotlar qolgan bo'lardi, kitoblar esa qabrga qo'yilgan toshga o'xshab qolardi. Kutubxonalar o'zlarida mavjud kitoblar yordamida jamiyat faoliyatida, taraqqiyotida, ma'naviy va madaniy hayotida, barkamol inson tarbiyasida faol qatnashadi. Kutubxona xodimlari adabiyotlarning mazmuniga ko'ra, har bir foydalanuvchining maqsadi va qiziqishiga muvofiq ommaviy ishning shakl va uslublarini tanlaydi, uni tayyorlaydi va olib boradi. Shu bilan birga kutubxonalar jamiyatda juda katta tarbiyaviy faoliyatni, pedagogik ishni olib boradi. Adabiyotlarni targ'ib qilish bilan birga targ'ibot ishlarini, ommaviy ishlarni boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda olib borish yo'li bilan atrofdagi tashkilotlar bilan hamkorlik faoliyatini tashkil etadi. Bu bilan ma'nau yuksak, barkamol avlodni tarbiyalab, voyaga etkazish ishida faol qatnashadi. Komil insonni voyaga yetkazmasdan turib kelajak haqida gapirib bo'lmaydi, kelajak avlodni tarbiyalamasdan turib istiqloq haqida, oldimizga qo'ygan maqsadga erishish haqida gap ham bo'lishi mumkin emas. Kutubxona fondini tashkil etishdan tortib foydalanuvchiga xizmat ko'rsatishgacha bo'lgan jarayonlar ana shu vazifalarni bajarishga qaratilishi zarur.

Kutubxonada mavjud adabiyotlar haqida foydalanuvchilarga o'z vaqtida axborot berib borish, ularni targ'ib qilish va mutolaaga jalb etish, qiziqtirish ishlarini yakka, guruhli va ommaviy ishlarni olib borish kutubxonalar faoliyatining asosiy qismidir. Adabiyotlarni targ'ib etishning maqsadli yo'nalishlaridan biri – foydalanuvchilarga qiziqarli bo'lgan adabiyotlar bilan talablarini qondirishdan iborat. Tadbirlar yordamida foydalanuvchilarni qiziqtirgan masala yoki muammoga oid, yozuvchi yoki shoirning hayoti va ijodiga oid adabiyotlar haqida ma'lumot beriladi. Bu asardan bexabar foydalanuvchida yangi qiziqishning paydo bo'lishiga sababchi bo'ladi. Natijada foydalanuvchida adabiyotlardan xabardorlik darajasi oshadi, bilim saviyasi kengayadi, foydalanuvchinning qiziqishini biror bir yo'nalishda rivojlantirib borishga yordam beriladi. Bu bilan ommaviy ishlarning axborot berish vazifasi amalga oshadi. Bundan tashqari ommaviy ishlarning yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, kutubxona va kitobni aholi o'rtasida targ'ib qilishga olib keladi, natijada kutubxonaga yangi foydalanuvchilar jalb etiladi, kutubxona va foydalanuvchi hamkorligi paydo bo'ladi, foydalanuvchi

qatnovi, adabiyot o‘qilishi darajasi oshadi. Tadbirlarni tayyorlash va o‘tkazish jarayoniga foydalanuvchi jalb etilsa, foydalanuvchilarning tashabbuskorligi oshib boradi, jamoat ishida faol ishtirok etishga bo‘lgan qiziqish paydo bo‘ladi. Bitta yoki bir necha asarni bir yo‘la ko‘pgina foydalanuvchilar orasida targ‘ib qilish amalga oshadi, adabiyotning ta‘sir doirasi kengayadi. Tadbir ishtirokchilari orqali shu asar haqida bevosita fikr paydo bo‘ladi.

Yuqorida sanab o‘tilgan vazifalardan kelib chiqqan holda ommaviy ishlarning xususiyatlari belgilab olinadi. Bular quyidagilardan iborat:

1. Adabiyotlar haqida to‘la axborot va bilim berish dolzarb vazifadir. Ma’lumki, jamiyat ijtimoiy-siyosiy, madaniy, ma’rifiy, ma’naviy va iqtisodiy hayotidagi barcha voqea va hodisalar, masalalar, muammolar haqidagi yangiliklar asosida axborot yotadi. Ana shu axborotni ommaga yetkazish kutubxonalarining asosiy vazifasi. Axborotni to‘plash, ommaga yetkazish va axborot bilan ta’minlash talab va ehtiyojlarni qondirishgina emas, balki jamiyat manfaatlarini ifodalashga, uni targ‘ib qilishga xizmat qiladi.

2. Targ‘ib etish xususiyati. Targ‘ibot so‘zi lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, “propaganda” shaklida rus tiliga o‘zlashgan va tarqatmoq –“rasprostranyat” ma’nosini bildiradi. Axborotni foydalanuvchi qiziqishini, talab va ehtiyojini hisobga olgan holda to‘plash, ishlash, umumlashtirish, foydalanuvchiga yetkazish, qabul kabi jarayonlar axborot vositasida boshqarish jarayoni bilan bog‘liq. Matbuotda, aynan bosma asarda berilgan axborot ommani boshqarish, uni aniq maqsad sari yo‘naltirishga yordam beradi. Bosma nashrlar orqali jamiyat manfaati, uning mafkurasi, maqsadi ifodalanadi va himoya qilinadi. Jamiyat mafkurasini omma ongiga singdirish, uning mehnat faoliyatini jamiyat manfaatlari va maqsadi sari yo‘naltirishda kutubxonalar va kutubxonachilar muhim o‘rin tutadi. Har bir matbuotda berilayotgan matn mazmunida targ‘ibot yotadi. Shuning uchun ham matbuot, radio, televideniye ommaviy axborot va targ‘ibot vositalari sifatida qadrlanadi.

3. Foydalanuvchida yangi qiziqishlarning shakllanishiga yordam berish. Bunda quyidagilar nazarda tutiladi qisqa vaqt ichida foydalanuvchi qiziqishiga ta‘sir etish, yangi foydalanuvchilarni jalb etish, foydalanuvchilarni ma’lum bir yo‘nalishda tarbiyalash.

4. Kutubxona va kitob reklamasini olib borish.

5. Foydalanuvchilarning tashabbuskorligini, faolligini oshirish. Bunda tashviqot xususiyati muhimdir. Tashviqot –“agitasiya” so‘zi ham lotin tilidan o‘zlashgan bo‘lib, biror narsaga ishontirish ma’nosini anglatadi. Jamiyatning maqsad va vazifalarini, dasturlari, yo‘l-yo‘riqlari, hujjatlari va shiorlarini turli shakl va usullar bilan har bir foydalanuvchiga, ommaga yetkazish, uning ongiga ta’sir etish, ishontirish va aniq maqsad sari yo‘naltirish ham kutubxonalarning eng asosiy vazifasi bo‘lib, ular quyidagilardan iboratdir:

- 1.Foydalanuvchinning umumli dam olishini tashkil etish.
- 2.Foydalanuvchilarda ijodiy ko‘nikmani, fikrlash va tafakkur hissini, muloqotga kirishish malakasini tarbiyalash.
- 3.Foydalanuvchida nutq madaniyatini tarbiyalash.
- 4.Jamoatchilik oldida o‘z fikr va tushunchalarini izhor qila olish ko‘nikmasini shakllantirish.
5. Kitob-kutubxona-kutubxonachi-foydalanuvchi munosabatini qaror toptirish.
6. Kutubxonaning ommaviy axborot vositalari, jamoatchilik bilan munosabatini shakllantirish.
7. Kutubxona faoliyatiga ko‘ngillilarni, mahalla va huquqiy organlarni jalb etish.
8. Kutubxonada o‘tkazilayotgan ommaviy tadbirlar uchun chetdan mablag‘ jalb etishni tashkil qilish.

Ko‘pgina ilg‘or kutubxonalar faoliyatida o‘smirlar va yoshlar, qariyalar, uy bekalari o‘rtasida o‘tkazilayotgan ana shunday tadbirlarda mahalla qo‘mitalari, “Yoshlar ittifoqi” , “Nuroniylar” jamg‘armalari, firmalar va boshqa tashkilotlar, shaxslar o‘zlarining imkon qadar ajratayotgan mablag‘lari bilan ishtirok etadilar. Avvalgi ming yillikdagi urushlar, silsilalar asridan mafkura asriga, ya’ni yadro poligonlaridan mafkura poligonlari asriga o‘tdik. Asosiy vazifamiz milliy g‘oya va milliy mafkuramizni mustahkamlashdan iborat.

Insoniyat tarixi g‘oyalar, kurashlar tarixidan iborat. Har qanday millat va jamiyat o‘z milliy g‘oyasiga, milliy mafkurasiga ega bo‘lgandagina jahon miqyosida o‘z o‘rniga, kuch va qudratiga ega bo‘ladi. Ayniqsa, yangi taraqqiyot yo‘liga chiqib olgan O‘zbekiston uchun bu juda muhimdir. Xalqimizning asl maqsadi- ozod va obod Vatan,

erkin va farovon hayot qurishdan iborat. Buning uchun muhim bo'lgan milliy g'oyani va mafkurani shakllantirish, uning hayotimizdagi o'rnini belgilash, uning ilmiy –nazariy va amaliy asoslarini yaratish, mafkuraviy tarbiya yo'nalishlarini ishlab chiqish sohasidagi yangicha qarashlar Prezidentimiz SH. M. Mirziyoyev asarlarida ilmiy- amaliy jihatdan asoslab berilmoqda. Bu masalalarni hal etuvchi komil insonni voyaga etkazishda muhim bo'lgan barcha tarbiyaviy muassasalar, inson tarbiyasi bilan bog'liq shaxslar, tashkilotlar, oila, mahalla alohida o'rin tutadi. Ana shu muassasalar orasida inson tarbiyasida asosiy vosita, bilim manbai- kitob bilan bevosita ish olib boruvchi kutubxonalar, axborot-kutubxona markazlari juda katta o'rin tutadi. Chunki, insoniyat taraqqiyotidan, jamiyatlar rivoji tarixidan shu narsa ma'lumki, har bir davrda kitob muqaddas ma'naviy boylik sifatida e'zozlangan. Zero, kitobsiz inson kamolini tasavvur etib bo'lmaydi. Kitobni o'z foydalanuvchiiga yetkazib berish, foydalanuvchi bilan ishlash, unga eng zarur kitobni topib berish, adabiyotlar haqida o'z vaqtida ma'lumot berib borish juda mas'uliyatli va nozik soha.

Kutubxonada ommaviy ishlarning usullari ko'proq foydalanuvchilar bilan olib borilayotgan yakka tartibdagi ishga bog'liq. Foydalanuvchi bilan yakka tartibda ishlash jarayonida foydalanuvchining o'ziga xos xususiyatlari o'rganiladi, uning shaxsiy qiziqishi, bilim saviyasi, dunyoqarashi, mutolaa maqsadi, mehnat faoliyati, oilaviy muhiti, mutolaa uchun ajratgan vaqti, uning qiziqishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, kitobning ta'siri, mutolaa madaniyati darajasi, kitobga, kutubxonaga munosabati o'rganiladi va shunga ko'ra foydalanuvchi bilan bundan keyingi ish usullari tanlab olinadi. Har qanday ommaviy ishni tashkil etish jarayonida tadbir mavzusi bo'yicha har bir foydalanuvchi bilan suhbat o'tkaziladi, tadbirda ishtirok etishi mumkin bo'lgan foydalanuvchi aniqlanadi, ularga maslahatlar uyushtiriladi, so'zga chiqishga tayyorlaydi, ularning bildirishi mumkin bo'lgan fikrlarini tartibga soladi, ravon va chiroyli so'zlashga o'rgatadi. Masalan, kitob ko'rgazmasi yonida yakka va guruhli tartibda suhbat o'tkazadi, har bir asar yoki axborot materiali haqida ma'lumot beriladi, uning mazmunini tushunib olishga yordam beradi.

Axborotni berish usuliga ko'ra ommaviy ishlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

Ko'rgazmali- kitob ko'rgazmalari, kutubxona plakatlari, al'bomlar va h. k.

Og‘zaki - ovozli mutolaalar, bibliografik obzorlar, suhbatlar.

Majmuaviy tadbirlar – foydalanuvchilar konferensiyasi, adabiy kechalari, kitob taqdimoti, foydalanuvchi benefisi, og‘zaki jurnal, adabiy esdaliklar, savol-javob kechalari, kitob taqdimotlari, marafonlari.

Adabiyotlarni targ‘ib qilishning ko‘rgazmali usullari kitobni bevosita ko‘rsatish yo‘li bilan tavsiya etish, mutolaa madaniyatini tarbiyalash, kutubxona fondining mazmunini ochib berish, adabiyotlar haqida axborot berish, foydalanuvchi didiga ta‘sir etish bilan mutolaa ko‘nikmasini tarbiyalash vazifasini bajaradi. U foydalanuvchida adabiyotni mustaqil tanlash qobiliyatini shakllantiradi, bu jarayonda kutubxonachining rahbarlik rolini ta‘minlaydi. Foydalanuvchiga kitob mazmuni va xarakteri haqida ikki xil yo‘l bilan tasavvur beriladi. Biri – adabiyotni bevosita ko‘rsatish, bunda kitob, gazeta yoki jurnalning o‘zi ko‘rsatiladi va foydalanuvchining ko‘rish organlariga ta‘sir qiladi. Bu yo‘nalishda kitob ko‘rgazmalari, jurnallar ko‘rgazmalari tashkil etiladi. Ikkinchi yo‘nalish – kitob mazmunini, xarakterini tasviriy san‘at vositalari yordamida ochib berish. Bu yo‘nalishda kutubxona plakatlari, al‘bomlar tashkil etiladi. Ko‘rgazmali targ‘ibot usullari ommaviy ishlarning eng muhim shakli bo‘lib, u muntazamlilik, ko‘rgazmalilik, tasviriy yoritib berish xarakteriga ega bo‘ladi va shu xususiyatlari bilan boshqa ommaviy tadbirlardan farq qiladi. Ko‘rgazmali usullar eng ta‘sirli va samarali usul bo‘lib, foydalanuvchiga kitob bilan bevosita tanishish, mustaqil fikr yuritish imkonini yaratadi.

Kitob ko‘rgazmalari mamlakatimiz kutubxonalarini faoliyatiga XX asrning o‘rtalarida kirib keldi. Kitob ko‘rgazmalari tashkil etilayotgan zamon va joning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda bir qator vazifalarni bajaradi. Har bir davrning muhim va dolzarb masalalari, muammolari, voqea va hodisalari, ijtimoiy va siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma‘naviy vazifalar ularning mazmunida aks etadi. Ana shu vazifalarni amalga oshirishda faol qatnashadi. Kitob ko‘rgazmalarini tayyorlash va shakllantirish ishlari davrdan davrga takomillashib keldi. Har bir kutubxona uni o‘z imkoniyat doirasida u yoki bu tarzda o‘zgartirib tashkil qilishi mumkin. Kitob ko‘rgazmasining birinchi xususiyati shundaki, kitobning o‘zi bevosita ko‘rsatiladi. Bunda foydalanuvchi asarining o‘zini qo‘liga olib ko‘rishi, varaqlashi, undagi barcha kitob elementlari bilan tanishib chiqishi,

soʻz boshi, kirish soʻzi, mundarijasini koʻrib fikrlashi, hatto ayrim sahifalarini oʻqib koʻrishi ham mumkin. Bu esa foydalanuvchining kitob haqidagi tasavvurlarini boyitadi, koʻproq maʼlumotga ega boʻladi. Foydalanuvchi mustaqil tarzda shu kitobni mutolaa qilish kerakligi yoki kerak emasligi haqida hukm chiqaradi. Bu dastlabki tanishish foydalanuvchiga katta taʼsir qiladi. Koʻrgazmaning ikkinchi bir xususiyati shuki, vaqt chegaralangan boʻladi. Har qanday tadbir kabi kitob koʻrgazmasi ham foydalanuvchida maʼlum bir mavzuga, masalaga qiziqish uygʻotadi, uning diqqatini jalb qiladi. Tajribalarga koʻra foydalanuvchining diqqatini koʻproq yangi, dolzarb muammolar, masala yoki voqea-hodisalar jalb etadi, shu sababli koʻrgazmalar muntazam va tez-tez tashkil etiladi. Koʻrgazmaning harakatdagi vaqti mavzuning mazmuniga, dolzarbligiga, xarakteriga, unga qoʻyilgan materiallarga bogʻliq. Uyga kitob berish boʻlimida adabiyotlar 15-20 kunga beriladi va koʻrgazma 15-20 kunga moʻljallab tashkil etiladi. Mazmuniga koʻra universal va mavzuli, harakatdagi vaqtiga koʻra uzoq muddatli, vaqtinchalik va doimiy kitob koʻrgazmasi, koʻrgazmaga qoʻyilgan adabiyotlar xarakteriga koʻra kitob, jurnal, aralash, notalar koʻrgazmalari mavjud. Tashkil etilgan joyiga koʻra kutubxona, koʻchma kitob koʻrgazmalari boʻladi. Koʻrgazmalar tashkil etish maqsadiga, adabiyotlar mazmuniga koʻra axborot koʻrgazmasi, tavsiyaviy mavzuli koʻrgazmalarga ajratiladi. Yangi adabiyotlar koʻrgazmasi – axborot harakterida, mavzuli koʻrgazmalar tavsiyaviy koʻrgazmalardir.

Yangi adabiyotlar koʻrgazmasi u yoki bu davrda kutubxona fondiga kelib tushgan yangi adabiyotlar haqida axborot berish maqsadida tashkil etiladi. Axborot berish maqsadida bibliografik sharhlar, mavzuli kartotekalar, axborot byulletenlari, roʻyxatlar ham tuziladi, ammo ular orasida kitob koʻrgazmalari alohida ahamiyatga ega. Foydalanuvchi koʻrgazmadagi adabiyotlarni oʻzi bevosita qoʻliga olib koʻradi, uni olib mutolaa kerakligi haqida hukm chiqaradi va mutolaa uchun navbatga turadi. Yangi adabiyotlar koʻrgazmasi hamma turdagi kutubxonalarda doimiy ravishda tashkil etiladi. Yirik kutubxonalar nafaqat bizning mamlakatimizda, balki xorijiy mamlakatlarda hamda hamdoʻstlik mamlakatlarida ham nashr etilayotgan adabiyotlar haqida axborot beradi. Bu esa axborotning qimmatini oshiradi. Koʻrgazmaning samarasi uning toʻgʻri tashkil etilganiga bogʻliq. Koʻrgazmani tashkil etishda kutubxonaning tipiga, qayerda va qaysi

joyda tashkil etilishiga, foydalanuvchilar guruhining xususiyatlariga, adabiyotlar mazmuniga, maqsadiga, nashrlarning qaysi davrda nashr etilganiga ham e'tiborni qaratishlari kerak. Yirik kutubxonalar ko'rgazmalarni bo'limlarda, o'quv zallarida tashkil etadilar. Kichik kutubxonalarda uyga kitob berish bo'limida qisqa muddatga tashkil etiladi. Ammo mutaxassislar uchun tor mavzuda yoki bo'lim yo'nalishi bo'yicha mavzu tanlab olinadi. Kitobga bo'lgan talablar yozib borilishi va agar imkoni bo'lsa oshiqcha nushadagi adabiyotlar foydalanishga berilishi mumkin. Bunda faol foydalanuvchilar uchun alohida axborot kunlari, soatlari tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. Yirik kutubxonalarda yoki maxsus o'quv yurtlari kutubxonalarida muntazam ravishda jurnallar, davomli va seriyali nashrlar, kartalar, notali nashrlar, ekspres-axborotlarning ham ko'rgazmalari tashkil etiladi. Agar kutubxonada san'at bo'limi mavjud bo'lsa, tasviriy san'at asarlarining ko'rgazmasini rassomlar uyushmalari bilan hamkorlikda tashkil etish mumkin. Yangi adabiyotlar ko'rgazmasini tashkil etish ishi adabiyotlarni tanlash bilan boshlanadi. Adabiyotlarni tanlashda ularning dolzarbligiga, xarakteriga, qaysi tilda yozilganiga, mazmuniga, birinchi yoki qayta nashr etilganiga e'tibor berish zarur. Tanlangan adabiyotlar bilan tanishib va tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Chunki adabiyotlarni joylashtirish rejasi shunga ko'ra belgilanadi. Bunda adabiyotlarni joylashtirishning xronologik, mantiqiy, mavzuli yo'nalishi tanlab olinadi. Mavzuli tartib tanlansa, avval mavzuga oid davlat hujjatlari, rasmiy materiallar, meyoriy hujjatlar, so'ngra boshqa bilim sohasiga oid adabiyotlar, oxirida badiiy adabiyotlar joylashtiriladi. Keyingi bosqich ko'rgazmani shakllantirishdan iborat. Axborot beruvchi bunday ko'rgazmalar asosan "Yangi adabiyotlar", "Yangiliklar", "Diqqat yangilik" kabi nomi ostida tashkil etiladi. Ko'rgazmaning nomini bezash, unga rang tanlash, yozuvlarning katta kichigini belgilash muhim. Bunday ko'rgazmaning nomi qora rangda berilmasligi, foydalanuvchilar foydalanishi uchun qulay va yorug' joyga qo'yilishi zarur.

Ko'rgazmaning samarasi u bilan ishlashni, ko'rgazma yonida yakka guruhli suhbatlar, sharxlar olib borishni, ko'rgazmaga qo'yilmagan boshqa adabiyotlarni, dolzarb muammoga oid maqolalar aks etgan kartoteka tashkil etishni, axborot byulletenlari yoki ro'yxatlarni ilova qilishni talab etadi. Ko'rgazmadan foydalanayotgan foydalanuvchilar

va uni olib mutolaa qiluvchilar uchun navbatga yozish hisobga olib boriladi. Ko'rgazmaning so'nggi rasmiylashtirish bosqichida ko'rgazmaning mavzusi, unga qo'yilgan adabiyotlar soni, harakatdagi vaqti, foydalanuvchilar haqida raqamli ma'lumot, ularning munosabati, foydalanuvchilarga ta'siri, samarasi tahlil etilib yozib qo'yiladi.

Mavzuli ko'rgazmalarning vazifasi u yoki bu mavzu bo'yicha muhim adabiyotlarni ko'rsatish, foydalanuvchini qiziqtirgan muammo bo'yicha adabiyot tanlashda, shu mavzuni chuqur va sistemali o'rganishga yordam berish, adabiyotlar haqida axborot berish va targ'ib qilishdan iborat. Mavzuli ko'rgazmalar kutubxona fondini ochib berishda, kutubxonachiga adabiyot tavsiya qilish ishida yordam beradi. Bunday ko'rgazmalar mustaqil yoki boshqa ommaviy tadbirlarga yordamchi tadbir sifatida ham tashkil etiladi. Mavzuli kitob ko'rgazmalarida mavzuga oid kitoblardan tashqari, faktlar va raqamlar, illyustrasiya materiallari, rasmlar, suratlar, mavzuga oid fikrlar, badiiy asarlardan parchalar, audiovizual materiallar, gazeta va jurnal maqolalari qo'yiladi. Bunday ko'rgazmalar ko'picha kitob illyustrativ ko'rgazma deb ham yuritiladi.

Mavzuli ko'rgazmalar mazmuniga ko'ra bir qancha yo'nalishda tashkil qilinadi.

1. Davrning muhim siyosiy, ijtimoiy muammolariga oid ko'rgazmalar.

“Mustaqil O'zbekiston–mening yurtim”, ”Milliy g'oya va milliy tafakkur”, ”Terrorizmga qarshi kurash-hammaning ishi”, ”Giyohvandlik yomon illat” kabi mavzular hozirda butun jahon jamoatchiligi e'tiborida turgan masalalar hisoblanadi. Bunday ko'rgazmalar doimiy xarakterga yoki uzoq muddatga mo'ljallab tashkil etiladi.

2. Muhim sanalarga bag'ishlangan ko'rgazmalar tarixiy sanalar, mehnat bayramlari, tarixiy muhim voqealarning yilliklari, shahar va respublikalarning, davlatlarning yubileylari, muassasa va tashkilotlarning yubileylari munosabati bilan tashkil qilinadi. Masalan, O'zbekiston mustaqilligining 27 yilligi, O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi qabul qilingan kun, “, “Avesto”ning 2700 yilligi” kabilar.

3. Buyuk va mashhur kishilar hayoti va ijodiga bag'ishlangan ko'rgazmalar

Bunday ko'rgazmalar ko'proq oliy o'quv yurtlari, kollej va lisey, o'rta maktab talaba va o'quvchilariga o'quv jarayonida yordam berish maqsadida tashkil etiladi. Ko'rgazmaning mazmuni o'quv dasturlarining mazmuni bilan bog'liq bo'ladi.

Ko'rgazmani tayyorlashda o'quv predmetining, uning biror bir qismining dolzarbligi va muhimligidan kelib chiqqan holda mavzu tanlanadi. Maqsad talaba yoki o'quvchiga dasturda berilgan ma'vzularni yanada mukammalroq va to'laroq o'rganib olishlarida yordam berish, foydalanuvchida ilmiy fikrlash ko'nikmasini tarbiyalashdan iborat. Shuning uchun materiallarni tanlashda predmet, mavzuga bog'liq adabiyotlar, ko'rgazmali vositalar, shu kunda nashr etilayotgan eng muhim siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy ahamiyatga ega bo'lgan adabiyotlar tanlab olinadi. Bunday ko'rgazmalarda sitatalar, illyustrativ materiallar kam qo'llaniladi. Tabiiyki, musatqil bilim olish ko'nikmasiga ega foydalanuvchi shaxsiy hayotida va mehnat faoliyatida deyarli qiynalmaydi. U mustaqil ravishda adabiyotlar olamidan xabardor bo'ladi, boshqalarga nisbatan kengroq doirada adabiyotlar o'qiydi, fikrlaydi, mulohaza qiladi, boshqalar bilan bemalol bahsga, suhbatga kirisha oladi. Bundan keyin qanday adabiyotlarni mutolaa qilish zarurligini yaxshi biladi.

4. Biror bir janrga bag'ishlangan ko'rgazmalar . "Harbiy memuar asarlar", "O'zbek tarixiy romanlari", "XX asr she'riyati", "O'zbek avtobiografik asarlari" kabilar bir adabiy janrga bag'ishlangan ko'rgazmalar hisoblanadi. Ko'rgazmaga mavzuga oid nashr etilgan asarlar, ularga oid tanqidiy adabiyotlar qo'yiladi. Asarlar yoki mualliflar haqidagi muhim fikrlar, rasmlar, suratlar, asar mazmunini yoritishga xizmat qiluvchi boshqa materiallar ham qo'yiladi. Ko'pgina kutubxonalar o'z shaharlari, viloyatlari, vatandosh yoki hamshahar qahramonlar, shaharlarning yubileylari munosabati bilan ko'rgazmalar turkumini tashkil qiladilar. Bu ham foydalanuvchiga tanlangan yo'nalishda o'z bilimini oshirib borishga, adabiyotlar haqida axborot berishga, targ'ib qilishga yordam beradi.

Ko'rgazmalarni targ'ib etilayotgan matbuot asarlarining turiga qarab quyidagicha turlarga ajratish mumkin:

1. Kitob ko'rgazmalari—faqat kitoblardan tashkil topadi. Bunga yangi adabiyotlar ko'rgazmasi, davr jihatidan ancha avval nashr etilgan adabiyotlar ko'rgazmasi, o'quv jarayoniga yordam beruvchi ko'rgazmalar, axborot kunlari munosabati bilan tashkil etilgan ko'rgazmalar kiradi.

2. Illyustrasiyalik ko'rgazmalari—bularda gazeta jurnal materiallaridan tashqari mavzuga oid tasviriy san'at asarlari ham namoyish etiladi. Bunday materiallar ikki

vazifani bajaradi. Birinchidan, tanlangan mavzuni yanada to'laroq, chuqurroq tushinib olishga, asar qimmatini ko'rsatishga xizmat qilsa, ikkinchidan ko'rgazmaning estetik go'zal va ta'sirli chiqishiga xizmat qiladi. Bu bilan foydalanuvchining estetik didini tarbiyalashga ham yordam bergan bo'ladi. Biror shaxsga, shahar yoki mamlakatlarga bag'ishlangan, yubiley va muhim sanalar, bayramlar munosabati bilan tashkil etiladigan ko'rgazmalarda illyustrativ materiallardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Illyustrasiyali ko'rgazmalar–faqat illyustrasiyalardan, rasmlar portretlar, karta yoki chizmalardan iborat bo'lib, maxsus san'at bo'limiga ega bo'lgan kutubxonalarda tashkil etiladi. Bunday ko'rgazmalar foydalanuvchilarni estetik ruhda tarbiyalash, ularning did-farosatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatish, go'zallikni targ'ib qilish, adabiyotlar o'qilishining oshishida yordam beradi.

4. Notali nashrlar ko'rgazmasi – asosan musiqa bo'limlarida tashkil etiladi. Maqsadi notali nashrlarni targ'ib qilish. Bunday ko'rgazmalar bastakorlarning tug'ilgan kunlari, yubileylari munosabati bilan ham tashkil etiladi.

Ko'rgazmalar harakatidagi vaqtiga ko'ra uzoq muddatli, doimiy va vaqtinchalik ko'rgazmalarga ajratiladi.

Uzoq muddatga mo'ljallangan ko'rgazmalar – shu kunning muhim siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy, iqtisodiy muammolariga bag'ishlanadi. Shahar yoki mamlakatlarning tarixiga oid o'lkashunoslik xarakteridagi ko'rgazmalar, o'quv jarayoniga va mustaqil bilim olishga yordam beruvchi ko'rgazmalar ham shunga misol bo'ladi. Ularda sarlavha o'zgarmaydi, ammo vaqti vaqti bilan adabiyotlar yangilanib turilishi kerak.

Doimiy kitob ko'rgazmalari –doimo mazmuniga, maqsadiga ko'ra o'z ahamiyatini yo'qotmaydigan ko'rgazmalar. Masalan: “Istiqlolim-faxrim mening”, “Mustaqil O'zbekiston ona yurtim”, “Ma'rifat-istiqlol mash'alidir”, “Shahrim-matbuot sahifasida”, “Talabalar ijodidan ” kabilar. Doimiy kitob ko'rgazmalarida ham sarlavha o'zgarmaydi, ammo muntazam ravishda adabiyotlar, tasviriy san'at vositalari yangilanib turiladi. Qisqa muddatli ko'rgazmalar mazmuniga ko'ra vaqtinchalik ahamiyatga ega bo'lgan mavzularga bag'ishlanadi. Bular bayramlar, sanalar, yubileylar, mashhur kunlar munosabati bilan tashkil etiladi. Navro'z bayrami, o'qituvchilar va murabbiylar kuni, G'.G'ulomning 100 yilligi, A.Qahorning 100 yilligi va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Mavzuli kitob ko'rgazmasini tayyorlash metodikasi.

Katalog, kartoteka, tavsiya ro'yxatlari, bibliografik sharxlarga nisbatan kitob ko'rgazmasining kuchi va ta'siri samaraliroqdir. Chunki, kitob ko'rgazmasi har qanday foydalanuvchi diqqatini tez jalb qiladi. Shuning uchun ko'rgazmani avvaldan o'ylab, reja asosida, biror bir maqsadga qaratilgan yo'nalishda tayyorlash zarur. Bu kutubxona xodimidan yoki tashkilotchidan katta tayyorgarlikni, mahoratni, malakani talab etadi. Ko'rgazmani tayyorlash quyidagi bosqichlardan iborat: Mavzuni va foydalanuvchi guruhini aniqlash, ko'rgazmaning rejasini ishlab chiqish, adabiyotlarni to'plash va tartibga solish, sitatalar, fikrlar, illyustrativ va boshqa materiallarni to'plash, ko'rgazmani shakllantirish, rasmiylashtirish. Ko'rgazma mavzusini belgilashda hozirgi kun talablari, muhim voqealari, sanalar, dolzarb muammolar, vazifalar, mamlaktimizning siyosiy, ijtimoiy, madaniy-ma'naviy sohasidagi yutuqlar, kutubxona faoliyatidagi asosiy yo'nalishlar, foydalanuvchilarning qiziqishlari, ehtiyojlari, o'ziga xos xususiyatlari hisobga olinadi. Foydalanuvchilar guruhini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Ko'rgazmaga qo'yilayotgan adabiyotlarning ko'lami, nashr xarakteri, turlari, qaysi tildaligi foydalanuvchilar xususiyatlariga bog'liq. Agar ko'rgazma mutaxassis foydalanuvchilar uchun bo'lsa, ko'proq ilmiy va ishlab chiqarish xarakteridagi adabiyotlar, ma'lumot nashrlari qo'yiladi. Uy bekalari uchun bo'lsa, ularning bo'sh vaqtini unumli o'tkazishga, umumiy bilim saviyasini oshirishga yordam beruvchi ilmiy-ommabop adabiyotlar, bolalar tarbiyasiga oid adabiyotlar keng qo'llaniladi. Talabalar uchun mo'ljallangan ko'rgazmada, ko'proq o'quv jarayonlari, o'quv dasturlariga bog'liq adabiyotlar qo'yiladi. Mustaqil bilim oluvchi foydalanuvchilar uchun ularning qiziqishlari va ehtiyojlari asosida materiallar tanlanadi. Tanlangan materiallar o'rganib chiqiladi. Rejada tanlangan mavzu nomi, uning bo'limlari qo'yilishi kerak bo'lgan fikrlar, sitatalar va boshqa materiallarning o'rnini ko'rsatiladi. Sarlavha va boshqa bo'limchalar nomini yozish uchun tanlangan bo'yoqlar ham, harflarning yozilish tartibi, katta-kichikligi ham belgilanadi. Tanlangan har bir material – sitata, fikr, rang, illyustrativ materiallar, tasviriy san'at asarlari yoki boshqa predmetlar ko'rgazma mazmunini ochishga xizmat qilishi kerak. Ba'zida ko'rgazma mazmuniga mos eksponatlar ham ishlatish mumkin, masalan: gulchilikka oid ko'rgazma bo'lsa, targ'ib etilayotgan

asarlarda tilga olingan gullarning namunalarini ham namoyish etish mumkin. Hunarmandchilikka oid adabiyotlar ko'rgazmasiga shu hunar ustalarining ishlaridan namunalar qo'yish ko'rgazmaning ta'sirini oshiradi. Ko'rgazmaning maqsadiga, xususiyatiga, foydalanuvchilar xususiyatlariga ko'ra adabiyotlarning joyi belgilanadi. Mavzuga ko'ra avval rahbarlik materiallari, keyin bilim sohalari bo'yicha adabiyotlar, so'nggida badiiy adabiyotlar qo'yiladi. Ko'rgazmadagi o'rni belgilanayotganda ularning mazmunan ketma-ketligiga, mantiqan bir-birini davom ettirishi va to'ldirishiga e'tibor berish lozim. Ko'rgazmani shakllantirish, bezash ham muhim bosqich. Ko'rgazmaning bezatilishi, unda berilgan ranglar ham, harflarning katta-kichikligi ham, yozilishi ham foydalanuvchi e'tiborini tez jalb qiladi. Tanlangan materiallar haddan tashqari ko'p bo'lmasligi kerak. Ko'rgazmaning did bilan bezatilishi foydalanuvchiga estetik zavq beradi, ularning ma'naviyatiga ta'sir etadi, foydalanuvchi e'tiborini ko'rgazmaga tezroq jalb etishga xizmat qiladi. Ko'rgazmalarning ko'rinishi bir-biridan farqlanishi, bir-birini takrorlamasligi kerak. Sarlavha, rubrikalar nomi, fikr va boshqa materiallar ham bir xil yo'nalishda mavzu mazmuniga mos ko'rinishda yozilishi zarur. Har bir vitrinada material chapdan o'ngga qarab joylashtiriladi, ranglar ham mavzu mazmuniga mos tanlanadi. Sharq mamlakatlari hayotiga, klassik adabiyotga oid ko'rgazmalarda ko'proq arab yozuvi ko'rinishidagi yozuv tanlanadi. Siyosiy mavzular yoki siyosatshunoslik va boshqa jiddiy mavzularda oddiy bosmaxona yozuvi va jiddiy ranglar qo'llanadi. Tabiat manzaralari, qishloq xo'jaligi masalalariga oid ko'rgazmalarda jigarrang, yashil ranglar ko'proq qo'llaniladi. Ko'rgazmani shakllantirgandan keyin uni targ'ib qilish zarur. Ko'rgazma haqida radio va televideniye, mahalliy vaqtli matbuot yoki taklifnomalar orqali xabar qilish kerak. Foydalanuvchilar e'tiboriga yaqin joylarga e'lon va xabarlar berib borish mumkin. Ko'rgazmani ochish marosimidagi kirish so'zida ko'rgazmaning mavzusi, uning dolzarbligi, vazifasi, maqsadi, kimlarga mo'ljallangani haqida aytiladi. Ko'rgazma yonida suhbatlar, sharhlar tashkil etiladi. Bu ko'rgazmaning ta'sirini, unumdorligini oshiradi. Yirik kutubxonalarda ko'rgazma yonida alohida kutubxona xodimlari ish olib boradi. Ular ko'rgazmadan foydalanish, adabiyot tanlash, kitob mutolaa qoidasi va mutolaa madaniyatining boshqa ko'rinishlari bo'yicha maslahatlar berib boradi. Foydalanuvchilar savollariga javob beradi, yakka tartibda kitoblarning sharhini berib

boradi. Kitoblar orasiga maxsus varaqa qo'yiladi, unda foydalanuvchi kitobni mutolaa istagini, fikr mulohazalarini yozib qoldiradi. Kutubxonachi shunga ko'ra foydalanuvchini kitobni mutolaasi uchun navbatga qo'yadi. Ayrim kutubxonalarda ko'rgazma yoniga mulohazalar daftari qo'yiladi. Foydalanuvchilar o'zlarining ko'rgazma haqidagi fikr-mulohazalarini, talab va istaklarini yozib qoldiradilar. Ko'rgazma mavzusiga oid mavzuli kartotekani ham tuzib qo'yilsa va ko'rgazmaga ilova qilinsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu kartotekada mavzuga oid ko'rgazmaga qo'yilmagan boshqa adabiyotlar haqida ma'lumotlar ham berib boriladi. Ko'rgazma harakatini tugatgandan so'ng u rasmiylashtiriladi, ya'ni ko'rgazmaning mavzusi, unda aks ettirilgan materiallar xarakteri, bibliografik ma'lumotlar, ko'rgazma yonida olib borilgan yakka va guruhli ishlar, ko'rgazmaning foydalanuvchilarga ta'siri, undan foydalanish darajasi, harakatdagi vaqti ko'rsatiladi. Ko'rgazma mavzusiga oid adabiyotlarning ungacha va ko'rgazma harakati davomida o'qilishini tahlil qilish ko'rgazmaning samarasini o'rganish imkonini beradi. Xullas, mavzuli ko'rgazma bilan ish olib borish murakkab va mas'uliyatli bo'lib, kutubxonachidan bilimdonlikni, diqqat-e'tiborni, ijodkorlikni va mahoratni, notiqlik san'atini talab etadi. Ko'rgazmali targ'ibot usullari og'zaki targ'ibot usullari bilan birgalikda va hamkorlikda olib borilsa, yanada ko'proq samara beradi.

Ochiq ko'riklar ilg'or kutubxonalar tajribasida ko'p qo'llanadi. Bunday ko'rgazmalarning maqsadi mutaxasislarni so'nggi ikki-uch yil ichida nashr qilingan adabiyotlar bilan tanishtirishdir. Ko'riklar uchun adabiyotlarni tanlash mutaxassis foydalanuvchi yordamida olib boriladi, mutaxassis foydalanuvchi shu soha adabiyotlarini bizdan ko'ra chuqurroq biladi va aynan qaysi kitobni qo'yish kerakligini ajratib bera oladi. Ko'rgazma yonida bibliograf yoki kutubxona xodimi suhbat, sharhlar o'tkazadi, foydalanuvchilar uchun maslahat soatlari tashkil etadi. Hozirgi kunda kutubxonalar faoliyatiga valantyorlar, ya'ni ko'ngillilarni jalb etish bilan shu vazifani mutaxassis foydalanuvchi zimmasiga yuklash mumkin. Ko'ngillilar ixtiyoriy ravishda bo'sh vaqtlarini kutubxonalar faoliyatiga yordam berishga, tadbirlarni tashkil etish va olib borishda ishtirok etishga, kutubxona ish jarayonlari uchun qurbi etsa, mablag' sarf qilishga ham ajratadilar. Ularning yordamida juda ko'p vazifalarni amalga oshirish

mumkin. Ba'zi hollarda bunday ko'riklar yo'nalishiga ko'ra muassasa yoki tashkilotlarda ham olib boriladi. Unday ko'riklarni yirik xalqaro tadbirlar, ilmiy anjumanlar, kitob bayramlari, kitob sotuv oyliklarida, bolalar kitobi o'n kunliklarida, kutubxona haftaligi kunlarida tashkil etish mumkin. Yirik kutubxonalarda ko'riklar yoniga mavzu bo'yicha kartoteka, axborot byulletenlari, bibliografik qo'llanma va ko'rsatkichlar qo'yiladi. Foydalanuvchilar ko'rikdagi adabiyotlar bilan tanishib chiqishlari, o'ziga kerakli adabiyotlarni tanlab olishlari mumkin. Ko'pgina hollarda mavzuli to'plamlar ham tashkil etiladi. Bu ham uncha katta bo'lmagan mavzuli ko'rgazma bo'lib, unda gazeta va jurnallardan tanlangan mavzu bo'yicha olingan maqolalar to'planadi. Ular maxsus quti ko'rinishida alohida jildlarda bo'lishi, radio va telvideniye orqali namoyish etilishi mumkin.

Erkin ko'rgazmalar—keng qo'llanilayotgan usul bo'lib, bular tashkilotning o'zida amalga oshiriladi. Foydalanuvchilar kutubxonachining yordamisiz kitob tanlaydi, kitob orasiga qo'yilgan varaqaga yoki daftarga o'zlari haqida ma'lumotlarni yozib qoldiradi. Buning uchun foydalanuvchilar yuqori tayyorgarlikka, mutolaa madaniyatiga ega bo'lishi talab qilinadi.

Jurnallar ko'rgazmasi. Bunday ko'rgazma bir yoki bir qancha nomdagi jurnal bo'yicha, bir nomdagi jurnallarning bir necha yillik sonlaridan tashkil qilinadi. Bunday ko'rgazmalarda illyustrativ (rangli, rasmlil tasvirlar) materiallar asosiy o'rinni tutdi. Jurnaldagi biror bir rukn bo'yicha ham alohida ko'rgazma tashkil etish mumkin .

Davr jihatidan ancha avval nashr etilgan adabiyotlar ko'rgazmasi – keng qo'llaniladigan adabiyotlarning retrospektiv ko'rgazmasi deb ham yuritiladi. Bunday ko'rgazmalar davr jihatidan ancha avval nashr etilganligi uchun foydalanuvchilar e'tiboridan chetda qolgan adabiyotlar ko'rgazmasidan iborat bo'ladi. Bunday adabiyotlar ko'pincha ma'lum bir sabablarga ko'ra badiiy, ilmiy qimmatini yo'qotmagan bo'lsada, chetda qolib ketgan bo'lishi mumkin. Bu ko'rgazmalar muntazam tashkil etilmaydi va asosan badiiy asarlar qo'yiladi.

Faqat bir asarga bag'ishlangan ko'rgazmalar ijtimoiy-siyosiy mavzudagi dolzarb masalalarga bag'ishlangan va hozirgi kun uchun muhim bo'lgan asarlarga bag'ishlanadi. Ko'rgazmada asarning birinchi nashri, asar haqidagi boshqa adabiyotlar, muallif haqidagi

asarlar, asar qo‘lyozmasi ham qo‘yilishi mumkin. Mavzuni yoritishga xizmat qiluvchi suratlar, portretlar va boshqa rangli tasvir materiallaridan foydalanish ko‘rgazmaning estetik jihatdan unumli tashkil qilinishiga yordam beradi.

Kutubxona plakatlari ko‘rgazmali targ‘ibotning ko‘p qo‘llaniladigan turi bo‘lib, bosma siyosiy plakatlardan farq qiladi va adabiyotlarni targ‘ib qilish vazifasini bajaradi. Uning negizida kitob turadi va o‘zida yorqin, yirik tasvirni aks ettiradi, matn mazmunini rangli bo‘yoqlarda ochib berishga xizmat qiladi. Siyosiy plakatlar kishilarni jamiyat hayotida faol qatnashishga, fan, texnika, madaniyat va san‘at, ma‘rifat va ma‘naviyat masalalarini amalga oshirishda o‘z bilimlari bilan ishtirok etishga chorlaydi, biror bir yo‘nalishda bilimni shakllantiradi, estetik zavq beradi, eng yaxshi kitoblarning mutolaasiga yo‘naltiradi, mustaqil bilim olishda yordam beradi. Kutubxona plakatlari XIX asrning oxirlaridan boshlab qo‘llanila boshlandi. Har bir davrda davr xususiyatlaridan kelib chiqqan, o‘sha davrning dolzarb siyosiy, ijtimoiy, madaniy va ma‘rifiy vazifalariga bog‘liq holda turli mavzularda plakatlar tashkil etilgan. XX asrning yigirmanchi yillariga qadar plakatlar ko‘proq savodsizlikni tugatish, aholini kutubxonaga, kitob mutolaasiga jalb etish mavzularida tashkil etilgan bo‘lsa, yigirmanchi yillardan so‘ng ko‘proq kitobni saqlash, unga to‘g‘ri munosabatda bo‘lish, avaylash, ehtiyot qilish mazmunida tashkil etilgan. Keyingi yillarda nashriyotlar, kutubxonachilik tashkilotlari tavsiya ro‘yxatlari bilan birgalikda kutubxonalarni targ‘ib qiluvchi instruktiv –metodik plakatlar-kutubxonadan to‘g‘ri foydalanish, kutubxonalararo abonementdan foydalanish, kataloglardan, elektron kataloglardan to‘g‘ri foydalanish, ma‘lumot qidirish qoidalari to‘g‘risidagi plakatlarni chiqara boshladi. Kutubxona plakatlari o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, agar ko‘rgazmada bevosita kitobning o‘zi ko‘rsatilsa, plakatda bivosita, ya‘ni tasviriy san‘at vositalari yordamida kitob mazmuni ochib beriladi. Bunda kitob muqovasining ko‘rinishi, qisqa matnlar, rasmlar, bo‘yoqlar va boshqa illyustrativ materiallar qo‘llaniladi. Kutubxona plakati mutolaa mazmuni va yo‘nalishiga faol ta‘sir ko‘rsatadi. Foydalanuvchiga kitob tanlashda yordam beradi, muammoni o‘ylashga, fikrlashga o‘rgatadi, estetik didini tarbiyalaydi. Kitob muqovasining ko‘rinishi foydalanuvchida kitob ko‘rinishi haqida tasavvur hosil qiladi. Ammo, plakatga targ‘ib qilinishi kerak bo‘lgan hamma kitoblarning muqova ko‘rinishi

sig‘maydi. Shuning uchun hajmi kichraytirilib ixcham joylashgan holda beriladi. Ammo, shuni hisobga olish zarurki, hech qachon kitob muqovasi yirtib olinib plakatga yopishtirilmaydi, aks holda foydalanuvchida kitobni yirtsa ham bo‘ladi degan tasavvur paydo bo‘ladi. Ayniqsa, bolalar uchun tashkil etiladigan plakatlarda bunday holatlarga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Plakatning qulayligi shundaki, u bino devoriga, foydalanuvchi ko‘rishi qulay bo‘lgan joyga osiladi. Kutubxona plakatlari maqsadiga ko‘ra quyidagi turlarga ajratiladi: targ‘ibot plakati, tashviqot plakati va instruktiv – metodik plakatlar.

Tashviqot plakati. Kutubxonachining vazifasi foydalanuvchida kitobga bo‘lgan dastlabki qiziqishni uyg‘otish, foydalanuvchilik dunyoqarashini shakllantirishdan iborat. Bu ishda tashviqot plakati muhim ahamiyatga ega. Tashviqot plakati shu kunning dolzarb masalalariga bag‘ishlab tashkil qilinadi. Unda ko‘proq rasmlar, kitob muqovasining ko‘rinishi beriladi. Tashviqot plakati bittadan uchtagacha kitob haqida ma‘lumot bersa, targ‘ibot plakati 10 tagacha bo‘lgan kitob haqida ma‘lumot beradi. Tashviqot plakatida qisqa matnlar, axborotlar, portretlarga keng o‘rin beriladi. Shu xususiyatga ko‘ra u bosma siyosiy plakatlarga yaqin turadi. Masalan, axborot texnologiyalarining afzalliklarini, turlarini, internetni va elektron pochtalardan foydalanishni reklama yoki targ‘ib qiluvchi plakatlar. Yangi adabiyotlar haqida axborot beruvchi plakatlarning sarlavhasi chaqiriq ohangida bo‘ladi. “Diqqat! Yangilik!”, “O‘qing, yangi adabiyotlar!” kabi. Eng yaxshi tashviqot plakati yorqin, ochiq ranglarda beriladi.

Targ‘ibot plakati ko‘proq adabiyot haqida ma‘lumot beradi, uning maqsadi kitob mazmunini kengroq ochib berish va targ‘ib qilishdan iborat. Bu plakat foydalanuvchida kitobga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otadi va kengaytiradi, mustahkamlaydi. Kitob mazmuni qisqa annotasiyalarda ochib beriladi. Bunda ham illyustrativ materiallardan foydalaniladi, bunday plakatlar birmuncha bibliografik bilimga, tayyorgarlikka ega bo‘lgan foydalanuvchilar uchun mo‘ljallanadi. Plakatda mavzuga oid adabiyotlar ro‘yxati ham ilova qilinadi.

Targ‘ibot plakati mazmuniga ko‘ra quyidagicha tashkil qilinadi:

Mavzuli plakatlar - targ‘ibot plakatining keng tarqalgan turi bo‘lib shu kunning muhim va dolzarb muammolariga, mamlakatimizning ichki va tashqi siyosatiga, iqtisodiy

madaniy-ma'rifiy, ma'naviy masalalarga, fan-texnika yutuqlariga, ishlab chiqarishga oid masalalarga bag'ishlanadi.

Mavzuli plakatlar muhim sanalar, yubileylar, mashhur shoir va yozuvchilar bilan uchrashuvlar oldidan, jamoat arboblari, san'atkorlar, olimlar va boshqa shaxslarning tug'ilgan kunlari munosabati bilan tashkil etiladi. Bunday plakatlarning maqsadi shu muallifning asarlarini kengroq targ'ib qilish va unga qiziqish uyg'otishdir.

Plakat markazida muallifning portreti beriladi. Agar muallif ko'pchilikka yaxshi tanish bo'lmasa, muallifning hayoti va ijodi haqida qisqacha biografik ma'lumot beriladi. Muallif haqida, uning asarlari haqidagi boshqa shaxslarning fikrlaridan ham berish mumkin. Har qanday targ'ibot plakatida u yoki bu asarning muhim tomonlari, boshqa asarlardan farqli tomoni yoritib beriladi.

Bir kitobni tavsiya etuvchi plakatlar keyingi paytda keng qo'llanilmoqda. SH. M. Mirziyoyev asarlarini, turli sessiyalar materiallari to'plamlarini targ'ib qilishda, bir asar yuzasidan o'tkaziladigan foydalanuvchilar konferensiyasi, uchrashuvlar va davra suhbatlariga tayyorgarlik ko'rish jarayonida qo'llaniladi. Plakatning birinchi qismida mavzu haqida, konferensiyaning o'tkazilish joyi va vaqti haqida ma'lumot beriladi. Axborot ro'yxatlari alohida konvertlarda, kartochkalarda, varaqada berilishi mumkin.

Instruktiv-metodik plakatlarning maqsadi foydalanuvchiga kutubxona fondidan, katalog va kartotekalardan, internetdan, elektron pochtdan, bibliografik qo'llanma va ko'rsatkichlardan foydalanish qoidasini o'rgatishdan iborat. Bunday plakatlar foydalanuvchida mutolaa madaniyatini tarbiyalash, mutolaa ko'nikmasini shakllantirish, estetik didini tarbiyalash, kitobga va kutubxonaga to'g'ri va ongli munosabatda bo'lish odatlarini singdirishda muhim ahamiyatga ega. Bolalar kutubxonalarida "kasal" kitoblarni "davolash", ta'mirlash qoidalarini o'rgatuvchi plakatlar keng qo'llaniladi.

Kutubxona plakatlarini tayyorlash va shakllantirish metodikasi

Barcha ommaviy tadbirlarga qo'yiladigan talablar plakatlarga ham taaluqli. Kutubxona-axborot muassasalariga eng yaxshi adabiyotlarni targ'ib qilish, foydalanuvchilarga yangi adabiyotlar haqida tezkorlik bilan ma'lumot berish asosiy vazifa sifatida yuklatilgan. Plakat shu kunning muhim voqealari haqidagina ma'lumot

berib qolmasdan, balki shu mazmundagi adabiyotlarning o'qilishiga erishishdan iborat. Shuning uchun plakatlar aniq va yorqin bo'lishi zarur. Ko'rgazmada 6-8 ta kitob targ'ib etiladigan bo'lsa ko'plik qiladi. Shuning uchun plakat mavzusi aniq va tor bo'ladi. Plakat uchun katta, umumiy mavzular olinishi maqsadga muvofiq emas. Agar plakat bir shoir yoki yozuvchining hayoti va ijodiga bag'ishlangan bo'lsa, bunda ijodkor faoliyatining bir qirradi olingani ma'qul. Masalan "Abdulla Qahhor – mohir hikoyanavis", "Ogahiy lirikasi" va hokazo. Plakatda obrazlilik va hissiy holat muhim o'rin tutadi, ranglar vositasida kitob targ'ib qilinadi. Bu birinchi galda foydalanuvchining ko'rish organlariga ta'sir qiladi. Shuning uchun plakatni shunchaki mexanik ravishda tayyorlash kerak emas, balki uni o'ylab, mohirlik va san'atkorona tayyorlash talab etiladi.

Plakatni tayyorlayotgan shaxs avvalo foydalanuvchi e'tiborini jalb etish vazifasini bajarsa, ikkinchidan, unda targ'ib qilinayotgan kitobni olib, mutolaa qilishga ishonch hosil qilishi kerak. Plakat mavzusini tanlashdan to uni shakllantirishgacha bo'lgan jarayon shunga qaratilishi lozim. Plakatni tayyorlash mavzuni tanlash bilan boshlanadi. Mavzuni tanlashda shu kunning muhim voqealari, foydalanuvchilar qiziqishi, mutolaa maqsadi hisobga olinadi. So'ngra mavzuni yoritib beruvchi materiallar tanlanadi. Bularga kitob muqovasining ko'rinishi, rasmlar, matnlar, annotasiya yoki referat matni, chizmalar, jadvallar, buyoq yoki boshqa tasvir vositalari tanlanadi. Har bir tanlangan material mavzuni ochib berishga xizmat qilishi kerak. Ayrim asarlarga ishlangan illyustrativ materiallardan foydalanish ham uning mazmunini ochib berishga yordam beradi. Plakatda mazmunni yoritib berishda asosiy rang-fon muhim o'rin tutadi. Fon asar mazmunining mohiyatiga, g'oyasiga mos bo'lishi zarur. Qolgan qo'shimcha ranglar peyzajlarni ochib berishga xizmat qiladi. Yashil rang tabiat, Navro'z bayrami, yoshlik, bahor mavzusidagi plakatlarda, ko'k yoki havo ranglar kosmos, yerning sun'iy yo'doshlari haqidagi plakatlarda, sariq, jigarrang paxtachilik, bog'dorchilik, chorvachilik, tuproqshunoslik masalalariga oid plakatlarda ko'proq qo'llaniladi. Har bir rang mavzuni yoritib berishga xizmat qiladi, foydalanuvchida estetik didni, ranglarga to'g'ri munosabatni shakllantirishda yordam beradi. Plakatda adabiyotlarni aks ettirish turli xil usulda olib boriladi. Kitob muqovasini berishdagi bitta kamchilik shundaki, targ'ib etilishi mumkin bo'lgan hamma kitob muqovasining ko'rinishi sig'maydi, shuning

uchun ko‘proq muqovaning ko‘rinishi kichraytirib beriladi. Adabiyotlar ro‘yxatini alohida varaqlarda, konvertlarda, kartochkalarda berish mumkin. Bu mavzu bo‘yicha bir qancha adabiyotlarni ko‘rsatish imkonini beradi. Ro‘yxatlarda albatta bibliografik tavsif qoidalariga amal qilish zarur. Adabiyotlarni joylashtirish aniq bir tamoyil asosida amalga oshiriladi. Plakatda beriladigan matnlar juda muhim ahamiyatga ega. Plakat sarlavhasi mavzu mazmunini yoritib berish darajasida qisqa, aniq bo‘lishi kerak. Ba‘zan plakatning mavzu matni yarmidan ko‘prog‘ini egallashi noto‘g‘ridir. Foydalanuvchiga aniq, qisqa, kitobning xususiyatini ochib beruvchi, u yoki bu hodisaning mohiyatini yoritib beruvchi matnlar ma‘qul bo‘ladi. Plakat mavzuning asosiy mazmunini, ma‘nosini yetkazib berishi kerak. Har bir matn bo‘lagi, har bir fikrda ortiqcha so‘zlar yoki kamchilik, imloviy xato bo‘lishi mumkin emas. Rasmlarga, suratlarga, boshqa illyustrativ materiallarga izohlar ham aniq va qisqa bo‘lishi talab etiladi. Agar illyustrativ materiallar mazmunan yetarli bo‘lsa, unga izoh berilishi shart emas. Sarlavhaning ko‘rinishi, yozilishi ham muhim ahamiyatga ega. Sarlavha 3,6-7 sm kattalikda bo‘lib, harflar aniq, sodda, shrifti mavzuning mazmuniga mos holda tanlanishi zarur. Sarlavha ko‘rinishi va boshqa matnlar ham juda mayda bo‘lmasdan, foydalanuvchi mutolaasi uchun qulay va tushunarli bo‘lib, foydalanuvchini plakat yonida uzoq tutib qolmasligi, uni zeriktirib qo‘ymasligi talab etiladi/ Plakat ko‘rgazmaga ko‘ra jonli so‘z yordamida tushuntirishga muxtoj. Plakatning joyi ham muhim bo‘lib, uni ko‘zga ko‘rinarli, yorug‘, foydalanuvchiga qulay joyga osilishi lozim. Plakatlardan foydalanuvchilar konferensiyasi, bibliografik sharhlar, ovozli mutolaalar va uchrashuvlar, davra suhbatlarini tayyorlash va o‘tkazish jarayonida foydalanilgan o‘sha tadbirning ta‘sirini, samarasini oshirishga yordam beradi.

Albomlar. Kutubxona tarixiga, biror bir buyuk shaxslar faoliyatiga, muhim va unutilmas voqealarga, yubileylarga oid albomlar tashkil etiladi. Albomning har bir sahifasi o‘ziga xos montaj sifatida mavjud bo‘lib, ular mazmunan bir-birini davom ettirishi kerak, ammo bir birini takrorlashi kerak emas. Albomlarni bezashda turli rasmlar, illyustrativ materiallar, chizma va jadvallar, suratlardan foydalaniladi. Har bir sahifada mazmunga mos adabiyotlar ro‘yxati ham ilova qilinishi mumkin. Albomlarni og‘zaki jurnallar, ovozli mutolaalar, bibliografik sharhlar, shaharlarning, kutubxonaning yubileylari

munosabati bilan o'tkaziladigan tadbirlarda, tanlovlarda tayyorlab namoyish etish mumkin. Al'bomlar foydalanuvchilarni estetik ruhda tarbiyalashga xizmat qiladi.

Adabiyotlarni targ'ib qilishning og'zaki usullari foydalanuvchilarga og'zaki so'z yordamida ta'sir etish, shu bilan birga kitob mazmuni, xarakteri haqida ma'lumot berishdan iborat. XXI asr boshlariga kelib, ommaviy axborot vositalari keng taraqqiy etdi. Bugungi kunda respublikamizda ommaviy axborot vositalarining to'rtinchi hokimiyat ekanligi to'la tan olinmoqda va unga ulkan vazifalar yuklatmoqda. Bundan tashqari videosalonlar, turli xil yo'nalishdagi barlar, internet kafelar, billiard klublar keng rivojlanmoqda. Ular orqali ma'lum bir ma'noda axborot beriladi. Ammo bu kutubxonalarining ommaviy ishlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi kerak emas, aksincha ommaviy ishlar mazmunining kengayishiga, keng ko'lamda olib borilishiga yordam berishi kerak. Og'zaki targ'ibot usullari tashkilotchi (kutubxonachi) bilan foydalanuvchilar auditoriyasining munosabatini ta'minlaydi, ma'lum bir foydalanuvchilar guruhining ijtimoiy-siyosiy, psixologik xususiyatlarini bilishga yordam beradi. Radio, televideniye, matbuot orqali berilayotgan axborot ma'lum bir guruhga yoki auditoriyaga mo'ljallanmaydi. Kutubxona tadbiri esa, biron bir xususiyati bilan alohida guruhni tashkil etadigan foydalanuvchilarning hammasini qamrab oladi va tadbirning ta'siri va samarasini oshiradi. Auditoriya tasodifan to'plangan foydalanuvchilardan iborat bo'lmaydi, shu sababli foydalanuvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda tadbir tayyorlanadi va o'tkaziladi. Og'zaki targ'ibotda kutubxonachi va foydalanuvchi munosabati muhim o'rin tutadi, bu kutubxona xodimidan foydalanuvchining shaxsiy fikridan unumli foydalanishni talab qiladi. Bevosita targ'ib qilish kutubxona ishini yaxshilash maqsadida tashkil etiladigan tadbirlarda qo'llaniladi. Masalan, foydalanuvchilar konferensiyasi – bu tadbirda ba'zi hollarda kutubxona xodimlari, kutubxona kengashi ishi haqida hisobot beradi, konferensiyada ishtirok etgan foydalanuvchida nutq madaniyati tarbiyalanadi, so'zlash qobiliyati, esda saqlab qolish, o'qilgan kitobga tanqidiy baho berish, tahlil qilish ko'nikmasi shakllanadi. Eng asosiysi foydalanuvchida ko'pchilikka o'z fikrini singdirish, ta'sir etish, o'zaro muloqotga kirishish mahorati tarbiyalanib boradi. Kutubxonalar ommaviy ishlarni tashkil etishda mahalliy tashkilotlar, tarbiyaviy,

madaniy-ma'rifiy muassasalar, maktablar, kollej va liseylar, oliy ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda ish olib borsa ishning ta'siri yanada oshadi. Keyingi paytda kutubxonalar faoliyatiga fandraining – chetdan mablag' jalb qilish, press –reliz - OAV (ommaviy axborot vositalari)ni jalb etish va ularga axborot tayyorlab yetkazish, Pablik Releyshinz, boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikni o'rnatish usullari kirib keldi. Ilg'or kutubxonalar ommaviy ishlarni tayyorlashda va o'tkazishda OAV laridan unumli foydalanmoqda. Boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda ish olib borish avvalo ana shu mahalliy hokimiyat organlari, tashkilot va muassasalar orasida kutubxona imidjini oshirsa, ikkinchidan, ularda kutubxonalarga to'g'ri munosabatni shakllantiradi. Ular uchun endilikda kutubxonaning o'rnini, ahamiyati oshib boradi. Ular bilan hamkorlikda o'tkazilgan ommaviy tadbirlarning ta'siri, samarasi ham boshqacha bo'ladi. Endilikda kutubxonaning axborotlar markazi, ko'rgazmalar, shoir va yozuvchilar, turli jamoat va san'at arboblari, mualliflar bilan uchrashuvlar, jonli muloqotlar o'tkazish uchun adabiy mehmonxona ekanligini, asosiy tarbiyaviy va ta'lim beruvchi maskan ekanligini unutmaslik zarur. Har qanday tadbir axborot berish va ta'lim tarbiya xarakteriga egadir. Tadbir davomida tanlangan yo'nalishda foydalanuvchilarga yoki aholisiga kitoblar va internet yordamida axborot berilsa, ikkinchidan ana shu tanlangan axborot asosida foydalanuvchiga bilim olishda yordam beriladi. Foydalanuvchida ijodiy ko'nikma shakllanishi bilan birga, jamiyat hayotida faol ishtirok etishga intilish, tanlangan mavzuga qiziqish tarbiyalanadi. Og'zaki tadbirlarni xarakteriga va targ'ibot usullari hamda vositalarining qo'llanishiga ko'ra kompleks tadbirlarga ham ajratamiz. Bular foydalanuvchilar konferensiyasi, adabiy mavzuli Kechalar, savol-javob Kechalari, og'zaki jurnallar va boshqalar. Bularda bir vaqtning o'zida targ'ibot usullarining ham og'zaki, ham ko'rgazmali, ham matbuot usullaridan foydalaniladi.

Bibliografik sharhlar (obzorlar) kutubxonalar faoliyatida eng ko'p qo'llaniladigan samarali usullardan biri. Adabiyotlarni targ'ib qilishning bu shakli foydalanuvchilar oldiga biror bir mavzuga, bir dolzarb masalaga, biror bir bilim sohasiga oid yoki kutubxona fondiga kelib tushgan yangi adabiyotlar haqidagi ma'lumotlar bilan chiqishdir. Sharhlar tavsiyaviy va axborot xarakteriga ega bo'ladi. Barcha tipdagi kutubxonalarda foydalanuvchilarning bilim darajasini, madaniy va ma'naviy saviyasini

kasb malakasini oshirishga yordam beradi, mustaqil bilim oluvchi foydalanuvchilarga adabiyotlar tavsiya etishda, kutubxona fondiga kelib tushgan adabiyotlar haqida axborot berish maqsadida tashkil etiladi. Bibliografik sharhlar kutubxonalar faoliyatiga o'tgan asrning 20-yillarida "Jonli bibliografiya kechasi", "Resenziyalar kechasi" "Kutubxonachilik mutolaalari" nomi bilan kirib kelgan. Bibliografik sharhlar qo'shimcha tadbir sifatida ham qo'llanilib, uni kutubxona xodimi yoki mavzu bo'yicha mutaxassis foydalanuvchi tayyorlaydi va olib boradi. Foydalanuvchilar konferensiyasi, mavzuli kechalar, og'zaki jurnal, foydalanuvchi benefisi, taqdimot, og'zaki jurnallarda sharx keng qo'llaniladi. XX asrning so'nggi yillarida sharhlarni televideniye, radio va mahalliy gazeta jurnal sahifalarida ko'plab uchratish mumkin edi. Hozir ham ommaviy axborot vositalari bu usuldan ko'pgina tadbirlarda foydalanmoqdalar. Sharhlar uncha katta bo'lmagan auditoriya, ya'ni 10-15 kishi uchun aniq mavzu bo'yicha tashkil etiladi. Sharhlar xarakteriga ko'ra mavzuli va yangi adabiyotlar sharhiga bo'linadi. Mavzuli sharh ma'lum bir mavzuga bag'ishlangan bo'ladi. Uni tayyorlash mavzuni tanlash bilan boshlanadi. Mavzuni tanlashda kunning dolzarb masalalari, foydalanuvchilar qiziqishi, mutolaa maqsadi o'rganiladi va hisobga olinadi. Sharh muhim sanalar, yubileylar, ijodkor yoki fan, san'at, jamoat arboblarning tug'ilgan kunlari, bayramlar munosabati bilan o'tkaziladi. So'ngra sharh maqsadi belgilab olinadi. Bu juda muhim bo'lib, unda sharhda nima haqida, kim va nima uchun berish kerakligi aniqlab olinadi.

Mavzuni tanlashda foydalanuvchilar yoshi, kasbi, mutaxassisligi qiziqishi, qobiliyati, imkoniyatlari, asarni qabul qilish darajasi aniqlab olinadi va bu bilan foydalanuvchilar guruhini tanlash bosqichi amalga oshiriladi. Shunga ko'ra axborot berish yo'nalishi belgilab olinadi. So'ngra mavzuning mazmunini yoritib berish maqsadiga xizmat qiluvchi adabiyotlar tanlanadi. Buning uchun mutaxassis fikridan, maslahatidan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Adabiyotlarni tanlashda bibliografik ko'rsatkichlardan, katalog va kartotekalardan, mavzuli tavsiyaviy qo'llanmalardan, adabiyotlar haqidagi tanqidiy materiallardan va internet materiallaridan foydalanish mumkin. Sharh uchun adabiyotlar sonini belgilashda auditoriya tarkibi, mavzuning salmog'i, shu mavzuga oid kutubxonada mavjud adabiyotlar ko'lami hisobga olinadi.

Agar sharh kutubxona foydalanuvchilariga mo'ljallansa, 5-6 ta kitob tanlab olinadi, mutaxassis foydalanuvchilar uchun bo'lsa ko'proq 14-15 ta adabiyot tanlab olinadi. Tanlangan adabiyotlarni o'rganish va sharh matnini tayyorlash eng muhim jarayondir. Matn kutubxona xodimiga sharhni ravon, ifodali va ta'sirli o'tkazishga yordam bersa, ikkinchidan hujjat sifatida saqlanadi. Ammo sharh matni o'qib berilmaydi. Agar sharh biror bir boshqa yirik tadbirga yordamchi tadbir sifatida o'tkazilsa 15-18 daqiqa vaqt ajratiladi, agar mustaqil tadbir sifatida o'tkazilsa, 20-25 daqiqa vaqt ajratiladi, savollar uchun ham vaqt qoldirish zarur. Har qanday sharh matni uch qismdan iborat bo'ladi: kirish, asosiy qism, xulosa. Kirish qismining maqsadi foydalanuvchilarni sharhni tinglashga tayyorlash, sharhning maqsadi, mavzusi, dolzarbligi, uning ahamiyati va mohiyatini tushuntirishdir. Asosiy qismda adabiyotlar haqida alohida ma'lumot va ta'rif beriladi. Bunda har bir kitobning o'rni, ahamiyati, undagi asosiy masalalar, ularning yechimi, yoritilish uslubi, bahsga sabab joylari, bahsga sabab bo'luvchi joylari, badiiy asar bo'lsa, uning mavzusi, g'oyaviy badiiy qimmati, asosiy qahramonlari, tili, badiiy uslubi haqida hikoya qilinadi. Foydalanuvchilar diqqatini shu asar haqidagi tanqidiy materiallarga qaratish zarur. Lekin asar haqida to'liq gapirib berish shart emas, bu foydalanuvchida mutolaaga intilishni so'ndiradi. Badiiy asarning biror bir parchasini o'qib berish sharhning ta'sirini oshiradi. Xulosada sharhga yakun yasaladi, tanlangan mavzu bo'yicha boshqa bibliografik materiallar yoki qo'shimcha adabiyotlar, ularning joyi haqida ma'lumot beriladi. **Yangi adabiyotlar sharhi** universal mazmunda bo'lib, kutubxonaga ma'lum bir davrda kelib tushgan yangi adabiyotlar haqida axborot beradi, foydalanuvchilarni ular bilan yaqindan tanishtiradi. Bunday sharhni tayyorlashda jamg'armaga qabul qilingan adabiyotlar orasiga qayta nashr etilgan adabiyotlar borligini ham hisobga olish zarur. Bular foydalanuvchi uchun yangilik emas, ammo yangi kelgan ilmiy jurnallar va to'plamlar bo'yicha ham alohida sharh beriladi. Yangi adabiyotlar sharhi keng foydalanuvchilar uchun tavsiyaviy xarakterda, mutaxassis foydalanuvchilar uchun axborot xarakterida bo'ladi. Yangi adabiyotlar sharhi adabiyotlar ko'lamining kengligi bilan ajralib turadi. Sharhda har bir adabiyot haqida keng sharh berish shart emas, balki kitobning ilmiy yoki badiiy qimmati haqida aniq va qiziqarli ma'lumot berish zarur. 25-30 daqiqa vaqt davomida kutubxonachi 20-25 ta kitob haqida ma'lumot berishi

maqsadga muvofiqdir. Yangi adabiyotlar sharhi ham 3-qismdan iborat bo‘ladi. Kirish qismida kutubxonaga qancha vaqt mobaynida qanday adabiyotlar kelib tushgani, sharhda qaysi yo‘nalishdagi adabiyotlar haqida ma’lumot berilishi aytiladi. Tanlangan adabiyotlar biror bir xususiyatlariga ko‘ra guruhlarga ajratiladi. Adabiyotlar haqidagi hikoya aniq va qisqa bo‘lishi lozim. Badiiy asarlar haqida to‘liq hikoya qilib berish shart emas, bu foydalanuvchida adabiyotni o‘qimasam ham bo‘lar ekan degan tasavvur uyg‘otadi, uning mutolaaga intilishi va qiziqishni so‘ndirib qo‘yadi. Yangi adabiyotlar sharhi ko‘proq tavsiyaviy suhbatga ham o‘xshab ketadi.

Guruhli tavsiyaviy suhbatlar. Suhbatni birgina foydalanuvchi yoki bir necha foydalanuvchilar bilan o‘tkazish mumkin. Guruhli suhbat yakka tartibdagi suhbat kabi mutolaani shakllantirishning va adabiyotni targ‘ib qilishning samarali usulidir. Bunday suhbatlar ko‘proq bolalar kutubxonalarida ham mustaqil tadbir va yordamchi tadbir sifatida o‘tkaziladi. Kitob ko‘rgazmalari yonida, adabiy-mavzuli kechalarda, og‘zaki jurnal sahifalarida, uni tayyorlash va o‘tkazish jarayonida, uyga kitob berish bo‘limida, kitob javonlari yonida adabiyotlar va boshqa turdagi taqdimotlarda, kutubxona bo‘ylab sayohatlar davomida bir guruh foydalanuvchilar bilan suhbat o‘tkaziladi. Suhbatlar asosan alohida mavzuga bag‘ishlanadi. Shu davrning muhim siyosiy voqealari, ijtimoiy-siyosiy masalalari, madaniyat, ma’rifat va ma’naviyat masalalari, mutaxassislikka oid yangiliklar suhbat mavzusini tashkil etadi. Suhbatni o‘tkazishga mutaxassislar jalb etilishi mumkin. Shunda suhbat yanada jonli va ta’sirchan chiqadi. Suhbatni tayyorlash jarayonida ham matn tayyorlab olinadi ammo o‘qib berilmaydi. Suhbat so‘ngida mavzuga oid boshqa adabiyotlar ham mutolaa uchun tavsiya etiladi. Bunda adabiyotlar haqidagi taqrizlardan foydalanish, adabiyotning o‘zini ko‘rsatish, bibliografik qo‘llanmalardan ham foydalanish suhbatning ta’sirini oshiradi.

Ovozli mutolaalar adabiyotlarni targ‘ib qilishning eng qadimgi usuli. Ovozli mutolaa tanlangan asarni ovoz chiqarib o‘qishdir. Ovozli mutolaalar turli davrlarda turlicha ko‘rinishlarda she’riy asarlarda qiroat bilan mutolaa, bahrul-bayt va g‘azalxonlik kechalari ko‘rinishida o‘tkazilgan. O‘zbek she’riyati tarixidan shu narsa ma’lumki, O‘rta Osiyoda she’rxonlik va g‘azalxonlik kechalari juda keng tarqalgan. Ma’rifatparvarlar orasida Navoiyxonlik, Bedilxonlik, Ogahiyxonlik, Lutfiyxonlik, yoki o‘zbek mumtoz

klassik she'riyatida shoirlar orasida g'azalxonlik kechalari muntazam bo'lib turgan, shuning uchun ham bizning ota-bobolarimizning she'riyatga, san'atga, adabiyotga qiziqishi katta bo'lgan, uning ta'sirida bolalar tarbiyasi yetuk darajaga yetgan. O'zbek xalqi orasida haqiqiy savodxonlar, shoiru -shoiralar ko'plab yetishib chiqqanligining boisi ham shunda. Qoidaga ko'ra ovozli mutolaalar uncha katta bo'lmagan, tayyorgarligi va mutolaa madaniyati shakllanmagan foydalanuvchilar uchun o'tkaziladi. Foydalanuvchilar soni 5-6 tadan 10-15 tagacha bo'ladi. Kattaroq auditoriya uchun badiiy asarlar tanlab olinadi va uni mutolaa uchun 25-30 daqiqa vaqt ajratiladi. Ovozli mutolaa ikki xil maqsadda o'tkaziladi, foydalanuvchida shu asarga qiziqish uyg'otish, asarni mutolaaga ishontirish va butun matnni kutubxonachi so'zi bilan hikoya qilib berish. Mutolaa uchun tanlangan asarning hajmiga ko'ra ovozli mutolaa turkumlari tashkil etiladi. Bunga asar, asar qismi, bob yoki bo'lim tanlab olinadi. Ovozli mutolaa qisqacha kirish so'zi bilan boshlanadi. Unda tanlangan mavzuning ahamiyati, maqsadi, asar muallifi haqida qisqacha ma'lumot beriladi. Asarning o'zini mutolaa uchun esa 20-25 daqiqa vaqt qoldiriladi. Mutolaaning borishi faqat tanlangan asarga emas, balki o'quvchining imkoniyatiga ham bog'liq. O'qilgan asarning muhokamasi muhim ahamiyatga ega. Bunda muhokamada qatnashgan foydalanuvchilarning fikr doirasi kengayadi, so'zlash va fikrlash qobiliyati o'sadi, tanqidiy baho berish, mulohaza yuritish madaniyati tarbiyalanib boradi. Bahsni avvaldan tuzilgan savollar asosida olib borsa ham bo'ladi. Savollarni foydalanuvchining asar mazmuni, g'oyasi, mavzusi, undagi obrazlar, ularga munosabatini, asarning davr va foydalanuvchi hayoti bilan va mehnat faoliyati bilan bog'liqligi, asar tili haqida fikrini bilishga yo'naltiradigan darajada tuzish kerak. Ovozli mutolaani tayyorlashga jiddiy e'tibor berish zarur. Asarni o'quvchi kutubxona xodimi yoki mutaxassis foydalanuvchi asarning mazmuni, asarga taalluqli qo'shimcha adabiyotlar bilan tanish bo'lishi, foydalanuvchilar berishi mumkin bo'lgan savollarga oldindan tayyorgarlik ko'rishi zarur. Tushunarli bo'lmagan holatlarda foydalanuvchilarni o'z so'zining, fikrining to'g'riligiga ishontirishi, isbotlab berishi zarur. Eng yaxshi fikrlarni ta'kidlab o'tish kerak. Xato fikr aytgan, noaniq so'zlaganlarni to'g'rilashi zarur. Zamonviy kompyuter va telekommunikasiya texnologiyalari kirib kelishi bilan ovozli mutolaalar avtomatlashtirilgan tarzda o'tkazilmoqda.

Foydalanuvchilar konferensiyasi

Bu tadbir majmuaviy tadbir bo'lib, uni tayyorlash va o'tkazish jarayonida foydalanuvchilar bilan ishlashning barcha yakka va ommaviy ish usullari qo'llaniladi. Konferensiyani tayyorlash va o'tkazish uchun 1-1,5 oy muddat ajratiladi. Barcha ishlarni reja va tartib bilan olib borish maqsadida hay'at tuzib olinadi. Hay'at tarkibiga kutubxona rahbari, xodimlari, homiylik qilishi mumkin bo'lgan tashkilot rahbarlari, ommaviy axborot vositalari vakillari, uch- to'rtta faol foydalanuvchilar kiritiladi.

Hay'at konferensiyani tayyorlash va o'tkazish rejasini ishlab chiqadi. Unda tayyorgarlik ko'rish uchun ajratilgan bir yoki bir yarim oy davomida bajariladigan ishlar va ularga mas'ul shaxslar hamda muddati ko'rsatiladi. Bular: konferensiya mavzusi, muhokamaga qo'yiladigan masalalar haqida axborot berish, reklama ishlarini yuritish, konferensiyani olib boruvchi boshqaruvchini tayyorlash, muhokama uchun tanlangan kitob nusxasini boshqa kutubxonalar yordamida ko'paytirish, so'zga chiquvchilarni aniqlash, ular bilan yakka tartibda ishlash, kitob ko'rgazmalari va kutubxona plakatlarini, turli bukletlarni tayyorlash, konferensiyaning o'tkaziladigan joyini belgilash, bezash, jihozlash kabilar. Konferensiya haqidagi e'lon konferensiya o'tkaziladigan vaqtdan bir, bir yarim oy oldin beriladi. Unda muhokamaga qo'yiladigan masalalar, tayyorgarlik ko'rish uchun zarur adabiyotlar ro'yxati beriladi. Konferensiyada mulohazalari bilan qatnashish istagi bor foydalanuvchilar bilan ish olib borish juda mas'uliyatli jarayon, ular bilan olib boriladigan yakka va guruhli suhbatlar, maslahatlar foydalanuvchilarni so'zga chiqishga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. So'zga chiquvchilarni tanqidiy adabiyotlar bilan hamda asar haqidagi boshqalarning fikr-mulohazalari bilan tanishtirish muhokamaning ta'sirli chiqishiga yordam beradi. So'zga chiquvchi foydalanuvchi o'z fikrini aytishga, erkin, mustaqil so'zlashga tayyor bo'lishi lozim. Foydalanuvchi bilan suhbat davomida kutubxonachi unga tartib bilan, ravon va aniq fikr bildirishga o'rgatishi kerak. Lekin, foydalanuvchi oldindan matn tuzib berishi kerak emas. Bu konferensiyaning quruq, jonsiz, ta'sirsiz bo'lishiga olib keladi. Kutubxonachi foydalanuvchining qaysi masala haqida fikr bildirmoqchi ekanligini aniqlab olishi zarur. Ana shu yo'nalishda foydalanuvchi noto'g'ri fikr yuritsa, uning noto'g'ri ekanligini tushuntirib, to'g'ri yo'lga solishi zarur. Lekin, foydalanuvchi fikriga, mulohazasiga

hurmat bilan qarashni esdan chiqarmasligi ham kerak. Konferensiya boshqaruvchining kirish soʻzi bilan ochiladi. Unda muhokamaga qoʻyilgan asar, hal etilishi kerak boʻlgan masalalar haqida, muallif ijodi haqida gapiradi. Keyin soʻzga chiquvchilarga navbat beradi. Reja boʻyicha 7-8 foydalanuvchi soʻzga chiqadi.

Konferensiyaning borishi rasmiylashtirib boriladi bu bayyonomada konferensiyaning qachon, qayerda, qaysi asar yoki muammo yuzasidan oʻtkazilganligi, qancha foydalanuvchi qatnashganini, ularning fikr-mulohazalarini aks ettirib berishi lozim. Baʼzi hollarda konferensiyaning borishi magnit tasma yoki videotasmaga yozib olinadi. Bayonnoma birinchidan, hujjat sifatida, ikkinchidan, hisobotlar davrida dalolatli hujjat sifatida muallif qatnashmagan taqdirda unga foydalanuvchilar fikrini yetkazuvchi manba sifatida muhim ahamiyatga ega. Konferensiyaning taʼsiri, samarasi foydalanuvchilar faolligining oshishida, kitob berilishining oʻsishida koʻrinadi.

Bir kitobga bagʻishlangan konferensiyalar eng yaxshi badiiy asarlarni, ilmiy va ilmiy-ommabop, ishlab chiqarishga oid adabiyotlarni targʻib qilish maqsadida deyarli barcha tipdagi kutubxonalar faoliyatida keng qoʻllaniladi. Hayotiy muammolarni aniq aks ettirgan, insonparvarlik, mehnatsevarlik, sevgi va muhabbatni tarannum qiluvchi, vatanparvarlik va milliy eʼtiqodga asoslangan asarlar tanlab olinadi. Keyingi paytda yuksak maʼnaviy qadriyatlarimiz aks etgan asarlar, boy maʼnaviy merosimiz namunalari asosida konferensiyalar keng oʻtkazilmoqda. Asarni tanlashda foydalanuvchilarni adabiyotning qaysi janri koʻproq qiziqtirishini, qaysi mavzudagi adabiyotlar koʻproq oʻqilishini hisobga olish zarur. Konferensiyada muhokama qilinishi zarur boʻlgan masalalar aniqlab olinadi. Oldindan muhokamaga qoʻyilayotgan masalalar haqida reklama ishlari, belgilangan savollar haqida axborot ishlari olib boriladi. Bu konferensiyaning ravon va bir tartibda oʻtishiga yordam beradi, foydalanuvchilarning faol qatnashishini taʼminlaydi, foydalanuvchilarga taʼsirini oshiradi. Ayrim ilmiy kutubxonalarda ilmiy, ilmiy-ommabop, ishlab-chiqarishga oid asarlar ham tanlab olinadi. Ularda koʻproq ilmiy masalalar va ularning yechimi, ishlab chiqarishdagi, ilmiy taraqqiyotdagi oʻrni haqida muhokama yuritiladi.

Mavzuli konferensiyalar. Bunday konferensiyaning tayyorlash mavzuni tanlash bilan boshlanadi. Masalan: “Egasi bor yurtning ertasi bor”, “Buyuk sohibqiron”, “Tasavvuf

ilmining ulamolari”, “Islomda inson ma’naviyati va madaniyati” kabi mavzularni olish mumkin. So‘nggi mavzu uchun “Hayot va hadis” ruknida chop etilayotgan asarlar tanlab olinishi mumkin. B.Ahmedovning “Amir Temur”, M.Alining “Ulug‘ saltanat” asarlarini “Buyuk sohibqiron” mavzusi uchun tanlab olinadi.

Mavzuli konferensiya bir mavzuga oid bir necha asarlar yuzasidan o‘tkaziladi. Maqsadi bir mavzuga oid asarlarni targ‘ib qilish, shu asarga nisbatan foydalanuvchilar qiziqishini shakllantirish va tarbiyalashdan iboratdir.

Bir janrga oid konferensiyalar. Biror bir adabiy janrga oid adabiyotlar muhokamasi bolalar kutubxonalarida keng tarqalgan. Uning maqsadi bir janrdagi eng yaxshi badiiy asarlarni targ‘ib qilishdan iborat. Foydalanuvchilar orasida ko‘pincha faqat bir janrga qiziquvchi foydalanuvchilar uchraydi. Ana shu janrdagi asarlarni muhokama qilish shu foydalanuvchilar va boshqa foydalanuvchilar orasida tanlangan asarlarni targ‘ib qilishga, uni mukammal tushunib olishga yordam beradi.

“Yoshlar she’riyati”, “O‘zbek romanlari”, “Sarguzasht qissalar”, “Moziydan so‘z ochgan asarlar” kabi mavzuda muhokamalar o‘tkazish mumkin.

Bir muallif ijodiga bag‘ishlangan konferensiyalar. Mashhur yozuvchi yoki shoirlarning, olimlarning yubileylari va tug‘ilgan kunlari munosabati bilan shu muallif asarlarini targ‘ib qilish maqsadida muhokamalar tashkil etiladi. Bunday konferensiyalarda imkon bo‘lsa, muallifning o‘zi qatnashadi. Bunday imkoniyat ko‘proq poytaxt yoki viloyat markazlarida joylashgan kutubxonalar faoliyatida uchraydi. Bunday muhokamalar juda qiziqarli o‘tadi, chunki muallifning o‘zi foydalanuvchilar bilan yuzma-yuz uchrashadi, ularning fikr mulohazalarini tinglaydi, foydalanuvchilar ham bevosita muallifning o‘zi bilan muloqotda bo‘ladi, ammo muallif ishtiroki foydalanuvchilarga xalaqit bermasligi va muhokama uchrashuvga aylanib ketmasligi kerak. Mulohaza davomida muallifni ortiqcha maqtash hollariga yo‘l qo‘yilmaydi. Bu ochiq, samimiy tanqidni bo‘g‘adi. Muallif konferensiyaga boshqaruvchilik vazifasini olib borishi mumkin, muhokama yakunida muallifga so‘z beriladi. Bunda muallif foydalanuvchilarning fikr-muloxazalariga o‘z munosabatini bildiradi. Konferensiya jarayoni rasmiylashtirib boriladi va bayonnomada aks ettiriladi.

Adabiy mavzuli kechalar konferensiyadan farq qilib, biror bir dolzarb mavzuga, voqeaga, muhim sanaga bag'ishlanadi. Bunday kechalar foydalanuvchilarning bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etishga qaratilgan tadbir bo'lib, siyosiy, ilmiy, texnik va badiiy bilimlarni targ'ib qilishga qaratilgan. Shuning uchun ham bunday tadbirlar madaniy hordiq xarakteridagi tadbir ham deyiladi. Chunki adabiyotlar haqidagi fikrlardan tashqari badiiy qism, sahna ko'rinishlari, badiiy chiqishlar, konsertlar beriladi.

Mavzuli kechaning maqsadi foydalanuvchilarni muhim voqea va masalalar bilan tanishtirish, ma'lumot berish, shu masalaga qiziqish uyg'otish, ularning bilimni kengaytirish, yangiliklarni ko'rsatish, kitob fondini yoritib borishdan iborat.

Mavzuli kechani tayyorlash va o'tkazish ham masu'liyatli jarayon bo'lib, u o'ylab, puxta tayyorgarlik ko'rishni talab etadi. Mavzuli kechani tayyorlash mavzu tanlash bilan boshlanadi. Tanlangan mavzu foydalanuvchilar qiziqishiga mutolaa maqsadiga mos bo'lishi ko'proq foydalanuvchilarni jalb etadigan darajada bo'lishi zarur. Ishlab chiqarishdagi ilg'or tajribalarga oid mavzuli kechalar tashkilotlarning o'zida o'tkaziladi. Ko'pgina kutubxonalarda mashhur yozuvchi yoki shoirning, san'atkor yoki olimning, jamoat arbobining tug'ilgan kunlari, yubileyi, munosabati bilan mavzuli kechalar o'tkaziladi. Hozirgi paytda bunday kechalar adabiy-musiqali kechalar, musiqali mehmonxonalar kabi nomlar bilan ham o'tkaziladigan bo'ldi.

Mavzuli kechani tayyorlashdan avval tuzilgan hay'at tayyorlash va o'tkazish rejasini ishlab chiqadi, dasturini tayyorlaydi. Tayyorgarlik ishlari uchun 15-20 kun vaqt ajratiladi. Bu davrda kecha mavzusiga oid suhbatlar, ko'rgazmalar, bibliografik sharhlar, maslahatlar olib boriladi. Kecha mavzusiga mos badiiy mutolaalar, konsert chiqishlari, sahna ko'rinishlari tayyorlanadi. Buning uchun hay'at tarkibiga boshqa ma'naviy-ma'rifiy muassasalar xodimlari ham kiritiladi, ular kechaning badiiy qismini tayyorlash uchun mas'ul bo'ladilar. Kechani boshqaruvchi tayyorlagan ssenariy hay'at a'zolari o'rtasida muhokama qilinadi.

Kecha qisqacha kirish so'zi bilan ochiladi. Agar kecha biror shaxsning hayoti va ijodiga bag'ishlangan bo'lsa, uning faoliyati haqida ma'ruza qilinishi mumkin. Kecha odatda 2-2,5 soatga mo'ljallanadi. Kechada mavzu bo'yicha chiqishlar namoyish qilinadi. Badiiy qism muhokama qismi bilan aralash holda berilgani ma'qul. Ammo,

kecha konsertga yoki badiiy sahna ko‘rinishiga aylanib qolishi kerak emas. Asosiy e‘toborni mavzuning muhokamasiga ajratgan ma‘qul. Mavzuli kechalar ham boshqa tadbirlar kabi rasmiylashtiriladi. Mavzuli kechalar mazmuni va maqsadiga ko‘ra turlicha bo‘ladi: uchrashuv, savol-javob, she‘riyat kechalari.

Uchrashuv kechalari. Kutubxonalarda ishlab chiqarish ilg‘orlari, mehnat qahramonlari, san‘atkor, yozuvchi va shoirlar bilan uchrashuvlar o‘tkaziladi.

Konferensiyalarda foydalanuvchilar so‘zlash kechalarda mutaxassislar asosiy o‘rinni egallaydi. Uchrashuv kechasida uchrashuv qahramoni so‘zga chiqadi va foydalanuvchilarning savollariga javob beradi. Uchrashuv kechalari ham majmuaviy tadbir. Uni tayyorlash va o‘tkazishda bibliografik sharh, kitob ko‘rgazmalari, axborot ishlari, al‘bomlar, yakka va guruhli suhbatlar, kitob taqdimoti olib boriladi.

Kechada muallif o‘zi haqida, ijodi, uning xususiyatlari, ish rejaları haqida so‘zlab beradi. Agar muallifning biror bir asari sahnalashtirilgan bo‘lsa, unda asosiy rollarni o‘ynovchi san‘atkorlar, rejissyorlar taklif etiladi.

Keyingi paytda bunday uchrashuvlar radio va televideniye orqali ham berilmoqda. Buning ahamiyati juda katta, u birinchidan targ‘ibotning ommaviyligini ta‘minlasa, ikkinchidan foydalanuvchining faqat eshitish organlariga emas, balki ko‘rish organlariga ham ta‘sir qiladi. Foydalanuvchining estetik didini tarbiyalaydi.

Har qanday uchrashuv kechasi foydalanuvchilarda katta taassurot qoldirishi, muallif ijodiga qiziqish uyg‘otishi, muallifga kelgusi ijodida yordam berishi mumkin. Buning uchun kechani tayyorlash va o‘tkazishga alohida e‘tibor beriladi. Kechani tayyorlash hay‘at tuzish bilan boshlanadi. Hay‘at uchrashuv qahramonini aniqlaydi, u bilan muloqot o‘rnatib, uchrashuv vaqtini, o‘tkazish joyini, kecha yo‘nalishini belgilaydi. Boshqaruvchi esa kechani olib borishga alohida tayyorgarlik ko‘radi. U kecha qahramonini atroflicha o‘rganishi, u haqda foydalanuvchilar tomonidan berilishi mumkin bo‘lgan savollarga adabiyotlar va qahramonni biladiganlar yordamida ma‘lumotlar to‘plab qo‘yishi zarur. Tayyorgarlik vaqtida taklifnomalar, xabarnomalar taxt qilinib, zarur vaqtda kerakli joylarga tarqatiladi. Ulardan uchrashuv qahramoni, o‘tkazish vaqti, yo‘nalishi to‘g‘risida aniq ma‘lumot beriladi. Kecha mavzusiga oid kitob ko‘rgazmasi uning ta‘sirini va samarasini oshiradi, foydalanuvchilarning kechaga puxta

tayyorgarlik ko‘rishlariga yordam beradi. Unda muallif asarlari, u haqdagi asarlar, tanqidiy materiallar, fikrlar, rasmi xujjatlardan foydalaniladi. Ko‘rgazma yonida muntazam sharh o‘tkazib turiladi. Sharh 15-20 daqiqaga mo‘ljallaniladi. Kecha o‘tkaziladigan joyni tayyorlash ham muhim ahamiyatga ega. Imkoni boricha, xona yoki zal turli ko‘rgazmali vositalar bilan jihozlanadi. Texnika vositalari tayyorlab qo‘yiladi, so‘zga chiquvchilar va boshqalar uchun joy yetarli holda tayyorlab qo‘yiladi.

Kecha kirish so‘zi bilan ochiladi. Boshqaruvchi kechaning mavzusi, yo‘nalishi haqida ma’lumot beradi, foydalanuvchilarga kecha qahramonini, boshqa ishtirokchilarni ham tanishtirib o‘tadi. Keyin so‘zni muallifga beradi. Muallif yoki qahramon o‘zi haqida, ijodiy va mehnat faoliyati haqida uning o‘ziga xos xususiyatlari haqida, rejalari, hayotiy tajribalari haqida so‘zlab beradi. Foydalanuvchilarning savollariga javob beradi. Kechada qahramon sharafiga konsert yoki badiiy qism berilishi mumkin. Boshqaruvchi auditoriya bilan qahramon o‘rtasidagi munosabatni ta’minlab turadi. Kechada bibliografik sharh berilishi mumkin. Uchrashuv kechasi hujjatlarda rasmiylashtiriladi.

Savol-javob kechalari ijtimoiy-siyosiy mavzular, tabiatshunoslik, ishlab chiqarish muammolariga, tarixiy mavzularga oid tashkil etiladi. “Yoshlar ko‘zi bilan: odam qanday paydo bo‘lgan”, “Noma’lum uchar jismlar: haqiqatmi-uydirma”, “Ekstrasens davolaydimi?”, “Spid XXI asr vabosi” kabi mavzulardagi savol javob kechalari juda qiziqarli o‘tadi. Kechaning mavzusi tanlab olingandan so‘ng kechada savollariga javob berishi mumkin bo‘lgan mutaxassislar aniqlab olinadi. Ular bilan maslahatlashib, kechaning vaqti, o‘tkazish joyi, ularning imkoniyatlari, savollar yo‘nalishi belgilab olinadi. So‘ngra foydalanuvchilarga xabar beriladi. Mutaxassislar savollarga javob berish uchun tayyorgarlik ko‘radi. Javob nutq yoki ma’ruza ko‘rinishida bo‘lmay, sodda, qisqa, samimiy, do‘stona ohangda bo‘lishi lozim. Kecha 2-2,5 soatga mo‘ljallanadi. Uning borishi foydalanuvchilar faolligiga bog‘liq. Foydalanuvchilar har bir javobga o‘z munosabatlarini bildirib o‘tishlari kerak. Buning uchun avvaldan foydalanuvchilar bilan yakka tartibda ish olib boriladi, ularni savol berishga tayyorlaydi, adabiyotlar sharhi o‘tkaziladi, kitob ko‘rgazmalari tashkil etiladi, mavzuga oid adabiyotlar mutolaaga tavsiya qilinadi. Savol javob kechasi o‘zaro fikr almashish ruhida o‘tsa uning samaradorligi yanada yaxshi bo‘ladi.

SHE'RIYAT KECHALARI. Shoirlarning yubileylari, tug'ilgan kunlari munosabati bilan faqat she'riyatga bag'ishlangan tadbir. Bunday kechalar foydalanuvchilarni estetik ruxda tarbiyalashda, ularda nutq madaniyatini, xotirani rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, she'riyatning nozik sirlarini bilishga, mazmuni tushunishga, foydalanuvchiga zavq-shavq bag'ishlashga yordam beradi. Uni tayyorlash ham boshqa kechalarga tayyorgarlik kabi olib boriladi. Kechaning kirish qismida shoironing hayoti va ijodi haqida, agar kecha biror bir mavzuga oid bo'lsa, shu mavzuning dolzarbligi, ahamiyati, tanlangan she'riy asarlarning yo'nalishlari, mazmuni haqida gapiriladi. She'riy asarlarni mutolaa qilish kechaning asosini tashkil etadi. She'riy asarlarni mutolaa qilish uchun ham oldindan tayyorgarlik ko'riladi, unda o'quvchi mutolaa texnikasini, ifodali mutolaani egallagan, mahoratli, notiqlik malakasiga ega bo'lsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

ADABIY VIKTORINALAR

Adabiy viktorinalar savol javob o'yinlari deb ham yuritiladi. Bu badiiy va boshqa asarlarni targ'ib qilishning eng qiziqarli usuli bo'lib, undan maktab va bolalar kutubxonlari keng foydalanadi. Savol javob o'yinlari o'rta maktab, o'rta maxsus bilim yurtlarining dasturi asosida tashkil etiladi. Maqsadi, yoshlarning bilim saviyasini oshirish, dastur asosi-da qo'shimcha bilim olishlarini tashkil etish, mustahkamlash, tanlangan mavzuga qiziqish uyg'otishdan iborat. Viktorinalar mashhur yozuvchi va shoirlarning, san'atkor va olimlarning yubileyi, muhim voqea va sanalar munosabati bilan tashkil etiladi.

Adabiy viktorinalar qiziqarli va shu bilan birga ma'suliyatli tadbir. Shuning uchun u alohida tayyorgarlikni, katta bilimni talab etadi. Uni tashkil etayotgan va olib boruvchi shaxs mavzu bo'yicha atroflicha bilimga ega bo'lishi, mavzuga oid barcha qo'shimcha adabiyotlar, ma'lumotnoma nashrlar, lug'atlar, qomusnomalar bilan tanish bo'lishi kerak.

Adabiy viktorinani tayyorlash va o'tkazish usuli.

Adabiy viktorinalar mazmuniga ko'ra qo'yidagi turlarga bo'linadi:

1. Bir muallif ijodiga bag'ishlangan viktorinalar.
2. Bir asarga bag'ishlangan viktorinalar.

3. Mavzuli viktorinalar.

4. Teatrlashtirilgan viktorinalar

Adabiy viktorinalar mustaqil tarzda yoki boshqa majmuaviy tadbirlarga yordamchi tadbir sifatida qo'llaniladi. Masalan: foydalanuvchilar konferensiyasi, adabiy mavzuli kechalar, og'zaki jurnallar, turli tanlov va mushoiralarda qo'llash mumkin. Adabiy viktorinani tayyorlash uchun avval mavzu tanlanadi. Mavzuni tanlash uchun tadbirning maqsadini, foydalanuvchilar guruhini, ularning qiziqishi, mutolaa maqsadi va bilim saviyasini aniqlab olish, kunning dolzarb masalalarini hisobga olish zarur. Agar savol-javob o'yinlari maktab o'quvchilari orasida olib boriladigan bo'lsa, u maktab dasturi hamda maktabdan tashqarida mutolaa mashg'ulotlarining mavzusiga bog'lanishi zarur. Bu o'quvchilarning o'quv dasturi asosida kengroq bilim olishlarini ta'minlaydi, ularning mustaqil bilim olishlariga yordam beradi., o'quvchilar-da mutolaa ko'nikmasini, adabiyot tanlash, fikr-mulohaza yuritish ko'nikmasini tarbiyalaydi. Adabiy viktorina badiiy adabiyotga qiziqishni yanada oshiradi, foydalanuvchining estetik didini shakllantiradi, o'qilganni esda saqlab qolishga o'rgatadi.

Viktorinani tayyorlashning keyingi bosqichi savollar tuzishdan iborat, bu ham o'ta mas'uliyatli jarayon. Savollarning sodda, lo'nda, tushunarli bo'lishiga erishish lozim. Buning uchun qo'shimcha materiallardan, kundalik matbuot asarlaridan foydalanish lozim. Tuzilgan savollar mazmuniga ko'ra guruhlashtiriladi. Viktorinani olib boruvchi alohida tayyorgarlik ko'radi. Boshqaruvchi vazifasini mutaxassis foydalanuvchi bajarishi mumkin. Boshqaruvchi savollarga berilishi mumkin bo'lgan javoblarni tayyorlab qo'yadi. Uning vazifasi auditoriya bilan doimiy bog'liqlikda bo'lish, foydalanuvchilarning so'zlarini, javoblarini, e'tibor bilan tinglab borish, javoblarning tez va to'g'ri berilayotganini belgilab borishdan iborat. Boshqaruvchi zarur bo'lsa, asarlardan parcha berishga, illyustrasiyalarni namoyish qilishga tayyorgarlik ko'radi. Agar teatrlashtirilgan viktorina bo'lsa, tayyorgarlik ko'rish jarayonida faol foydalanuvchilar ishtirokida asar qahramonlarining "chiqish"larini ular uchun kostyumlarni tayyorlash, mavzu mazmuniga mos video tasmlar, radio apparatlarini va boshqa texnika vositalarini tayyorlab qo'yish muhim ahamiyatga ega. Viktorina qisqacha kirish so'zi bilan boshlanadi. Unda tanlangan mavzuga ta'rif beruvchi savollar yo'nalishi, ularga javob

berish tartibi, eng yaxshi javoblarga boʻladigan munosabat haqida gapiriladi. Keyin asosiy savol-javob qismiga oʻtiladi. Uni jonli va qiziqarli olib borish boshqaruvchining mahoratiga bogʻliq. Savollarga berilayotgan javoblar hakam tomonidan hisobga olib boriladi. Hakam tarkibiga mutaxassislar: faol foydalanuvchilar, jamoat tashkilotlarining vakillari kiritiladi. Soʻnggi yakunlovchi qismda javoblarga munosabat bildiriladi, gʻoliblarga kitob, plastinka, kutubxona nishonlari, reklama materiallari topshiriladi. Mavzu mazmuniga mos qanday adabiyotlar mutolasi mumkinligi aytib oʻtiladi. Tadbir boshqa barcha tadbirlar kabi rasmiylashtiriladi. Unda tadbir nomi, savollar va ularga berilgan javoblar, taqdirlanganlar, qancha foydalanuvchi qatnashganligi, hakam tarkibi, ishning taʼsiri, foydalanuvchilarning tadbir haqidagi fikr-mulohazalari koʻrsatiladi.

Viktorinaning yana bir turi teatrlashtirilgan viktorinalar boʻlib, ommalashgan va foydalanuvchilar qiziqishiga mos asar tanlab olinadi. Undagi qahramonlar qiyofasida foydalanuvchilarning oʻzlari chiqadilar. Har bir foydalanuvchi oldindan qahramon soʻzini yod oladi. Sahnada asar qahramonlari oʻzlarini namoyish qilganlaridan soʻng, foydalanuvchilardan javob yozilgan varaqalar yigʻib olinadi. Varaqada foydalanuvchinig ismi, familiyasi har bir savolga javobi yoziladi. Yigʻib olingan varaqalar hakam tomonidan oʻrganib chiqiladi va natijalar aniqlanadi. Bunday viktorinalarni oʻtkazish uchun quyidagi asar qahramonlarining chiqishlari tayyorlanishi mumkin. Har bir qahramon qiyofasida foydalanuvchi saxnaga chiqib qahramonning monologini yoki biror bir fikrini oʻqiydi, u asar qahramonining hatti harakatini, tashqi koʻrinishini, xarakterini bera olishga harakat qilishi kerak. Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidagi Farhod, Shirin, Mohinbonu, Xusrav va boshqalar shunday qahramonlar sifatida tanlanishi mumkin. Oʻtkazilgan savol-javob oʻyinlari asosida foto-gazetalar, alʼbomlar, devoriy gazetalar tashkil etish va video kasseta tasmasiga koʻchirib qoʻyish mumkin. OAV sahifalarida, radio va televideniye koʻrsatuvlarida oʻtkazilgan tadbir haqida maʼlumot berilsa, kutubxona imidji koʻtariladi, uning va ommaviy tadbirlarning reklamasi amalga oshadi. “Siz bu qahramonlarni taniysizmi?” nomli viktorinalar mavzuli boʻlib, badiiy asardagi ijobiy va salbiy qahramonlar qiyofasini aks ettiruvchi, tasvirlovchi parchalarni mutolaa qilish asosida olib boriladi. Bunday viktorinalar foydalanuvchilarning tanlangan asarni diqqat bilan mutolaa qilishi, xotirada saqlab

qolish, tasavvur qila bilish, ularning ichki dunyosini xis qilish, eng asosiysi asarni tushunish ko'nikmasini tarbiyalaydi.

Tanlangan parcha boshqaruvchi tomonidan o'qib beriladi. Foydalanuvchilardan diqqat biloan eshitish talab etiladi. Tinglovchilar parchada berilgan ma'lumotga ko'ra qahramonning qaysi asar qahramoni ekanini aytib beradi.

Adabiy mutolaalar, ularni tayyorlash va o'tkazish usuli

Adabiy mutolaalar yozuvchi va shoirlarning yubileylari, muhim va dolzarb masalalarga bag'ishlab o'tkazilishi mumkin. Kutubxonachi tadbirni qisqacha kirish so'zi bilan ochadi. U tadbirning maqsadi, kimga bag'ishlanganligi, tadbir qahramonining hayoti va mehnat faoliyati, foydalanuvchining tarjimai holi haqida so'zlab beradi. U bunda asosiy e'tiborni hayotida va mehnat faoliyatida, turmush tarzida kitob va mutolaaning, kutubxonaning o'rni haqida gapiradi, qaysi adabiyotlar ta'sirida qanday ma'naviy fazilatlarni o'zida mujassamlashtirganini misollar bilan so'zlab beradi. Ko'pchilik uchun zarur, qiziqarli va eng foydali deb hisoblangan adabiyotlar haqida fikr mulohazalarini bayon qiladi, ularni mutolaa uchun tavsiya qiladi. Benefis davomida ko'rgazmadan foydalanish muloqatining yanada jonli o'tishiga ta'sir ko'rsatadi. Foydalanuvchi suhbat davomida kitob tanlash, mutolaa jarayoni, matnni tushunish va uni eslab qolishga xos bo'lgan xususiyatlar haqida fikrlashadi. O'zi to'plagan qiziqarli nashrlar, gazeta va jurnal materiallaridan parchalar o'qib beradi. Tadbirning savol-javob qismi yana ham qiziqarli o'tadi. Bu qismda foydalanuvchilar o'zlarini qiziqtirgan savollar bilan benefischiga murojaat qiladi. Ushbu tadbirning ahamiyati shundaki, foydalanuvchida yangi qiziqish paydo bo'ladi, adabiyotlar o'qilishi ortadi, foydalanuvchida mutolaa madaniyati, matbuot asarlariga ijobiy munosabat, tanqidiy fikr yuritish qobiliyati shakllanadi.

Umuman kutubxonalarda o'tkaziladigan ommaviy ishlar kutubxona faoliyatining muhim bir bo'lagini tashkil etib, kutubxona olib borayotgan ishlarning ko'lamini belgilaydi. Ommaviy tadbirlarning birinchi galdagi vazifasi eng muhim yangiliklar, yangi bilim haqida o'z vaqtida axborot berishdan iborat. Jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy, ma'naviy hayotidagi barcha voqeliklar, hodisalar, masalalar, muammolar haqidagi yangiliklar negizida axborot yotadi. Ana shu axborotni xalqimizga,

har bir kishi ongiga o'z vaqtida yetkazish barcha ommaviy axborot vositalari qatori kutubxonalarining ham vazifasi. Axborotni istemolchiga yetkazish, ommani ma'lum bir xabar bilan ta'minlash ularning talab va ehtiyojlarini qondirishgina emas, balki jamiyat manfaatlarini ifodalashga, uni targ'ib qilishga kishilarning unda faol ishtirok etishini ta'minlashga qaratiladi.

Axborotni to'plash, qayta ishlash, umumlashtirish, iste'molchiga yetkazish, qabul qilish, o'zlashtirish, saqlash kabi jarayonlar axborot vositasida boshqarish bilan bog'liq. Matbuotda berilgan axborot ommani boshqarishga, uni aniq maqsad sari yo'naltirishga yordam beradi. Bosma nashrlar orqali jamiyat manfaati, uning g'oyasi va mafkurasini, maqsadi ifodalanadi va himoya qilinadi. Demak, matbuot asarlarini targ'ib qilish ham ommaviy ishlarning asosiy xususiyatlaridan biri. Jamiyat mafkurasini omma ongiga yetkazish, singdirish, uni tushuntirish, ularning faoliyatini jamiyat manfaatlari bilan uyg'unlashtirishda kutubxonalar muhim o'rin tutadi. Matbuotda berilayotgan har qanday materialning mazmunida targ'ibot yotadi. Kutubxonalar faqatgina targ'ib etibgina qolmaydi, balki jamiyatning bosh maqsadi va vazifalari, shiorlariga turli shakl va usullar orqali xalqni ishontirishga xizmat qiladi. Bu kutubxonalarining olib borayotgan targ'ibot ishlari bo'lib, ommaviy ishlar negizida ham ko'zga tashlanadi. Adabiyotlar targ'ibot ishlari kishilarni o'z o'zini anglash, ularning madaniy, estetik dunyoqarashini shakllantirish, hayotda aniq yo'lini va o'rnini belgilab olishga yordam beradi. Shuning uchun bu tadbirlar tarbiyaviy ahamiyatga ega. Foydalanuvchilarni axloq-odob, birdamlik, hamkorlik, o'zaro hurmat, mulohaza yuritish, fikrlash, xotirada saqlab qolish ko'nikmalarini tarbiyalaydi. Ularda tashabbuskorlik va ijodkorlik xislatlarini tarbiyalaydi. Kutubxonalar jamiyat manfaatlari, mafkurasini va g'oyasidan kelib chiqib faoliyat ko'rsatar ekan, tashkilotchilik ishlarini olib borishda tegishli muassasalarga yoki tashkilotlarga yordam beradi. Bu esa kutubxonalar ishining tashkilotchilik xususiyatini anglatadi. Keyingi paytda reklama so'zi hayotimizga kirib keldi va jamiyatimiz taraqqiyotining barcha soxalarini qamrab oldi. Kutubxonalarining targ'ibot va tashviqot ishi bilan bog'liq holda reklama faoliyati ham olib borildi. Ommaviy tadbirlarda ayniqsa, ko'rgazma targ'ibotida kutubxona binosining ichki va tashqi bezatilishi, plakatlar, turli yozuvlar, devoriy gazetalar, bo'yoq va rasmlar, suratlar hatto har bir so'z reklama

vazifasini bajaradi. Reklama faoliyatida kutubxonalar tomonidan turli bukletlar, varaqalar, risolalarning nashr etilishi, kutubxonaning yillik xisobotlari va ish rejalarining nashr etilib tarqatilishi, turli mavzularda tayyorlangan axborot byulletenlari, pochta tarqatmalari, imkon qadar tayyorlangan turli xatcho‘plar, mayka yoki bosh kiyimlarining, kutubxona emblemasi tushirilgan holda tayyorlanib tarqatilishi juda katta samara beradi. Kutubxonada o‘tkaziladigan har qanday ommaviy va reklama ishlarining ta’sirchanligini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Har qanday reklamada qandaydir ta’sirchanlik mavjud bo‘lsa, u iste’molchiga u yoki bu darajada ta’sir qiladi, uning axborotni qabul qilish va qayta ishlashini ta’minlaydi. Ommaviy ishlarining ta’sir doirasini oshirish, buning uchun ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qilish, ular sahifalarida Press Relizni uyushtirish, Pablik Rileyshinz faoliyatidan foydalanish muhim o‘rin tutadi. Axborotni turli sahna asarlari, lavhalar, ko‘rinishlar, jonli hatti harakatlar (adabiy viktorinalar, og‘zaki jurnallar, konferensiyalar, uchrashuvlar, adabiy kechalarda), davra suhbatlari yordamida berish bilan ularning ta’sirchanligini oshirish ta’minlanadi. Tadbirlar asosida hissiylik ham yotadi. Bu ham tashkilotchiga, ham foydalanuvchiga bog‘liq holat bo‘lib, tadbir davomida turli his tuyg‘ular, kishiga hissiy darajada ta’sir ko‘rsatadigan so‘z va hatti harakatlar ishlatiladi, bu albatta foydalanuvchining psixologik holatiga ta’sir ko‘rsatadi, foydalanuvchida estetik didni, nozik his tuyg‘ularni shakllantiradi, yomonga nafrat, yaxshiga hurmat, ezgulik xislatlarini tarbiyalaydi. Ommaviy tadbirlarning yana bir muhim jihati-munozaralilikdan iborat. Tadbirlar davomida foydalanuvchida fikrlash, fikrni ko‘pchilikka bildira olish, unga boshqalarni ishontirish, muhokama va bahslarda tortisha olish ko‘nikmasi tarbiyalanadi. Bu xususiyat ayniqsa bolalikdan tarbiyalanib borilsa, ma’nan yetuk insonlar yoshlarimiz orasida ko‘proq uchraydi. Xullas, foydalanuvchilar va iste’molchilar bilan ishlash jarayonining asosiy qismi hisoblanmish ommaviy tadbirlar va reklama ishlari kutubxona faoliyatining asosiy maqsad va vazifalariga xizmat qiladi, adabiyotlar targ‘ibotini yuqorida qayd etilgan shakl va usullari kutubxona faoliyatining asosiy maqsad va vazifalarini amalga oshirishga xizmat qiladi.

XIV-Bob Kutubxona-axborot muassasalarida mutolaa madaniyatini shakllantirish

Mutolaa madaniyati madaniyat tarkibiga kiruvchi va uni tashkil etuvchi qism sifatida madaniyat tushunchasi bilan bog'liqlikda ko'rib chiqishni talab qiladi. Madaniyat so'zi keng tushuncha bo'lib, u inson hatti harakatining eng oliy darajasini aks ettiradi. Madaniyat so'zi grekcha so'zdan olingan va "shaharlik" ma'nosini anglatgan. Biz hayotda kiyinish madaniyati, ovqatlanish madaniyati, muloqot madaniyati, muomala madaniyati, raqsga tushish madaniyati, oila madaniyati kabi ko'plab tushunchalarni ko'p eshitamiz. Bularning hammasi o'z yo'nalishida yuksak ahloqiylikni, odobni, hurmatni anglatadi. Masalan, kiyinish madaniyati deganda insonning yoshiga, kasbiga, egallab turgan lavozimiga ko'ra kiyinishning o'ziga yarashgan holatini qabul qilganining tushunamiz. Bu madaniyat darajasi uning milliy mentalitetiga, urf odatlariga, mahalliy iqlim, qadriyatlarga mosligida ham ko'rinadi. Muomala madaniyati tushunchasida Alisher Navoiy aytganidek so'z aytish va tinglash odobiga amal qilgan insonni, har bir fikrni odob bilan, boshqalarga tushunarli, aniq va lo'nda aytgan, suhbatdoshini hurmat qilgan holda fikr aytadigan, suhbatdoshini tinglay oladigan, unga to'g'ri va hurmat bilan munosabatda bo'ladigan, o'rinli so'zlay oladigan insonga nisbatan madaniyatli deb baho beramiz. Mutolaa madaniyati tushunchasi kitobga va bilim olishga qiziqish, unga mehr muhabbat bilan munosabatda bo'lish, asar bilan kengroq tanishish, kitob mutolaa jarayonlarini to'g'ri tashkil eta olish, har qanday o'qigan kitobi haqida fikrlay olish, undan o'ziga tegishli xulosa chiqara olish, kitob bilan ishlashning maxsus bilimiga ega bo'lish, kitobdan to'la foydalana olishga yordam beradigan ko'nikma va malakaga ega bo'lish darajasi tushuniladi.

Mutolaa madaniyatini shakllantirishdan maqsad-foydalanuvchini asarni to'g'ri tanlay olishga, undan to'g'ri foydalana olishga, to'g'ri va aniq xulosa chiqarishga, undagi bilimdan hayotida to'la foydalana olishga, muallifning fikrini, mulohazasini, ma'lumotini to'g'ri qabul qilishga, u haqda to'g'ri va aniq xulosa chiqarishga o'rgatishdan iborat. Bundan tashqari o'qiyotgan kitobini avaylash, asrash, ehtiyot qilish, tez mutolaa, o'z vaqtida qaytarib topshirish, o'qilgan kitobni boshqalarga tushuntira olish va mutolaaga erishish, mutolaani tashkil etishda uning gigiyenik va texnik qoidalariga amal qilishga o'rgatishdan iborat. Bu fazilatlarni shoshma-shosharlik bilan bajarib bo'lmaydi. Inson mutolaa madaniyatini o'rganish uchun umrini sarf qilishi mumkin. Ammo, uning asosiy

qoidalarini bolalikdan qancha erta boshlab o'rgatilsa shuncha yaxshi. Mutolaaga o'rgatish oiladan boshlanadi. Bu yerda bir muammoga duch kelishimiz mumkin. Hamma ota-ona ham o'zi mutolaa madaniyati xususiyatlariga ega bo'lmashligi mumkin, bolaning yoshiga mos kitobni tanlay olmasligi, farzandiga to'g'ri, ifodali o'qib bera olmasligi mumkin. Buning sabablari ota-onada bo'sh vaqtning yo'qligi, kutubxonaga bormasligi, bolalar adabiyotini yoqtirmasligi yoki bilmasligi, yetarlicha ma'lumotga ega emasligi, savodsizligi, kutubxonachi bilan muloqotda bo'lmashligi, kutubxonachininig ota-ona bilan birga ishlamasligi va boshqalar. Shuning uchun ota-onalar maktab, kollej va lisey o'qituvchilari, tarbiyachilar, kutubxona xodimlari bilan hamkorlikda ish olib borishlari, maslahatlashishlari zarur. Bolalar mutolaa madaniyatida uchraydigan kamchiliklar: adabiyotlarni bilmaslik, adabiyotlarni turiga ko'ra ajrata olmaslik (janr, davlat, millat, xalq, davr nuqtai nazaridan) adabiyotning qaysi bilim sohasiga mansubligini, kitobni qayerdan qidirishni, qanday mutolaani, qayerda mutolaani, ma'lumot-bibliografik apparatni bilmaslik va ulardan foydalana olmaslik. Buning ham sabablari ko'p: o'qituvchilar o'z fanlari bo'yicha adabiyotlardan bexabarligi, bibliografik ko'rsatkichlarni bilmasligi, kutubxonachilarning kitob fondini predmetlar yuzasidan qiziqarli va zarur adabiyotlar bilan to'ldira olmasligi, bolalar mutolaasiga e'tiborsizligi, ommaviy tadbir-larni, yakka tartibda ishlash usullarini bilmasligi yoki bilsa ham tashkil etmasligi, kutubxona reklamasini yo'lga qo'yimaganligi, mas'uliyatsizligi.

Barkamol avlod tarbiyasida kitobning o'rni katta. Agar foydalanuvchilar kitobdan unumli foydalana olsalar, undagi bilimni hayotda, maktabda, kollej va liseyda, oliy ta'lim muasasalarida mutolaa jarayonida qo'llay olsa, bolalar mutolaasini tashkil etishda ota-onaning, oilaning o'rni oshsa, o'qituvchilar va kutubxonachilar hamkorligi to'g'ri yo'lga qo'yilsagina bu vazifa to'la bajariladi. Ota-ona yordamida bolaga adabiyot tavsiya etish, sinfdan tashqari mutolaalarni to'g'ri tashkil etish, bolaning yoshiga, ruhiyatiga, xohish istagiga ko'ra kitobni tanlashda hamkorlik qilish, dars jarayonida biror bir asarni ifodali o'qib berish, hikoya qilib berish bilan qiziqtirish, buning uchun albatta mutolaa mahoratini egallagan bo'lishi zarur, samimiy suhbatlar, muhokamalar, kichik yoshdagi bolalar bilan turli xil o'yinlar (badiiy auksion, viktorina, davom eting kabi) , sahnada namoyish qilish bilan ta'sir etish lozim. Katta yoshdagi bolalarda mutolaa madaniyatini

tarbiyalashda mustaqil mutolaaga bo'lgan qiziqish va talablarni uyg'otish va rivojlantirish, kitob tanlash malakasini tarkib toptirish va o'stirish, ilmiy bilimni oshirishga ta'sir etuvchi ilmiy adabiyotlar bilan ishlash mahoratini egallashga yordam berish, badiiy adabiyotni mutolaa san'atini tarbiyalash, internetdan zarur resurslarni tanlashga o'rgatish, dunyo axborot olamidan foydalanish ko'nikmasini to'g'ri tarbiyalash ishlari tashkil etiladi. Bu ishda bosma va elektron resurslarning o'ziga xos xususiyatlarini to'g'ri tushuntirish va tavsiya etish muhim ahamiyatga ega. Faoliyatimizga kirib kelgan axborot-kompyuter va axborot-kommunikasiya texnologiyalari vositasida bilimni takomillashtirish yo'llari, ularning mutolaa jarayoniga ta'siri, ulardan unumli foydalanishga to'g'ri munosabatni tarbiyalash, tushuntirish kerak. Chunki, keyingi vaqtda internetning kitob mutolaasiga salbiy ta'siri, internetdan pala-partish foydalanish kuzatilmoqda.

Mutolaa madaniyatida quyidagi gigiyenik va texnik qoidalarga amal qilish an'anaviy tusga aylanib qolgan:

1. Kitobni "yamlamay yutish" yomon odat, ozgina o'qilsa ham puxta mutolaa.
2. Kitobni to'g'ri tanlash. Biror bir kitobni tanlashda mutaxassis bilan maslaxatlashish, shu sohaga oid tavsiya ro'yxatlaridan foydalanish, kitob mutolaasini eng yaxshi, eng kerakli kitobdan boshlash.
3. Mutolaa jarayonida vaqti-vaqti bilan to'xtab, o'qilganni o'ylab, mulohaza qilib olish. Tushunish qiyin bo'lgan so'zlarni, tushunchalarni lug'atlar, ma'lumotnoma nashrlar yordamida bilib borish, alohida daftarga yozib qo'yish.
4. Ayrim boblarni, qismlarni xotirada saqlab qolish uchun qisqacha bayon etib qo'yish.
5. Ma'qul kelgan fikrlarni, parchalarni yozib qo'yish, so'ngra uni matn bilan solishtirib to'ldirib, to'g'rilab qo'yish. Bu birovning fikrini o'qib, xotirada saqlab qolish va aytib berishga o'rgatadi.
6. Eslab qolish muhim bo'lgan raqamlarni, voqelarni, kunlar va boshqa sanalarni yozib qo'yish.

7. Mutolaani tugatib o‘ziga hisob berish: kitob nima berdi, qanday yangilik oldi, yana nimalarni mutolaa qilmoq kerak, muallifning qaysi fikriga qo‘shilish yoki qo‘shilmaslik mumkin.

8. Kitobni yotib, yonboshlab, osmonga tik qarab, pastga qarab yotib o‘qimaslik, transportda o‘qimaslik, yurib ketayotib o‘qimaslik. Bu ko‘z nurining sinishiga olib keladi, ko‘zning ko‘rish qobiliyatini pasaytiradi yoki boshqa ko‘z kasalliklarini keltirib chiqaradi.

9. Kitobni duch kelgan joyda tashlab ketmaslik: qor, yomg‘ir, shamol, quyosh nuri uning sifatiga ta’sir ko‘rsatadi.

10. Ovqat yeb turib kitob, gazeta va jurnal o‘qimaslik, bu avvalo miya faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, matbaa asarining sifatiga ta’sir etadi.

11. Kitob mutolaasidan avval va keyin qo‘lni yuvish. Bu sog‘liq uchun zarur. Ko‘p turib qolgan matbaa asarida turli xil o‘ziga xos ko‘zga ko‘rinmas zarakunandalar, hasharotlar, zamburug‘lar bo‘ladi. U qo‘l orqali, nafas yo‘llari orqali inson organizmiga ta’sir etadi.

Mutaxassislarning fikriga ko‘ra kitob mutolaasi uchun sahar vaqti tanlanishi qulaydir chunki bu paytda inson organizmi tungi uyqu vaqtida dam olgan, miya faoliyati yangi harakatlar uchun tayyor holda bo‘lib, miya tiniqib, dam olgan vaqtdir. Shuning uchun sahar paytidagi kitob mutolaasi o‘qilganni xotirada yaxshi saqlab qolishning, to‘la tushunishning, his qilishning garovidir. Foydalanuvchinnig mutolaa madaniyatini tarbiyalash bilan birga uning sog‘ligini, kelajagini, jismoniy baquvvat bo‘lishini ham nazarda tutish lozim. Agar foydalanuvchi mutolaa madaniyatining barcha gigiyenik va texnik qoidalariga amal qilsa, mutolaadan bezib qolmaydi, tezda ko‘rish qobiliyatini yo‘qotmaydi. Uyqu keltirish uchungina mutolaaning zararli odat ekanini tushuntira bilish ham kerak. Mutolaadan ko‘zlangan aniq maqsadning bo‘lishi, maqsadni aniq belgilay olish ham zarur. Ko‘p o‘qib hech narsa tushunmagandan ko‘ra, kam o‘qib ko‘proq narsani tushungan, ko‘proq bilimga ega bo‘lgan ma’qul. Pala-partish, qo‘lga nima tushsa shuni mutolaa qilish kishini mutolaadan bezdiradigan yana bir holatdir. Tanlab, eng zarurini mutolaa qilishga o‘rgatish, ham muhim vazifa. Asosiysi, mutolaa ko‘nikmasini, madaniyatini bolalikdan tarbiyalagan ma’qul.

XV- Bob Kutubxona boshqaruvi (menedjmenti): asosiy tushunchalari va kategoriyalari

15.1 Kutubxona boshqaruvi (menedjmenti) tushunchasi.

Bugungi kunda menedjment atamasi ko'p "hollarda" "boshqaruv" tushunchasi bilan bir xil ma'noda qo'llaniladi. Kutubxona – axborot faoliyati boshqarishga oid qarashlarning zamonaviy tizimlarini xorijiy mamlakatlar tajribasini umumlashtirish, davlat boshqaruv tizimidagi obyektiv o'zgarishlar ta'sirida paydo bo'ldi. So'nggi yillarda kutubxona – axborot faoliyatini boshqarish mustaqil fan sifatida uning predmeti va tushunchalari aniqlashtirilgan holda shakllanadi. Kutubxona–axborot faoliyatini boshqarish kutubxonalarining mavjudligi, tashqi muhit shart-sharoitlari va foydalanuvchilarning o'zgaruvchan ehtiyojlariga mos holda rivojlanishi va samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan faoliyat sifatida qarab chiqishni talab qiladi. Boshqaruv nazariyasining uzoq muddatli rivojlanishi jarayonida "menedjment" atamasi tashkilotni boshqarish jarayonlarini ifodalovchi tushuncha sifatida paydo bo'ldi. Vaqt o'tishi bilan kasbiy faoliyatning alohida turi sifatida menedjment murakkablashib, turli sohalarga bo'linib ketdi. innovasion, moliyaviy, axborot, kutubxona, personal menedjment, sifat menedjmenti va boshqa tushunchalar uning alohida etibor qaratilgan yo'nalishlar va obyektlarga bo'linishdan kelib chiqadi. Mutaxassislar kutubxona–axborot faoliyati menedjmenti sohasida rivojlantirish, tartibga solish, uyg'unlashtirish, nazorat, hisob va hisobot, rag'batlantirish va qarorlar qabul qilish kabilarni alohida yo'nalishlar sifatida ta'kidlaydilar.

Kutubxona menedjmenti–kutubxona axborot muassasalari tashqi muhiti uzluksiz o'zgaruvchan sharoitida maqsadni belgilash va unga erishishning samarali usullarini ishlab chiqish faoliyatining kasbiy sohasidir. Kutubxona menedjmentlik asosida boshqaruv nazariyasiga ko'ra ishlab chiqilgan quyidagi yondashuvlar mavjuddir:

1. Boshqaruvga nisbatan o'zaro aloqador bo'lgan uzluksiz boshqaruv funksiyalariga jarayonli yondashuv.
2. O'zaro aloqador bo'lgan personal, tashkiliy tizim, vazifalar va texnologiya singari tushunchalar majmui sifatida tizimli yondashuv.
3. Boshqaruvning turli usullarini qo'llash mumkinligini shart–sharoitga muvofiq hal qilish yo'llarini ko'rsatuvchi vaziyatli yondashuv.

Menedjmentda "boshqaruvchi tizim" (boshqaruv obyekti) "boshqaruvchi tizim" (boshqaruv subyekti) asosiy tushunchalar hisoblanadi hamda ularning o'zaro ta'siri bir butun mehanizmni tashkil etadi. Tashkil etish kutubxonani boshqarish jarayonining asosiy vazifalaridan biri sifatida tizimni tashkil etish, uni tartibga keltirish va

takomillashtirishni ta'minlashga yordam beradi. Tashkil etish boshqarishning funksiyasi sifatida belgilangan maqsad va rejalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga yo'naltirilgan, kutubxona ishini tashkil etishga rahbarlik faoliyatidir. Har bir tashkiliy tizim o'zining ichki tuzilishiga ega bo'lib, barcha qismlarni bir butunlikda saqlab turgan. Tashkiliy tizimning davriy rejasi va strategiyasidagi o'zgarishlar o'z navbatida shunga mos ravishda qismlardagi o'zgarishlariga ham olib keladi.

Boshqarishning tashkiliy tizimi mustaqil qismlar (boshqaruv bo'linmalari, xodimlar) uchun bo'ysunish asosida o'zaro aloqadorligidagi tizimdan iboratdir.

Kutubxona–axborot muassasalari rahbarlari quyidagi vazifalarni amalga oshiradilar:

- Kutubxona–axborot muassasasining asosiy vazifasini bajarishini ta'minlaydi.
- O'zgaruvchan muhit sharoitida hatti – harakat strategiyasini ishlab chiqadi.
- Tashqi muhit bilan aloqada asosiy axborot bo'g'ini vazifasini bajaradi.
- Kutubxona–axborot muassasasining rasmiy vakili hisoblanadi.
- Kutubxona–axborot muassasasi faoliyatining natijalari bo'yicha rasmiy javobgar shaxs hisoblanadi.

Kutubxona–axborot faoliyatini boshqarish tizimi direktor, uning o'rinbosarlari, bo'limlar, filiallar boshliqlari, bosh kutubxonachi va bibliograflardan tashkil topadi.

15.2 Kutubxonachilik ishini boshqarishning davlat tizimi

Kutubxonachilik ishi–ijtimoiy tizim hisoblanganligi uchun kishilarning qiziqishlari uning faoliyatida asosiy o'rin egallaydi. Ijtimoiy, jamoaviy, shaxsiy qiziqishlar ushbu tizimning rivojlanish jarayoniga, holatiga faol ta'sir o'tkazadi. Kutubxonachilik ishining asosiy maqsadi foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish, ularni nashr mahsulotlari va axborotlarga bo'lgan ehtiyojini to'la qondirish orqali madaniyatning rivojlanishi va boyib borishiga ta'sir o'tkazishdan iborat bo'lgan ijtimoiy madaniy tizimdir. Kutubxonachilik ishi axborot, madaniy –ma'rifiy, ta'lim faoliyati sohasi bo'lib, kutubxonalar tarmog'ini yaratish va rivojlantirish, ularning fondlarini shakllantirish va qayta ishlash, foydalanuvchilar uchun kutubxona–axborot, ma'lumot-bibliografik xizmatlarini tashkil etish, kadrlar tayyorlash uning asosiy vazifalari hisoblanadi. Kutubxonachilik ishi murakkab ijtimoiy-madaniy tizim sifatida o'ziga xos xususiyatlarga va rivojlanish qonuniyatlariga egadir.

Kutubxonachilik ishi tizim sifatida quyidagi yo'nalishlarni qamrab oladi:

- Kutubxonalar tarmog'i;
- Kutubxona fondini jamlash;
- Kutubxona – axborot xizmatini tashkil etish;
- Kutubxona – axborot faoliyatini ilmiy tashkil etish;

- Kutubxona – axborot faoliyatini metodik ta'minoti;
- Kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash;
- Kutubxona – axborot faoliyatini boshqarish.

Boshqaruv obyekti:

- Kutubxona va uni tashkil etuvchi tizim bo'linmalari;
- Kutubxona–axborot muassasasi personal;
- Kutubxona – bibliografik zahirasi;
- Iqtisodiy zahiralalar.

Boshqaruv subyekti muayyan obyektini boshqarish vakolati berilgan jamoa organi yoki boshqaruvchi shaxs bo'lishi mumkin. Boshqaruv subyekti va boshqaruv obyekti o'zaro aloqadorligi kadrlar, tamoyillar, vazifalar, metodlar va boshqaruv texnologiyalarini o'z ichiga oluvchi boshqaruv tizimi orqali amalga oshadi.

Boshqaruvning muhim vazifalaridan biri kutubxonaning bir butun tizim sifatida mavjudligi va rivojlanishini ta'minlaydigan maqsadni aniqlab olishdan iboratdir.

Maqsadni belgilashda foydalanuvchilarning bugungi kundagina emas, kelajakdagi intilishlari, ehtiyojlari birinchi navbatda hisobga olinishi zarur. Boshqarish maqsadi – kutubxonalarning kelajakdagi holatining sirtiy, mazmuniy tavsifi majmuasi bo'lib, unga erishish uchun boshqaruv metodlari qo'llaniladi, tashkiliy tizimda o'zgarishlar amalga oshiriladi, kadrlar tanlash jarayoni yuz beradi. Boshqaruv maqsadi mazmuni, darajasi, vaqtiga ko'ra farqlanadi. Boshqaruv mazmuniga ko'ra “xodimlar”, “foydalanuvchilar”, “texnologiya”, “iqtisodiy zahiralalar” tushunchalari singari boshqaruv obyektlariga bog'liq bo'ladi. Boshqaruv maqsadlari vaqtiga ko'ra uzoq va qisqa muddatli bo'lishi mumkin. Boshqaruv maqsadlari darajasiga ko'ra kutubxona – axborot muassasasiga tegishli yoki uning biron bo'linmasiga tegishli bo'lishi mumkin. Bugungi kunda boshqaruv tamoyillarida asosiy e'tibor insonga yoki ijtimoiy yo'nalishga qaratilmoqdaki, bundan insonlarning birgalikda faoliyat ko'rsatishlari orqali samarali natijalarga erishishi ko'zlanadi. Bunda erishilgan natija bo'yicha har bir xodimning munosib hissasi, ularning ishga masuliyati, shundan qoniqish hissi alohida e'tiborga olinadi.

Kutubxona–axborot muassasalari faoliyatining samaradorligini oshirish usullaridan biri mehnatni ilmiy tashkil qilishdir. Mehnatni ilmiy tashkil etish inson mehnatidan foydalanish shakllarini tashkil etishni takomillashtirishga qaratilgan hatti–harakatlarni tahlil qilish bilan bog'liqdir. Mehnatni ilmiy tashkil etish quyidagi uchta vazifani amalga oshirish bilan bog'liqdir:

- Ishlab chiqarish–iqtisodiy ishlab chiqarish va mehnatning eng oliy darajasiga erishish; kutubxona – axborot faoliyatida bu ishlab chiqarishni yuksaltirish aniq namoyon bo'ladi;
- Shaxsning ijtimoiy har tomonlama (ma'naviy va jismoniy) rivojlanishi;

- Psixofiziologik – psixofiziologik omillarning mehnat unumdorligiga ta'siri. Kutubxona–axborot faoliyatida mehnatni ilmiy tashkil etish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:
- Kutubxonachilik ishi mehnatini tasdiqlash va birlashtirish;
- Mehnatning progressiv usullarini va ilg'or texnologiyalarni joriy etish;
- Ish o'rinlari va mehnat sharoitlarini yaxshilash va takomillashtirish;
- Kutubxonachilik ishini meyorlashtirish va rejalashtirish.

Kutubxona–axborot faoliyati texnologiyasiga yangiliklar kiritishda ilmiy asoslangan mehnat meyorlarini ishlab chiqish va qo'llash alohida ahamiyatga egadir. Meyorlashtirish muayyan texnologik jarayonlarni bajarishda kutubxona–axborot muassasalari resurslaridan samarali foydalanish, sarflangan mehnatni ilmiy asoslash, mehnat mahsuldorligini oshirishning asosiy sharti hisoblanadi. Kutubxona–axborot texnologiyalarini boshqarishda ish vaqti byudjeti muhim rol o'ynaydi. Ish vaqti fondi va uning sarfini aniqlash kutubxona–axborot muassasasida amalga oshirilgan ishlar hajmini to'g'ri hisoblash va uni tizim bo'linmalari, xodimlar o'rtasida bir tekis, to'g'ri taqsimlash imkonini ham beradi. Ish vaqti fondi kutubxona, uning tarkibiy bo'linmalari, alohida xodimga dam olish va bayram kunlari, mehnat ta'tili, mehnatga yaroqsizlik tufayli yo'qotilgan ish vaqti chegirib tashlagandan so'ng qolgan yillik ish soatlari yig'indisidir. Ish vaqti sarfi kutubxona–axborot muassasasida amalga oshirilgan ishlar turlari asosida, kutubxonada, uning bo'linmalarida, alohida ijrochilar tomonidan bajarilgan ishlarga ko'ra aniqlanadi. Ish vaqtining yillik fondi sarfini rejalashtirish bir yil davomida kutubxona–axborot muassasasida amalga oshiriladigan ishlar hisobini umumlashtirishdan boshlanadi. Sifat menedjmenti iste'molchilarning ehtiyojlarini qondirishda sifatga yo'naltirilgan va tashkilotdagi barcha xodimlar hamkorligiga asoslangan boshqaruv metodidir. Kutubxona–axborot muassasasida sifat menedjmenti–kutubxonachilik ishi va uning mahsulotlarining sifatiga nisbatan foydalanuvchilar ehtiyojining qondirilishiga yo'naltirilgan faoliyat turlari, vositalari va metodlari tizimidir. Kutubxona–axborot faoliyatida sifat menedjmenti kutubxona–axborot mahsulotlariga, xizmat ko'rsatish sifatiga nisbatan, foydalanuvchilar turli toifalarining talab va ehtiyojlarini qondirish metodlari, metodologiyasi, usullarining yaratilishi va amaliyotga ko'llanilishi demakdir. Sifatni boshqarish sifat sohasida maqsadni, vakolatni, mas'uliyatni aniq belgilash, sifatni ta'minlashni rejalashtirish, nazorat qilish singari jarayonlar tizimi hamdir. Sifat menedjmenti tizimli sifatni rejalashtirish, sifatni ta'minlash, sifatni nazorat qilishni o'z ichiga oladi. Kutubxona–axborot muassasasida sifat tizimini yaratish va amaliyotga ko'llash kuyidagilarni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi: kutubxona–axborot muassasasi ichki tizimi va xodimlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga keltirish; kutubxona–axborot muassasasida hujjatlarni tartibga keltirish madaniyatini oshirish; kutubxona – axborot muassasasi mehnat zahiralardan foydalanishda o'rta va yuqori bo'g'in rahbarlarining mas'uliyatini oshirish; texnologik va

mehnat intizomini mustahkamlash; kutubxona–axborot muassasasi mahsulotlari va xizmatlari samaradorligini oshirish; kutubxona–axborot muassasasining raqobatbardoshligini oshirish. Sifat menedjmenti – har qanday tashkilot va muassasa uchun eng zarur bo‘lgan pirovard natija sifatiga yo‘naltirilgan boshqaruvni tashkil etishga yordam beradi. Kutubxona–axborot faoliyatida sifat menedjmenti amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini oshirish, axborot, ma’lumot, bilim mahsulotlarning raqobatbardoshligini yanada oshirish imkoniyatini yaratadi.

15. 3. Kutubxona– axborot faoliyati marketingi.

Marketing termini XX asr boshlarida muassasaning ishlab chiqargan mahsulotlarini sotish maqsadida amalga oshiradigan hatti harakatlar majmuasi sifatida paydo bo‘lgan. 1950-yillardan boshlab marketing psixologik yondashuvlar asosida, shuningdek, sotib olingan mahsulot uchun rag‘batlantirishni qo‘llash orqali ishlab chiqaruvchining iste’molchilarga yuzlanishiga yo‘naltirila boshlandi. 1970-yillardan boshlab esa marketing tashkilotni boshqarish tizimi sifatida shakllana boshladi. Kutubxona– axborot faoliyati marketingi xorijiy mamlakatlarda 1980-yillardan boshlab amaliyotda qo‘llanila boshladi. Kutubxona–axborot faoliyati marketingi – foydalanuvchilarning ehtiyojlarini mukammal darajada qondirishga yo‘naltirilgan boshqaruv texnologiyasidir. U foydalanuvchilarning ehtiyojlarini shakllantirish, Kutubxona–axborot xizmatlariga nisbatan qiziqishlarni faollashtirishni asosiy maqsad qilib qo‘ydi.

Kutubxona– axborot faoliyati marketingi asosiy maqsadi:

1. Foydalanuvchilarning Kutubxona– axborot muassasalari bilan bog‘liq bo‘lgan ehtiyojlarini maksimal darajada qondirish;
2. Kutubxona– axborot xizmatiga yangi foydalanuvchilarni jalb qilish;
3. Kutubxona– axborot muassasasining ijobiy imidjini shakllantirish va doimiy saqlash.

Kutubxona– axborot faoliyati marketingining tamoyillari:

1. Moliyaviy foyda olishga urinishning mavjud emasligi;
2. Muammolarga majmuaviy yondashuv;
3. Foydalanuvchilar bilan qaytariluvchi aloqaning mavjudligi;
4. Ahloqiy meyorlarga amal qilish.
5. Tahliliy (xizmat ko‘rsatish, aholi soni va ijtimoiy tarkibini, ularning ehtiyojlarini ijtimoiy iqtisodiy jihatdan tahlil qilish va h.k)
6. Boshqaruv (kutubxona–axborot faoliyatlari mahsulotlari va xizmatlarini rejalashtirish).

Kutubxona– axborot faoliyati marketingi bosqichlari:

1. Kutubxona– axborot muassasasi faoliyatining aniq davrlardagi maqsadi va vazifalarini belgilab olish.
2. Ta’rischilarning tashkiliy ko‘magi.
3. Xodimlarning g‘oyalarni qabul qilishi.
4. Tayyorgarlikning zaruriy darajasiga ega bo‘lgan xodimlarning mavjudligi.
5. Kutubxona– axborot muassasasiga doir va tashqi axborotlarni yig‘ish.
6. Kutubxona–axborot muassasasi faoliyatning zaif va kuchli tomonlarini tahlil qilish.
7. Foydalanuvchilarni turli belgilariga ko‘ra guruhlarga ajratish.
8. Dastlabki maqsadlar va vazifalarni belgilab olish.
9. Tadbirlarni rejalashtirish.
10. Kutubxona– axborot muassasasida reklama va P.R.
11. Loyihalarni tuzatish.
12. Baholash va nazorat.

Kutubxona– axborot muassasalarida marketing tadqiqotlari.

Kutubxona– axborot muassasalari marketingi ularning ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan xizmat ko‘rsatish muassasasi ekanligiga asoslanadi. Kutubxona– axborot muassasalari hayotida muhim ijtimoiy-madaniy vazifalarni bajaralarda o‘zlarini reklama qilish, jamoatchilik bilan bog‘lanish vositasi bo‘lgan marketing xizmatidan kam foydalanadilar. Kutubxona–axborot muassasalarining marketing xizmati sohasida o‘zaro bog‘liq bo‘lgan vazifalari quyidagilardir:

- Zaruriy vositalar va resurslarni jalb qilish;
- Jalb qilingan vositalar va resurslardan kutubxona–axborot muassasasi bajaradigan vazifalarga muvofiq tarzda foydalanish.

XVI- Bob Kutubxona - axborot muassasalarining turiga ko‘ra tarkibiy bo‘linmalari, ularning vazifalari va o‘zaro aloqasi.

Aholiga kutubxona - axborot xizmati ko'rsatuvchi muassasalar turiga ko'ra ish tashkil etiladi, faoliyatni ixcham, to'g'ri, rejalashtirilgan va ma'lum bir tartibda olib borish, ishning sifatini va samarasini oshirish maqsadida ishning toifasi, bir biriga mazmunan va vazifasiga ko'ra mosligi, ishlarning turiga ko'ra bo'limlar tashkil etiladi. Bo'lim faoliyatini bo'lim boshlig'i boshqaradi. Har bir bo'limning ishi yillik, choraklik, oylik ish rejalari asosida olib boriladi va shunga ko'ra hisob ishlari yuritiladi. Kutubxona - axborot muassasalari faoliyatida quyidagi zarur hujjatlar yuritiladi. Kutubxonaning yuqori tashkilot tomonidan tasdiqlagan Nizomi, Kutubxona direktori tasdiqlagan bo'limlarning Nizomi, kutubxonadan foydalanish to'g'risidagi qoidalar (yuqori tashkilot tasdiqlaydi), kutubxona direktori tasdiqlagan har bir xodimning lavozim yo'riqnomalari, ishning asosiy turlari va ayrim texnologik jarayonlar uchun tuzilgan yo'riqnomalar, ma'lumot-bibliografik apparatdan foydalanish qoidalari va ishda zarur boshqa texnologik qoidalar, vaqt meyorlari, ish meyorlari, pullik xizmat ko'rsatish to'g'risidagi yuqori tashkilot tomonidan tasdiqlangan Nizom, ichki mehnat intizomi to'g'risidagi qoidalar, jamoa shartnomasi, kutubxonachilik ishiga oid standartlar. Har bir axborot-kutubxona markazning tarkibiy bo'linmalari davr talablari, kutubxona faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari, oldida turgan vazifalari va yana ko'plab ichki va tashqi ta'sir omillardan kelib chiqib o'zgaradi, takomillashib boradi. Hozirgi kunga kelib qator qarorlar asosida **Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasida** bo'limlar soni, nomlanishi, ularning vazifalari ancha takomillashdi. Bunga 2012 yil 20 martda qabul qilingan 1729-sonli Qaror hamda 2012 yil 2 aprelda shu qarorning ijrosi bo'yicha Vazirlar Mahkamasining "Respublika Prezidentining "Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi-kutubxona - axborot markazi faoliyatini tashkil etish choralari to'g'risida"gi Qarorini amaliyotga joriy etish to'g'risida"gi Qarori asos bo'ldi. Kutubxona fondini komplektlash xizmati bu bo'lim asosan Milliy kutubxona fondini turli xil shakldagi kutubxona-axborot resurslari bilan to'ldirishning pullik va pulsiz usullaridan foydalanib Milliy kutubxonaga resurslarni jalb etish, nashriyotlar bilan hamkorlikda ish olib borish, ularni jamlama hisobga olish bilan shug'ullanadi. 2012 yilda bo'lim Milliy kutubxona fondiga kelib tushgan 34501 nusxadagi nashrlarni hisobdan o'tkazgan. Fondni sistemalashtirish va kataloglashtirish xizmati Milliy kutubxonaga kelib

tushgan barcha axborot resurslarini bilim sohalari bo'yicha guruhlashtirish, ular haqidagi ma'lumotlarni elektron katalogga kiritish, texnik va ilmiy ishlov berish, adabiyotlar CIP o'rnatish bilan shug'ullanadi. Bu yangi texnologiya bo'lib, nashrlarning to'liq saqlanishini ta'minlaydi, yo'qolishining oldini oladi. Kitob fondini va vaqtli matbuot nashrlarini saqlash xizmati va ixtisoslashtirilgan va majburiy nashrlarni saqlash xizmati yangi zamonaviy texnologiyalar yordamida ish olib boradi. Milliy kutubxonaning fondi 10850562 nusxaga yetdi. Qo'lyozmalar, nodir va o'ta qimmatbaho nashrlar xizmati 14 ta maxsus belgi asosida 15905 nusxa shunday adabiyotlar saqlanadi. Ularni fondga joylashtirish uchun turlari va xillari maxsus belgilar bilan ajratilgan (har bir kutubxona ularni turlarga ajratishda o'ziga xos belgilarni tanlashi mumkin, bu barcha kutubxonalarda bir xil emas) va quyidagi jadvalda ularning tarkibi ko'rsatilgan: Milliy bibliografik ma'lumotlar bazasini shakllantirish xizmati-og'zaki va yozma so'roqlarga javob beradi, Milliy kitob palatasining Milliy kutubxonaga qo'shilishi munosabati bilan bu bo'lim "O'zbekiston matbuoti solnomasi"ni tuzish, respublikada nashr etilayotgan adabiyotlarga ISBN va ISSN raqamlarini qo'yish, turli dolzarb mavzularda bibliografik qo'llanmalar tuzish bilan shug'ullanadi. Dispetcher xizmati, ma'lumot-axborot xizmati bilan shug'ullanadi, foydalanuvchilarga maslahat berish, turli kafedralarga buyurtmalarni yetkazib berish, an'anaviy va elektron kataloglar yonida xizmat ko'rsatish, maslahat berish, telyefon va elektron pochta orqali xizmat ko'rsatish, ijaraga netbuklarni tarqatish bilan shug'ullanadi. Kutubxonalararo abonement va hujjatlarni elektron yetkazish xizmati-shartnomalar asosida boshqa axborot-kutubxona markazlariga, tashkilotlar va muassasalarga 5 kungacha vaqtga Kutubxonalararo abonement orqali kutubxona-axborot xizmati ko'rsatadi. O'quv zallar xizmati -"Tafakkur" o'quv zali universal, o'smirlar uchun "Istiqbol", ilmiy o'quv zali "Kashfiyot", huquqiy axborot va rasmiy nashrlar "Adolat"da, imkoniyati cheklangan foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish xonasi, dissertasiyalar uchun "Ilm", notali-musiqali nashrlar uchun "Ijod", iqtisodiy adabiyotlar, biznes va tadbirkorlik adabiyotlari uchun "Tadbirkor", xorijiy adabiyotlar uchun "Jahon", ilmiy-texnik adabiyotlar uchun "Bunyodkor", milliy adabiyotlar va o'lka tarixiga oid "O'zbekiston", katalog va kartotekalar zali, ma'lumotnoma-axborot adabiyotlari uchun "Iste'dod", elektron katalog zali, virtual ma'lumot xizmati, elektron kutubxona, media va

internet zali, qo‘lyozmalar, nodir adabiyotlar “Nodir” o‘quv zallarida to‘plangan va shunga ko‘ra fond tashkil topgan.



O‘quv zallaridan birida foydalanuvchilar mutolaa jarayonida

“Axborot-kommunikasiya texnologiyalari va xorijiy kutubxona - axborot fondlariga ulanish xizmati bo‘limi tomonidan foydalanuvchilarga masofadan turib axborot xizmati ko‘rsatish, xorijiy nashriyotlarning lisenziyalangan resurslariga kirishni tashkil etish, Milliy kutubxonaning serverini va boshqa barcha texnika va telekommunikasiya vositalarini qo‘llab quvvatlash bilan mashg‘ul. Milliy kutubxona 2012 yilda “Milliy

kutubxonaning kompleks muhandisligi, axborot tizimlari va maxsus texnologiyasi” nomli loyihasi bo‘yicha “Avtomatlashgan kutubxona-axborot tizimi (AIBS) “ dasturini MCHJ “METRAFOR” bilan hamkorlikda amalga oshirdilar.”Arsenal-D” firmasi bilan birgalikda Milliy kutubxonaning sayti yangidan tashkil etildi. Milliy kutubxonada elektron kutubxona ham faoliyat yuritadi. Uning fondida turli tillardagi 450000 kitobning elektron shakli, eIFL Xalqaro konsorsiumi yordamida EBSCO Publishing, OECD-iLibrary, Informaworld, JSTOR, Cambridge Journals Online, Britannica Online, Alexander Street Press, Integrum, BioOne va boshqa qimmatli resurslarga kirish imkoniyati yaratildi. 2008 yildan beri Rossiya davlat kutubxonasining virtual o‘quv zaliga bepul kirish ta‘minlangan va foydalanuvchilar turli bilim sohalariga oid 760000 dissertasiyalarning elektron shaklidan foydalanishlari mumkin. Elektron buyurtmalarni muvofiqlashtirish va resurslarni elektron yetkazib berish xizmati Milliy kutubxonaning fondiga masofadan turib kirishni, elektron masofali xizmatni bajaradi, elektron buyurtmalarni qidirish va yetkazib berish bilan shug‘ullanadi. Bu xizmat 2012 yil iyul oyidan boshlangan. Yig‘ma elektron katalogning Respublika axborot-kutubxona markazi boshqa axborot-kutubxona markazlar yordamida va ishtirokida Respublikaning yig‘ma elektron katalogiga ma‘lumotlar yig‘ish, ularni tartibga solish, tahrir qilish bilan shug‘ullanadi. Yangi kelgan nashrlarning bibliografik ma‘lumotlarini bibliografik yozuvlar sifatini ta‘minlash va dublet yozuvlarning oldini olish maqsadida bajaradi. Resurslarni skanerlash va raqamlashtirish xizmati Milliy kutubxona fondini shakllantirish, saqlash va masofadan axborot-xizmati ko‘rsatishni tashkil etish maqsadida ish olib boradi.



Matbaa asarlarini raqamlashtirishning eng so‘nggi rusumdagi apparat yordamida amalga oshirilishidan lavha

Ilmiy-uslubiyot xizmati 1729-sonli Qaror asosida bo‘lim ishi jonlantirildi. Mamlakatimizda kutubxona-axborot faoliyatining davlat siyosatini amalga oshirish, kelgusi taraqqiyot uchun takliflar kiritish, ishlab chiqish, aholiga kutubxona-axborot xizmati sifatini oshirish, tashkiliy-uslubiy rahbarlikni kuchaytirish, ilmiy-tadqiqot va ilmiy-uslubiy ishlarni muvofiqlashtirish, samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, tadqiqot ishlarini olib borish, meyoriy-huquqiy xujjatlarni takomillashtirish, zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish va xodimlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash sohasini rivojlantirish ishlarini amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Asosiy kutubxonasida

kutubxona - axborot xizmatini tashkil etish va olib borishda quyidagi bo‘limlar ish olib boradi: Kitob fondini butlash bo‘limi kutubxona fondini to‘ldirishning pullik va bepul usullaridan foydalanib, shartnomalar asosida pul o‘tkazish yo‘li bilan, nashriyotlardan, vaqtli matbuot nashrlari tahririyatlaridan kelib tushgan majburiy nusxalarni, sovg‘aga adabiyotlarni qabul qilish homiylarini jalb etish yo‘li bilan fondni to‘ldiradi. Yangi kelib tushgan adabiyotlarni bilim sohalariga ko‘ra guruhlashtiradi, jamlama va inventar hisobga oladi, boshqa tashkilotlar va muassasalardan kelib tushgan adabiyotlarni asosiy kutubxona fondi bilan solishtiradi, dublet nusxalarni ajratadi. Asosiy kutubxonada 2012 yil buyon “Akademiklar fondli” tashkil etilgan, bu fondga ilm ahillari, ziyolilarning

shaxsiy kutubxonalari jalb etilmoqda. Maqsad aholi qo‘lidagi ilmiy adabiyotlarning yo‘qolib ketishining oldini olish, ularni ilm fanning kelajagi uchun avaylab saqlashdan iboratdir. Adabiyotlarga ishlov berish bo‘limi butlash bo‘limidan ishlovdan o‘tgan adabiyotlarga Universal O‘nli Klassifikasiya jadvali asosida tegishli raqamlarni belgilaydi, ilmiy ishlov beradi, elektron katalogga asosiy bibliografik ma‘lumotlarni kiritadi. Kutubxona bo‘limlarida xizmat ko‘rsatish uchun resurslarni tayyorlaydi, respublika nashriyotlarida nashr etish uchun tayyorlangan matbaa asarlariga Universal O‘nli Klassifikasiya asosida indeks raqamlarini pul o‘tkazish yo‘li va naqd to‘lash usuli bilan qo‘yib beradi. Asosiy kutubxona respublikada Universal O‘nli Klassifikasiya belgilarini qo‘yish bo‘yicha markaz hisoblanadi. 2011 yil 23 fevraldan buyon asosiy kutubxonada elektron kutubxona faoliyat ko‘rsatmoqda. Elektron kutubxona adabiyotlarni skanerlash, raqamlashtirish, elektron katalogni tuzish, bir nusxadagi noyob nashrlarni, ko‘p so‘raladigan adabiyotlarni aniqlab, ularning elektron nusxalarini yaratish bilan, boshqa tashkilotlarning elektron resurslarini jalb etish bilan shug‘ullanadi. Ilmiy-bibliografiya bo‘limi mamlakatimiz ilm fani sohasidagi dolzarb masalalar, olimlarning yubileylari munosabati bilan bibliografik qo‘llanmalar tuzib nashrga tayyorlash, og‘zaki va yozma, telyefon va elektron pochta orqali so‘roqlarga javob berish ishini bajaradi. Ilmiy-uslubiyot bo‘limi Fanlar Akademiyasi tizimidagi 20 ta ilmiy tashkilotlarning kutubxonalariga ilmiy uslubiy yordam beradi, turli dolzarb muammolar bo‘yicha o‘quv seminarlarini tashkil etadi, uslubiy qo‘llanmalar tayyorlab tarqatadi, ko‘chma uslubiy faoliyatni olib boradi. Foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatish bo‘limi 5 ta o‘quv zalida va abonementda foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatadi. Bo‘limda 10000 dan ortiq dissertasiyalar va avtoreferatlar fondiga ega dissertasiyalar zali ish yuritadi. Turli ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarni tayyorlaydi va o‘tkazadi, Akademiya kutubxonasining elektron katalogini va boshqa turdagi elektron resurslarni tayyorlashda ishtirok etadi. Akademiya kutubxonasining xorijiy adabiyotlar bo‘limi 34 ta davlat kutubxonalari bilan kitob almashuvini yo‘lga qo‘ygan. 12 ta davlat kutubxonalariga adabiyotlar jo‘natadi. Bo‘lim mustaqil ravishda hisobga olish, hisobot, elektron katalogni, elektron resurslarni tashkil etish bilan shug‘ullanadi. Fan va ilmning turli yo‘nalishida ilmiy xodimlarga yaqindan yordam beradigan adabiyotlarni raqamlashtirish ishlari olib borilmoqda, bular

dissertasiyalar, avtoreferatlar, noyob adabiyotlar, kam nusxadagi va ko'p so'raladigan adabiyotlardir. 2013 yil yanvaridan boshlab Fanlar Akademiyasi tizimidagi kutubxonalarni birlashtirgan holda Akademiya kutubxonasida "Fanlar Akademiyasi tizimidagi Asosiy kutubxona va ilmiy tashkilotlar kutubxonalarining virtual korporativ kutubxona tizimini yaratish bo'yicha Fan va texnologiyalar qo'mitasining granti olinib, loyiha doirasida ishlar olib borildi. Kitob fondini saqlash bo'limida 3 475000 dan ortiq turli tildagi, turli xil adabiyotlar formatiga ko'ra Universal O'nli Klassifikasiya jadvali asosida joylashgan. Bo'lim xodimlari retrofondning elektron katalogini tuzish va ko'p so'raladigan adabiyotlarning elektron fondini shakllantirishni davom ettirmoqdalar.

Respublika bolalar kutubxonasi (RBK)da 2006 yil 20 iyunda qabul qilingan 381-sonli Qarordan so'ng tarkibiy o'zgarishlar yuz berdi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar va 1-4 sinf o'quvchilariga axborot xizmati ko'rsatish bo'limi asosan bog'cha yoshidagi bolalarga hamda boshlang'ich sinf o'quvchilariga, ular bilan ishlovchi tarbiyachilar, ota-onalarga kutubxona - axborot xizmati ko'rsatishni amalga oshiradilar. Ular turli ommaviy tadbirlarni o'tkazish, ko'chma tadbirlarni tashkil etish bo'yicha ham ish olib boradilar. Shuningdek, ularning yoshiga mos turli kitob ko'rgazmalari, illyustrativ plakatlar, uchrashuvlar, ovozli mutolaalar o'tkazadi. 5-9 sinf o'quvchilariga axborot xizmati ko'rsatish bo'limi bolalar kutubxonasida yoshi, ruhiyati, maktabda o'qitiladigan fanlar mazmuniga ko'ra bir-biriga yaqin sinf o'quvchilariga alohida ajratib olib xizmat ko'rsatish an'anaviy tarzda olib borilmoqda. Shuning uchun 5-9 sinf o'quvchilariga alohida abonementda va o'quv zalida xizmat ko'rsatiladi. San'at, ma'naviyat va maorifga oid mediaresurslar bo'limi keyingi yillarda bolalar ma'naviyatini shakllantirish, ularni badiiy estetik ruhda tarbiyalash, ma'rifatli qilib voyaga yetkazish vazifasi alohida diqqat e'tiborni talab etmoqda. Shuning uchun zamon talablaridan kelib chiqqan holda avvalgi ma'naviyat va ma'rifat bo'limi shunday nom bilan qaytadan tashkil topdi. Bo'lim asosan san'at, madaniyat, ma'naviyat va ma'rifat yo'nalishida shu yo'nalishdagi turli tashkilotlar bilan hamkorlikda ish olib boradi. Butlash va yangi elektron katalogni tashkil etish bo'limi asosan kutubxona fondini butlash, jamlash, hisobga olish va hisobdan chiqarish, jamlama va inventar hisobni yuritish bilan shug'ullanadi. Retrokatalogni tashkil etish va kitob fondi bo'limi bu bo'lim kutubxona

fondida mavjud retrofondning elektron katalogini yaratish bilan, kutubxonaga shartnomalar asosida adabiyotlar olish, sovg'aga adabiyotlar olish, turli homiy tashkilotlar yordamida kitob fondini boyitish bilan shug'ullanadi. Ilmiy-uslubiy bo'lim va xodimlarining malakasini oshirish bo'limi respublikadagi maktablar, kollej va liseylar, umuman bolalar bilan ish olib boruvchi kutubxonalarga, kutubxona - axborot faoliyatining turli masalalari bo'yicha uslubiy yordam ko'rsatadi, seminarlar, tanlovlar uyushtiradi, ko'chma chiqishlar orqali kutubxona xodimlarining malakasini oshirish faoliyatini olib boradi. Yangi texnologiyalar va xalqaro axborot resurslari bo'limi kutubxonada mavjud barcha axborot texnologiyalari, telekommunikasiya vositalari bilan ishlaydi, nazorat qiladi, internet xizmatini tashkil etadi, bolalar uchun maxsus o'quv zalida kompyuterdan foydalanish, internet ma'lumotlarini qidirish, ular bilan ishlash, turli elektron resurslar fondi bilan ishlash, ulardan foydalanish, mustaqil kompyuter texnologiyalari yordamida turli tillarni o'rganish, turli elektron resurslardan foydalanish, kichik yoshdagilar uchun kompyuter o'yinlaridan foydalanish ko'nikmasini tarbiyalaydi. Internet orqali va bevosita xalqaro aloqalar yordamida elektron resurslar fondini boyitib boradi. Ma'lumot-bibliografiya mediaresurslar bo'limi turli dolzarb mavzularda bibliografik resurslarni ishlab chiqish, nashrga tayyorlash, boshqa kutubxonalarning bibliografik resurslarini yig'ish, saqlash, ulardan foydalanish bo'yicha ish olib boradi. Zamonaviy axborot va telekommunikasiya texnologiyalarining kirib kelishi bilan, kutubxona-axborot muassasalari oldiga katta vazifalar qo'yildi, ularning ish faoliyati kengaydi, ish turlarining yangidan yangi turlari paydo bo'ldi, jahon kutubxonalari tajribasidagi ayrim jihatlar o'zlashtirildi. Elektron katalog yaratilmoqda. Elektron resurslar fondi tashkil etilmoqda. Shunga ko'ra kutubxonalarning tarkibiy tuzilmasida ham katta o'zgarishlar yuz berdi.

Barcha viloyatlarning tarkibiy tuzilishi deyarli bir xil, faqat Samarqand viloyat axborot-kutubxona markazida biroz farq bor. Barcha axborot-kutubxona markazlarida 2011 yil 23 fevraldagi 1487-sonli qarordan so'ng elektron kutubxonalar tashkil etildi. Samarqand viloyat axborot-kutubxona markazida ham elektron kutubxona, umumiy o'quv zali, yoshlar o'quv zali, ma'lumot-bibliografiya bo'limi, xorijiy tillardagi adabiyotlar sho'basi, nemis o'quv zali, madaniyat va san'at sho'basi, vaqtlilik matbuot

shoʻbasi, oʻlkashunoslik shoʻbasi, abonement shoʻbasi mavjud. Elektron kutubxona elektron resurslar yaratish, elektron katalogda foydalanuvchilarga xizmat koʻrsatish, internet xizmatini yuritish bilan shugʻullanadi. Maʼlumot-bibliografiya boʻlimi fondida foydalanuvchilar uchun 400 dan ortiq ensiklopediyalar, lugʻatlar, maʼlumotnoma nashrlar, bibliografik qoʻllanmalardan iborat yordamchi maʼlumot-axborot fondi tashkil topgan. Boʻlimda maqolalarning sistemali katalogi, oʻlkashunoslik sistemali kartotekasi, bibliografik materiallarning kartotekasi, yozma maʼlumotlar kartotekasi, vaqtli matbuot nashrlari kartotekasi foydalanuvchilarga xizmat qilmoqda. Turli mavzuli kartotekalar foydalanuvchilar tomonidan muntazam foydalaniladi. Muhim sanalar va unutilmas voqealarga oid tavsiya roʻyxatlari, tavsiya bibliografik qoʻllanmalari muntazam tayyorlanmoqda. 2010 yildan boʻlimda vaqtli nashrlarning maʼlumotlar bazasi yaratib kelinmoqda. Chorakda bir marta yangi adabiyotlar byulleteni chiqariladi, har oyda yangi adabiyotlar yuzasidan bibliografik sharh berib boriladi. Kutubxonaxborot muassasalarining tarkibiy boʻlinmalari—kitob fondini butlash, adabiyotlarga ishlov berish, foydalanuvchilarga xizmat koʻrsatish (abonement va oʻquv zallari, maxsus oʻquv zallari), axborot texnologiyalari boʻlimi, ayrimlarida elektron kutubxona (elektron katalog, elektron resurslar fondi bilan) dan iborat. Har qanday kutubxona - axborot muassasasida foydalanuvchilarga xizmat koʻrsatish boʻlimi asosiy boʻlim hisoblanadi. Kutubxona fondini toʻldirishdan hisobot ishigacha boʻlgan jarayonlarning maqsadi, yoʻnalishi, uzviy bogʻliqligi aholiga sifatli va samarali kutubxona - axborot xizmati koʻrsatishga qaratilgan. Bu xizmatni asosan foydalanuvchilarga xizmat koʻrsatish boʻlimi bajaradi. Bu xizmat turlari –kutubxonada xizmat koʻrsatish va kutubxonada tashqarida xizmat koʻrsatish usullaridan tashkil topadi. Kutubxonada vaqtincha uyda foydalanish uchun huquq beradigan va buni rasmiylashtirib beradigan shoʻba yoki ayrim kutubxonalarda boʻlim deb tashkil etiladigan-abonementdir.

„**Abonement**“ soʻzi turli sohalarda qoʻllaniladi. U fransuzcha soʻzdan olingan boʻlib, biror bir narsadan, masalan, teatr oʻrnidan, transport xizmatidan va x.k., vaqtincha foydalanish huquqini beruvchi hujjat, degan maʼnoni anglatadi. Kutubxona ish tajribasida abonement vaqtincha foydalanish uchun uyga kitob beruvchi boʻlimga nisbatan qoʻllaniladi. Demak, abonement foydalanuvchilarga xizmat koʻrsatish boʻlimining

asosiy bo‘lagi bo‘lib, unda kutubxona jamg‘armasida mavjud adabiyotlardan, elektron ma’lumotlardan foydalanuvchi uchun uy sharoitida va o‘ziga qulay vaqtda foydalanishga belgilangan tartibda imkoniyat yaratadi. Bu bo‘lim foydalanuvchilar bilan yakka tartibda ish olib borishning, rahbarlik qilishning asosiy joyi hisoblanib, kutubxonachining foydalanuvchi bilan muntazam hamda samarali munosabatda bo‘lishiga imkon yaratadi.

Abonementda kutubxonachi foydalanuvchini kutubxonaga a‘zo qiladi, uning uchun foydalanuvchi shaxsi, mutolaa mazmuni va harakteri haqida ma’lumot beruvchi asosiy hujjat-foydalanuvchi formulyarini to‘ldiradi, bevosita suhbat o‘tkazadi, foydalanuvchi qiziqishini o‘rganadi, kompyuterdan elektron ma’lumotlarni birgalikda qidiradi, kutubxonachi va foydalanuvchi o‘zaro muloqoti mobaynida bir-birini o‘rganadi, mutolaa uchun adabiyot tavsiya etadi yoki o‘qilgan adabiyotlarni qabul qilib oladi, o‘qilgan adabiyot haqida suhbat o‘tkazish yo‘li bilan foydalanuvchining fikr va mulohazalarini o‘rganadi, tahlil qiladi, xulosa chiqaradi, kelgusi ish rejalarini belgilaydi.

Abonementda foydalanuvchilarga tabaqalashtirilgan xizmat ko‘rsatiladi. Buning uchun har bir foydalanuvchi fe‘l-atvori, psixologik xususiyatlari, millati, jinsi, bilim saviyasi, foydalanuvchilik darajasi, yoshi, mehnat faoliyatining turi, oilaviy muhiti albatta hisobga olinadi. Shular natijasida yakka va ommaviy ishlar bir-biriga bog‘lab olib boriladi. Axborot-kutubxona markazlarida uning ish xususiyatlariga, foydalanuvchilar guruhlarining xususiyatlariga, kutubxona fondining tarkibiga va aholi guruhlarining xususiyatlariga ko‘ra turlicha abonement tashkil topgan, ularning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud.

1.Funksional (vazifasiga yoki ish turiga ko‘ra tashkil etilgan abonement) abonement. Bunday abonement katta kitob jamg‘armasiga, foydalanuvchilar soniga, katta kutubxona shtatiga ega bo‘lgan kutubxonalarda, asosan yirik respublika maqomiga ega bo‘lgan kutubxonalarda tashkil etiladi. Ba’zi hollarda bunday abonement bolalar kutubxonalarida ham tashkil qilinadi. Unda bir kutubxonachi kitoblarni qabul qilib olsa, ikkinchisi kitob beradi. Buning bir salbiy tomoni shundaki, o‘qilgan kitob haqida suhbatga bog‘liq holda yangi adabiyotni tavsiya etish haqidagi suhbat ikki kutubxonachi tomonidan olib boriladi. Bu esa, ba’zan ijobiy samara bermaydi.

2. Guruhli abonement-foydalanuvchilarga samarali xizmat ko'rsatish maqsadida ularni doimiy guruhlarga bo'lish va kutubxonachining ishni ularning har qaysisi bilan alohida ish olib borishga asoslangan turi.

Foydalanuvchilar guruhlari ularning yoshi yoki ishlab chiqarish belgisiga ko'ra (muxandis, ishchi, shifokor, o'qituvchi, qishloq ho'jaligi mutaxassisi va shu kabilarga) qarab tuzilishi mumkin. Kutubxonachi o'z foydalanuvchilarining tarkibini diqqat bilan o'rganadi va mazkur axborot-kutubxona markazlari qanday guruhlarga ajratish kerakligini hal qiladi. Respublika bolalar kutubxonasida shunday abonementlar mavjud bo'lib, bu yerda bolalarni sinflarga ajratib xizmat ko'rsatish tashkil etilgan.

3. Soha yoki tarmoq abonementi-bunda bilim sohalariga yoki fan tarmoqlariga ajratgan holda alohida-alohida xizmat ko'rsatish bo'limlari, masalan, iqtisod, texnika, tibbiyot, adabiyot, ma'naviyat kabi bo'limlar tashkil etiladi. Bu kutubxonachiga tanlangan soha adabiyotlari bilan unumli ishlash va uni targ'ib qilish imkonini beradi. Bunda faqat shu bo'limdan foydalanuvchi foydalanuvchilar bilan yakka va ommaviy ish olib borish yaxshi samara beradi. Bunday abonementlar yirik ilmiy kutubxonalarda tashkil etiladi.

4. Kutubxonalarda umumiy abonement keng tarqalgan. U barcha tabaqadagi foydalanuvchilarning talabini qondiradi. Bunday abonementlar kam sonli kutubxona shtati mavjud bo'lgan holda tashkil qilinadi. Axborot-kutubxona markazlari va kutubxonaga a'zo qilish foydalanuvchi shaxsi haqida to'la ma'lumot beruvchi pasport yoki boshqa huquqiy hujjat asosida olib boriladi. Har bir yangi foydalanuvchiga foydalanuvchilik formulyari to'ldiriladi. Hozirgi kunda dasturlar asosida "Foydalanuvchi AIJ" (Avtomatlashtirilgan ish joyi)da foydalanuvchiga elektron formulyar to'ldiriladi. Foydalanuvchi kutubxonadan foydalanish koidalari, kutubxona fondi, ish vaqti, tanaffus yoki tushlik, dam olish kuni, tozalik kuni haqida ma'lumot oladi. Foydalanuvchi bilan dastlabki suhbat o'tkaziladi. Bu kutubxonaga a'zo qilish paytidagi suhbat deb ham yuritiladi. Qoidaga binoan, kutubxona tipi va xiliga, foydalanuvchilar xususiyatiga ko'ra kitoblar ma'lum miqdorda, belgilangan muddatga beriladi. Masalan, kutubxonalarda 5 tagacha adabiyot (asosan badiiy asar bo'lsa) 15 kun muddatga berilsa, oliy ta'lim muassasalari yoki kasb-hunar qollejlari va akademik lisey kutubxonalarida o'quv

adabiyotlari fan predmetlarining o'qitilish muddatiga ko'ra, 2,4, 6 oy yoki bir yilgacha muddatga beriladi. Abonementda bajariladigan eng muhim ish - mutolaaga rahbarlik qilish, mutolaa madaniyatini tarbiyalash va foydalanuvchilar so'rovini mohirlik bilan qondirishdan iborat. Bu vazifani to'la va maqsadli bajarish uchun kutubxonachi kitob berishga kundalik tayyorgarlikni ko'radi. Kutubxonaga kelgan yangi kitoblarni o'rganish, foydalanuvchilar formulyarini tahlil qilish, ko'rgazmali materiallarni albatta yangilab turish, suhbat va sharhlarga puxta tayyorgarlik ko'rish kutubxonachining kitob berishga tayyorgariik ko'rish jarayonida amalga oshiriladi. Abonement xonasi batartib jihozlangan, ko'rkam ko'rinishga ega bo'lishi kerak. Kitobni topshirish muddatidan 15 kun o'tib ketsa, foydalanuvchiga maxsus xat yoki telyefon orqali eslatma beriladi, kitoblar yo'qolsa yoki yaroqsiz holga tushib qolsa, kutubxonaga shu kitobning o'zidek yoki teng mazmundagi, ba'zi hollarda kutubxona uchun zarur va avvaldan tuzilgan ro'yxat asosida tavsiya etilgan kitob qaytarilishi kerak. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002- yil 18- yanvardagi 26- sonli „Notariuslarning ijro xatlariga asosan qarzni undirish so'zsiz amalga oshiriladigan hujjatlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida" gi qarorining 8-bandida „Kutubxonadagi bosma asarlar yoki materiallar foydalanuvchi tomonidan yo'qotilgan bo'lsa va uni kutubxonaga qaytarishning iloji bo'lmasa, aynan shunday adabiyot yoki teng qiymatli adabiyot yoxud almashtirishning imkoni bo'lmagan hollarda ularning qiymatiga teng kitoblar yoki 10 baravar miqdorida undirib olinishi kerak" deyiladi. Agar eslatmadan keyin ham kitob qaytarilmasa talabnoma yuboriladi. Shunda ham kitob qaytarilmasa, kat'iy chora ko'riladi. Kutubxonaga kitob topshirishdan bosh tortgan foydalanuvchilardan notarial idorasining buyrug'iga binoan, 10 barobar bahosi undirib olinadi. Foydalanuvchi har bir olgan kitobi uchun imzo chekadi. Maktab o'quvchilari uchinchi sinfdan boshlab imzo chekadilar. Kitob kutubxonaga qaytarilgandan keyin foydalanuvchi oldida kitobni qabul qilganligi haqida imzo qo'yiladi. 16 yoshgacha bo'lgan bolalar ota-onalari hujjatiga asosan kutubxonaga a'zo bo'ladilar. Masalan, vaqtincha dam olishga, mavsumiy qishloq ho'jalik ishlariga kelgan foydalanuvchilarga uyga kitob berilmaydi, faqat o'quv zalida foydalanish uchun hujjat asosida ruxsat beriladi. Foydalanuvchi formulyari har yili yanvar oyidan qaytadan ro'yxatdan

o'tkaziladi. Qayta ro'yxatdan o'tkazishda olingan kitoblar kutubxonaga qaytarilishi kerak va foydalanuvchiga yangi tartib raqami beriladi. Formulyarning birinchi qismidagi ma'lumotlar tekshirib chiqiladi. Agar o'zgarish bo'lsa, u holda yangi formulyar ochiladi. (Masalan, familiyasi, manzili o'zgarishi mumkin). Foydalanuvchi formulyari qutilarga sanalar yoki formulyar tartib raqami bo'yicha joylashtiriladi.

Foydalanuvchi formulyari xizmat ko'rsatish bo'limida asosiy hujjat hisoblanadi. Foydalanuvchi bilan dastlabki suhbat jarayonida formulyar to'ldirib boriladi, formulyarning 2-nci qismiga foydalanuvchi tanlagan adabiyotlarning inventar raqami, qaysi bilim sohasiga oidligi, muallifi va nomi yozib qo'yiladi. Foydalanuvchi olgan adabiyotlarini tasdiqlash ma'nosida imzo chekadi. Formulyarning 3- qismida aynan shu foydalanuvchi uchungina xos bo'lgan xususiyatlar, izohlar, eslatmalar, foydalanuvchi bilan kelgusida olib boriladigan ishlar mazmuni yozib boriladi. Ko'pgina kutubxonalarga (masalan, oliy ta'lim muassasalari kutubxonalari) a'zo bo'lgan kishiga yagona foydalanuvchilik hujjati beriladi. Uning birinchi betida kutubxonaning nomi, foydalanuvchining familiyasi, ismi, otasining ismi, ma'lumoti va asosiy mashg'uloti, a'zo bo'lgan sanasi ko'rsatiladi. Ikkinchi va uchinchi betida kutubxonadan foydalanish qoidalaridan namunalar keltirilgan va har yili qayta ro'yxatga olish vaqtidagi sana va muhrlar yangilanib boriladi. Oxirgi betida kutubxonada ishlaydigan kunlari va soatlarini ko'rsatuvchi ma'lumotlar va foydalanuvchilik chiptasini yo'qotgan taqdirda tezlik bilan bu haqda kutubxonaga ma'lum qilish kerakligi haqida xabar beriladi. Foydalanuvchilik chiptasiga tartib raqami yoziladi: bu bilan chiptalarni bir tartibda raqamlashga erishiladi hamda foydalanuvchilarni hisobga olish yengillashadi. Chipta berilayotgan vaqtda har bir foydalanuvchi uchun ro'yxatga olish varaqasi to'ldirilib, unda foydalanuvchining familiyasi, ismi, otasining ismi, yozilgan vaqti, mazkur kutubxonada yoki bo'limida berilgan chiptaning tartib raqami ko'rsatiladi. Ro'yxatga olish varaqasidagi familiyalar alifbo tartibida joylashtiriladi.

Yagona foydalanuvchi chiptasi foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatishni takomillashtirishga yordam beradi, foydalanuvchilar o'zlariga kulay bo'lgan istalgan kutubxonadan yoki shaharning bir necha kutubxonalaridan foydalanayotgan foydalanuvchilarni, shuningdek, kutubxonalardan foydalanayotgan aholini aniqlash

imkonini beradi, bu esa har bir oiladan foydalanuvchilarni jalb etish ishini tashkil qilishda juda muhim ahamiyatga ega. Abonement stoli yoniga kutubxonadan foydalanish qoidalari matni yozilgan plakat ilib qo'yiladi. Kutubxonalarda umumiy abonement bo'lib, u yerda xizmat ko'rsatish bitta kutubxonachi tomonidan amalga oshiriladi. Foydalanuvchilarga ularning qiziqishi hamda individual so'roqlarini e'tiborga olib, alohida-alohida xizmat ko'rsatishni yanada yaxshiroq amalga oshirish uchun foydalanuvchilar orasidan ularga tizimli yordam berib turish maqsadida ayrim guruhlar ajratiladi. Foydalanuvchilar formulyarida shunga tegishli belgi qo'yiladi; bu kitoblar tavsiya qilish ishini yengillashtiradi. Qulay bo'lishi uchun har bir foydalanuvchi guruhlarning formulyarini alohida saqlash maqsadga muvofiqdir. Abonement xodimlari vaqti-vaqti bilan foydalanuvchilar formulyarlarini tahlil qiladilar, kutubxonani komplektlash va kitoblar tavsiya qilishda so'roqlarini e'tiborga oladilar.

O'quv zali. axborot-kutubxona markazlarining xizmat ko'rsatish bo'limi bo'lib, foydalanuvchilar o'sha yerda o'tirib, turli adabiyotlar, vaqtli matbuot nashrlari, kompyuter ma'lumotlar bazalari bilan tanishadilar, internet va elektron pochta xizmati hamda elektron katalogdan, elektron ma'lumotlardan foydalanadilar. O'quv zalidan kitob, gazeta, jurnallar uyga berilmaydi. Keyingi paytda ilg'or kutubxonalar o'quv zali fondidagi kam nusxali yoki nodir asarlarni, vaqtli matbuot nashrlarini pullik xizmat ko'rsatish yo'li bilan ma'lum belgilangan tartibda uyga ham berish ishini yo'lga qo'yadilar.



O‘quv zalida foydalanuvchilar uchun barcha imkoniyat yaratilgan bo‘lishi kerak. U yer yorug‘, shinam va osoyishta bo‘lishi lozim. Kutubxonalarda o‘tkaziladigan barcha ommaviy ishlar: kitob taqdimotlari, multimedia kechalari, adabiy uchrashuvlar, savol-javob kechalari, obzorlar, qiziqishlar bo‘yicha klublar, yangi adabiyot to‘g‘risida axborotlar, ovozli mutolaalar, she‘riyat kechasi, mushoiralar, konferensiyalar shu yerda o‘tkaziladi, ayrim qiziqish to‘garaklari ish olib boradi. Adabiyotlar ko‘rgazmasi, plakatlar, albomlar, turli papkalar shu yerda tashkil qilinadi. O‘quv zalining yordamchi fondida quyidagi adabiyotlar bo‘ladi:

O‘zbekiston Respublikasi Davlat rahbarlari va Senat materiallari, risolalar, nutqlar, ma‘ruzalar va farmonlar, Oliy Majlis Qonunlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmoyishlari, Vazirliklarning buyruqlari, yo‘riqnomalari, ma‘naviyat, madaniyat, ma‘rifat, milliy qadriyatlarimizga oid asarlar, ko‘p tomli nashrlar, lug‘atlar, ensiklopediyalar, ma‘lumotnomalar, jahon klassiklarining asarlari, gazeta va jurnallar, plastinka, magnit lentalar, diafilm, disketlar, skanerlar. Ba‘zi kutubxonalarda ana shu nashrlarning tiplari va turlari bo‘yicha alohida o‘quv zallari tashkil etiladi. Kompyuterlar lokal tarmoqqa, serverga, u orqali internetga ulangan bo‘lishi lozim.

Kutubxonalararo abonement. Kutubxonalarning kitob fondlari foydalanuvchilarning barcha so‘rovlarini hamma vaqt ham to‘la qondira olmaydi. Ko‘p foydalanuvchilar oliy va maxsus o‘rta bilim yurtlarida sirtidan o‘qiydilar, ba‘zilar esa ilmiy ish olib boradilar. Qishloqlarda juda ko‘p fermer ho‘jaliklar, chorvador fermer ho‘jaliklar, qo‘shma korxonalar, kichik korxonalar, shifokorlar, o‘qituvchilar, muxandislar xizmat qiladilar, shu boisdan ularga ko‘pincha kutubxonalarda topilavermaydigan maxsus va ilmiy adabiyotlar kerak bo‘lib qoladi. Bunday so‘rovlar ko‘pincha kutubxonalararo abonement (KAA) orqali yoki internet tarmog‘idan

masofadan mutolaa bo'yicha elektron ma'lumotlarni uzatish bilan amalga oshiriladi. Kutubxonalararo abonement (KAA) foydalanuvchilarning mazkur kutubxonada topilmaydigan kitob to'g'risidagi so'rovlarini boshqa kutubxonalardan olish yo'li bilan qondiriladi, buning uchun elektron pochta, faks, internet xizmatlari ishga tushirilgan. Foydalanuvchilarga zarur kitoblar viloyat Axborot –kutubxona markazlarida bo'lmasa, respublikaning boshqa yirik kutubxonalari, jumladan Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi va Fanlar Akademiyasining Bosh kutubxonalariga murojaat qilinishi mumkin. Buning uchun hozirgi kunda yaratilayotgan yig'ma elektron katalog yordamga keladi. Foydalanuvchi o'zi yashab turgan hududda turib, mamlakatimizning qaysi kutubxonasida qanday adabiyotlrl borligi bilan tanishadilar. Kutubxonalararo abonement asosida gazetalar, jurnallar, xaritalar, tasviriy materiallar va noyob nashrlardan tashqari, vatanimizda yoki chet elda nashr etilgan har qanday asarlarning elektron versiyalaridan foydalanishlari mumkin. Kitoblar KAA bo'yicha bir oy muddatga yuboriladi. KAA bo'yicha adabiyotga buyurtma berish qulay bo'lishi uchun talablarning yagona shakli belgilangan. Unda kitob haqidagi ma'lumotlar - kitob muallifining ism-familiyasi, kitobning nomi, nashr etilgan joyi va yili, jurnal uchun esa nomi, yili va soni ko'rsatiladi, Agar kutubxonada maxsus talab qog'ozlari bo'lmasa, unda KAA bo'yicha kitoblarga oddiy xat orqali buyurtmalar internet tarmog'iga ulangan bo'lsa, elektron pochta orqali yuboriladi.

Kutubxona xodimi foydalanuvchining mansabi, nashr to'g'risidagi ma'lumotlarni qayerdan olganligi, so'roqning maqsadi va foydalanuvchining mutaxassisligi va hokozalarni aniqlab, KAA orqali buyurtma-qog'ozini to'ldiradi; so'ralayotgan nashrning bibliografik ma'lumotlarini tekshiradi va zarurat tug'ilganida bibliografik ma'lumotlar bilan birga so'roqqa bibliografik qo'shimcha kiritadi.

KAA orqali olingan nashrning avaylab saqlanishi uchun foydalanuvchi moddiy javobgar hisoblanadi. Buning uchun kafolat beruvchi huquqiy (yuridik) hujjat buyurtma-qog'ozini hisoblanadi.

KAA orqali berilgan nashrlardan foydalanib bo'lingach, kutubxona ularni bevosita saqlovchi-kutubxonaga qaytarib yuboradi. Yuborish haqini foydalanuvchi to'laydi. Foydalanuvchilarning so'roqlarini to'la qondirish uchun: agar nashr band bo'lsa,

foydalanuvchini navbatga qo'yadi; asl nusxani berishning imkoniyati bo'lmasa, nashrning elektron nusxasi jo'natiladi; nashr kutubxonaning fondida bo'lmaganda KAA orqali shahar, viloyat, respublikada belgilangan tartibga muvofiq, buyurtma boshqa kutubxonalarga o'tkazib yuboriladi; foydalanuvchilarga ularning buyurtmalari boshqa joyga o'tkazib yuborilganligi va navbatga qo'yilgani to'g'risida xabar beradi. KAA orqali berilgan kitoblar qaytarilgach, buyurtma-qog'ozga adabiyotning qaytarilgan sanasi qo'yiladi va u "qaytarilgan adabiyot" kartotekasiga olib qo'yiladi, u ma'lumot, tahlil va hisobot uchun kamida bir yilgacha saqlanadi.

Kutubxonalarda KAA orqali foydalanuvchilarning xizmat ko'rsatish kartotekasi, KAA foydalanuvchilarini ro'yxatga olish kartotekasiga asoslanib, KAAda olib borilgan ishlarning hisobi yuritiladi. KAAning faoliyati to'g'risidagi hisobotda KAA dan foydalanayotgan foydalanuvchilar soni, boshqa kutubxonalarga jo'natilgan buyurtmalar, KAA orqali olingan nashrlar (shu jumladan, nusxalar), kutubxonalar tizimida foydalanuvchi a'zo bo'lgan kutubxonalar soni to'g'risida ma'lumotlar aks ettiriladi. KAA foydalanuvchilarni ro'yxatga olish kartotekasi asosida shu yil murojaat qilgan foydalanuvchilarning soni aks ettiriladi; ulardan olingan buyurtmalar va berilgan nashrlar, shuningdek, boshqa kutubxonalarga jo'natilgan buyurtmalar soni ko'rsatiladi. Kutubxona xizmatini ho'jaliklarga yaqinlashtirish uchun ko'chma kutubxonalardan foydalaniladi, asosiy kutubxonaga ega bo'lmagan korxonalar va muassasalar, aholi punktlari va mikrorayonlarda kutubxona punktlarini tashkil qiladilar. Ko'chma kutubxonalarining tarmog'i kutubxonalar va boshqa idoralarning kutubxonalar tizimini hisobga olgan holda tashkil etiladi. O'n beshdan ortiq nostasionar punktga ega bo'lgan kutubxonalarda, bolalar kutubxonalarida va tayanch, shoxobcha kutubxonalarida maxsus fond ajratilishi mumkin, ular fanning turli sohalariga doir dolzarb adabiyotlar bilan to'ldiriladi. kutubxona punktlari maxsus ajratilgan fondga ega bo'lmasa, abonement fondidan vaqtincha foydalanish uchun adabiyot oladi. Ko'chma kutubxona tashkil qilish uchun uni ochishga rozilik bergan tashkilot, muassasa va kutubxona o'rtasida shartnoma tuziladi. Shartnomaga ko'ra tashkilot yoki muassasa olgan kitoblari uchun moddiy javobgar bo'ladi. tashkilot, jamoatchilik kutubxona xodimini ajratadi. Unga ishonch xati beradi. Agar ko'chma kutubxonada asosiy kutubxonaning xodimi ishlasa, shartnoma

tuzmaydi va unga ishonch xati bermaydi. Asosiy kutubxonada har bir kutubxona punkti (ko'chma kutubxona) uchun ikki nusxada formulyar to'ldiriladi; ulardan biri kutubxonada qoldiriladi, ikkinchisi kutubxona punktida saqlanadi. Ularga ko'chma kutubxonaga berilgan kitoblar ro'yxati va qaytarib olinganligi to'g'risida belgi qo'yiladi. Formulyarga har bir kitob uchun asosiy kutubxonaning xodimi va ko'chma kutubxona xodimi imzo chekadi. Ko'chma kutubxonaga kitoblarning formulyari olinib, unga ko'chma kutubxonaning raqami va sana yoziladi, formulyarga solib qo'yiladi, har bir ko'chma kutubxonada formulyarga nomlar yozilgan ajratgich qo'yiladi. tashkilot va muassasada ko'chma kutubxona uchun xona va kitoblar saqlash uchun joy va kitoblar ajratib beriladi, ko'chma kutubxona mudiri kutubxonalardan foydalanish koidalariga asoslanib, o'z foydalanuvchilariga xizmat ko'rsatadi. Har bir foydalanuvchiga foydalanuvchi formulyari to'ldiriladi. Mudir kitoblarning o'qib bo'linishiga qarab, ularni asosiy kutubxonaga topshiradi va yangilarini olib turadi, o'z foydalanuvchilariga xizmatni kutubxona orqali bajaradi. Ko'chma kutubxona mudiri qabul qilingan kitoblarga shartnoma tuzib, adabiyotlarni asosiy kutubxonaga topshiradi. Agar ko'chma kutubxonada asosiy kutubxonaning mutaxassisi xizmat qilsa, shartnoma va unga ishonch xati rasmiylashtirilmaydi. Agar tashkilot yangi mutaxassis mudirini tayinlasa, unga yana qaytadan ishonch xati beriladi. Asosiy kutubxonada har bir ko'chma kutubxonaning hujjatlari: ishonch xati, shartnoma, dalolatnomalar alohida papkada saklanadi. Asosiy kutubxona aholiga nostasionar xizmat ko'rsatish ishini tashkil etish va nazorat qilishning rejasini tuzadi, ya'ni, internet tarmog'idan uzatadigan elektron ma'lumotlarni tayyorlaydi, shahar hududida ko'chma kutubxonalarining joylashishi, bibliobuslarning marshruti va to'xtash joylarining sxemasini tuzadi; korxonalar, fermer ho'jaliklari, filiallarga xizmat ko'rsatuvchi kutubxona punktlari ixtiyoridagi nashrlarni almashtirish grafigini, jamoatchi-kutubxonachilarga metodik yordam ko'rsatish rejasini tuzadi. Kutubxona punktining ish tartibi xizmat ko'rsatilayotgan aholiga va shahar tumanlarida istiqomat qiluvchilarga ma'lum qilinadi. Internet tarmog'idan uzatiladigan elektron ma'lumotlar kutubxona punktining jamg'armasi o'z ichiga asosiy fan sohalarga doir adabiyotlarni, dolzarb ijtimoiy-siyosiy, badiiy va bolalar adabiyotlarini, eng yangi axborotlarni olishi kerak. Ishlab chiqarish adabiyotlari xizmat qilinayotgan

ho'jaliklarning iqtisodiy kasbiy yo'nalishi va foydalanuvchilarning ehtiyojlarini hisobga olgani holda tanlanadi. Kutubxona punktida tizimdagi kutubxonalar fondida mavjud bo'lgan har qanday nashrga buyurtma qilinishi mumkinligi to'g'risida e'lon, shuningdek, kutubxonalararo abonementdan, elektron pochta, faks, internetdan foydalanish koidasi bo'lishi kerak. Jamoatchi kutubxonachi o'z foydalanuvchilari uchun zarur bo'lgan kitoblarga buyurtmalar oladi, ularni kutubxonaga topshiradi va bajarilishini nazorat qiladi. Kutubxona punktining foydalanuvchilarga yangi nashrlar to'g'risida axborot berish va kutubxona tizimining yagona fondini targ'ib qilish, tavsiya, bibliografik ko'rsatkichlar yordamida, elektron ma'lumotlar hamda vaqti-vaqti bilan tashkil qilinadigan ko'rgazma-ko'riklardan foydalanish orqali amalga oshiriladi. Kutubxona punktining foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatishga doir ishlarini hisobga olish (foydalanuvchilar soni, katnov soni, berilgan kitoblar, ommaviy tadbirlar va boshqalarning soni) asosiy kutubxonada ko'llaniladigan kundalikda yuritiladi. Ma'lumotlar asosiy kutubxonaning hisobotiga qo'shib yuboriladi.

Kitob eltuvchilik. Kutubxonalarga mustaqil tarzda kelib-keta olmaydigan nogironlar, nafaqaxo'rlar, uy bekalari, kasalxonada yotganlar va boshqalarning uylariga kitoblar eltib beriladi. Bu ishga faol foydalanuvchilar, ya'ni, o'z ixtiyori bilan kitob eltishni xohlovchilar jalb qilinadi. Har bir kitob eltuvchiga alohida formulyar to'ldirilib, uning ustiga „Kitob eltuvchi-KE" deb yozib qo'yiladi va har bir foydalanuvchiga formulyar to'ldiriladi, ularga kutubxonadan foydalanish qoidalariga amal qilib kitoblar beriladi. Formulyar kutubxona abonementida kitob eltuvchining familiyasi yozilgan ajratgich orqasida saqlanadi. Kitob eltuvchi foydalanuvchilarning huzuriga borganida kitoblar bilan birga foydalanuvchilarning formulyarini ham olib boradi, ularga berilgan va qaytarilgan kutubxona nashrlarini rasmiylashtiradi. Foydalanuvchi nashr olganligi uchun imzo chekadi.

Bibliobuslar. Bu uzoq aholi punktlariga kitob yetkazishga ixtisoslashgan avtobusdir. Asosiy kutubxonada belgilangan kun va soatlarda bibliobus kutubxona xodimi bilan birgalikda mahalla punktlari bo'ylab, chekka hududlarda har ikki-uch haftada aylanib, adabiyotlar tarqatadi. Bibliobus mashinasida internet tarmog'iga ulovchi tizim o'rnatib uzoq qishloq, ovullardagi aholiga borib xizmat ko'rsatadi. U ko'cha yoki

mahallaning ma'lum bir manzilida to'xtaydi. Har bir manzilda uch soatdan ko'p to'xtamasligi kerak. Bibliobus mudiri o'zi xizmat ko'rsatayotgan xududning ixtisosi va aholisining milliy tarkibiga qarab, adabiyotlar oladi va tarqatadi. Bibliobusda ham barcha qilingan ishlar kundalikka yozib boriladi. Estoniya, Latviya, Shvesiya, Shvesariya va Litva mamlakatlarida har yili maxsus avtobuslar jihozlari va reklama suratlari bilan bezatilgan bibliobuslar tanlovi o'tkaziladi. Foydalanuvchilarning kutubxona- axborot xizmatidan foydalanishdagi har qanday chalkashliklarga barham berish maqsadida Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi tomonidan umumiy tarzda kutubxonalardan foydalanish qoidalar tuzib chiqilgan bo'lib ular quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

1. Foydalanuvchilarning majburiyatlari va huquqlari.

Foydalanuvchilarning huquqlari kutubxonalardan erkin foydalanish va axborot resurslariga erkin kirish, o'zining istak xohishiga, qiziqishiga ko'ra axborotni tanlash, xizmatni tanlash, har qanday so'roviga yarasha ma'lumot olish, o'quv zallarida texnika va kompyuter vositalaridan foydalanish, o'zlarining shaxsiy kompyuterlari, noutbuklari, kalkulyatorlari, pleyerlaridan foydalanish, dasturiy ta'minotlardan foydalanishlari, elektron katalogdan foydalanishi va boshqalardan iboratdir.

Majburiyatlari-qoidalar bilan tanish bo'lishi, kutubxona-axborot resurslariga, texnika vositalariga, mebellar va boshqa jihozlarga ehtiyotkorlik bilan muomalada bo'lishi, har bir xujjatni olayotganda sinchkovlik bilan ko'rib chiqishi, olgan adabiyotini yo'qotgan holda adabiyotlar o'rniga jarima to'lashi yoki boshqa adabiyotni topshirishi, kutubxona ishining sifatiga ta'sir qiladigan harakatlarni qilmasligi, kitobxonlik chiptasini avaylab asrashi, yo'qotmasligi, 30 kun ichida manzilining, ish joyininig yoki o'qish joyininig o'zgarganligi haqida ma'lumot berishi va boshqalar.

2. Kutubxonadan foydalanish tartibida foydalanuvchilik chiptasining mohiyati, uning huquqi, foydalanish qoidalari, buyurtmalarni rasmiylashtirish qoidalari beriladi.

3. Foydalanuvchilarning javobgarligi qismida foydalanuvchi tomonidan yo'l qo'yilgan salbiy harakatlar uchun belgilangan jazo choralari ko'rsatilgan.

4. Kutubxona xodimlarining javobgarligi qismida ham jazo choralari eslatiladi.

O‘zbekiston Milliy kutubxonasining kutubxona - axborot va boshqa xizmat turlari haqidagi Nizom.

Nizom quyidagi qismlardan iborat:

1. Umumiy qoidalar. Bunda Nizomning maqsadi, tartibi, qonuniy asoslari berilgan. Kutubxona - axborot xizmatining ma’nosi, turlari, yo‘nalishlari, qaysi qonuniy xujjatlarga tayangani ko‘rsatilgan. Kutubxona-axborot xizmatlariga foydalanuvchilarga axborot manbalarini qidirishda samarali maslahat berish, vaqtincha o‘quv zallarida foydalanish uchun adabiyotlar berish, KAA orqali xizmat ko‘rsatish, elektron resurslarga kirishga sharoit yaratish kabilar. Foydalanuvchilarga taqdim etiladigan pullik xizmat turlari ko‘rsatilgan.

2. Kutubxona-axborot xizmati ko‘rsatish ishini tashkil etish. Xizmat qoidalari tushuntiriladi, o‘quv zallarida xizmat ko‘rsatish va zallarning turlari berilgan. Foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatish bo‘limlari haqida ma’lumot beriladi.

3. Taqdim etilayotgan kutubxona-axborot xizmat turlarining tarkibi, ulardan foydalanish qoidalari berilgan.

4. Axborot-kutubxona xizmatlarini takomillashtirishda marketing faoliyati. Pullik va bepul xizmat ko‘rsatish tizimi, xizmat turlari haqida aholiga ma’lumot berish, uning usullari, maqsadi yoritiladi.

5. Axborot-kutubxona xizmatlarini taqdim etishning tartibiga oid talablar yoritilgan.

Masofadan turib xizmat ko‘rsatish haqidagi Nizom.

Hozirgi kunda foydalanuvchilarga axborot-kommunikasiya texnologiyalari asosida sifatli, tezkor, to‘liq xizmat ko‘rsatishning yangi usuli faoliyatimizga kirib kelayotgani masofadan turib xizmat ko‘rsatishdir. Bu ilg‘or mamlakatlar kutubxonalaridagi kabi onlayn rejimda virtual ma’lumot berish xizmati bo‘lib, uni tashkil etish uchun alohida Nizom ishlab chiqilgan. Nizom quyidagi mazmundadir:

1. Umumiy qoidalar. Bunda KAA va masofadan xizmat ko‘rsatish turidan kimlar va qaysi davlatlar foydalanishi ko‘rsatiladi, uning xususiyatlari va talablari beriladi.

2. Asosiy vazifalar -internet-portal, virtual o‘quv zallari, KAA, xujjatni elektron yetkazib berish yo‘llari, bu xizmat turlarini muvofiqlashtirish, tashkil etish, boshqa kutubxonalar bilan hamkorlikni o‘rnatish, nazorat ishlari berilgan.

3. Xujjatga buyurtma berish faks, elektron pochta, internet orqali buyurtma berish va qabul qilish tartibi, uni rasmiylashtirish qoidasi, bibliografik ma'lumotlarni berish tartibi ko'rsatiladi.

4. Hujjatlarni taqdim etish-foydalanuvchi tomonidan talab etilayotgan hujjatlarni qidirish, topish, imkon bo'lmagan holda boshqa kutubxonalar yordamida bajarish yo'llari tushuntiriladi.

5. Buyurtmalarni bajarish uchun javobgarlik- foydalanuvchining oldidagi javobgarlik (faqat ilmiy, o'quv va ma'rifiy adabiyot uchun talab qabul qilinadi va bajariladi), kutubxonaning javobgarligi va burchlari ko'rsatilgan. Nizomga elektron pochta orqali buyurtmani rasmiylashtirish shakli ilova qilingan.

Lavozim yo'riqnomalari va uni tuzish qoidasi.

Lavozim yo'riqnomalari odatda quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi:

1. Umumiy qoidalar. Bu qismda lavozimning to'liq nomi, xodim bevosita kimning qaramog'ida bo'lsa boshqarish tizimidagi o'rni (rahbarlar uchun), lavozimga tayinlash tartibi, vaqtincha bo'lmagan paytda lavozimni egallash tartibi, ishning qanday tashkil etilishi (tarkibiy bo'linmaning ish rejasi bilan muvofiqlikda mustaqil yoki boshqa tartibda), xodim o'z faoliyatida asoslanadigan amaldagi qonunchilik, ichki tartib qoidalar, amaldagi meyoriy-texnologik hujjatlar va b., kimning yozma va og'zaki ko'rsatmalarini bajarmoqda, malakaviy talablar, nimani bilishi va qila olishi ko'rsatiladi.

2. Vazifalari. Bu qismda ishning asosiy yo'nalishlari ko'rsatilishi, qanday ishlarni xodim mustaqil bajarishi, qaysilarda ishtirok etishi ko'rsatiladi.

3. Lavozim majburiyatlari. Bo'lim xodim tomonidan har kuni yoki ma'lum davriylikda bajaradigan ishlar va jarayonlar ro'yxatini o'z ichiga oladi. Ushbu bo'lim ikki qismga ajratilishi mumkin: xodim mustaqil bajaradi, xodim ishtirok etadi.

4. Huquqlari. Bu quyidagi sxema bo'yicha amalga oshadi: xodimning mustaqil qaror qabul qilish huquqi, nazorat huquqi, qo'l ostidagilardan ma'lum harakatlarni bajarishni talab qilish huquqi, ko'rsatmalar, topshiriqlar berish, ularning bajarilishini nazorat qilish huquqi, turli hujjatlarni tasdiqlash, ularga imzo qo'yish, kelishish huquqi. Bo'lim matnida xodimning bevosita xizmat majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq faoliyatini takomillashtirish, texnologiyani takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish huquqini,

loyihalarni tayyorlash va amalga oshirish bo'yicha ishchi tarkibiga kirish huquqini mustahkamlash zarur.

5. Javobgarligi: Bo'lim amaldagi qonunchilikga, tashkiliy-huquqiy va boshqa hujjatlarga buysinishi, texnologiyalarga rioya qilishi va h.k. uchun javobgarligini mustahkamlab qo'yish ko'zda tutiladi. Lavozim yo'riqnomasi mustaqil hujjat sifatida yoki mehnat shartnomasiga ilova sifatida foydalanishi mumkin.

1. Umumiy qoidalar.

1.1 Axborot texnologiyalari bilan ishlash bo'yicha mutaxassisning namunaviy lavozimiga ushbu sohada tegishli malakaviy tayyorgarlikka va ish tajribasiga ega bo'lgan malakali mutaxassis tayinlanadi.

1.2 Bu mutaxassis lavozimiga bo'lim mudirining tavsiyasi bo'yicha muassasa rahbarining buyrug'i bilan tayinlanadi va lavozimidan bo'shatiladi.

1.3. U bevosita bo'lim boshlig'iga bo'ysinadi.

1.4. O'z ishida Nizomga, bo'lim to'g'risidagi Nizomga, ushbu yo'riqnoma va bo'limning ish rejasiga asoslanadi.

1.5. Elektron hisoblash texnikasidan foydalanish va ta'mirlashga oid rahbar va meyoriy hujjatlarni, elektron asbob uskunalardan texnik foydalanish qoidalarini, texnik xizmat ko'rsatish va elektron asbob-uskunalarini ta'mirlash qoidalarini, meyoriy yo'riqnoma hujjatlarini, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalarini hamda tegishli yo'riqnomalarni bilishi zarur.

2. Vazifalari.

2.1. Elektron jihozlardan to'g'ri texnik foydalanishni, uzluksiz ishlashini ta'minlash;

2.2. Muassasada ta'limiy xizmatlar sifati monitoringi tizimini rivojlantirish va kuzatish bo'yicha ishlarni o'tkazishga javob beradi;

2.3. Elektron axborot tashuvchilarda ma'lumotlar bazasini yaratishda ishtirok etadi;

2.4. Elektron resurslardan foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatishda ishtirok etadi.

3. Lavozim majburiyatlari.

3.1. (O'z vakolati doirasida) asbob-uskunalarini texnik xizmat ko'rsatishi va ularni ta'mirlash, ularni ishlatishni yaxshilash, ulardan samarali foydalanish bo'yicha tadbirlarni olib boradi.

3.2.Hisoblash texnikasining texnik xizmat ko'rsatishi uchun javobgardir, undan oqilona foydalanishni, ishlash qobiliyati holatini, buzilishining oldini olish va joriy ta'mirlashni o'tkazishni ta'minlaydi, ta'mirlash ishlarining o'z vaqtida sifatli bajarilishi choralari ko'radi.

3.3.Elektron asbob-uskunalarining texnik holatini tekshirishda, buzilishining oldini olish maqsadida ko'rikdan o'tkazish va joriy ta'mirlash, asbob uskunalarni kapital ta'mirdan qabul qilib olish, shuningdek, yangi foydalanishga qo'yilayotgan asbob-uskunalarni qabul qilib olish va ularni o'zlashtirishda ishtirok etadi.

3.4.Bo'limning texnik imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida elektron hisoblash mashinalariga qo'shimcha tashqi qurilmalarni ulash imkoniyatlarini o'rganadi.

3.5.Muassasada ta'limiy xizmatlar sifati monitoringi tizimini rivojlantirish va kuzatish bo'yicha ishlarni o'tkazishga javob beradi.

3.6.Elektron resurslarni tanlash, yig'ish, saqlash va foydalanishda ishtirok etadi.

4. Huquqlari.

4.1. Bo'lim ishini yaxshilash bo'yicha takliflar kiritish.

4.2.Elektron resurslarning foydalanishini yaxshilash bo'yicha takliflar kiritish.

5. Javobgarligi.

5.1.Ushbu lavozimga yuklatilgan vazifalarni bajarishga,

5.2.Elektron asbob-uskunalardan to'g'ri foydalanish va ularning ishga yaroqliligi uchun,

5.3. Ichki tartib intizom, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilishga javobgardir.

XVII- Bob Qadimgi dunyo kutubxonalari

Insoniyat jamiyati qadimgi davrlardan boshlab o'zlarining urf-odatlarini, an'analari, aqli qadriyatlarini saqlash maqsadida yozma hujjatlardan keng foydalanganlar. Qadimgi dunyoda kitoblar uchun foydalanilgan ashyolar loydan yasalgan va xumda pishirilgan sopol taxtachalar bo'lgan. Shumerlar va akkadliklar davridayoq yupqa va keng yuzali loy

plitalarga uch qirrali tayoqchalar yordamida ponasimon tarzda o'yib yozilgan. Ushbu taxtachalarga hali nam bo'lgan paytida yozilgan, so'ngra quyoshda quritilgan va olovda sopol holiga keltirilgan. Tayyor bo'lgan taxtachalar muayyan mazmunning ifodalanishiga ko'ra malum tartibda yog'och qutilarga taxlangan va shu tariqa sopoldan yasalgan, ponasimon yozuvdagi kitoblar vujudga kelgan. So'ngra qutilarga kitobning nomi, muallifi yozilgan yorliqlar ilib qo'yilgan. Saqlanayotgan kitoblarning sopoldan yasalgan kataloglari ham mavjud bo'lgan. Yevropa arxeologlari tomonidan Shumer va Vaviloniyaning qadimgi shaharlarida olib borilgan qazishma ishlarida tarixiy, iqtisod va madaniyatga oid juda ko'p ashyolar topilgan. Jumladan, Vavilon bilan fors ko'rfazi oralig'idagi sahroda joylashgan Varka tepaligida nemis olimi Y.Iordan rahbarligida 1927 yilda olib borilgan qazish ishlarida qadimiy Uruk shahri xarobalaridan to'rtinchi ming yillik o'rtalariga oid bo'lgan, yani yoshi 55 asrga teng bo'lgan sopol taxtachalardagi yozuvlar topilgan. Ulardan olimlar qadimiy Shumerning siyosiy va iqtisodiy hayoti, davlat tuzumi, dehqonchilik, chorvachilik, kemachilik, kemasozlik (Shumerning ko'pchilik shaharlari Frot daryosi sohillariga joylashgan edi), duradgorlik, kulolchilik, temirchilik va to'quvchilik hunarlari haqidagi malumotlarga ega bo'ldilar. Sopol taxtachalar bergan malumotlarga ko'ra ular loydan xurmacha, likopcha, ko'za tayyorlashni, yillar o'tib, kulolchilik dastgohi, g'ildirak, so'qa, omoch, yelkanli kema yasab, insoniyat rivojlanishi yo'lida alohida davrni yaratganlar. Nihoyat, ular ihtirolar qilib, butun Ikkidaryo oralig'i bo'ylab tarqalgan mashhur mixxatni kashf qildilar. Bunda ham o'sha sopol yozuv ashyosi sifatida xizmat qilgan.

Shumer o'z vaqtida o'zining ko'p kishilik shaharlari bilan shuxrat qozongan. Bir paytlar Shumerning poytaxti bo'lgan Ur shahrida 200 ming yaqin kishi yashagan va bu yerda Suriya, Misr, Hindistondan kelgan o'nlab kemalar langar tashlagan. Shumerning diniy markazi Nippurdan va boshqa shaharlardan topilgan sopol taxtachalar o'sha zamonlarda kishilarning qanday yashaganliklari va turmush kechirganliklari haqida malumot beradi. Nippurdan topilgan jadvallarning o'zigina bir necha mingdan iborat bo'lib, ular oltmish ikkita xonaga joylashtirilgan. Uzoq yillar davomida arxeolog L.Vulli tomonidan o'rganilgan Ur shahri ikkinchi madaniyat markazi bo'lgan va bu yerda ham mixxat jadvallari ko'plab topilgan. Lagash shahri xarobalari ostidan 20 mingdan ortiq

sopol taxtachalar topildi va ularning mazmuniga ko‘ra malum tartibga solinganligi, qismlarga ajratilganligiga ko‘ra haqiqiy kutubxona ham edi. Qadimiy Shuruppakdan shumer mixxatlarining tekstlari topildi va ushbu xazina “Arxaik mixxat belgilari ro‘yxati” ni nashr etishga imkon berdi. Bunday xujjatlar qanday saqlanganligini Uruk shaxridan topilgan ashyolar orqali aniqlash mumkin. Bu yerqa sopol taxtachalar tol savatlarga taxlab solingan va har bir savat bekitilib, unga formulyar va dastxatli etiketka yopishtirilgan. Ularda “Bog‘dorchilikka oid hujjatlar “ , “ To‘quvchilar ustaxonasiga mansub hujjatli qamish savat” kabi yozuvlar mavjud bo‘lgan. Yoki “kemani tuzatishga qamish tashish va saroyga to‘sin keltirish uchun bir kunga qirq beshta cho‘ri yuborildi” deb yozilgan sopol taxtacha shoh saroy ho‘jalik ishiga oid hujjat ekanligini anglatadi. Bundan tashqari shumerlar matematika, tarix, adabiy asarlar, qishloq xo‘jaligiga oid asarlarni ham (dexqonchilik solnomasi va o‘simliklar tasnifiga oid asarlar ham topilgan) meros qoldirishgan. Bizgacha yetib kelgan qadimiy xaritalar ham mavjud bo‘lib, ulardan birida Nippur shahrining rejasi chizilgan va hajmi aniq berilgan devorlar, darvozalar, muhim binolar o‘rni ko‘rsatilib, belgilar qo‘yilgan. Shumerda matematiklar teoremlarni isbotlashni bilganlar. Masalan, taxtachalardan birida uchburchak isbotlangan bo‘lsa, ikkinchisida fanda Evklid nazariyasi nomi bilan malum bo‘lgan nazariya isbotlangan. Messopotamiya olimlari miloddan oldingi II minginchi yildayoq Pifagor teoremasini isbotlashgani malum bo‘ldi. Nippurda ko‘pgina boshqa narsalar bilan birgalikda reseptlar ro‘yxati yozilgan taxtachalar ham topilgan. Taxtachalardan birida resept 145 qator xatda ifodalangan. Shumer tabiblari dori tayyorlashda o‘simlik, hayvonot, mineral moddalaridan foydalanishgan. Dorilarning ko‘pi gorchisa, tol, paxta, qarag‘ay kabi o‘simliklardan tayyorlangan. Qadimiy shumerlarning miqlar, maqollar, matallarini o‘z ichiga olgan ko‘pgina taxtachalarning o‘rganilishi ularning misr maqollariga nisbatan bir necha asr avval yaratilganligini ko‘rsatdi.

O‘z ona yeri haqidagi, mehnat haqidagi madhiyalar, qadimiy marsiyalar ham shumerlarga mansubdir. “Gilgamish haqidagi doston” insoniyat, uning istaklari va jasoratini ulug‘lovchi asar bo‘lib, bu ham shumer madaniyatiga tegishlidir. Eramizgacha III-II ming yilliklar arafasida Shumer tamadduni halokatga yuz tutdi va eramizgacha XIX-XVI asrlarda Vaviloniya podshohligi yuksala boshladi. Sopol taxtachalarga

yoziqlan diplomatiyaga oid, xo‘jalik xisobiga oid, oldi-sotdi shartnomalariga oid, qonunchilik va sud yozuvlariga oid matnlar ichida Vaviloniya shohi Xammurapining bazalt taxtachalarda aks ettirilgan “Xammurapi kodekslari” alohida ahamiyatga egadir. Ushbu kodekslar Yustianinning rim kodeksi tuzilishiga ham alohida tasir ko‘rsatgan.

Qadimiy Ossuriya poytaxti Nineviyaga olib borilgan qazishma ishlari jarayonida saroylar, ibodatxonalaridan iborat bo‘lgan ajoyib arxitektura inshootlari topilgan. Shunday saroylardan birida Ossuriya podshohi Assurbannipal (Ashshurbannipal) tomonidan eramizdan avvalgi VII asrda tashkil etilgan kutubxonaning ponasimon yozuvda aks ettirilgan 22 mingta sopol taxtachalarda bitilgan kitoblari saqlangan. Ashshurbannipal saroyida olimlar va hattotlarning katta guruhi faoliyat ko‘rsatgan. Ushbu kitoblarni o‘rganib chiqish jarayonida Assurbannipal tomonidan kutubxonaga kitoblarni yig‘ish usuli ham aniqlashtirildi: u barcha shaxarlarga kitoblar sotib olish uchun maxsus odamlar jo‘natgan, kitoblarni sotib olish mumkin bo‘lmagan holatlarda, ularni ko‘chirib olishga buyruq bergan. Eng ko‘p so‘raladigan kitoblarning ko‘p nusxalarda mavjud bo‘lishiga ham alohida e‘tibor berilgan. Uning kutubxonasida saqlangan har bir kitobga “Ossuriya podshosi, shohlar shohi, Assurbannipal saroyi” deb yozib qo‘yilgan. Assurbannipal kutubxonasida astronomiya, matematika, medisina, turli kasalliklarni davolash vositalari, tashxislari, bo‘yoq tayyorlashning ximiyaviy usullariga oid ilmiy, diniy adabiyotlar to‘plangan. Kutubxonada katalog mavjud bo‘lib, sopol taxtachaga kitobning nomi (uning birinchi satri), shuningdek, kitob saqlanayotgan xona va tokcha ko‘rsatilgan. Tokchalarga lavha (etiketka) yopishtirilib, uning qaysi bilim sohasiga oid ekanligi aytilgan. Bitta kitobning sopol taxtachalari alohida yog‘och qutilarga saqlangan va unda sopol varaqlar almashib ketmasligi uchun har biriga tartib raqam qo‘yilib, har bir taxtachaning tepasida asarning bosh so‘zi takrorlangan. Masalan, olamning yaratilganligi to‘g‘risidagi kitob: “Tepadagi narsa hali osmon deb atalmay turib” deb boshlangan va kitobning har bir taxtachasida “Tepadagi narsa” degan yozuv bo‘lgan. 1903 yilda Oksford universitetining professori A.Seysning “ Hettlar yoki unutilgan halq tarixi” nomli kitobi bosilib chiqdi. Unda hozirgi Turkiya hududida va Suriyaning shimolida yashagan buyuk va qudratli xalq Hettlar haqida so‘z boradi. 1907 yilda nemis olimi T.Vinkler tomonidan Bo‘g‘ozko‘yda olib borilgan qazishma ishlarida topilgan 10

mingdan ortiq sopol taxtachalar A.Seys tomonidan ilgari surilgan fikrlarni ashyoviy jixatdan to'la tasdiqladi. Anqaradan 145 kilometr uzoqligidagi bu joy haqiqatan ham hett xukmdorlarining qadimiy poytaxti edi. Ayniqsa firavn Ramzes II ning hettlar shohiga yozgan xati ifodalangan taxtacha katta shov-shuvga sabab bo'ldi. Unda misrliklar va hettlar o'rtasidagi shartnoma to'g'risida so'z yuritilar edi. Sopol taxtachalarda bitilgan malumotlar orqali jahon hett davlati va uning madaniyati haqida, Vavilon va Misrga teng keladigan qudratli davlat haqida malumotga ega buldi. Oradan sal vaqt o'tgach yana topilgan 6 mingdan ortiq hujjat malumotlar doirasini yanada kengaytirdi. Bu topilma Assurbannipal kutubxonasidan keyin topilgan eng katta kutubxona edi. Vavilon tilida bitilgan taxtachalarni o'qib chiqishdan tashqari hettlarning o'zlari tilida talqin qilingan kutubxonaning ikkinchi qismini o'qib chiqish yana ko'p malumotlarga ega bo'lishi imkonini berdi. Hett mixxat taxtachalarining asosiy qismi urf-odatlar, madhlar, oyatlar, diniy marosimlar, astronomiyaga oid yodgorliklardan iborat bo'lgan diniy aqidalardan iboratdir. Hettlar vaviloniyaliklardan matematika sohasidagi bilimlarni o'zlashtirganlar ("Haldey donishmandlari" uchburchak, to'g'riburchak, aylana satri, kub, konus va boshqalarning hajmini aniqlash formulasini tushunganlar. Ular darajaga ko'tarishga mohir bo'lib, kvadrat hamda ko'p ildizli jadvallar tuzganlar). Hettlarning huquq sohasiga oid ko'pgina asarlari mavjud bo'lib, ular yaratgan kodekslar ancha-muncha izohlar bilan to'ldirilgan va sudlar uchun qo'llanma vazifasini o'tagan. Hett kutubxonachilari va arxiv xodimlari kitoblarni saqlash fanini vujudga keltirganlar. Arxiv vazifasini ham o'tagan kutubxona katalogining mixxat tekstlari saqlanib qolgan katalogga yo'qolgan hujjatlarga ishora qiluvchi tekstlar ham mavjud bo'lib, alohida asarlarga lavha (etiketka) qo'yilgan. Bularning hammasi sopol kitoblar kutubxonasidagi tartibdan darak beradi.

Tarixchilarning fikriga ko'ra eng yirik kutubxonalardan biri firavn Ramzes II tomonidan miloddan oldingi 1300 yilda Misrning qadimiy poytaxti Fivning yaqinida bunyod etilgan. Bu kutubxonaning peshtoqiga "Qalb darmonxonasi" deb yozib qo'yilgan. Muhtasham eshikda esa xudo Tot va mabuda Seshatning tasviri tushirilgan bo'lib, ular "kitoblarning ulug' hukmronlari" hisoblangan. Kutubxonaning ichkarisida yana ikki xudoning Xu("So'z")hamda Sia("Bilim") xudolarining tasviri mavjud bo'lgan.

Qadimgi Misrda kutubxonachi lavozimi ko'pgina davlat lavozimlari singari meros tariqasida davom ettirilgan.

Miloddan avvalgi 237-147 yillarda qurilgan Edfu ehromi huzurida ham yana bir kutubxona binosi bo'lgan. Ushbu kutubxonada o'ziga xos katalog ham mavjud bo'lib, u kitoblar ro'yxati sifatida Ehromning devoriga o'yma tarzda yozilgan. Bu katalogni "Kitoblar turadigan qutilar hamda teridan yasalgan katta o'ramlar ro'yxati" deb atalgan. Unda asosan diniy mazmundagi, munajjimlikka xos, shuningdek, Gora ehromiga oid qo'lyozmalarning nomi keltirilgan. Kutubxonalar ta'lim maskanlari ham hisoblangan. Saisa, Meifis, Abidos, Permopolis, Geliopolis shaharlaridagi kutubxonalar qoshida shunday maktablar mavjud bo'lgan. Bundan ikki yarim yil muqaddam greklar o'zlarining ko'p narsalarga qodir ekanliklarini namoyon eta boshladilar. Jumladan, Samosda Pifagor tomonidan asos solingan tabiat falsafasi maktabi mavjud edi. Samosda Gresiyadagi eng qadimiy kutubxona mavjud bo'lgan, lekin undan nom nishon qolmagan. Pifagordan keyin Platon akademiya deb atalmish (afsonaviy qahramon Akadem sharafiga) falsafa maktabiga asos soldi. Afinadagi Likeyda esa Aristotel maruza o'qir va uning kutubxonasida 40 mingta o'ram mavjud edi. Ushbu kutubxonani tashkil etishda Aristotelning shogirdi makedoniyalik Aleksandr ham ishtirok etgan. Aristotel ishining davomchilaridan biri hisoblangan Feofrast Likeyda museyon tashkil etdi va unda maruza uchun zal, o'qituvchilar uchun xonalar, mutolaa va suhbat o'tkazish uchun keng zallar, istirohat bog'lari, kutubxona mavjud edi. Umuman, eramizgacha III asrda Afinada jamoat kutubxonalari va shaxsiy kutubxonalar soni shunchalik ko'payganki, tarixchi Polibining so'ziga ko'ra tatqiqotchi Timey ularni o'rganib chiqish uchun o'zining 50 yil umrini sarflagan. Makedoniyalik Aleksandr vafotidan so'ng Aleksandriya (Misr)ni poytaxt qilgan Ptolomey I o'z davlatining dovrug'ini oshirish uchun Museyon qurishni ixtiyor etib, uni tashkil qilishga grek olimi Dimitriy Falerskiyni ham jalb etdi.

Bu museyon dorilfunun, botanika bog'i, rasadxona, hayvonot bog'i, kutubxonani o'z ichiga olgan arxitektura ansambli edi.

Unda yuzlab o'qituvchilar, bir necha yuzlab o'quvchilar talim olishar, maruza va mashg'ulotlar zallari, ovqatlanish zallari, sayr qilish yo'laklari mavjud bo'lgan. Ushbu xazinalar Ptolomeylar tomonidan muntazam to'ldirib borilgan. Masalan, Ptolomey II

dunyoning barcha tomonlariga maxsus elchilar yuborib, ular orqali qimmatbaho kitoblarni yig'dirgan. Dimitriy maslahatiga ko'ra u Aristotel kutubxonasini to'la sotib olib o'z kutubxonasiga qo'shdi. Museyon kutubxonasida dastlab 400 ming o'ram mavjud bo'lgan bo'lsa, oradan ikki yuz yil o'tgach 700 mingtagacha yetdi. Bu yerda yunon madaniyati bunyod etgan barcha narsalar qatorida xorijiy mualliflarning tarjima qilingan va tarjima qilinmagan asarlari ham to'plangan Kutubxonaning o'zi bir necha keng xonalardan iborat bo'lib, o'ramlar ikki tavaqali eshiklar bilan yopiladigan gorizontol tokchali javonlarda saqlangan. Kitob javonlari joylashtirilgan zallar ulug' yozuvchilar va olimlarning haykallari bilan bezatilgan. Zallarning yonida kitoblar ko'chiriladigan, saralanadigan, tartibga solinadigan xonalar, bosh kutubxonachining yordamchilari uchun xonalar joylashgan. Museyonga podsho tomonidan tayinlanadigan kohin yoki kutubxonachi rahbarlik qilgan. Qoidaga binoan kutubxonachi vazifasini atoqli olimlar va shoirlar bajarganlar. Ular orasida filolog Zenodot, Rodoslik olim va shoir Apolloniy, shoir va olim Kallimax, matematik va geograf Erotosfen, Vizantiyalik filolog Aristofenlar bor edi. Taniqli shoir va olim Kallimax o'zining keng qamrovli ijodiy tafakkur mahsullaridan tashqari "Bilimning barcha sohalaridan xabardor bo'lgan yozuvchilar, ular ijod etgan risolalar katalogi"ni tuzib, ayniqsa shuxrat qozongan.

Katalog 120 tomdan iborat bo'lib, Kallimax kitob mazmunidan tashqari uning muallifi haqida ham malumot berib o'tadi. Bu bibliografik ko'rsatgichlardan biri bo'lib, Kallimaxni bibliografiya asoschisi deb atashlari bejiz emas. Ammo katalog bizgacha yetib kelgan emas.

Kallimaxning shogirdi Erotosfen 40 yil kutubxonachi vazifasini bajarib kelgan. U geografiya terminini qo'llagan, geografiya faniga asos solgan, birinchilar qatori Yer kurrasi aylanasini o'lchagan, geografik xarita tuzish usulini ishdab chiqqan olimdir. Kutubxonachilarning yordamchilari ham bo'lib, ularning vazifalari qat'iy belgilab qo'yilgan, yani birovlari yangi qo'lyozmalarni hisobga olishar, ikkinchilari manuskriptni ko'zdan kechirar, uchinchilari sotib olishning iloji bo'lmagan qo'lyozmalardan nusxalar ko'chirishardi. Qo'lyozmalarning saqlanishini nazorat qiluvchi, ularni zaxdan saqlovchi maxsus kishilar ham faoliyat ko'rsatishgan. Miloddan oldingi 47 yilda Yuliy Sezar Rimga jo'natish uchun Aleksandriya kutubxonasining bir qismini tayyorlatib qo'ygan paytida

uning ancha qismi yonib ketgan. Aslida, Sezar shaxsiy foydalanish uchun emas, Rimda respublikada birinchi, balki jahonda birinchi jamoat kutubxonasini tashkil etmoqchi bo'lgan. Chunki shu paytga qadar kutubxonalar podsholar, kohinlar, yirik olimlarning shaxsiy mulki hisoblangan. Rejaga ko'ra Mark Varron uning bosh kutubxonachisi bo'limi lozim edi. U har tomonlama malumotli kishi bo'lib, poeziya, tarix, adabiyot, lingvistika, falsafa, geografiya, matematika bilan shug'ullangan va o'zidan keyin umumiy miqdori 600 tomga yaqin ilmiy meros qoldirgan. Ular orasida "Kutubxonalar haqida" maxsus risolasi ham mavjuddir. Ularning rejasi amalga oshmadi, chunki ko'p o'tmay Yuriy Sezar o'ldirildi, qonunsiz deb elon qilingan Mark Varron o'z jonini arang saqlab qoldi, kutubxonaning katta qismi talon-taroj qilindi.

Aleksandriya kutubxonasi eramizning 273 yilida yonib ketgan. Yong'indan so'ng kutubxonani tiklash imkoniyati mavjud edi, lekin 415 yilda patriarx Kirillning farmoni va arxiyepiskop Feofilning fatvosi bilan xristianlar "daxriy kitoblar"ga o't qo'yishdi. Shu tariqa Aleksandriya kutubxonasi butunlay yo'q qilindi. Shu paytlarda Aleksandriya kutubxonasi va Museyon bilan bir qatorda ko'pgina yirik shaharlarda Antioxiyada, Pergamda, Sirakuzda, Efesda kutubxonalar mavjud edi. Pergam podsholigi miloddan oldingi 284-133 yillarda mustaqil davlat sifatida 150 yil hukmronlik qildi. U Yevmen II davrida ayniqsa yuksaldi va uning podsholik davrida ulkanligi jihatidan Aleksandriya kutubxonasidan keyin turgan kutubxona qurilgan. Kutubxonada qo'lyozmalar ombori, katta va kichik qiroatxona zali mavjud bo'lgan. Marmar devorlariga kedr daraxti yog'ochidan tokchalar qilingan. Kitoblar har xir sohalarga oid bo'lib, uning katta qisminitabobatga tegishli kitoblar tashkil etgan. Pergam medisina fanining markazi hisoblanib, bir vaqtlar vrach Galen bemorlarni davolagan. Kutubxona huzuridagi hattotlar, tarjimonlar bo'lgan, qo'lyozmalarni saqlash uchun masul kishilar tayinlangan. Eramizning 31 yilida kutubxonadagi bebaho boyliklarning katta qismi Mark Antoniy tomonidan Misr malikasi Kleopatriyaga tortiq qilingan. Keyinroq pergamlklar kutubxonani tiklashga harakat qilishsada uning avvalgi shuhratini tiklab olmaganlar.

Ushbu asosda paydo bo'lgan kitob esa asrlar va ming yillar davomida axborotni saqlash hamda avlodlarga uzatish vazifasini to'la bajarib kelmoqda. Rim madaniyati grek madaniyati negizida shakllandi. Ushbu madaniyat o'zining ilk rivojlanish bosqichida

ellinlar madaniyatining nusxasidan iborat edi. Rim o'z tarixining dastlabki 500 yili davomida bironta yozma kitobga, tabiiyki bironta kutubxonaga ham ega emas edi. Rimliklar asosan qishloq xo'jaligi va savdo bilan shug'ullanganlar. Eramizdan avvalgi 218-201 yillar Puni urushidan keyin Rimning yozma tarixi boshlangan bo'lsada, ushbu tarix grek tilida yozilgan va ular ancha keyin lotinchaga tarjima qilingan. Vergiliy, Gorasiy, Ovidiy kabi rimlik mualliflarning asorlari keyinchalik jahon adabiyotini rivojlantirishga o'zining ulkan hissasini qo'shganligini inkor etish mumkin emas.

Rimda Aleksandriya va Pergam kutubxonasi bilan bir qatorga qo'yish mumkin bo'lgan kutubxona imperator Trayan tomonidan asos solingan Ul'pian kutubxonasidir. Kutubxonada biri grek tilidagi, ikkinchisi lotin tilidagi adabiyotlar saqlangan ikkita zal mavjud bo'lgan. Ushbu kutubxona ham asosan olimlar va zodagonlar uchun tashkil etilgan. Kutubxonalarda maxsus tayyorlangan kishilar xizmat qilgan, II-III asrlardan ularni maxsus amaldorlar boshqargan. Kutubxonalar saroylar, ibodatxonalar, jamoat hammomlari qoshida tashkil etilgan. Ular Rimlik arxitektor Vitruviy loyihasiga ko'ra Sharq tomonga qaratib qurilgan. Bu holat kitobdan asosan ertalab, kunning yorug' paytida foydalanish shimoldan va janubdan esadigan nam shamoldan qo'lyozmalarni asrash maqsadi bilan izohlangan. Shoirlar, olimlar, amaldorlar, uyda foydalanishga olish imkoni bo'lsada kutubxona zalida foydalanishni afzal ko'rganliklari uchun ko'proq yarim aylana shaklida qurilgan. O'quv zallarining jihozlanishida ular uchun qulay imkoniyat va muhit yaratishga harakat qilingan. Eramizgacha bo'lgan 1 asrlarda, ya'ni lotin adabiyotning oltin asrida kutubxonalar fondini to'ldirishga oid uslubiy qo'llanmalar ham yaratilgan bo'lib, olim Gereniy Filonning "Kitoblarni tanlash va sotib olish to'g'risida"gi, Pergamlik tilshunos Telyefosning "Qanday kitoblarga egalik qilish yo'lini ko'rsatuvchi kitob"lari shular jumlasidandir. Fan va san'atga homiylik qilish bilan birga kitoblarni yig'ish, egalik qilish obro' va boylik timsoli hisoblangan. IV asrning boshlarida Rimda 28 ta kutubxona mavjud edi. Lekin, to'rtinchi yuz yillikning oxirida Rimning qudratiga putur yetib, inqirozga uchray boshladi va bu kutubxonalar holatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi. Shunday bo'lsada, qadimgi tamaddunlar va davlatlarning kutubxonalari xalqlarining madaniy va ilmiy yutuqlarining saqlovchisi sifatida turli madaniyatlarning

adabiyot va san'at rivojlanishiga, o'zaro bir-birini boyitishiga munosib hissa qo'shib keldilar.

XVIII-Bob O'zbekistonda kutubxonachilik ishi tarixi faniga kirish

Mamlakatimizda istiqlol shabadasi esa boshlagandan keyin yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, hamda ularda milliy iftixor, milliy g'urur ruhiyatini shakllantirish masalasi dolzarb bo'lib turar edi.

Milliy merosimiz bo'lgan qadriyatlarimiz yurtimizdan yetishib chiqqan, buyuk shaxslarning hayoti va ijodlarini o'rganishga respublikamiz tarixchilari, adabiyotshunoslari va boshqa soha mutasaddilari ham real yondoshila boshlandi. Shular qatorida millatimiz hududida davrlar davomida tashkil etilib, faoliyat olib borgan kutubxonalar tarixini yoritishni va ular haqidagi manbalarni o'rganishga qaratildi. Kutubxona-bosma va qo'lyozma asarlardan aholining keng foydalanishini ta'minlovchi ma'naviy-ma'rifiy va madaniy muassasa hisoblanadi. Kutubxonalar bosma asarlarni yig'ish, saqlash ularni targ'ib qilish va foydalanuvchi qiziqishlari va ularga tabaqalashtirilgan holda xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanadi. Kutubxonalarning asosiy maqsadi yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularga milliy istiqlol g'oyasining mazmun — mohiyatini targ'ib qilish hamda aholining huquqiy, madaniy hayotida estetik saviyalarini oshirishga yordam berishdan iboratdir. Kutubxonalar qo'lyozma yodgorliklar saqlanadigan joy sifatida qadim zamonlarda paydo bo'lgan miloddan avvalgi VII asr o'rtalarida Sharqdagi ko'pgina mamlakatlar podshohlari saroylarida sopol va pergamentdan iborat hujjatlar to'plamlari saqlangan kutubxonalar mavjud bo'lgan. Masalan, tarixiy manbalarga qaraganda O'rta Osiyoning ko'p davlatlarida, jumladan, Qadimgi Baqtriya, So'g'diyona, Xorazmda III asrlardayoq ancha yozma manbalarga boy bo'lgan kutubxonalar mavjud bo'lgan. Lekin arablar istilyosi (VII—IX asrlar) davrida talon-taroj qilingan (IX-XV asrlar) O'rta Osiyoda dunyo tarraqqiyoti rivoji uchun bitilgan kitoblarni o'zida mujassam etgan ko'plab kutubxonalar mavjud bo'lgan. Muhammad Al—Xorazmiy, Al—Farg'oniy, Abu Nasr Farobiy, Al—Beruniy, Ibn Sino, M. Qoshg'ariy, Abdurahmon Jomiy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek kabi

ulug' siymolar o'sha davrning boy kutubxonalaridan foydalanganliklari, kitob to'plash ishiga homiylik qilganliklari hamda boshqa tillardagi, kitoblarni kutubxonalar qoshida hattotlar va tarjimonlarni yig'ib, lotin va arab tillaridagi kitoblarni tahlil qilib, tarjima qilganlar va ulardan nusxa ko'chirish ishlari bilan mashg'ul bo'lganlar.

Jumladan, XIV asrda Samarqandda buyuk Sohibqiron Amir Temur rahnamoligida oq marmardan bino qilingan juda katta kitob zahiraloriga ega bo'lgan kutubxona tashkil etilgan.

Bu an'analar keyinchalik Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari tasarrufida bo'lgan xon saroylarida, shaharlarda, madrasalarda ko'plab nodir qo'lyozmalar saqlanadigan kutubxonalar barpo etilgan. Ushbu kutubxonalarining ko'pi nafaqat kutubxona vazifasini o'tagan, balki u yerda kitob tayyorlashning barcha jarayonlari amalga oshirilgan (hattotlik ishi, muqovalash ishlari). Lekin o'zaro nizolar natijalarida juda ko'p kutubxonalar talon-taroj etilgan va dunyoviy bilimlarga asoslangan noyob kitoblar xurofot ramzi sifatida yoqib yuborilgan.

XIX- Bob O'zbekiston xududida arablar istilyosiga qadar vujudga kelgan yozuv, dastlabki kitob va kutubxonalar

Mamlakatimiz hududida o'tmishdan ma'naviyat sarchashmalari qaror topib, o'z davrida yuksak va rivojlangan madaniyatni vujudga keltirgan edi. Sharq qo'lyozmalarini saqlovchi dastlabki kutubxonalar arablar istilyosidan avval ma'naviy va madaniy jihatdan yuqori darajada rivojlangan edi.. Jumladan, So'g'd, Baqtriya Xorazm davlatlarida dehqonchilik, bog'dorchilik, uzumchilik taraqqiy etgan, hunarmandchilik yuksak darajaga ko'tarilgan. Masalan, O'rta Osiyo savdogarlarining karvonlari Hindistonga, Vizantiyaga, Xitoyga yo'l olar edi. Savdo-sotiqning keng rivoj topishi savodxonlik va yozuvning tarqalishiga olib keldi. Yurtimizning hozirgi hududida yozuv ancha oldin paydo bo'lgan, buni o'tkazilgan arxeologik qazilmalar tasdiqlaydi. Xorazmshohlarning Tuproq qal'adagi (Qoraqalpog'iston Respublikasi) qasrlariga taalluqli inshootlardan qazib olingan namunalari, ko'p sonli uy anjomlari va san'at ashyolari bilan bir qatorda saroy arxivi hujjatlarida eramizning III asriga tegishli ma'muriy-xo'jalik mazmunidagi

80 ga yaqin matn borligi aniqlandi. Bu hujjatlar teri va yog'ochga tush bilan chiroyli husnixatda bitilgan va akademik S.P. Tolstov ko'rsatib o'tganidek, til jihatidan «ular so'g'd tiliga yaqin hamda X—XI asrlarda aniqlangan, xorazmliklar tilining bevosita o'tmishdoshi hisoblanadi» 1932-1933 yillarda Zarafshon daryosining so'l qirg'og'ida topilgan Mug' tog'laridagi so'g'd hujjatlari tahlili So'g'diyonaning fuqarolar ma'muriyati va moddiy madaniyati tarixini aks ettiradi va hozirga qadar so'g'dlarning chinakam qo'lyozma hujjatlarining birdan-bir qimmatli namunasi hisoblanadi. Ular VIII asrning 30-yillariga taalluqlidir. Qadimgi hujjatlar qal'a vayronalari orasida ming yildan ortiq yotgan bo'lsa-da, ularni bemalol mutolaa qilish mumkin. Akademik I.Y. Krachkovskiyning fikricha, bu topilmalarning hammasi «hukmdor Divashti arxivi yoki ko'chma devonxonasi bo'lib, uning egasi asir olib ketilgandan keyin vayron qilingan qal'ada qolib ketgan. Xorazmda, Panjikentda va boshqa joylarda amalga oshirilgan qazilma ishlari vaqtida topilgan Buxoro tangalari V asrdan va undan keyingi davrlardagi so'g'd yozuvi namunalari o'zida saqlab qolgan. Bu tangalardagi yozuvlar va ularning tili so'g'd yozuvlariga mos keladiki, buni 1876 —yildayoq rus orientalist olimi P. P Lerx isbotlab bergan edi.

O'zbekiston hududidagi yozma yodgorliklarning ilk namunalari ostrakonlar — eramizdan oldingi II asrga taalluqli sopol idishlarning bo'laklaridagi yozuv qoldiqlaridir. Bular arxeologlarning (qadimshunoslar) ikkinchi jahon urushi yillari olib borgan qazilmalari vaqtida topilgan va ular «Parfiyaning o'z tub yerlaridagi mahalliy yozma tarixiy manbalari va ayni vaqtda parfiya tili va yozuviga doir eng qadimgi yodgorliklardir». O'rta Osiyo xalqlari orasida yozuv ancha oldin rivoj topgan bo'lib, u haqda Xitoy olimi va sayyohi Syuan-Tzyann o'zining (VII asr) yozma manbalarida, (Markaziy Osiyo orqali Hindistonga ketayotgan vaqtida) So'g'dda va Xorazmda ana shu vaqtda o'ziga xos rasmiy taqvim (календарь) bo'lganligini yozib qoldirgan. Samarqandda savdo-sotiq maqsadlari uchun bolalarni besh yoshidan boshlab yozishga, hisoblashga o'rgatishgan, kattaroq yoshdagi bolalarni karvonlar bilan birga tijorat ishlarini o'rganish uchun boshqa mamlakatlarga yuborishgan. Markaziy Osiyo hududida Urxun yozuvi mavjud bo'lib, u asosan sharqiy Turkiston, Yettisuv, g'arbiy Pomir tog'lari hududida, Talas vodiysi va boshqa joylarda qal'a tomlaridagi yozuvlarda saqlanib qolgan.

Bu vaqtda qadimgi turkiy yozuvning bir turi bo'lgan uyg'ur yozuvi ham mavjud edi. Arablar istilyosining dastlabki yillarida arab yozuvi bilan bir qatorda Markaziy Osiyo hukmdorlarining idora ishlarida uyg'ur yozuvi ham qo'llanilgan. Shunday qilib, O'rta Osiyoning hozirgi hududida so'g'd, xorazm, urxun, uyg'ur va boshqa yozuvlarning mavjudligi bu hududlarda o'sha davrlarda madaniyat ancha yuksak darajada rivojlanganligidan darak beradi.

Markaziy Osiyo xalqlarining tili va madaniyati juda katta hududlarga, sharqda Qozog'istondan tortib janubda Turkmanistongacha, Qizilqumdan shimoli-sharqiy Hindistongacha keng yoyilgan edi. Turli yozuv namunalarining mavjudligi qo'lyozma asarlarning vujudga kelishiga zamin bo'ldi, ulardan dastlabkilari ancha uzoq o'tmishga mansubdir. Bundan qariyb 1790-yil burun xristian dini «Manixeyov» sektasining asoschilaridan biri kohin Mani uzoq vaqt mobaynida g'orda yashab, yolg'iz o'zi kun kechirar ekan. diniy ta'limot asoslari bayon qilingan rasmlil kitob yozishga muvaffaq bo'lgan.

Aholi orasida yozuv va kitoblarning tarqalishi u vaqtlarda diniy e'tiqod bilan bog'liq bo'lib, kitoblardan asosan badavlat xonadon egalari bahramand edi. Aholining mutlaq ko'pchiligi savodsiz bo'lganligi sababli ular o'z orzu-o'ylari va muddaolarini og'zaki poetik ijodda tarixiy voqealar bilan bog'liq ravishda aks ettirgan. Ko'pgina epik dostonlar va rivoyatlarda Markaziy Osiyo xalqlarining ajnabiy bosqinchilarga qarshi kurashi kuylangan. Ahmoniylar davlatining sharqiy viloyatlarida birinchi marta «Shohnoma» nomli mashhur doston yaratilgan. Xuddi shu yerda bir vaqtlar zardo'shtiylarning kitobi — «Avesto» vujudga kelgan edi. Bu asar qahramonlari o'z jasoratlarini Baqtriya, So'g'd, Marg'iyona va Xorazm tomonlarda ko'rsatgan. Keyinchalik epik mazmundagi asarlarni adabiy jihatdan qayta ishlab, ularni tarixiy shaxslarga bag'ishlash urfga aylangan. Ma'naviyat-ma'rifatning rivojlanishi va kitoblarning to'planib borishi, avvalo, diniy muassasalar: masjid va madrasalarda, ayrim hukmdorlarning saroylari qoshida kutubxonalar vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Abu Rayhon Beruniyning tarjimayi holida bosqinchi arablarning zolimligi va qattiqqo'lligi haqida, ularning muqaddas qasr va saroylarni, mahalliy xalqlarning madaniy yodgorliklarini shafqatsizlarcha yo'q qilib tashlanganligi haqida hikoya qilinadi. Ular olimlar va ruhoniylarni ta'qib qilib, yozma

yodgorliklarni yo‘q qildilar. Natijada Markaziy Osiyo xalqlarini shunday ahvolga olib keldilarki, bu xalqlar «mutolaa va yozish san‘atini esdan chiqarib yubordilar, ilm fan sohasidagi bilimlarning ko‘plaridan bebahra qoldilar». VIII asrning boshlariga kelib Markaziy Osiyo davlatlari feodal taraqqiyot bosqichiga kirdi, bu vaqtda feodal tarqoqlik Markaziy Osiyo hududida ko‘pgina ayrim mustaqil mulkdorlarning paydo bo‘lishiga turtki bo‘ldi. Ular doimiy ravishda o‘zaro urushlar olib bordilar. Bu hol arablarga Markaziy Osiyoni bo‘ysundirish, bu yerlarda yashovchi xalqlarga esa islom dinini majburan qabul qildirishni osonlashtirdi. Ayniqsa, Movarounnahr (Amudaryoning o‘ng sohil tomonida joylashgan viloyatlar), Buxoro (709), Samarqand (712) singari madaniy markazlar, Termiz, Xorazm va Farg‘ona vodiysidagi shaharlar Xuroson noibi Qutaybaning jangovar yurishlari vaqtida ko‘proq vayronaga aylandi. Bosqinchilarning qadami yetgan hamma joyda ko‘p sonli madaniyat yodgorliklari va boyliklari bilan bir qatorda Markaziy Osiyo xalqlarining diniy va dunyoviy kitoblari yo‘q qilindi va yoqib yuborildi. Bosqinchilar o‘zlarining istilyochilik siyosatini «chinakam» din uchun muqaddas urush olib borish zarurligi bilan oqladilar. Akademik T. N. Qoriniyoziyning so‘zlari bilan aytganda, «arab bosqinchilarining dinga toqatsizligi Markaziy Osiyo xalqlarining yaratgan va islomdan oldingi o‘tmishi bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘pgina madaniy boyliklari inkor qilishda namoyon bo‘ldi, O‘rta Osiyo xalqlari madaniyatiga qaqshatqich zarba berdi». Bordi-yu qandaydir qo‘lyozma, kitoblar va kutubxonalar saqlanib qolgan ekan, bunga sabab yog‘iylarning qo‘li yetmaganligidir (Masalan, sharqiy Turkistonda). 642-643 yillarda so‘nggi sasoniylar avlodi bo‘lgan Yazdigard III arablar ta‘qibidan qochib Marvga ketib qoladi, o‘zi bilan birga kutubxonasidagi qimmatbaho boshqa boyliklar bilan bir qatorda pahlaviylarga mansub ko‘p miqdordagi qo‘lyozmalarni ham olib ketadi. Tarixchi Ahmad ibn Tohir va geograf Yoqutning hikoyalariga qaraganda, bu qimmatbaho qo‘lyozmalar Marvda IX asr boshlariga qadar saqlangan. Bu qo‘lyozmalardan keyinchalik Firdavsiy «Shohnoma» dostonini yozishida foydalangan. Mazkur qo‘lyozmalarning shundan keyingi taqdiri quyidagicha: Marvda afrikalik qo‘shinlari bo‘lgan vaqtlarda qo‘lyozmalarni tortib olib, ularni Afrika olib ketganlar, keyin esa qo‘lyozmalar Hindistonga ko‘chirilgan.

Arablar bosqinchiligi Markaziy Osiyo xalqlariga juda katta talafot yetkazgan bo'lsa-da, lekin u qadimgi ma'naviyatni batamom yo'q qila olmadi.

XX-Bob O'rta Osiyoning qadimgi kutubxonalar

IX-X asrlarga kelib ulkan arab halifaligi mustaqil viloyatlarga bo'linishi oqibatida XI asrning oxirgi choragida Markaziy Osiyo yerlari arablardan ajraldi va mustaqil Somoniylar davlati tashkil topdi. Mustaqil davlatlarning tashkil topishi davlat tuzilishining birmuncha markazlashuviga, feodal o'zaro urushlarning kamayishiga olib keldi. Bu hol ko'pgina sohalarning rivojlanishiga va madaniyatning o'sishiga yordam berdi. Arab xalifaligining barcha mamlakatlaridan Movarounnahrda olimlar, shoirlar, musavvirilar va boshqa san'at namoyondalari kela boshladi. Mashhur fors shoiri va adabiyotshunosi ibn Muhammad Saolibiyning so'zlariga qaraganda, X asr oxiri XI asrning boshlarida Markaziy Osiyo va Xurosonda 119 nafar shoir yashab, ijod qilgan, ular orasida g'arbiy Erondan va arab xalifaligidan 25 muhojirning nomi eslatib o'tiladi. Bu vaqtda Samarqand, Marv, Urganch va boshqa shaharlar madaniy jihatdan ancha rivojlangan edi, lekin somoniylar davlatining poytaxti Buxoro shahri bu jihatdan alohida ahamiyatga egadir. Somoniylar sulolasining ko'plab namoyondalari adabiyot, xususan she'riyatga, ilm-fanga homiylik qildilar. Davlatning asosiy ilmiy va adabiy amaliy idora tili arab tili hisoblanardi, ammo u sekin-asta mahalliy fors tili tomonidan siqib chiqarila boshlandi, fors tilida adabiy, shu jumladan, she'riy asarlar tobora ko'proq yaratila boshlandi. Mazkur davrda dunyoviy madaniyat, ilm-fan rivojlandi, badiiy adabiyot gurkirab o'sdi. Markaziy Osiyoda ko'pgina mashhur olimlar yetishib chiqdi. Buxoroning Afshona qishlog'ida tavallud topgan Abu Ali ibn Sino (980—1037) tomonidan tibbiyot, matematika, fizika, astronomiya, falsafa, etika, ritorika (notiqlik san'ati) va boshqa fanlar bo'yicha 450 ta asar yaratilgani ma'lum. Ibn Sino ijodining tadqiqotchilari hali hanuz uning tobora yangi-yangi asarlarini izlab topib, ma'naviyatimiz xazinasini boyitmoqdadir. Ibn Sinoning zamondoshi bo'lgan buyuk olim Abu Rayhon Beruniy Kat shahrida dunyoga kelgan bo'lib, u o'z davrining mashhur qomusiy olimi sifatida dunyoga tanildi. Uning haddan tashqari mehnatsevarligi va bilimlarning sirini egallashga bo'lgan

beqiyos intilishi uning tangri ato qilgan tug'ma qobiliyati bilan birga qo'shib, buyuk muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritishiga olib keldi. Olim deyarli sakson yilga yaqin umri davomida 150 ga yaqin salmoqli asarlar yaratdi, bular astronomiya va matematika, gcologiya, tarix, geografiya va boshqa fanlarga doir edi. Beruniy kitoblarni o'lmas asarlar deb atagan bo'lsa, o'z asarlarini bamisoli o'z farzandlari singari e'zozlar edi. Allomaning o'ta mehnatsevarligini ta'kidlar ekan, uning zamondoshi Shahrazuriy Beruniy vafotidan (1053-54) keyin oradan ko'p o'tmay bunday deb yozgan edi: «Uning qo'li deyarli sira yozishdan, ko'zlari doimo kuzatishdan to'xtamasdi, qalbi esa mulohaza yuritishga intilardi. Faqat bir yilda ikki kun-yangi yil kuni, Mehrjon bayrami kunini oziq- ovqat va kiyim -bosh sotib olishga bag'ishlardi».

Beruniy ma'naviy madaniyatni ehtiros bilan o'rganar, kitoblarni jon-dilidan sevar, kitobga bo'lgan muhabbat va hurmat unda hali yoshlik chog'laridanoq tug'ilgan va butun umr bo'yi saqlanib qolgan edi. Yuqorida aytib o'tilgan buyuk olimlar va mutafakkirlarning barchasi o'zining shaxsiy kutubxonasiga ega bo'lgan. Samarqandda, VIII asrda o'ta sifatli qog'oz ishlab chiqarishning yo'lga qo'yilishi Markaziy Osiyo hududida kutubxonalar va ulardagi noyob kitoblar sonining ko'payishiga yordam berdi. X asr saroy kutubxonalari kitob jamg'armalarining yaratilishi bilan ajralib turardi. Saroy kutubxonalarida bu vaqtga kelib kitoblarni tasniflash usullari qo'lanilib, ular qo'riqlana boshlandi. X asrning oxiriga kelib esa qo'lyozma, kitob omborlarida asarlarni saqlashning mehnat taqsimoti ko'zga tashlanadi: bu yerda mudirlar (vakillar), saqlovchilar (xazinachilar), nazoratchilar (mushriflar) va boshqalar bor edi. O'z davri uchun ancha salmoqli bu qo'lyozmalarni jamg'arish o'z mazmuniga ko'ra bilimlarning turli sohalarini aks ettirar edi. Barcha adabiyotlar tegishli ro'yxatlarga kiritilgan bo'lib, shular asosida tegishli asar qidirib topilardi. YA'ni qidirish tizimi ishlab chiqilgan edi. Kutubxona xodimlari faqat kitoblarni qabul qilish va berish bilan emas, balki ularning saqlanishi, ta'mirlanishi va qayta tiklanishi to'g'risida ham g'amxo'rlik qilishardi. O'sha davrda juda ko'p kitob boyliklariga ega bo'lgan Buxoro kutubxonasi juda mashhur bo'lib, mazkur kutubxonani hech mubolag'asiz Markaziy Osiyoning yetakchi siyosiy va madaniy-ma'rifiy markazlaridan biri edi, deb aytish mumkin. Buxoro atoqli kishilar to'planadigan,

adabiyot yulduzlari uchrashadigan, o'sha davr ilm-fan ahlining muloqot, mashvaratlar olib boradigan joyi bo'lib qolgan edi.

Buxoro amirining saroyida ham boy kutubxona bo'lib, bu yerda ayrim fan sohalariga doir kitoblar alohida-alohida xonalarda sandiqlarga solingan holda saqlanardi. O'rta asrning buyuk mutafakkiri Abu Ali ibn Sino 17 yoshidayoq somoniylar amiri Nuh ibn Mansur saroyi mulozimlari orasida tibbiyot sohasida nufuzli mavqeni egallab, saroy kutubxonasidagi kitoblarni mutolaa qilishga ruxsat olgan va bu kutubxonani quyidagicha ta'riflagan: «Men ko'p xonalarda tashkil topgan kutubxonaga kirganimda har bir xonada kitoblar bilan liq to'la sandiqlar bor edi. Bitta xonada arabcha kitoblar va she'rlar, boshqasida esa qonunshunoslik haqidagi kitoblar bor edi va shu tariqa har bir xonada ham qandaydir ilm-fan tarmog'iga doir kitoblar mavjud edi. Men o'zimning fandagi salaflarim kitoblari ro'yxatini o'qidim va menga keraklarini olib berishni so'radim. Men u yerda nomlarini ko'rdim, o'zim ham ilgari ularni uchratmagan edim. So'ngra men bu kitoblarni o'qib chiqib, ulardagi foydali narsalarni bilib oldim va har bir muallifning o'z bilim sohasidagi olimlik darajasini anglab yetdim». Bu ta'rifga qarab kutubxonaning boyligi haqida xulosa chiqarish, unda kitoblarni saqlashdagi belgilangan tartib haqida, ko'p miqdordagi nodir kitoblar to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish mumkin. Xorazmshohlar saltanatida ham davlatga qarashli boy kutubxonalar bo'lgan. XI -XII asrlarda Xorazm har jihatdan ravnaq topayotgan, bu yerdagi Xiva, Kat, Gurganj (Urganch) shaharlari shiddat bilan rivojlana boshlagan, ularda o'qimishli kishilar ko'plab topilardi. Taxminan 1000 - yilda bu yerga sulolalar urushidan va qoraxoniylar zulmidan qochib, Ibn Sino ham kochib ketgan edi. Urganchda taniqli olim Faxriddin ar-Roziy «Fanlar to'plami» nomli qomusiy asarini yozib tugatgan, bu asarda ilmning 57 xil sohasi bo'yicha ma'lumotlarni to'plagandi. Xorazmda mashhur filolog va adib Abdulqosim az-Zamaxshariy yashab ijod qilgan, u yirik lug'at va grammatika kitoblarining muallifi edi. XII asrning buyuk olimi, shifokor Zayniddin abu Ibrohim ad-Jurjoniy batafsil tibbiy ensiklopediya tuzib chiqqan.

XXI-Bob O'rta Osiyoda bibliografiyaning paydo bo'lishi

Xorazmshohlar saltanatida ham davlatga qarashli boy kutubxonalar bo'lgan. XI-XII asrlarda Xorazm har jihatdan ravnaq topayotgan, bu yerdagi Xiva, Kat, Gurganj (Urganch) shaharlari shiddat bilan rivojlana boshlagan, ularda o'qimishli kishilar ko'plab topilardi. Taxminan 1000-yilda bu yerga sulolalar urushidan va qoraxoniylar zulmidan qochib, Ibn Sino ham kochib ketgan edi. Urganchda taniqli olim Faxriddin ar-Roziy «Fanlar to'plami» nomli qomusiy asarini yozib tugatgan, bu asarda ilmning 57 xil sohasi bo'yicha ma'lumotlarni to'plagandi. Xorazmda mashhur filolog va adib Abdulqosim az -Zamaxshariy yashab ijod qilgan, u yirik lug'at va grammatika kitoblarining muallifi edi. XII asrning buyuk olimi, shifokor Zayniddin abu Ibrohim ad-Jurjoniy batafsil tibbiy ensiklopediya tuzib chiqqan. Xorazm hukmdori Ma'mun II o'z saroyida ko'pgina olimlarni birlashtirgan va to'plagan bo'lib, u yerda «Ma'mun akademiyasi» vujudga kelgan. 1010-yilda bu yerda Beruniy ham ishlagan, u atoqli olim Ibn Sino bilan ishlashdek buyuk baxtga sazovor bo'lgan. O'sha vaqtlarda Xorazmda tashkil etilgan kutubxonalar orasida Shahobiddin Xivaqiyning Urganchdagi kitob xazinalari o'zining kitobga boyligi bilan nom chiqargan edi. Bu kutubxona haqida Nasafiy: «Bunday kutubxona ilgari ham, keyin ham bo'lmagan, uning qo'lyozma jamg'armasi Marv kutubxonalaridan qolishmas edi», deb yozgan edi. Shimoliy Xuroson, ayniqsa, Marv kutubxonalarida qo'lyozma fondlari mo'l-ko'lligi bilan ajralib turardi. Shuning uchun ko'pgina yirik adiblar va shoirlar Shimoliy Xurosondan chiqqanligi bejiz emas. Buyuk shoir Daqiqiy xalq eposi X asrda «Shohnoma» ni asos qilib oldi. Keyinchalik bu asardan xurosonlik shoir Abulqosim Firdavsiy (934—1025) ijodiy foydalanib, o'zining butun dunyoga mashhur bo'lgan «Shohnoma» dostonini yaratdi. Firdavsiy bu asar ustida ishlashni 976-yilda boshlab, unga 35 yillik umrini bag'ishladi va qariyb 60 ming bayt she'r yozishga muvaffaq bo'ldi. Firdavsiy O'rta Osiyo va Eron xalqlari qahramonlik dostonlari, afsonalari, rivoyatlari va ertaklarini o'rganib, asarda Eron va Turonning, ya'ni O'rta Osiyo yerlarining uch ming yildan ko'proq tarixini yoritdi. Garchi doston shohlar haqidagi kitob bo'lsa ham, unda mehnat kishilariga bo'lgan mehr-muhabbat zo'r mahorat bilan kuylanadi. Zo'ravonlik, zulm va adolatsizlik qoralanadi. Bu asar jahon madaniyati xazinasiga kirgan bo'lib, hozirgi vaqtda ko'pgina xalqlarning tillariga tarjima qilingan. Mashhur geograf Yoqutning ma'lumot berishicha,

mo'g'ul bosqinchiligi davrida Marvda o'nta yirik kutubxona mavjud bo'lgan. «Men miqdori va afzalligi jihatidan bunday kutubxonalarni dunyoning hech bir yerida ko'rmaganman», deb yozgan olim.

Marvdagi kutubxonada Yoqut «Mamlakatlar lug'ati» tuzish ustida qunt bilan ishlab, juda batafsil geografik ensiklopediya yaratdi. U mazkur kutubxonalarda o'zining butun vaqtini o'tkazib, «izlanishlari tufayli o'z vatanimni ham unutib, mazkur kitobim va boshqa asarlarim uchun kerak bo'ladigan deyarli barcha materiallarni shu yerda to'pladim», deb yozgan edi. Muallif yuqorida sanab, o'tilgan saroy kutubxonalaridan tashqari boshqa shaharlarda ham kutubxonalar bo'lgan. Saroy kutubxona jamg'armalarining aksariyat qismini tabiiy va gumanitar fanlarga doir asarlar tashkil etardi. Afsuski, mazkur kutubxonalardagi kitoblardan keng xalq ommasi foydalana olmas edi. Biroq shohlar saroyidagi kutubxonalar keng foydalanuvchilar ommasidan ajralib qolgan bo'lishiga qaramay, ular o'zining mavjud bo'lishi bilanoq shahar aholisi o'rtasida savodxonlik va madaniy yuksalishning avj olishiga yordam bergan. Movarounnahr hududida saroy kutubxonalaridan tashqari, masjid va madrasalar huzurida ham ko'plab kutubxonalar tashkil etilgandi. X asrdayoq musulmon targ'ibotchilari va qonunshunoslarini tayyorlash uchun masjidlar huzurida madrasalar paydo bo'ldi. Ular o'rta va oliy musulmon maktablari bo'lib, ularda islom dini masalalariga doir mavzularda ma'ruzalar qilinardi. Madrasalar to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar 937-yilda Buxoroda sodir bo'lgan yong'in davriga to'g'ri keladi, bu vaqtda yonib kul bo'lgan binolar orasida Farjaq madrasasi ham tilga olinadi. Yoqutning ma'lumotlaridan bilamizki, Marvda jome' masjidlari huzuridagi Aziziya va Kamoliya kutubxonalarida 12 mingtaga yaqin qo'lyozma kitoblar bo'lgan. Boshqa madrasalar huzurida ham yirik kitob jamlamalari mavjud edi. Faqat birgina Dumariya kutubxonasining o'zida Beruniyning 30 dan ortiq ilmiy asarlari saqlangan. Madrasalar hozirgi O'zbekiston hududining deyarli barcha shaharlarida bor edi. Samarqandning o'zida 17 ta xususiy madrasa bor edi. Birgina Manixeyev monastriga qarashli kutubxona beshta binoga joylashgan. U vaqtlarda xususiy madrasalardan tashqari hukmdorlardan mablag' olib turgan davlat madrasalari ham bo'lardi. Xurosonning dastlabki davlat madrasalariga G'aznaviy hukmdorlarining bevosita farmoyishi bilan XI asrda asos solingan. Buxoro shahridagi madrasa huzurida

qo'lyozma kitoblar saqlanadigan juda boy kutubxona mavjud edi. V.V. Bartoldning ma'lumot berishicha, ma'ruzalar qilinadigan xonalardan tashqari barcha madrasa binolarini qo'lyozma kitoblar bilan to'ldirilgan kutubxonalar egallagandi. Boshqa madrasalarning kutubxonalarida ham qo'lyozma kitoblar ko'p bo'lgan. Qo'lyozmalardan tashkil topgan kutubxonali madrasalar soni ortib borishiga islom dini va davlat hokimiyati yordam berdi. Madrasalar huzuridagi kutubxonalarda ko'proq diniy mazmundagi adabiyotlar to'plangan. Biroq ko'p sonli diniy mazmundagi qo'lyozmalar bilan bir qatorda dunyoviy adabiyotlar, tarix, astronomiya, tabiiy va boshqa fanlar bo'yicha asarlar ham bor edi. O'sha zamonlarda xususiy kutubxonalar, ayrim nufuzli shaxslarning, taniqli olimlar, yozuvchilar, shoirlar va boshqa ko'plab ma'lumotli va madaniyatli kishilarning qo'lyozma kolleksiyalari ham bor edi. Masalan, Seraxsning «Kitob ziynat al-kuttab» (Xusnixat yozadiganlarning bezak kitobi) 30 jilddan iborat. O'rta Osiyoning o'sha vaqtdagi hududida keng kitob savdosi yo'lga qo'yilgan bo'lib, Samarqandga tashrif buyurgan XI-XIII asrlardagi sayohatchilar shahar kitob bozorlarining boyligi haqida batafsil hikoya qilganlar. Ko'p sonli kitob bozorlari Buxoro shahrida ham tashkil etilardi. Biz Ibn Sinoning tarjimayi holidan shuni bilamizki, ayniqsa, juma kunlari kitob bozori juda qizg'in bo'lgan. Ana shunday kitob bozorlaridan Ibn Sino o'ziga juda kerakli kitob mashhur o'rta asr faylasufi Abu Nasr al-Forobiyning kitobarni topib oladi. Uch dirhamga xarid qilingan qo'lyozma (bir dirham o'sha vaqtda uch gramm og'irlikdagi kumush tanga edi) Aristotelning «Metafizika» kitobiga Forobiyning yozgan sharhlaridan iborat ekan. O'sha zamonlarda tez-tez bo'lib turadigan yong'inlar madaniy boyliklarga, shu jumladan, kutubxonalar uchun katta talofat yetkazgan. Markaziy Osiyo shaharlarining turar joy binolari bilan zich joylashtirilganligi va ularga yonma-yon jamoat binolarining qurilganligi, buning ustiga yog'ochning ko'p ishlatilganligi (ustunlar, ayvonlar, eshiklar, romlar va hokazolar uchun yog'och taxtadan tayyorlanganligi) ko'pincha yong'inlar chiqqan paytlarda butun-butun mavzularning yonib kul bo'lishiga olib kelgan. Yuqorida qayd etilganidek, 937 -yilda Buxorodagi dahshatli yong'inda shaharning yarmi, shu jumladan, Farjaq madrasasidagi kutubxonaning ham yo'q bo'lishiga sabab bo'lgan. Zamondoshlarning xabar berishlariga qaraganda, bir kuni yong'in chiqqan vaqtda somoniylarning mashhur saroy kutubxonasi yonib kul bo'lgan. Mo'g'ullarning Markaziy

Osiyoga qilgan hujumi barcha madaniy boyliklar, shu jumladan, kutubxonalarning ham misli ko‘rilmagan darajada vayron bo‘lishi butun -butun shaharlar va qishloqlarning yo‘q bo‘lishiga olib keldi. Masalan, Marv vohasi, Xorazm yerlari, So‘g‘d va boshqa ko‘plab shaharlarning ship-shiydon bo‘lib qolishi shular jumlasidandir. Mo‘g‘ul bosqinchiligi davrida Markaziy Osiyodagi xo‘jalik va madaniy hayot katta tanazzulga uchradi, ishlab chiqaruvchi kuchlarga katta zarar yetkazdi. Xuroson, Buxoro, Samarqand va boshqa shaharlardagi juda katta vayronagarchiliklar natijasida san‘at, kutubxonalar, saroylar, masjidlar, madrasalar vayron qilindi. Bu voqealarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan tarixchi Juvayniy o‘sha vaqtda mahalliy muqaddas joylar tahqirlanganligi, masjidlar va madrasalar otxonalarga aylantirilganligi haqida hikoya qilgan edi.

Bosqinchilarning bir yarim asrlik hukmronligi davrida Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy rivojlanishi bo‘g‘ib qo‘yildi, adabiy-ma‘naviy muhit sust rivojlandi. Mo‘g‘ul hukmdorlarining kitob omborlari yoki kutubxonalarga o‘xshash binoan narsa yaratganligi haqida ma‘lumotga ega emasmiz. Kutubxonalar faqat madrasalar huzurida, xususan, qo‘lyozma kolleksiyalar esa mashhur tarixchi va shifokor Fazlulloh Rashididdinda, tarixchi Juvayniyda va boshqa olimlar hamda taniqli arboblarda mavjud edi. Saltanat kutubxonalari ma‘lumki, Markaziy Osiyoda so‘g‘diylar, somoniylar, qoraxoniylar, xorazmshohlar hukmronliklari zamonida ma‘rifatparvar shoh va hokimlar saroy kutubxonalarini tashkil etib, ularda nihoyatda qimmatbaho va nodir kitoblar saqlaganlar, ulardan foydalanishga ruxsatnoma ham berganlar. Bunga misol sifatida Abu Ali ibn Sino foydalanish sharafiga muyassar bo‘lgan Buxorodagi saltanat — saroy kutubxonasini eslatib o‘tish mumkin. Bu an‘ana Amir Temur va temuriyzodalar zamonida ham davom etgan edi. Jumladan, Temuriyzoda Xusayn Boyqaro hukmronligi davrida yashab ijod etgan buyuk shoir Alisher Navoiy o‘zidan oldin arab va fors tillarida yaratilgan tazkiralar va boshqa bibliografik tipdagi asarlarni chuqur tahlil etib ularga tanqidiy yondashgan holda, "Majolis - ul - nafois" asari bilan O‘rta Osiyoda butunlay yangi tipdagi tazkirachilikka asos soladi. Bu yangi tipdagi tazkiralarda bosh o‘rinda zamonaviylik prinsip qo‘yiladi va muallif o‘ziga yaqin zamondosh bo‘lgan ijod ahlini jamlash, zamonaviy adabiyot, hayot tarzi va adabiy jarayonini yaratishni asosiy maqsad qilib oladi. "Majolis - ul - nafois" asaridan keyin yaratilgan ko‘pchilik mazkur asarlarning mualliflari

Navoiy asos solgan tazkirachilik an'analarni davomchilari sifatida chiqdilar. Shulardan biri "Muzakkiri aqbob" (16 asr) tazkirasining muallifi Buxorolik Xasan Xoja Nisoriy edi. Bu XVI asrda yaratilgan bizga ma'lum yagona tazkira bo'lib, unda XVI asrning birinchi yarmida O'rta Osiyo adabiy hayoti nisbatan to'liq yoritilgan va mutaxassislarning bahosiga ko'ra muallifga zamondosh bo'lgan Turkiston adabiy muhitning deyarli barcha vakillari o'rin olgan. XVII - XIX asrlarda O'rta Osiyoda bunday tazkiralardan 10 dan oshig'i tuzilgan bo'lib, ularning o'ziga hos tomonlari shundan iborat ediki, mualliflar o'zlari yashagan joydagi adabiy muhit haqida, ijod ahli va kitob ustalari hayoti va ijodini yoritishga qaratganligida edi. XI asrda Abu Rayhon Beruniy asos solgan ustozlar asarlarining bibliografik ro'yxatini tuzish an'anasi XV-XVI asrlarda ham davom ettirildi. Alisher Navoiy o'z do'sti, maslakdoshi va ustozlari Abdurahmon Jomiy vafotidan so'ng unga bag'ishlab yozgan "Xamsa ul-mutaxayiriya (1492) asari shaxs bibliografik ko'rsatkichining mukammal namunasida muallif risolaning yozilish sabablari va tuzilish uslubi haqida qisqacha ma'lumot beruvchi kirish qismida yozishicha qo'llanma muqaddima, uch maqolat va xotimadan iborat. Muqaddima qismida Abdurahmon Jomiyning hayoti, nasl-nasabi, Jomiy va Navoiyning birinchi bor tanishuvlari haqida ma'lumot berilgan. Birinchi maqolatida ikki buyuk shaxs hayotida kechgan do'stlik, hamda ijodiy hamkorlik haqida guvohlik beruvchi manbalar to'g'risida fikr yuritiladi. Ikkinchi maqolat ularning bir - birlariga yozgan qator maktublarni va ularning yozilish sabablari haqida, va nihoyat, uchinchi maqolatda Jomiy yaratgan 30 ta asar ro'yxati berilib, ularning yozilish tarixi bayon etiladi. Ma'lumki, Jomiy va Navoiy qator asarlarini bir - biridan ilhomlanib, bir - birinng maslahati bilan yaratganlar. Bu maqolatda Navoiy chuqur xurmat bilan ana shunday ijodiy hamkorlik haqidagi manbalarni keltirgan. Bundan tashqari, Alisher Navoiyning zamondoshi, tarixchi olim Xondamir Alisher Navoiy ijodini va uning asarlarini o'rganish uchun muhim bibliografik manba sifatida foydalanishi mumkin bo'lgan "Makorimul-axloq" ("Yaxshi hulqlar") nomli asarini yozgan. Xondamir Navoiyning eng yaqin shogirdlaridan bo'lib, uning bevosita yordami tufayli davrning yetuk olimlaridan bo'lib yetishgan. Bu asarning tengsiz ahamiyati shundaki, unda birinchi marotaba Alisher Navoiyning hayoti va ijodiy faoliyati yoritilgan. Shu bilan birga uning "Xamsa" va "Chor devoni" dan tashqari yana 20 dan ortiq turk va

fors tillarida yozilgan asarlari, 30 dan ortiq Navoiy ijodiga bag'ishlangan boshqa shoir va yozuvchilar, olimlarning asarlari haqida qiziqarli ma'lumotlar berilgan. Tarixchi olim o'z asarida qayd etgan Navoiy asarlari va u haqidagi asarlarining yaratilishiga shahsan guvoh bo'lgan yoki o'qib chiqqan. Shuning uchun ham u o'z asarlarida faqatgina asarlarining ro'yxatini beribgina qolmay, har bir asarning mazmuni haqida o'z fikrini, boshqa kishilarning shu asarga bergan bahosini ham bayon etadi. Unday ma'lumot berish tartibi hozirgi zamon bibliografiyasidagi annotasiyani yoki bibliografik obzorni eslatadi. Masalan: "Xamsa" turk tilida yozilganligi, 27 baytdan iborat ekanligi, yoki "Chor devon" haqidagi ma'lumotda devon turk tilidagi 25 ming baytni jamlovchi g'azallardan tuzilganligi, to'rt devorida hayotning turli fasllarida yozilgan g'azallarni jamlab turuvchi nom bilan atalganligi haqida ma'lumot beradi. Xondamir bu asarda Navoiy asarlaridan tashqari Navoiy haqidagi manbalarning ham ro'yhatini bergan. Ular kitobning turli bo'limlarida joylashtirilgan bo'lib, Navoiy hayoti faoliyatining qaysi qirralariga mansub, shunga ko'ra joylashtirilgan. Masalan: "Inson fazilati va olimlar martabasi haqida" nomli bo'limda Toftazani, Asimiy, Koshifiy, Imom Navoviy kabi zamon olimlarini Navoiyga bag'ishlangan 21 asari haqida ma'lumot beradi.

"She'r fazilati va shoirlarning ulug' darajalari haqida" bo'limida Abdurahmon Jomiy, Kirmoniy, Gulistoniy, Kamoliddin Mir Husaynning Navoiy ulug' nomi bilan tugallangan asarlarining ro'yxati bayon qilingan. Manbalarning bunday tartibda joylashtirilishi bibliografik qo'llanmalardagi adabiyotlarning tematik joylashtirilish uslubiga o'xshab! ketadi. Bundan ko'rinib turibdiki, "Makorimul-ahloq" asarida bibliografiyaning ko'pgina belgilari mavjud. Shuning uchun ham bu asar faqatgina tarixiy ahamiyatga ega bo'lib qolmay, balki o'zbek klassik adabiyotining yirik namoyandasi Alisher Navoiyning hayoti va faoliyati haqida ilk bor ma'lumot beruvchi muhim bibliografik manba sifatida ham, o'zbek milliy bibliografiyasining tarixini o'rganishda ham katta e'tiborga loyiq. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan bibliografik manbalar o'zida adabiyotlarni hisobga olish aspektining xronologik, hududiy chegarasining ma'lumotlarini juda qisqa beradi. Yuqorida ko'rib o'tgan ko'pgina ishlarda tuzuvchilar ko'pchilik manbalarni o'zlari bevosita o'rganish imkoniyatiga ega bo'lmaganligi sababli o'zgalarning bergan ma'lumotlaridan foydalanganlar, shuning uchun ham ba'zi

noaniqlarga yo‘l qo‘yilgan yoki to‘liq ma’lumot berilmagan. Shu sababli XI - XVII asarlardan tuzilgan bibliografik ma’lumotlardan shu bibliografik ko‘rsatkichlardan foydalanishda ilmiy hodimlar bibliograflar ularga tanqidiy yondashishlari zarur. Ularni o‘sha davr boshqa hatlari, hamda asarlarning o‘zi bilan, ko‘rsatkichlarning nomi bilan taqqoslab, ulardan foydalanilsa va ilmiy o‘rganilsa ijobiy natija beradi.

Biz ko‘rsatib o‘tgan bibliografik ko‘rsatkichlar va bibliografik lug‘atlar bilan O‘rta asrlarda O‘rta Osiyo bibliografik manbalarni tarixini o‘rganish cheklanmaydi. Bu boradagi yangi izlanishlar yangi- yangi ma’lumotlar topilishiga olib kelishi mumkin. Bizning ishonchimiz komilki, agar qo‘lyozma asarlar chuqur o‘rganilsa, bu sohada tadqiqotchilar ko‘plab ilmiy yangiliklar topadilar. Lekin shuni alohida ta’kidlab o‘tishimiz mumkinki, yuqorida qayd etilgan bibliografik ko‘rsatkichlar va manbalarning o‘zi ham, sho‘rolar hokimiyati yillarida ba’zi tarixchi olimlarimizning O‘rta Osiyoda bibliografiya faqat Rossiyadan ko‘chirib olingandan keyin paydo bo‘lgan degan fikrlarning butunlay noto‘g‘ri ekanligini isbotlashga asos bo‘ladi. O‘rta Osiyoda bibliografiya ishi ham o‘zining qadim tarixiga ega bo‘lib, hali Rossiya va Ovrupo mamlakatlarida bibliografiya so‘zi haqida tushuncha xam yo‘q davrlardayoq, bizning olimlarimiz alohida yirik (hozirgi kunlardagidek) bibliografik qo‘llanmalar tuzganlar, ulardan fan va madaniyatimizni rivojlantirishda keng foydalanganlar. Bu bibliografik ko‘rsatkichlarning ko‘pchiligi hozirgi kunda ham o‘z ilmiy qimmatini yo‘qotmagan.

XXII-Bob Amir Temur va Temuriylar davrida madaniy hayot va kutubxonalar

Amir Temur va temuriylar hukmronlik qilgan davrlarda qo‘lyozmalar saqlanadigan kutubxonalarning ko‘p asrlik tarixi ko‘p miqdorda qo‘lyozma fondlarining shaklanishi, bilimlarning turli tarmoqlariga doir asarlar mavjud bo‘lgan yangi kutubxonalar tashkil etilishi bilan tahsinga sazovor . XIV asrning ikkinchi yarmida XV asrning boshlarida Movarounnahrda me’morchilik va amaliy san’at keng rivoj topdi. Amir Temur

davlatining poytaxti bo'lgan Samarqand ulkan shaharga aylandi, bu yerda ko'plab saroylar, masjidlar, madrasalar, maqbaralar va boshqa jamoat inshootlari barpo etildi.

Mamlakatda tibbiyot sohasidagi bilimlar, astronomiya, matematika, tarix, adabiyot va boshqa fanlar qadr topdi. Bu esa qo'lyozma fondlari, saroylar, madrasalar huzurida kutubxonalar tashkil etilishi va xususiy kutubxonalarning paydo bo'lishiga yordam berdi. Amir Temur hukmronlik qilgan yillarda (1370-1405) qo'lyozmalarni saqlash va kutubxonalar tashkil etish to'g'risida katta g'amxo'rlik qilindi. Sohibqironning o'zi adabiyot va san'atni yaxshi ko'rardi. Masalan, uning hukmronlik qilgan davrining birinchi yarmida zabt qilingan hududlarda to'plangan kitoblar va qo'lyozmalar Shahrisabzga yuborilgan. Bu yerda esa katta saroy qo'lyozmalar kutubxonasi tashkil etilgan. Ayniqsa, mamlakat poytaxti Samarqanddagi saroy kutubxonasi mashhur bo'lib, bu yerda yunon, lotin, suriya, arman, fors va boshqa tillardagi eng nodir qo'lyozmalar saqlanardi. Bu qo'lyozmalarning ko'pi Amir Temur zabt etgan mamlakatlardan keltirilgan. Turkiyaning Bursa shahridagi mashhur kutubxonadan Samarqandga ko'pgina qimmatli va nodir qo'lyozmalar keltirilgan. Bursa kutubxonasi antik davrdagi mashhur kutubxonalardan biri-Pergam kutubxonasining merosxo'ri edi. Qadimgi bu buyuk kutubxonada antik davrning eng mashhur olimlari mutolaa qilishgan. Bu yerda Arximedning zamondoshi matematik Apolloniy, faylasuflardan Antigon Karistskiy, Kichik Nenaf va boshqa ko'pgina kishilar ishlagan. Bursa kutubxonasida saqlayotgan Ptalamey, Gipparx, Diafant va boshqa iskandariyalik mualliflarning asarlari Pergam kutubxonasidan keltirilgan degan fikrlar asoslidir.

Ma'lumki, ko'plab olimlar Amir Temur davlati poytaxtiga u yerdagi kutubxonada ishlash uchun kelgan. Ulardan biri matematik Qozizoda Rumiyl Ulug'bekning va Alovuddin Ali ibn Muhammad (Ali Qushchi)ning ustozi bo'lgan. U Samarqandga Bursadan kelgan edi. Temur Armanistondan ko'pgina qo'lyozma kitoblarni olib ketgan. Arman tarixchisi S.A. Babayanning ma'lum qilishicha, Tayevsk monastri huzuridagi kutubxona kitob fondining bir qismi Samarqandga tashib ketilgan. Bu kitoblar orasida Suriyalik Murabas Gadingning qo'lyozmalari ham bo'lib, uni muallif arman podshosi Bagarshkning farmoyishiga binoan Godin tomonidan Xaldey, Eron va boshqa sharq mamlakatlarida to'plangan va ular eramizdan oldingi 150-yilgacha bo'lgan tarixni

qamrab olgan edi. M. A. Godin tomonidan yozilgan Armanistan tarixi keyinchalik Moisey Xarenskiyning va boshqa arman tarixchilariga o'zlarining tarixiy asarlarini yozishga manba bo'lib xizmat qilgan.

Amir Temurning arman kutubxonalaridan kitoblar olib ketgani to'g'risida arman tarixchisi Mixail Chamchyan quyidagilarni ma'lum qiladi: «U barcha arman va fors kitoblarini ulgurganicha to'plab, ularni Samarqandga yuborgan va u yerda bitta minorada joylashtirgan. Minoradan kimda kim olib chiqib ketishini qattiq qo'rqitish bilan ta'qiqlab qo'ygan, kitoblarni o'qimoqchi bo'lganlarga minorada shug'ullanishga, biroq bu yerda juda uzoq vaqt qolmaslikka ruxsat bergan». Tarixiy ma'lumotlarga tayanib xulosa chiqariladigan bo'lsa, Amir Temurning Samarqanddagi saroy kutubxonasi faqat kitob saqlanadigan ombor bo'lib qolmay, u yerga ba'zan foydalanuvchilarni ham qo'yishgan. Kutubxonaga kirish juda ozchilik kishilar uchun ruxsat etilgan. Kutubxonaning qanday ko'rinishda bo'lganligi, kitoblar qanday saqlangani va ulardan qanday foydalanilgani to'g'risidagi batafsil ma'lumotlar hozircha topilmagan. Biroq aytish mumkinki, saqlovchilar qo'lyozmalarni yuksak darajada qadrlaganlar va chamasi ularga to'g'ri munosabatda bo'lishni bilganlar, kutubxona uchun maxsus bino qurilganligi ham bu fikrni tasdiqlaydi. Shuni ham aytish kerakki, bu yerda ham kitoblardan iborat boyliklar xuddi XI XII asrlardagi mashhur kutubxonalar singari fanlar bo'yicha joylashtirilib, maxsus sandiqlarda saqlangan. Shak shubha yo'qki, barcha kitoblar faqat hisobga olish uchun emas, balki yaxshiroq foydalanish uchun himoyalangan.

Amir Temur va temuriylar davridagi kutubxona va kitoblar

Amir Temur va temuriyzodalar davrida turli sohalarda qanchadan-qancha yutuqlar qo'lga kiritilgan bo'lsa, insonning ilmiy va badiiy tafakkuri natijasi bo'lmish kitoblarni yaratish, ularni ko'chirish, saqlash sohasida ham katta ishlar amalga oshirilgan. Ma'lumki, u davrlarda nashriyot hali yo'q edi, shuning uchun qo'l yordamida qilinardi. Natijada bu davrda xat va kitob ko'chirish, uni bezaklar bilan ziynatlash bilan bog'liq bo'lgan mashhur siymolar -hattotlar yetishib chiqdilar. Ulardan Mir Ali Tabriziy, Sulton Ali Mashhadiy, Mir Ali Xiraviy, Mir Imod, Sulton Muhammad Xandon, Mavlono Ma'ruf,

Abdujamil kotib, Darvesh Muhammad Samarqandiy, Pir Muhammad So‘fi Buxoriy va boshqalarning nomlari hurmat bilan tilga olinadi. Bu hattotlar, asosan xatning nastaliq xilida shunchalik go‘zal yozardilarki, ularni mutolaa nihoyatda oson edi. Kitoblarni muqovalash, oltin suvi va rasmlar (minyuaturalar) bilan bezashning nodir san’atkorlari - Kamoliddin Behzod! Mahmud Muzahhiblar ham ana shu davrda voyaga yetgan siymodirlar. Bunday yuqori malakali hattot va rassomlar tomonidan tayyorlangan qo‘lyozmalar moliyaviy jihatdan iqtidorli shaxslar buyurtmasi bilan amalga oshirilardi yoki podshohlar kutubxonasi qoshida bajarilar edi. Bunday kitoblar har jihatdan nodir va qimmatbaho hisoblanadi. Shuning bilan bir qatorda kundalik ehtiyoj madrasalarda mutolaa, uylarda, masjid va xonagohlarda mutolaa «kitob nashr ettirish» yoki kitoblarni avlodlarga qoldirish vazifasini mohir hattotlar bajarardilar. Ana shu jihatdan kitoblarning nusxalari kam bo‘lgan, hattoki bir nusxadan, ya’ni muallifning o‘z qo‘lyozmasi tarzida bo‘lardi. Shuning uchun kitoblar juda katta e’tibor bilan saqlanardi va ularni ko‘chirish uchun nihoyatda malakali hattot kotiblar jalb qilish uchun oddiyroq, bezaksiz qo‘lyozmalar tayyorlanardi. Har ikki tarzda tayyorlangan qo‘lyozma kitoblar turli xildagi kutubxonalarda, ya’ni saltanat kutubxonalari, shaxsiy kutubxonalar, madrasa, xonaqohlardagi kutubxonalarda saqlanardi. Saltanat kutubxonalari va mashhur siymolar kutubxonalari alohida manzilda, ularni saqlovchi, yangisini ko‘chiradigan, shikastlangan (varaqlari yo‘qolgan yoki satrlari o‘chgan) kitoblarni ta’mirlovchi mutaxassislar bilan ta’minlanganlar. Hatto kitoblar o‘ziga xos tartib bilan saqlangan. Uning boshqaruvchisi kitobdor deb atalgan. Mashhur madrasalarda ham kutubxona uchun alohida hujralar ajratilgan va uning mas’ul xodimlari ham bo‘lgan. Biz so‘z yuritayotganimiz davrda saltanat kutubxonalari, shaxsiy kutubxonalar, madrasalardagi kutubxonalar haqida ma’lumotlar, hikoyat va rivoyatlar bor. Ammo bunday kutubxonalarning birortasi aynan saqlanmagani tufayli ular to‘g‘risida aniq ma’lumot berish qiyin. Shunday bo‘lsada, manbalarda ularning mavjud bo‘lganiga doir ishoralar asosida bunday kutubxonalarning ayrimlari haqida umumiy tarzda ma’lumot berishga jur’at etdik. Shu davrda yaratilgan va bizgacha yetib kelgan kitoblar haqida esa bizga ma’lum bo‘lganlari to‘g‘risida muxtasar fikr yuritish foydadan holi bo‘lmasa kerak, deb o‘yladik. Chunki bu o‘tmish ta’lim-tarbiya tizimi, madrasa va oliy madrasalar faoliyati bilan bevosita daxldor bo‘lgan

mavzudir. Amir Temur kutubxonasi Amir Temur ta'lim-tarbiya ishiga alohida e'tibor qaratib, madrasalar qurishga farmon bergan ekan, bu jarayonning kitoblarsiz bo'lishi mumkin emasligini ham yaxshi tushunadi. Faqat bu emas, balki o'zi va arkoni davlatning ham ma'rifatli, ma'lumotli bo'lishini istardi. Chunki Amir Temur, ibn Arab-shohning guvohlik berishicha, «men azaldan ilm shaydosiman» va «men olimlar bilan doim suhbatda bo'lib, ular ishidan xabardorman» degan ekan, bunday kishining olimlar va adiblar ijodiy ishining mahsuli bo'lmish kitoblar taqdiriga befarq qarashi mumkin emasdi. Bunga qo'shimcha ravishda Amir Temur tuzuklarida bayon etilgan ayrim fikrlar aytilganlarning haqiqat ekaniga dalolat beradi. Tuzuklarda yozilishicha, Amir Temur hakimlar, tabiblar, munajjimlar, muhaddislarni o'z atrofiga to'plagan. Shuning bilan birga «muhaddislar, tarixchilar hamda qissaxonlarni o'zimga yaqinlashtirdim va avliyolar haqidagi qissalarni, o'tgan podshohlar to'g'risidagi xabarlarni, ularning saltanat taxtiga qanday yetishganliklarini, davlatlarining qanday sabablarga ko'ra zavol topganligini bulardan so'rab bilardim». Bulardan ko'rinadiki, Amir Temur atrofida to'plangan hakim va tabib, munajjim va muhaddis, tarixchi, qissaxon va boshqalar «ilm shaydosi» bo'lgan Sohibqironning savollariga asosli va ilmiy javoblar topish uchun kitoblarga murojaat etganlarki, ular, shubhasiz, Amir Temur to'plagan kitoblar xazinasi kutubxonada saqlangan, ayrimlari esa safar vaqtida birga olingan, ya'ni «ko'chma kutubxona»da bo'lgan. Amir Temur asos solgan saltanat kutubxonasida (uni Samarqanddagi Ko'ksaroyda joylashgan deb faraz qilish mumkin) Samarqand, Buxoro, Xorazm va Movarounnahrning boshqa shaharlarida bo'lgan nodir kitoblar bilan bir qatorda turli mamlakatlarga yurish vaqtida qo'lga kiritilgan arab, turk va fors tillaridagi kitoblar ham to'plangan deyish mantiqiy ko'rinadi. Shuning bilan birga bu vaqtda Samarqandda yashab faoliyat ko'rsatgan allomalarning kitoblari ham bu kutubxonani boyitib borgan. Chunki Amir Temur devonida mavlono shayx Muhammad ibn xoja Bandkor Termiziy, Amir Muhammad Badriddin, Xoja Abdulla Keshiy kabi ajoyib hattot va adiblar ham faoliyat ko'rsatar edilar.

Shunday qilib, aytilganlar e'tiborga olinsa, unda Amir Temur kutubxonasida Qur'oni karim va unga bag'ishlangan tafsirlar, hadisi-sharifning ishonchli to'plamlari, fikh, falakiyot, muhaddislik, tibbiyot, nujum, jo'g'rofiya, falsafa, tarix, mantiq, tilshunoslik

va adabiyotga oid asarlar to'plangan ko'rinadi. Ular orasida Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Abu Mansur Moturudiy, Burhoniddin Marg'iloniy, Mahmud Chag'iniy, muarrix Rashididdin, ibn Batutta, Sayyid Sharif Jurjoniy alloma Taftazoniy, Xoja Ahmad Yassaviy, Abu Sayyid Abulxayr, Abdulloh Ansoriy, Muslihiddin Sa'diy. Qutb ul-orifin Sadridin ArdAbeliy, Zayniddin Tayobodiy, Mir Sayid Baraka kabilarning asarlari, maktublari, ular haqidagi asarlar, xorijiy Sharq va G'arb mamlakatlari podshoh va qirollariga yozilgan maktublarning nusxalari bo'lganligi haqiqatga yaqindir. 1403 yilda Samarqandga tashrif buyurgan Ispaniya elchisi Ryui Gonzales de Klavixo o'zining kundalik daftariga kutubxona to'g'risidagi ayrim ma'lumotlarni qayd qilgan edi. 1863 yilda venger sharqshunosi Armeniy Vamberi Markaziy Osiyo bo'ylab sayohat qilar ekan, Samarqandda mashhur arman-yunon kutubxonasining «izlari»ni topishga intildi. Markaziy Osiyoni Rossiya bosib olgandan keyin ko'pgina sharqshunoslar va turli mamlakatlarning olimlari o'z nazarlarini Amir Temurning mashhur kutubxonasiga qaratdilar, uning taqdirini bilishga qiziqdilar. Turkiya poytaxti Anqarada istiqomat qilayotgan armanlar 1868 yilda Samarqand va Buxoro arman-yunon kutubxonasini topish to'g'risidagi iltimos bilan hukumatga murojaat qildilar. Bu kutubxonani Amir Temur Armanistondan olib kelgan edi. Rus diplomat N. Stremouxovdan Turkiston general-gubernatori Kaufman nomiga o'sha yili arman arxiyepiskopi Sarkisyanning xati tushgan bo'lib, unda Temur kutubxonasini izlab topish choralarini ko'rishni iltimos qilgan. Xatda aytilishicha, mazkur kutubxona tarkibida ossuriyalik Marabas Godinning qo'lyozmalari bor edi. Stremouxov Samarqandga kelgach, mazkur kutubxonaning ayrim qo'lyozmalari hali ham xususiy shaxslarda ekanligini aniqladi. O'sha yiliyoq Tashqi ishlar vazirligining Osiyo departamenti direktori nomiga yozilgan xatda general-adutant A. P. Ignatyev Amir Temur kutubxonasini izlab topishni iltimos qildi. Bu kutubxona so'nggi vaqtgacha Samarqandda yoki uning yaqin atrofida saqlanmoqda, deb hisoblanardi.

Zarafshon uezdining boshlig'i general Abramov general-gubernator K. P. Kaufmanning buyrug'i bilan jiddiy qidirish ishlarini olib bordi. Samarqand kutubxonasining mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlarni qo'lga kiritdi, buning uchun ko'plab qariyalarni sinchiklab so'roqqa oldi. Oradan sakkiz oy o'tgandan keyin Abramov Kaufmanga: «Samarqandning

aholisi Temur kutubxonasini faqat mahalliy kitoblar orqali biladi, lekin kutubxona rasadxona huzurida saqlanmoqda», deb xabar berdi.

Turkistonlik taniqli bibliograf va Markaziy Osiyo tarixining katta bilimdoni N.V. Dmitrovskiy Temur kutubxonasining tarixi haqida ma'lumotlar to'plagan bo'lib, u Samarqandga mashhur arman kutubxonasi va Mirabas Godinning qimmatli qo'lyozmalari tashib ketilgani haqida yozgan edi. N. V. Dmitrovskiy shu narsani qayd qiladiki, Samarqand olingandan keyin armanlar general Kaufmanga Markaziy Osiyoda bu qo'lyozmalardan ayrimlarini qidirib topishni iltimos qilgan. N. V. Dmitrovskiy kutubxona tarixiga katta qiziqish bilan qarab, «Samarqand kutubxonasi» (Bibliografik ekskursiya) nomli maxsus maqolani bosmaga tayyorlagan, unda Temur kutubxonasi to'g'risidagi batafsil ma'lumotlarni bayon qilgan. Biroq bunday maqola bosilib chiqmadi. 1873 yilda ingliz Yevgeniy Skayler chor Rossiyasi bosib olgan Turkiston bo'ylab sayohat qilgan ekan, Buxoro va Qo'qonda bo'ladi, shuningdek, Temur kutubxonasi bilan qiziqib ko'radi. Skayler Buxoro kutubxonalaridagi ma'lumotlar asosida quyidagicha yozadi: «Men mashhur Temur kutubxonasi hali mavjuddir, deb o'ylashimga asos bor. Bu yerda amirning xazinasida ko'pgina kitoblar borki, ularning tili buxorolik mullalarga tanish emas, shu sababdan kitoblarga e'tibor berilmasdan yotibdi: ular Qarshida ham bor». U Qarshida bo'lgan vaqtida amirning boy kutubxonasi bilan tanishish imkoniga ega bo'lmaganidan afsuslanadi. 1889 yilda taniqli ingliz adibi Makenzi Uolles Zakaspiy viloyatida bo'lgach, Samarqandga kelib Temurning kutubxonasini sinchiklab izlab ko'radi, lekin «shaharni yoppasiga axtarib, hech narsa topa olmaydi».

Temur kutubxonasini keyingi qidirish ishlari mashhur rus oriyentalisti A.L.Kun (1840—1888)ning faoliyati bilan bog'liqdir. U Turkistonga 1868 yilda xizmatga kelgan bo'lib, uning muhim vazifalaridan biri Temurning mashhur kutubxonasini qidirib topishdan iborat edi. Sharq tillarini yaxshi bilgan Kun mahalliy yozma manbalardan bemalol foydalanar va kutubxona to'g'risidagi og'zaki hikoyalarni to'plardi. Lekin A.L. Kun kuch-g'ayrat sarflashiga qaramay, Temur kutubxonasi to'g'risida hech qanday aniq ma'lumotlar to'play olmadi, uning ko'p vaqti mullalar va Samarqandning boshqa ma'lumotli kishilari bilan suhbatlar o'tkazishga sarflandi. Biroq u Temurning kutubxonasini topish umididan voz kechmadi. Uning taxminiga ko'ra, mashhur

kutubxonaning barcha kitoblari hali yo‘q bo‘lib ketmagan, ayrim qo‘lyozmalar esa mahalliy aholining qo‘lida saqlanayotgan bo‘lishi mumkin. A.L. Kun mullalar va imomlar qo‘lida «Tarixi Narshaxi» («Buxoro tarixi»), «Tavorix Mir Baraki» kabi ancha nodir qo‘lyozmalar borligiga ko‘zi tushadi, ulardan keyingisida Botuning Rusga qilgan yurishi tasvirlangan edi. Shuningdek, boshga ko‘pgina qo‘lyozma asarlar ham borligi ma‘lum bo‘ladi. 1870 yilda Kun «Kavkaz» gazetasiga tayanib, «armanlar o‘rtasida shunday rivoyat tarqalganki, unga ko‘ra Temur Armanistondan ko‘p miqdordagi kitoblarni Samarqandga olib ketgan va bu kitoblarni bir minoraga joylashtirgan va hozir ham o‘sha yerda saqlanmoqda», deb yozadi.

XX asrning boshlarida Temurning kutubxonasi bilan turkistonlik publisist D. N. Lagofet qiziqib qoldi. Uning yozishicha, Temur hukmronlik qilgan dastlabki yillarda kutubxona Shahrizabzda bo‘lgan, keyin Samarqandga ko‘chirilgan. So‘ngra Lagofet Klavixo va buxorolik tarixchi Kamoliddin Abdurazzoqning fikrlariga tayanib, Samarqanddagi katta kutubxona 1448 yilgi qo‘zg‘olon vaqtida ancha shikast ko‘rganligini ma‘lum qilgan. Samarqandni Shayboniyxonning ko‘chmanchi qo‘shinlari bosib olgan vaqtda kutubxona talon - taroj qilinadi va uning qoldiqlari 1580 yilda Buxoroga olib ketiladi va amirning Mashhadga qilgan yurishida qo‘lga olingan kitoblarga qo‘shib yuboriladi. 1860 yilda kutubxona Qarshi shahriga keltiriladi. Lagofet general Jo‘rabekning hikoyalari havola qilingan holda mo‘jaz rasmlar (miniatyuralar) bilan bezatilgan ko‘p miqdordagi qo‘lyozmalar Qarshidan Buxoroga tashib keltirilgan, deb qayd qilgan. Devonbegi Ostanaqulning fikricha, amirning Buxorodagi kutubxonasida xitoy, uyg‘ur, arab, fors tillarida, shuningdek, pushtun va rus tillaridagi qo‘lyozmalar bo‘lgan. Maqolaning oxirida, Lagofet amir kutubxonasining qimmatli tomonlarini qayd etish bilan birga, «Temur kutubxonasi to‘g‘risidagi barcha ma‘lumotlarni to‘plash hozir ham kech emas», deb uqtiradi. 1911 yilda «Turkestanskiye vedomosti» gazetasida ismi ko‘rsatilmagan bir muallifning Temur kutubxonasi haqidagi xabari bosilib chiqadi. Muallif moskvalik mashhur felyetonchi Pavuk Vovchenkovning maqolasiga tayanib, Samarqandda eshitgan bir afsona haqida hikoya qiladi. Afsonadan ma‘lum bo‘lishicha, «Temur kitoblarni juda sevar va shu sababdan dunyoda eng katta kutubxona tashkil etgan emish. U o‘limi yaqinlashayotganini his qilgach, kutubxona haqida ko‘proq qayg‘ura

boshlabdi. Kitob durdonalari nodon merosxo'rlar qo'liga tushib qolishidan qo'rqib, kutubxonani shahar yaqinidagi g'orga yashirib qo'yib, uning ustiga quyidagicha dahshatli la'natlovchi so'zlarni bitgan ekan: «Yer yuzida yomonlik va jaholat yo'q bo'lib ketmas ekan, kutubxona kitoblariga qo'l tekkizmaslik lozim». Temur bir yilda bir necha marta, ayniqsa, yangi oy chiqqan vaqtda kutubxonani borib ko'rib kelar ekan. U tashrif buyurganda shamoldan yer yuzidagi ahvolni so'rab-surishtirar ekan, yovuzlik va nodonlik xalq orasida hamon hukmron ekanligiga ishonch hosil qilg'ach, g'azabidan oyog'i bilan shunday tepar ekanki. bundan butun yer yuzi larzaga kelarkan...». Hikoya muallifi bu afsonaga unchalik ishonqiramaydi. «Afsona shak-shubhasiz qiziqarli, lekin uning tabiiy holda shunday bo'lishi shubhalidir». Shundan ko'rinib turibdiki, 1868 yildan 1911 yilga qadar mashhur kutubxonaning izlarini aniqlashga muvaffaq bo'linmagan. Temur kutubxonasidan bizning kunlarimizgacha saqlanib qolgan birdan-bir qo'lyozma bu Usmon Qur'onidir. U pergament qog'ozga kufiy yozuvida ko'chirilgan. A.L. Kun mazkur qo'lyozmani Temur kutubxonasining eng yaxshi bezagi deb hisoblagan. Usmon Qur'oni Rossiya Markaziy Osiyoni bosib olgandan keyin Samarqandning Xo'ja Ahror masjidida saqlangan. 1869 yilda mazkur Qur'on nusxasi borligidan qo'shin starshinasi Serov xabar topib, Zarafshon okrugining boshlig'i general-mayor Abramovning buyrug'i bilan qadimgi qo'lyozmalar to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plab yurardi. Serov Xo'ja Ahror masjidida Qur'on saqlanayotganini masjidda ko'p muxlislar to'plangani sababli bilib oladi. So'ngra bu Qur'on musulmonlar uchun ahamiyatsiz narsa, uni hech kim o'qiy olmaydi, Xo'ja Ahror masjidi imomlari ham unga bu kitobni sotishga rozi ekanligini ma'lum qiladi. Qur'on general-mayor Abramov tomonidan 125 so'mga sotib olinadi va Toshkentga yuboriladi. Kaufman uni Buxoro amirining vakili Yahyoxo'jaga ko'rsatganda, u Temur kutubxonasining birdan-bir saqlanib qolgan qo'lyozmasidir, deb tasdiqlaydi. Kutubxonaning qolgan kitoblari esa mazkur mamlakatdagi o'zaro qonli urushlar vaqtida nobud bo'lgan edi. 1876 yilda Kaufman Qur'onni Sankt-Peterburgdagi imperator xalq kutubxonasiga topshiradi. Kutubxonaning 1904 yilgi ishi haqidagi hisobotida Samarqandning kufiycha Qur'oni kutubxonaning sharq bo'limida eng muhim boylik ekanligi aytilgan edi. 1887 yilda Usmon Qur'onini Sankt -Peterburg xalq kutubxonasida samarqandlik savdogar va

qadimgi narsalarni to'plovchi Mirza Buxarin ko'rib qoladi. Mirza Buxarin Sankt-Peterburgdagi xalq kutubxonasida turli xalqlarning bir necha yuz ming qadimgi va yangi kitoblari hamda qo'lyozmalarini ham ko'radi. Bu yerda Alisher Navoiyning asarlari, «Shohnoma», «Ravzat us -safo» va boshqa tarixiy asarlarning qo'lyozmalari, shuningdek, mahalliy xonlarning yorlig'lari saqlanardi. Kutubxonada arabcha, forscha, turkcha va boshqa tillardagi lug'atlar ham bor edi. Mirza Buxarin Qur'onning juda ehtiyotlab, xuddi yangidek saqlanganini ko'rib hayratlanadi: «Xuddi yangidek, butun zarhal bilan bezatilgan holda oyna tagida g'ilofda turibdi», deydi u Usmon Qur'oni bilan mashhur rus san'atshunosi va qadimgi sharq qo'lyozmalarining katta ixlosmandi V. V. Stasov ham qiziqib qoladi. 1886 yilda u Sankt-Peterburg kutubxonasiga VIII asrning arabchada yozilgan Qur'oni keltirildi, juda katta hajmdagi bu kitob Samarqanddagi bosh masjidga mansub bo'lgan...» deb yozgan edi. Taniqli sharqshunoslar V.V. Bartold va Krachkovskiyning fikricha, bu kufiychada yozilgan Qur'onlar I-II asrdagi hijriy hisobda bo'lib, qo'lyozma to'plamlarda kamdan kam uchraydi, Usmon Qur'oni ham ana shu davrga mansubdir. Usmon Qur'oni rus sharqshunosi A.F. Shebunin tomonidan sinchiklab o'rganib chiqilgan. U kitobning sirtqi ko'rinishini, mazmunini tasvirlab beradi va yoshini hamda kelib chiqish joyini aniqlaydi. XIX asrning oxirida Sankt-Peterburgda Qur'onning tabiiy hajmdagi faksimile nashri amalga oshiriladi. «Uning hajmi juda katta bo'lib, og'irligi bir yarim pud kelardi», deb yozgan edi eski kitobshunos F. Stiilov.

SHo'ro hukumatining dastlabki yillarida Markaziy Osiyo musulmonlarining iltimosi bilan Usmon Qur'oni Toshkentda saqlash uchun qaytarib keltirildi. Ibn Beytamning «Farmakopiya» sining arabcha qo'lyozmasi katta qiziqish uyg'otadi, uni N .F. Petrovskiy sharqshunos V.R. Rozenga hadya qiladi. Unda mazkur qo'lyozmaning mashhur Temur kutubxonasiga mansub ekanligidan dalolat beruvchi yozuv mavjuddir. Bu ma'lumotlarni xabar qiluvchi (muallif) mazkur kutubxonaning qolgan qo'lyozmalari va boshqa kitoblari bu mamlakatda bo'lib turgan o'zaro urushlar vaqtida nobud bo'lgan, deb hisoblaydi. Ayniqsa, 1448 yilda Eralibekning temuriylarga qarshi ko'targan isyoni vaqtida ko'p kitoblar yo'q bo'lib ketgan. Buxorolik tarixchi Kamoliddin Abdurazzoq o'zining «Matlai Sadayin» nomli kitobida bu haqda quyidagilarni yozgan: «Kitoblar va qo'lyozmalarning sahroyi chavandozlar ko'z o'ngida hech bir qimmatga ega bo'lmasdan

o‘z joyidan uloqtirib tashlangan va oyoq osti qilingan». Kutubxonaning qoldiqlari 1560 yilda Buxoroga tashib ketilgan va Mashhaddan keltirilgan kitoblar bilan to‘ldirilgan.

Temuriylar davrida Samarqanddagi ulkan kutubxona bilan bir qatorda boshqa saroy kutubxonalari ham bo‘lgan. Ulardagi kitoblar, chamasi Samarqanddagi kutubxona kitoblaridan kamroq bo‘lsa ham, ular qimmatli kitob xazinasi hisoblangan.

Ayrim amirlar, hukmdorlar va oliy tabaqa vakillari ancha boy va qimmatli kitoblarni o‘z ichiga olgan kutubxonalariga ham ega edilar. Ko‘p sonli masjidlar, madrasalar, xonaqolar, hurmatli zotlarning dafn etilgan maqbaralarida ham kutubxonalar bo‘lardi. O‘sha davrlarda ko‘pchilik foydalanuvchilar uchun ancha qulay, jamoatchilik kutubxonalariga o‘xshash kutubxonalar ham bo‘lgan. Ana shunday kutubxonalardan biri mashhur shayx Muhammad Porsoning (1419 —yilda vafot etgan) Buxoroda tashkil etilgan kutubxonasidir. XV asrning boshlarida tashkil topgan mazkur kutubxonadagi turli nomdagi qo‘lyozmalar soni, ayrim tarixiy ma‘lumotlarga qaraganda, qariyb yuz ming nusxadan iborat bo‘lgan. Albatta, bu raqam oshirib ko‘rsatilgan bo‘lishi mumkin, biroq bu kutubxona Makka, Madina va boshqa shaharlardan keltirilgan kitoblar bilan to‘ldirilgan, ularni Muhammad Porso o‘z safarlari vaqtida to‘plagan. Uning bu to‘plagan kitoblarining ko‘pchiligi Sharqdagi turli mamlakatlarda undan oldingi davrlarda va u hayot vaqtida yozilgan asarlar edi. Mazkur kutubxonada etikaga, tarixga doir g‘oyat nodir va qimmatli asarlar ham topilardi. Unda mashhur faylasuf, filolog va tabib Ibn Miskavayxning (1030 yilda vafot etgan) qalamiga mansub jahon tarixi saqlanardi. Bu tarixiy asarning birinchi jildi sho‘ro davrida 1924 yilda Qozon shahridan topilgan. Kitob Buxoroda bitilgan bo‘lib, unda geograf Ibn Yoqutning o‘z qo‘li bilan hijriy 600 yilda yozilgan dastxati bor. Badiiy kitoblar orasida Abu Tamamning (hijriy 729 yili) qo‘lyozmalari ham uchraydi. Sharqshunos A.E. Shmidtning fikriga qaraganda, bu yerda jahon tarixining uchinchi jildi ham bo‘lgan. Ibn Miskavayx qalamiga mansub bu kitob qo‘lyozmasi 227 varaqdan iborat bo‘lib, 104-109 (hijriy 722 - 305) yillarni qamrab olgan edi. Mazkur kutubxona kitoblari va qo‘lyozmalari O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanmoqda. Ular Buxoroning Markaziy kutubxonasida va Markaziy Osiyoning boshqa kutubxonalarida ham mavjud edi.

Kutubxonada bo'lgan kitoblarning tarkibiga qarab Muhammad Porsoning madaniy qiyofasini aniqlab olish mumkin.

Xoja Muhammad Porso kutubxonasi

Muhammad bin Mahmud al -Hofiz al –Buxoriy-Xoja Muhammad Porso (vafoti 1419 melodiy) tarzida shuhrat taratgan bu shaxs Xoja Bahouddin Naqshbandning eng kuchli shogirdlaridan bo'lib, xojagon-naqshbandiya silsilasining hazrat Bahovuddin Naqshbanddan keyingi murshididir. Xoja Muhammad Porso xojagon tariqati murshidi Xoja Bahovuddin Naqshband haqida hamda xojagon tariqatiga oid bir necha risolalarning muallifidir. Jumladan, «Makomoti Xoja Bahovuddin Naqshband», «Risolayi qudsiya», «Silsilayi tariqi xojagon», «Maqomoti xoja Alouddin Attor» va boshqalar. Ana shu tabarruk zot o'z uylari Buxoroda bir shaxsiy kutubxona tashkil etganki, unda o'zlarining asarlari bilan birga kalom, fikh, tafsir, mantiq, sahiv va nahv, tarix, aqliy ilmlarga doir ko'pgina kitoblar mavjud bo'lgan. Xususan, xojagon tariqati murshidlari Xoja Yusuf Hamadoniy, Abduxoliq G'ijduvoniy va boshqalarning asarlari unda saqlangan.

U Markaziy Osiyodagi isloh qilingan so'fizmning rahbari va o'z davrining yirik siyosiy arbobi edi. Uning o'zi ham bir qator mustaqil asarlar yozganligi ma'lum. Ko'pgina kitoblarning qo'lyozmalari sahifalariga o'zining rombsimon muhrini ham bosgan. Bu kutubxonaga ko'plab ma'lumotli kishilar va ma'rifatli shaxslardan vaqf yo'li bilan ham ko'p miqdordagi qo'lyozmalar kelib tushgan. Afsuski, bu kutubxonadagi ko'pgina qo'lyozmalar o'g'irlab ketilgan. Ular jahonning turli kitob omborxonalariga tarqalib ketgan. Mashhur kutubxona o'zidan darak berib turadi. 1955 yilda «Pravda Vostoka» gazetasida ma'lum qilinishicha, hatto 1930-1940 yillarda Buxorodagi Muhammad Porso kutubxonasining muhri bosilgan ayrim qo'lyozma nusxalar yoyma bozorda sotilgan.

Kutubxonalarning shundan keyingi yanada rivojlanishi Amir Temurning merosxo'rlari, xususan, nabiralari davrida sezilarli tus oldi. Shu narsa ma'lumki, Ulug'bekning Samarqandda hukmronlik qilgan yillarida madaniy yuksalish sezilarli darajada o'sgan. Kutubxonalar va xususiy shaxslarning kitob jovonlari ilmlarning turli sohalariga doir kitoblar bilan to'ldirilib borilgan. Buxoroning kutubxonalari ham yangi-yangi kitoblar bilan boyigan. Ayniqsa, Ulug'bekning Samarqanddagi mashhur rasadxonasidagi kutubxona ajoyib bo'lib, u 1428-1429 yillarda tashkil etilgan, ichki

tomoni turli naqshlar bilan bezatilgan ko'p qavatli bino bo'lib, fazo tuzilishini eslatgan. Rasadxona huzuridagi kutubxona o'sha davr nuqtai-nazaridan anchagina kitob jamg'armasiga ega edi, ya'ni unda ilm-fanning turli sohalari bo'yicha 15 ming jilddan ortiq turli kitoblar saqlanardi. Ko'plab asarlar orasida Ulug'bekning o'zi tuzib chiqqan yulduzlar jadvali juda mashhur edi. Kutubxonada Amir Temurning mashhur kutubxonasidan olingan kitoblar ham saqlanardi, desak xato qilmagan bo'lamiz. Ulug'bekning o'limidan keyin sevimli shogirdi Ali Qushchi hayoti xavf ostida qolganligini bilib, rasadxonani tark etishga va yashirinishga majbur bo'ladi. Zamondoshlarining bergan xabariga qaraganda, Ali Qushchi Samarqanddan jo'nab ketar ekan, o'zi bilan birga bir qancha qo'lyozma kitoblarni, shu jumladan, Ulug'bek tomonidan yozilgan Astronomik jadvaliga yozilgan so'z boshini olib ketgan. Ulug'bek kutubxonasining asosiy jamg'armasi qayerda saqlangani hozirga qadar aniqlangan emas. Kutubxona qayerda joylashganligi: rasadxona ichidami yoki shahar bog'idami, Samarqandning janubiy qismidagi saroydami yoki Darg'om yaqinidami, hech kim bilmaydi. Respublika gazetalarida kutubxonani qidirib topish haqidagi masala bir necha marta ko'tarib chiqildi. O'zbek olimlari kutubxonani qidirib topishni jadallashtirishga ko'p marta da'vat qilib chiqdilar, toki hozirgacha saqlanib qolgan va ilm-fan uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan nodir qo'lyozmalarni yo'q bo'lib ketishdan saqlab qolish uchun kutubxonani qidirib topish ishlari 1962 yil oxirida boshlangan edi. Maxsus ekspedisiya bir yil mobaynida Niyoz Tepada, Hazrat Bashir qishlog'i yaqinida qizg'in ish olib bordi. Chunki bu joy Ulug'bekning shogirdi Ali Qushchi Samarqanddan qochib borib joylashgan manzil edi. Bizning fikrimizcha, ko'pgina asarlar hozirgi vaqtda ham ayrim shaxslarning qo'lida saqlanmoqda, bu haqda «Ulug'bek kutubxonasi qayerda yashiringan?» maqolasi muallifi ham fikr yuritgan. Maqolada aytilishicha, Uning muallifi faqat diniy kitoblarni emas, balki ilmiy mazmundagi ko'pgina eski qo'lyozmalarni ko'p marta ko'rishga muvaffaq bo'lgan.

XV asrda temuriylarning Xuroson davlatiga qarashli shaharlari madaniy jihatdan rivojlanishga erishgan. Shohruh (1409-1447) hukmronlik qilgan yillarda davlat poytaxti Hirot bo'lib, u yuksak darajada rivojlangan, Shohruh tarixiy asarlarga katta qiziqish bilan qaragan, Hafizi Abro'ning jo'g'rofiy asarini arab tilidan fors tiliga tarjima qilishni va uni

boshqa manbalar bilan to'ldirishni topshirgan. 1417 yilda bu jo'g'rofiy asar tugallanishidan oldinroq Shohruhning topshirig'iga muvofiq jahon tarixi bo'yicha ma'lumotlar to'plami tuzib chiqildi. Unga Forobiy asarlari, Rashididdinning «Solnomalar to'plami» va Amir Temurning rasmiy tarixi kiritilgan edi. Shohruh saroyida juda katta kutubxona tashkil etilgan bo'lib, u yerda qo'lyozma kitoblar ustaxonasi ham bo'lgan. Kutubxona va ustaxonada nafaqat kutubxona xodimlari, balki bu yerda tilshunoslar, mo'jaz san'at ustalari, zarhalchilar, muqovachilar ham bor edi. Kutubxona xodimlari kitoblarga ishlov berish, tasvirlash va kitob berishdan tashqari qo'lyozma kitoblarning matnini o'rganish va badiiy jihatdan bezash ishlarini ham bajarganlar. Shohruhning o'g'li Boysunqur yozuvchilar, shoirlar, rassomlarga homiylik, yangi kitoblar yaratish sohasidagi ishlarga bevosita rahbarlik qilgan (1433 yilda vafot etgan). Saroydagi kutubxonada 1420 yilda Firdavsiyning «Shohnoma» dostonining yig'ma matni tuzib chiqilgan, keyinchalik esa dostonning ajoyib tarzda bezatilgan noyob nusxalari yaratilgan.

Hirot shahri Sulton Husayn Boyqaro hukmronlik qilgan yillarda (468 -1506) madaniy jihatdan ancha yuksaldi. Davlat poytaxti yana ham obod bo'lib, ko'plab ajoyib binolar, masjidlar, madrasalar, saroylar qurildi. She'riyat, tasviriy san'at, musiqa va boshqa sohalar gullab-yashnadi. Sulton Husaynning saroyida ham katta kutubxona bor edi. Uning o'g'li Faridunning kutubxonasi ham undan qolishmas va ancha yirik edi. Ajoyib hattot Xo'ja Nosir mazkur kutubxonaning mudiri bo'lib uzoq muddat ishlab turdi. Kutubxona xodimlari uchun maxsus qoidalar yo'l-yo'riqlar tuzib chiqilgan edi.

Hirot madrasalaridagi kutubxonalarda faqat diniy kitoblar emas, balki ko'pgina dunyoviy adabiyot namunalari ham saqlanardi, madrasalarda o'rganilardi. Madrasa va xonaqo kutubxonalarida diniy adabiyotlar bilan bir qatorda matematika, astronomiya, tarix, falsafa, adabiyot tarixi, musiqa bo'yicha ham kitoblar mavjud bo'lgan.

Mirzo Ulug'bek kutubxonasi

Yuqorida aytilgan Amir Temur kutubxonasi ko'pchilikni qiziqtirib kelayotgan Mirzo Ulug'bek kutubxonasi uchun asos bo'lib, Mirzo Ulug'bek davrida u nihoyatda

qimmatbaho kitoblar xazinasiga aylandi. Mirzo Ulug‘bek zamonasida bu kitob xazinasida turli fanlarga oid nodir kitoblar bilan boyitildi. Mirzo Ulug‘bekning handasa, hisob, riyoziyot, tarix, adabiyot bilan nihoyatda qiziqqanligi tufayli mashhur allomalarning bu sohaga oid asarlari, jumladan, Batlimus (Ptolomey), al-Xorazmiy, al-Farobiy, al-Farg‘oniy, Abu Ma‘shar Balxiy, Abdurahmon So‘fiy, Nosiriddin Tusiy va boshqalarning arab, fors tillaridagi kitoblari hamda zamondoshlaridan Qozizoda Rumi, G‘iyosiddin Jamshid, Ali Qushchilarning asarlari saqlangan. Shuning bilan bir qatorda unda Mirzo Ulug‘bek nihoyatda e‘zozlagan Nizomiy Ganjaviy «Xamsa»si, Xusrav Dehlaviy, Hofiz Sheroziy, Ahmad Yugnakiy, Rashididdin Vatvot, Otamalik Juvayniy, Hamdulloh Mustavfiy va boshqa shoirlar - adiblarning devon, doston va to‘plamlari yig‘ilgan. Bundan tashqari Mirzo Ulug‘bek madrasayi oliyasi majmuasida (madrasa va rasadxonada) ham sohalari bo‘yicha zaruriy kitoblar bu majmua kutubxonalarida ham mavjud bo‘lgan. Zarur bo‘lgan vaqtlarda Mirzo Ulug‘bek saltanat kutubxonasidagi asarlardan ham foydalangan ko‘rinadi.

Mirzo Ulug‘bek vafotidan so‘ng Samarqand taxtida o‘tirgan Mirzo Abdullo, Abu Said Mirzo va Sulton Ahmad Mirzolar hamda shu davrda Samarqand hokimi bo‘lgan ma‘rifatparvar davlat arbobi va shoir Ahmad Hojibek Vafoiy zamonida Mirzo Ulug‘bekning saltanat kutubxonasi bo‘lgan. Ammo rasadxonadagi kitoblar taqdiri turli bahs va munozaralarga sabab bo‘lib kelmoqda. Mirzo Ulug‘bekning saltanat kutubxonasi XVI asrda poytaxt Samarqanddan Buxoroga ko‘chirilganda u yerga olib borilgan bo‘lishi ham tabiiy.

Boysunqur mirzo kutubxonasi

Mirzo Ulug‘bekning ukasi Boysunqur mirzo (1397— 1433) otasi Shohruh mirzo bilan Hirotda edi. Boysunqur mirzo san‘at va adabiyotni sevuvchi, shoir, olti xil xatni mukammal o‘zlashtirgan, bilimdon va ma‘rifatparvar temuriyzodalardandir. Alisher Navoiy ham unga nisbatan alohida mehr -muhabbat bilan so‘z yuritib, jumladan, shunday yozadi: «Boysunqur mirzo xushta‘b va saxiy, va hunarparvar podshoh erdi. Hattot va naqqosh va sozanda va go‘yandadin muncha benazir kishikim, aning tarbiyatidin oroga kirdi, ma‘lum emaskim, hech podshoh zamonida paydo bo‘lmish bo‘lg‘ay». Boysunqur

mirzo Hirotda go‘zal bir kutubxonada yaratadi, unda olimlar, hattotlar, rassomlardan eng mashhurlarini to‘playdi. Bu kutubxonaning boshlig‘i kitobdori Mavlono Ja‘far Tabriziy edi. Mavlono Kavomiddin Sheroziy, Muhammad Pahlavon Kotibiy, mavlono Shams Boysung‘uriy, Bobo Savdoyi kabilar ana shu madaniy -ilmiy markaz - kutubxonada jalb qilingan edilar. Boysunqur kutubxonasi turli fanlarga doir nodir qo‘lyozma asarlarni o‘zida jamg‘argan edi. Shunisi muhimki, bu kutubxonada, o‘z navbatida, buyuk ajdodlarimizning ilmiy va badiiy meroslarini o‘rganishning ilmiy markaziga aylangani uchun uni Boysunqur akademiyasi deb ham ataydilar. Boysunqur akademiyasi gumanitar fanlarga oid yo‘nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borardi. Uning ko‘zga ko‘ringan mahsuli Abulqosim Firdavsiy «Shohnoma»sining turli qo‘lyozma nusxalari asosida yaratilgan va hozir jahon ilmiy doirasida «Shohnomayi Boysung‘uriy» nomi bilan mashhur yaxlit asarning maydonga kelishidir. Boysunqur mirzo Abulqosim Firdavsiy «Shohnoma»sining ana shu nusxasiga kirish so‘zi ham yozgan. Bu nusxa hozirda Tehronda kutubxonasida saqlanadi.

Boysunqur mirzo vafotidan so‘ng bu kutubxonada «Kutubxonayi Humoyun» tarzida tilga olingan. Ana shu kutubxonada keyinchalik Husayn Boyqaro kutubxonasi asosini tashkil etgan.

Iskandar mirzo va Ibrohim mirzo kutubxonasi

Temuriyzoda Iskandar mirzo (1409—1414) yillarda Fors o‘lkasi (Eronning g‘arbida) hokimi edi. Iskandar mirzo ma‘rifatparvar hokim bo‘lish bilan birga turkiy tilda maqtovgaga sazovor bo‘lgan she‘rlar yozuvchi shoir ham edi. Alisher Navoiyning «Majolis un-nafois»ida Iskandar mirzoning quyidagi tuyug‘i keltiriladi va maqtaladi:

To‘lin oyga nisbat ettim yorumi,

Ul hijolatdin kam o‘ldi yorumi.

Tori mo‘yingning zakotin men beray,

YO Mismi, yo Xalabni yo Rumi.

Iskandar mirzo o‘zining hokimligi davrida bir kutubxonada yaratadi va unda nodir qo‘lyozma kitoblarni to‘playdi. Kutubxonada mohir hattot va rassomlar ham jalb qilingan bo‘lib, ular tomonidan miniatyura albomi (guldastasi) tuziladi. Bu davrda Forsda tarixchi

olim Natanziy o'zining «Muntaxab ul -tavorix»ini, o'zbek shoirlari Haydar Xorazmiy va Xorazmiylar esa she'r va dostonlarini yaratadilar. Mavlono Ma'rut hattot kutubxona uchun nodir kitoblarni ko'chirib bergan. 1414-1435 yillarda Sheroz markazidagi Fors o'lkasida Shohruh mirzoning o'gli, Mirzo Ulug'bekning ukasi, Boysunqur mirzoning akasi Ibrohim mirzo hokimlik qiladi. U ham ma'rifatli temuriyzoda bo'lganidan Iskandar mirzo kutubxonasini yangi-yangi nodir asarlar hamda Amir Temur tarjimayi holi, faoliyati va fazilatlariga oid qimmatbaho hujjatlar, asarlar bilan boyitadi. Ibrohim mirzo topshirig'iga ko'ra muarrix Sharafiddin Ali Yazdiy ana shu kutubxonada o'zining mashhur «Zafarnoma»sini yozadi.

Husayn Boyqaro kutubxonasi

Temuriyzoda Sulton Husayn Boyqaro (1438 -1506) hukmronligi davrida (1469-1506) Hirotidagi saltanat kutubxonasi o'z faoliyatini davom ettiradi. Qayd qilinganidek, bu boy kutubxona Boysunqur Mirzo tomonidan tashkil etilgan kutubxona asosida rivojlanib borgan. Husayniy taxallusi bilan she'rlar bituvchi, nasriy risolalar muallifi bo'lmish Sulton Husayn Boyqaro kutubxonaga alohida e'tibor berib, eng nodir asarlar bilan birga zamondoshlarining ilmiy, adabiy asarlari bilan uni boyitgan. Buning uchun mohir hattot va rassomlarni, jumladan Sulton Ali Mashhadiy, Kamoliddin Behzodlarni jalb etgan. Ularga buyurtma berib, kitoblarni ko'chirtirib, rasm va naqshlar bilan ziynatlantirgan. Buni Sulton Ali Mashhadiyning 1495 yili Alisher Navoiyning Sulton Husayn Boyqaro kutubxonasi uchun maxsus ko'chirtirgan devoni oxirida arab tilida yozilgan quyidagi matn ham tasdiqlaydi: (o'zbek tilidagi mazmuni) «Mirzo Sulton Husaynning kutubxonasi xazinasini uchun Hirot shahrida gunohkor banda Sulton Ali Mashhadiy ko'chirdi».

Sulton Husayn Boyqaro kutubxonasi o'z zamonasida eng go'zal san'at koshonasiga aylanib, nihoyat nodir va san'at jihatdan a'lo darajada bajarilgan nusxalarga boy edi. Kutubxonadagi kotib-hattotlarning, ya'ni kitobni qo'lda ko'chiruvchilarning kundalik ish mezon-meyori ham belgili bo'lgan. Jumladan, bir kotib bir kunda quyidagi miqdordagi bayt va satrlarni ko'chirishi shart bo'lgan: masnaviy (dostonlar)dan 80 bayt,

gʻazallar 50 bayt, nasriy asarlar 12 bet (qogʻozning hajmiga qarab). Agar kotib -hattot mohir va tajribali boʻlsa, bu meyordan koʻproq bayt va satrlarni ham koʻchirgan.

Sulton Husayn Boyqaro vafotidan soʻng bu boy kutubxonada saqlangan nodir qoʻlyozmalar Eron, Turkiya, Fransiya, Angliya va boshqa mamlakatlarga tarqalib ketgan. Bu holni Sulton Husayn Boyqaro devoni nusxalarining ana shu oʻlkalardagi kutubxonalarda saqlanayotgani ham fikrimizni isbotlaydi. Vaholanki, bu devonlar Sulton Husayn Boyqaro kutubxonasida saqlanardi. XV-XIX asrlarda Buxoro, Xiva va Qoʻqon xonliklarida ham saltanat-xonlik kutubxonalari boʻlgan. Bular esa alohida tadqiqot mavzusidir.

Madrasalar qoshidagi kutubxonalar

Amir Temir va temuriyzodalar davrida Movarounnahr va Xurosonning Samarqand, Buxoro, Toshkent, Hirot va boshqa shaharlarida qurdirilgan mashhur madrasa va madrasai oliya qoshida oʻquv jarayoni bilan bogʻliq boʻlgan darslik, qoʻllanma, ilmiy va badiiy asarlar ular uchun alohida ajratilgan xona -hujralarda saqlangan. Bu kutubxonalarda kitoblarni vaqf qilish, tuhfa qilish hamda mudarris va talabalarning oʻzlari koʻchirgan nusxalarni saqlash yoʻllari bilan saqlangan. Vaqf qilingan kitoblar umumiy foydalanishga moʻljallangan boʻlib, ularni birovning oʻzlashtirishiga yoʻl qoʻyilmagan. Oʻquv jarayoni, oʻqiladigan ilmlarga daxldorlik jihatdan madrasa kutubxonalarida Qurʼoni karim, tafsirlar, hadisi-sharifning sahih nusxalari (Imom al - Buxoriy, Abu Iso Muhammad Termiziy va boshqalar), ularga yozilgan turli sharhlar, fiqhga doir asarlar (fiqh Abu Lays Samarqandiy, Burhoniddin Margʻiloniy), arab sarf va nahfi, qiroat ilmi, falsafa, mantiq, umumiy tarix, anbiyolar tarixi-qissalari, badiiy nasr va sheʼriyat namunalari, adliya ilmiga daxldor risolalar va boshqalar boʻlgan. Bunday kutubxonalar, xususan, Mirzo Ulugʻbek, Gavharshodbegim, Alisher Navoiy va boshqalar tomonidan qurdirilgan madrasa va madrasai oliyalarda ancha boy xazinaga ega boʻlgan. Ammo, afsuski, ulardan birortasining fixristi-katalogi yoki boshga bir izi bizgacha nomaʼlum boʻlib qolmoqda.

Shaxsiy kutubxonalar

O'tmishda har bir xonadonda Qur'oni-karim alohida ehtirom bilan saqlangan. Shuning bilan birga maktabda o'qitiladigan ayrim qo'llanmalar, biror-bir shoirning devoni ham bo'lgan. Ammo ularning soni nihoyatda kam bo'lgan. Ziyolilar xonadonida esa kitoblar soni nisbatan ko'proq bo'lsada, ammo ularni kutubxona tarzida tushunib bo'lmaydi. Biz nazarda tutayotganimiz shaxsiy kutubxonalar ayrim mashhur alloma, shoir va adiblar, ma'rifatparvar shahzoda va amirlarning kutubxonalaridir. Chunki bunday kutubxonalar alohida joy bilan, ularni saqlash, ta'mirlash bilan shug'ullanadigan maxsus xodimlar bilan ta'minlangan bo'lganlar. Bunday shaxsiy kutubxonalarda o'sha shaxsning bilim yo'nalishi, zavqi va iqtidori bilan bog'liq bo'lgan tarzda turli fanlarga oid kitoblar to'plangan. Ularning soni esa har xil bo'lgan. Bunday kutubxonalarda nodir va qimmatbaho qo'lyozma kitoblar saqlanib, ulardan boshqa kishilarning foydalanishlariga imkoniyatlar yaratilgan: shu yerda mutolaa qilgan yoki kutubxona sohibi roziligi bilan ma'lum muddatga uyga berilgan. Shunisi borki, olingan kitob xiyonat qilinmagan holda o'z vaqtida qaytarilgan. Ana shunday shaxsiy kutubxonalarning ayrimlari haqida qisqacha ma'lumot berib o'tamiz.

Xoja Ahror Vali kutubxonasi

Xoja Ubaydulloh - Xoja Ahror Vali (1404-1490) XV asrning ikkinchi yarmida xojagon-naqshbandiya tariqatining mashhur murshididir. Hazrat Xoja Ahror Vali Samarqanddagi o'z xonaxohlari (yashaydigan uylari)da salmoqli kutubxonaga ega bo'lganlar. Bu kutubxonada saqlangan ayrim kitoblarning nomlari Xoja Ahror Vali maqomotlarida Xoja tillaridan keltirilgan hikoyatlardan ma'lum bo'ladi. Jumladan, Shayx Muhammad Porsoning eslatilgan asarlari, mavlono YA'qub Charxiyning (vaf.1447) «Risolai unsiya», Abduxoliq G'ijduvoni asarlari, Abu Said Abulxayr (967 - 1048 melodiy. yillar) asar va she'rlari, Xoja Abdulloh Ansoriy (396 hijriy-1005 melodiy-481 hijriy-1088 melodiy.)ning «Munojotnoma», «Zod ul -orifin», «Kanz ul -solikin», «Risolai voridot», «Ilohiynoma» va boshqalar, Sa'diddin Hamaviy, Farididdin Attor va boshqalar.

XXIII-Bob Shayboniylar hukmronligi davrida kutubxonalar

XV-XVI asrlarda Sirdaryodan tortib Markaziy Afgʻonistongacha boʻlgan juda katta hududda Shayboniyxonning ulkan saltanati tashkil topdi. Shayboniyxon shayboniylar sulolasining asoschisi boʻlib, bu yerda ham temuriylar davrida boʻlgani kabi madaniy anʼanalar saqlanib qolgan edi. Movarounnahrda sheʼriyat va adabiyot, ilm-fan va sanʼat ancha rivoj topdi. Samarqand, Buxoro, Toshkent va Markaziy Osiyoning boshqa yirik shaharlarida koʻplab shoirlar yashab ijod qildi, Markaziy Osiyo adabiy hayotining antologiyasi hisoblangan Hasan Buxoriy Nisoriyning «Muzakkir al-ahbob», Mutribiyning «Tazkirati shuaro» nomli kitoblari yuzaga keldi. Oʻzbek (turkiy) tilida koʻplab tarixiy asarlar yaratildi, «Tavorixi guzidai Nusratnoma», Muhammad Solihning «Shayboniynoma» nomli qahramonlik dostoni, Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» va boshqa koʻpgina asarlari shular jumlasidandir. Zayniddin Vosifiyning «Badan alviya» , Fazlulloh ibn Roʻzbexon Isfahoniyning «Mehmonnomayi Buxoro» nomli memuarlari dunyoga keldi. Agar shayboniylar davrida ilm -fan unchalik rivoj topmagan boʻlsa ham, tibbiyot sohasida bir qadar siljishlar boʻldi.

Madaniyatning rivojlanishi kutubxonalarning yanada oʻsishini taqozo etdi, lekin bu kutubxonalarni hajm va mazmun jihatidan oldingilariga tenglashtirib boʻlmasdi. Bu davrda saroy kutubxonalari bilan bir qatorda madrasalar, masjidlar qoshida hamda xonadonlarda ham kutubxonalar rivojlandi. Shayboniyxon (1451 -1510) va uning vorislari adabiyotga va ilm -fanga bir muncha homiylik qildilar. Hirotlik taniqli va isteʼdodli shoirlar, xorazmlik Muhammad Solih va hirotlik Kamoliddin Binoiy Shayboniyxon saroyiga xizmatga oʻtdilar. Shayboniyxon oʻz davriga yarasha anchagina maʼlumotli kishi edi. Uning oʻzi oʻzbek va fors tillarida sheʼrlar bitgan, oʻzbek tilida «Bahr al -xudo» nomli asar yozgani maʼlum. Shayboniyxon hattotlikka katta eʼtibor berdi, uni koʻpgina boshqa masalalar ham qiziqtirardi. «Oʻzining butun harbiy hayotiga qaramasdan, deb yozgan edi L.A. Semyonov, - u qaysi shahar va qishloqda boʻlmasin, qayerda toʻxtamasin, olimi -u ulamolar, soʻfiylar va shoirlar bilan suhbatlashishni yoqtirardi».

Shayboniyxon hukmronlik qilgan davrda uning saroyida kutubxona bo'lib, unda o'z qalamiga mansub asarlari ham, uning ishtirokida tuzilgan to'plamlar ham saqlanardi. Masalan, «Tavorixi guzidayi Nusratnoma» (Tanlangan asarlar, talabalar kitobi) shular jumlasidandir. Ayrim kutubxonalarda, Shayboniyxonning Samarqanddagi madrasasida qo'lyozmalar avaylab saqlangan, shular orasida ancha-muncha nodir qo'lyozmalar ham bo'lgan. Shayboniyxonning vorislaridan uning amakivachchasi, shoir Ubaydullaxon Ubaydiy (1533-1589) ayniqsa katta kutubxonaga ega bo'lgan. Bu kutubxonadagi noyob qo'lyozma hisoblangan «Kulliyoti Ubaydiy»; nihoyatda chiroyli bezatilgan bo'lib, bizning kunlarimizgacha yetib kelgan va hozirda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanadi. Shuni ham aytish kerakki, ayrim kutubxonalar huzurida turli asarlarni boshqa tillardan o'zbek tiliga tarjima qilish ishlari ham keng ko'lamda olib borilgan. Bu sohada Buxorodagi Abdulazizxon kutubxonasi ajralib turgan, kitoblar o'sha davrning mashhur hattotlari Mirali Hiraviy va Ahmad al -Husayniy ishtirokida tayyorlangan.

Abdullaxon II kutubxonasi ham ma'lum darajada mashhur bo'lgan, bu kutubxonada uzoq yillar mashhur hattot Mir Husayn al-Husayn boshchilik qilgan. Yirik kutubxonalarda tajribali musavvirlar va muqovasozlar ham ishlashar, kitoblar o'sha vaqtlarda ancha keng taraqqiy etgan Markaziy Osiyo mo'jaz san'ati namunalari bilan chiroyli qilib bezatilgan. Ko'pgina yirik asarlar, chunonchi, «Fathnoma», «Tarixi Abdulkayrxon», 1521-yilda Alisher Navoiy asarlarining ro'yxati ana shunday original tarzda bezatilgan va 1562-1563 yillarda muqovalangan. «Tavorixi guzidayi Nusratnoma» va boshqa asarlar ham shunday miniatyuralar bilan bezatilgan hamda ishlangan.

Abdulazizxon (1509 -1550) - shayboniylardan Ubaydullaxonning o'g'li, Xorazm hokimi (1538-1539). Otasining vafoti (1539)dan so'ng mamlakatda ikki hokimiyatchilik yuzaga kelib, Abdulazizxon Buxoro xoni (1540-1550) edi. Abdulazizxon o'z hukmronligi davrida davlat va aholi manfaatlarini ko'zlab, qator islohotlarni amalga oshirgan. Jumladan, ayrim soliq, tanob puli va boshqa to'lovlarni bekor qildi. Boshlagan ishlari oxiriga yetmasdan olamdan o'tdi. Bu ishlarning davomiyligi Abdullaxon II davrida amalga oshirilib, Buxoroda ko'pgina madrasalar va kutubxonalar, Bahovuddin Naqshband qabristonida honaqolar qurdirtdi. Shayboniylar davrida bo'lgani kabi, joniylar

sulolasi davrida ham Buxoro xonligida musulmon dini xalq hayotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Bu vaqtda aniq va tabiiy fanlar birmuncha tanazzulga uchradi. Ulug'bek va uning Samarqanddagi rasadxonasida ishlagan Ali Qushchi kabi shogirdi singari mutafakkirlar yetishib chiqmadi. Shunga qaramasdan ilohiyotchilar orasida o'zining olimlik faoliyati bilan shuhrat qozongan Oxund Muhammad Sharif singari shaxslar bor edi. Manbalar taniqli olim, shoir va faylasuf Yusuf Qorabog'iyning ham nomini, yirik qonunshunos, «Yashiringan narsalar haqida risola» nomli mashhur asar muallifi Nasriddin Buxoriyning nomini ham saqlab qolgan.

Ashtarxoniylar sulolasi davrida esa madaniyat rivojlandi, adabiy yozma yodgorliklar yaratildi. Sayido Nasafiy, Turdi va boshqa ko'pgina shoirlar xalq orasidan yetishib chiqdi. 1692-yilda 200 nafar adabiyot arbobi to'g'risidagi she'riyat antologiyasi tuzib chiqildi. Joniylar davlatida qo'lyozma kitoblarni bezatish ishlari takomillashdi, bu vaqtda ko'plab xususiy kitob to'plamlari va kutubxonalari paydo bo'ldi. Samarqand va Buxoroda yuqori sifatli yozuv qog'ozi paydo bo'lganligini, bu ish Abdulazizxon (1645-1680) hukmronlik qilgan davrda mukammal darajaga yetganligini, bu esa ma'lum darajada adabiyotning rivojlanishi va keng tarqalishiga sabab bo'lganligini quvonch bilan aytib o'tish kerak. Ma'lumki, Buxoroda qo'lyozma kitoblar to'plash bilan Abdulaziz va uning ukasi shoir Subhonqulixon ham qiziqardi. Ularning davrida Buxoroda shifoxona (dor ush-shifo) qurilgan, uning huzurida tibbiyot va ilmiy kitoblarga ega bo'lgan kutubxona ham shuhrat qozongan. Subhonqulixon hukmronligi davrida ancha -muncha qo'lyozma to'plamlarni o'z ichiga olgan jamoat kutubxonasi ochilgan. U o'zining ancha batafsil yozilgan «Ixnna attab Subhoniyy» (Subhonqulixon tibbiyotini jonlantirishi) nomli tibbiy asarini yaratishda mazkur kutubxonadagi adabiyotlardan har tomonlama foydalangan. O'zbekiston Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik institutida Subhongulixonning kutubxonasidan bir nechta kitoblar va o'sha davrga oid tibbiy qo'lyozmalar saqlanadi, ularni xonning o'zi tuzib chiqqan yoki unga bag'ishlangan. Kutubxona huzurida qo'lyozma kitoblarni ta'mirlaydigan ustaxonada musavvirlar, hattotlar va shikastlangan kitoblarni asl holiga keltiruvchi va tiklovchi mutaxassislar ish olib borishgan. Mo'jaz san'at maktabi mavjud bo'lib, unda o'z davrining mashhur ustalari Mahmud murzib, Abdulla og'a va boshqalar ishlaganligi ma'lum.

Kutubxonalar tez-tez bo‘lib turadigan saroy to‘ntarishlari, bosqinchilik va o‘zaro urushlardan zarar ko‘rar, masjid va madrasalar buzilar va yozma yodgorliklar yo‘q qilinar yoki tashib ketilar edi. Biz yuqorida 1448 yilda bo‘lgan qo‘zg‘olon vaqtida Samarqand saroy kutubxonasining yo‘q qilingani haqida gapirgan edik. 1451-yilda, Abdulloh hukmronligi davrida poytaxtga yana Abulxayrxon va Abusaidxon to‘dalari bostirib kiradi. Buxorodagi kutubxona urush va yong‘inlardan shikast ko‘rish bilan bir qatorda bosib olingan shaharlardan olib kelingan kitoblar va qo‘lyozmalar bilan to‘ldirib borilar edi. Masalan, 1560-yilda kutubxona Ubaydullaxon va Abdumo‘minxonlar hukmronligi vaqtida ikki marta talangan. Keyinchalik Mashhad shahridan keltirilgan qo‘lyozmalar bilan to‘ldirilgan. Shundan keyingi yillarda ham ma‘naviy madaniyat boyliklari xazinalarini talon-taroj qilish davom etdi. Buxorodagi o‘zaro urushlar vaqtincha to‘xtatilgandan keyin ham kitob omborlaridagi kitoblarning qoldiqlari, amir Nasrulloxon hukmronligining oxirida Shahrizabz, Kitob va Hisor kutubxonalaridagi kitoblarning qoldiqlari Qarshi shahriga tashib keltirilgan.

XXIV-Bob XVIII- XIX asrlarda Buxoro amirligi , Xiva va Qo‘qon xonliklarida madaniy hayot va kutubxonalar

XVIII asrda Buxoro amirligida, Xiva va Qo‘qon xonliklarida tarbiya va ta‘limda din ta‘sirining kuchayganligi bilan ajralib turar, qo‘lyozma kitoblar, dunyoviy bilim beradigan kitoblar chiqarish sezilarli ravishda kamayib ketgan edi. Shunga qaramasdan bu davlatlarda ancha-muncha qo‘lyozma fondlariga ega bo‘lgan saroy kutubxonalar va xususiy kutubxonalar saqlanib qoldi. Ular avvalgidek har xil mavzulardagi kitoblar va qo‘lyozmalarga unchalik boy bo‘lmasa ham, ular torroq doirada foydalanishga mo‘ljallangan edi. Ayni vaqtda kutubxonalarda hikmatli va nodir qo‘lyozmalar ham topilardi. Xonliklardagi ayrim amaldorlar ilm-fan va kitoblarga befarq qarar, shu sababli kitoblar va qo‘lyozmalarni saqlashga kam e‘tibor berilar, ba‘zi hollarda kitoblar shikastlanar, o‘g‘irlab ketilar, ayrim kitoblar kitob bozorlarida arzimagan pulga sotib yuborilardi. Buxoro amirligida amirlarning kutubxonalariga ko‘proq e‘tibor berilardi. Jo‘rabek va Qushbegi Ostonaqulning ma‘lumot berishlaricha, kutubxonalarda qo‘lyozma

asarlar ko‘p miqdorda saqlanardi. Amir kutubxonasida xitoy, uyg‘ur, pushtun, fors, arab va boshqa tillardagi kitoblar ham bor edi. Kutubxona boshqa xazinalardan alohida saqlanardi. Bu kitob boyligiga maxsus saroy amaldori bo‘lgan «kitobdor» boshchilik qilgan. Bu yerda kufiycha yozuvda chiroyli xat bilan bitilgan qadimgi qo‘lyozmalar (ularning orasida rasmlar ham ishlangan edi), ayrim urug‘larning shajaralarini to‘liq aks ettiruvchi, hatto kelib chiqishi Iskandar Zulqarnaynga borib taqaladigan urug‘larning tarixiga oid adabiyotlar ham bor edi.

Buxoro amiri Muzaffar hukmronlik qilgan yillarda (1860-1868) bu yerdagi kutubxona tanazzulga uchradi. Biz kutubxonaning qanday ahvolga kelib qolganligi haqida rus sayohatchilarining, xususan, Buxoroga Rossiya protektorati o‘rnatilgan dastlabki yillarda tashrif buyurgan N. P. Stremolixovning ma’lumotlaridan bilamiz. Uning yozishicha, kutubxona kichkina zax yerto‘la binosida joylashtirilgan bo‘lib, qo‘lyozmalar va boshqa kitoblar namlikdan turli zararkunandalar va kemiruvchilar tomonidan ancha - muncha shikast topgan. Buxoroliklarning fikricha, bu kutubxonadagi kitoblarning ma’lum qismi Temur kutubxonasiga mansub bo‘lib, bir vaqtlar Samarqanddan Buxoroga keltirilgan.

Amir Muzaffar o‘z kutubxonasidagi kitoblar bozorda arzon narxlarda sotilayotganini bilar, ayni paytda o‘zi ham qimmatli qo‘lyozmalarni o‘z amaldorlariga sovg‘a qilib yuborar edi. Feodalizm tarafdori bo‘lgan amir Muzaffar, taniqli kutubxonashunos I.Odilovning, olim, mashhur sharqshunos A. E. Shmidtning fikriga asoslanib aytishicha, ayrim buxorolik olimlarning erkin fikr bildirishidan xavotirlanib, ular bunday zararli g‘oyalarni, ya’ni davlat negiziga putur yetkazishi mumkin bo‘lgan g‘oyalarni qo‘lyozma to‘plamlardan o‘z maqsadlari yo‘lida foydalanadilar, deb hisoblardi. Shu sababli amir Muzaffar qozikalon Sadriddinga ayrim madrasa kutubxonalaridan va xususiy to‘plamlardan, masalan, Muhammad Porsoning to‘plamlaridan zararli qo‘lyozmalar va kitoblarni tortib olish hamda yo‘q qilishni buyurgan. Biroq qozikalon o‘qimishli, bilimdon, qo‘lyozmalarning ahamiyatini tushungan kishi bo‘lgani sababli tortib olingan kitoblar va qo‘lyozmalarni yo‘q qilib yubormay, o‘z uyida to‘playdi. Keyinchalik uning kutubxonasi va bu qo‘lyozmalar uning o‘g‘li, qozikalon Burhoniddinga o‘tadi va uning qo‘lida 1920 yilgacha saqlanadi. Ular bu yerda uzoq muddat qolib ketganligi bois

qo'lyozmalarning bir qismi o'g'irlanadi, bir qismi yo'qoladi va chetga sotib yuboriladi. Shayx Muhammad Porso to'plamlaridagi qo'lyozmalar sobiq sho'ro kutubxonalaridan va ayrim chet mamlakatlar kitob omborlaridan topilishiga sabab ham ana shunda bo'lsa kerak.

Amir kutubxonasiga taniqli o'lkashunos va sharqshunos olim V.L. Vyatkin katta qiziqish bilan qaradi. Uning e'lon qilinmagan va V.V. Bertoldga yo'llagan maktubidan ma'lum bo'lishicha, kitob ombori qarovsiz qoldirilgan, kitoblar butunlay tartibsiz, pala-partish saqlangan, qo'lyozmalar ustaxonada joylashtirilgan. Kutubxonada kitoblar va eski qo'lyozmalarni muqovalash ishlari amalga oshirilmagan. Bir muncha keyinroq, XX asrning boshlarida amirlar va o'sha vaqtdagi amaldorlar saroy kutubxonasiga befarq va nopisandlik bilan munosabatda bo'lganliklari haqida bizga qadimgi kitoblar va qo'lyozmalarni qadrllovchi shaxs bo'lgan Muhammad Kamol Muzaffarov ma'lum qilgan. Uning yozishicha, minglab qo'lyozmalar va boshqa kitoblar amir saroylarida mutlaqo qarovsiz ahvolda yotgan. Ayni vaqtda Muzaffarov shahardagi barcha kitoblarni to'plash va Buxoro shahrida katta kutubxona tashkil etish fikrini ilgari surgan. Muallif bu kutubxonada turk, qirg'iz, boshqird, rus va g'arbiy Yevropa kitoblari va qo'lyozmalarini bir joyga to'plash zarurligini qayd qilgan. Lekin u tez orada mahalliy jamiyatning «nodonligi va ilmsizligi» bunday foydali ishni amalga oshirishga g'oyat jiddiy to'siq bo'lyapti, degan xulosaga kelgan. Kutubxonalarning ana shunday nochor ahvolda bo'lganligi va umuman madaniyatning bu vaqtda tushkun holatda ekanligining sabablaridan biri Chor Rossiyasi tomonidan Markaziy Osiyo yerlarining bosib olinishi bilan vujudga kelgan siyosiy vaziyatdir, deb hisoblaymiz. Buxoro amirligining qulashi arafasida kutubxona Arkda joylashgan edi, unda ajoyib asarlar, qo'lyozmalardan iborat to'plamlar, shu jumladan, amir Muzaffarning qo'lyozmalari ham bor edi. Manbalarning tasdiqlashicha, amir kutubxonasida 500 ga yaqin qo'lyozma va bosma kitoblar, qimmatli qo'lyozma asarlar ham bo'lgan.

Kutubxonalar ishi bilan qiziqqan A.A. Semyonov Buxoro amirlari kutubxonasiga katta e'tibor bilan qaragan. U kutubxonadagi qo'lyozma fondlarining ahvolini sinchiklab kuzatgan va 1915-yilda kitob fondlarini bir muncha tartibga keltirishga va ro'yxatlar

tuzishga muvaffaq bo'lgan. Olim amirlar kutubxonasi «manuskriptlar va miniatyuralar bilan boy» ekanligini aniqlagan.

O'sha davrdagi Xiva xonlarining saroyidagi kutubxonalar ham diqqatga sazovordir. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, xon Abulg'oz Bahodirxon (1643-1663) taxtga o'tirmasdan ancha oldin begona o'lkalar bo'ylab kezib yurar ekan, ma'lum miqdordagi tarixiy asarlar qo'lyozmalarini qo'lga kiritadi, ularni o'qib o'rganadi. Keyinchalik uning o'zi ham ko'pgina asarlar, shu jumladan, turkiy xalqlar tarixi va madaniyati haqida hikoya qiluvchi «Shajarai turk» va «Shajarai Tarokima» nomli muhim asarlarni yozib qoldiradi. Hozirgi vaqtda bu asarlar xalqimiz tarixini, adabiyot va til tarixini o'rganuvchilar uchun qimmatbaho manba hisoblanadi. Juda tushunarli va sodda tilda yozilgan mazkur asarlar mustaqillik davrida keng foydalanuvchilar ommasining mulkiga aylantirilib, nashr etildi.

Xiva xonlaridan Muhammad Rahimxon II (1865-1910) hukmronlik qilgan davrda uning kutubxonasi kitob va qo'lyozmalarga nihoyatda boy bo'lgan. Xonning o'zi adabiyotni juda sevar va o'z kutubxonasi uchun ko'plab kitoblar va qo'lyozmalar to'plagan edi. Uning o'zi «Feruz» taxallusi bilan she'rlar yozgan, saroyida ko'pgina shoirlarni to'plagan, ko'pgina she'riy to'plamlar yaratgan. Feruz rahnamolik qilgan vaqtda 30 shoirning asarlari to'planib, katta hajmli she'riy antologiya dunyoga kelishiga muvaffaq bo'lingan. Markaziy Osiyo hududida birinchi marta XIX asrning 70 yillari boshlarida Xivada litografiya (tosh bosma) korxonasi tashkil etilgan, bu bosmaxonada Feruzning she'riy asarlari va boshqa shoirlarning to'plamlari ko'p nusxada chop etilgan. Ular tezda tarqalib, qo'lyozma kitoblar kabi nodir nashrlarga aylangan.

Xivada o'sha yillarda tarixga doir turli asarlarni boshqa tillardan turkiy (o'zbek) tiliga tarjima qilish borasida bir muncha ishlar amalga oshirildi. Bir qancha she'riy kitoblar ham tarjima qilinib, nashr etilgan.

Bu yerda kitoblarga qanchalik yuksak hurmat bilan qaralganidan shu narsa ham guvohlik beradiki, ko'pincha Xivaga kelgan yuksak martabali mehmonlarga, sayohatchilarga qo'lyozma kitoblar, tosh bosmada chop etilgan kitoblarni hadya etishgan. Masalan, Xivaga fransuz A. Mozer tashrif buyurganda unga boshga qimmatbaho sovg'alar bilan birga turkman shoiri Maxtumqulining she'riy kitobi sovg'a qilingan. Bu

kitob A. Vamberining fikricha, Yevropada birdan -bir nusxadagi qo‘lyozma bo‘lgan. Shuni aytish mumkinki, xon saroyidagi kutubxona asosini Abulg‘ozi Bahodirxonning o‘zi yozgan asarlari va boshqa manbalar tashkil etgan. Xiva xonlarining saroy kutubxonasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar 1873 yil Xivaga yurishdan keyin yanada to‘ldirildi, o‘sha yili 29 may kuni rus otryadi xonlik poytaxtini egalladi. 12 avgustda esa Xiva xoni sulh shartnomasiga imzo chekib, o‘zining rus hukumatiga buysunishini e’tirof etdi. Rus qo‘shinlarining Markaziy Osiyo hududiga bostirib kirishi bilan madaniy boyliklar, shu jumladan, qo‘lyozmalar ham ularga to‘plab berildi. Rus geografiya jamiyatining tashabbusi bilan Xiva xonligini geografik, etnografik va madaniy jihatdan tadqiq qilish sohasida ko‘p tomonlama dastur ishlab chiqildi.

Xonlikda katta miqdordagi kitob boyligiga ega bo‘lgan kutubxona borligi dasturda qayd qilindi. Kitob bozorlarida faqat diniy ruhdagi kitoblar emas, shu bilan birga dunyoviy mazmundagi nasriy va she’riy asarlar bilan ham savdo qilinardi. Shuningdek, dasturda qozilar va ulamolar qo‘lida qo‘lyozma kitoblar borligi ham aytib o‘tildi. Buyuk o‘zbek shoirlari, olimlari va mutafakkirlari Alisher Navoiy, Abu Rayhon Beruniy va boshqalarning asarlarini qidirish zarurligi alohida qayd etildi. Ularning asarlari «nihoyatda kamyob asarlar bo‘lib, ularni qidirib topish katta baxt hisoblanadi», deyilgan edi dasturda. Xivaga yurish vaqtida sharq qo‘lyozmalarini to‘plash va saqlashda oriyentalist Aleksandr Lyudvigovich Kun ayniqsa faollik ko‘rsatdi. Saroy taslim bo‘lgan kunning ertasiga u kitob va qo‘lyozmalar saqlanadigan ombordan 300 ta kitobni tortib olgan bo‘lib, ular turli mazmundagi kitoblar edi. Bu kitoblarning ko‘plari fors tilidan Xorazm Qo‘ng‘irot sulolasi xonlari davrida turkiy tilga ag‘darilgan kitoblar edi. Bu kitoblar orasida 140 jilddan iborat tarixiy asarlar, sharq shoirlaridan 20 ta muallifning muhim asarlari mavjud edi. Bundan tashqari, huquqiy-ilohiy mavzudagi 40 nomli 50 jildlik asarlar, 18 nusxa Qur’on kitobi va 50 ta turli darsliklar bor edi. Tarjima qilingan asarlardan tashqari asarlarning asl nusxalari ham mavjud edi, ayniqsa Yunus Mirobning «Xiva xonlari tarixi» nomli asari e’tiborni o‘ziga jalb qilardi, u Eltuzarxon davridan boshlab Xiva davlatiga asos solinishigacha bo‘lgan rasmiy solnoma xususiyatidagi asar edi va ruslarning bostirib kelishiga qadar bo‘lgan xonlikdagi barcha. A. L. Kunning fikricha, bu tarix kitobi Xiva xonlarining tarixi bilan bog‘liq ko‘pgina masalalarni hal

qilishda katta yordam ko'rsatishi mumkin edi. Kutubxonada Mirxondning «Eron tarixi», S. Sharifning «Muhammadning sarguzashtlari» nomli asari va Xiva shevasida yozilgan bir nechta original qissa, romanlar saqlanardi. Bu qo'lyozmalarning bir qismi Osiyo muzeyiga kelib tushganligini B. A. Dom tasvirlab bergan.

Xiva xonligi omborida saqlanayotgan qo'lyozmalar orasida sharq qo'lyozmalarining taqdiri ayanchli edi. 1874 yilda ularni Toshkentdan Sankt - Peterburgga tashib ketish vaqtida (general K.P.Kaufmanning xalq kutubxonasiga in'omi) kitoblar solingan yashik ehtiyotsizlik oqibatida Amudaryoga tushib ketgan va natijada ularning ko'plari shikastlangan edi. Bu ma'lumotlar N.P. Ostroumovning yozuvlari bilan ham uyg'unlashib ketadi. 1891 yilda Ostroumovga Xiva xonining kotibi Polvon Mirzaboshi ma'lum qilishicha, «Kun Xivadan bir yarim mingga yaqin turli hujjatlar va qo'lyozmalarni olib ketgan, lekin ularni qayiqda tashilayotgan vaqtda qo'lyozmalarning muayyan qismi ho'l bo'lib qoldi. ularni quritish uchun madrasadan 150 mulla kerak bo'ldi». Shuningdek, Polvon Mirza ma'lum qilganidek, mullalar qo'lyozmalarning bir qismini yashiradilar, Mirza ularni Buxoroga borganda ko'rib biladi. Xiva xoni saroyidagi kutubxonaning kitoblari 1873 yilgi Xivaga yurish vaqtida olib qo'yilganligini Xiva saroy tarixchisi Bayoniy ham eslatib o'tadi. U «Xorazm tarixi» asarida qayd qilishicha, «ruslar tomonidan 300 nusxa kitob musodara qilingan». Xiva xoni saroyidagi kutubxona to'g'risida A.L. Kunning mashhur rus san'atshunosi va osori -atiqalarni qadrllovchi V. V. Stasovga yozgan xatida eslatib o'tilgan. Stasov Kun tomonidan topilgan Xiva xoni taxti bilan qiziqqan edi. «Xiva xonining taxti, — deb javob qilgan edi A. L. Kun, saroyning qabulxona zalida joylashgan. Men saroyning ana shu qismini ko'zdan kechirayotib qabulxona zalida ushbu taxtga va ayvon tomondan ochilgan kichikroq eshikni ko'rib qoldim, bu eshikcha bor yo'g'i kichkina bir xonadan iborat Xiva kitob omboriga olib borardi. Men bu ko'rgan narsalarimning barchasi haqida K.P.Fon Kaufmanga ma'lum qilganim zahoti undan taxt va barcha kitoblar, qo'lyozma qog'ozlarni olib kelish to'g'risida ruxsatnoma oldim». Xiva saroy kutubxonasi to'g'risidagi ayrim ma'lumotlarni Amerikada chiqadigan «Nyu Gerald» gazetasining muxbiri Artur Mak -Gaxan ma'lum qilgan edi. U Xivaga general K. P. Kaufman boshchilik qilgan otrad bilan birga borishga muvaffaq bo'lgan. Mak - Gaxanning tasvirlashicha, kutubxona binosi bitta xonadan

iborat bo'lib, qo'lyozma kitoblar san'atkorona dastxat bilan yozilgan va ularga charm muqovalar qoplangan.

Birmuncha kechroq biz Xiva saroyidagi kutubxonasi kitoblari, ularning mualliflari va binosi haqidagi ma'lumotlarni mashhur turkshunos, Sankt- Peterburg universitetining privat-dosenti A. N. Samoylovich (1880-1938) ning asarlaridan bilib olamiz U Markaziy Osiyoga mahalliy madaniyatni o'rganish maqsadida bir necha marta kelgan. 1908 yilda A. N. Samoylovich saroy shoiri va tabibi Ahmad tabib hamrohligida Xiva xonlari kutubxonasi va toshbosma bosmaxonasida bo'lishga muvaffaq bo'lgan, bu bosmaxonada birinchi bosma kitob «Munis devoni» bosilgan edi. 1910 yilda A. N. Samoylovich Xivadagi tosh bosmada chop etilgan Feruz tevaragidagi o'ttiz saroy shoirning she'riy kulliyotini tasvirlab bergan edi. Xiva xonligidagi kitob omborxonasi qo'lyozmalar saqlanadigan ikkita kutubxonadan tashkil topgan bo'lib, ulardan bittasi Arkdagi va ikkinchisi Muhammad Rahimxonning yozgi qarorgohi bo'lgan Tozabog'dagi kutubxonadir. Ular A. N. Samoylovichning fikricha, «doimiy ravishda yangi tomlar va ko'chiruvchilarning alohida shtati tomonidan ko'chiriladigan nusxalar bilan to'ldirib borilardi». Bu yerda olim kutubxonaning kitob boyliklari bilan batafsil tanishib chiqishga muvaffaq bo'ldi. Tozabog'dagi kutubxonada 200 dan ortiq qo'lyozma bo'lib, ular ham o'tgan asrlardagi, ham XIX asr boshlaridagi shoirlarning qo'lyozmalaridir. Sharq qo'lyozmalari bilan birgalikda rus tilidagi jurnallar ham bo'lib, ularni tilni yaxshi bilgan kishilar mutolaa qilardi. Toshbosmada bosilgan asarlar hindcha, forscha, yunoncha, qozoqcha, turkcha nashrlar bo'lib, ular ko'prog'i fors tilidagi she'riy kitoblar edi. Kitoblarga kartondan muqova qilingan, ayrimlariga charm muqova ham ishlangan. Har bir kitobning sirtida yorliq, unda asarning nomi, qo'lyozma yoki boshqa shaklda ekanligi ko'rsatilgan. Yangi olingan kitoblarning alohida ro'yxati ham qo'yilgan. Arkdagi kutubxonada 500 ta nomdagi qo'lyozma va bosma kitoblar «katalogi» ham tuzilgan edi. Bu yerda she'riy asarlar tarix, tibbiyotga doir asarlar fondining yarmidan ko'prog'ini tashkil etardi. Kutubxonasi boyligining yarmi qo'lyozma kitoblardan iborat edi, desak xato bo'lmaydi. Samoylovich qal'adagi (Arkdagi) kutubxonasi qo'lyozmalarini shoshilinch ko'zdan kechirar ekan, o'z diqqatini juda chiroyli qilib ziynatlangan fors tilidagi

«Shayboniynoma» qo‘lyozmasiga qaratadi, bu qo‘lyozma xonning zamondoshi bo‘lgan tarixchi va shoir Binoiy tomonidan tuzilgan solnoma edi.

Mazkur kutubxonadagi fors, arab, chig‘atoy tillarida bitilgan tarixiy kitoblar orasida ko‘pgina monografik asarlar, masalan, «Olloqulixon tarixi», «Rahimqulixon tarixi», «Muhammad Aminxon tarixi», shuningdek, Muhammad Rahimxon va uning otasi tarixi bor edi. She‘riy asarlardan Komil asarlarini, zamonaviy shoirlarning kulliyotlarini, qasidalar, ruboiylar, g‘azallar va shu kabi asarlarni topish mumkin edi. Xiva xonlari saroyidagi kutubxona kitoblari va qo‘lyozmalarning mohirlik bilan muqovalanishi kutubxona qoshida maxsus muqovalash ustaxonasi mavjud bo‘lganligidan dalolat beradi. Bu yerda ajoyib hattotlar, muhr tayyorlovchilar ishlashgan. Kutubxonaning eng yaxshi hattotlaridan biri Xudoybergan Devonov edi. Tadqiqotchi A.A.Semyonov o‘z asarida xivalik mashhur hattotlardan Muhammad Yoqubxoja va Xudoybergan Devonovning nomlarini alohida tilga olib o‘tadi. Ular Sayid Muhammad Rahimxon II ning buyurtmasi bo‘yicha alohida ro‘yxatlarga kirgan asarlarni ko‘chirar edilar. Xivada feodal tuzum inqirozi arafasida Xiva xonlari kutubxonasidagi kitoblar soni anchagina edi. Xiva vaqf boshqarmasining bergan ma‘lumotlariga ko‘ra, kutubxonada 1200 jildga yaqin muhim asarlar bo‘lib, ularning aksariyati qo‘lyozma asarlar edi.

XVIII asrda vujudga kelgan Qo‘qon xonligi saroyida ham maxsus kutubxona bo‘lgan. Eng keyingi xonlardan Umarxon, Murodxon va Xudoyorxonlar saroyida ancha qimmatli kitoblarga ega kattagina kutubxona bo‘lib, unda sharq qo‘lyozmalari, ko‘pincha tarix, jo‘g‘rofiyaga doir, tibbiyot, tilshunoslik, grammatika, fikhga, ilohiyot va boshqa fanlarga doir kitoblar, qo‘lyozma asarlari saqlangan. Ular orasida faqat mahalliy mualliflarning asarlari emas, hind, afg‘on, eron va boshqa sharq xalqlari shoir va adiblarining asarlari ham uchrardi. Qo‘qon xonligining ayrim hukmdorlari qo‘lyozma kitoblarga, umuman kutubxonalarga katta qiziqish bilan qarar, shoir va adiblarga homiylik qilardi. Chunonchi, Muhammad Umarxonning o‘zi she‘r va adabiyotni nihoyatda qadrlar, she‘rlarini Amiriy taxallusi bilan bitardi. Uning hukmronlik davrida (1809-1822) Farg‘onada bir guruh iste‘dodli shoirlar davrasi vujudga keldi, ular orasida xonning xotini Nodirabegim ham bor edi. Taxminan 1822 yilda Yusuf Tun qator va hattot Yusuf Muhammad tomonidan 18 shoir asarlari to‘plami tuzib chiqiladi. Bu to‘plam

Qo‘qondagi shoirlar asarlari antologiyasi bo‘lib, keyinchalik ozroq nusxada toshbosmada chop etiladi.

Xonlikning so‘nggi hukmdori Xudoyorxon davrida saroy kutubxonasiga xususiy shaxslardan xarid qilingan ko‘pgina qo‘lyozma kitoblar qo‘shildi. Ayniqsa, Shahrisabz mullasi Muhammad Rahimdan tarix bo‘yicha ko‘pgina sharq qo‘lyozmalari olindi. Muhammad Rahimning o‘zi eski qo‘lyozma kitoblarni to‘plashga ishqiboz bo‘lib, yigirma yetti yil mobaynida Hindiston, Mo‘g‘uliston va boshqa mamlakatlar bo‘ylab sayohat qilar ekan, u yerlarda asosan qimmatli qo‘lyozmalarni topish va qo‘lga kiritish g‘amida bo‘ldi. Saroy kutubxonalaridagi kitoblardan asosan saroy mulozimlari va xizmatchilar foydalanishgan. Masalan, tarixchi Mirza Aziz qo‘lyozmalardan tez -tez foydalanib turardi. U «Qo‘qon xonligi tarixi» nomli katta hajmdagi kitobini tuzgan, unda Markaziy Osiyo davlatlari va mo‘g‘ul davlati tarixiga oid ma‘lumotlar ham qamrab olingan edi. Bu asarlarda Farg‘ona va Marg‘ilon shaharlari tarixiga doir materiallar yoritilgan. Marg‘ilon rus uezdi boshlig‘i huzurida yig‘ilgan ma‘lumotlar hamda boshqa shaxslarning tarjimayi hollari ham keltirilgan.

Qo‘qon xonlari saroyidagi kutubxona qo‘lyozmalari to‘g‘risidagi ayrim ma‘lumotlarni biz 1875 yilda Qo‘qonga qilingan yurish qatnashchilarining bergan ko‘rsatmalaridan bilib olamiz. Bu yurishda A. L. Kunga qo‘lyozmalar va boshqa madaniy boyliklarni to‘plash vazifasi topshirilganligi to‘g‘risidagi hujjatlarning xabar berishicha, unga iloji boricha mahalliy tillarda yozilgan kitoblar, qo‘lyozmalar va hujjatlarni to‘plash vazifasi yuklatilgan. Qo‘qon xoni saroyidagi kutubxonadan 103 ta qo‘lyozma olingan bo‘lib, ular asosan arab tilidagi diniy kitoblar (Qur‘on nusxalari, payg‘ambarlar, avliyolarning hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan kitoblar, musulmonlar rivoyatlari, to‘plamlari va shu kabilar) edi. Kitoblar orasida falsafa, mantiq, grammatika va notiqlik san‘atiga, tibbiyotga doir qo‘lyozmalar (masalan, «Bahr al-javohir» yoki Otabib Xorzaning «Marvarid dengizi»), 15 nomdan ortiq fors tilidagi asarlar, musulmon qonunchiligi, tarixiy mazmundagi «Tuhfat ul -xoniy» (Muhammad Rahimxon hukmronligi tarixi), Jigan Lodining «Tarixi Jahongiri», Shohruh davridan tortib Xudoyorxon davrigacha bo‘lgan Farg‘ona hamda Qo‘qon tarixi va boshqalarga doir kitoblar bo‘lgan. Qo‘qon xonlari saroyi kutubxonasidagi arab va fors tillaridagi, turk-

chigʻatoy lahjasida bitilgan qoʻlyozmalarning bir qismi Sankt-Peterburgdagi imperator xalq kutubxonasiga olib ketilgan. Buxoro amirligida saroy kutubxonalaridan tashqari beklarning kutubxonalari ham boʻlgan. Masalan, Shahrisabz bekligining asosiy shahri boʻlgan Kitobdagi kutubxona ancha mashhur edi. 1871 yilda Iskandarkoʻl ekspeditsiyasi vaqtida podsho qoʻshinlari shaharni egallayotgan paytda bekning saroyida A. L. Kun tomonidan 97 ta sharq qoʻlyozmalari, tibbiy, tarixiy, sheʻriy mavzudagi asarlar qoʻlga kiritilgan, ular asosan fors, arab va chigʻatoy tillarida yozilgan. Tarixiy asarlar orasida «Temur Husayn Mirzo tarixi», Hofiz Tanishning «Sharafnomayi shohi» yoki «Abdullanoma», Shayboniylar tarixi, Vosifiyning «Badoyi ul-vaqoye» (Eng ajoyib voqealar), «Muqimxon tarixi», Xondamirning «Xulosat ul -axbor» va boshqa asarlar oʻrin olgan edi.

Kutubxonada sheʻriy qoʻlyozmalar koʻp miqdorni tashkil etardi. Bu yerda Navoiy, Bedil va boshqa mashhur Markaziy Osiyolik mualliflarning toʻplamlari, shuningdek, arab va fors tillaridagi har xil asarlar oʻrin olgan.

Bu qoʻlyozma toʻplamlarining barchasi general-gubernator K. L. Kaufman tomonidan Sankt - Peterburgdagi imperator xalq kutubxonasiga sovgʻa qilingan va P. L. Lerx tomonidan tasvirlangan. Sharq qoʻlyozmalari saqlanadigan kutubxona Andijon begi Nasriddin (Xudoyorxonning oʻgʻli) saroyida ham bor edi. 1875 yilgi Qoʻqon yurishining ishtirokchisi A. L. Kun koʻproq kitoblar, qoʻlyozmalar va hujjatlar toʻplash maqsadida Andijonga keladi. Chunki Namangan, Margʻilon beklari va boshqa beklarning ham sharq qoʻlyozmalari va kitoblaridan iborat kutubxonalari boʻlgan. Qoʻqon xonlari saroyidagi kutubxona XX asrning boshlariga kelib tanazzulga uchraydi, qoʻlyozmalari va kitoblari oʻgʻirlab ketilib, bozorlarda sotiladi. 1902 yilda Qoʻqonga qoʻlyozma asarlarni aniqlash va oʻrganish maqsadida kelgan V. V. Bartold xonning saroy kutubxonasini koʻzdan kechirish chogʻida afsus bilan bunday deb yozgan edi: «Hozirgi vaqtda hech qanday qoʻlyozmalar toʻplami yoʻq, hatto Xudoyorxonning oz miqdordagi kitoblari qoldiqlari xam yoʻqolgan, ularni 1897 yilda K. G. Zaleman bu kutubxonaning sobiq saqlovchisi Sarimsoq hojinikida koʻrgan edi».

Biz yuqorida XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida madrasalar qoshida koʻplab kutubxonalar boʻlganligini, shuningdek, xususiy qoʻlyozmalar toʻplamlari

saqlanganligi tilga olib o'tgan edik. Madrasalar faqat xonlar sulolalari tomonidan emas, balki ayrim katta yer egalari bo'lgan boylar va hatto savdogarlar tomonidan barpo etilgan. Barcha yirik madrasalar huzurida sharq qo'lyozmalari jamlangan kutubxonalar bo'lgan. Bunday kutubxonalarning kitoblari asosan diniy mazmunda bo'lib, muallimlar (mudarrislar) va shogirdlar uchun zarur edi.

Ba'zan bu yerda tarixiy, huquqiy, falsafiy va dunyoviy mazmundagi qo'lyozmalarni ham uchratish mumkin edi. Bu xildagi kutubxonalarning boyligi madrasaning ahvoliga bog'liq, ular asosan xonlarning in'omlari, dindorlar va yuqori tabaqa vakillarining xayriyalari hisobiga to'ldirib borilgan. Madrasa kutubxonalari fondi ancha cheklangan. Agar o'tmishda Markaziy Osiyo madrasalari savodxonlik va ma'rifat tarqatishda muayyan rol o'ynagan bo'lsa, endilikda ular diniy mazmundagi bilimlarni berishardi.

Buxoro amirligidagi madrasalar huzurida katta kutubxonalarning bo'lganligi ma'lum. XIX asrning o'rtalarida faqat Buxoroning o'zida 15 dan ortiq yirik kutubxona bo'lgan. Ayniqsa, yirik feodallarning nomlari bilan bog'liq bo'lgan kutubxonalar juda shuhrat qozongan. Lekin XIX asrning ikkinchi yarmida Buxoro madrasasi huzuridagi kutubxonaning taqdiri ancha ayanchli kechdi. O'sha vaqtda Buxoro madrasalari huzuridagi vaqf kutubxonalarini xazinaga o'tkazish amir Muzaffarning tashabbusi bilan emas, balki qozikalon Sadriddinning tashabbusi bilan amalga oshdi. Qozikalon olimlik unvoniga ega bo'lmagani holda el orasida obro'si ham yo'q edi. Vaholanki, qozikalon o'zining yuqori mavqei bilan ajralib turishi lozim edi. Diniy mavzularda bahslar o'tkazilgan vaqtda u ko'pincha mudarrislar va a'lamlardan mag'lub bo'lib qolardi. Qozikalon mudarrislar, a'lamlar, muftiylarning bilimlari bois kutubxonalardan «o'ch olish»ga qasd qildi. U amirning ruxsati bilan ruhoniylarning beparvoligi tufayli madrasa kutubxonalaridagi barcha qo'lyozmalar va bosma nashrlarni qozixona idorasida saqlashga muvaffaq bo'ldi. Bu kitoblarning bir qismi keyingi yillarda amir kutubxonasiga o'tib ketdi, qozikalonning qo'lida saqlanayotgan qo'lyozmalarning ko'pchiligi qarovsiz qolganligi tufayli o'g'irlab ketildi va yo'qotildi. Hisor shahar madrasasi kutubxonasida ancha-muncha adabiyotlar to'plangan edi. Zamondoshlarning ma'lumot berishicha, Buxoro amirining tog'asi Sodiq to'ra madrasa kutubxonasini to'ldirish bilan doimiy

ravishda shug'ullangan. U Buxoroda ko'pgina qimmatli nodir qo'lyozmalarni sotib olib, bunga 75 ming tanga sarflagan. Bu kutubxona fondi inqilobdan keyingi yillarda Markaziy Buxoro kutubxonasiga kelib tushgan.

Shahrisabzdagi Malika Ajar madrasasi huzuridagi mulla Muhammad Rajab, Kamol bazzoz va Abrorxo'ja xatibning kutubxonalari shuhrat qozongan. Bu kutubxonalarda diniy mazmundagi qo'lyozma kitoblar bilan bir qatorda fors shoirlarining va boshqa mualliflarning she'riy to'plamlari, tarixiy mavzudagi qo'lyozmalar mavjud edi. XIX asrda Xiva xonligi hududida anchagina madrasalar, masjidlar bo'lganligi ma'lum. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, XIX asrning 40 -yillarida Xivada 22 ta madrasa bo'lgan. Eng yirik va boy madrasalar xonlik markazi Xivada edi. Masalan, Oллоhqulixon hayot bo'lgan vaqtda madrasa qad ko'targan bo'lib, uning huzurida katta kutubxona tashkil etilgandi, 1835 yilda kutubxona xonning shaxsiy kutubxonasidagi qimmatli adabiyotlar bilan to'ldirildi. Qo'qon xonligining katta shaharlaridagi madrasalar qoshida ham, garchi unchalik qo'lyozmalarga boy bo'lmasada, kutubxonalar bor edi. Toshkentda, XIX asrning ikkinchi yarmida 20 dan ortiq madrasa bo'lgan (Xo'ja Ahror, Baroqxon, Ko'kaldosh va boshqalar), A. A. Semyonovning tasvirlashicha, madrasalarning kutubxonalarida o'quv va amaliy-huquqiy mazmundagi arabcha qo'lyozmalar saqlangan.

Qo'qon xonligiga qarashli boshqa shaharlarning madrasalari ham bulardan qolishmagan. Andijonda 42 ta, Qo'qonda 36 ta madrasa bo'lgan. Qo'qondagi Ko'rxona masjidida saqlanayotgan qo'lyozmalar ancha qiziqarli, ularda Jo'ji ulusining ichki tuzilishi to'g'risida, Buxoro xonligidagi qabilalar haqida yozilgan tarixiy asarlar mavjud edi. Diniy mazmundagi adabiyotlar, xususan, Naqshbandiya tariqatining eng buyuk vakillari biografiyasi, Xo'ja Ahrorning qarindosh-urug'lari, nabiralari, vorislari biografiyalari keltirilgan kitoblar mashhur edi. «Bu yerda taqdim etilgan Muhammad Hoshimning asari,- deb yozadi A.Z. Validov,-o'ninchi asrning boshlaridan to o'n birinchi asrning ikkinchi choragigacha bo'lgan davrni qamrab oladi va o'sha davrdagi faqat so'fizmnigina o'rganish uchun emas, shu bilan birga Shayboniylar va dastlabki Ashtarxoniylar hukmronlik qilgan davrdagi Movarounnahrning siyosiy tarixini o'rganish uchun ham manba bo'lib xizmat qiladi». XIX asr oxiri XX asrning boshlarida bir qancha

qimmatli va qiziqarli qo‘lyozma asarlar Buxoro amirligi, Xiva xonligi va Turkiston o‘lkasi hududidagi madrasalar qoshidagi kutubxonalarda saqlanayotganligini aytib o‘tish kerak. Bu kutubxonalarga musulmon ruhoniylari, xonliklar ma‘muriyati va podsho amaldorlari tomonidan alohida e‘tibor bilan qaralgan, chunki hukmron sinflar madrasalar orqali o‘z mafkuralari targ‘ibotchilarini, o‘z sinflari manfaatini himoya qiluvchilarni tarbiyalar edilar. Shuning uchun ham aynan shu madrasalar huzuridagi kutubxonalarda qimmatli qo‘lyozmalar saglanib qolganligi bejiz emas. V.V.Bartold 1902 yilda Qo‘qonda bo‘lgan vaqtda bunday deb yozgan edi: «Shaharda men topishim mumkin bo‘lgan ma‘lum darajada nodir kitoblar va qo‘lyozmalar Ma‘dalixon madrasasida to‘plangan edi». U mazkur kutubxona qo‘lyozmalarini diqqat bilan ko‘zdan kechirar ekan, Osiyo muzeyi uchun iloji boricha ko‘proq qo‘lyozmalarni xarid qilishga harakat qildi, lekin narxi yuqori bo‘lganligi uchun bunda muvaffaq bo‘la olmadi. Madrasalar huzuridagi sharq qo‘lyozmalari saqlanayotgan kutubxonalarning ahvoli haqida o‘sha vaqtda, ya‘ni 1913 yilda Buxoroga va O‘rta Osiyoning boshqa shaharlariga tashrif buyurgan hindistonlik olim va sayohatchi Abdurauf hikoya qilgan. Uning ma‘lumot berishicha, Buxoroda 200 ga yaqin madrasa bo‘lib, ular uch toifaga bo‘linadi: oliy, o‘rta va quyi madrasalar. Deyarli barcha madrasalar o‘z kutubxonasiga ega, ulardagi qo‘lyozma boyligi vaqf va boshqa daromadlarning ahvoliga bog‘liq. U vaqf daromadlari bilan yaxshi ta‘min etilgan 11 ta katta kutubxonani ko‘rsatib o‘tadi. Bu kutubxonalarda o‘sha vaqtda mavjud bo‘lgan barcha kitoblar to‘plangan edi, kutubxonalar yangi chiqayotgan kitoblar va qo‘lyozmalarni sotib olish uchun 40000 tanga miqdoridagi muayyan vaqf mablag‘ini olganlar. Abdurauf ayrim kutubxonalarning tanazzulga uchraganligini, ularning kitoblari xizmatchilar va boshqa kishilar tomonidan talon -taroj qilinganini qayd qilib o‘tgan.

Kutubxonalarda o‘sha yillarda qimmatli sharq qo‘lyozmalari bor bo‘lganligini rus olimlari ularni jon deb sotib olganligi ham dalolat berib turibdi. Masalan, sharqshunos V. A. Ivanov 1915 yilda O‘rta Osiyoga kelgan bo‘lib, Buxoro madrasalarining vaqflarga qarashli kutubxonalaridan arab, fors, turkiy tillardagi ko‘pgina sharq qo‘lyozmalarini sotib olgan. Bu sotib olingan narsalar 1057 ta qo‘lyozmadan iborat Buxoro kolleksiyasini tashkil etgan. O‘zbekiston hududida XIX asraing ikkinchi yarmi XX asrning boshlarida, ayniqsa, Buxoro, Farg‘ona, Toshkentda xususiy qo‘lyozma kolleksiyalari va fondlari

ko‘p bo‘lgan. Xususiy qo‘lyozma fondlari va kolleksiyalari uchun xos bo‘lgan narsa shu ediki, ulardan dunyoviy mazmundagi adabiyotlar ko‘pchilikni tashkil etardi. Tarix, fikh, falsafaga doir qo‘lyozma asarlar, turli she‘riy to‘plamlar asosiy qismni tashkil etgan. Qo‘lyozmalar kolleksiyasini tashkil etuvchi har bir kishi uni o‘z shaxsiy manfaatlaridan kelib chiqib to‘ldirgan, kitoblar va qo‘lyozmalarni tanlashda nuqul subyektiv omil birinchi o‘rinda turgan. Xususiy qo‘lyozma kolleksiyasining eng ko‘p qismi Buxoro amirligi hududiga to‘g‘ri keladi. Bunga sabab, amirlikda ma‘rifatli kishilar ko‘pchilikni tashkil etgan, ko‘pgina kutubxonalar ancha ilgari vaqtda tashkil etilgan, avloddan-avlodga o‘tib kelgan. Odatda beklar, qozilar, mullalar va saroydagi amaldorlar bu yerga yaqin turuvchi shaxslar va ruhoniylar eng yaxshi qo‘lyozma kolleksiyalariga ega bo‘lishgan. Hisor shahrida istiqomat qiluvchi kutubxonashunos, nodir qo‘lyozmalar ishqibozi Qushbegi Ostanaquli sharq qo‘lyozmalarining ancha qiziqarli kolleksiyalariga ega bo‘lganligi ma‘lum. U Hisor tarixi va sharqiy Buxoro tarixiga doir ko‘plab qo‘lyozma asarlarni to‘plagan. Uning qo‘lyozma kolleksiyalarida hatto papirus qog‘oziga yozilgan qo‘lyozmalar ham bo‘lgan. Ostanaqulining vafotidan keyin bu qimmatbaho kolleksiya amirning kutubxonasiga topshirilgan. Qarshi shahridagi mulla Najmiddin kutubxonasida ancha qimmatli sharq qo‘lyozmalari bo‘lgan. Bu yerdagi deyarli barcha asarlar Alisher Navoiy va Husayn Boyqaroning zamondoshi mulla Husayn Koshifiyga qarashli edi. Eski arab qo‘lyozmalari, she‘riy to‘plamlar, chig‘atoy shoiri Lutfiyning she‘riy to‘plamlari, mashhur shoir Sayyodning «Eron shohlari tarixi» asari, Alisher Navoiyning asarlari mavjud edi. Astronomiya, fikh, ilohiyot bo‘yicha fors tilidagi qo‘lyozmalar soni anchagina bo‘lib, ularning ko‘pchiligi juda sifatli qog‘ozlarga atoqli hattotlar tomonidan ko‘chirilgan edi.

Buxoroda yashagan shayx Yahyo xoja Sadurga qarashli sharq qo‘lyozmalari kolleksiyasi diqqatga sazovordir. Bu yerda Abdullaxon Shayboniy davridan buyon Jo‘ybor shayxlari tarixi bo‘yicha qo‘lyozmalar, Muhammad Islomxo‘ja Jo‘yboriyning Abdullaxon, uning qarindoshlari va Ashtarxoniylar sulolasininig dastlabki vakillari bo‘lgan boshqa shaxslar bilan olib borgan yozishmalari va tarjimai holi taqdim etilgan edi, Yozishma Jo‘yboriy shayxlar xonlarga qanday ta‘sir ko‘rsatganligi va ular hokimiyatning ashtarxoniylar qo‘liga o‘tishida qanday rol o‘ynaganligini aniqlash uchun

qimmatli manba hisoblanadi. Kolleksiya Ibn Sinoning «Tib qonunlari» asari va boshqa qo‘lyozmalar bor edi. Qadimshunos va sharqshunos V.L. Vyatkin mazkur kolleksiyadagi qo‘lyozma asarlarning qimmatini ma’lum qilgan edi. «Agar pul to‘plasm-deb yozgan edi u,-bahorda Buxoroga bormoqchiman va u yerda Jo‘yborlarni qidirib topaman, ularning kitobparvarligini ilgari ham eshitgan edim».

Buxoroning qozikaloni Burhoniddinning kutubxonasi ancha qiziqarli. Ayniqsa, unda tarixiy asarlar ko‘p bo‘lib, ular orasida Chingizxon va uning avlodlari tarixi, Boburning Ubaydullaxon bilan kurashi tarixiga doir va boshqa asarlar mavjud bo‘lgan.. Sobiq Qo‘qon xonligi hududida Yunusxon dodho Muhamedovning kitoblar kolleksiyasi qimmatli asarlari bilan ajralib turgan. Unda chig‘atoy, fors, arab, turkiy va boshqa tillardagi nasriy va nazmiy asarlardan iborat qadimgi qo‘lyozmalar to‘plangan. Bu yerda Qo‘qon xonligi tarixi, Badaxshondagi 1657-1809 yillarda bo‘lib o‘tgan voqealar va shaxslar tarixiga, 1703 yilgacha bo‘lgan Qashg‘ar xojalarining tarixiga doir asarlar qo‘yilgan edi. Ayrim qo‘lyozmalar qo‘qonlik xonlar, shayxlarning hayoti va faoliyatini yoritib beradi. Kolleksiya farg‘onalik shoir Sa‘diy, Chig‘atoy shoiri Lutfiy va boshqalarning turli she‘riy to‘plamlariga boy edi. Lug‘atlar ham topilardi, xususan chig‘atoy - fors lug‘ati qiziqarli bo‘lib, u mulla Yoqub Changiy tomonidan Hindistonda Avrangzeb (1659-1707) davrida tuzilgan, undagi anchagina qo‘lyozmalar diniy va tasavvufiy mazmundagi asarlardan iborat edi. Qo‘qonda V. V. Bartoldning shogirdi, sharqshunos va etnograf M. V. Gavrilov kichikroq bo‘lsa ham, ancha qiziqarli qo‘lyozmalar majmuiga ega bo‘lgan. U Qo‘qonlik Xudoyorxon podsholigi (1845-1858) davri tarixi bo‘yicha Abdulg‘affor tomonidan yozilgan she‘riy asar, Amin Ahmad Roziyning «Yetti iqlim», Mirxondning «Tozalik bog‘i» va boshqa asarlarini to‘plagan. Marg‘ilonda Ibrohimxo‘ja Muhammadxo‘jayevning kitob to‘plamlari orasida Xondamirning asarlari, Mirza Muhammad Qosim al -Husaynning qalamiga mansub asarlar, Ubaydullaxon saroyidagi shoirlar va xonning o‘zi ijod qilgan she‘riy to‘plamlar uchraydi.

Farg‘ona viloyati boshqarmasining tarjimoni bo‘lib ishlagan Y. K. Kazbekov ham bir qancha qo‘lyozmalarga sohiblik qilgan. Unda 1886 yilda yozilgan «Qo‘qon xonligi tarixi», shu nomdagi yana bir asardan parchalar, Xo‘ja Ahrorning Abu Said va

Abdurahmon Jomiy she'rlariga sharhlari. Jamol Qarshiy va boshqalarning asarlari jamlangan edi. Uning kitoblari orasida Xudoyorxon davriga taalluqli anchagina rasmiy hujjatlar ham topilgan.

Andijonda boshqa xususiy qo'lyozmalar orasida mingtepalik eshon Muhammad Ali Sobirovning qo'lyozma fondi diqqatni tortadi, bu kishi Dukchi eshon nomi bilan mashhur bo'lgan. Professor V. A. Jukovskiyning fikriga ko'ra, bu to'plamlar «so'fizm tarixi va musulmon sektalari tarixiga qiziqish uyg'otadi». Andijonda 1898 yilda bo'lgan qo'zg'olon bostirilgandan keyin eshonning kutubxonasi musodara qilingan va uning bir qismi N. P. Ostroumovning iltimosi bilan Turkiston arxeologiya ishqibozlari to'garagiga berilgan, keyinchalik 194 ta qo'lyozma Turkiston xalq kutubxonasiga keltirilgan va bu bilan YE. F. Kal hali hayotligi vaqtidayoq sharq qo'lyozmalari fondi yaxshigina to'ldirilgan. Bu yerda Farididdin Attor asarlari, kasonlik shayx Mahmud Azimiyning (1542 yilda vafot etgan) tarjimayi holi, O'tamish hojining «Chingiznoma», G'iyosiddin Alining asarlari bor edi, ular bilan 1902- yilda V.V. Bertold ham qiziqqan. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, xususiy qo'lyozma fondlari Samarqand, Toshkent, O'sh, Namangan va boshqa shaharlarda ham mavjud bo'lib, bu joylar sobiq Qo'qon xonligiga qarardi.

Qadimshunos va tarixchi V. L. Vyatkin sharq qo'lyozmalaridan iborat qiziqarli kolleksiyaga ega edi. U Markaziy Osiyoda ishlagan davrida 190 jilddan iborat durustgina qo'lyozmalarni (asosan inqilobdan oldingi davrga taalluqli) to'plashga muvaffaq bo'lgan. Tarixiy- geografik, tarixiy-diniy mazmundagi qo'lyozmalar uning kolleksiyasidan ancha keng o'rin olgan. Ularda darveshlik harakati batafsil yoritilgan, darveshlik nazariyasi rahbarlarining qarashlari aks etgan. Qo'lyozmalarning yozilish vaqtiga kelsak, ular shayboniylar davriga to'g'ri keladi va shu davrni ancha to'liq aks ettiradi. Qo'lyozmalar orasida XIV asrning mashhur tarixchilari qalamiga mansub asarlar, xususan, Mahmud G'ijduvoniyning shayx Kamoliddin Xorazmiy hayotining tasviriga bag'ishlangan «Mitfax ut-talibin» (Intiluvchilar uchun kalit) asarining ko'chirilgan nusxasi, balxlik Abdulloning «Zubdat ul-asar» (Hikoya qilish qaymog'i) nomli qo'lyozmasi bo'lgan. Bu o'sha vaqtda umumiy tarixga doir o'zbek tilida bitilgan dastlabki asarlardan biri edi. Qo'lyozmada Muhammad Shayboniyxon va uning vorislaridan Suyun Hoji voqealari

bilan bog'liq manbalar o'z ifodasini topgan. V.L.Vyatkinning kolleksiyasiga V.V. Bartold ham katta qiziqish bilan qaragan. 1902 yilda Samarqandda bo'lgan vaqtida qo'lyozmalar bilan tanishib chiqadi, ular ajoyib miniatyuralar bilan bezatib ko'chirilgan edi. Boshqa qo'lyozmalar orasida tarixchi at Tabariyning asarlarini, Sa'diyning she'riy to'plami va boshqalarni ko'rish mumkin. 1902 yilda «Turkestanskiye Vedomosti» gazetasi Muhiddinxo'janing butun qo'lyozmalarini Turkiston xalq kutubxonasiga sotib olishga da'vat qilib chiqdi, lekin birorta ham qo'lyozma sotib olinmadi.

Toshkentlik Boqijon boyning to'plagan qo'lyozmalari orasida tarixga doir asarlar ancha qiziqarli edi. U XVII asrdagi chig'atoylik Ismoilxon (1670-1682) ning ko'rsatmasi bilan Mirza Shomahmud Churas tomonidan tuzilgan Qoshqariyaning tarixiga doir nusxaga ega edi. Ko'pgina tarixiy qo'lyozmalar rasmlar bilan bezatilgandi, masalan, Amir Temurning harbiy yurishlari to'g'risidagi qo'lyozma 12 ta ajoyib miniatyura bilan ziynatlangan. Ularda 1374-1382 va 1387 yillarda Eronga qilingan yurishlar, Turkiya, Misrda olib borilgan urushlar, Temurning o'g'li Jahongirning nikoh to'yi aks ettirilgandi. Bu kolleksiya qo'lyozmalari bilan 1916 yilda V. V. Bartold ham qiziqqan.

Sobiq Shahrisabz hukmdori, general mayor Jo'rabekning Toshkentda sharq qo'lyozmalari kolleksiyasi bo'lgan. XIX asrning oxirlarida unda, A.A. Semyonovning fikricha, bilimlarning turli sohalariga doir 60 dan ortiq qo'lyozma bor edi. 1906 yilda Jo'rabek o'ldirilgandan keyin qo'lyozmalar uzoq vaqt qarovsiz yotgan, ishdan chiqqan va o'g'irlab ketilgan. Mahmudbek Valining «Sirlar dengizi» asari dastlabki uch qismining birdan- bir mashhur nusxasi ham yo'qotilgan. 1912 yilda qo'lyozmaning yarim -yortisi saqlanib qolgan bo'lib, V.V.Bartoldning tashabbusi va A.A.Semyonovning ishtirokida ular Jo'rabekning Qorasuvdagi (Toshkent) uyidan olib ketilgan. Bu qo'lyozmalarning shundan keyingi taqdiri bunday bo'lgan: Oktabr to'ntarishidan keyin bu kolleksiya Toshkent Sharqshunoslik instituti tomonidan sotib olinib, so'ngra SAGU (hozirgi O'zMU Sharq fakulteti kutubxonasiga keltirilgan, keyinchalik universitetning asosiy kutubxonasi fondiga qo'shilib ketgan. 1935 yilda 35 ta qo'lyozma A.A. Semyonov tomonidan tuzilgan tavsifga kiritilgan va e'lon qilingan. Sharq tillarining, xususan, fors-tojik tilining bilimdoni bo'lgan A. A. Semyonov (1873-1957) ham ancha boy qo'lyozmalar kolleksiyasiga ega edi. Xizmat taqozosi bilan Turkiston o'lkasida turgan

olim 1900 yildan boshlab tez-tez o'lkaning turli joylariga borar, u yerlarda moddiy madaniyat yodgorliklarini tadqiq qilar, ayni vaqtda turli qo'lyozma asarlarni to'plar va o'rganar edi. U asosan 1915-1916 yillarda to'plagan Ismoil qo'lyozmalari hisobiga kolleksiya tuzgan.

Qo'lyozmalarning ko'pchiligi diniy mazmunda bo'lib, nasriy va she'riy asarlardan tashkil topgan. Bu yerda Nosir Xusravning «Barcha diniy kitoblarning onasi», A. Muhammadning «Ishonch qiyofasi», «Haqiqatlar guli», yana Nosir Xusravning «Sayohat kitobi» kabi asarlar bor edi.

A.A. Semyonov shundan keyingi yillarda sharq qo'lyozmalarini to'plashni davom ettirdi. Uning hayotining oxirgi yillarida ham shaxsiy kutubxonasida 150 dan ortiq o'zbek, tojik (fors) va arab tillaridagi g'oyat qiziqarli qo'lyozmalar mavjud bo'lib, uni olim o'zining O'rta Osiyodagi o'z ilmiy faoliyati mobaynida o'nlarcha yillar davomida to'plagan edi.

A.A. Semyonov vafot etgandan keyin uning kutubxonasi va sharq qo'lyozmalari kolleksiyasi Tojikiston Fanlar akademiyasi Tarix institutiga topshirilgan.

Sharqshunos va etnograf N. S. Likoshin, mashhur orientalist N. F. Petrovskiy, samarqandlik advokat S. A. Lapin, toshkentlik sharqshunos D. Granenskiy va boshqa ko'plab olimlarning ham shaxsiy kutubxonalarida ancha-muncha sharq qo'lyozmalari bo'lgan

XXV-Bob XVIII-XIX asrlarda o'zbek xonliklarida kitob savdosi

Hozirgi O'zbekiston hududining bir qator shaharlarida ko'p sonli va ba'zida katta-katta kitob bozorlarining bo'lganligi o'lkada kutubxonalar, sharq qo'lyozmalariga ega bo'lgan kolleksiyalar mavjud bo'lganligidan dalolat beradi. Bu kitob bozorlari o'zining chuqur ildizlari bilan uzoq tarixga borib taqaladi. Biz yuqorida VIII asrdayoq somoniylar davlatida ancha katta kitob bozorlari bo'lganligini qayd etib o'tgan edik. Undan keyingi asrlar Amir Temur va temuriylar, shayboniylar, ashtarxoniylar davrida ham kitoblar bilan savdo qilish to'xtagan emas. Vaqti-vaqti bilan kitob savdosi avj olib, goh tanazzulga uchrab turgan, bunga u yoki bu davlatning umumiy madaniy yuksalishi va hayot-faoliyati ta'sir qilgan.

Ayniqsa, XVIII asrning boshlaridan e'tiboran kitob savdosi keng avj olgan. Markaziy Osiyoda kitob savdosi bo'lmaydigan shaharlarni topish amri mahol edi. Faqat Yettisuv va Zakaspiy viloyatlarida kitob savdosi aytarli yo'lga qo'yilmagan. Buxoro shahri kitob bozorlarining ko'pligi bilan azaldan tanilib kelgan. Samarqandda ham, Farg'onada ham, Qarshida ham, boshqa shaharlarda ham bunchalik keng kitob bozorlari yo'q edi. Faqat Samarqand Temur va temuriylar davrida kitob bozorlarining ko'pligi jihatidan Buxoroga yaqinlashib olgan. O'sha vaqtlarda shahar siyosiy va madaniy jihatdan gullab -yashnadi, adabiyot, fan va san'at ravnaq topdi. Katta kitob bozorlarida hamisha qo'lyozmalar va bosma nashrlarni sotadigan maxsus qatorlar (rastayi kitob furushon) bo'lgan. Ana shu kitob rastalarida badiiy jihatdan yaxshi bezatilgan va miniatyura rasmlari bilan ziynatlangan eski qo'lyozmalarni, xilma-xil mazmundagi kitoblarni, Yaqin va O'rta sharqdagi turli mamlakatlardan olib kelingan asarlarni topish mumkin edi.

XIX asrdagi kitob bozorlari haqidagi ma'lumotlarni biz chet el yozuvchilari va sayohatchilarining, rus sharqshunos olimlari va O'rta Osiyo davlatlariga tashrif buyurgan boshqa shaxslarning esdaliklaridan bilib olamiz. Masalan, 1812-1813 yillarda O'rta Osiyo bo'ylab sayohat qilgan Mir Izzatullaning yozishicha, Buxoro shahrining markazida savdo inshootlari tevaragida ko'pgina kitobfurushlar savdo qilishgan ekan. Bu kitob bozoridagi savdo haqida venger sayohatchisi A. Vamberi ham hikoya ham qilgan. U O'rta Osiyoni Chor Rossiyasi bosib olishi arafasida bu yerda bo'lgan vaqtida maxsus kitob bozorlarini borib ko'rgan, bunday bozorlarning birida 26 ta do'koncha borligini hisoblab chiqqan. Kitoblarni ulgurji sotish karvonsaroylarning bevosita o'zida amalga oshirilgan. XIX asrning oxirida Toshkentdan tashqari Turkistondagi birorta ham shaharda yevropacha tipdagi kitob do'koni bo'lmagan. Biroq, hatto general-gubernator poytaxtidagi Shvarsning kitob do'konchasidan turli eski-tuski kitoblarni xarid qilish mumkinligini «Toshkentda kitob savdosi» maqolasining muallifi ma'lum qilgan edi.

Kitob savdosining keng avj olganligi qo'lyozmalarni ko'chirish sohasini ancha jonlantirdi, deb aytish mumkin. Turkistonda xizmat qilgan shtab maslahatchisi Bekchurin Xo'jandning madaniy hayotini tasvirlar ekan, «mahalliy madrasalarda qo'lyozma kitoblarni ko'chirish keng yo'lga qo'yilgan edi», deb yozadi. Uning

ta'kidlashicha, sotish uchun qo'lyozmalarning ko'pchiligi Buxorodan va Turkistonning boshqa shaharlaridan olib kelingan. Kitoblarni ko'chirib yozish sohasi ancha yuqori edi: ko'chiruvchilarning qog'ozga ko'chirilgan 16 sahifali matnning bahosi xatlarning chiroyli bo'lishiga qarab 50 tiyindan bir so'mgacha turardi. Bekchurinning fikricha, qo'lyozmalar ko'pgina xatolar bilan ko'chirilgan. Buning ustiga bu yerda yaxshi qog'oz navlari yo'q. Qo'qonda ishlab chiqariladigan «jondori» qog'ozi bilan «Nim kabobi» qog'ozi dag'al va nosilliq edi. XIX asrning ikkinchi yarmida o'zbek adabiyoti tarixidagi katta voqea kitob chop etishning paydo bo'lishidir. Natijada kitob bozorlarida toshbosmada chop etilgan kitoblar ham sotiladigan bo'ldi. Ma'lumki, Markaziy Osiyo bosib olinmasdan oldin bu yerda bosmaxonalar bo'lmagandi, mahalliy kitob nashr etishning yuzaga kelishi o'lkadagi iqtisodiy va madaniy o'zgarishlarning natijasidir. Dastlabki bosmaxona bu yerda 1868 yilda Turkiston harbiy okrug shtabi huzurida ochildi. O'sha yili unda chop etilgan dastlabki asar rus olimi N.A. Seversevning kitobi bo'ldi, keyin rus va mahalliy tillarda kitoblar hamda gazetalar bosila boshladi. Shundan keyingi yillarda o'lkada bir qator davlat va xususiy bosmaxonalar paydo bo'ldi. Markaziy Osiyoda keng tarqalgan, ancha arzon va texnik jihatdan oddiy bo'lgan usul- kitob bosishning litografiya (toshbosma) usuli bo'ldi. 1874 yilda Xiva xoni Sayyid Muhammad Rahimxon II saroyida birinchi toshbosma bosmaxonasi ochildi. Dastlabki kitob bosuvchi Xorazmda tug'ilib o'sgan yosh turkman yigiti Otajon Abdalov bo'ldi. U 1873 yildan boshlab rus maktabida o'qidi, 1874-1878 yillarda Xiva xoni tomonidan ishlashga taklif qilingan eronlik Ibrohim Sultondan toshbosmada kitob bosish ishlarini o'rgandi. Ibrohim Sulton tomonidan tuzilgan «1871 yil taqvimi» o'zbek tilida chop etilgan deyarli birdan-bir bosma nashr bo'ldi, 1872- yilda u qaytadan bosildi. O'zbek bosma nashrining bu nodir yodgorligi Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasida saqlanmoqda.

Toshbosma usulida nashr etilgan adabiyotlar nihoyatda xilma-xil bo'lib, ularning aksariyat qismi diniy mazmundagi kitoblardan iborat edi. Toshkentda o'zbek tilida bosilgan dastlabki toshbosma usulidagi kitob XVIII asrning taniqli o'zbek tasavvufchi shoiri So'fi Olloyorning «Kitob sabot ul-ojizin» (Ojizlarning qat'iyati) asari edi. Xivadagi toshbosmada 1880 -yilda Alisher Navoiyning mashhur «Xamsa» asari chop etildi. Ana shu yillarda Munis Xorazmiyning «Devoni Munis» va «Devoni Rojiiy» asarlari va boshqa

bir qator kitoblar dunyo yuzini ko'rdi. Bu kitoblar sotuvga chiqarilmasdan xonning yaqinlari, tashrif buyurgan elchilar va savdogarlar o'rtasida tarqatildi. XIX asr oxiri XX asrning boshlarida Toshkentda ham toshbosma usulida kitoblar nashr etish birmuncha avj oldi, bu ish bilan kamida yettita bosmaxona shug'ullandi. Ana shunday toshbosma korxonalaridan biri va eng kattasi 1907 yilda ochilgan G'ulom Hasan Orifjonov bosmaxonasi bo'ldi. Dastlabki yillarda asosan, tasavvufiy adabiyotlar bosilgan. Shuni ham aytish kerakki, XX asrning boshlarida sharqning mumtoz badiiy adabiyoti vakillarining asarlari kamroq bosilardi. Shunga qaramasdan mahalliy tillarda bosma asarlarning paydo bo'lishi o'lkaning madaniy taraqqiyotida olg'a tashlangan katta odim edi.

Turkiston o'lkasida noshirchilik kitob bozorining o'zgarishiga jiddiy ta'sir qildi. Qo'lyozma asarlar birmuncha kamaydi, lekin shunga qaramay ular kitob bozorida asosiy manbalardan biri bo'lib qolaverdi. Kitob bozorlariga qo'lyozmalar xususiy kutubxonalardan kelib tushar, ayniqsa, ularning egalari vafot etgandan keyin shunday bo'lardi. Bunday vorissiz qolgan kutubxonalar yoki ularning nodon vorislari qo'lyozmalarni olib-sotarlarga arzimagan pulga sotib ketishardi. Anchagina qo'lyozma asarlar Turkiya, Eron va Qozon, Hindistondan (Bombey) kelib turardi. Qo'lyozmalarni xarid qiluvchilar asosan mahalliy aholi orasidan chiqqan bilimdon kishilar, kelgindi rus olimlari va boshqa kishilar bo'lgan. Xorijlik olib-sotarlar-antikvar firmalarning agentlari, xususan, afg'onlar, eroniylar va armanlar ko'plab kitoblarni xarid qilishardi. Ular Buxoroda va O'rta Osiyoning boshqa shaharlarida uzoq vaqt yashab, ko'proq qimmatbaho, miniatyura rasmlar bilan bezatilgan qo'lyozmalarni xarid qilishar, vatanlariga qaytib borganlaridan keyin ularni ancha yuqori narxlarda sotishardi. Qo'lyozmalarni nafaqat xususiy shaxslar, shu bilan birga ko'pincha kutubxonalar ham sotib olardi. XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida Markaziy Osiyoga xorijiy olimlar tez-tez kelib turishgan. Ularni ilmiy jamiyatlar Sharq qo'lyozmalarini xarid qilish uchun yuborishgan. 1902 yilda V.L. Vyatkin afsuslanib bunday deb yozgan edi: «Qo'lyozmalar tobora kamayib bormoqda ularni xorijiy kutubxonalar va shaxslar uchun xarid qilishmoqda». V. L. Vyatkin eski qo'lyozmalarni rus olimlari ham, O'rta Osiyo xalqlari yozma yodgorliklarini mahalliy qadrllovchilar va ishqibozlari ham muhofaza qilish va

qidirib topish sohasidagi ishlarni keng avj oldirib yuborishlarini qattiq turib talab qilgan. Rossiya Akademiyasi, O'rta Osiyo muzeyining direktori K. G. Zaleman ham bu qo'lyozmalarni yaqin kelgusida har xil xorijiy olib sotarlar tomonidan olib ketilishi mumkin, hozircha ular o'zlarining agentlari orqali miniatyurali qo'lyozmalarni sotib olmoqdalar, deb ta'kidlagan edi.

XXVI-Bob Sharq qo'lyozma kitoblarini to'plash va saqlashda Turkistondagi mahalliy muassasalar va olimlarning roli

XIX asrning oxirlarida qo'lyozma kitob kolleksiyalari asosan ayrim jamoat kutubxonalarida huzurida shakllandi. Masalan, Toshkentdagi Turkiston o'qituvchilar seminariyasi kichikroq sharq qo'lyozmalari to'plamiga ega edi. Samarqand shahridagi 1907-yilda ochilgan va musulmon kutubxona - qiroatxonasida ham birmuncha miqdorda sharq qo'lyozmalari bo'lgan. Mazkur kutubxona-qiroatxona mahalliy aholining xayriya mablag'lari hisobiga tashkil etilgan bo'lib, Registondagi Mirzo Ulug'bek masjidi binosida joylashgan. 1901-yilda sharqshunoslar jamiyatining Toshkent bo'limi vujudga keldi va o'zining kutubxonasiga ega bo'ldi. Sharq qo'lyozmalarini aniqlash va o'rganishda Turkiston xalq kutubxonasi katta rol o'ynadi, bu kutubxona Toshkentda 1870 yilda ochilgan. Dastlab bu kutubxonada sharq qo'lyozmalari borligi, Parijdagi Sharq tillari maktabining professori K.Uifalvi de Meza Kavej tomonidan eslatib o'tiladi. U Turkiston bo'ylab etnografik va arxeologik sayohat uyushtirib, Turkiston xalq kutubxonasida ham bo'lgan. Turkistondagi rus ziyolilaridan birinchi bo'lib D. Gramenitskiy sharq qo'lyozmalarni to'plash va saqlash to'g'risida taklif kiritgan. U Turkiston kutubxonasini faqat sharq qo'lyozmalari saqlanadigan kutubxonaga aylantirish to'g'risidagi taklifni ilgari surdi, biroq bu reja ma'qullanmadi. Ma'lumki, kutubxona tashkil topgan vaqtdan boshlab dastlabki o'n besh yil mobaynida o'lkaning harbiy ma'muriyati tomonidan Markaziy Osiyo hududida 1871-1876 yillarda to'plangan qo'lyozmalar kutubxonaga kelib tushmagan, balki odatda Sankt-Peterburgga yuborib turilgan. Kutubxonaning sharq qo'lyozmalarini qidirib topish va xarid qilish sohasidagi

ishlari tasodifiy xususiyatga ega edi, shuning uchun ham qo‘lyozma kitoblar nihoyatda sekinlik bilan to‘planib borayotgan edi. Kutubxonadagi sharq qo‘lyozmalarining dastlabki katalogini A. L. Kun tuzgan bo‘lib, u jami 57 ta raqamni qamrab olgan. Qo‘lyozmalarni to‘plash va kutubxonada qo‘lyozmalar kolleksiyasini tashkil etish, keyin sharq kitoblari va qo‘lyozmalari bo‘limini ochish sohasidagi dastlabki qadamlar A. L. Kun nomi bilan bog‘liqdir. A.L. Kun bilan bir qatorda kutubxona uchun qo‘lyozmalar to‘plash bilan sharqshunoslar N.N. Pantusov, S.M. Gramenitskiy YE.F. Kal, Rostil‘avov va boshqalar ham shug‘ullangan. 1889 yilda yosh sharqshunos Yevgeniy Fyodorovich Kalning shaxsiy tashabbusi bilan xalq kutubxonasining sharq qo‘lyozmalarini ilmiy jihatdan tasvirlab chiqish tugallandi, u tasvirlash vaqtida CH. Rening yevropacha saqlashdan iborat mashhur va ancha nufuzli katalogidan foydalandi. YE. F. Kalning katalogi o‘ziga 126 ta turli asarlardan tashkil topgan 87 jildni qamrab olgan, bu esa Turkiston xalq kutubxonasidagi qo‘lyozmalar to‘plamining mazmuni haqida xulosa chiqarish imkonini beradi. Katalogga kiritilgan qo‘lyozmalar asosan Markaziy Osiyo, Eron va Hindiston tarixiga doir bo‘lib, ulardan 78 tasi forscha (tojikcha), 19 tasi arabcha va 29 tasi turkiy (o‘zbek) tilidagi qo‘lyozmalar edi.

Turkiston xalq kutubxonasining kolleksiyasi fors tilidagi adabiyotlarga ancha boy bo‘lib, bu yerda eng yangi va o‘rta asrlar tarixiga doir bir qator qimmatli asarlar bor edi. Shular qatorida Alibek Jalol al Islorning «Temur tarixi» (hijriy 801 yilgacha), Muhammad Vafo Karmanaviyning 1134 yildan 1170 yilgacha bo‘lgan Movarounnahr tarixi va boshqa asarlar bo‘lgan. Turkiy qo‘lyozmalar orasida Abulg‘ozi Bahodirxonning «Xiva turkmanlari tarixi» (chamasi «Shajarayi turk» asari bo‘lsa kerak, hijriy 1071 yilda tuzilgan) asari, Hoji Muhammad Hakimxon To‘raning (1843) yilda yozilgan «Solnoma (tarix)dan parchalar» asari qo‘lyozmalari diqqatga sazovordir. Arab bo‘limi haqida gap borganda, mashhur sharqshunos V. R. G‘oziyning so‘zlariga ko‘ra, undagi fiqh ilmi bo‘yicha risolalar aqidaparastlik, mantiq va grammatika bo‘yicha eng oddiy risolalardan iborat edi. 1881-yil 16 sentabrda YE.F. Kal Termizda yurak falajidan to‘satdan vafot etadi, u Buxoro amirligining sharqiy tumanlarida xizmat safarida bo‘lgan vaqtida og‘ir bezgak kasaliga uchragan edi. Uning vafotidan keyin kutubxona qo‘lyozmalarini o‘rganish uzoq vaqtgacha to‘xtatiladi. Qo‘lyozmalarni to‘ldirish sekinlik bilan boradi.

Toshkentlik bibliograf, Turkiston xalq kutubxonasini birinchi direktori N. V. Dmitrovskiyning ma'lum qilishicha, 1895 yilda qo'lyozmalar fondida faqat 90 ga yaqin qo'lyozma bo'lib, ular sharq tillarida bo'lgan. 1890 yildan boshlab kutubxonaga sharq qo'lyozmalarining kelib turishi birmuncha jonlandi, bunga o'lkaning boy tabiiy boyliklari va bu yerda yashovchi xalqlarning madaniy merosini o'rganish bilan shug'ullangan rus olimlari, ilmiy jamiyatlar va to'garaklar yordam berdi. Shunisi diqqatga sazovorki, bu ishda Turkiston o'lkasida tug'ilganlar, xususan, samarqandlik qadimgi ashyolar va osori-atiqalarni to'plovchi Mirza Buxarin, toshkentlik kolleksioner Akram Asqarov. buxorolik qadimiy ashyolarni to'plovchi Muhammad Vafo va boshqa ko'plab kishilar faol ishtirok etdilar. YE.F.Kaldan keyin birinchi marta qo'lyozmalar fondlarining sharq qo'lyozmalari bilan to'ldirilishi 1891 yilda sodir bo'ldi. Bu vaqtda kutubxona birinchi o'zbek arxeologi, tangalar va qadimgi ashyolarning mashhur to'plovchisi savdogar Akram Asqarovning merosxo'rlaridan Qur'onning izohli qo'lyozmasini, shoir Mirza Bedilning she'rlar to'plamini, Sayyor Sharifning avliyolar hayotidan hikoya qiluvchi asarini va boshqa bir qator kitoblarni sotib oldi, ularga bor yo'g'i 102 so'm to'landi. 1898 yilda Turkiston o'lkasidagi birinchi o'zbek gazetasining asoschisi va muharriri N.P. Ostroumovning (1846-1930) iltimosiga ko'ra, Turkiston xalq kutubxonasiga mingtepalik eshon Andijon qo'zg'olonning qatl qilingan rahbari Muhammadali Sobirovning (laqabi Dukchi Eshon) shaxsiy kutubxonasidan musodara qilingan 194 ta qo'lyozma topshirildi. V.Bartoldning yozishicha, bu 1880 yillardan buyon qo'lyozma to'plamlariga kelib tushgan jiddiy qo'shimcha edi. Akademik V. V. Bartold bir necha o'n yillar mobaynida Turkiston xalq kutubxonasi bilan mustahkam va do'stona aloqada bo'lib keldi. U Toshkentga bir necha marta kelar ekan, har gal kutubxonaning qo'lyozmalar bo'limi ahvoli bilan qiziqar, qo'lyozmalar to'plash va ularni o'rganish qanday holatda ekanligini so'rab surishtirardi. 1902 yilgi yozgi xizmat safari vaqtida u qo'lyozmalar to'plami bilan batafsil tanishib chiqadi, bu yerda sharq qo'lyozmalarining G'arbiy Yevropadagi eng muhim kataloglari yo'qligini, bularsiz qo'lyozmalarni to'liq tasvirlab bo'lmasligini qayd qiladi. V. V.Bartoldning fikricha, Mingtepadagi singari qo'lyozmalar to'plamlari kutubxonada ko'proq bo'lishi lozim, buning uchun, olimning ta'kidlashicha, «Agar o'lkada mavjud

bo'lgan va hali hech kim tomonidan tadqiq qilinmagan kitob xazinalarini rus fani uchun saqlab qolishni istasak, butun kuch -quvvatimizni sarflamog'imiz zarur».

V. V. Bartoldning tavsiyasi bo'yicha Turkiston xalq kutubxonasi general Jo'rabekning qo'lyozmalar to'plamidan Rashiddinning «Jome at-tavorix», Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asari qo'lyozmalarini sotib oldi, ular ajoyib miniatyuralar bilan bezatilgan edi.

V.V.Bartold o'lkada vakolatli shaxslarning yo'qligi tufayli qo'lyozmalarni qidirib topish va sotib olish ishlari muntazam ravishda olib borilmayotganligini ham qayd qilib o'tadi. U vatanparvar olim va ilm-fanga nihoyatda berilgan shaxs sifatida xususiy qo'lyozmalarning bozorda sotilishi va pul olib ishlaydigan agentlar yordamida qimmatli qo'lyozmalar Britaniya muzeyiga xarid qilinishi mumkinligidan tashvishga tushgan. Sharq qo'lyozmalarining chet elga tashib ketilishiga barham berish maqsadida Turkiston xalq kutubxonasidagi qo'lyozmalarni aniqlash va to'plash vazifasini o'z zimmasiga olishni taklif qildi. Uning fikricha, markazga faqat nodir manuskriptlarini yuborish kerak, qolgan narsalarning hammasi Toshkentdagi qo'lyozmalar omborida qoldirilishi lozim deb ta'kidlagan. Shundan keyingi yillarda ham V. V. Bartold mamlakatdagi sharq qo'lyozmalarining chet elga tashib ketilishiga yo'l qo'ymaslik uchun har tomonlama intildi. 1929 yilda, vafotidan bir yil oldin, u «Xorazm tarixi bo'yicha yangi manba» nomli asarida qayd qilishicha, Markaziy Osiyodagi hali noma'lum bo'lgan qo'lyozmalar yo Sankt -Peterburg yoki Toshkentda saqlanishi lozim, ularning mamlakatdan olib ketilishiga qarshi turish zarur, ekanligini uqtirib o'tdi. Markaziy Osiyo sharq qo'lyozmalarining yana bir ulkan bilimdoni, ajoyib o'lkashunos V. L. Vyatkin qayd qilib o'tganidek, mahalliy arboblarning mamlakatimiz o'tmishini o'rganishga doir olib borayotgan ishining kam samarali va arziyas darajada to'liq sharq qo'lyozmalari omborining yo'qligi, sharq qo'lyozmalarini to'plash ishlarining muntazam olib borilmasligi, mavjud qo'lyozmalar to'plamining nihoyatda kambag'alligidir. Muallif «Buxoro kitob bozori» nomli maqolasida «kutubxona qo'lyozmalar sotib olishga deyarli mablag' sarflamaydi, shuning uchun uning manuskriptlar to'plami aslo kutilgan to'lalikka erisholmaydi», deb yozgan edi. Shu bilan birga, deb ta'kidlaydi u, «o'lka hududlarida qo'lyozmalar soni tobora kamayib bormoqda, uni chet el kutubxonalari

uchun zo‘r berib sotib olishmoqda, xususiy shaxslar ham xarid qilishmoqda». Maqola muallifi keyingi o‘n yil ichida juda ko‘p miqdordagi asarlar chet ellarga olib ketilganini, holbuki «ularning saqlanadigan eng mos joyi o‘zimizning kutubxonalar javoni» bo‘lishi lozimligini ko‘rsatib o‘tadi. «Turkistonda barcha mahalliy qo‘lyozmalar to‘planishi lozim va bu yerda sharq instituti ochilgan vaqtda yozma yodgorliklar o‘tmish haqidagi fanning asosini tashkil etadi». Muallif kitoblarning ayovsizlik bilan sotib yuborilishini to‘xtatish zarurligini, rus olimlari, shuningdek, Markaziy Osiyo xalqlari yodgorliklarini qadrllovchi mahalliy kishilar va ishqibozlar qo‘lyozmalarni muhofaza qilish va qidirib topish sohasidagi ishlarni keng avj oldirishlari zarurligini talab qiladi. XX asrning boshlarida ham kutubxonaning qo‘lyozmalar fondi juda sekinlik bilan to‘ldirib borildi. 1904 yilgi kutubxona hisobotiga ko‘ra, unda 500 nusxaga yaqin arab, turkiy va fors tillaridagi kitoblar bor edi, bu hisobga tosh bosmada bosilgan qo‘lyozmalar ham kirardi (bu vaqtga kelib kutubxonada ularni saralab olish boshlangan edi).

Turkiston xalq kutubxonasining sharq qo‘lyozmalari hisobi bo‘yicha uchinchi katalogi (ro‘yxati) tuzuvchisi A. A. Semyonov 1912 yilda bu yerda 231 ta qo‘lyozma borligini hisoblab chiqqan, bulardan 194 tasi 1898 yilgi Andijon qo‘zg‘olonidan keyin kutubxonaga kelib tushgan. Mazkur ro‘yxat e‘lon qilinmagan va O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining Sharqshunoslik institutida saqlanadi. Bu vaqtga kelib YE.F. Kal tasvirlab bergan qo‘lyozmalar bilan birgalikda umumiy qo‘lyozmalar soni 318 tani, toshbosma nashrlari bilan birgalikda esa 887 tadan ko‘proqni tashkil etgan. L.A.Semyonov inqilobdan oldingi Turkistonda dastlabki rus sharqshunoslaridan birinchi bo‘lib mahalliy toshbosma nashrlari o‘rganishga kirishdi. U Turkiston xalq kutubxonasining sharq toshbosma va bosma nashrlari ro‘yxatini tuzib chiqqan. Bu qo‘lyozmalar O‘zbekiston FA Sharqshunoslik instituti kutubxonasida saqlanadi. Markaziy Osiyolik taniqli bibliograf va kitobshunos YE. K. Betger qayd qilganidek, A.A.Semyonovning xizmati shundan iborat bo‘ldiki, u sharq kitoblarining qimmatli mahalliy nashrlarini ilmiy muomalaga kiritdi va mahalliy toshbosma nashrlarining bibliografiyasini tuzib chiquvchilardan biri bo‘ldi.

Bizga shu narsa ma‘lumki, Turkiston xalq kutubxonasi zarur mablag‘larning yo‘qligi tufayli sharq qo‘lyozmalarini qidirib topish va xarid qilish ishlarini rejali

ravishda tashkil etolmadi. Mahalliy ma'muriyatning Turkiston xalq kutubxonasiga arzimas darajada mablag' ajratgani va qo'lyozmalar to'plashga e'tiborsizlik bilan qaragani haqida A.A.Semyonov g'azab bilan quyidagilarni yozgan edi: «Bir narsa sira xayoldan ko'tarilmaydi: o'sha vaqtdagi rahbarlarning uzoqni ko'ra bilmasligi aholining qo'lidagi haddan tashqari mo'l-ko'l qo'lyozmalarning sira takrorlanmaydigan imkoniyatidan foydalanib qolishga xalaqit berdi, bu vaqtda Turkistonning barcha shaharlarida qo'lyozmalar to'lib-toshib yotardi, ulardan yoqqanlarini bemalol tanlab olish mumkin edi». Yuqorida aytib o'tganimizdek, sharq qo'lyozma kitoblarini qidirib topish va to'plash bilan ko'p sonli aholi orasidan o'ziga to'q kitob ishqibozlari-dindorlar, ma'murlar, savdogarlarning namoyandalari va boshqalar ham shug'ullanishdi. Ba'zan kitoblarni Markaziy Osiyoga G'arbiy Yevropa va boshqa mamlakatlardan kelgan olimlar va sayohatchilar sotib olishardi.

Markaziy Osiyo hududida saqlanib qolgan qo'lyozma yodgorliklari ming yildan ko'proq vaqt mobaynida O'zbekiston kitob omborlaridan joy olib keldi, ular turli davrlarga, turli mamlakatlarga va shaharlarga oid ma'naviy boyliklardir. Mahalliy yozma yodgorliklardan tashqari Markaziy Osiyo davlatlarida xorijdan kelgan ko'pgina qo'lyozmalar ham bor edi. «Ulardan ko'plari, -deb yozgan edi akademik A.A.Semyonov, hech qayerda uchramaydigan butunlay nodir qo'lyozmalar yoki faqat adabiyot va tarix sohasida ham mashhur turli mutaxassislar tomonidan ko'chirilgan qo'lyozmalar edi». Ma'lumki, hali Pyotr I zamonidan e'tiboran rus olimlarining sharq qo'lyozmalariga qiziqishi namoyon bo'la boshlagan. Pyotrning kamyob narsalar saqlanadigan kabinetida ham fors va turkiy yozuvdagi bir qator qo'lyozmalar bo'lgan. Shundan keyingi davrda sharq qo'lyozmalarini qidirib topish va to'plash sohasidagi faoliyat yanada kengaydi. Bu ish Moskvadagi Lazarevskiy instituti ochilishi (1815-1816) vaqtiga kelib sezilarli ravishda jonlandi. Xarkov, Qozon va boshqa shaharlar universitetlari huzuridagi sharq tillari kafedralarida ham bu ish avj oldirildi. Sankt-Peterburg universiteti huzurida Sharq tillari fakultetiga 1855 yilda asos solinishi bilan sharqshunoslik faoliyati kuchaytirildi, bu universitet tez orada rus sharqshunosligini markaziga aylandi. Rus sharqshunos olimlari Markaziy Osiyo hududida to'plangan ko'pgina yozma yodgorliklarni bu hududni Chor Rossiyasi bosib olmasdan oldin ham yaxshi bilishardi. Masalan, akademik X. D.

Frenning 1845 yilda nashr etilgan asarida 200 dan ortiq Sharq qo‘lyozmalarining nomlari keltirib o‘tilgan bo‘lib, ularning ko‘plari tarixiy va geografik mazmundagi qo‘lyozmalar, aksariyati O‘rta Osiyo hududiga tegishli edi. Yevropadagi kutubxonalar sanab o‘tilgan qo‘lyozmalarning ayrimlariga ega emasdi, shuning uchun ham olim ilm-fan foydasi yo‘lida bunday qo‘lyozmalarning asl nusxalarini yoki ularning ko‘chirmalarini qidirib topishga da‘vat qildi. XIX asrning birinchi yarmida Sharq qo‘lyozmalarini qidirib topish va sotib olish bilan shug‘ullangan boshqa rus olimlari orasida oriyentalist sayohatchi N. V. Xanikovning (1819-1878) nomi ham mashhurdir. U 1841-1842 yillarda Buxoroda bo‘lgan vaqtda ko‘p miqdordagi qo‘lyozmalarni, shu jumladan, O‘rta Osiyodan topilgan qo‘lyozmalarni sotib olgan. Keyinchalik bu qo‘lyozmalar Sankt-Peterburg xalq kutubxonasiga topshirilgan. Yana bir sharqshunos olim va arxeolog P.L.Lerx O‘rta Osiyoda bo‘lgan davrida Abu Said Abdal Karimal Somoniyning «Kitob al -asnab» asari qo‘lyozmasini va unga doir tasviri, Hofiz Tanishning «Abdullaxonning hijriy 996-yilgacha bo‘lgan tarixi» asarini, uning o‘tmishdoshlari va boshqalarning 1852 yilda Osiyo muzeyiga topshirilgan asarlarni sotib olgan. XIX asrning o‘rtalarida Osiyo muzeyida 4 mingga yaqin sharq qo‘lyozmalari saqlanayotgan bo‘lib, ular orasida O‘rta Osiyodan topilgan qo‘lyozmalar ham mavjud edi. XIX asrning ikkinchi yarmida sharq qo‘lyozmalarini to‘plash va o‘rganish uchun yanada kengroq imkoniyatlar ochildi. Sharqshunoslik o‘quv yurtlaridan tashqari ilgari mavjud bo‘lgan ilmiy va o‘quv mavzusidagi Markaziy Osiyo qo‘lyozmalariga ma‘lum darajada e‘tibor bilan qaragan yangi -yangi jamiyatlar vujudga keldi.

Sharq qo‘lyozmalarini tashkiliy ravishda to‘plash deyarli barcha harbiy ekspeditsiyalar uchun xos edi, ularning tarkibiga sharqshunos mutaxassislar ham kirardi. Turkistonning birinchi general-gubernatori K.P.Kaufman sharqshunos A.L. Kunga yo‘llagan maktublaridan birida bunday deb yozgan edi: «Buxoro bilan Samarqand doim musulmon dunyosining olimlari va ma‘lumotli kishilari to‘plangan joylar hisoblab kelingan va shunday deb hisoblanadi. Bu shaharlarning tarixi shuni ko‘rsatadiki, ularda doimo g‘oyat muhim sharq qo‘lyozmalari ko‘p to‘plangan. Bu qo‘lyozmalarni yoki aqalli ularning ayrim qismlarini qidirib topish ilmu- fan uchun nihoyatda foydali bo‘lur edi».

1868-yilda Samarqand egallab olingandan keyin oradan bir yil o'tgach, Xo'ja Ahror masjidida ulkan yodgorlik hisoblangan «Usmon Qur'oni» sotib olindi. Xivaga qilingan 1870 yilgi yurishdan birmuncha vaqt ilgari «Rus geografiya jamiyati» xonlikni o'rganish bo'yicha batafsil yo'riqnoma ishlab chiqqan bo'lib, unda sharq qo'lyozmalarining keng sur'atda to'plashga intilish o'z ifodasini topgan. Dasturning ana shu qismi taniqli orientalist mutaxassis T.I.Lerx tomonidan tuzilgan edi, u O'rta Osiyoda bir necha marta bo'lgan, qo'lyozmalarni qo'lga kiritish shart-sharoitlari va imkoniyatlarini, qadimgi va qimmatli qo'lyozmalarni yaxshi bilardi. Xiva yurishi (1873) va Qo'qon yurishi (1875) vaqtlarida Sharq qo'lyozmalarini to'plash va saqlashda g'ayratli va mehnatsevar tadqiqotchi A.L.Kun ancha faollik ko'rsatdi. U 1874 yilgi Shahrizabz ekspeditsiyasining qatnashchisi ham edi. Faqat Xivaga yurish vaqtida u 300 ta qo'lyozma kitoblar to'plaganligi ma'lum. Shundan keyingi yillarda ham A. L. Kun qo'lyozmalarni qidirib topish bilan zo'r berib shug'ullangan. 1890 yilda Osiyo muzeyiga 134 ta sharq qo'lyozmasini topshirgan.

XIX asrning boshlarida O'rta Osiyo hududida endi sharq qo'lyozmalarini aniqlash va to'plashda rus sharqshunos olimlarining ancha katta guruhi ishtirok etdi. Birinchi navbatda atoqli va mashhur rus olimlari, akademik V. V. Bartold, K. G. Zaleman, A. N. Samoylovich, V. A. Ivanov va boshqalarni aytib o'tish kerak. Bu yerda ular o'lka xalqlari madaniy merosini o'rgandilar, yozma yodgorliklarning qanday saqlanishi bilan tanishdilar, hamisha ularning tashrif buyuradigan joylari davlat saroy kutubxonalari, xususiy qo'lyozmalar kutubxonalari bo'lardi, ular har doim mashhur kitobsevarlar va madaniyat homiylari bilan uchrashardilar, ular orasida mahalliy kishilar ham, uzoq yurtlardan kelgan shaxslar ham bo'lardi. Adabiy manbalarning guvohlik berishicha, faqat Osiyo muzeyining o'zi ana shu olimlardan ko'plab fors-tojik qo'lyozmalarini olgan. V.V.Bartolddan 20 ta qo'lyozma, K. G. Zalemandan 105 ta qo'lyozma, A. Validovdan 16 ta qo'lyozma, V. V. Benyaminovdan 19 ta V.A. Ivanovdan 605 ta qo'lyozma olgan va hokazo. Faqat ana shu besh mutaxassisning o'zi muzey to'plamlarini 765 nusxa qo'lyozma bilan boyitgan. Mahalliy arboblardan, xususan, D. Gramenitskiy, Y. Y. Lutsh, N. N. Pantusov, V. L. Vyatkin, A. A. Semyonov, M. F. Gavrilov va boshqa ko'pgina kishilar zo'r g'ayrat bilan mehnat qildilar. Ulardan ayrimlari Sankt-Peterburg

universitetining sharq tillari fakultetini tamomlashgan. Turkiston o'lkasida xizmatda bo'lgan vaqtda ular Markaziy Osiyo xalqlarining boy tarixi va madaniyatini zo'r e'tibor bilan hormay-tolmay o'rgandilar. Ko'pincha o'lkaning turli joylariga borib, turli yozma asarlarni to'pladilar va o'rgandilar. Ularning bu sohadagi faolligi shak- shubhasiz sezilarli iz qoldirdi.

Rus sharqshunoslarining faoliyatida faqat Rossiya hukmron sinflarining tor xudbinlik manfaatlari uchun emas, balki qo'lyozmalarni saqlab qolishdan chuqur ilmiy manfaatdorlik va ularni ilm-fan mulkiga aylantirishga intilish ustunlik qildi. Bo'lajak sharqshunoslarning ko'plari hali talabalik yillaridayoq O'rta Osiyoning mehnatkash xalqiga nisbatan xayrihohlikni saqlab qoldilar. Mashhur amaldor N.Ushinskiy 1884-yil 28 sentabrda K.P.Pobedonossev nomiga yuborgan xatida bunday deb yozgan edi: «Peterburg universiteti sharq tillari (fakulteti) talabalari va Lazerevskiy institutining talabalari bizning O'rta Osiyo mamlakatlari uchun yaroqsizdir, chunki ular Markaziy Osiyo xalqlari adabiyoti, tarixi va etnografiyasini obyektiv ravishda o'rganadilar va ularga o'z xayrihohliklarini bildiradilar».

Rus sharqshunoslarining sharq qo'lyozmalarini to'plash va saqlash sohasidagi faoliyati ayrim tashabbuskor olimlarning tarqoq kuch-g'ayrat sarflashidan iboratdir, ular podsho hukumatining qo'llab-quvvatlashini sira ko'rgan emaslar. Podsho hukumati bunday degan edi: «O'rta Osiyodagi qadimgi madaniyatni o'rganish va yodgorliklarni saqlash foydali bo'lish u yoqda tursin, hatto zararlidir». Shunga qaramasdan, o'z davri uchun ijtimoiy jihatdan muayyan kamchiliklar mavjud bo'lgani holda ular tomonidan katta ishlar amalga oshirildi. «Sharqshunos mutaxassislar va havaskorlarning kuch-g'ayrati bilan, deb yozadi V. V. Lunin, Rossiyaning kitob omborlari Markaziy Osiyodan kelib chiqqan ko'pgina yuzlab qo'lyozmalar bilan boyidi, ularda O'rta Osiyoga doir muayyan ma'lumotlar bor edi» «Yarim asrlik faoliyat mobaynida (taxminan 1865 yildan 1917 yilga qadar), - deb yozadi V. V. Lunin, jamoat kutubxonalari va xususiy to'plamlarda 3 mingdan ortiq sharq qo'lyozmalari aniqlandi va to'plandi». Agar inqilobdan oldingi sharqshunoslarning kuch-g'ayrati sarflanmaganda ko'pgina qo'lyozmalar ilm-fan mulkiga aylanmagan bo'lar edi. Qidirib topilgan va sotib olingan sharq qo'lyozmalarining bir qismi juda kam uchraydigan va nodir qo'lyozmalar qatoriga kiradi

Masalan, «Usmon Qur'oni», Ibn Miskavayxning «Xalqlar tajribasi», Amir Temurning «Temur tuzuklari», G'iyosiddin Alining «Hindistonga yurish kundaligi» va boshqa ko'plab qo'lyozmalar bor. Markaziy Osiyo xalqlarining tarixi uchun g'oyat muhim bo'lgan va fan uchun nihoyatda qimmatli bo'lgan katta miqdordagi qo'lyozma manbalari aniqlandi va o'rganildi. Bu qo'lyozmalardan ayrimlari ilmiy muomalaga kiritildi, bunda O'rta Osiyo muzeyi, Sankt-Peterburg universiteti kutubxonasi, Turkiston xalq kutubxonasi qo'lyozma to'plamlarining e'lon qilingan tavsiflari va kataloglari muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Ish olib borish uchun qulay sharoitlar, qoniqarli va doimiy moddiy baza bor bo'lganda, yakka tartibda ishlagan tashabbuskor olimlar va mahalliy havaskorlar, shak shubhasiz bundan ham ko'proq ishlarni amalga oshirgan bo'lardilar.

XXVII-Bob. Ilk o'rta asrda (v-xi) sharq davlatlari kutubxonalari

Atlantika Okeani qirg'oqlaridan to Yapon orollarigacha bo'lgan katta territoriyadan feodalizmni shakillanish jarayoni kechar edi. Quldorlik rivojlangan Xitoy, Hindiston, Eron, Vizantiya mamlakatlarida feodalizmga o'tish, bir necha etapdan iborat bo'ldi. Bu davrda Arablar Misr, Suriya, Falastin, Marokash, Eronni egallab, Yevropaga kirgan, Ispaniya va Portugaliyani egallagan edi. Arablar hamma yerda va hech qanday qiyinchiliklarsiz g'alaba qozonishar edi, sababi, ular urushgan mamlakatlar tarqoq va kuchsiz edi. Musulmon davlatining chegaralari Osiyodan va Afrikadan tortib Hindiston chegaralari va Atlantika Okeanigacha chuzilib borgan edi. O'rta asr madaniyati va san'atining gullab yashnashi o'sha davrda rivojlangan mamlakatlarda kutubxonalarning tashkil topishi va ularning ish faoliyati, rivoj topgan hunarmandchilik – qog'oz, bo'yoq, zar kabi ajoiib materiallar yetkazib berar edi. Husnixatchilar yuksak mahoratga ega bo'lib, sharqda ularning san'ati qadrlanardi. O'rta asrlarda kitob arablarning chinakam asarlari bo'lib qoldi. Kitob chiqarish keng yo'lga qo'yilgan va kitobga talab katta bo'lgan. Xususan O'rta asr kutubxonalarining taraqqiyoti haqida fikr yuritimiz.

O'rta asr kutubxonalari: O'rta asr kutubxonalarining asosan rivoji, o'tgan davrda yaxshi rivojlangan mamlakatlarda rivoj topgan hunarmandchilik – qog'oz, bo'yoq

zar kabi ajoiib materiallarning ishlab chiqarishi, husnixatchilar yuksak mahoratga ega bo'lib, Sharqda ularning san'ati qadrlanardi. Rassom ibn Mugla arab hattotchiligining asoschilaridan biri bo'lib hisoblangan. U vazirligi paytida saroy janjallarida ayblanardi. Xamora uning o'ng qo'lini kesib tashlash haqida farmon beradi, Mugla taniqli husnixatchi va yangi arab alifbosining asoschisi bo'lishiga qaramay unga nisbatan shunday bir rahmsizlik qilinadi. Uning tuzgan alifbosi 100 yillar mobaynida qo'llanib kelingan. So'ngra Mugla qalamni qo'lining kesik joyiga bog'lab ilgarigi yaxshi yozishni davom ettiradi. Rivoyatlarga ko'ra rassom chap qo'li bilan ham nihoyatda chiroyli yozgan. Bog'dod turli mamlakatlarning eng yaxshi aqliy va ma'naviy kuchlarini o'ziga tortar edi. Matematik al - Xorazmiy, Xorazmda tug'ilgan, astranom olim al-Farg'onada mashhur faylasuf Farobiy –Turkistonda bir arab tarixchisining yozishiga ko'ra, Bog'dod o'z go'zalligi va azimligi bilan jahondagi barcha shaharlardan afzal bo'lgan: Hech yerda bunchalik ko'p olim kishilar yo'q. Arablar fanning ahamiyatini yaxshi tushunnshar edi. Ular qadimiy Grek adabiyotidan matematika astronomiya, tabobatga oid ko'pgina kitoblarni saralab to'plashar va tarjima qilishardi. Ayniqsa tarjimonlik faoliyati xalifa Mansur davrida keng avj oldi. Asosiy tarjimonlardan biri – Grek tilidan arab tiliga tarjima qiluvchi ibn - Isxok ikki yil Vizantnyada yashab Grek tili va adabiyotini o'rgangan. U Bog'dodga ko'rukda qatnashdi, qimmatbaho qo'lyozmalarni olib qaytdi. Arab madaniyati gullagan davrda ko'pgina adabiyot va badiiy asarlar yaratildi. Qalin - qalin pergament tom, par va qog'ozdan yasalgan bejirim kitoblar zadogonlarning kolleksiyalaridan, Madrasa va maktab, universitetlarning kutubxonalaridan joy oldi. Ispan manaxi Diego de- Londani markaziy Amerika hududida yashagan xalq - Mayya tarixini yozishga nima majbur qilganini aytib qo'yilgan. Bu fanetik Yujatan madaniyatini yo'q qilishning bosh ilhomchisi bo'lgan, Mayya kutubxonasidagi kitoblarni ommaviy kuydirish tashkilotchisi bo'lgan. Diego -de- Landa uz asarini asosiy ravishda yaratdi. Xamma narsa as kotdi. Shaxsiy taasurotlar xam, Mayyaning xronikasi ham, u o'z kitobshsh 10 yil davomida ezib, 1566 yilda tugatadi. Kitob darhol keng tarqaladi. Olim roxiblar 10 yillar maboynida bu kitobdan foydalanib bir necha nusxa kuchirishgan, tarixchilar undan sitata keltirishgan. Nixoyat 1916 Yilda de Landa kitobidan parchalar topildi. Quldorlik rivojlangan Xitoy, Hindiston, Eron, Vizantiya mamlakatlarida

feodalizmga o'tish davrida kutubxona- kutubxonachilik ishi milliy o'ziga xos adabiyot va san'at takomillashib bordi.

Sharq mamlakatlarida kutubxonachilik ishi

Xitoyda feodalizmning barpo bo'lishi, buddizmning tarqalishi bilan bog'liq. VI asrda Xitoyda 50 mingdan ortiq buddistlarniig monastrlari mavjud bo'lgan mamlakatda monastir kutubxonalari keng tarqalgan. Ularning asosiy fondlarini buddist adabiyoti shuningdek tibbiyot, matematika falakkiyot (astronomiya) sohalarini o'rganish uchun qo'llanmalar tashkil topgan. Kutubxonalar ishi o'sha davr qonuniyatlari asosida qurilgan. Fondlarning yozuvidan asar avtorlarining ismi, tarjimonlari haqida ma'lumotlarni olish mumkin. Barcha kitoblar shifrlangan, kitob javonlariga qo'yilgan tartib nomerlari o'sha kitoblarning shifrih hisoblangan. YO'qolgan kitoblar haqidagi ma'lumotlar ko'p yozmalarning saqlanish darajasi qayd qilib, borilgan. Maxsus shaxslar yo'qolgan kitoblarni tiklash ishlari bilan shug'ullangan. Kutubxonalar nusxa ko'chirish xisobiga boyib borgan. Kitoblarni sotib olish mumkin bo'lgan. Xitoyda kitob savdosi bilan shug'ullangan eng boy monastir Syanga edi. Xitoyda boy kitob saqlash saroylari mavjud bo'lib, ularda asarlarni izohlash qadimgi klassik asarlarni nashrga tayyorlash, imperiyaning ayrim bir joylarini tuzilishini o'rganish ishlari amalga oshirilgan. Qadimiy asarlarni to'plashga bo'lgan asosiy qiziqish Suy va tan imreratorlarida yuzaga kelgan, imperator kutubxonalariga keltirilgan klassik asarlar yoki ularning barchalari uchun mukofot tarikasida ipak taqdim etilgan. Mutaxassislar yomon saqlangan tekstlarni yoki ularni qog'ozga ko'chirishgan. Xitoy kutubxonalari 100 minglab qo'lyozma kselografik nashrlarga ega bo'lgan. Xitoyda VIII asrdan boshlab kselografik usulda chop etish odat tusiga kirib qolgan. Bu esa kitob narxini tushishiga va keng tarqalishiga olib keldi. Kanton va Xanchju va boshqa iqtisodiy madaniy markazlar orqali va boshqa ko'pgina mamlakatlar bilan aloqalar o'rnatildi, Xitoy kitoblari Kareya, Yaponiyaga olib borildi.

Xitoy bilan Yaponiya orasidagi aloqa VII asrdan jonlandi. Yaponiyada IX asrgacha Yapon butun xati tuzulguncha ishlab chiqarishda Xitoy tili hukmronlik qilgan Yaponiya, Xitoyga talabalar va ruxoniylarni junatgan. Yaponiyadagi monastir kutubxonalari fondini Xitoy buddizm-" adabiyoti tashkil etar edi. Kutubxonalar yuqori tabaqalarga xizmat qilar edi. Xitoydan buddizm adabiyoti Pagangta o'rta asrlarda kuchli Pagan davlatining

poytaxtiga o'tdi. Pagan Irasada sohillarida, bundan ming yildan ko'p vaqt avval dunyoga kelgan qadimiy shaxar. U ikki yarim asr davomida qudratli Pagan davlatining poytaxti bo'lib kelgan. Aslini olganda, xozirgi Birmaning tarixi Paganning paydo bo'lishidan boshlanadi.

Pagan shoxi Niruda birma yeridagi tarqoq qabilalarini yagona feodal davlatga birlashtirdi. Uning xokimlik yillarida (1044-1077) Paganning yuksalishi boshlanadi. Pagan shoxi muqaddas kitoblarni zo'rlik bilan qushnilardan tortib olishga qaror qildi. U monlarga qarshi xarbiy yurish qildi, ulardan katta o'ljani qo'lga tushirdi, jumladan, budda qonunlar majmuasining to'da to'plash "tripitaka"ning o'ttizta to'la komplektini qo'lga kiritdi. To'plam uchta katta qismdan iborat. Supa - pitaki (hadislar saxovati) Viina - pitaki (urf- odatlar saxovati) va Abdxidjami - pitaki (oliy dogma saxovati). Bosib olingan kitoblar uchun Aniruda shaxar markazida, qirollik saroyi yaqinida maxsus bino "Pitaki-tayk", ya'ni muqaddas kutubxona ko'rish xakida buyruq berdi. Kutubxona urtasida atrofi yo'laklar bilan o'ralgan kichkina zal mavjud. Binoga kiriladigan uch eshikli ayvonning shartli tomoniga uchta dabdabali pesh ayvondan kiriladi. 1783 yilda to'la ta'mirlangan bizning kunlarimizda ham saqlanib qolgan. Ikki hil qadimgi birma xati mavjud edi. Lapidar xati "Toshga yozuv" manumentlar yozuvida ishlatilar edi, "Kvadrat" shaklidagi yuksak badiiy xat diniy budda kitoblariga ishlatilardi. Kitobga material sifatida xurmo barglaridan tashqari bambuk taxtalar, charm daraxti ildizlari xam ishlatilardi. Fransuz arxiyeologi Sharl Dyuruazel' Prom shaxrini qazish paytida 20 ta oltin taxtachaga yozilgan qo'lyozma hamda yozuvli oltin plastinkalarni topdi. Pagan davlati gullab yashnagan o'sha qadimigi davrda Birmaliklar dexqonchilik, irrigasiya, xunarmandchilik va madaniyatni taraqqiy ettirishda katta muvaffaqiyatlarga erishdilar. Shayx Tiluin Moi 1093 yilning 3 iyulida Promda qo'ygan imzosida xabar berishicha, jumladan Tuyin tog'idagi Marakan ko'lida katta suv ombor barpo etish va mazkur ko'l sohilida tosh kutubxona qurish haqida so'z yuritiladi. Bizda Pagam kutubxonalari kitobning ro'yxati yo'q, Buning ustiga ustak uquvchilar "Formulyari" ham yo'q, kutubxona fonda haqida hech bo'lmaganda ozgina tasavvurga ega bo'lish uchun biz o'sha davrdan bizga sajdagoh va exromlarning yozuvidan boshqa deyarli hech narsa yetib kelmagan. Qolganlarning hammasi nobud bo'lgan. 1277 yilda mangollar Paganni talab, vayron qilishdi. 100

Yillardan keyin mamlakat qayta tiklana oldi, ammo qachonlardir qudratli mamlakatning poytaxti bo‘lmish shaxar o‘likligicha qolaverdi. Shumerning ko‘pchilik shaxarlarini sahro qumlari ko‘mgan. Gerkulanum Vezuviy ko‘llari ostida qoldi, Mayya shaxarlarini tropik changalzorlari bosib ketdi. Paganning iqboli baland ekan: lagoda va saroy exromlari saqlanib qolgan. Ular orasida Birmaning qadimiy kutubxonasiyaing binosi bor. Tan imperiyasi mustaqillikka erishgach Vyetnam madaniyatini rivojlantirishga kirishdi. Vyetnamdagi eng birinchi kutubxona Dayxn omborxonasi hisoblanadi. Uning asosini Xitoydan keltirilgan Buddiy adabiyotlar tashkil etadi. Ushbu omborda kitoblar nashr qilingan va mamlakatga tarqatilgan. 1070 yil Xanoyda adabiyotlar saroyi tashkil topdi. Dastlab bu yerda hudojuylar maskani, kitob nashr qiladigan joy chop etish uchuy ishlatiladigan taxtalar saqlanadigan ombor bo‘lgan. Keyinchalik esa yuqorida aytib o‘tilgan kutubxona barpo bo‘lgan. Uning xonalari maktab o‘quvchilari va o‘qituvchilari bo‘lgan. 1464 yil shox buyrug‘i bilan huddi shunday kutubxonalar viloyatlarda ham tashkil etildi. Kutubxonalar fondida endilikda ilmiy asarlar, tarixiy va poetik ishlar, folklor to‘plamlari ham joy oldi. XII asrda mug‘ul bosqinchilari Xitoy, Pagan va boshqa mamlakatlar kutubxonalari va madaniyatini supirib tashladi. Yaponiyada ham kutubxonalar ishi uzoq vaqtgacha to‘xtab qoldi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, Ilk o‘rta asr (V-XI) kutubxonalarning paydo bo‘lishi feodalizm davri davlatlarining tashkil topishi bilan bog‘liqdir. Asosan o‘rta asr davrida Xitoy, Hindiston, Vyetnam, Eron, Vizantiya, Yaponiya davlatlarida exron va monastrlarda kitoblarning chop etilishi kutubxona ishining yanada mukammallanishiga olib kelindi. Arablar, Misr, Suriya, Palastin, Marokash davlatlarini egallab, uning madaniyati va san‘atiga hamda urf odatlariga taaluqli bo‘lgan eng qimmatbaxo asarlarni arab xalifaligiga olib kelishi bilan bog‘liq ma’lumotlar beriladi. O‘sha davrda gullab yashnagan Pagan davlatining madaniyati va san‘ati haqida ko‘pgina tarixiy ma’lumotlar beriladi.

XXVIII- Bob Germaniya davlati kutubxonalari

Germaniya bosh milliy kutubxonasi bo'lib 1912 yilda Leypsigda tashkil topgan, 1946 yilda Frankfurt-Na-Mayneda kutubxonasi, 1970 yilda G'arbiy Berlinda tashkil topgan Nemis muzey arxivining 1990 yilda birlashtirishi natijasida tashkil topgan. Milliy kutubxonaning asosiy binosi Frankfurt-Na-Mayneda joylashgan. Uning tarixiy rivojlanishiga ko'ra Nemis milliy kutubxonasi jaxondagi barcha mamlakatlar milliy kutubxonalaridan o'zining tizimi va bajaradigan vazifalari bo'yicha tubdan farq qiladi. Milliy kutubxonaning ba'zi vazifalarini Berlindagi «Pruss milliy merosi» davlat kutubxonasi va Bavariyadagi (Myunxen shaxrida joylashgan) davlat kutubxonasi bajaradi.

Leypsigdagi nemis kutubxonasi kitob savdosi bilan shug'ullanuvchilarning birja ittifoqi tashabbusiga ko'ra tashkil topgan bo'lib, Germaniyada va nemis tilida so'zlovchi mamlakatlarda nemis tilida nashr etilgan adabiyotlarni yig'ish va nemis milliy bibliografiyasini tuzishni asosiy maqsad qilib qo'ygan.

Germaniyada nasizim xukmronligi yillarida senzura cheklashlari natijasida kutubxonalar fondini to'plash tizimi izidan chiqdi. 1945 yillardan so'ng kutubxona Ikkinchi jaxon urushi yillarida talofat ko'rganligi uchun to'la xajmda o'z qiymatini tiklashga muvaffaq bo'ldi. 1949 yildan boshlab esa Germaniya demiokratik respublikasi tashkil topgandan so'ng Berlindagi Nemis kutubxonasi bilan xamkorlikda milliy kutubxona funkciyasini bajara boshladi. Germaniya Federativ Respublikasi va boshqa nemis tilida so'zlovchi mamlakatlarning barchasi o'zlarida nashr etilgan barcha maxsulotlardan bepul jo'natib turdilar. 1969 yildan boshlab kutubxona xar ikkala mamlakatlarda nashr etilgan nashr maxsulotlaridan majburiy nusxa ola boshladi. Kutubxona bibliografiya, kitobshunoslik, konservasiya va restovrasiya bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi. Nemis milliy bibliografiyasi bo'yicha ilmiy-metodik ishlar davom ettirildi. Frankfurt-Na-Mayneda nemis kutubxonasi o'z faoliyatida yuqorida amalga oshirilgan ishlarni G'arbiy Germaniyaga nisbatan xam amalga oshirdi: Nemis milliy bibliografiyasini tuzish 1945 yildan Germaniyadagi nashrlar, Germaniya xaqidagi nashrlar, nemis mualliflarining xorijiy tillarga tarjimalari, emigrasiyadagi mualliflarning asarlarini yig'ishda yordam beradi. 1970 yildan boshlab muzey ashyolarini yig'ish, saqlash va qayta ishlash bo'yicha filial-nemis muzeyi arxivi tashkil etildi.

Birlashgan milliy kutubxona quyidagi 3 ta asosiy funksiyani bajaradi: 1913 yildan keyin Germaniya xududida va undan tashqarida Nemis tilida nashr etilgan barcha manbaalarni to‘liq yig‘ish, doimiy saqlash, bibliografik axborotlarni tarqatish orqali ularni mazmunini yoritish. 1450 yildan yani kitob nashr etish ishining boshlanishidan to 1912 yilgacha nashr etilgan nashr maxsulotlarini yig‘ishga shu faoliyatida mamlakatdagi Myunxen shaxrida joylashgan Bavariya kutubxonasi, Volfenbyutteldagi Gersog Avgust kutubxonasi, Gyottirendagi Quyi saksoniya davlat universiteti, Frankfurt-Na-Maynedagi shaxar va universitet kutubxonasi va uning tarkibiga kiruvchi Zankenberg kutubxonasi yordam beradi.

Milliy kutubxonaning fondi 8 million nusxadan oshiq bo‘lib, Shimoliy Reyn-Vestoraliya yerlaridan tashqari barcha xudulardagi kutubxonalar fondini to‘ldirishni davoi ettirmoqda. Leypsig kutubxonasi sharqiy german yerlaridagi kutubxonalar faoliyatini uyushtirishdan tashqari milliy bibliografiya ishini xam olib boradi. Milliy kutubxona boshqa mamlakatlarda milliy kutubxonalari va xalqaro kutubxona tashkilotlari bilan faol xamkorlikda faoliyat ko‘rsatmoqda.

XXIX- Bob. AQSH kutubxonalari

AQSH Kongress kutubxonasi bo‘lib, 1800 yilda tashkil topgan va XX asr boshlarida 1 million kitob fondiga ega bo‘lib, jahondagi eng katta kutubxonalardan biri darajasiga erishgan. XX asrning birinchi o‘n yilliklarida Kongress kutubxonasi rus savdogari G.V.Yudinning 80 ming tomdan iborat bo‘lgan kitoblarini, Romanovlar oilasiga qarashli kitoblar to‘plami, qadimgi ivrit va qadimgi xitoy qo‘lyozmalarini, inkunobulalarning eng ajoyib majmualaridan iborat bo‘lgan kitoblarni qo‘lga kiritib o‘z fondini yanada boyitdi. Ikkinchi jahon urushidan keyin Kongress kutubxonasi o‘z fondini xorijiy mamlakatlardan sotib olingan kitoblar xisobiga boyitish bilan birga, urushdan zarar ko‘rgan mamlakatlarda kutubxonalar infratizimini tashkil etishda ham faol qatnashdi.

1960 yillardan boshlab Kongress kutubxonasi kitoblar va qo‘lyozma hujjatlarning saqlanishi muammosi bo‘yicha ham keng ko‘lamli ishlarni olib bordi. 1980 yillardan boshlab raqamli texnologiyalarni rivojlantirish Kongress kutubxonalarining asosiy faoliyat yo‘nalishlaridan biriga aylandi. 1990 yilda uning tashabbusi bilan “Jahon raqamli kutubxonasi” loyihasiga yo‘nalish berildi. Kongress kutubxonasining umumiy fondi 151 million tomdan ko‘proq bo‘lib, Vashingtondagi bir nechta binolarda saqlanadi. Uning fondida Guttenberg tomonidan nashr etilgan uchta Bibliyadan bir nusxasi, AQSH Mustaqillik Deklorasiyasining asosiy nusxasi sanaladi.

XXX-Bob. Buyuk Britaniya kutubxonalari

Britaniya kutubxonasi fondi 150 milliondan ko‘proq tomdan iborat bo‘lib, jahondagi ikkinchi yirik kutubxona hisoblanadi. Britaniya kutubxonasi 1973 yilda Britaniya muzeyi va boshqa bir necha kitoblar jamg‘armasi negizida tashkil topgan. XX asrda yirik shaxsiy yig‘malari, jumladan, qadimgi Yahudiy qo‘lyozmalari va Sinay kodeksi hisobiga o‘z kitob fondini yanada boyitgan. Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan Guttenberg tomonidan nashr etilgan uchta Bibliyaning ikki nusxasi ham Britaniya muzey kutubxonasi fondidadir. 1998 yildan kutubxonaning asosiy fondlari London markazidagi yangi binoda joylashgan. Bundan tashqari Britaniya muzey kutubxonasi ovozli arxivlar va markalar majmuasining yirik saqlovchisidir. Kitoblarni va hujjatlarni raqamlashtirish bo‘yicha ham keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Jahon yangi tarmog‘ida o‘rta asrlardagi manuskriptlarning 30 mingtasi, qo‘lyozma va nashr mahsulotlarining 100 million nomdagi manba joylashtirilgan. 2006 yildan buyon Britaniya kutubxonasida aqliy mulkni muhofaza qilish Markazi faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Fondlardan asosan aniq loyihalar ustida ishlayotgan tadqiqotchilar foydalanadilar.

Britaniya kutubxonasi Londonda joylashgan bo‘lib jaxondagi eng yirik va ko‘xna kutubxonalaridan biridir. Buyuk Britaniya Milliy kutubxonasi 1753 yilda tashkil topgan. Britaniya muzeyi kutubxonasiga 1916 yilda asos solingan. Markaziy milliy kutubxona Britaniya milliy bibliografiya ishlari bo‘yicha kengash, ilmiy va texnik axborotlar

bo'yicha Milliy byuro, Patent byurosi kutubxonasi negizida tashkil topgan. Keyinroq Xindiston masalalari bo'yicha boshqaruv kutubxonasi (1982 yil), Markaziy ovoz yozish arxivi (1983 yil), Kutubxonalar asossasiyalari kutubxonasi (1988 yil) ushbu yilda qo'shildi. Sank-Peterburgda bu binolarni qurish (1997-1999yillar) munosabati bilan Kalindeyl gazetalar kutubxonasidan tashqari barcha kutubxonalar va axborot texnologiyalarini qo'llash, fondlarni saqlash va ulardan foydalanish imkoniyatlari tekshirish maqsadida to'liq birlashtirildi. Bugungi kunda Britaniya kutubxonasi Londonda Sent Pankras va Kalindeylga, g'arbiy Yorkshirdat Boston Spaga, yani uch joyga joylashtirilgan. Britaniya kutubxonasi asosan davlat tomonidan moliyalashtiriladi, muayyan qismi pullik xizmatlar, Xususiy shaxslar, vasiylar xisobiga qilinadi.

Britaniya kutubxonasi boshqaruvni takomillashtirish maqsadida jaxonda birinchilardan bo'lib strategiyasidan o'tgan bo'lib, 1985 yildan buyon uning asosiy faoliyat yo'nalishi strategik tarzda uzoq muddatdga mo'ljallangan tarzda belgilab olinadi. Kutubxonada zamonaviy axborot resurslaridan tizla foydalanish imkoniyatlarini yaratish, milliy-madaniy merosni asrash bilan birga mamlakatda mavjud bo'lgan manbalar fondini to'la asrash, to'plash, foydalanish uchun taqdim etish, fan, biznes, sanoat, adabiyot va san'atning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga oid faolift ko'rsatiladi. Bundan tashqari Britaniya Milliy Bibliografiyasini nashr qiladi, kutubxonashunoslik va axborot soxasida ilmiy taqriziy ishlarni tashkil qiladi va moliyalashtiradi, boshqa mamlakatlar kutubxonalariga yordam tashkil qiladi.

Kutubxona fondida dunyodagi barcha tillar bo'yicha, barcha fan soxalariga oid adabiyotlar mavjud. Jumladan, 16mln dan ortiq kitob, 55 min nomdagi gazetalar, 4 mln dan ortiq kartografik materiallar, 3 mln dan ortiq ovozli yozuvlar, 8,2 mln pochta markalari, qo'lyozmalar, fotografiyalar mavjud. Xar yili kutubxonaga 3 mln dan ortiq nusxada mabalar qabul qilinadi.

O'quv zallariga kirish bepul, 18 yoshdan o'tgan foydalanuvchilarga ruxsat beriladi (18 yoshgacha bo'lgan foydalanuvchilarga boshqa kutubxonalardan foydalanadilar). O'quv zallar 1216 ta foydalanuvchiga mo'ljallangan masofadan foydalanuvchilar o'zlarini qiziqtirgan xujjatlardan pullik nusxasidan foydalanishlari mumkin. Kutubxonada jaxon bo'yicha xujjat ko'rsatuvchi elektron katalog, xujjatlarga buyurtma

berish avtomotlashtirilgan tizimi, xujjatlarni yetkazish uchun mexanizasiyalashtirilgan xizmati mavjud. Elektron katalogdan foydalanish bepuldir. Foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish maqsadida muayyan standartlarga mos keluvchi "Xizmat ko'rsatish kodeksiga amal qilinadi". Kutubxona Britaniya olimlarining yani axborot texnologiyalari bilan bog'liq bo'lgan ilmiy ishlanmalarini moliyalashtiradi, kataloglashtirish va fondni saqlash bo'yicha aniq tajribalarga grantlar ajratadi, yakunlangan ishlar natijalarini keng tadqiqot maqsadida konferensiyalar, ko'rgazmalar tashkil qiladi. Kutubxona mamlakatning axborot siyosatini ishlab chiqishda ishtirok etadi, Britaniyadagi boshqa kutubxonalar bilan keng xamkorlik aloqalarini amalga oshiradi, fondlarni saqlash bo'yicha Milliy byuro vazifasini bajaradi, boshqa turdosh muassasalarga maslaxatlar beradi.

XXXI-Bob. Fransiya kutubxonalari

Fransiya Milliy kutubxonasi

Fransiya Milliy kutubxonasi Parij shahrida joylashgan bo'lib, jahondagi eng ko'hna kutubxonalardan biri hisoblanadi va milliy bibliografiya markazidir. Fransiya Milliy kutubxonasi qirol Karl V ning oilasidagi qo'lyozmalar asosida shakllantirilgan bo'lib, 1368 yildan kutubxona sifatida rasmiy tarzda faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Milliy kutubxona shaklida esa 1792 yildan faoliyat ko'rsatadi. Karl V davrida olimlar va tadqiqotchilar uchun ochiq xizmat ko'rsatilgan. Kutubxonaning faoliyatida ko'p yillik uzilishlar davri ham bo'lgan. Yuz yillik urushdan keyin esa 1840 yilda kutubxona faoliyati qaytadan tiklangan. Fransuz revolyusiyalari davrida (1789-1894 yillar) monastrlar va shaxsiy kutubxonalarning musodara qilinishi natijasida Fransiya milliy kutubxonalari Birlashgan tizimga kiritilgan. XX asrning birinchi yarmidan kutubxonachilik ishining keng rivojlanishi natijasida fondni joylashtirish uchun ko'plab yangi binolar qurildi. Ikkinchi jahon urushida kutubxonaga jiddiy shikast yetdi. Fondning kattagina qismi mamlakatning turli mintaqalariga tarqatildi, xodimlar soni kamaydi. Urushdan keyin esa fondni saqlab qolish masalasi kutubxonaning asosiy faoliyat yo'nalishiga aylandi. Jumladan 1945-1975 yillarda kutubxona milliy ta'lim vazirligining kutubxona va ommaviy mutolaa Boshqarmasi tarkibida bo'lgan va 1981 yildan e'tiboran

madaniyat vazirligiga bo'ysundirilgan. Kitob fondlari Parijdagi va uning atrofidagi sakkizta kutubxona majmualari va binolarida joylashtirilgan. Keyinchalik yangi binolar qurish davom ettirildi, davriy nashrlar kataloglarini tuzish, kitoblar va hujjatlarni mikrofilmlarga joylashtirishga oid loyihalar amalga oshirildi. 1960-1970-yillarda qo'lyozma va nashr mahsulotlarini qayta ishlashni avtomatlashtirishni joriy qilishga oid dastlabki tajribalar qo'llanila boshlandi. Kutubxona uchun 1994 yilda Sena daryosining chap qirg'og'ida Fransua Mitteran nomidagi yangi kutubxona majmuasi qurildi. Shundan keyin Fransiya Milliy kutubxonasi tizimiga qirolliu kutubxonasi, Arsenal kutubxonasi, adabiyotshunos, bibliofil va kollesioner Markiz de Polmi kutubxonasi, Bastiliya arxivlari, opera muzeyi arxivlari, konservasiya va restavrasiya markazlari kiradi. Fransiya Milliy kutubxonasining umumiy fondi 30 milliondan ortiq bo'lib, har yili 240 ming nusxadagi manbalar qabul qilinadi, 80 mingtasi kutubxonada qoldiriladi va 160 mingtasi boshqa muasasalarga tarqatiladi. Kutubxona 1992 yildan buyon majburiy nusxa haqidagi qonunga binoan har bir bosma nashr va boshqa axborot tashuvchilardan ikki nusxadan qabul qiladi. 17 o'quv zallari har yili 320 mingdan ortiq foydalanuvchigi xizmat ko'rsatadi. Bugungi kunda Milliy kutubxona jahondagi eng yirik kutubxonaga aylandi.

Sorbonna kutubxonasi

Fransiyadagi Parij universitetining kutubxonasi (1150 yilda tashkil etilgan) va Robesper de Sorbon tomonidan tashkil etilgan kollej binosiga kuchib o'tganidan so'ng (1257 yil) Sorbonna kutubxonasi deb yuritila boshlangan. Sorbonna kutubxonasi universitet kutubxonasi maqomiga 20 ming nusxadagi fondi bilan 1770 yilda ega bo'ldi. Ushbu fondga Parijdagi 29 ta kollejlar kutubxonalari va J. G. Peti de Montampyuining shaxsiy kutubxonasidagi kitoblar xam kiritilgan.

Buyuk Fransuz revolyusiyalari davrida (1789-1894 yillar) uning asosiy fondi Fransiya Milliy kutubxonasi ixtiyoriga topshirilgan. So'ngroq Sorbonna kutubxonasi fondi cherkovdan, aristokratlardan musodara qilingan kitoblar hisobiga to'ldirilgan. Sorbonna kutubxonasining umumiy fondi bugungi kunda 3 milliondan ko'proq nusxani tashkil etadi. Kutubxona fondini to'ldirishda tarixiy mavzulardagi adabiyotlarga alohida e'tibor beriladi. Faqat 1800 yillargacha nashr etilgan adabiyotlar sovg'a sifatida qabul qilinadi. Juda qimmatli kitoblargina sotib olinadi. Qo'lyozmalardan faqat

universitetlarning professor –o‘qituvchilarining shaxsiy arxivlari qabul qilinadi. Sug‘urta fondi uchun har yili 30 ta mikrofilm yaratiladi.

XXXII-Bob Xitoy Milliy kutubxonasi

Xitoy Milliy Kutubxonasi Osiyodagi eng yirik kutubxona (28 million kitob fondiga ega) bo‘lib, 1909 yilda asos solingan, 1912 yildan boshlab foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatadi, 1928 yildan Milliy kutubxona maqomi berildi. Eramizdan avvalgi XVI-XI asrlarda mavjud bo‘lgan Shan dinastiyasi davriga taalluqli suyaklarga va sudralib yuruvchi hayvonlarning suyak zirhi yuzasiga yozilgan 38 mingta manba kutubxonaning eng asosiy boyligi hisoblanadi. 1949 yilda Xitoy Xalq Respublikasining e‘lon qilinishi arafasida kutubxona fondi 1.5 million tomdan iborat bo‘lgan. Kommunistik partiya hokimiyat tepasiga kelgach, Pekin kutubxonasi deb atala boshladi. 1987 va 2008 yillarda qayta qurilish davrida yangi bino qurilishi boshlandi. Uning foydalanishga topshirilishidan keyin Xitoy Milliy kutubxonasi maydoni kengligi jihatidan jahondagi uchinchi kutubxonaga aylandi. XXI asr boshlarida kutubxonaning asosiy faoliyati “Raqamli milliy kutubxona” loyihiga muvofiq fondni raqamlashtirishga yo‘naltirildi.

XXXIII-Bob Rossiya Federasiyasining yirik kutubxonalari

Rossiya davlat kutubxonasi (RDK)

Milliy Federativ Kutubxona, Moskva shaxrida joylashgan, Yevropadagi eng yirik jaxonda AQSH Kongres kutubxonasidan keyin ikkinchi o‘rinda turadigan kutubxona hisoblanadi. Kutubxonani asosini davlat konsleri graf N.P.Rumyanovning qo‘l yozma kitoblar va muzey kolleksiyalarini to‘plash etadi. 1828 yilda uning vafotidan so‘ng Sank-Peterburgga Rumyanov muzeyi tashkil etildi. 1862 yilda Moskva shaxriga ko‘chirilib Moskva ommaviy muzeyi deb atalgan. Turli yillarda Moskva ommaviy va Runyanov muzeyi, Davlat Runyanov muzeyi, V.I.Lenin nomiga SSSR davlat kutubxonasi, Rossiya

davlat kutubxonasi deb atalgan. Rossiya davlat kutubxonasining asosiy funksiyasi Rossiya va xorijiy mamlakatlarda chop etilgan ilmiy, madaniy, badiiy, qimmatga ega bo'lgan, kutubxona yo'nalishiga mos bo'lgan mabalar bilan to'ldirishdan iboratdir. Rossiya davlat kutubxonasining umumiy fondi 45 mln dan ortiq. Xar yili kutubxona fondi 360 ming nusxadagi yangi nashrlar bilan boyib boradi, ulardan 20% xorijiy nashrlardir. Mamlakatda nashr etilgan manbalar majburiy nusxalar xisobiga to'ldirib boriladi. Rossiya davlat kutubxonasining ilmiy muassasa va metodik markaz sifatidagi faoliyati kutubxonachilik asoslari bo'yicha ilmiy ishlanmalarni yaratish, ushbu sohasida federal siyosatini amalga oshirish, axborot, kutubxona, nashriyotchilik ishi bo'yicha standartlar yaratish, o'quv qo'llanmalar, atamalar lug'ati, metodik tavsiyalar yaratish, turli meyoriy xujjatlar ishlab chiqishdan iborat. RDK ning ilmiy-tadqiqot va ilmiy-metodik faoliyatida kutubxonashunoslik metodologiyasi, kutubxona zahiralarini rasional joylashtirish va foydalanish, kitob va mutolaa sosiologiyasi, kitobshunoslik, kitob tarixi, retrospektiv milliy bibliografiya, fondlarini depozitariylarda va repozitoriylarda saqlash, elektron kutubxonalarni tashkil etishning dolzarb masalalari aloxida o'rin tutadi.

Rossiya milliy kutubxonasi

Jaxondagi eng yirik kutubxona axborot muassasalaridan biri, Rossiyada ikkinchi o'rinda turivchi kutubxona xisoblanadi. Sank-Peterburg shaxrida joylashgan, 1795 yilda Yekaterin 2 tomonidan imperator ommaviy kutubxonasi sifatida tashkil etilgan. 1810 yildan boshlab kutubxona fondi Rossiya xududida nashr etilgan kitoblardan ikki nusxadan majburiy nusxa va sotib olish xamda sovg'a qilingan kitoblar xisobiga to'ldirib borildi. Kutubxona umumiy fondi uchun 1814 yil 2-yanvardan ish boshladi.

1932 yildan buyon Saltikov Shedrin nomi bilan ataldi. Kutubxonaning umumiy fondi bugungi kunda 35 mln nusxadan ortiq bo'lib, 168 ming foydalanuvchiga xizmat qiladi va xar yili 12 mln dan ortiq kitob beriladi.

Kutubxona fondida eramizdan 2-4 asrlarda papirusga yozilgan Sinay kodeksidan tortib, 1269 yildaga yorliqlar, xorijiy mamlakatlar qirollarining rasmiy xatlari saqlanadi. Gazetalar va jurnallar fondida mingdan ortiq nusxada gazetalar, xamdo'stlik mamlakatlari, Amerika, Osiyo, G'arbiy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida nashr etilgan

8 mingdan ortiq nusxada jurnallar mavjuddir. Rossiya milliy kutubxonasi xalqaro va federal miqyosidagi ilmiy loyixalarda faol ishtirok etib kutubxonachilik ishi tadrijiy rivojlanishining qonuniyatlari va muammolarini, kitob fondini shakllantirish va foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatishning ilmiy asoslari, kutubxonachilik ishi iqtisodi va uni boshqarish muammolari yo'nalishlarida ilmiy-tadqiqot va ilmiy-metodik ishlar olib boradi.

Rossiya davlat ko'zi ojizlar kutubxonasi

1920 yilda Moskvada ko'zi ojizlar Markaziy kutubxonasi sifatida 1-ko'zi ojiz bolalar maktab-internati kitob fondi asosida tashkil etilgan. Rossiya Federasiyasi federal organlari madaniyat boshqarmasiga qarashli va federal ahamiyatga ega maqomni egallaydi. Brayl tizimidagi an'anaviy va kattalashtirilgan shriftdagi kitoblar, seriyali nashrlar, magnitli va raqamli tashuvchilardagi "gapiruvchi" kitoblar, relf-grafikli qo'llanmalar, disketlar xisobiga fond to'ldirib boriladi. Foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish abonoment, o'quv zali, kutubxonadan tashqarida xizmat ko'rsatish bo'limi, uyga xizmat ko'rsatish, sirtqi abonoment, san'at bo'yicha notali-musiqali bo'lim, tiflobibliografik bo'limlar orqali amalga oshiriladi. Bemor va keksa foydalanuvchilarga kitoblar uyga yetkazib beriladi, boshqa hududlarda va mamlakatlarda yashovchi foydalanuvchilarga pochta orqali xizmat ko'rsatiladi. Ko'zi ojizlar uchun Rossiya Davlat kutubxonasining fondi xar yili 40-50 ming nusxadagi xujjatlar xisobiga boyib boradi.

Kutubxona barsa ko'zi ojizlar uchun tashkil etilgan kutubxonalar tizimidagi ilmiy-metodik markaz xisoblanadi. Tiflobibliografiya, tiflokutubxonashunoslik, ko'zi ojizlar va xira ko'radiganlar uchun ularning o'ziga xos xususiyatlarini xisobga olgan xolda metodik ko'rsatmalar nashr qilinadi.

Rossiya davlat bolalar kutubxonasi

Rossiya Davlat Bolalar kutubxonasi Moskva shaxrida joylashgan bo'lib, 1969 yilda asos solingan. Uning asosiy funksiyasi bolalar va o'smirlarni kitobga jalb etish uchun shart-sharoitlar yaratish, axborot va mutolaa madaniyatini, bilish ehtiyojlarini shakllantirish, rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarni ijtimoiy va madaniy vositalar yordamida moslashtirish (jumladan, nogiron bolalar) bolalar va o'smirlarning xuquqlarini

himoya qilish, ularning bo'sh vaqtini tashkil etish va axborot olishlarini ta'minlash, bolalar kutubxonalari tizimining ilmiy, axborot va metodik ta'minoti, bolalar kutubxonashunosligi, bibliografiyashunosligi, kitobshunosligi muammolari bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borish, ushbu yo'nalishda xalqaro munosabatlarni rivojlantirishdan iboratdir.

Rossiya Davlat bolalar kutubxonasi bolalar va o'smirlarning jahon madaniyati yutuqlaridan erkin va teng foydalanishlari bo'yicha konstitusion xuquqlarini ta'minlash uchun sharoitlar yaratadi. Buni uchun foydalanuvchilarning ehtiyojlarini maksimal darajada qondirishga harakat qilinishi bilan birga keng yo'nalishda madaniy, axborot-bibliografik ishlari, ularning xar tomonlama rivojlanishi uchun zarur bo'lgan pedagogik-psixologik faoliyat olib boriladi. Kutubxona fondi 500 ming nusxadan ortiq bo'lib, uning 5 ming nusxadan ko'prog'i elektron nashrlardir. Kutubxonadan xar yili 55 mingdan ortiq foydalanuvchilar foydalanadilar, ular maktabgacha yoshdagi, 15 yoshgacha bo'lgan maktab o'quvchilari, o'qituvchilar, kutubxonachilar, nashriyotchilar, tadqiqotchilar, oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari, ijtimoiy soha xizmatchilaridan iborat bo'lib, yil davomida 700 mingdan ortiq manbalardan foydalanadilar. Rossiya Davlat bolalar kutubxonasi boshqa kutubxonalarga amaliy va maslaxat yordami ko'rsatadi, raxbarlar, uslubchilar, amaliyot xodimlari uchun malaka oshirish kurslari tashkil etadi, kengashlar va ilmiy-amaliy anjumanlar o'tkazadi. Kutubxonaning ilmiy-tadqiqot va ilmiy-metodik ishlari bolalar kutubxonalari innovasion faoliyatlarining tahlili, kasbiy muloqotni tashkil etish, kutubxonachilarning malakasini oshirish, tavsiya adabiyotlarini tayyorlash va nashr ishlaridan iboratdir. Bolalar mutolaasi, bolalarga kutubxona xizmati ko'rsatishga oid ma'lumotlar doimiy tarzda tahlil qilib boriladi xamda uning natijalari, tavsiyalar "Nima?" "Qayerda?" "Qanday?" axborot tahlil to'plamida chop etib boriladi. Rossiya Davlat bolalar kutubxonasi Rossiya kutubxonalar assosiasiyasi, Rossiya bolalar kutubxonalari assosiasiyasi, Yevro Osiyo kutubxonalari assosiasiyasi, Bolalar kutubxonalari bo'yicha Xalqaro kengash Rossiya seksiyasining a'zosi xisoblanadi. Shuningdek, Rossiya bolalar yozuvchilari va rassomlarini xalqaro mukofotlarga taqdim etishda, xalqaro va millatlararo adabiy aloqalarni kengaytirish va mustahkamlashda ishtirok etadi.

Xulosa

Kutubxonashunoslikni uning uch ming yildan ko‘proq davr mobaynida shakllangan, kutubxonachilik ishi haqidagi umumnazariy fan sifatida o‘rganish bizga quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi:

1. Kutubxonashunoslik kutubxona ishi haqidagi tafakkur sifatida qadimdan shakllangan bo‘lsada, so‘nggi ikki yuz yil davomida kutubxona amaliyotining ehtiyojiga ko‘ra mustaqil ilmiy fanga aylanib, XX asrga kelib o‘quv fanining barcha xususiyatlari shakllanadi.

2. XX asrning ikkinchi yarmiga kelib kutubxonashunoslik tizimida uning maxsus bo‘limi – umumiy kutubxonashunoslik paydo bo‘ldi, XX asr oxirlariga kelib umumiy kutubxonashunoslik tizimida kutubxonashunoslikning nazariy asoslari shakllana boshladi.

3. Kutubxonashunoslik–bilimlarning tartiblashtirilgan va tizimlashtirilgan majmuasi bo‘libgina qolmasdan barqaror rivojlanuvchi o‘ziga xos tizimdir. Barcha fanlar singari ushbu fan ham bir tomondan eskilarining bartaraf qilinishi, ikkinchi tomondan doimiy yangilanib borish jarayonida mavjuddir.

4. Hozirgi zamon kutubxonashunosligining umumiy yo‘nalishi jamiyatning har tomonlama axborotlashuvchi, milliy axborot infratuzilmalarini yaratish, yuksak axborot texnologiyalari yutuqlarini amaliyotga joriy qilish singari ijtimoiy va texnik hodisalarning g‘oyaviy-nazariy mazmunini aks ettirishdan iboratdir. Bu holatlar kutubxonachilik ishida chuqur sifatiy o‘zgarishlarning amalga oshishiga olib keladi. Shunga muvofiq tarzda kutubxonashunoslikning ko‘pgina tub nazariy masalalar bo‘yicha nuqtai nazari ham o‘zgarib boadi. Umumiy Kutubxonashunoslikning muhim bo‘linmalaridan biri – kutubxona haqidagi ta’limotdir.

Ushbu o‘quv qo‘llanmada kutubxonalarning paydo bo‘lishi, rivojlanish bosqichlari, ularning bajaradigan vazifalari, tizimi faoliyat mexanizmi, asosiy turlari yoritib beriladi. Bugungi kunda O‘zbekistonda kutubxonachilik ishi boshqaruv tizimini takomillashtirish, kutubxonachilik tizimi shakllanishining qonuniyatlari, asosiy tamoyillari negizida rivojlanmoqda.

Kutubxonachilik ishining asosiy xususiyatlaridan biri bu birinchidan, kutubxona zaxiralarining ijtimoiy va individual axborot ehtiyojlarini qondirishga bo'ysundirilishi, kutubxona ishi mazmunining insonparvarlik qadriyatlari yo'nalishida rivojlanishidir.

Ikkinchidan, kutubxonachilik ishining fan-texnika taraqqiyoti yutuqlariga moslashuvchanligidir.

Hozirgi paytda umuman jamiyatning, xususan, alohida ijtimoiy guruhlar, foydalanuvchilarning turli axborot va madaniy ehtiyojlarining ortib borishi natijasida turli meyorlarga asoslangan maxsus kutubxonalar tarmoqlari shakllanmoqda.

Kutubxonachilik ishini takomillashtirishning eng asosiy yo'li – kutubxona- axborot muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirishdir. Kutubxonachilik ishi rivojlanishi va takomillashishidagi jahon tajribasining umumlashtirilishi ham buni to'liq tasdiqlamoqda. Bundan tashqari bozor sharoitlariga moslashuv natijasida kutubxonachilik ishining rivojlanishi uchun yangi iqtisodiy asoslar shakllanmoqda. Hayot kutubxonalarni faoliyatning iqtisodiy metodlari yangi o'zgaruvchan sharoitlarga uzluksiz moslashish, tadbirkorlik yo'nalishiga mos tarzda yangiliklarni qo'llashni talab qilmoqda.

Bugungi islohotlar jarayonida mamlakatimizda ham kutubxonachilik ishi va kutubxonashunoslik sohasida muayyan yangilanishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonlarda mamlakatimiz kutubxonashunoslik fani ham jahon kutubxonashunoslik fani yutuqlarini yanada chuqurroq o'rganish va amaliyotga qo'lash asosida o'quv fani sifatida takomillashtirilib boriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev SH.M. “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob halqimiz bilan birga quramiz”. T.: “O‘zbekiston”, 2017 y. – 485 bet.
2. Mirziyoyev SH.M. “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz”. 1 jild T.: “O‘zbekiston”, NMIU, 2017 y. – 592 bet.
3. Mirziyoyev SH.M. Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – halqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. (Prezident Mirziyoyev Shavkat Miromonovichning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasi). – “Halq so‘zi” gazetasi, 2017 yil, 4 avgust.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishi. “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatishni rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida” – “Halq so‘zi” gazetasi, 2017 yil. 13 yanvarЪЪЪ.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Ma’naviy – ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida. – “Halq so‘zi” gazetasi, 2017 yil, 29 iyulЪЪЪ.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Diniy – ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risida. – “Halq so‘zi” gazetasi, 2018 yil, 17 aprelЪЪЪ.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Yoshlarni ma’naviy – ahloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim – tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora – tadbirlari to‘g‘risida. – “Xalq so‘zi” gazetasi, 2018 yil, 14 avgust.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. O‘zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida. – “Xalq so‘zi” gazetasi, 2019 yil, 7 iyunЪЪЪ.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi kutubxona - axborot markazi faoliyatini tashkil etishning choralari to‘g‘risida”gi 1729 -sonli Qarori. 2012 yil 20 mart.

10. O‘zbekiston Respublikasining “Kutubxona-axborot faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni // Xalq so‘zi.-2011 yil 14 aprely.
11. Adabiy viktorinalar: (Savol-javob o‘yinlari). Metodik qo‘llanma / Tuzuvchi Z. Berdiyeva.-Toshkent,1989.-18 b.
12. Adabiy mutolaalar: Tayyorlash va o‘tkazish metodikasi /Tuzuvchi Berdiyeva Z.SH.- Toshkent,1987.-16 b.
13. Alimova O. Kutubxonashunoslik: 3 jildlik.-Toshkent: Ilm-ziyo, 2007.
14. Badiiy adabiyotlarni targ‘ib qilishning ommaviy usullari: Metodik qo‘llanma/Tuzuvchi Berdiyeva Z.SH.- Toshkent,1989.- 24 b.
15. Ivanova B. Fandrayzingu nujno uchitsya //Biblioteka.-2002.- № 2.- S. 26-28.
- 16.Imomnazarov M. Milliy ma’naviyatimiz nazariyasiga chizgilar.- Toshkent, Sharq,1998.-240 b.
17. Islomov E.,Yo‘ldoshev E. Maktab-lisey kutubxonasi ishini tashkil etish: o‘quv qo‘llanma.-Toshkent, O‘qituvchi, 1997.-127 b.
18. Islomov E.G.,Yo‘ldoshev E. Maktab kutubxonasi ishini tashkil etish: o‘quv qo‘llanma.- Toshkent,O‘qituvchi, 1992.-88 b.
19. Yo‘ldoshev E. Kutubxona va yosh foydalanuvchi: O‘quv qo‘llanma.- Toshkent, 2003.-200 b.
20. Yo‘ldoshev E. Kutubxona fondlarini tashkil etish: Akademik lisey, kasb-hunar qollejlari uchun o‘quv qo‘llanma /O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi markazi.-Toshkent: Ma’rifat-Madadkor”, 2002.-95 b.
- 21.Yo‘ldoshev E. Kutubxonada bolalar mutolaasiga rahbarlik qilish: O‘quv qo‘llanma /O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi markazi; Muharrir S. Mirzaahmedova.-Toshkent: O‘zbekiston, 2002.-127 b.
22. Kovalenko A. P., Umarov A. A., Rasulov M. M. Osnovi bibliotekovedeniya: Uchebnoye posobiye. Tashkent.: Izd. Nasionalnoy biblioteki Uzbekistana im. Alishera Navoi.-2008. 128 s.
- 23.Majirina YE., Ryabova Y. Konferensiya -eto forma uchebi //Biblioteka.-2002.- № 12.-S.60-61.

24. Oxunjonov E. Vatan kutubxonachiligi tarixi.-1 qism: Qadimiyat, ilk oʻrta va oʻrta asrlar: Oʻquv qoʻllanma / Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat madaniyat in-ti.-Toshkent: Adolat,2004.-106 b.

25. Oxunjonov E. Vatan kutubxonachiligi tarixi.-2-qism:Darslik / Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat madaniyat in-ti;Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi; masʼul muharrir A.Umarov; Nashr uchun masʼul A.Toʻrayev.-Toshkent: Oʻzbekiston MK nashriyoti, 2008.-308 b.

26.Rahmatullayev M.A., Umarov A.O., Karimov U., Muhammadiyev A.SH. Avtomatlashtirilgan kutubxona. Toshkent.: Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti.-2003.266 b.

27. Qosimova O.Gʻ., Yesimov T. Umumiy kutubxonashunoslik: Darslik.-Toshkent: Oʻqituvchi,1994.-272 b.

28. Gʻaniyeva D. Taʼlim maqsadlarini amalga oshirishda kutubxona - axborot markazlarining roli / Toʻplovchilar: D. Gʻaniyeva, R I. Ratner, D.Akramova.-Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.-330

MUNDARIJA

Kirish	3
I Bob. Kutubxonashunoslik fani rivojlanishining asosiy bosqichlari.....	5
§ 1.1 Kutubxonashunoslikka oid ilk qarashlarning shakllanishi.....	6
§ 1.2 Kutubxonashunoslikning ilmiy va o‘quv fani sifatida paydo bo‘lishi hamda rivojlanishi (XIX asr).....	8
§ 1.3 XX asrda kutubxonashunoslikning rivojlanishi.....	14
I I Bob. Kutubxonashunoslikning mohiyati, vazifalari va tizimi.....	27
§ 2.1 Kutubxonashunoslikning fan sifatidagi mohiyati.....	27
§ 2.2 Kutubxonashunoslik fanining tuzilmasi.....	29
I I I Bob Kutubxonashunoslikning metodologiyasi va metodikasi.....	30
§ 3.1 Kutubxonashunoslikning metodologiyasi.....	30
§ 3.2 Kutubxonashunoslikning ilmiy metodikasi.....	34
§ 3.3 Kutubxonashunoslikka oid tadqiqotlarni tashkil etish.....	46
IV Bob. Kutubxonashunoslikning maqomi va uning fanlar tizimidagi o‘rni.....	47
§ 4.1 Ilmiy bilimlar tizimida kutubxonashunoslik maqomining umumiy tasnifi.....	47
§ 4.2 Kutubxonashunoslik va Kutubxona-bibliografik hamda axborot sohalariga oid fanlar.....	48
§ 4.3 Kutubxonashunoslik va ijtimoiy fanlar.....	51
V Bob. Kutubxonalarning tarkibiy funksional tahlili.....	55
§ 5.1 Kutubxonaning tarkibiy tavsifi: asosiy elementlar va quyi tizimlar.....	55
§ 5.2 Hujjat.....	56
§ 5.3 Foydalanuvchi.....	57
§ 5.4 Kutubxonachi.....	57

§ 5.5 Moddiy-texnik baza.....	58
§ 5.6 Kutubxonaning boshqa elementlari.....	59
VI Bob. Kutubxonaning vazifa bajarishga oid tavsifi.....	59
§ 6.1 Kutubxona mavjudligining asosiy elementlari.....	60
§ 6.2 Tashqi muhit va qaytariluvchi aloqa.....	60
§ 6.3 Kutubxona-axborot faoliyati jarayoni.....	61
§ 6.4 Kutubxona-axborot faoliyatining natijasi.....	62
§ 6.5 Kutubxonaning tashkiliy tuzilmasi.....	63
VII Bob. Kutubxonalar tipologiyasi.....	64
§ 7.1 “Kutubxonalar tipologiyasi” tushunchasini ta’riflash.....	64
§ 7.2 Milliy kutubxonalar.....	66
§ 7.3 Axborot-kutubxona markazlari.....	69
§ 7.4 Maxsus kutubxonalar.....	70
§ 7.5 Maxsus kutubxonalarning tarmoq tabaqalanishi.....	72
§ 7.6 Maxsus kutubxonalarni tashkilotlarning faoliyat xususiyati bo‘yicha farqlash.....	73
VIII Bob. Kutubxonachilik kasbi.....	75
§ 8.1 Kutubxonachilik kasbi va kutubxonachi shaxsi.....	75
§ 8.2 Kutubxona faoliyatining jamoaviy xususiyati va kutubxonachilar faoliyatining ijodiy tabiati	77
§ 8.3 Kutubxonachining shaxsiga qo‘yiladigan umumiy kasbiy talablar.....	78
§ 8.4 Kutubxona faoliyatining va kutubxonachilik mutaxassisligi turlarining xilma- xilligi	80
IX Bob. Kutubxonachilik ishi ijtimoiy tizim sifatida	80
§ 9.1 Kutubxonachilik ishining tarkibi.....	80
§ 9.2 Kutubxonalar tarmog‘i kutubxonalar majmuasi sifatida.....	81
§ 9.3 Kutubxona tarmog‘i – boshqarishning tashkiliy birligi sifatida.....	81
§ 9.4 Hududiy belgi.....	81
§ 9.5 Kutubxonachilik ishining mavjudligi va tashkil etilishining asosiy tamoyillari.....	82

§ 9.6 Kutubxona xizmatining hamma uchun tengligi	82
§ 9.7 Foydalanuvchilar qiziqishlarining ustuvorligi.....	83
§ 9.8 Kutubxonachilik ishining tizimligi.....	84
§ 9.9 Kutubxonachilik ishidagi ziddiyatlar va ularni hal etish yo‘llari.....	85
X Bob. Kutubxona-axborot muassasalarining turlari va ularning xususiyatlari.....	85
XI Bob. Foydalanuvchilarga kutubxona-axborot xizmati ko‘rsatish tamoyillari.....	120
§ 11.1 Foydalanuvchilarga kutubxona-axborot xizmati ko‘rsatishda ilmiylik tamoyili.....	121
§ 11.2 Foydalanuvchilarga kutubxona-axborot xizmati ko‘rsatishda tizimlilik tamoyili.....	126
§ 11.3 Foydalanuvchilarga kutubxona-axborot xizmati ko‘rsatishda majmuaviylik tamoyili.....	127
§ 11.4 Bosma nashr mahsulotlari, ma’lumotlar va axborotlardan foydalanishda ongli va faol munosabatni tarbiyalash tamoyili.....	128
§ 11.5 Kutubxona-axborot xizmati ko‘rsatishda foydalanuvchilarni o‘rganish asosida guruhlashtirilgan tarzda yondashuv tamoyili.....	129
§ 11.6 Foydalanuvchilarga kutubxona-axborot xizmati ko‘rsatishda ko‘rgazmalilik tamoyili.....	130
XII Bob. Kutubxona-axborot muassasalarida foydalanuvchilarga yakka tartibda xizmat ko‘rsatish.....	133
§ 12.1 Foydalanuvchilar bilan yakka tartibda suhbat o‘tkazish	137
§ 12.2 Foydalanuvchilarning qiziqishi, talab va ehtiyojlarini o‘rganish.....	140
§ 12.3 Foydalanuvchi formulyarini tahlil qilish.....	150
XIII Bob. Foydalanuvchilar bilan o‘tkaziladigan ommaviy ishlar, ularning maqsadi, vazifalari, turlari, xususiyatlari.....	153
XIV Bob. Kutubxona-axborot muassasalarida mutolaa madaniyatini shakllantirish	193

XV Bob. Kutubxona boshqaruvi (menejmenti): asosiy tushunchalari va kategoriyalari.....	197
§ 15.1 Kutubxona boshqaruvi (menejment) tushunchasi.....	197
§ 15.2 Kutubxonachilik ishini boshqarishning davlat tizimi.....	198
§ 15.3 Kutubxona-axborot faoliyati marketingi.....	201
XVI Bob. Kutubxona-axborot muassasasining turiga ko‘ra tarkibiy bo‘linmalari, ularning vazifalari va o‘zaro aloqasi	203
XVII Bob. Qadimgi dunyo kutubxonalari	227
XVIII Bob. O‘zbekistonda kutubxonachilik ishi tarixi faniga kirish	235
XIX Bob. O‘zbekiston hududida arablar istilyosiga qadar vujudga kelgan yozuv, dastlabki kitob va kutubxonalar	237
XX Bob. O‘rta Osiyoning qadimgi kutubxonalari	240
XXI Bob. O‘rta Osiyoda bibliografiyaning paydo bo‘lishi.....	243
XXII Bob. Amir Temur va Temuriylar davrida madaniy hayot va kutubxonalar..	250
XXIII Bob. Shayboniylar hukmdorligi davrida kutubxonalar.....	268
XXIV Bob. XVIII- XIX asrlarda Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonliklarida madaniy hayot va kutubxonalar.....	272
XXV Bob. XVIII- XIX asrlarda o‘zbek xonliklarida kitob savdosi.....	289
XXVI Bob. Sharq qo‘lyozma kitoblarini to‘plash va saqlashda Turkistondagi mahalliy muassasalar va olimlarning roli.....	293
XXVII Bob. Ilk o‘rta asrlarda (V-VI) Sharq davlatlari kutubxonalari	315
XXVIII Bob. Germaniya davlati kutubxonalari.....	306
XXIX Bob. AQSH kutubxonalari.....	308
XXX Bob. Buyuk Britaniya kutubxonalari.....	309
XXXI Bob. Fransiya kutubxonalari.....	311
XXXII Bob. Xitoy milliy kutubxonalari	313
XXXIII Bob. Rossiya Federasiyasining yirik kutubxonalari.....	313

ILOVALAR

Sohaga oid qonuniy xujjatlar

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNI

“Kutubxona - axborot faoliyati to‘g‘risida”

2011 yil 13 apreль, 280-son

- Qonunchilik palatasi tomonidan 2011 yil 4 martda qabul qilingan.
- Senat tomonidan 2011 yil 25 martda ma’qullangan

1-bob. Umumiy qoidalar

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi kutubxona-axborot faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modda. Kutubxona-axborot faoliyati to‘g‘risidagi qonun hujjatlari

Kutubxona-axborot faoliyati to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining kutubxona-axborot faoliyati to‘g‘risi-dagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

kutubxona - axborot resursi - moddiy obyektida matn, ovozli yozuv yoki tasvir

tarzida qayd etilgan hamda identifikasiyalash, saqlash va foydalanishni ta'minlash uchun rekvizitlarga ega bo'lgan axborot;

kutubxona-axborot faoliyati -kutubxona-axborot muassasalarining axborot-kommunikasiya texnologiyalari asosida kutubxona-axborot fondlarini shakllantirish va kutubxona - axborot xizmati ko'rsatishni tashkil etish bo'yicha faoliyati;

kutubxona - axborot fondi — tizimlashtirilgan kutubxona - axborot resurslarining majmui;

kutubxona - axborot xizmati ko'rsatish — foydalanuvchilarning kutubxona - axborot resurslaridan foydalanishini ta'minlash;

yig'ma elektron katalog — kutubxona - axborot muassasalarining elektron kataloglari majmui;

foydalanuvchi — kutubxona - axborot xizmati ko'rsatilishi uchun kutubxona - axborot muassasasida ro'yxatga olingan shaxs;

elektron katalog — tizimlashtirilgan kutubxona - axborot resurslari ro'yxatining elektron shakli;

elektron kutubxona — kutubxona - axborot fondining elektron shakli.

4-modda. Kutubxona - axborot faoliyatining asosiy vazifalari

Kutubxona - axborot faoliyatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- foydalanuvchilarning kutubxona - axborot resurslaridan foydalanishini ta'minlash;
- foydalanuvchilarning intellektual, ma'naviy-axloqiy, madaniy va ta'lim olish ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- milliy madaniyatni tiklashga va yanada rivojlantirishga ko'maklashish, O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini saqlash;
- axborot-kommunikasiya texnologiyalari asosida kutubxona - axborot resurslaridan o'zaro foydalanishni ta'minlash.

2-bob. Kutubxona - axborot faoliyati sohasining davlat tomonidan tartibga solinishi

5-modda. Kutubxona - axborot faoliyati sohasidagi davlat boshqaruvi

Kutubxona - axborot faoliyati sohasidagi davlat boshqaruvi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va u kutubxona - axborot faoliyati sohasida maxsus

vakolat bergan davlat organi (bundan buyon matnda maxsus vakolatli davlat organi deb yuritiladi) tomonidan amalga oshiriladi.

6-modda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining kutubxona - axborot faoliyati sohasidagi vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

- kutubxona - axborot faoliyati sohasidagi davlat siyosatining amalga oshirilishini ta’minlaydi;
- kutubxona - axborot faoliyati sohasidagi davlat dasturlarini tasdiqlaydi;
- kutubxona - axborot faoliyati sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qiladi;
- kutubxona - axborot muassasalarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonun hujjat-lariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

7-modda. Maxsus vakolatli davlat organi

Maxsus vakolatli davlat organi:

- kutubxona - axborot faoliyati sohasidagi davlat siyosatining amalga oshirilishida ishtirok etadi;
- kutubxona - axborot faoliyati sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;
- kutubxona - axborot muassasalari faoliyatini muvofiqlashtiradi;
- kutubxona - axborot faoliyati sohasidagi normativ-huquqiy hujjat-lar va normativ hujjatlarni ishlab chiqadi hamda qabul qiladi;
- kutubxona - axborot resurslarini noyob va alohida qimmatli kutubxona - axborot resurslari sirasiga kiritish tartibini, shuningdek ularni saqlash va ulardan foydalanish tartibini belgilaydi;
- kutubxona - axborot faoliyati sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etadi;
- kutubxona - axborot muassasalarining hisobini yuritadi;
- yig‘ma elektron katalogni shakllantirish va yuritish tartibini tasdiqlaydi.

Maxsus vakolatli davlat organi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

8-modda. Kutubxona - axborot muassasalarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash

Kutubxona - axborot muassasalarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash:

- ularning moliyaviy va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;
- kutubxona - axborot faoliyatini rivojlantirishga investisiyalar jalb etish;
- kutubxona - axborot faoliyatini amalga oshirishda soliq imtiyozlari va boshqa imtiyozlarni belgilash orqali amalga oshiriladi.

3-bob. Kutubxona - axborot tizimi

9-modda. Kutubxona - axborot tizimi hamda kutubxona - axborot muassasalarining turlari

Kutubxona - axborot tizimi yagona tashkiliy va uslubiy ta’minot asosida faoliyat ko‘rsatuvchi kutubxona - axborot muassasalari majmuidir.

Kutubxona - axborot muassasasi mustaqil muassasa bo‘lishi yoxud korxonalar, muassasa yoki tashkilotning tarkibiy bo‘linmasi bo‘lishi mumkin.

Kutubxona - axborot muassasalariga quyidagilar kiradi:

- O‘zbekiston Milliy kutubxonasi;
- kutubxona - axborot markazlari;
- kutubxona - axborot markazlari;
- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining kutubxonalari;
- boshqa kutubxonalar (fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining, tijorat tashkilotlarining kutubxonalari).

Kutubxona - axborot muassasalari kutubxona - axborot fondlarining mazmuni va belgilangan maqsadiga ko‘ra universal hamda maxsus kutubxona - axborot

muassasalariga bo‘linadi.

Universal kutubxona - axborot muassasalari kutubxona - axborot fondlarini bilimning turli sohalari bo‘yicha shakllantiradi va turli toifadagi foydalanuvchilarning axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini qanoatlantiradi.

Maxsus kutubxona - axborot muassasalari kutubxona - axborot fondlarini bilimning bir yoki bir necha turdosh sohalari bo‘yicha shakllantiradi va ayrim toifadagi foydalanuvchilarning axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini qanoatlantiradi.

10-modda. O‘zbekiston Milliy kutubxonasi

O‘zbekiston Milliy kutubxonasi milliy va jahon madaniyatini, fani va ta’limini rivojlantirish manfaatlarini ko‘zlagan holda O‘zbekiston Respublikasida kutubxona - axborot faoliyatini tashkil etuvchi hamda amalga oshiruvchi umumdavlat universal kutubxona - axborot muassasasidir.

O‘zbekiston Milliy kutubxonasi:

- kutubxona - axborot faoliyati sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi;
- kutubxona - axborot fondini shakllantiradi, uning but saqlanishini ta’minlaydi hamda foydalanuvchilarga milliy va xorijiy nashrlarning eng to‘liq to‘plamini taqdim etadi;
- O‘zbekiston Respublikasida chiqariladigan nashrlarning majburiy nusxasini, shuningdek dissertasiyalarning ko‘chirma nusxasini oladi;
- O‘zbekiston Respublikasida chiqariladigan nashrlarning davlat bibliografik hisobini yuritadi;
- elektron kutubxona va elektron katalogni shakllantiradi;
- kutubxonashunoslik, bibliografiyashunoslik va kitobshunoslik sohasida ilmiy-tadqiqot hamda ilmiy-uslubiy faoliyatni amalga oshiradi va muvofiqlashtiradi;
- noyob va alohida qimmatli kutubxona - axborot resurslarini but saq-lash, konservasiyalash va restavrasiya qilish bo‘yicha ishlarni amalga oshiradi;
- yig‘ma elektron katalogni shakllantiradi va yuritadi;
- kutubxona - axborot resurslaridan o‘zaro foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratadi;
- boshqa kutubxona - axborot muassasalari bilan hamkorlikni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Milliy kutubxonasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

O‘zbekiston Milliy kutubxonasining kutubxona - axborot fondi davlat mulkidir.

O‘zbekiston Milliy kutubxonasi to‘g‘risidagi nizom O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

11-modda. Kutubxona - axborot markazlari

Kutubxona - axborot markazlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida kutubxona - axborot faoliyatini tash-kil etuvchi hamda amalga oshiruvchi universal kutubxona - axborot muassasalaridir.

Kutubxona - axborot markazlari:

- kutubxona - axborot fondini shakllantiradi va uning but saqlanishini ta’minlaydi;
- elektron kutubxona va elektron katalogni shakllantiradi;
- tegishli hududda chiqariladigan nashrlarning majburiy nusxasini oladi;
- bibliografik, ilmiy-uslubiy va madaniy-ma’rifiy ishlarni bajaradi;
- tegishli hududda kutubxona - axborot muassasalari faoliyatini muvofiqlashtiradi va ularni tashkiliy-uslubiy jihatdan ta’minlashni amalga oshiradi;
- yig‘ma elektron katalogni shakllantirishda ishtirok etadi;
- kutubxona - axborot resurslaridan o‘zaro foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratadi;
- boshqa kutubxona - axborot muassasalari bilan hamkorlikni amalga oshiradi;
- tegishli hududda kutubxona - axborot muassasalarining depozitar saqlanadigan kutubxona - axborot resurslarini to‘plashni amalga oshiradi va ularning hisobini yuritadi.

Kutubxona - axborot markazlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Kutubxona - axborot markazlarining kutubxona - axborot fondi davlat mulkidir.

Kutubxona - axborot markazi to‘g‘risidagi namunaviy nizom O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

12-modda. Kutubxona - axborot markazlari

Kutubxona - axborot markazlari davlat ta’lim muassasalari ho‘zurida tashkil etilgan, o‘quvchi yoshlarning, shuningdek aholining axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini

qanoatlantirishga qaratilgan kutubxona - axborot faoliyatini amalga oshiruvchi universal kutubxona - axborot muassasalaridir.

Kutubxona - axborot markazlari:

- ta’lim muassasasining ixtisoslashuviga muvofiq asosan ilmiy-ta’limga oid mazmundagi kutubxona - axborot fondini shakllantiradi va uning but saqlanishini ta’minlaydi;
- elektron kutubxona va elektron katalogni shakllantiradi;
- shaxsning ma’naviy boy va barkamol ijodiy o‘sishi uchun imkoniyatlar yaratgan holda o‘zidagi va o‘zidan o‘zoqdagi kutubxona - axborot resurslaridan foydalanish asosida O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma’naviy va madaniy merosidan foydalanuvchilarni bahramand etadi;
- kutubxona - axborot resurslaridan o‘zaro foydalanishni ta’minlaydi;
- boshqa kutubxona - axborot muassasalari bilan hamkorlikni amalga oshiradi;
- yig‘ma elektron katalogni shakllantirishda ishtirok etadi;
- madaniy, ta’lim, axborot dasturlari va loyihalarini hamda boshqa dasturlar va loyihalarni birgalikda amalga oshirish uchun ta’lim, ilmiy muassasalar va arxivlar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, milliy madaniyat markazlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantiradi.

Kutubxona - axborot markazlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Kutubxona - axborot markazlarining kutubxona - axborot fondi davlat mulkidir.

Kutubxona - axborot markazi to‘g‘risidagi namunaviy nizom O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

13-modda. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining kutubxonalari

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining kutubxonalari qonun hujjatlarida belgilanadigan tartibda kutubxona - axborot faoliyatini amalga oshiruvchi maxsus kutubxona - axborot muassasalaridir.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining kutubxonalari:

- kutubxona - axborot fondini shakllantiradi va uning but saqlanishini ta'minlaydi;
- elektron kutubxona va elektron katalogni shakllantiradi;
- kutubxona - axborot resurslaridan o'zaro foydalanishni ta'minlaydi;
- boshqa kutubxona - axborot muassasalari bilan hamkorlikni amalga oshiradi;
- yig'ma elektron katalogni shakllantirishda ishtirok etadi.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari kutubxonalarining kutubxona - axborot fondi davlat mulkidir.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining kutubxonalari to'g'risidagi nizomlar ushbu organlarning rahbarlari tomonidan tasdiqlanadi.

14-modda. Boshqa kutubxonalar

Boshqa kutubxonalar o'z muassislari tomonidan belgilanadigan tartibda kutubxona - axborot faoliyatini amalga oshiruvchi universal yoki maxsus kutubxona - axborot muassasalaridir.

Boshqa kutubxonalar:

- kutubxona - axborot fondini shakllantiradi va uning but saqlanishini ta'minlaydi;
- elektron kutubxona va elektron katalogni shakllantiradi;
- kutubxona - axborot resurslaridan o'zaro foydalanishni ta'minlaydi;
- boshqa kutubxona - axborot muassasalari bilan hamkorlikni amalga oshiradi;
- yig'ma elektron katalogni shakllantirishda ishtirok etadi.
- Boshqa kutubxonalarning kutubxona - axborot fondi ularning muassislari mulkidir.

Boshqa kutubxonalar to'g'risidagi nizomlar ularning muassislari tomonidan tasdiqlanadi.

15-modda. Kutubxona - axborot muassasalarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish

Kutubxona - axborot muassasalarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

4-bob. Kutubxona - axborot fondi

16-modda. Kutubxona - axborot fondini shakllantirish

Kutubxona - axborot fondini shakllantirish kutubxona - axborot muassasasining maqsadlari va vazifalariga muvofiq uni jamlash, hisobga olish, ishlovdan o'tkazish, joylashtirish va saqlash orqali amalga oshiriladi.

17-modda. Kutubxona - axborot fondini jamlash

Kutubxona - axborot fondi nashrlarni va boshqa axborot-kutub-xona resurslarini sotib olish, ularga obuna bo'lish, ularni ayir-boshlash, tekinga olish, shu jumladan hadyaga olish hisobiga jamlanadi.

18-modda. Kutubxona - axborot fondini hisobga olish, ishlovdan o'tkazish, joylashtirish, saqlash va undan foydalanish

Kutubxona - axborot fondini hisobga olish, ishlovdan o'tkazish, joylashtirish, saqlash va undan foydalanish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Kutubxona - axborot fondining nashrlar majburiy nusxasini olish hisobiga jamlanadigan, shuningdek noyob va alohida qimmatli kutubxona - axborot resurslarini o'z ichiga olgan qismi milliy mada-niy boylik bo'lib, moddiy madaniy meros obyeksi sifatida saqlanadi.

Kutubxona - axborot muassasalarining moddiy-texnika ta'minoti yomonlashuviga, ularni mehnatni muhofaza qilish talablariga, kutubxona - axborot fondlarini saqlash normalari va shart-sharoitlariga mos kelmaydigan binolarga ko'chirishga yo'l qo'yilmaydi.

5-bob. Foydalanuvchilarning huquq va majburiyatlari

19-modda. Foydalanuvchilarning huquqlari

Foydalanuvchilar quyidagi huquqlarga ega:

- kutubxona - axborot muassasalariga kirish va kutubxona - axborot resurslaridan foydalanish;
- o'z ehtiyojlariga mos tarzda axborotni erkin tanlab olish;
- ko'rsatiladigan xizmatlarning, shu jumladan pulli xizmatlarning ro'yxati hamda ularni ko'rsatish shartlari haqida axborot olish;
- so'ralayotgan kutubxona - axborot resurslarining mavjudligi haqida axborot olish.

Foydalanuvchilar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

20-modda. Foydalanuvchilarning majburiyatlari

Foydalanuvchilar:

- kutubxona - axborot muassasalarida foydalanish qoidalariga rioya etishi;
- kutubxona - axborot resurslariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishi, ularning yo‘qolishiga yoki bo‘zilishiga yo‘l qo‘ymasligi, zarar yetkazilgan taqdirda esa belgilangan tartibda uning o‘rnini qoplashi;
- kutubxona - axborot muassasalari ishining sifatini pasaytirishga qaratilgan xatti-harakatlar qilmasligi shart.

Foydalanuvchilar zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

21-modda. Jismoniy imkoniyatlari cheklangan foydalanuvchilarga kutubxona - axborot xizmati ko‘rsatish

Jismoniy imkoniyatlari cheklangan foydalanuvchilarga kutubxona - axborot xizmati ko‘rsatish kutubxona - axborot muassasalarida maxsus texnika vositalaridan foydalangan holda axborot yozilgan maxsus jismlarda kutubxona - axborot resurslarini taqdim etish orqali amalga oshiriladi.

6-bob. Kutubxona - axborot muassasalarini moliyalashtirish.

Kutubxona - axborot muassasalarining birlashmalari.

Xalqaro hamkorlik

22-modda. Kutubxona - axborot muassasalarini moliyalashtirish

Kutubxona - axborot muassasalarini moliyalashtirish quyida-gilar hisobidan amalga oshiriladi:

- O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti mablag‘lari;
- muassislarning mablag‘lari;
- pulli xizmatlar ko‘rsatishdan olinadigan mablag‘lar;
- qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

23-modda. Kutubxona - axborot muassasalarining birlashmalari

Kutubxona - axborot muassasalari kutubxona - axborot faoliyatini muvofiqlashtirish, shuningdek umumiy manfaatlarini ifodalash va himoya qilish

maqsadida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda birlashmalar tuzishi mumkin.

- Kutubxona - axborot muassasalarining birlashmalari:
- kutubxona - axborot faoliyatini rivojlantirishga ko‘maklashadi;
- kutubxona - axborot faoliyati sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi;
- kutubxona-axborot faoliyati to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlaydi;
- kutubxona - axborot muassasalari kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etishda ishtirok etadi.
- Kutubxona-axborot muassasalarining birlashmalari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

24-modda. Kutubxona-axborot faoliyati sohasidagi xalqaro hamkorlik

Kutubxona - axborot faoliyati sohasidagi xalqaro hamkorlik O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalariga muvofiq amalga oshiriladi.

7-bob. Yakunlovchi qoidalar

25-modda. Nizolarni hal etish

Kutubxona - axborot faoliyati sohasida yuzaga keladigan nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

26-modda. Kutubxona - axborot faoliyati to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik

Kutubxona - axborot faoliyati to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

27-modda. Qonun hujjatlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirish

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;

davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo‘lgan o‘z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko‘rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta‘minlasin.

28-modda. Ushbu Qonunning kuchga kirishi

Ushbu Qonun rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasining Qonuni

Axborotlashtirish to‘g‘risida

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

2-modda. Axborotlashtirish to‘g‘risidagi qonun xujjatlari

3-modda. Asosiy tushunchalar

4-modda. Axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosati

5-modda. Axborotlashtirish sohasini davlat tomonidan tartibga solish

6-modda. Maxsus vakolatli organ

7-modda. Axborot resurslari va axborot tizimlarining xukuqiy rejimi

8-modda. Axborotni xujjatlashtirish

9-modda. Axborot resurslari va axborot tizimlariga bo‘lgan mulk xukuqi

10-modda. Davlat axborot resurslari

11-modda. Axborot resurslaridan erkin foydalanish toifalari

12-modda. Axborot resurslaridan foydalanish

13-modda. Jismoniy shaxslarning shaxsiga taalluqli ma’lumotlar tug‘risidagi axborotni o‘z ichiga olgan axborot resurslari

14-modda. O‘zlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ichiga olgan axborot resurslaridan yuridik va jismoniy shaxslarning erkin foydalanishi

15-modda. Milliy axborot tizimi

16-modda. Axborot tizimlaridan bitimlar tuzishda foydalanish

17-modda. Axborot tizimlarining texnika vositalarini sertifikatlashtirish

18-modda. Axborot tizimlarining tarmoqlararo bog‘lanishi

19-modda. Axborot resurslari va axborot tizimlarini muhofaza qilish

20-modda. Axborot resurslari va axborot tizimlari muxofaza qilinishini tashkil etish

21-modda. Halk. aro axborot tarmokdariga ulanish

22-modda. Nizolarni hal etish

23-modda. Axborotlashtirish to'g'risidagi qonun xujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik

1-modda. Ushbu qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi axborotlashtirish, axborot resurslari va axborot tizimlaridan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modda. Axborotlashtirish to'g'risidagi qonun hujjatlari

Axborotlashtirish to'g'risidagi qonun xujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun xujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining halqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining axborotlashtirish to'g'risidagi qonun xujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, halqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

axborotlashtirish — yuridik va jismoniy shaxslarning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun axborot resurslari, axborot texnologiyalari hamda axborot tizimlaridan foydalangan holda sharoit yaratishning tashkiliy ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy jarayoni;

axborot resursi — axborot tizimi tarkibidagi elektron shakldagi axborot, ma'lumotlar banki, ma'lumotlar bazasi;

axborot resurslarining yoki axborot tizimlarining mulkdori — axborot resurslariga yoki axborot tizimlariga egalik qiluvchi, ulardan foydalanuvchi va ularni tasarruf etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs;

axborot resurslarining yoki axborot tizimlarining egasi — qonun bilan yoki axborot resurslarining, axborot tizimlarining mulkdori tomonidan belgilangan huquqlar doirasida axborot resurslariga yoxud axborot tizimlariga egalik qiluvchi, ulardan foydalanuvchi va ularni tasarruf etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs;

axborot texnologiyasi — axborotni to'plash, saqlash, izlash, unga ishlov berish va uni tarqatish uchun foydalaniladigan jami uslublar, kurilmalar, usullar va jarayonlar;

axborot tizimi — axborotni to‘plash, saqlash, izlash, unga ishlov berish hamda undan foydalanish imkonini beradigan, tashkiliy jihatdan tartibga solingan jami axborot resurslari, axborot texnologiyalari va aloqa vositalari.

4-modda. Axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosati

Axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosati axborot resurslari, axborot texnologiyalari va axborot tizimlarini rivojlantirish hamda takomillashtirishning zamonaviy jaxon tamoyillarini hisobga olgan holda milliy axborot tizimini yaratishga qaratilgan.

Axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yunalishlari quyidagilardan iborat:

har kimning axborotni erkin olish va tarqatishga doir konstitusiyaviy hukuqlarini amalga oshirish, axborot resurslaridan erkin foydalanilishini ta’minlash;

davlat organlarining axborot tizimlari, tarmok, va xududiy axborot tizimlari, shuningdek yuridik hamda jismoniy shaxslarning axborot tizimlari asosida O‘zbekiston Respublikasining yagona axborot makonini yaratish;

halqaro axborot tarmokdari va Internet jaxon axborot tarmog‘idan erkin foydalanish uchun sharoit yaratish;

davlat axborot resurslarini shakllantirish, axborot tizimlarini yaratish hamda rivojlantirish, ularning bir-biriga mosligini va o‘zaro aloqada ishlashini ta’minlash;

axborot texnologiyalarining zamonaviy vositalari ishlab chikarilishini tashkil etish;

axborot resurslari, xizmatlari va axborot texnologiyalari bozorini shakllantirishga kumaklashish;

dasturiy mahsulotlar ishlab chikarish rivojlantirilishini rag‘batlantirish;

tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, investisiyalarni jalb etish uchun qulay sharoit yaratish;

kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ilmiy tadqiqotlarni rag‘batlantirish.

5-modda. Axborotlashtirish sohasini davlat tomonidan tartibga solish

Axborotlashtirish sohasini davlat tomonidan tartibga solishni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va u maxsus vakolat bergan organ amalga oshiradi.

6-modda. Maxsus vakolatli organ

Maxsus vakolatli organ:

davlat axborot resurslarini shakllantirish ishlarini tashkil etadi va muvofikdashtiradi;
axborotlashtirish va axborot texnologiyalarini rivojlantirish davlat dasturlarini ishlab
chiqadi;

davlat organlarining axborot tizimlari, tarmoq va hududiy axborot tizimlari
yaratilishiga ko'maklashadi;

axborotlashtirish sohasidagi standartlar, normalar va qoidalarni ishlab chiqadi;

axborot tizimlari va axborot texnologiyalarining texnika vositalari hamda xizmatlarini
sertifikatlashtirish ishlarini tashkil etadi;

yuridik va jismoniy shaxslarning o'z axborot resurslari hamda axborot tizimlari
muxofaza etilishini ta'minlash borasidagi faoliyatini muvofikdashtiradi;

axborot resurslari, xizmatlari va axborot texnologiyalari bozorini rivojlantirishga
ko'maklashadi;

axborotlashtirish sohasida marketing tadqiqotlari va monitoringni tashkil etadi;

axborot resurslaridan foydalanuvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini
himoya qilish choralarini amalga oshiradi;

O'zbekiston Respublikasining mudofaa qobiliyati va xavfsizligi manfaatlarini ko'zlab
axborot xavfsizligini hamda axborot tizimlaridan ustuvor foydalanilishini ta'minlaydi;

qonun xujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

7-modda. Axborot resurslari va axborot tizimlariniig huquqiy rejimi

Axborot resurslari va axborot tizimlariniig huquqiy rejimi quyidagilarni belgilovchi
normalar bilan aniqlanadi:

axborotni xujjatlashtirish, axborot resurslarini shakllantirish va axborot tizimlarini
yaratish tartibini;

axborot resurslariga va axborot tizimlariga bo'lgan mulk huquqini;

axborot resurslarining ulardan erkin foydalanish darajasi bo'yicha toifasini;

axborot resurslari va axborot tizimlarini muhofaza qilish tartibini;

axborot tizimlariniig tarmoqlararo ulanishi tartibini.

8-modda. Axborotni xujjatlashtirish

Axborotni xujjatlashtirish axborotni axborot resurslariga kiritishning majburiy shartidir: axborotni xujjatlashtirish tartibi maxsus vakolatli organ tomonidan belgilanadi.

Axborot resurslarida saqlanadigan va ishlov beriladigan, elektron raqamli imzo bilan tasdiklangan axborot elektron xujjat bo'lib, qog'oz xujjat bilan bir xil yuridik kuchga ega.

Elektron xujjatni va elektron raqamli imzoni shakllantirish hamda ulardan foydalanish bilan bog'liq munosabatlar qonun bilan tartibga solinadi.

9-modda. Axborot resurslari va axborot tizimlariga bo'lgan mulk huquqi

O'zbekiston Respublikasida axborot resurslari va axborot tizimlari ommaviy hamda xususiy mulk bo'lishi mumkin.

Axborot resurslari va axborot tizimlariga bo'lgan mulk huquqining vujudga kelishiga quyidagilar asos bo'ladi:

axborot resurslari hamda axborot tizimlarining davlat byudjeti mablag'lari, yuridik va jismoniy shaxslarning o'z mablag'lari yoki qonun xujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan yaratilishi;

axborot resurslari va axborot tizimlariga bo'lgan mulk huquqining o'zga shaxsga o'tishi shartlarini o'z ichiga olgan oldi- sotdi shartnomasi yoki boshqa bitim; meros olish.

Qonunda axborot resurslari va axborot tizimlariga bo'lgan mulk huquqi vujudga kelishining boshqa asoslari ham nazarda tutilishi mumkin.

1-modda. Davlat axborot resurslari

Davlat axborot resurslari quyidagilardan shakllantiriladi: davlat organlarining axborot resurslaridan; yuridik va jismoniy shaxslarning davlat byudjeti mablag'lari hisobidan yaratilgan axborot resurslaridan;

yuridik va jismoniy shaxslarning davlat sirlari hamda maxfiy axborotni o'z ichiga olgan axborot resurslaridan;

yuridik va jismoniy shaxslarning belgilangan tartibda taqdim etiladigan xujjatlashtirilgan axborotidan.

Yuridik va jismoniy shaxslar xujjatlashtirilgan axborotni davlat axborot resurslarini shakllantirish uchun tegishli davlat organlariga belgilangan tartibda taqdim etishi shart.

Yuridik va jismoniy shaxslarning xujjatlashtirilgan axborotni majburiy taqdim etish tartibi, davlat axborot resurslarini shakllantirish hamda ulardan foydalanish uchun mas'ul davlat organlarining ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan belgilanadi.

Davlat sirlari va maxfiy axborot jumlasiga kiritilgan axborotni taqdim etish tartibi qonun xujjatlari bilan belgilanadi.

2- modda. Axborot resurslaridan erkin foydalanish toifalari

Axborot resurslari ulardan erkin foydalanish toifalari bo'yicha hamma erkin foydalanishi mumkin bo'lgan axborot resurslariga va erkin foydalanilishi cheklab qo'yilgan axborot resurslariga bo'linadi.

Cheklanmagan doiradagi foydalanuvchilar uchun mo'ljallangan axborot resurslari hamma erkin foydalanishi mumkin bo'lgan axborot resurslaridir.

Davlat sirlari to'g'risidagi axborotni va maxfiy axborotni yoki erkin foydalanilishi axborot resurslarining mulkdorlari tomonidan cheklab qo'yilgan axborotni o'z ichiga olgan axborot resurslari erkin foydalanilishi cheklab qo'yilgan axborot resurslariga kiradi.

Axborot resurslarining mulkdorlari va egalari hamma erkin foydalanishi mumkin bo'lgan axborot resurslaridan yuridik hamda jismoniy shaxslarning teng HUQUQ asosida erkin tarzda foydalanishini ta'minlashi kerak.

Axborot resurslarini erkin foydalanish toifalariga kiritish qonun xujjatlarida belgilangan tartibda axborot resurslarining mulkdori tomonidan aniqdanadi.

3-modda. Axborot resurslaridan foydalanish

Axborot resurslaridan foydalanuvchilar axborot resurslaridan erkin foydalanishda teng huquqlarga ega, erkin foydalanilishi cheklab qo'yilgan axborot resurslari bundan mustasno.

Axborot resurslaridan foydalanganlik uchun belgilangan tartibda haq olinishi mumkin.

Axborot bilan ta'minlashga doir axborot va xizmatlar ro'yxatlarini, axborot resurslaridan erkin foydalanish tartibi hamda shartlari xaqidagi ma'lumotlarni axborot resurslarining mulkdorlari va egalari foydalanuvchilarga bepul taqdim etadi.

Yuridik va jismoniy shaxslar qonuniy asoslarda axborot resurslaridan o'zlari olgan axborotdan axborot manbaini albatta havola etgan holda axborot yaratish uchun foydalanishlari mumkin.

Axborot resurslaridan axborot olish tartibini axborot resurslarining mulkdori yoki egasi qonun xujjatlarida belgilangan talablarga rioya etgan holda aniqlaydi.

4-modda. Jismoniy shaxslarning shaxsiga taalluqli ma'lumotlar to'g'risidagi axborotni o'z ichiga olgan axborot resurslari

Jismoniy shaxslarning shaxsiga taalluqli ma'lumotlar to'g'risidagi axborotni o'z ichiga olgan axborot resurslarini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi qonun xujjatlari bilan belgilanadi.

Jismoniy shaxslarning shaxsiga taalluqli ma'lumotlar to'g'risidagi axborot maxfiy axborot toifasiga kiradi.

5-modda. O'zlari to'g'risidagi ma'lumotlarni ichiga olgan axborot resurslaridan yuridik va jismoniy shaxslarning erkin foydalanishi

Yuridik va jismoniy shaxslar o'zlari to'g'risidagi ma'lumotlarni ichiga olgan axborot resurslaridan erkin foydalanish, mazkur ma'lumotlarning to'liqligi hamda to'g'riligini ta'minlash maqsadida ularga aniqliklar kiritish huquqiga ega.

O'zlari to'g'risidagi ma'lumotlarni ichiga olgan axborot resurslaridan yuridik va jismoniy shaxslarning erkin foydalanishi qonun bilan cheklanishi mumkin.

Yuridik va jismoniy shaxslarga o'zlari to'g'risidagi ma'lumotlarni ichiga olgan axborot resurslaridan erkin foydalanishni axborot resurslarining mulkdori yoki egasi rad etganligi ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

6-modda. Milliy axborot tizimi

Milliy axborot tizimiga davlat organlarining axborot tizimlari, tarmoq va hududiy axborot tizimlari, shuningdek yuridik hamda jismoniy shaxslarning axborot tizimlari kiradi.

Milliy axborot tizimi davlat byudjeti mablag'lari, shuningdek yuridik va jismoniy shaxslarning o'z mablag'lari hamda qonun xujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan yaratiladi.

Milliy axborot tizimi uning tarkibiga kiruvchi axborot tizimlarining halqaro axborot tizimlari bilan bir-biriga mosligini hisobga olgan holda yaratiladi.

Milliy axborot tizimidan foydalangan xolda axborot almashish shartnoma asosida amalga oshiriladi, qonun xujjatlarida nazarda tutilgan xollar bundan mustasno.

7-modda. Axborot tizimlaridan bitimlar tuzishda foydalanish

Yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasida bitimlar tuzishda axborot tizimlaridan foydalanish qonun xujjatlari bilan tartibga solinadi.

8-modda. Axborot tizimlariniig texnika vositalarini sertifikatlashtirish

Axborot tizimlarini tashkil qiluvchi texnika vositalari qonun xujjatlarida belgilangan tartibda sertifikatlashtirilishi kerak.

Davlat organlari axborot tizimlarining, tarmoq va xududiy axborot tizimlarining, yuridik hamda jismoniy shaxslar axborot tizimlariniig davlat sirlari yoki maxfiy axborotni o'z ichiga olgan axborotni ishlovdan o'tkazish uchun mo'ljallangan texnika vositalari, shuningdek mazkur tizimlarni muxofaza kilish vositalari majburiy sertifikatlashtirilishi lozim.

9-modda. Axborot tizimlariniig tarmoqlararo bog'lanishi

Axborot tizimlariniig tarmoqlararo bog'lanishi turli axborot tizimlari o'rtasida axborot almashish uchun amalga oshiriladi.

Belgilangan normalar va qoidalarga muvofiq; o'zaro tarmoqlararo bog'lanish imkoniyatini axborot tizimlariniig mulkdorlari, egalari ta'minlaydi.

Turli axborot tizimlariniig tarmokdararo bog'lanishi axborot tizimlariniig mulkdorlari, egalari o'rtasidagi shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Tarmokdararo bog'lanishni amalga oshirish hamda turli axborot tizimlariniig o'zaro aloqada bulish tartibi va shartlari maxsus vakolatli organ tomonidan belgilanadi.

10-modda. Axborot resurslari va axborot tizimlarini muxofaza qilish

Axborot resurslari va axborot tizimlarini muxofaza qilish quyidagi makradlarda amalga oshiriladi:

shaxs, jamiyat va davlatning axborot xafsizligini ta'minlash;

axborot resurslarining tarqalib ketishi, o'g'irlanishi, yo'qotilishi, bo'zib talqin etilishi, to'sib qo'yilishi, qalbakilashtirilishi va ulardan boshqacha tarzda ruxsatsiz erkin foydalanilishining oldini olish;

axborotni yuk qilish, to'sib quyish, undan nusxa olish, uni bo'zib talqin etishga doir ruxsatsiz xdrakatlarning hamda axborot resurslari va axborot tizimlariga boshqa shakldagi aralashishlarning oldini olish;

axborot resurslaridagi mavjud davlat sirlari va maxfiy axborotni saqlash.

11-modda. Axborot resurslari va axborot tizimlari muxofaza qilinishini tashkil etish

Axborot resurslari va axborot tizimlari, agar ular bilan gayriqonuniy munosabatda bulish natijasida axborot resurslarining yoki axborot tizimlarining mulkdorlariga, egalariга yoxud boshqa yuridik hamda jismoniy shaxslarga zarar yetkazilishi mumkin bulsa, muxofaza qilinishi kerak.

Davlat organlari, yuridik va jismoniy shaxslar davlat sirlari Hamda maxfiy sirlar to'g'risidagi axborotni o'z ichiga olgan axborot resurslari va axborot tizimlarining muxofaza qilinishini ta'minlashi shart.

Axborot resurslari va axborot tizimlari muxofaza qilinishini tashkil etish tartibi ularning mulkdorlari, egalari tomonidan mustaqil belgilanadi.

Davlat sirlari hamda maxfiy sirlar to'g'risidagi axborotni o'z ichiga olgan axborot resurslari va axborot tizimlarining muxofaza qilinishini tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan belgilanadi.

12-modda. Halqaro axborot tarmoqlariga ulanish

Davlat organlari, yuridik va jismoniy shaxslar o'z axborot tizimlarini halqaro axborot tarmokdariga hamda Internet jaxon axborot tarmog'iga qonun xujjatlarida belgilangan tartibda ulashi mumkin.

Erkin foydalanilishi cheklab qo'yilgan axborot resurslarini o'z ichiga olgan axborot tizimlarining halqaro axborot tarmokdariga hamda Internet jaxon axborot tarmog'iga ulanishi faqat zarur muxofaza choralari ko'rilganidan keyin amalga oshiriladi.

13-modda. Nizolarni hal etish

Axborotlashtirish sohasidagi nizolar qonun xujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

14-modda. Axborotlashtirish to'g'risidagi qonun xujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik

Axborotlashtirish to'g'risidagi qonun xujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING

FARMOYISHI

12.01.2017 y.

N F-4789

KITOB MAHSULOTLARINI CHOP ETISH VA TARQATISH TIZIMINI RIVOJLANTIRISH, KITOB MUTOLAASI VA KITOBXONLIK MADANIYATINI OSHIRISH HAMDA TARG'IBOT QILISH BO'YICHA KOMISSIYA TUZISH TO'G'RISIDA

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda ta'lim muassasalari uchun o'quv adabiyotlari yaratish va o'quvchilarga yetkazishning mustahkam tizimi yaratildi, bunda O'zbekistonda ta'lim berilayotgan yettita tilda darslik va o'quv qo'llanmalari nashr etilmoqda. Axborot-resurs va axborot-kutubxona markazlarining moddiy-texnika bazasi yangilanib, zamonaviy elektron kutubxonalar tizimlari faoliyat ko'rsatmoqda.

Matbuot, nashirlik va axborot sohasida tegishli huquqiy asos yaratilgan bo'lib, 10 dan ortiq qonun va 30 dan ortiq qonunosti hujjati qabul qilingan. 1 677 ta matbaa korxonasi, 118 ta nashriyot davlat ro'yxatiga olingan. Zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 14 ta viloyat axborot-kutubxona markazi, tuman markazlari va shaharlardagi ta'lim muassasalarida 200 ga yaqin axborot-resurs markazi tomonidan aholiga axborot-kutubxona xizmatlari hamda "Kitob olami", "Sharq ziyokori" va "O'zdavkitobsavdota'minoti" majmualari tomonidan kitob savdosi xizmati ko'rsatish yo'lga qo'yilgan.

Yozuvchilar uyushmasi huzurida tashkil etilgan "Ijod" jamoat fondi tomonidan yozuvchi va shoirlar, ayniqsa, yosh ijodkorlarning birinchi kitoblari ko'p ming nusxada nashr etilmoqda.

Shu bilan birga, ushbu muhim soha rivoji bilan bog'liq aholi, xususan, yoshlar o'rtasida kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirishda bir qator muammolar mavjudligini qayd etish lozim.

Avvalo, badiiy, ma'rifiy, ilmiy-ommabop, tarbiyaviy, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan adabiyotlarni chop etish, ular bilan ta'lim muassasalarini ta'minlash, milliy va jahon adabiyoti namoyandalarining yetuk asarlarini saralash, tarjima qilish ishlari puxta o'ylangan tizim asosida tashkil etilmagan.

Chop etiladigan kitoblarni nashriyotlardan hududlarga arzon narxlarda yetkazish, onlayn buyurtma berish va manzilga yetkazish tizimi sust rivojlangan, shuningdek, aholiga xizmat ko'rsatishda elektron kitob shakllaridan keng foydalanish yaxshi yo'lga qo'yilmagan.

Ta'lim va madaniyat muassasalari uchun kitob xarid qilishga mablag'lar yetarli darajada mavjud bo'lgan manbalar hisobidan jalb etilmayapti, kitob sotishga ixtisoslashgan korxonalar tomonidan ta'lim muassasalari, kutubxonalar va mahallalarda yangi kitoblar taqdimotini o'tkazish, mutolaa madaniyatini oshirish, shu jumladan, ommaviy axborot vositalari orqali targ'ibot-tashviqot qilishga qaratilgan tadbirlar yetarli emas.

Ushbu sohadagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish, aholining kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish bo'yicha tegishli takliflarni tayyorlash maqsadida:

1. Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish bo'yicha ishchi guruh va kichik ishchi guruhlar tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Ishchi guruh (A. Aripov)ga bir oy muddatda soha mutaxassislari va ekspertlarini keng jalb qilgan holda, ilg'or xorijiy tajribalarni inobatga olib, quyidagi masalalarni atroflicha o'rganish va chuqur tahlil qilish asosida tegishli takliflarni ishlab chiqish topshirilsin:

aholi, ayniqsa, yoshlar orasida badiiy jihatdan yuksak, intellektual saviyani o‘stirishga xizmat qiladigan kitoblarga bo‘lgan talabni o‘rganish, shu jumladan, ijtimoiy so‘rovlar orqali aniqlash, nashriyotlar tomonidan chiqariladigan badiiy, ma’rifiy, yoshlarning dunyoqarashini kengaytirishga doir adabiyotlarning (shu jumladan, elektron shaklda) umumiy buyurtma ro‘yxatini shakllantirish tizimining holati;

kitoblarni chop etish hamda aholiga yetkazib berishni o‘z ichiga olgan boshqaruv tizimining, shuningdek, jahon adabiyotining eng sara namunalarini o‘zbek tiliga va o‘zbek adabiyotining eng yaxshi asarlarini chet tillariga tarjima qilish ishlarining tanqidiy tahlili;

noshirlar va adiblarni moliyaviy rag‘batlantirish, bolalar adabiyotiga ixtisoslashgan nashriyotlarga moliyaviy imtiyozlar berish va moddiy qo‘llab-quvvatlash tizimini shakllantirish, matbaa korxonalari va nashriyotlarga kitob ishlab chiqarish uchun sifatli qog‘oz va matbaa xom ashyolarini chetdan xarid qilish tartibini takomillashtirish;

kitob tarqatish tizimini yanada rivojlantirish va aholining keng qatlamini qamrab olish, kitob mahsulotlarining narxini shakllantirish va sotish bo‘yicha aniq mexanizmlarni ishlab chiqish;

ixtisoslashgan kitob do‘konlari uchun viloyat, tuman markazlari va shaharlarda hamda qishloqlarda aholi gavjum va qulay hududlardan joy ajratish yoki ijaraga berish masalalarini qayta ko‘rib chiqish, sotuv aylanmasida kitob ulushining hajmi 70 foizdan ko‘p bo‘lgan tadbirkorlik subyektlarini alohida statistik hisobga olish va ularga tegishli soliq imtiyozlari qo‘llash;

mavjud axborot-kutubxona muassasalari aholining keng qatlamlariga xizmat ko‘rsatishi zarurligidan kelib chiqib, ularning viloyatlar, shaharlar va tumanlar bo‘yicha joylashish va bo‘ysunish tartibini qayta ko‘rib chiqish, faoliyati hamda o‘zaro hamkorligini takomillashtirish;

axborot-kutubxona muassasalarining, ayniqsa, ta’lim sohasidagi axborot-resurs markazlari fondlarini shakllantirishda o‘quv adabiyotlari bilan bir qatorda, badiiy, ma’rifiy, ilmiy-ommabop adabiyotlar ro‘yxatini hamda ularni xarid qilish bo‘yicha xarajatlar smetasini qayta ko‘rib chiqish;

chop etilayotgan kitoblarni aholi o'rtasida ommaviy axborot vositalari, jumladan, "Madaniyat va ma'rifat" telekanali orqali targ'ib qilish, ta'lim muassasalari, kutubxonalar, mahallalarda kitob mualliflari bilan ijodiy uchrashuvlarni tizimli ravishda tashkil etish hamda ta'lim muassasalari, ayniqsa, maktabgacha va boshlang'ich ta'limda o'qish madaniyati va mutolaa ko'nikmalarini shakllantirish;

ta'lim muassasalarida sinfdan tashqari o'qish uchun tavsiya etilgan o'zbek va chet el adiblarining mumtoz va zamonaviy asarlarini tanlab, xrestomatiya adabiyotlari ro'yxatlarini qayta ko'rib chiqish va o'quv jarayoniga mutolaa etilgan asarlar asosida insho yozish tizimini joriy etish, adabiyot to'garaklari faoliyatini moddiy qo'llab-quvvatlash tizimini qayta ko'rib -chiqish;

hududlarda yozuvchi-shoirlar ishtirokida kitob bayrami va yarmarkalarini tashkil etish, aholi o'rtasida badiiy jihatdan yuksak milliy va jahon mumtoz adabiyotlari namunalarini targ'ib qilish, kitobxonlar, bosma va elektron kitob ishlab chiqaruvchilar, kitob sotuvchilar hamda kutubxonachi va targ'ibotchilar orasida tanlovlar ("Yilning eng yaxshi kitobi", "Eng yaxshi kitobxon oila", "Yilning eng yaxshi bolalar kitobi", "Yilning eng yaxshi audio kitobi", "Yilning eng yaxshi elektron kitobi" kabi) o'tkazish tizimini takomillashtirish.

3. Ishchi guruh (A. Aripov) ikki oy muddatda mutasaddi vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlar bilan birgalikda kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini takomillashtirish, matbuot va axborot hamda axborot-kutubxona faoliyati sohasidagi yagona davlat siyosatini yurituvchi vakolatli davlat organini belgilash, moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmini rivojlantirishni inobatga olgan holda, tegishli kompleks chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqsin va tasdiqlash uchun kiritsin.

4. Mazkur farmoyishning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N. Aripov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

SH. Mirziyoyev

"Xalq so'zi", 2017 yil 13 yanvar

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING

QARORI

**KITOB MAHSULOTLARINI NASHR ETISH VA TARQATISH TIZIMINI
RIVOJLANTIRISH, KITOB MUTOLAASI VA KITOBXONLIK MADANIYATINI
OSHIRISH HAMDA TARG‘IB QILISH BO‘YICHA KOMPLEKS CHORA-TADBIRLAR
DASTURI TO‘G‘RISIDA**

Bugungi kunda mamlakatimizda 2017 — 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha [Harakatlar strategiyasi](#) asosida barcha soha va tarmoqlarda ulkan o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an‘analarni chuqur qaror toptirishga, xususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma‘naviy-intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatani va xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg‘usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega bo‘lgan kitobxonlik madaniyatini oshirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Ushbu yo‘nalishda tegishli huquqiy-meyoriy bazani mustahkamlash, tashkiliy-amaliy ishlarni zamon talablari asosida olib borish, bu masalaga keng jamoatchilikni jalb etish bo‘yicha keyingi paytda birmuncha ishlar amalga oshirilayotganini ta‘kidlash lozim.

Ayni vaqtda o‘tkazilgan kuzatish va tahlillar bu sohada o‘z yechimini kutayotgan bir qator dolzarb muammolar borligi va ularni keng ko‘lamda hal etish zarurligini ko‘rsatmoqda. Xususan, xalqimiz, avvalo, yoshlarning ma‘naviy-ma‘rifiy, badiiy-estetik talablariga javob beradigan kitoblarni yuksak sifat bilan chop etish, joylarga, ta‘lim muassasalariga vaqtida va maqbul narxlarda yetkazish, milliy va jahon adabiyotining eng sara namunalarini tarjima qilish, farzandlarimizda bolalikdan boshlab kitob, jumladan, elektron kitob o‘qish ko‘nikmasini shakllantirish, jamiyatimizda mutolaa madaniyatini yuksaltirish bilan bog‘liq muhim masalalarni hal etish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Ayniqsa, noshirlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va yanada rivojlantirish, yurtimizda sog‘lom raqobatga asoslangan bosma va elektron kitoblar bozorini shakllantirishni bugun hayotning o‘zi taqozo etmoqda.

Ma’naviy hayotimizni yuksaltirishda ulkan ahamiyatga ega bo‘lgan ana shunday muhim vazifalarni kompleks hal qilish, kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini takomillashtirish, o‘zbek va dunyo adabiyotining eng yaxshi namunalarini internet tarmoqlariga joylashtirish va ularni targ‘ib qilish hamda keng kitobxonlar ommasiga yetkazish ishlarini samarali tashkil etish maqsadida:

1. Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi [ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

Dasturda ko‘zda tutilgan quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshirishga alohida e’tibor qaratilsin:

kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish, noshirlik va matbaa sohalarini yanada rivojlantirishga oid normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan kitoblarni, ayniqsa, bolalarga mo‘ljallangan adabiyotlarni chop etishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash;

kitob mahsulotlari bo‘yicha davlat buyurtmasining asosiy yo‘nalishlarini shakllantirish, adabiy-badiiy, o‘quv-uslubiy, ilmiy-nazariy, ilmiy-ommabop va ko‘rgazmali adabiyotlarni chop etish va tarqatish tizimini takomillashtirish, ixtisoslashtirilgan kitob do‘konlari faoliyatini rivojlantirish;

jahon adabiyotining eng sara namunalarini o‘zbek tiliga tarjima qilish bo‘yicha davlat buyurtmalari berish, ularni zarur nusxalarda yuksak sifat bilan nashr etish va moliyalashtirish tizimini yo‘lga qo‘yish, kitob tarqatish tizimini yanada rivojlantirish va kitob mahsulotlarining narxini shakllantirish va sotish bo‘yicha aniq mexanizmlarni ishlab chiqish choralari belgilash;

axborot-kutubxona faoliyatini kuchaytirish, ta’lim muassasalari axborot-resurs markazlarining kutubxona fondlari, kutubxonalar, tashkilot va muassasalarning «Ma’naviyat xonalari»ni o‘quv-uslubiy, texnik adabiyotlar, adabiy-badiiy, ma’rifiy va

ilmiy-ommabop kitoblar bilan boyitish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;

nashriyotlar va matbaa sohasi mutaxassislarini, badiiy va texnik muharrirlar, grafikachi rassomlar, axborot-kutubxona xodimlarini tayyorlash, malakasini oshirish va rag'batlantirish tizimini takomillashtirish;

lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosidagi ilmiy-texnik, adabiy-badiiy va ensiklopedik adabiyotlarni yanada ko'paytirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish;

O'zbekiston Milliy kutubxonasi va axborot-kutubxona markazlaridagi barcha turdagi axborot-kutubxona resurslarining yagona bazasini shakllantirish va undan boshqa axborot-kutubxona muassasalarida turib foydalanishni ta'minlash;

qishloq aholisiga kutubxona xizmati ko'rsatish tizimini tashkil etish choralari to'g'risida tadbirlar rejasi loyihasini tayyorlash va amalga oshirish;

mamlakatimizda internet orqali zarur adabiyotlarni topish va xarid qilish imkonini beradigan eReader elektron o'quv qurilmalarini ishlab chiqarishni tashkil etish, ularning axborot bazasiga umumta'lim maktablari, akademik lisey va kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlari uchun darsliklar, o'quv qo'llanmalari, o'quv-uslubiy, ilmiy-nazariy manbalarni joylashtirish, bunday mahsulotlarni arzon narxlarda sotib olish mexanizmlarini yo'lga qo'yish bo'yicha takliflar tayyorlash;

mazmunan sayoz, milliy ma'naviyat va qadriyatlarimizga, axloq meyorlariga mos kelmaydigan, yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan adabiyotlarni tayyorlash, bosib chiqarish va tarqatishning oldini olish choralari ko'rish;

kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirishga doir targ'ibot ishlarini tizimli va samarali tashkil etish, bu borada kitobxonlar, kutubxonachi va targ'ibotchilar o'rtasida «Eng kitobxon maktab», «Eng kitobxon mahalla», «Eng kitobxon oila», «Eng faol kutubxonachi» kabi ko'rik-tanlovlarning saralash va respublika bosqichlarini yuqori saviyada o'tkazishni yo'lga qo'yish.

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administrasiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikasiyalar agentligi kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish

tizimini takomillashtirish hamda axborot-kutubxona faoliyati sohasidagi maxsus vakolatli davlat organi etib belgilansin.

(2-band O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 10 dekabrda PF-5892-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 11.12.2019 y., 06/19/5892/4134-son)

3. Belgilab qo‘yilsinki:

dasturda ko‘rsatilgan chora-tadbirlarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish tegishli vazirlik va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda ularning mansabdor shaxslarining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari har bir shahar va tumanda kitob savdosiga ixtisoslashtirilgan do‘konlarni tashkil etish, ularni qo‘llab-quvvatlash maqsadida yuridik shaxs maqomidagi tadbirkorlik subyektlariga foydalanilmayotgan davlat mulki obyektlarining tekin foydalanish uchun berilishini ta’minlaydi;

savdo aylanmasida kitob sotish ulushining hajmi 70 foizdan ko‘p bo‘lgan yuridik shaxs maqomidagi tadbirkorlik subyektlarining alohida statistik hisobi yuritiladi va ular 2020 yil 1 yanvarga qadar yagona soliq to‘lovini to‘lashdan ozod etiladi;

O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O‘zbekiston Milliy axborot agentligi va boshqa ommaviy axborot vositalariga shu yo‘nalishda muntazam ravishda maxsus ko‘rsatuv va eshittirishlar, maqolalar tayyorlash va e’lon qilish tavsiya etiladi.

Oldingi tahrirga qarang.

(4-band O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 12 dekabrda PF-5893-sonli Farmoniga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan-Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 13.12.2019 y., 06/19/5893/4150-son)

5. O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi Adliya vazirligi va boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda:

qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritilsin;

idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A. Aripov va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat maslahatchisi X. Sultonov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,

2017 yil 13 sentabr,

PQ-3271-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING

QARORI

07.06.2019 y.

N PQ-4354

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI AHOLISIGA AXBOROT-KUTUBXONA XIZMATI KO‘RSATISHNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH TO‘G‘RISIDA

Respublikada ijtimoiy-iqtisodiy sohani isloh qilishning hozirgi sharoitida axborot-kutubxona faoliyatini rivojlantirishning maqsad va vazifalari mamlakatda amalga oshirilayotgan o‘zgarishlarga va xalqaro amaliyotga mos bo‘lishi zarur. Shu munosabat bilan fuqarolarning axborotdan erkin foydalanish bo‘yicha konstitusiyaviy huquqlarini, shu jumladan, milliy qadriyatlar va jahon madaniyati, amaliy va fundamental bilimlardan bahramand bo‘lishini ta‘minlaydigan aholiga axborot-kutubxona xizmatlari ko‘rsatishning sifat jihatidan yangi tizimini yaratish, kutubxonalarda saqlanayotgan milliy madaniy merosni asrab-avaylash va boyitish, axborot-kommunikasiya texnologiyalarini keng joriy etish hisobiga axborot-kutubxona muassasalari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish ustuvor vazifaga aylanmoqda.

Bu esa axborot-kutubxona faoliyatiga, kitobxonlarga xizmat ko‘rsatish, fondlarni to‘ldirish va saqlash, kutubxona jarayonlarini avtomatlashtirish, ilmiy-tadqiqot va tashkiliy-uslubiy faoliyat, kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va rag‘batlantirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirishga jiddiy ta‘sir ko‘rsatish imkonini beradi.

Aholiga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatishni yanada takomillashtirish, axborot-kutubxona muassasalari faoliyatini rivojlantirish maqsadida:

1. Quyidagilar aholiga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatishni sifat jihatidan yanada rivojlantirish sohasidagi asosiy vazifalar etib belgilansin:

axborot-kommunikasiya texnologiyalarining rivojlanishi va zamonaviy umumjahon tendensiyalarini hisobga olgan holda axborot-kutubxona faoliyatini isloh qilish;

aholiga axborot-kutubxona xizmatlari ko'rsatish bo'yicha ijtimoiy kafolatlarni sifatli ta'minlash hamda zamonaviy talablarni hisobga olgan holda axborot-kutubxona muassasalarini rivojlantirish maqsadida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish;

hududlarda aholiga axborot-kutubxona xizmatlari ko'rsatishni barqaror rivojlantirishga ko'maklashish;

axborot-kutubxona muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, shu jumladan, yangi bino va inshootlarni qurish, mavjud binolarni rekonstruksiya qilish, ularni zamonaviy uskunalarni bilan ta'minlash;

kutubxona sohasida davlat-xususiy sheriklikni, xususiy va elektron (virtual) kutubxonalar tarmog'ini rivojlantirish;

kutubxonalar faoliyatining samaradorligini va foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish (shu jumladan, pullik xizmat ko'rsatish) tezkorligini oshirish uchun elektron kitoblar tarqatishga ixtisoslashgan internet-resurslar bilan hamkorlikni kengaytirish;

axborot-kutubxona muassasalari xavfsizligini hamda milliy va jahon madaniy merosining bir qismi sifatida axborot-kutubxona fondlarining yaxshi saqlanishini ta'minlash;

jamiyatning axborot madaniyatini, tariximizga va milliy madaniyatga qiziqishini shakllantirish va kuchaytirish, mutolaa madaniyatini oshirish va targ'ib qilish;

axborot-kutubxona muassasalarini malakali mutaxassislar bilan ta'minlash.

2. Quyidagilar:

a) 2019-2024 yillarda O'zbekiston Respublikasida axborot-kutubxona sohasini rivojlantirish konsepsiyasi [1-ilovaga](#) muvofiq;

b) 2019-2024 yillarda O'zbekiston Respublikasida axborot-kutubxona sohasini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi [2-ilovaga](#) muvofiq;

v) Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi - axborot-resurs markazining tashkiliy tuzilmasi [3-ilovaga](#) muvofiq;

g) Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi - axborot-resurs markazining (keyingi o'rinlarda - Milliy kutubxona) xodimlar umumiy cheklangan soni 227 nafardan iborat boshqaruv apparati tuzilmasi [4-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

Milliy kutubxona direktoriga zarur hollarda Milliy kutubxona boshqaruv apparati tuzilmasiga xodimlarning belgilangan umumiy soni va mehnatga haq to'lash fondi doirasida o'zgartirishlar kiritish huquqi berilsin.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administrasiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikasiyalar agentligi (keyingi o'rinlarda - Agentlik), O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikasiyalarini rivojlantirish vazirligi, Moliya vazirligining Axborot-kommunikasiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg'armasiga tushadigan mablag'larning ikki foizini Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi - axborot-resurs markazi huzuridagi byudjetdan tashqari Axborot-kutubxona muassasalarini rivojlantirish jamg'armasiga (keyingi o'rinlarda - Jamg'arma) ajratish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.

4. Agentlik, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi va Moliya vazirligining:

Milliy kutubxona qoshida 186 ta tuman (shahar) axborot-kutubxona markazlarini tashkil etish, shuningdek, umumta'lim maktablari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari qoshida faoliyat ko'rsatayotgan barcha axborot-resurs markazlarini tugatish;

umumta'lim maktablari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining tugatilayotgan axborot-resurs markazlarining kitob fondlari va shtat birliklarini yangidan tashkil qilina yotgan tuman (shahar) axborot-kutubxona markazlariga berish;

axborot-resurs markazlarini tugatishda umumta'lim maktablari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining kutubxonalarini amaldagi normativlarga muvofiq tegishli kitob fondi va shtat birliklari bilan birga saqlab qolish to'g'risidagi takliflari ma'qullansin.

5. Quyidagilar yangi tashkil etilayotgan tuman (shahar) axborot-kutubxona markazlarining asosiy vazifalari etib belgilansin:

aholiga axborot-kutubxona xizmatlari ko'rsatish uchun sifat jihatidan yangi va qulay shart-sharoitlar yaratish, zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ularning ilmiy, ta'lim, axborot va madaniy ehtiyojlarini qondirish;

aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga ijtimoiy moslashuv va rehabilitasiya, mustaqil ta'lim olish va muloqot doirasini kengaytirish vositasi sifatida axborotdan foydalanish imkoniyatlarini yaratish;

foydalanuvchilarga har qanday (bosma, multimedia va raqamli) tashuvchilarda, shu jumladan, Internet tarmog'ida sifatli axborot manbalaridan foydalanish imkoniyatini yaratish;

o'z axborot-resurslarini yaratish va ularni sifatli to'ldirib borish orqali kitobxonlarga an'anaviy xizmat ko'rsatish usulidan ularni zamonaviy axborot-kutubxona xizmatlari bilan ta'minlashga o'tish;

aholiga axborot-kutubxona xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha masofadan xizmatlar ko'rsatishni rivojlantirish va modernizasiya qilish.

6. Agentlik:

bir oy muddatda tuman (shahar) axborot-kutubxona markazlarini joylashtirish hamda ularni kompyuter texnikasi va boshqa turdagi orgtexnika, mebel, shu jumladan, maxsus mebel, shuningdek, tegishli kutubxona uskunalari bilan jihozlash bo'yicha talablarni ishlab chiqsin, bunda imkoniyati cheklangan shaxslarga xizmat ko'rsatish uchun o'quv zallarini maxsus kompyuter jihozlari va boshqa qo'shimcha vositalar bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratsin;

O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikasiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda tuman (shahar) axborot-kutubxona markazlarining Internet tarmog'iga ulanishini va ular uchun Milliy kutubxona elektron resurslaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlasin;

ikki oy muddatda O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bilan birgalikda axborot-kutubxona markazlari faoliyatining reglamentini ishlab chiqsin va tasdiqlasin, bunda aholiga kuni uzaytirilgan tartibda xizmat ko'rsatilishini ko'zda tutsin;

aholiga ko'rsatiladigan pullik xizmatlar (til o'rgatish, kompyuter kurslarini tashkil etish, matnli, audio va videomateriallar nusxalarini yaratish, shuningdek, boshqa kutubxona xizmatlari) ro'yxatini kengaytirish orqali axborot-kutubxona markazlarining byudjetdan tashqari daromadlarini oshirish choralarini ko'rsin.

7. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari:

a) Agentlik tomonidan ishlab chiqilgan tuman (shahar) axborot-kutubxona markazlarini joylashtirish va jihozlash talablarini hisobga olgan holda:

ikki oy muddatda tumanlar (shaharlar) markazlarida tuman (shahar) axborot-kutubxona markazlarini joylashtirish va ularning to‘laqonli faoliyat yuritishi uchun binolarni belgilangan tartibda ajratsin;

ajratilgan binolarni kapital ta‘mirlashni ta‘minlasin, bunda tuman (shahar) axborot-kutubxona markazlarining o‘quv zallarida va boshqa umumiy foydalaniladigan xonalarida imkoniyati cheklangan shaxslar to‘siqsiz foydalanishi uchun barcha zarur sharoitlarni yaratsin, shuningdek, ularni zarur uskuna va texnika bilan jihozlasin;

b) tuman (shahar) axborot-kutubxona markazlariga tutash hududlarni obodonlashtirish bo‘yicha tegishli ishlarni amalga oshirsin va ushbu markazlarni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta‘minlash bo‘yicha zarur choralarni ko‘rsin;

v) umumta‘lim maktablari va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalarining axborot-resurs markazlarini tugatish natijasida ishdan bo‘shagan xodimlarni belgilangan tartibda ishga joylashtirish choralarni ko‘rsin.

8. Belgilansinki:

Milliy kutubxonaning qo‘shimcha shtat birliklarini saqlash xarajatlari 2019 yilda O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti xarajatlari parametrda ijtimoiy sohaga mo‘ljallangan byudjet mablag‘lari hisobidan qoplanadi, 2020 yildan boshlab esa O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti parametrlarida ko‘zda tutiladi;

tuman (shahar) axborot-kutubxona markazlarini saqlash xarajatlari tumanlar va shaharlar mahalliy byudjetlarida umumta‘lim maktablari va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalarining tugatilayotgan axborot-resurs markazlarini saqlash uchun ko‘zda tutilgan mablag‘lar, shuningdek, qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi;

yangi tashkil etiladigan axborot-kutubxona markazlarini kadrlar bilan to‘ldirish birinchi navbatda umumta‘lim maktablari va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi

muassasalarining tugatilayotgan axborot-resurs markazlarida faoliyat ko'rsatayotgan malakali kadrlar hisobiga amalga oshiriladi;

tuman (shahar) axborot-kutubxona markazlari binolarini kapital ta'mirlash hamda ularni zamonaviy uskuna va texnikalar bilan jihozlashni moliyalashtirish umumta'lim maktablari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining tugatilayotgan axborot-resurs markazlarining maqbullashtirilayotgan byudjet ajratmalari, tuman va shaharlar mahalliy byudjetlarining prognozni oshirib bajarishdan olinadigan daromadlari, jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari, shuningdek, qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi;

tuman (shahar) axborot-kutubxona markazlari kutubxona fondlarini to'ldirish, shuningdek, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar ushbu maqsadlar uchun ajratiladigan byudjet mablag'lari, Jamg'arma mablag'lari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar doirasida amalga oshiriladi.

9. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi Madaniyat vazirligi hamda Agentlik bilan birgalikda kutubxonachilik ishi sohasida mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojni o'rganish asosida sohaga ixtisoslashgan oliy o'quv yurtlariga "Kutubxona-axborot faoliyati" yo'nalishi bo'yicha o'qishga qabul kvotalari yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining:

vazirliklar va idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan davlat organlari va boshqa tashkilotlarda, shu jumladan, harbiy qismlarda idoraviy kutubxonalarni tashkil qilish (takomillashtirish);

idoraviy kutubxonalarning kitob fondini va moddiy-texnika bazasini yaratish, yangilash va to'ldirishni ushbu maqsadlar uchun davlat organlariga byudjetdan ajratilgan mablag'lar, shuningdek, byudjetdan tashqari mablag'lar va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtirish;

Agentlik takliflari asosida idoraviy kutubxonalarning kitob fondini yangilash va to'ldirish uchun zarur nashrlar ro'yxatini har yili shakllantirish to'g'risidagi takliflariga rozilik berilsin.

11. Agentlik va O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 21 mayni Kutubxonachilar kuni deb belgilash to‘g‘risidagi taklifi ma‘qullansin, bunda kutubxonachilarni ko‘p yillik halol mehnati va axborot-kutubxona sohasini rivojlantirishga qo‘shgan hissasi uchun davlat mukofotlari bilan taqdirlash va rag‘batlantirish ko‘zda tutilsin.

Agentlik bir oy muddatda "Kutubxonachilar kunini belgilash to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini ishlab chiqsin va belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritilishini ta‘minlasin.

12. Agentlik manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonun hujjatlariga mazkur qarordan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

13. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administrasiyasi rahbari Z.SH. Nizomiddinov va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administrasiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikasiyalar agentligi direktori vazifasini bajaruvchi K.I. Allamjonov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

SH. Mirziyoyev

**2019 — 2024 yillarda O‘zbekiston Respublikasida axborot-kutubxona sohasini
rivojlantirish
KONSEPSIYASI**

Kirish

2019-2024 yillarda O‘zbekiston Respublikasi axborot-kutubxona sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi (keyingi o‘rinlarda — Konsepsiya) respublika axborot-kutubxona sohasini rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari, tamoyillari, ustuvor yo‘nalishlari va mexanizmlarini belgilovchi qarashlarning yagona va bir butun tizimini o‘zida aks ettiradi.

Axborot-kutubxona sohasini rivojlantirishning maqsad va vazifalari ijtimoiy-iqtisodiy sohalarni isloh qilish sharoitlarida mamlakatda kechayotgan o‘zgarishlar va xalqaro amaliyotga muvofiq bo‘lmog‘i lozim.

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi asosida axborot-kutubxona faoliyatini axborot va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish asosida tashkil qilishga yo‘naltirilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini tatbiq etish axborot-kutubxona faoliyatiga har tomonlama: foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatish, fondlarni jamlash va saqlash jarayonlari, axborot-kutubxona ish jarayonlarini avtomatlashtirish, ilmiy tadqiqot va tashkiliy-uslubiy faoliyat, axborot-kutubxona xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash, ularni ijtimoiy himoya qilish, xalqaro hamkorlikka ta’sir ko‘rsatadi.

Jamiyatda yuksak ma’naviy qadriyatlarning qaror topishi axborot-kutubxona muassasalari oldiga shaxsga e’tiborni kuchaytirish, uning umummadaniy darajasini oshirish, ma’naviyatini yuksaltirish, odob-axloq jihatdan tarbiyalash kabi vazifalarni qo‘yadi.

Hozirgi jamiyatda axborot-kutubxona muassasalari axborot olish, madaniy-ma'rifiy va ta'lim muassasasi sifatida namoyon bo'ladi.

Milliy madaniyatni chuqur anglash, uning rivoji va evolyusiyasini tahlil qilishda respublikaning universal fondga ega bo'lgan axborot-kutubxona muassasalari alohida ahamiyat kasb etadi. Ta'lim muassasalari maqomini oshirish, tarmoq ilmiy axborot-kutubxona muassasalarining ilmiy va axborot salohiyatini, shuningdek, axborot-kutubxona sohasida davlat-xususiy sheriklikni, mamlakatdagi xususiy va raqamli (virtual) axborot-kutubxona muassasalari tarmog'ini rivojlantirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Bolalar va ijtimoiy yordamga muhtoj fuqarolar guruhi (imkoniyati cheklangan insonlar, nogironligi bo'lgan shaxslar, ko'p bolali oilalar va boshqalar) axborot-kutubxona muassasalarining alohida e'tiborini talab etadi.

Mamlakatda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, jahon hamjamiyatiga kirish, O'zbekistonning xalqaro obro'-e'tiborining ortishi axborot-kutubxona muassasalari zimmasiga mamlakatda bo'layotgan islohotlarga ko'maklashish, aholiga tezkor axborot taqdim etish bo'yicha qator majburiyatlarni yuklaydi.

Yangi texnologiyalarning tatbiq etilishi, axborot-kutubxona muassasalari tomonidan axborot tarqatish funksiyalarining amalga oshirilishi hamda axborot olish imkoniyatini ta'minlash avtomatlashtirish va kompyuterlashtirish ko'lami va sur'atlariga bog'liqdir.

Axborot-kutubxona sohasini isloh qilish axborot-kutubxona muassasalari meyoriy-huquqiy bazasining zaifligi, axborot-kutubxona fondlarining jamlanishi va texnik jihozlanishi yetarli darajasida emasligi, axborot-kutubxona xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlash hamda ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash darajasining pastligi tufayli yuzaga keldi.

1-bob. Umumiy qoidalar

Ushbu Konsepsiya fuqarolarning ijtimoiy holati va yashash joyidan qat'i nazar, axborotni erkin olish huquqini o'rnatuvchi, axborot-kutubxona faoliyatini hamda madaniyat sohasidagi siyosatni tartibga soluvchi meyoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq,

respublikada axborot-kutubxona faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar tizimini belgilash maqsadida ishlab chiqilgan.

Hozirgi kunda O‘zbekistonning professional axborot-kutubxona hamjamiyati axborot-kutubxona muassasalariga demokratik ijtimoiy-madaniy institut, bugungi axborot jamiyati madaniyatining rivoji hamda mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining axborot bazasi sifatida qaraydi, shuningdek, axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatish holatini jamiyat madaniyati darajasining ko‘rsatkichi deb hisoblaydi.

2-bob. Respublikada axborot-kutubxona faoliyatining holati

Respublikada axborot-kutubxona faoliyatining holatini o‘rganish bo‘yicha o‘tkazilgan tahlillar zamonaviy talablarni hisobga olgan holda axborot-kutubxona muassasalarining rivojlanishi, aholining axborot-kutubxona xizmatlaridan foydalanishining ijtimoiy kafolatlarini ta‘minlash maqsadida meyoriy-huquqiy bazani takomillashtirish zarurligini ko‘rsatdi.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasining axborot-kutubxona faoliyatining qonunchilik va meyoriy bazasi quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston Respublikasining «Axborot-kutubxona faoliyati to‘g‘risida», «Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida»gi qonunlari;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 11 avgustdagi «Matbuot va axborot sohasida boshqaruvni yanada takomillashtirish to‘g‘risida»gi PF-5148-son, 2018 yil 19 fevraldagi «Axborot texnologiyalari va kommunikasiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5349-son farmonlari;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 23 fevraldagi «2011 -2015 yillarda axborot-kommunikasiya texnologiyalari negizida axborot-kutubxona va axborot-resurs xizmatlari ko‘rsatishni sifat jihatidan yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-1487-son, 2012 yil 20 martdagi «Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi - axborot resurs markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-1729-son, 2012 yil 21 martdagi «Zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-1730-son, 2017 yil 13 sentabrdagi «Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish

bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida»gi PQ-3271-son, 2019 yil 2 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikasiyalar agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi PQ-4151-son qarorlari.

Aholining elektron axborot resurslardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish, axborot-kutubxona muassasalarini birlashtirish va ularni yagona umumta'lim elektron kutubxona tizimiga ulash, idoralararo elektron hamkorlik tizimini takomillashtirish maqsadida «Milliy umumta'lim elektron kutubxona» loyihasi amalga oshirilmoqda.

Respublika axborot-kutubxona muassasalarida bosqichma-bosqich zamonaviy axborot va elektron texnologiyalar tatbiq etilmoqda:

foydalanuvchilar uchun avtomatlashtirilgan ishchi o'rinlari soni ko'paytirilmoqda;

xususiyy elektron ma'lumotlar bazalari yaratilmoqda;

foydalanuvchilarga axborot-kutubxona xizmatlarining yanada sifatli yangi turlari taqdim etilmoqda.

Aholining axborotga bo'lgan talabini qondirish uchun mamlakatning yirik axborot-kutubxona muassasalari virtual ma'lumotlar xizmatidan faol foydalanmoqda, madaniy hordiq va ma'rifiy faoliyatni rivojlantirmoqda.

Biroq axborot-kutubxona muassasalarini jahon kutubxona hamjamiyatiga integratsiyalash, foydalanuvchilar va aholi bilan ishlash, shu jumladan kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishning innovatsion usullarini tatbiq etish masalalariga yetarli darajada e'tibor qaratilmayapti, shuningdek, uyali aloqa, ko'plab gadjetlar va Wi-Fi'ning faol rivojlanishi, elektron kitoblar va «kitob o'qish ilovalari» (book reader) oqimining ortib borishi sharoitlarida foydalanuvchilar bilan tizimli ishlar olib borilmayapti.

Axborot-kutubxona muassasalarining katta qismi zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, kompyuterlar, nusxa ko'chirish-ko'paytirish texnikasi, yong'indan saqlash signalizatsiyasi va o't o'chirish, iqlimni nazorat qilish vositalari, telyefon aloqasi bilan ta'minlanmagan, aholiga, ayniqsa nogironligi bo'lgan shaxslarga va olis, aholisi kam bo'lgan punktlarda xizmat ko'rsatish uchun zamonaviy uskunalardan mavjud emas.

Axborot-kutubxona muassasalarini texnik jihatdan qayta jihozlash, yangi axborot texnologiyalarini joriy etish axborot-kutubxona muassasalariga yuqori malakali mutaxassislarni jalb etishni taqozo etadi, ularning mehnat bozoridagi bahosi esa axborot-kutubxona muassasalarining bugungi imkoniyatlaridan ancha baland.

Axborot-kutubxona muassasalarida mehnatga haq to'lash darajasining pastligi, nomuvofiq og'ir mehnat sharoitlari va ularga ishonib topshirilgan fondlarni saqlash mas'uliyati malakali kadrlarning ishdan ketishi, mamlakat madaniy mulkini va intellektual salohiyatini saqlash uchun xavfli hisoblangan kadrlar qo'nimsizligini vujudga keltirmoqda.

Bo'sh o'rinlarning ko'pligi va xodimlar yetishmasligi ishga olinayotgan xodimlarga qo'yilayotgan talablar darajasini pasaytirayapti, bu esa malakasiz (ko'p hollarda mutaxassis bo'lmagan) xodimlarga kutubxonachi lavozimiga ishga joylashish imkonini bermoqda. Bu masalalarni maqbul tarzda hal etish uchun axborot-kutubxona muassasalari xodimlari mehnatiga haq to'lash va ularni ijtimoiy himoya qilish darajasini qayta ko'rib chiqish zarur.

3-bob. Axborot-kutubxona sohasini rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari va ustuvor yo'nalishlari

Axborot-kutubxona sohasini rivojlantirishning ustuvor maqsadlari -fuqarolarning axborotdan erkin foydalanish bo'yicha konstitusiyaviy huquqlarini ta'minlovchi aholiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatish tizimini rivojlantirish, milliy va jahon madaniy boyliklari, amaliy va fundamental bilimlar bilan tanishtirish, shuningdek, mamlakatimizning axborot-kutubxona muassasalarida mavjud milliy-madaniy merosni saqlashdan iborat.

Axborot-kutubxona sohasini samarali rivojlantirishning strategik maqsadlariga erishish uchun quyidagi masalalarni hal etish zarur:

axborot va raqamli texnologiyalar rivojlanishi hamda zamonaviy umumjahon tendensiyalarni e'tiborga olgan holda axborot-kutubxona sohasini isloh qilishni jadallashtirish;

bugungi kun talablarini hisobga olgan holda axborot-kutubxona muassasalarining rivojlanishi, aholining axborot-kutubxona xizmatlaridan foydalanishining ijtimoiy kafolatlarini ta'minlash maqsadida meyoriy-huquqiy bazani takomillashtirish;

axborot-kutubxona muassasalarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish, xususan yangi bino va inshootlar qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish, ularni zamonaviy uskunalardan bilan ta'minlash;

eng yangi, shu jumladan, axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish, korporativ tizimlarni rivojlantirish;

axborot-kutubxona sohasida davlat-xususiy sheriklikni, mamlakatdagi xususiy va raqamli (virtual) axborot-kutubxona muassasalari tarmog'ini rivojlantirish;

milliy va jahon madaniy merosining bir qismi sifatida axborot-kutubxona muassasalari xavfsizligini va axborot-kutubxona fondining saqlanishini ta'minlash;

jamiyatning axborot madaniyatini, milliy tarix va madaniyatga qiziqishini shakllantirish, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish va targ'ib qilish;

axborot-kutubxona muassasalarini malakali xodimlar bilan ta'minlash.

Belgilangan maqsad va vazifalarni hisobga olgan holda axborot-kutubxona sohasining quyidagi ustuvor yo'nalishlarini rivojlantirish zarur:

qonunchilik bazasini aholiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni rivojlantirish vazifalariga mos ravishda muvofiqlashtirish;

axborot-kutubxona muassasalarini jamlash mexanizmini yaratish, shu jumladan elektron va boshqa tashuvchilarda nashrlar haqidagi ma'lumotlar tizimini shakllantirish;

axborot-kutubxona fondlari saqlanishini ta'minlash;

yangi axborot texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish, milliy axborot-kutubxona tarmog'ini yaratish;

zamonaviy axborot-kutubxona texnologiyalari asosida axborot-kutubxona kadrlarini tayyorlash, malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish;

axborot-kutubxona xizmatlarining yangi, shu jumladan, pulli turlarini joriy etish va rivojlantirish;

axborot-kutubxona muassasalari xodimlari samarali mehnat qilishi va ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash uchun munosib sharoitlar yaratish;

axborot-kutubxona muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;
ilmiy-tadqiqot va uslubiy faoliyatni rivojlantirish;

barcha tizimlar va idoralar axborot-kutubxona muassasalarini boshqarishni
muvofiqlashtirish;

xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va jahon axborot-kutubxona hamjamiyatiga
kirish.

4-bob. Axborot-kutubxona sohasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini hal qilish bo‘yicha asosiy vazifalar

1. Axborot-kutubxona muassasalarini jamlash mexanizmlarini yaratish, axborot-
kutubxona fondlari saqlanishini ta‘minlash:

sohani uslubiy ta‘minlash va eng yangi texnologiyalarni joriy etish, axborot-
kutubxona fondlarini saqlovchi kadrlar, restavratorlarni tayyorlash va qayta tayyorlash,
axborot-kutubxona fondlarini saqlash muammolari bo‘yicha jamoatchilik fikrini
shakllantirish;

foydalanuvchilarning axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini hisobga olgan holda
axborot-kutubxona fondlarini shakllantirishga yondashuvlarni takomillashtirish,
fondlarni to‘ldirish, ularni jamlash va keyinchalik ulardan erkin foydalanish imkoniyatini
ta‘minlagan holda majburiy nusxaga egalik huquqini belgilash;

axborot-kutubxona muassasalarini jamoat, tijorat va xususiy nashriyotlar
nashrlari, chet elda yashayotgan vatandoshlarimizning asarlari, shuningdek, O‘zbekiston
haqidagi chet el nashrlari bilan ta‘minlash uchun sharoitlar yaratish, respublika hududida
yashovchi xalqlar tillaridagi adabiyotlar fondlarini shakllantirish;

majburiy nusxa olish, obuna, sovg‘a qilish, sotib olish, kutubxonalararo va
xalqaro kitob almashish tizimini joriy etish, milliy va xorijiy onlayn va oflayn elektron
hujjatlari bilan jamlash, «egalik qilish» va «erkin foydalanish» o‘rtasida maqbul
muvozanatni yaratish va boshqalar hisobiga axborot-kutubxona muassasalarining
axborot-kutubxona fondlarini yangilash;

viloyat, tuman va shahar darajasidagi hududiy axborot-kutubxona
muassasalarining axborot-kutubxona fondlarini jamlash, kengaytirish, to‘ldirish uchun
ajratiladigan mablag‘larni o‘rtacha ikki barobarga oshirgan holda axborot-kutubxona

muassasalari fondiga turli xildagi tashuvchilar orqali yangi adabiyotlar kelishini ta'minlash;

nashrlarga ishlov berish va ularni qidirishni avtomatlashtirish tizimini joriy qilish orqali axborot-bibliografiya faoliyatini takomillashtirish;

yig'ma elektron kataloglar, to'liq matnli ma'lumotlar bazasini shakllantirish va axborot-kutubxona muassasalarining Internet tarmog'iga ulanishini ta'minlash;

uyali aloqa vositalari orqali foydalanuvchilarga taqdim etiladigan xizmatlarni kengaytirish bo'yicha kompleks tadbirlar ishlab chiqish, yaratilayotgan elektron resurslarda multimedia kontentlari ulushini oshirish va boshqalar;

axborot-kutubxona muassasalarida axborot-kutubxona fondlarini konservasiyalash, fondlar holati va ularning saqlanish sharoitlari monitoringi tizimini yaratish, saqlashning meyoriy tartiblarini ta'minlash;

hujjatlarni ommaviy konservasiyalash usullarini ishlab chiqish va rivojlantirish, konservasiya jarayonlariga eng yangi texnologiyalarni joriy etish, favqulodda vaziyatlar yuzaga kelish holatlari uchun harakatlarni rejalashtirish va ta'minlash;

axborot-kutubxona muassasalari va axborot-kutubxona fondlari xavfsizligini ta'minlash, axborot-kutubxona muassasalari va axborot-kutubxona fondlari xavfsizligi texnologiyasini tartibga soluvchi meyoriy-huquqiy va uslubiy bazani ishlab chiqish;

axborot-kutubxona fondlarini hisobga olish tizimini rivojlantirish, axborot-kutubxona muassasalari fondlaridagi barcha turdagi hujjatlarni hisobga olishni takomillashtirish, axborot-kutubxona muassasalari hujjatlarini hisobga olishning yagona tizimini yaratish, hisobga olish ma'lumotlariga ishlov berish va avtomatlashtirilgan tarzda ishlov berishni o'zaro integrasiyalovchi yangi texnologiyalarni joriy etish, hisob-statistika ko'rsatkichlari tizimini yaratish;

fondlar, kataloglarni saqlash va foydalanish, ularning lozim darajada ishlashi, shuningdek, foydalanuvchilarning xavfsiz va qulay tarzda muassasada bo'lishi uchun axborot-kutubxona muassasalarini zamonaviy uskunalar bilan ta'minlash.

2. Yangi axborot texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish, milliy axborot-kutubxona tarmog'ini yaratish:

yangi axborot texnologiyalarini jadal joriy etish, shaxsiy kompyuterlar parkini kengaytirish, lisenziyalangan dasturiy ta'minot xarid qilish hisobiga axborot-kutubxona muassasalari texnika bazasini mustahkamlash;

foydalanuvchilar uchun avtomatlashtirilgan o'rinlar sonini ko'paytirish;

fondlarni, jumladan o'lkashunoslik va noyob nashrlarni raqamlashtirish;

mamlakatimizning barcha aholisi hududiy, respublika va jahon axborot-resurslaridan masofadan turib foydalanishi uchun imkoniyat yaratish maqsadida axborot-kutubxona muassasalarini Internet tarmog'iga ulashni kengaytirish;

saytlar yaratish va axborot-kutubxona muassasalarining virtual makonda faol ishtirokini, aholiga virtual ma'lumot-kutubxona xizmatlarini ko'rsatishni ta'minlash;

mamlakatning axborot-kutubxona muassasalari axborot resurslaridan masofadan turib foydalanish imkoniyatini beruvchi yagona axborot-kutubxona portalini yaratish;

davlat va qo'shimcha xizmatlarini ko'rsatish doirasida axborot va bilimlardan foydalanishni ta'minlovchi mavjud zamonaviy raqobatbardosh texnologiyalarni takomillashtirish va yangilarini joriy qilish;

ilmiy tadqiqotlar va o'quv jarayonini axborot bilan qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, uyali aloqa vositalaridan foydalangan holda hujjatlarni elektron tarzda yetkazib berish va virtual ma'lumot xizmati tizimlarini modernizatsiyalash;

jamoaviy obunani kengaytirish va respublika axborot-kutubxona muassasalariga muntazam ravishda yillik obuna uchun mablag' ajratish;

axborot-kutubxona muassasalarining innovasion faoliyati va ularning innovasion infratuzilmasini rivojlantirish, aholi bilan samarali innovasion munosabatlar va muloqotni yo'lga qo'yish, yangiliklarni ishlab chiqish va innovasiyalarni amalga oshirish uchun investisiyalar, shu jumladan, xususiy investisiyalarni jalb qilish;

O'zbekiston Milliy kutubxonasi tomonidan turli ta'lim, ijtimoiy guruhlar, yosh toifalaridagi foydalanuvchilarga va nogironligi bo'lgan shaxslarga onlayn tarzda (24/7/365) taqdim qilinadigan elektron kataloglar, hujjatli resurslar va ko'rsatiladigan xizmatlardan foydalanishni kengaytirish imkonini beradigan xizmatlar yaratish;

axborot-kutubxona muassasalari foydalanuvchilarining axborot borasidagi bilimlarini oshirish, bolalar, o'smirlar va yoshlarga ta'lim xizmatlarini ko'rsatish orqali aholining media savodxonligini yuksaltirish va boshqalar;

3.Zamonaviy axborot-kutubxona texnologiyalari asosida axborot-kutubxona kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini rivojlantirish:

kutubxona xodimlarini axborot-kutubxonachilik ishini modernizasiya qilishning dolzarb yo'nalishlari bo'yicha muntazam ravishda qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish asosida ularga uzluksiz axborot-kutubxona ta'limini berish tizimini yaratish, axborot-kutubxona kadrlarini masofadan turib o'qitish tizimini joriy qilish va boshqalar;

axborot-kutubxona xodimlari malakasini oshirish bo'yicha doimiy faoliyat olib boruvchi kurslar tashkil qilish, ham talabalar, ham axborot-kutubxona xodimlarini masofadan turib o'qitish kurslarini rivojlantirish, o'qituvchi va assistentlarning xorijiy davlatlardagi yetakchi ilmiy tashkilotlarda (kutubxona fakultetlarida) stajirovka o'tashini tashkil qilish, axborot-kutubxonachilik ishi bo'yicha ilmiy maktablarni rivojlantirish va boshqalar;

kutubxonachilik ishi sohasida mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojni o'rganish asosida sohaga ixtisoslashgan oliy ta'lim muassasalarida «Kutubxona-axborot faoliyati» yo'nalishi bo'yicha qabul kvotalarini oshirish;

axborot-kutubxona hamjamiyatini kasbiy axborot bilan ta'minlash, yangi noshirlik texnologiyalaridan va axborot-kutubxona muassasalari fondidagi noyob hujjatlarning faksimillaridan foydalangan holda fundamental bibliografik qo'llanmalar nashr qilish, kataloglashtirish sohasida bir xil ishlar takrorlanishining oldini olishga va respublika axborot-kutubxona muassasalarida kataloglashtirish sarf-xarajatlarini kamaytirishga xizmat qiluvchi kooperasiyani amalga oshirish;

axborot-kutubxona xodimlarining malakasini oshirish, tajriba almashish bo'yicha xalqaro loyihalarda axborot-kutubxona muassasalarining ishtirokini kengaytirish va boshqalar.

4. Axborot-kutubxona xizmatlarining yangi turlarini, jumladan pulli xizmatlarni joriy qilish va rivojlantirish:

fuqarolar elektron axborot-resurslarni almashishi va ulardan erkin foydalanishi uchun yig'ma elektron katalogdan foydalanish imkoniyatini ta'minlash, korporativ axborot-kutubxona tarmoqlarini rivojlantirish;

kutubxonalararo abonementning imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish va hujjatlarni elektron tarzda yetkazib berish uchun shart-sharoit yaratish, yagona axborot muhitini yaratish, ta'lim va axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirish, axborot-kutubxona resurslari o'zaro hamkorligining yagona mexanizmini ishlab chiqish, mamlakatimizning yirik axborot-kutubxona resurslarini o'zida birlashtirgan yagona qidiruv tizimini yaratish.

5. Axborot-kutubxona muassasalari xodimlari samarali faoliyat ko'rsatishi va ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash uchun munosib sharoitlar yaratish:

axborot-kutubxona xodimlarining ijtimoiy himoyasini ta'minlash, ularning huquq va imtiyozlarini kengaytirish (uy-joy sotib olish uchun foizsiz kreditlar ajratish), axborot-kutubxona muassasalarining barcha toifalarida tarif razryadini oshirish evaziga yagona tarif setkasini modernizatsiyalash;

Xizmatchilarning asosiy lavozimlari va ishchilarning kasblari klassifikatori asosida sohaning bugungi ehtiyojlariga muvofiq ravishda axborot-kutubxona muassasalarining lavozimlari nomenklaturasini kengaytirishni ko'zda tutib, axborot-kutubxona muassasalari xodimlarining tarif-malakaviy tavsiflarini qayta ko'rib chiqish;

axborot-kutubxona muassasalarining normal rivojlanishini kafolatlaydigan mehnatga haq to'lash darajasini ta'minlash;

axborot-kutubxona muassasalari xodimlariga ko'p yillik ish staji uchun qo'shimcha haq to'lashni joriy etish;

kasbiy unvonlar va davlat mukofotlarini ta'xis etish;

«Kutubxona a'lochisi» ko'krak nishonini ta'xis etish.

6. Kutubxonalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash:

respublikaning barcha axborot-kutubxona muassasalarini to'liq xatlovdan o'tkazish;

axborot-kutubxona muassasalarining avariya holatidagi, ta'mirtalab bino va imoratlarini ta'mirlash hamda rekonstruksiya qilish;

axborot-kutubxona muassasalari uchun maxsus binolar qurish;

nogironiligi bo'lgan shaxslarga sifatli xizmat ko'rsatish uchun axborot-kutubxona muassasalarini zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlash;

tuman (shahar) axborot-kutubxona muassasalarini tashkil qilish, ularni zamonaviy asbob-uskunalar bilan ta'minlash uchun axborot-kutubxona muassasalarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish, shu jumladan yangi binolar qurish va mavjudlarini rekonstruksiya qilish.

7. Ilmiy-tadqiqot va uslubiy faoliyat:

axborot-kutubxona faoliyatining zamonaviy yo'nalishlari bo'yicha korporativ amaliy ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish;

axborot-kutubxona xizmatlarining yangi turlarini joriy qilish, axborot-kutubxona xizmatlari ko'rsatish tarmog'ini kengaytirish va boshqalar;

idoralararo asosda axborot-kutubxona muassasalari faoliyatining turli yo'nalishlari, shuningdek, MDH va xorijiy davlatlarning yirik axborot-kutubxona muassasalari bilan hamkorlikda zamonaviy raqobatbardosh axborot-kutubxona texnologiyalarini joriy etish bo'yicha ilmiy-tadqiqot va tashkiliy-uslubiy ishlarni olib borish;

ilmiy tadqiqot va ta'lim jarayonini axborot bilan qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish;

hujjatlarni elektron tarzda yetkazib berish tizimini modernizasiya qilish;

uslubiy qo'llanmalar, tavsiyalar, maslahat yordami ko'rsatish tizimini yaratish va takomillashtirish;

axborot-kutubxona muassasalarining innovasion faoliyati va ularning innovasion infratuzilmasini rivojlantirish, aholi bilan samarali innovasion munosabatlar va muloqotni yo'lga qo'yish, yangiliklarni ishlab chiqish va innovasiyalarni amalga oshirish uchun investisiyalar, shu jumladan, xususiy investisiyalarni jalb qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasi qoshida Axborot-kutubxona faoliyati bo‘yicha doktorlik va nomzodlik dissertasiyalarini himoya qilish kengashini tashkil qilish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

8. Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish:

ikki tomonlama kelishuvlar tuzish asosida xalqaro kutubxona hamjamiyati bilan hamkorlikni rivojlantirish, xalqaro forumlar va boshqa tadbirlarda ishtirok etish;

xalqaro kitob almashish, axborot resurslarini elektron tarzda almashish bo‘yicha hamkorlikning turli shakllarini rivojlantirish va joriy qilish;

yig‘ma elektron kataloglarni shakllantirish, ma’lumotlar banklarini tashkil qilish;

xalqaro loyihalarni amalga oshirishda ishtirok etish, kutubxonalararo abonementni (hujjatlarni elektron yetkazib berish) yo‘lga qo‘yish;

respublika, xalqaro konferensiyalar va seminarlar o‘tkazish hamda shu kabi xalqaro tadbirlarda ishtirok etish.

5-bob. Konsepsiyani amalga oshirish

Ushbu Konsepsiyani amalga oshirishning asosiy vositasi respublikada axborot-kutubxona faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqishni nazarda tutuvchi O‘zbekiston Respublikasida axborot-kutubxona sohasini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi (keyingi o‘rinlarda — Dastur) hisoblanadi.

Ushbu Konsepsiyani tijorat tashkilotlari, hamkorlar, shu jumladan xorijiy investorlarni jalb qilgan holda sohaga aloqador vazirliklar va idoralar, mahalliy ijro hokimiyati organlari bilan hamkorlikda respublika miqyosida amalga oshirish nazarda tutilgan.

Konsepsiyani amalga oshirishni muvofiqlashtirish kitob mahsulotlarini nashr qilish va tarqatish tizimini takomillashtirish, shuningdek, axborot-kutubxona faoliyati sohasi bo‘yicha maxsus vakolatli davlat organ-O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikasiyalar agentligi tomonidan olib boriladi.

Konsepsiya ikki bosqichda amalga oshiriladi:

Birinchi bosqichda (2019-2020 yillar) quyidagilar nazarda tutiladi:

hududiy axborot-kutubxona muassasalarini kelgusida xalqaro tizimlar bilan integrasiyalash uchun ularni yagona ma'lumotlar bazasiga ulash;

Milliy umumta'lim elektron kutubxona markazi to'g'risidagi nizomni ishlab chiqish va tasdiqlash;

sohaga ixtisoslashgan oliy ta'lim muassasalarida «Kutubxona-axborot faoliyati» yo'nalishi bo'yicha qabul kvotalarini oshirish;

zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalari asosida taqdim etilayotgan xizmatlar hajmining o'sib borishini hisobga olgan holda, Milliy kutubxonaning tashkiliy tuzilmasiga kiruvchi xodimlarning namunaviy shtatlari hamda Axborot-kutubxona markazi va kutubxona to'g'risida namunaviy nizomni ishlab chiqish va tasdiqlash;

2019-2024 yillarda O'zbekiston Respublikasida axborot-kutubxona sohasida, xususiy va raqamli (virtual) kutubxonalar tarmog'ida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash;

ta'mirtalab axborot-kutubxona muassasalarini ta'mirlash va rekonstruksiya qilish hamda ularning bino va imoratlarini qurish;

«Kutubxona a'lochisi» ko'krak nishonini ta'sis qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqish va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritish;

xatlov o'tkazish va uning natijalarini aniqlashtirish, tadbirlarni amalda ijro etish bo'yicha chora-tadbirlar tayyorlash va boshqalar.

Ikkinchi bosqichda (2021-2024 yillar) quyidagilar nazarda tutiladi:

tarqatish tizimini takomillashtirish uchun «Nashrlarning majburiy nusxasi to'g'risida»gi Qonunni ishlab chiqish va qabul qilish;

«Xalqaro nashrlar almashinuvi to'g'risida»gi Konvensiyani ratifikasiya qilish masalasini ko'rib chiqish;

MDH va xorijiy davlatlarning yetakchi tadqiqot markazlari bilan hamkorlikni faollashtirish;

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasi qoshida Kutubxonachilik ishi bo'yicha doktorlik va nomzodlik dissertasiyalarini himoya qilish bo'yicha ixtisoslashgan ilmiy kengash tashkil qilish;

resurslar almashinuvi va korporativ hamkorlik ishini avtomatlashtirish bo'yicha korporativ tarmoqni shakllantirish;

axborot-kutubxona faoliyati bo'yicha tarmoq standartlar, uslubiy qo'llanmalar va tavsiyalarni ishlab chiqish;

tuman (shahar) axborot-kutubxona muassasalarining faoliyatini tashkil qilish borasida davlat organlari va hokimliklar bilan hamkorlikda ishlash;

manfaatdor vazirliklar, idoralar, tashkilotlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, tumanlar (shaharlar) hokimliklari bilan hamkorlikda Konsepsiyani ro'yobga chiqarish bo'yicha tadbirlarni belgilab olish va amalga oshirish.

6-bob. Resurs ta'minoti

Resurs ta'minoti, shu jumladan Konsepsiyada belgilab berilgan tadbirlarni moliyalashtirish masalalari axborot-kutubxona muassasalariga ajratiladigan byudjet mablag'lari doirasida, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi huzuridagi Axborot-kutubxona muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi, kutubxonalarning xo'jalik faoliyatidan tushgan daromad qismi, homiylik, xorijiy investorlarning mablag'lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

7-bob. Kutilayotgan natijalar

Konsepsiyani amalga oshirish mamlakat axborot-kutubxona muassasalarining yanada rivojlanishi hamda axborot, madaniy-ma'rifiy makon doirasida ularning faoliyatini muvofiqlashtirishga xizmat qiluvchi yagona axborot-kutubxona tarmog'ini yaratishga imkon beradi.

Rejalashtirilgan tadbirlar natijasiga ko'ra, Konsepsiyani amalga oshirishning birinchi bosqichida quyidagilar kutilmoqda:

2020 yilga qadar respublikaning tuman va shaharlarida aholining 86,0 foizini qamrab oladigan 186 ta zamonaviy axborot-kutubxona markazini tashkil qilish;

2020 yilga qadar kutubxonalarning 10 foizini (21 ta) yagona ma'lumotlar interaktiv bazasiga ulash orqali O'zbekiston axborot-kutubxona markazlari hamkorligining yaxlit tizimini shakllantirishni boshlash;

elektron kitoblar fondini 1,2 million nusxagacha ko'paytirish;

14 ta xorijiy davlat bilan axborot-kutubxona faoliyati sohasidagi xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirish.

Ikkinchi bosqichda quyidagilar kutilmoqda:

respublikaning 207 ta kutubxonasini yagona ma'lumotlar interaktiv bazasiga ulashni yakunlash orqali O'zbekiston axborot-kutubxona markazlari hamkorligining yaxlit tizimini shakllantirish;

elektron kitoblar fondini 3,3 million nusxagacha ko'paytirish;

21 ta xorijiy davlat bilan axborot-kutubxona faoliyati sohasida hamkorlikni yanada rivojlantirish.

Bundan tashqari Konsepsiya:

madaniy, ta'lim va axborot infratuzilmasining asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida muhim ijtimoiy va kommunikativ vazifalarni bajaruvchi axborot-kutubxona muassasalariga mamlakatning iqtisodiy rivojiga munosib hissa qo'shish imkoniyatini yaratadi;

milliy manfaatlar va xalqaro tajribani hisobga olib axborot-kutubxona ishi sohasidagi qonunchilikni takomillashtirishga yordam beradi (bu esa axborot-kutubxona sohasi taraqqiyotining bugungi tendensiyalariga moslashish, shuningdek, axborot-kutubxona muassasalarining rivojlanishi va aholiga axborot-kutubxona xizmatlari ko'rsatishni kengaytirishga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishga imkon yaratadi);

axborot-kutubxona fondini jamlash, shu jumladan elektron va boshqa tashuvchi uskunalarga yig'ish tizimini yaratishga, kutubxona fondlarini saqlashni ta'minlaydi, yangi axborot texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish, milliy axborot-kutubxona tarmog'ini takomillashtirish va ixtisoslashgan ilmiy tadqiqotlar olib borishga, uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqishni faollashtirishga imkon beradi;

axborot-kutubxona sohasida kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini hamda axborot-kutubxona muassasalari xodimlarining samarali faoliyati, ularning ijtimoiy himoyasi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga ko'maklashadi;

barcha tizimlar va idoralarning axborot-kutubxona muassasalarini samarali muvofiqlashtirish va boshqarish, xalqaro hamkorlikni har tomonlama rivojlantirish, axborot-kutubxona muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidentining
2019 yil 7 iyundagi
PQ-4354-son qaroriga
2-ILOVA

2019-2024 yillarda O‘zbekiston Respublikasida
axborot-kutubxona sohasini rivojlantirish bo‘yicha

CHORA-TADBIRLAR DASTURI

T/r	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish shakli	Amalga oshirish muddatlari	Mas’ul ijrochilar
I. AXBOROT-KUTUBXONA SOHASINING NORMATIV-HUQUQIY BAZASINI TAKOMILLASHTIRISH				
1.	Milliy umumta’lim elektron kutubxona markazi to’g’risida nizomni ishlab chiqish va tasdiqlash.	Nizom	2019 yil 1 iyulga qadar	Axborot va ommaviy kommunikasiyalar agentligi, Axborot texnologiyalari va kommunikasiyalarini rivojlantirish vazirligi
2.	Zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalari asosida taqdim etilayotgan xizmatlar hajmining o’sib borishini hisobga olgan holda, Milliy kutubxonaning tashkiliy tuzilmasiga kiruvchi xodimlarning namunaviy shtatlari hamda Axborot-kutubxona markazi va	Idoraviy normativ hujjat	2019 yil 1 sentabrga qadar	Axborot va ommaviy kommunikasiyalar agentligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Moliya vazirligi

	kutubxona to'g'risida namunaviy nizomni ishlab chiqish va tasdiqlash.			
3.	"Kutubxona a'lochisi" ko'krak nishonini ta'sis etish to'g'risida takliflar ishlab chiqish va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	Vazirlar Mahkamasini qarori	2019 yil 1 oktabrga qadar	Axborot va ommaviy kommunikasiyalar agentligi, aloqador vazirlik va idoralar
4.	"Nashrlarning majburiy nusxasi to'g'risida" tegishli normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish.	Yozma ma'lumot	2021 yil 1 aprelga qadar	Axborot va ommaviy kommunikasiyalar agentligi, aloqador vazirlik va idoralar
5.	O'zbekiston Respublikasining Xalqaro nashrlar almashinuvi konvensiyasida (Parij sh., 05.12.1958 y.) ishtirok etishining maqsadga muvofiqligi haqida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga xulosa kiritish.	Yozma ma'lumot	2022 yil 1 iyulga qadar	Axborot va ommaviy kommunikasiyalar agentligi, Tashqi ishlar vazirligi, aloqador vazirlik va idoralar
II. INNOVATION FAOLIYAT VA AXBOROT-KUTUBXONA MUASSASALARINI OMMALASHTIRISH				
6.	Aholi o'rtasida kitobxonlik madaniyatini targ'ib etishga qaratilgan chora-tadbirlar rejalarini ishlab chiqish, tanlovlar, konferensiyalar o'tkazish, axborot-kutubxona muassasalari mutaxassislarining kasbiy darajasini oshirish.	Chora-tadbirlar rejasi	2019 yil 1 avgustdan doimiy ravishda	Axborot va ommaviy kommunikasiyalar agentligi, aloqador vazirlik va idoralar
7.	Resurslar almashish bo'yicha korporativ tarmoqni shakllantirish,	Chora-tadbirlar rejasi	2021 yil	Axborot va ommaviy kommunikasiyalar


	korporativ hamkorlik ishini avtomatlashtirish.		1 avgustga qada r	agentligi, Axborot texnologiyalari va kommunikasiyalarini rivojlantirish vazirligi, aloqador vazirlik va idoralar
8.	Davlat organlari va boshqa tashkilotlarda, shu jumladan harbiy qismlarda idoraviy kutubxonalarni tashkil etish (takomillashtirish). Idoraviy kutubxonalar, shuningdek, axborot-kutubxona markazlari kitob fondini yangilash va to'ldirish maqsadida Axborot va ommaviy kommunikasiyalar agentligining takliflari asosida zarur nashrlar ro'yxatini har yili 10 oktabrgacha shakllantirish.	Chora-tadbirlar rejasi	Doimiy asosda	Vazirlik va idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Axborot va ommaviy kommunikasiyalar agentligi
9.	2019-2024 yillarda O'zbekiston Respublikasida axborot-kutubxona sohasi, xususiy va raqamli (virtual) kutubxonalar tarmog'i bo'yicha davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash.	Dastur	2020 yil 1 avgustga qada r	Axborot va ommaviy kommunikasiyalar agentligi, aloqador vazirlik va idoralar
10.	MDH va xorijiy mamlakatlarning yetakchi tadqiqot markazlari bilan hamkorlikni faollashtirish.	Bitimlar	2021 yildan boshlab doimiy asosda	Axborot va ommaviy kommunikasiyalar agentligi, Tashqi ishlar vazirligi, Fanlar akademiyasi, aloqador vazirlik va idoralar
III. ILMYIY-TADQIQOT VA METODIK FAOLIYAT				

11.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasi qoshida kutubxona ishi bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun dissertasiyalar himoya qilish bo'yicha Kengash tashkil etishga oid takliflar ishlab chiqish.	Tarmoq oliy ta'lim muassasasi huzurida ilmiy kengash tashkil etish	2021 yil 1 dekabrga qadar	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Oliy attestasiya komissiyasi, Axborot va ommaviy kommunikasiyalar agentligi, Madaniyat vazirligi
12.	Axborot-kutubxona faoliyati bo'yicha tarmoq standartlari, metodik qo'llanmalar va tavsiyalar ishlab chiqish.	Idoraviy-normativ hujjat	2024 yil 31 dekabrga qadar	Axborot va ommaviy kommunikasiyalar agentligi, "O'zstandart" agentligi, aloqador vazirlik va idoralar
13.	Axborot-kutubxona muassasalarini rivojlantirish Konsepsiyasining amalga oshirilishini doimiy monitoring qilib borish.	Chora-tadbirlar dasturi	Har yili	Axborot va ommaviy kommunikasiyalar agentligi, aloqador vazirlik va idoralar
IV. AXBOROT-KUTUBXONA SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASH VA SOHA MUTAXASSISLARI MALAKASINI OSHIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH				
14.	Mazkur sohada mutaxassislariga bo'lgan talabni o'rganish asosida "Kutubxona-axborot faoliyati" yo'nalishi bo'yicha ixtisoslashgan oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalari bo'yicha takliflarni keyinchalik qaror qabul qilish uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	Yozma ma'lumot	2020 yil 1 fevralga qadar	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Madaniyat vazirligi, Axborot va ommaviy kommunikasiyalar agentligi, aloqador vazirlik va idoralar
15.	Oliy ta'lim muassasalarida xorijiy tajriba va texnologiyalarni o'rganish asosida o'quv jarayoniga kutubxona ishi bo'yicha yetakchi mutaxassislar va ekspertlarni	Chora-tadbirlar dasturi	2019 yil 1 iyulga qadar	Axborot va ommaviy kommunikasiyalar agentligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Madaniyat vazirligi

	jalb qilgan holda, axborot-kutubxona sohasi mutaxassislarining malakasini oshirish kurslarini tashkil etish.			
V. AXBOROT-KUTUBXONA MARKAZLARINING FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH VA MODDIY-TEXNIK BAZASINI MUSTAHKAMLASH				
16.	Axborot-kutubxona markazlari fondlari va moddiy-texnik bazasini to'liq xatlovdan o'tkazish.	Chora-tadbirlar dasturi	2020 yil 1 iyunga qadar	Axborot va ommaviy kommunikasiyalar agentligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari
17.	Toshkent viloyatining Nurafshon shahrida Toshkent viloyati "Turon" axborot-kutubxona markazi o'z faoliyatini to'laqonli amalga oshirishi uchun zarur bo'lgan bino ajratish.	Toshkent viloyati hokimi qarori	2020 yil 31 martga qadar	Toshkent viloyati hokimligi, Axborot va ommaviy kommunikasiyalar agentligi
18.	Hududiy kutubxonalarni keyinchalik xalqaro tizimlar bilan integrasiyalashuvini amalga oshirish uchun yagona ma'lumotlar bazasiga ulash.	Chora-tadbirlar rejasi	2019-2020 yillar	Axborot va ommaviy kommunikasiyalar agentligi, Axborot texnologiyalari va kommunikasiyalarini rivojlantirish vazirligi, aloqador vazirlik va idoralar
19.	Axborot-kutubxona muassasalarini ta'mirlash, zarur hollarda bino va inshootlar qurish.	Mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlari	2019-2020 yillar	Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari

20.	Axborot-kutubxona markazlari faoliyatini muvofiqlashtirish va tashkiliy-metodik ta'minlash.	Chora-tadbirlar rejasi	Har yili	Axborot va ommaviy kommunikasiyalar agentligi
21.	Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar axborot-kutubxona markazlariga jahon ilmiy-ta'lim axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini taqdim etish.	Chora-tadbirlar rejasi	Har yili	Axborot va ommaviy kommunikasiyalar agentligi
22.	Ko'zi ojizlar kutubxonalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, shu jumladan ularni maxsus kompyuter va boshqa texnika bilan jihozlashni nazarda tutuvchi chora-tadbirlarni ishlab chiqish va tasdiqlash.	Chora-tadbirlar rejasi	2019 yil 1 avgustga qada r	Madaniyat vazirligi, Axborot va ommaviy kommunikasiyalar agentligi


**Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy
kutubxonasi - axborot-resurs markazining
TASHKILY TUZILMASI**




**Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy
kutubxonasi - axborot-resurs markazining**

boshqaruv apparati

TUZILMASI





Xodimlarning umumiy cheklangan soni 227 nafar, shu jumladan boshqaruv xodimlari - 12nafar.

Texnik va yordamchi xodimlar soni amaldagi normativlarga muvofiq belgilanadi

"Xalq so'zi", 2019 yil 11 iyunъ

"O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami",

2019 yil 17 iyunъ, 24-son, 442-modda

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev SH.M. “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob halqimiz bilan birga quramiz”. T.: “O‘zbekiston”, 2017 y. – 485 bet.
2. Mirziyoyev SH.M. “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz”. 1 jild T.: “O‘zbekiston”, NMIU, 2017 y. – 592 bet.
3. Mirziyoyev SH.M. Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – halqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. (Prezident Mirziyoyev Shavkat Miromonovichning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasi). – “Halq so‘zi” gazetasi, 2017 yil, 4 avgust.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishi. “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatishni rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida” – “Halq so‘zi” gazetasi, 2017 yil. 13 yanvar^{БББ}.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Ma’naviy – ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida. – “Halq so‘zi” gazetasi, 2017 yil, 29 iyul^{БББ}.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Diniy – ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risida. – “Halq so‘zi” gazetasi, 2018 yil, 17 aprel^{БББ}.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Yoshlarni ma’naviy – ahloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim – tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora – tadbirlari to‘g‘risida. – “Xalq so‘zi” gazetasi, 2018 yil, 14 avgust.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. O‘zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida. – “Xalq so‘zi” gazetasi, 2019 yil, 7 iyun^{БББ}.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi kutubxona - axborot markazi faoliyatini tashkil etishning choralari to‘g‘risida”gi 1729 -sonli Qarori. 2012 yil 20 mart.

10. O‘zbekiston Respublikasining “Kutubxona-axborot faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni // Xalq so‘zi.-2011 yil 14 aprely.
11. Adabiy viktorinalar: (Savol-javob o‘yinlari). Metodik qo‘llanma / Tuzuvchi Z. Berdiyeva.-Toshkent,1989.-18 b.
12. Adabiy mutolaalar: Tayyorlash va o‘tkazish metodikasi /Tuzuvchi Berdiyeva Z.SH.- Toshkent,1987.-16 b.
13. Alimova O. Kutubxonashunoslik: 3 jildlik.-Toshkent: Ilm-ziyo, 2007.
14. Badiiy adabiyotlarni targ‘ib qilishning ommaviy usullari: Metodik qo‘llanma/Tuzuvchi Berdiyeva Z.SH.- Toshkent,1989.- 24 b.
15. Ivanova B. Fandrayzingu nujno uchitsya //Biblioteka.-2002.- № 2.- S. 26-28.
- 16.Imomnazarov M. Milliy ma’naviyatimiz nazariyasiga chizgilar.- Toshkent, Sharq,1998.-240 b.
17. Islomov E.,Yo‘ldoshev E. Maktab-lisey kutubxonasi ishini tashkil etish: o‘quv qo‘llanma.-Toshkent, O‘qituvchi, 1997.-127 b.
18. Islomov E.G.,Yo‘ldoshev E. Maktab kutubxonasi ishini tashkil etish: o‘quv qo‘llanma.- Toshkent,O‘qituvchi, 1992.-88 b.
19. Yo‘ldoshev E. Kutubxona va yosh foydalanuvchi: O‘quv qo‘llanma.- Toshkent, 2003.-200 b.
20. Yo‘ldoshev E. Kutubxona fondlarini tashkil etish: Akademik lisey, kasb-hunar qollejlari uchun o‘quv qo‘llanma /O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi markazi.-Toshkent: Ma’rifat-Madadkor”, 2002.-95 b.
- 21.Yo‘ldoshev E. Kutubxonada bolalar mutolaasiga rahbarlik qilish: O‘quv qo‘llanma /O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi markazi; Muharrir S. Mirzaahmedova.- Toshkent: O‘zbekiston, 2002.-127 b.
22. Kovalenko A. P., Umarov A. A., Rasulov M. M. Osnovi bibliotekovedeniya: Uchebnoye posobiye. Tashkent.: Izd. Nasionalnoy biblioteki Uzbekistana im. Alishera Navoi.-2008. 128 s.
- 23.Majirina YE., Ryabova Y. Konferensiya -eto forma uchebi //Biblioteka.- 2002.- № 12.-S.60-61.

24. Oxunjonov E. Vatan kutubxonachiligi tarixi.-1 qism: Qadimiyat, ilk oʻrta va oʻrta asrlar: Oʻquv qoʻllanma / Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat madaniyat in-ti.-Toshkent: Adolat,2004.-106 b.

25. Oxunjonov E. Vatan kutubxonachiligi tarixi.-2-qism:Darslik / Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat madaniyat in-ti;Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi; masʼul muharrir A.Umarov; Nashr uchun masʼul A.Toʻrayev.-Toshkent: Oʻzbekiston MK nashriyoti, 2008.-308 b.

26.Rahmatullayev M.A., Umarov A.O., Karimov U., Muhammadiyev A.SH. Avtomatlashtirilgan kutubxona. Toshkent.: Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti.-2003.266 b.

27. Qosimova O.Gʻ., Yesimov T. Umumiy kutubxonashunoslik: Darslik.-Toshkent: Oʻqituvchi,1994.-272 b.

28. Gʻaniyeva D. Taʼlim maqsadlarini amalga oshirishda kutubxona - axborot markazlarining roli / Toʻplovchilar: D. Gʻaniyeva, R I. Ratner, D.Akramova.-Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.-330

MUNDARIJA

Kirish	3
I Bob. Kutubxonashunoslik fani rivojlanishining asosiy bosqichlari.....	5
§ 1.1 Kutubxonashunoslikka oid ilk qarashlarning shakllanishi.....	6
§ 1.2 Kutubxonashunoslikning ilmiy va o‘quv fani sifatida paydo bo‘lishi hamda rivojlanishi (XIX asr).....	8
§ 1.3 XX asrda kutubxonashunoslikning rivojlanishi.....	14
I I Bob. Kutubxonashunoslikning mohiyati, vazifalari va tizimi.....	27
§ 2.1 Kutubxonashunoslikning fan sifatidagi mohiyati.....	27
§ 2.2 Kutubxonashunoslik fanining tuzilmasi.....	29
I I I Bob Kutubxonashunoslikning metodologiyasi va metodikasi.....	30
§ 3.1 Kutubxonashunoslikning metodologiyasi.....	30
§ 3.2 Kutubxonashunoslikning ilmiy metodikasi.....	34
§ 3.3 Kutubxonashunoslikka oid tadqiqotlarni tashkil etish.....	46
IV Bob. Kutubxonashunoslikning maqomi va uning fanlar tizimidagi o‘rni.....	47
§ 4.1 Ilmiy bilimlar tizimida kutubxonashunoslik maqomining umumiy tasnifi.....	47
§ 4.2 Kutubxonashunoslik va Kutubxona-bibliografik hamda axborot sohaslariga oid fanlar.....	48
§ 4.3 Kutubxonashunoslik va ijtimoiy fanlar.....	51
V Bob. Kutubxonalarning tarkibiy funksional tahlili.....	55
§ 5.1 Kutubxonaning tarkibiy tavsifi: asosiy elementlar va quyi tizimlar.....	55
§ 5.2 Hujjat.....	56
§ 5.3 Foydalanuvchi.....	57
§ 5.4 Kutubxonachi.....	57
§ 5.5 Moddiy-texnik baza.....	58
§ 5.6 Kutubxonaning boshqa elementlari.....	59
VI Bob. Kutubxonaning vazifa bajarishga oid tavsifi.....	59

§ 6.1 Kutubxona mavjudligining asosiy elementlari.....	60
§ 6.2 Tashqi muhit va qaytariluvchi aloqa.....	60
§ 6.3 Kutubxona-axborot faoliyati jarayoni.....	61
§ 6.4 Kutubxona-axborot faoliyatining natijasi.....	62
§ 6.5 Kutubxonaning tashkiliy tuzilmasi.....	63
VII Bob. Kutubxonalar tipologiyasi.....	64
§ 7.1 “Kutubxonalar tipologiyasi” tushunchasini ta’riflash.....	64
§ 7.2 Milliy kutubxonalar.....	66
§ 7.3 Axborot-kutubxona markazlari.....	69
§ 7.4 Maxsus kutubxonalar.....	70
§ 7.5 Maxsus kutubxonalarning tarmoq tabaqalanishi.....	72
§ 7.6 Maxsus kutubxonalarni tashkilotlarning faoliyat xususiyati bo‘yicha farqlash.....	73
VIII Bob. Kutubxonachilik kasbi.....	75
§ 8.1 Kutubxonachilik kasbi va kutubxonachi shaxsi.....	75
§ 8.2 Kutubxona faoliyatining jamoaviy xususiyati va kutubxonachilar faoliyatining ijodiy tabiati	77
§ 8.3 Kutubxonachining shaxsiga qo‘yiladigan umumiy kasbiy talablar.....	78
§ 8.4 Kutubxona faoliyatining va kutubxonachilik mutaxassisligi turlarining xilma- xilligi	80
IX Bob. Kutubxonachilik ishi ijtimoiy tizim sifatida	80
§ 9.1 Kutubxonachilik ishining tarkibi.....	80
§ 9.2 Kutubxonalar tarmog‘i kutubxonalar majmuasi sifatida.....	81
§ 9.3 Kutubxona tarmog‘i – boshqarishning tashkiliy birligi sifatida.....	81
§ 9.4 Hududiy belgi.....	81
§ 9.5 Kutubxonachilik ishining mavjudligi va tashkil etilishining asosiy tamoyillari.....	82
§ 9.6 Kutubxona xizmatining hamma uchun tengligi	82
§ 9.7 Foydalanuvchilar qiziqishlarining ustuvorligi.....	83
§ 9.8 Kutubxonachilik ishining tizimlilikligi.....	84

§ 9.9 Kutubxonachilik ishidagi ziddiyatlar va ularni hal etish yo‘llari.....	85
X Bob. Kutubxona-axborot muassasalarining turlari va ularning xususiyatlari.....	85
XI Bob. Foydalanuvchilarga kutubxona-axborot xizmati ko‘rsatish tamoyillari.....	120
§ 11.1 Foydalanuvchilarga kutubxona-axborot xizmati ko‘rsatishda ilmiylik tamoyili.....	121
§ 11.2 Foydalanuvchilarga kutubxona-axborot xizmati ko‘rsatishda tizimlilik tamoyili.....	126
§ 11.3 Foydalanuvchilarga kutubxona-axborot xizmati ko‘rsatishda majmuaviylik tamoyili.....	127
§ 11.4 Bosma nashr mahsulotlari, ma’lumotlar va axborotlardan foydalanishda ongli va faol munosabatni tarbiyalash tamoyili.....	128
§ 11.5 Kutubxona-axborot xizmati ko‘rsatishda foydalanuvchilarni o‘rganish asosida guruhlashtirilgan tarzda yondashuv tamoyili.....	129
§ 11.6 Foydalanuvchilarga kutubxona-axborot xizmati ko‘rsatishda ko‘rgazmalilik tamoyili.....	130
XII Bob. Kutubxona-axborot muassasalarida foydalanuvchilarga yakka tartibda xizmat ko‘rsatish.....	133
§ 12.1 Foydalanuvchilar bilan yakka tartibda suhbat o‘tkazish	137
§ 12.2 Foydalanuvchilarning qiziqishi, talab va ehtiyojlarini o‘rganish.....	140
§ 12.3 Foydalanuvchi formulyarini tahlil qilish.....	150
XIII Bob. Foydalanuvchilar bilan o‘tkaziladigan ommaviy ishlar, ularning maqsadi, vazifalari, turlari, xususiyatlari.....	153
XIV Bob. Kutubxona-axborot muassasalarida mutolaa madaniyatini shakllantirish	193
XV Bob. Kutubxona boshqaruvi (menejmenti): asosiy tushunchalari va kategoriyalari.....	197
§ 15.1 Kutubxona boshqaruvi (menejment) tushunchasi.....	197
§ 15.2 Kutubxonachilik ishini boshqarishning davlat tizimi.....	198

§ 15.3 Kutubxona-axborot faoliyati marketingi.....	201
XVI Bob. Kutubxona-axborot muassasasining turiga ko‘ra tarkibiy bo‘linmalari, ularning vazifalari va o‘zaro aloqasi	203
XVII Bob. Qadimgi dunyo kutubxonalari	227
XVIII Bob. O‘zbekistonda kutubxonachilik ishi tarixi faniga kirish	235
XIX Bob. O‘zbekiston hududida arablar istilyosiga qadar vujudga kelgan yozuv, dastlabki kitob va kutubxonalar	237
XX Bob. O‘rta Osiyoning qadimgi kutubxonalari	240
XXI Bob. O‘rta Osiyoda bibliografiyaning paydo bo‘lishi.....	243
XXII Bob. Amir Temur va Temuriylar davrida madaniy hayot va kutubxonalar.....	250
XXIII Bob. Shayboniylar hukmdorligi davrida kutubxonalar.....	268
XXIV Bob. XVIII- XIX asrlarda Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonliklarida madaniy hayot va kutubxonalar.....	272
XXV Bob. XVIII- XIX asrlarda o‘zbek xonliklarida kitob savdosi.....	289
XXVI Bob. Sharq qo‘lyozma kitoblarini to‘plash va saqlashda Turkistondagi mahalliy muassasalar va olimlarning roli.....	293
XXVII Bob. Ilk o‘rta asrlarda (V-VI) Sharq davlatlari kutubxonalari	315
XXVIII Bob. Germaniya davlati kutubxonalari.....	306
XXIX Bob. AQSH kutubxonalari.....	308
XXX Bob. Buyuk Britaniya kutubxonalari.....	309
XXXI Bob. Fransiya kutubxonalari.....	311
XXXII Bob. Xitoy milliy kutubxonalari	313
XXXIII Bob. Rossiya Federasiyasining yirik kutubxonalari.....	313
Hulosa.....	317
Foydalanilgan adabiyotlar.....	319
Ilovalar.....	326